

SEVARA MAHMUDOVA

**JAHON
ADABIYOTI**

UHB 113
OBR 113
10 24

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT
ISHLARI VAZIRLIGI**

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI

SEVARA MAHMUDOVA

JAHON ADABIYOTI

(o'quv-uslubiy qo'llanma)

Toshkent - 2018

1533 (c)

UDK: 8.391
BBK: 83.3(0)3
M-37

Mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma jahon adabiyoti fani bo'yicha tuzilib, unda antik davrdan to XX asrgacha bo'lgan davrlar jahon adabiyotiga doir ma'lumotlar berilgan. O'quv-uslubiy qo'llanmaning maqsadi talabalarni jahon adabiyotining mumtoz namunalari, turli adabiy oqim va uslublarda ijod qilgan adiblar hayoti va ijodi, ularning asarlarida ilgari surilgan g'oyalar bilan tanishtirishdir.

Xorijiy mamlakatlar adabiyoti bo'yicha manbalar juda katta hajmda bo'lib, mazkur qo'llanmada eng ilg'or, taraqqiyparvar yozuvchilar ijodi aks etgan.

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma san'at va madaniyat instituti ta'limi uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchi:

Sevara Mahmudova
O'zDSMI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi,

Taqrizchilar:

Latofat Toshmuhamedova
O'zZMU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi,

Hamdam Ismoilov
O'zDSMI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi,

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Ilmiy kengashining 2017-yil noyabridagi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

SO'ZBOSHI

Biz shiddat bilan rivojlanayotgan davrda yashamoqdamiz. Axborot texnologiyalarining jadal taraqqiy etishi, xususan internet tizimining har bir xomdonga kirib kelishi insonlar axborot olishlarini osonlashtirishi barobarida uzluksiz xabarlar ummonida esankirash holatlarini ham keltirib chiqarmoqda. Mana shunday vaziyatda talaba-yoshlarni o'z sohasi bo'yicha zarur bilim olishga bo'lgan ehtiyojini qondirish dolzarb masala hisoblanadi. Bu borada fan va sohalar bo'yicha zamonaviy talablarga javob beradigan darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish hamda ulardan o'quv jarayonida unumli va maqsadli foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda adabiyotni o'rganish bo'yicha darslik yoki uslubiy qo'llanma yaratish birmuncha murakkab ish hisoblanadi. Adabiyot bo'yicha har qanday darslikning asosini tashkil etadigan yozuvchi va shoirlar hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlarni, adabiyotshunoslik bo'yicha nazariy bilimlarni berish, asarlarni tahlil qilish bir qarashda har bir adabiyotshunos uddalashi mumkin bo'lgan ish bo'lib tuyulishi mumkin. Biroq kitobxonlik darajasi bir oz susaygan davrda adabiyotni "targ'ib etish", so'z san'atining sehrli olamiga o'quvchini oshno qilish mutaxassislardan o'z vazifasiga jiddiy yondashishni talab etadi.

Har bir inson ona tilida yaratilgan adabiyotni yaxshi bilmog'i lozim. Lekin ma'naviy yetuklikka intiluvchi kishi uchun bu — chegara emas. Jahon adabiyotining nodir namunalaridan bahramand bo'lish o'quvchi tafakkuri va dunyoqarashini boyitish bilan birga o'z adabiyotini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Jahon adabiyoti bo'yicha o'zbek tilida nashr etilgan darslik, qo'llanma yoki majmualar ko'p emas. Uzoq yillar davomida A.Alimuhamedovning "Antik adabiyot tarixi", Q.Azizov, O.Qayumovning "Chet el adabiyoti tarixi" darsliklari filolog talabalar uchun asosiy o'quv manba bo'lib keldi. Ijtimoiy-siyosiy sohadagi evrilishlar tarixga, xususan adabiyot tarixiga haqqoniy baho berish talabini qo'ydi. Ushbu o'quv uslubiy qo'llanma jahon adabiyoti fanidan qo'llanmalarga ehtiyoj mavjudligi yuzasidan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti ta'limi uchun tuzildi. Qo'llanma oliy ta'limning nofilologik mutaxassisliklaridagi jahon adabiyoti fani bo'yicha o'zbek tilidagi darslik va qo'llanmalar taqchilligini oz bo'lsa-da yengishga yordam berishi mumkin. Qo'llanmani tuzishda yuqorida sanab o'tilgan darsliklardan unumli foydalanildi.

Jahon adabiyoti fani O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida bakalavriat ta'limida ikki semestr mobaynida o'qitiladi. Mashg'ulotlar ma'ruza, seminar shaklida bo'lib, mustaqil ta'lim soatlari ham katta hajmni tashkil etadi. San'at va madaniyat ta'limi uchun tuzilgan fanning namunaviy o'quv dasturida "Jahon adabiyoti" kursi ma'ruza va seminar mashg'ulotlariga 36 soatdan 72 soatgacha vaqt ajratilgan. Oliy o'quv yurtlaridagi adabiyot bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarning asosiy maqsadi talabalaridagi bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash bilan birga ularda badiiy asarni mustaqil tahlil qilish malakasini shakllantirishdan iborat. Bu borada jahon adabiyoti bo'yicha olib boriladigan amaliy mashg'ulotlar muhim o'rin tutadi. Ushbu mashg'ulotlar orqali xorij adabiy

jarayonining asosiy xususiyatlarini o'zlashtirish hamda ularni o'zbek adabiyoti bilan qiyosiy planda tahlil qilish imkoniyati kengayadi

Jahon adabiyoti fani jahon adabiyotining antik davrdan to hozirgi kungacha bo'lgan barcha davrlarini o'rganishni o'z ichiga oladi. Fanni o'zlashtirishda ma'ruza va seminar mashg'ulotlari tizimi adabiy jarayonning nazariy qonuniyatlari o'rganishni vazifa qilib olish bilan birga badiiy asarlarini ham alohida tahlil qilish, uning badiiy xususiyatlarini o'rganish ko'nikmasini ham shakllantiradi.

KIRISH. JAHON ADABIYOTI FANINING OBYEKTI, MAQSADI VA VAZIFALARI

1. *Jahon adabiyoti fanining o'rganish obekti;*
2. *Fanning maqsadi va vazifalari*
3. *Jahon adabiyoti fanini o'rganishning bugungi kundagi ahamiyati;*
4. *Globalashuvning jahon adabiyotiga ta'siri.*

Jahon adabiyoti fani dasturi asosida yaratilgan ushbu o'quv uslubiy qo'llanma dunyo adabiyotining ilk davridan XXI asrgacha bo'lgan – antik, o'rta asrlar va uyg'onish davri, klassitsizm, romantizm, tanqidiy realizm, naturalizm, modernizm adabiyotlarini o'z ichiga oladi. Fanning maqsadi mazkur davr va oqimlarga mansub adiblar, ularning asarlarida ilgari surilgan g'oyalar va uslublar bilan tanishtirishdir.

Jahon adabiyoti fanini o'qitishdan maqsad talabalarda jahon adabiyoti va uning eng e'tiborga loyiq namunalari haqida tasavvur hosil qilish, adabiyot va jamiyat taraqqiyotining uzviy bog'liqligini, ijodkorlarning shaxs o'zligini va jamiyatda tutgan o'rni anglashga bo'lgan intilishini uning asarlari yordamida tushumshga o'rgatishdir.

Fanning maqsadi va vazifalari:

1. Talabalarda ular o'rganayotgan tarixiy davrlar, adabiy jarayonning o'ziga xosligi, madaniy falsafiy qarashlarning adabiyotga ta'siri haqida tasavvur hosil qilish;
2. Jahon adabiyotining turli taraqqiyot bosqichlarida yuzaga kelgan adabiy oqim va yo'nalishlarni badiiy asarlar misolida o'rganish;
3. Jahon adabiyotining eng e'tiborga loyiq, ma'naviy, ma'rifiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega, milliy va umuminsoniy qadriyatlar haqida fikr yuritilgan namunalari tahlil qilish va ularning jahon adabiy jarayonidagi o'rni aniqlab olish.

Bugun O'zbekistonni - azaldan kitob va kitobxonlar yurti bo'lgan tabarruk diyorni yana tom ma'noda ziyoli mamlakatga aylantirish ustuvor siyosat bo'lib qoldi. Yaqinda "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV Qurultoyida mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yurtimiz yoshlarining jismoniy va ma'naviy yetukligi borasida so'z yuritarkan ekan "biz farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o'tgan, yuksak ma'naviyat xazinasi bo'lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas, balki qandaydir shubhali, zararli axborotlar asosida shakllanishiga beparvo qarab turolmaymiz", deb ta'kidladi. Darhaqiqat, bu fikrlar O'zbekistonning Mustaqillikka erishgan ilk davrlaridan to hozirga qadar davlat siyosatining eng muhim masalasi bo'lib kelayapti.

Usto, adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov buyuk olmon adibi Herman Hesse'ning "Jahon adabiyoti kutubxonasi" esesini tarjima qilib, "Jahon adabiyoti" jurnalida chop ettirarkan ekan, uning quyidagi fikrlarini adabiyot ta'limi uchun konseptual-metodologik asos sifatida belgilaydi:

"Ta'limga, ya'ni ma'naviy va ruhiy barkamollikka intilish allaqanday mahdud bo'lmagan olib boradigan iztirobli yo'l emas, balki ongimizning kengayishini

mustahkamlaydigan quvonchli hodisadir. Chinakam ta'lim ham chinakam madaniyat kabi bir vaqtning o'zida ham istaklarning ro'yobga chiqishi, ham yangi intilishlarga turtkidir. U cheksizlik sari sayohatdir, koinot sari uyg'unlikdir, vaqtdan tashqari bo'lish ishtiyoqidir. Ana shunday ta'limga olib boradiganlar ichida eng muhimi – jahon adabiyotini o'rganishdir, ko'pgina xalqlarning yozuvchilari va mutafakkirlari asarlari ichida bizga o'tmishdan tuhfa bo'lib qolgan fikrlar, hikmatlar, tajriba, ramzlar, xayollar va a'mollarning hududsiz xazinasini izchillik bilan bobma-bob o'zlashtirishdir. Bu yo'l nihoyasizdir...

O'qishdan maqsad hayotning jamiki ranglari va jilolari qalbingda aks-sado bermog'iga erishmoq, insoniyat yuragining tepishiga hamohang bo'lmoqdir. Kitob o'qish bizni ataladai suyultirib yubormasligi, balki safarbar qilmog'i lozim, bizning kallamizni hayot to'g'risidagi bo'lar-bo'lmas ikir-chikirlarga, ma'nosiz gaplarga to'ldirib tashlamog'i, bizni soxta taskinlar bilan ovutmog'i kerak emas, balki aksincha, hayotimizga yanada yuksakroq, yanada to'laroq ma'no baxsh etmog'i lozim? ("Jahon adiblari adabiyot haqida" Toshkent 2010, 3-5 betlar)

Shu ma'noda fanni o'rganish davomida o'tmish adabiyot-ku ma'lum, ammo bugungi adabiyot qay ahvolda, uning mavzulari, meyoru sarhadlari qanday, yo'l-ustublari, vositalari qanaqa, ta'sir doirasi, mavjudlik hududlari qayerda kabi qator savollar tug'ilishi tabiiy.

Ulug' Gyotening "har bir san'at asarida, xoh katta yo kichik bo'lsin, barcha voqealar mohiyatga borib taqaladi" degan fikrini xotirga olib aytadigan bo'lsak, bizga ayon haqiqatlar shuki, antik dunyodagi ulug' Gomerdan boshlab adabiyot "Odissey" va "Iliada"lar misolida insoniyat ilk madaniy davri kechmishlarining badiiy solnomalari o'laroq, epik badiiy tafakkurning mahobati bilan hayratlar uyg'otdi. Undan Yunon va Rim adabiyotining benazir adabiy yodgorliklari – mif, afsona, she'r, doston, dramalari vositasida insoniy ehtirolarning qudratini namoyon etdi.

O'rta asrlar hashariyatning Renessans otlig' Uyg'onish pailalarida inson barcha yuksakligu qabohati bilan tarix maydonlariga chiqib, u ne holga tushmasin, muruvvatu insonsevarlik bilan olam va odam davom etmog'i, umrguzaronlikning ma'naviyatga yo'g'rilgan yuksak ko'rinishlarida ulug'lashib bormog'i lozimligidan naql etuvchi roman, drama, dostonlar shodalari dunyoga keldi. Uyg'omish o'z ortidan ma'rifatga bo'lgan cheksiz ishtiyoqni paydo etdi, insoniyat o'z najotini ma'rifatda ko'rdi. Tabiiyki, ma'rifatli jamiyat va ma'rifatli, o'qimishli inson g'oyasi adabiyot va san'atning belgilovchi yo'nalishi bo'lib qoldi.

XIX va XX yuz yilliklarning qiyofasi mamlakatlar va jamiyatlarning dunyoparastlik kayfiyatidagi yovuzlashuv mohiyatini namoyon etgan va sbunga qarshi kurashgan uyg'oq, iztirobli adabiy namunalari bilan ustuvor xususiyatini namoyon etdi. Adolat, haqiqat, ruhoniyyat, ya'niki bori ma'naviy aqidalarni yemirib bo'lmasligi, inson hayvoniy mohiyatiga qaytib qolmasligi xavotirlari bu yuz yilliklar adabiy-badiiy tafakkurining tadriji bo'ldi. Ayni chog'da qaydir go'shalarda ma'naviy-axloqiy aqidalarning tanazzuli ruhiy bo'shliq kayfiyatlarining kuchayishiga, hayot, yashamoq bu mavjudlik va be'manilikdir degan tushkun tuyg'ularga yetakladi. Qayerlardadir soxta aqidalarga ko'r-ko'rona ergashish tizgimsiz ehtirolarni olovlantirib, vayronkor inqiloblarga olib kelgan bo'lsa, qaylardadir inson uzlatga chekinib, o'zi bilan o'zi andarmon hayotdan bezdi va undan sun'iy ravishda

uzulish, yo'q bo'lish mayllarini badiiy so'z qatlariga jo etdi. Adabiyot hayotni tasdiqlash emas, balki uni inkor etish yo'llarida kezindi.

Bora-bora XXI asrga o'ta borib jahondagi adabiyot, san'at ikki tusda o'zini yaqqolroq namoyon eta boshladi: xudbinlashgan tafakkuru fe'l-tabiati hamda yolg'on aqidalarga ko'r-ko'rona sajda qilib yotgan ijodkorlik. Hozirgi jahon adabiyotida ochiq ko'rinayotgan ana shu yoqimsiz manzara insoniyatni giyohvandlik, terrorism, fahsh, yalang'ochlik, "olomon madaniyati" kabi turfa tubanliklar aks etgan shou tomoshalar dunyosiga olib kirib, uni ma'nani karaxt ahvolga solib qo'yayapti. To'g'ri, bundan butkul farqli, unga zid sog'lom kuch va adabiyot ham bor, shubhasiz. Ammo bu kuch tobora zaiflashib borayotgandek taassurot uyg'otadi. Adabiyotning, san'atning sog'lom safarbarlik, hushyor nigoh, nekbini tuyg'ular tarhiyalovchisi bo'lib kelgan bir necha ming yillik tus-qiyofa va an'analarini shubha ostiga qo'yayotgandek tuyuladi.

Shu o'rinda garchi ancha avvalroq aytilgan bo'lsa-da, buyuk olmon faylasufi Hegelning "Dunyo tarixi Sharqdan G'arbga qarab boshlanadi, chunki Yevropa dunyo tarixining intihosi, Osiyo esa ibtidosidir" degan umidbaxsh fikrlari xaloskor shabboda kabi yodga tushadi va uni eslatg'ing kelaveradi.

Bugungi kunda jahon adabiyoti bizning izlanish va intilishlarimizga tashxis qo'yib, munosabat bildirish bilan birga zamonaviy jahon adabiyotining manzaralari, yo'nalishlari borasida fikrlar maydoni bo'lmog'i kerak. Bu, o'z navbatida, bugungi global dunyo manzaralarida o'z yo'limizni to'g'ri, ma'qul bir shaklda davom ettirishimiz, ayni chog'da milliy o'zbek adabiyotining buguni va ertangi abvoli, rivoji uchun o'ta muhimdir. O'zbek adabiyoti katta adabiyot, buyuk adabiyot. Uning ulug'lari bor, buyuklari ko'p. U hamisha xalq bilan birga, xalqning dili va tili bo'lib kelgan. Zamonu tuzumlar o'zgarishi, turli evrilishlar, albatta, beziyon, beiz o'tmaydi. Garchi yo'l-yo'rig' imiz aniq bo'lsa-da, vaqti-vaqti bilan uni taftish etib turish keyingi taraqqiyot uchun muhim omil. Shu ma'noda bugungi murakkab global dunyoga chuqur kirib borayotgan o'zbek adabiyoti qay yo'l-yo'nalishni tanlaydi, ya'ni faqat o'z istaklarining hukmronligini ma'qul biladigan xudparast inson uchun kurashadimi yoki qandaydir g'alati, chuchmal g'oya va aqidalarning, shamol oqimiga qarab o'zgaruvchi kayfiyatlarining maddohi-dastyoriga aylanadimi, yoki bo'lmasa, mamlakat va jamiyatning yorug' mash'ali, tafakkurning, ma'naviyatning yalovbardori bo'ladimi, degan savollarni qo'yib, unga aniq javoblar berishimiz, nimalardan ibratlanib, qanday badiiy asarlarni o'qishni belgilashimiz uchun mazkur fan ta'limining ahamiyati katta.

ANTIK DAVR ADABIYOT

YUNON ADABIYOTINING ENG QADIMGI DAVRI

REJA:

1. Yunon mifologiyasi.
2. Mif va badiiy adabiyot.
3. Homer dostonlari.
4. Turkum dostonlar.
5. Homer gimnlari.
6. Hesiod ijodi.
7. Yunon lirikasining turlari.

Mavzuga oid tayanch soʻz va iboralar:

Antik adabiyot. Yunon va Rim adabiyoti. Mifologiya. Folklor. Didaktik epos. Lirik. Tragediya. Komediya. Nasr. Homer eposlari. "Iliada". "Odiseya". Troya urushi afsonalari. Homer jumbogʻi. Hesiod "Mehnat va kunlar" dostoni. Lirik. Gekzometr. Transpozitsiya. Maʼbud va maʼbudalar. Gipoteza.

Qadim-qadim zamonlar, taxminan bundan 2700-2800 yillar muqaddam, Yevropa tuprogʻida kichkina mamlakatlardan biri – Yunonistonda (Gretsiya) yozma badiiy ijodning dastlabki namunalarini yuzaga kela boshladi. Yunonistonda tugʻilib, keyinchalik yuksak kamolot bosqichiga koʻtarilgan bu adabiyot eramizdan avvalgi III asrda Rim madaniyatining barpo etilishida, tarkib topishida ham katta oʻrin tutdi. Yer yuzidagi ana shu ikki xalq yaratgan madaniyat, sanʼat va adabiyot antik madaniyat, antik adabiyot deb ataladi. Lotin tilidagi antik soʻzining lugʻaviy maʼnosi "qadimgi" demakdir.

Lekin bu atamaning yunon-rim adabiyotlarigagina tadbiiq etilishi unchalik toʻgʻri emas, chunki madaniyatning asl beshigi Sharq mamlakatlari boʻlgan. Dastlabki adabiyot yodgorliklari oldin Misr, Eron, Xitoy, Hindiston, Bobil (Vavilon) kabi mamlakatlarda yaratilgan. Binobarin, Yunon-Rim jamiyati, sanʼati va adabiyotiga nisbatan qoʻllanilib kelinayotgan "antik" soʻzini faqat Yevropaga tadbiiqan anglamoq darkor, negaki, Yevropa xalqlari oʻzlarining madaniy taraqqiyotlari yoʻlida yolgʻiz yunon-rim madaniyati bilan aloqador boʻlganliklari sababli, shu xalqlar bunyod etgan maʼnaviy boylklarni eng qadimiy deb taniganlar. Yunon xalqi inson ongi yetishtirishi mumkin boʻlgan barcha maʼnaviy ozuqalar urugʻini oʻz qoʻli bilan sohib, undan moʻl hosil undirdi. Hozirgi zamon adabiyoti olamida mavjud boʻlgan badiiy shakllarning koʻpi, uslubiy vositalari shu xalqning kashfiyotidir.

Manbalarning guvohlik berishiga qaraganda "Oʻrta Osiyo bilan Yunoniston oʻrtasidagi iqtisodiy-madaniy aloqalar juda qadim zamonlardan boshlanadi". Ellin madaniyati Oʻrta Osiyo madaniyatining rivojiga anchagina salmoqli taʼsir etdi. Selevkidlar va Yunon Baqtriya hukmronligi davrida Oʻrta Osiyo, Eron va boshqa

oʻlkalar aholisining faol ishtirokida sharqiy ellinizm madaniyati vujudga keldi, u yunon madaniyatini bam boyitdi, uning gullab-yashnashiga samarali taʼsir etdi. Aleksandr Makedonskiy istilosidan keyin yunon yozuvi ham tarqala boshladi.

Maʼlumki, VIII asrning dastlabki yillarida boshlangan arab istilosi natijasida Oʻrta Osiyoning bir davrlar gullab-yashnagan ilm-fan oʻchoqlari vayron etilgan edi.

Ana shu jaholat toʻfonida qanchadan-qancha noyob adabiy yodgorliklarimiz, tarixiy asarlarimiz yoʻqolib ketgan. Biz hozirgi zamonada yurtimizning ming-ming yillik tarixini tamomila yoʻqolib ketgan baʼzi bir adabiy asarlarimiz ("Toʻmaris", "Shiroq", "Zarina va Striangiya", "Zariadr va Odatida" dostonlari) izlarini antik zamonada oʻtgan yunon-rim tarixchilari (Herodot, Polien, Diador, Kteziy, Xares) asarlaridan topib olamiz.

Sharq va Gʻarb olamining yunon ilmi fani, ayniqsa, yunon falsafasi bilan tamishtirish borasida Forobiyning xizmatlari nihoyatda buyukdir. Bir qancha Sharq va Yevropa tillari qatori yunon tilini ham mukammal bilgan bu salohiyatli olim, fanning turli-tuman sohalariga doir noyob original asarlar yozish bilan birga Arastuning "Metafizika", "Fizika", "Meterologiya" va boshqa asarlariga chuqur tafsirlar yozdi va ularni sharhlab chiqdi.

Qadimgi zamon yozuvchilari asarlarining jozibasi yolgʻiz ularning nozik latofatida, yuksak badiiy mahoratida boʻlgan emas. Antik adabiyot shu adabiyotni yaratgan xalqning his-tuygʻulari va orzu-umidlarining ifodasi ham boʻlgan. Yunon-rim xalqlari oʻzlarining badiiy ijodlarida insoniyatning asriy muammolarini yechishga uringanlar, ular botirlik jasoratini, kurash ishtiyoqini, vatan mehrini, insonning qudratini kuylaganlar, ulugʻlaganlar: pastkashlik, qoʻrqoqlik, sotqinlik va shu kabi birkirin illatlarga nafrat koʻzi bilan qaraganlar. Shuning uchun ham bu xalqlarning uzoq oʻtmishida yaratilgan asarlari hanuz hammaga manzur va maʼqul boʻlib kelmoqda.

Antik davr jami 1300 yilni qamrab olib, mutaxassislar tomonidan quyidagicha bosqichlarga boʻlib oʻrganilgan:

1. Klassikagacha boʻlgan davr (eng qadimdan mil.avv. VII asrgacha);
2. Klassik davr (mil.avv. VII asrdan IV asrgacha);
3. Ellin-Rim davri (mil.avv. III asrdan V asrgacha).

Yunon adabiyoti ilk yozma obidalari miloddan avvalgi VIII asrga, Rim adabiyoti yozma obidalari miloddan avvalgi III asrga mansub.

Qadimgi Yunoniston adabiyoti esa oʻz navbatida quyidagi davrlarga boʻlib oʻrganiladi:

1. Eng qadimgi davr (qadimdan mil.avv. VI asrgacha);
2. Attika davri (mil.avv. III-I asrlar);
3. Ellinizm davri (mil.avv. III-I asrlar);
4. Rim hukmronligi davri (milodiy I-V asrlar).

Yunon yozma adabiyotining bizga qadar yetib kelgan eng qadimgi yagona namunalarini "Iliada" hamda "Odiseya" dostonlaridir.

"Iliada" va "Odiseya" kabi yuksak badiiy asarlar ham uzoq muddatli adabiy hurakatning davomi, uning yetuk mahsuli oʻlaroq maydonga kelgan. "Odiseya" dostonida botirlik haqida doston aytib, ziyofat ahllarini rom qilgan Demodok kabi

ajoyib baxshilar – rapsodlarni uchramiz. Ehtimol, bularning kuylarida Homerdan oldin o'tgan shoirlarning san'ati tarannum etilgandir. Bundan tashqari Aflotun, Herodot kabi mo'tabar zotlar va shu zamonning ba'zi yozuvchilari Homerdan ilgari Orfey degan nihoyatda dilbar shoir o'tganligini xabar qiladilar. Biroq tarix sahifalarida bu shoirning go'zal navolari haqidagi afsonaviy rivoyatlardan boshqa bironta ham misra saqlanib qolmagan. Ushbu rivoyatlarda hikoya qilinishicha, Orfeyning qo'shiqlari hatto yirtqich hayvonlarni ham maftun etar, daryolarning oqishini to'xtatib qo'yar, tog'u toshlarni tebratar, daraxtlarni harakatga keltirar ekan: go'yo shoir o'z yori ko'yida bir marta narigi dunyoga borib mungli taronalar bilan u yerdagi beqiyos ma'budlarning ham dillarini vayron etgan emish.

Yunon xalqi o'rtasida tarqalgan rivoyatlarda Orfeydan tashqari yana hir qancha shoirlar – Muze, Evmolp, Tamir, Olen va boshqalar tiiga olinadi. Yunon xalqlari va uning adabiyoti umumiy vatanlari – Ellada uchun, uning hududlariga kiruvchi Afina, Ahdera, Korinf, Rodos, Delos, Lakedemon, Krit, Millet, Mitilena, Leant, Kipr, Kirena, Elida, Xalkida, Fiva, Efes, Tarent, Sitsiliya kabi vataniy zaminlar uchun masbaqqatli va qahramonona kurash jarayonida shakllandi. Mana shu ijtimoiy taraqqiyot davomida Ellada zaminida Homer, Hesiod, Demosfen, Diohen, Zenon, Anaksagor, Suqrot, Aflotun, Arastu, Epikur, Lukretsiy, Ezop, Aristofan, Esxil, Sofokl, Evripid, Pindar kabi faylasuflar, tabiatshunos va ruhshunos olimlar, shoir va dramaturglar yetishib chiqdi-ki, bularning ijodiy merosi hali-hanuz o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

YUNON MIFOLOGIYASI

Ma'lumki, jamoaning ijod samarasi o'laroq maydonga kelgan ibtidoiy jamiyat og'zaki adabiyoti, shu jamiyat kishilarining tabiat haqidagi tushunchalarini ifoda etgan.

Koinotning chaqmoq, momaqaldiroq, zilzila, bo'ron, yong'in, quyosh va oy tutilishi kabi qo'rqinchli hodisalari qurshovida yashagan ibtidoiy inson, shu hodisalar sababini anglamasdan, tabiatdagi har qanday sirli o'zgarishlarga ilohiy ma'no berib, butun borliqni ins-jinslar, dev-parilar va boshqa turli-tuman g'ayri tabiiy maxluqlar makoni tarzida tasavvur etgan, ular haqida benihoyat ko'p diniy afsonalar yaratgan. Ana shunday xayoliy tushunchalardan hosil bo'lgan afsonalar, miflar, ularning yig'indisi esa **mifologiya** deyiladi.

Mif va afsonalar uchun yaxshilik bilan yomonlik, nur bilan zulmat o'rtasidagi kurash xarakterlidir. Kishilar yaxshilik, baxt-saodat, quyosh nuri va issiqlikni yomonlik, baxtsizlik, zulmat va dabshatli sovuqqa qarama-qarshi qo'yib, baxt o'lkasi, baxtsizlik o'lkasi degan miflarni yaratganlar. Tabiaida ulug' va foydali kuchlar – quyosh va suv abadiy bo'lgan o'lka hamda ofat keltiruvchi kuchlar – zulmat va kulfat abadiy bo'lgan o'lka bor deb hisoblaganlar. Ko'pchilik mifologik obrazlar mana shu ikki o'lka va ular o'rtasidagi kurash fonida gavdalanadi.

Lug'atlarda bu so'zlar quyidagicha izohlangan: **mif** – ma'budlar, afsonaviy qahramonlar, dunyoning yaratilishi va yer yuzida hayotning paydo bo'lishi haqidagi qadimiy xalq rivoyatlari, afsona. **Mifologiya** – miflar haqidagi fan; biror xalqning miflari, afsonalari majmui. Bu ta'rifni butunlay rad etmagan holda, uni yana shunday izohlash mumkin deb o'ylaymiz. Ajdodlarimizning dunyo tuzilishi to'g'risidagi tushunchalari, tabiat va kishilik jamiyatida sodir bo'layotgan barcha hodisalarni

tushuntirishga intilishlari miflarda o'z aksini topgan. Shu bois ham, miflardagi xudolar, ma'bud va ma'budalar obrazlariga ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ilk badiiy obrazlar sifatida qarashimiz kerak deb hisoblaymiz. Ular bu obrazlar orqali adolat, haqiqat va ezgulik kabi fazilatlarini ulug'laganlar. Keyinchalik xudolar obrazi janiyatdagi voqelik bilan uyg'unlashtirilgan, unga yaqinlashtirilgan. Bu esa xudolar, ma'bud va ma'budalar obrazlarining xayoliy emasligini ma'lum darajada tasdiqlaydi, ya'ni miflar shunchaki xayol mabsuli, kishilarning tabiat bodisalari oldidagi o'z oqizligini tan olish emas, balki insoniy fazilatlar ulug'langan, kishilarning orzulari ifodalangan, ularni hayotni sevishga, har qanday ishda g'olib chiqishga yo'llovchi va insonning kuch-qudratini ulug'lovchi ilk asarlardir.

Yunon mifologiyasi ming-ming yillik tarixga ega. Shu uzoq muddat davomida ijtimoiy ongning o'sishi bilan miflar ham o'zgaradi, yangi-yangi mazmun kasb etadi.

Bizga ma'lumki, ibtidoiy jamoa tuzumida insonlar qabila-qabila bo'lib yashaganlar, qabilachilik tuzumining yemirilib borishi va harbiy aristokrat tabaqalarning kuchayishi natijasida tobora qasbshoqlashib ketayotgan quyi tabaqalarning ahvoli yana og'irlashadi. Ilgarigi vahimalar ustiga-ustak boylarning zulmi kelib qo'shiladi. Bu holat qadimgi insonning diniy e'tiqodlarini ham tamomila o'zgartirib yuboradi. Endi uning tasavvuri yer yuzining hukmronlari qabilida butunlay odam qiyofasida bo'lgan falak hukmronlari– Olimp ma'budlarini yaratdi. Yangi ma'budlar ham podshohiarga o'xsab butun koinotni o'zlariniki qilib olishgan:

Zevs – momaqaldiroq hamda bulutlar sultoni, ma'budlar ma'budi.

Poseydon – dengizlar hukmroni.

Aid – oxirat hoqoni. Bu uchalasi aka-uka bo'lib, birinchi darajali ma'budlar hisoblanadi.

Gera – Zevsning rafiqasi, osmon ma'budasi, ma'budlar malikasi, homilador xotinlar, kelin-kuyovlar rahnamosi.

Gefest – Geraning birinchi o'g'li, otash ma'budi, temirchilar piri;

Ares – Geraning ikkinchi o'g'li, qonli urushiar ma'budi.

Apollon – Zevsning zulmat ma'budasi Latonadan tug'ilgan o'g'li, yorug'lik, san'at, she'r va musiqa ma'budi, ulug' kohin hamda buyuk yoyandoz.

Artemida – Apollonning singlisi, qamar ma'budasi, o'rmonlar va o'rmonlarda yashovchi jonivorlar malikasi, charchashni bilmaydigan ajoyib sayyoda.

Afina – Zevsning miyasidan bunyod bo'lgan dono va ma'suma, shaharlar homiysi.

Olimp sultonining zebo qizi **Afrodita** va uning tirmizak o'g'li **Erot** – sevgi va go'zallik ma'budlari.

Germes – Zevsning Parizod Mayadan tug'ilgan o'g'li, ma'budlar jarchisi, murdalar ruhini oxiratga kuzatib boruvchi, sayyohiar va savdogarlar himoyachisi, badantarbiya ishlarining rahnamosi.

Helios – har kuni yer yuzidan qorong'ulik ko'tarilishi bilan to'rt uchar ot qo'shilgan aravaga o'tirib, fazoga parvoz etuvchi quyosh ma'budi.

Miflarning hikoya qilishicha, bu xudolar odamlar ko'zidan doimiy bulutlar bilan to'silgan Olimp tog'ida istiqomat qilganlar, "xudolar ovqati" – obihayot (nectar) va unvroziya yeb kun kechirganlar. Barcha ishlar Zevs huzuridagi bazmlarda hal qilingan. Salobat, go'zallik, ulug'vorlik, baquvvatlik va abadiy barhayotlik barcha

ma'budlarning asosiy xislatidir. Yerdagi odamlar o'z kasblariga ko'ra, xudolardan hiriga sajda qilganlar, ularga atab ehromlar qurganlar, xayr-ehson keltirib, qurbonlik qilganlar.

Ammo foniylar bandalar, ya'ni odamlarga xos bo'lgan bir talay yaxshi-yomon xislatlar bularga ham begona emas. Ma'budlarni odam qiyofasida tasavvur etish, o'z navbatida mifologiyani haqiqiy hayotga yaqinlashtiradi va uning obrazlariga chinakam hayotiylik bag'ishlaydi.

Miflarda ko'rsatidishicha, bu asosiy xudolardan tashqari butun yer yuzi tabiiat kuchlarini gavdalantirgan ma'bud va ma'budalar bilan to'la bo'lgan. Daryo va soylarda nimfa *Nayadlar*, dengizda *Nereidlar*, o'rmonda echki oyoqli, boshida shoxi bor – *Driadlar* va *Satiralar* yashaganlar; tog'larda nimfa *Exo* yashagan. Osmonda *Helios* – quyosh hukmronlik qilgan, u nafasidan o't chaqnovchi otlar qo'shilgan oltin aravasida har kuni dunyoni aylanib chiqqan; qip-qizil *Eos* – shafaq dunyoga uning chiqisbidan darak bergan; tunlari osmonda *Selena* – oy hasrat chekkan. Shamollar ham har xil ma'budalar bilan ifodalangan: dahshatli shimoliy shamol *Borey* bo'lsa, iliq va mayin shamol *Zefir* bo'lgan. Kishilar hayotini uchta taqdir ma'budasi – *Moyralar* idora etgan, ular kishi hayotining ipini tug'ilganidan to o'lguncha yigirib turganlar va istagan paytlarida uzib yuborishga qodir bo'lganlar.

Bulardan tashqari afsonaviy Parnas tog'ida muzalar hayot kechiradilar.

Mnemosina – xotira ma'budasi va 9 ta muza – Zevsning qizlari:

Kallispa – epik dostonlar muzasi

Evterpa – nazm muzasi

Erato – ishqiy qo'shiqlar muzasi

Poliximniya – madhiyalar muzasi

Melpomena – fojiviy pyesalar muzasi

Taliya – komediya muzasi

Terpsixora – raqslar muzasi

Klio – tarix muzasi

Uraniya – astronomiya muzasi.

Zevs – ma'budlar ma'budi, Olimp tog'ida joylashgan saroy taxtida o'tirib, o'z qo'li ostidagi saltanat – koinotni boshqaradi. Shu jihatdan uni sharq mifologiyasidagi ezgulik xudosi Axuramazdaga o'xshatish mumkin. Lekin uning Axuramazdadan farqli tomoni shundaki, Zevsning tabiatida keskinlik va qattiqqo'llik ham uchraydi. Buni Esxllning "Zanjirband Prometey" tragediyasi misolida ko'rish mumkin.

Ma'budalarni odam qiyofasida tasavvur etish, o'z navbatida mifologiyani haqiqiy hayotga yaqinlashtirdi va uning obrazlariga chinakam hayotiylik bag'ishladi. Yunon mifologiyasining bemisl boyligi, obrazlarining nafisligi butun insoniyat tarixi davomida kitobxonning diqqatini o'ziga jalb etib keldi, yunon adabiyoti va san'atiga esa behad-behisob porloq mavzular hadya qildi.

Yunonlar xudolari to'g'risidagi miflardan tashqari qahramonlar to'g'risida ham miflar yaratganlar. Qadimgi Yunoniston hir butun davlat bo'lgan emas, ular bir-biri hilan tez-tez urushib turadigan, ba'zi-ba'zida birlashib, umumiy dushmanga qarshi kurashgan mayda shahar-davlatlardan tashkil topgan, har bir shaharning, har bir viloyatning o'z qahramoni bo'lgan. Masalan, Afina qahramoni ona-vatanini istilochilardan himoya qilgan va bahaybat *Minotavr buqasini* yakkama-yakka olishib

yinggan Tezey ismli yigit bo'lgan. Minotavr buqasi yemish uchun Afina o'g'il-qizlaridan olib turar ekan. Frakiya qahramoni esa mashhur qo'shiqchi *Orfey* bo'lgan. Agrivyanlarning qahramoni bir qarabda odamni toshga aylantirib qo'yuvchi *Meduzani* o'ldirgan *Persey* bo'lgan.

Keyinchalik yunon qabilalari sekin-asta birlashib, yunonlar o'zlarini yagona xalq ellinlar deb bilganidan so'ng *Gerakl*ni butun Yunonistonning qahramoni deb e'tirof etishgan. Turli yunon shaharlari va miflar yaratilgan. Gerakl – xalq qaramoni.

Gerakl qahramonliklari turkiy xalqlar yaratgan "Oershasp", "Elikbek" kabi miflardan ko'ra ko'proq qahramonlik eposlari hisoblangan "To'maris" va "Shiroq" afsonalariga o'xshab ketadi. Bizga ma'lumki, To'maris ham, Shiroq ham xalq qahramoni obrazlari bo'lib, ular taxminan eramizdan avvalgi VI–V asrlarda yashab o'tgan tarixiy shaxslardir. Geraklni esa bizdan bir necha o'n asrlik olis masofa ajratib turadi.

O'sha uzoq o'tmishning dostonnavislari ham, dramatik shoirlari ham, lirik tuyg'ularning kuychilari ham ushbu buloqdan suv ichganlar, ushbu zamindan ilhom olganlar, ulug' rassomlar, haykaltaroshlar ham o'z asarlarida asosan shu "xazina" afsonalarini qimmatbaho real obrazlarga ko'chirdilar, ularni asrlarga doston qildilar. XXI asrga kelib juda ko'p jahon yozuvchilari, o'z asarlarida qadimgi yunon mifologiyasi sujetiariga qayta-qayta murojaat qilmoqdalar. Kino sohasida ham yunon mifologiyasi, qadimgi yunon adabiyoti namunalar asosida ko'plab badiiy filmlar suratga olingan.

HOMER DOSTONLARI

Homer, Gomer (Homeros) — yunon shoiri. Uning hayoti haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Turli davrlarda yaratilgan tadqiqotlarda uning yashab o'tgan davrini mil. av. XII asr bilan VII asr oralig'ida deb ko'rsatiladi. Homerning so'qir bo'lgani, o'z asarlarini baxshilar kabi og'zaki aytgani ma'lum. Ularni kim, qachon yozib olgani aniq emas. Homerga nisbat berilgan asarlar ko'p, ammo homershunoslarga ko'p tortishuvlardan keyin faqat 2 asarni — «Iliada» va «Odyssey» Homerniki deb tan olishgan. Ularning ikkovi ham qahramonlik eposi bo'lib, yunon mifologiyasi asosida yaratilgan. Shu bilan birga, ularda faqat she'rlar, afsonalar va rivoyatlargina emas, real tarixiy voqealar ham aks etgan. Jumladan, «Iliada» dostonida tasvirlangan Troya ko'p zamonlar afsonaviy shahar hisoblanib kelingan, ammo buyuk arxeolog Shpilman ko'p yillik izlanishlardan so'ng uni topdi va bu shahar tarixda mavjud bo'lganini isbot qildi. Homer asarlaridan namunalar o'zbek tiliga tarjima qilingan (Mirtemir, Qodir Mirmuhamedov va b.).

Homer dostonlarini yozib olib, kitobat holiga keltirish Yunonistonda miloddan avvalgi VI asrda va undan oldinroq davlat tomonidan yo'lga qo'yilgan. Miloddan avvalgi IV asrda donishmand Arastu shogirdi, makedoniyalik Iskandar (Aleksandr)ga "Iliada"ning qimmatbaho kichik suvenir nashrini sovg'a qilgan. Arrian va boshqalarning yozishicha, Aleksandr qizg'in jang vaqtlarida ham "Iliada"ni o'zi bilan olib yurgan va o'qigan.

"Iliada" dostonida bahodirlik, jasurlik, qahramonlik, shon-shuhrat, adolat va nobuqlik, sevgi va nafrat, or-nomus, go'zallik va xunuklik, ulug'vorlik va tubanlik, urush va tinchlik, vatan mudofaasi, jismoniy va ruhiy barkamollik, do'st o'limiga qayg'u, mardning g'azabdan tug'ilgan nomardligi, shaxs va xalq manfaatlarining

to'qnashuvi, hayotning shirinligi va o'limning haqligi, dag'allik va nafasat, taqdirga tan berish va ilohiy qudratga qarshi isyon, bag'rikenglik va fe'li torlik, boqiylik va foniylilik, xullas, insoniyat hayotining deyarli barcha qirralari hayotiy, ishonarli, haqqoniy va sirli, romantik, kutilmagan voqea o'zgarishlari – peripetiyalar, mushkulotlar bilan mufassal tasvirimi topganki, yuksak badiyatni va ma'naviy boyliklarni anglashga quvvati yetgan o'quvchi hayratlar olamiga sho'ng'ishi tabiiydir.

Troya shahri haqiqatdan ham Kichik Osiyoda Dardanel bo'g'ozining janubiy qirg'og'ida joylashgan ko'hna shaharlardan biri. Qadimgi yunonlar "Troya" shahrim "Ilion" deb ham ataganlar. Binobarin, "Iliada" dostonining nomi ostida "Ilion" qissasi "Ilionnoma" degan ma'nolarni anglamoq lozim. Biroq bu nom asarning mazmuniga unchalik monand emas. Cbunki dostonida asosan Yunon-Troya urushidagi kichik bir voqea bayon etilmay, balki shu yagona voqea atrofida mazkur urushning ba'zi hodisalariga yo'l-yo'lakay to'xtalib o'tiladi.

"Iliada" dostoni 15700 misradan iborat bo'lgan yirik asardir. Qadimgi olimlar yunon alifbosining soniga qarab, dostonni 24 bob – qo'shiqqa bo'lganlar.

Rivoyatlarning hikoya qilishicha, Troya shahzodasi Paris Sparta podshohi Menelayning yurtiga mehmon bo'lib keladi. Menelay Parisni izzat-ikrom bilan kutib oladi, uning sharafiga shohona bazmlar uyushtiradi. Shunday bazmlarning birida Paris Menelayning xotini Yelenani ko'rib, unga oshiq bo'lib qoladi. O'z navbatida Parisning kelishgan qaddi-qomati, egnidagi sharqona liboslari Yelenani ham maftun etadi. Kunlarning birida Menelay uzoq safarga ketganida Paris Yelenani yo'ldan urib, Sparta mamlakatining barcha boyliklarini olib, Troya shahriga ketadi. Safardan qaytgan Menelayni xazinaning o'g'irlangani, xotining bevafoligi qattiq ranjitadi va raqibdan qasos olish maqsadida yunon mamlakatidagi barcha podshohlar o'z askarlari bilan alamzada Menelayning akasi Miken podshohi Agamemnonni sarkarda ko'tarib, bir qancha kemalar hilan Troya ustiga bostirib boradilar. Bular orasida Yunonistonning buyuk bahodirlaridan Axill ham bor edi. O'n yil davomida yunon lashkarlari Troya shahrini qamal qiladilar. Asar voqealari tavsifiga kirishdan oldin shoir ilhom parisiga murojaat qilib, o'z dostonining bosh mavzusi – Axill g'azabini kuylashda undan madad tilaydi. Dostonning birinchi qo'shig'i shu g'azabning sabablariga bag'ishlangan.

Go'zal Yelena sabab yunonlar hamda troyaliklar o'rtasida kechayotgan dahshatli urushning o'ninchi yili... Lekin ana shu talotum chog'l ham murakkab insoniy munosabatlar davom etmoqda: bir yoqda axeylarning bosh qo'mondoni, asirga tushgan qizi Xriseidani ajratish niyatida ming iltijolar bilan shoh poyiga bosh urib kelgan kohin Xrisni tahqirlagan, oqibatda tangri Apollon tomomidan lashkargohiga vabo yuborilishiga ("zero kohin edi Febning erka bandasi,.."), minglab askarlarining bekordan-bekorga qirilib ketishiga sababchi bo'lgan takabbur Agamemnon qizni otasiga qaytarishni talab qilgan Axillesga buning badaliga ulug' bahodirning asirasi Briseidani berishni shart sifatida qo'yadi. Ikkinchi yoqda esa bu pastkashlikdan dili qattiq ozor topgan Peleyzoda lashkargohni tashlab ketib, nomus o'tida qovriladi:

*Va nihoyat, mirmidonlar maydoniga kelib, ko'rdilar
G'amga botgan Axillesni o'z chodiri bo'sag'asida...*

*350 Biroq Axill, do'stlarini tark etdi-da, mo'ysafid ummon
Yoqasiga borib indi va qo'llarin cho'zib suv tomon
Oq sut bergan onasiga bo'zlab-bo'zlab qildi iltijo:
"Onajonim! Nahot meni foniylilik etib tuqqaning uchun
Olimpanoh Zevs etmagan menga nasib izzatu ikrom?"*

*355. Bugun esa boridan ham mahrum etdi! Iqtidorli shoh
Mutakabbur Agamemnon mening jangda olgan muzdimni*

Homer dahosi qudratining eng yorqin fazilatlaridan hiri shuki, u ikki buyuk illat bunda fazilat to'qnashgan ana shunday dramatik lahzada mana shu sabab orqasida kelib chiqqan oqibat – Urush jarayonini asar markaziga olib kirdi. To'g'ri, urushning o'zi o'n yildan buyon davom etib kelardi-yu, ilionliklar shu paytgacha shahar devorlari ortidan chiqishga botinolmasdi. Faqat Axilles muhorabani tark etgachgina, ular ochiq jangga, dushman bilan yuzma-yuz haqiqiy Urushga, dahshatli Urushga kirdi. Muallif bu ulug' muhorabani bor suroni, vahshati bilan realistik bo'yoqlarda nihoyatda rangin tasvirlaydi:

*Ikkala xalq ikki yoqda ko'rib bo'lgach jang taraddudin,
Qushlar yanglig' uvvos solib gurra qalqdi Troya ahli:
Odatda qish bo'rontdan yo ayozli kuz yomg'iridan
Qochib, ko'kka parvoz etgan turnalar shu tarzda qichqirgay;*

*5 Qushlar jo'shqin ummon osha ucharkanlar yuksak samoda,
G'animlari pigmeylarga ofat yo'llab osmon-falakdan,
Mudhish g'azab ila hamla qilardilar ular ustiga.
Lek axeylar adovatli hansirashib kelardilar jim
Bir yoqadan bosh chiqarib jang qilmoqqa ahd qilgan holda.*

*10 Not shamoli tog'u toshni o'g'rilar-chun zulmatdan afzal,
Cho'ponlarga koni ziyon tuman ila burkanganida,
Ko'rolmaysan otgan toshing borib tushgan yerdan narini, –
Xuddi shunday quyruq edi lashkar poyl ostidan chiqqan
Chang, to'zon ham; keng vodiyan ular jadal o'tdilar yurib.*

Eng asosiy pahlavomi ishtirokisiz urushni davom ettirgan axeylar Menelay, Ayuks Telemoniy, Diomed singari qolgan bahodirlari jasoratiga qaramay, ustunlikni qo'ldan berishdi. Ulkan jang sahnasiga endi troyaliklarning azamat o'g'lomi Gektor chiqdi:

*15 O, axeylar, orangizda mard, azamat qahramonlar ko'p;
Kimki men-la xolisona jang qilmoqqa bildirsa xohish,
Muyli, chiqsin davraga u – shaydir jangga ilohiy Hektor.*

Goh u tomon, goh bu tomonning qo'li baland kelayotgan, ishratparast, qo'rqoq Parisning kasofati sabab boshiangan, nihoyasi azim shaharning halokati bo'lguvchi shu urush nafaqat bandalarni, balki Olimp tangrilarini ham bir-biriga yov ikki qatnashga ajratib yubordi. Gera, Afina kabi ma'budalar odatdagidek yunonlar tomonida bo'lsan, Afrodit, Apollon, Ares singari ilohlar ilionliklarni qo'llab-quvvatlaydi,

hattoki ular tarafida turib janglarda qatnashadi. Faqat ma'budlar hoqoni ulug' Zevsgina vaziyatni butun olam hodisalari tirgagi bo'lgan bir qudratga muvofiq nazorat qilar, tarafkashlikdan yiroq edi. Shuning uchun ham hali aytilganidek, butun urush davomida goh u tomonning, goh bu tomonning qo'li baland kelardi! O'sha qudrat, o'sha kuch oldida ojiz bandalar tugul, barhayot ma'budlar ham ilojisiz. U taqdirdir.

... g'am qora bulut yanglig' bosdi Peleyzodani.
Shu onda u qo'llariga nopok kulni siqimlab olib
25 O'z boshidan socha ketdi oftobmisol jamolin bulg'ab;
Uning xushbo'y va bejirim liboslari belandi kulga.
So'ngra bu alpqomat yigit yotib olib yerga uzala,
Achchiq-achchiq oh urarkan sochlarini yuldi ayamay.;
"... Nechunki, men to Hektorni o'z nayzam-la jonini olib,

90 Qadrdonim Patrokl-chun intiqom – o'ch olmaganimcha
Qalbim mening yashashimga imkon bermas el orasida!";
Jangga kirgum aziz do'stim halok etgan Hektorga qarshi!
Qodir Zevs va xudovandlar qachon meni mahkum etsalar,

115 O'shal zahot tayyordurman mardonavor jon bermoqqa men!
O'limdan jon saqlolmadi hatto mardlar mardi Patrokl,
Chaqmoqotar Zevsning, garchi, arzandasi hisoblansa ham;
Halok etdi uni qismat va Heraning shum adovati.
Men ham qismat da'vat etsa, rozidurman mahv bo'lmoqqa...

Asarning kulminatsion nuqtasi aynan shu yerdir. Chunki ulug' rapsodning yigirma to'rt qo'shiqdan iborat mahobatli "Iliada" jangnomasini yaratishdan maqsadi ana shu qahru g'azabni kuylash, tarannum qilish edi. Aziz do'st hurmati, yodi bosh omil bo'lgan ushbu g'azab oqibatda illonlik necha minglab jangchilarni mahf etib, Patroklning qotili dovyurak Gektorning ham jonini oldi.

Bu g'azabning "qon"i aslida taqdir hukmiga isyon edi. Yaqin-orada o'zining-da hayot shami so'nishi (manfur Paris tomonidan ojiz joyi – tovoniga nayza sanchib o'ldirilishi)ni oldindan hilgan Axilles Patroklning halokatiga qismatni aybdor sanab, shu qismat irodasi ifodachisi, aniqrog'i, uning qo'lidagi "o'yinchoq" Gektordan sbafqatsizlarcha o'ch oldi, Troya shahzodasining murdasini ayovsiz xo'rladi. Biroq taqdirga qarshi qaratilgan mazkur isyon haqiqatda taqdir yo'rig'iga bo'ysunish edi (Chunki Troyaning muqarrar qismati – halokatiga olib kelguvchi omillardan biri Priamzodaning o'ldirilmog'i edi!). Negaki Yeru samo hukmdori qudratli Zevs taqdiri azalni uning qonuniyatlari asosida nazorat qiladi. Bunga bo'ysunmaslikka esa boya bir necha bor ta'kidlaganimizdek, o'zga ma'budlar u yoqda tursin, hatto Zevsning-da haqqi yo'q. Bu narsani ichki bir sezgi-la tuygan Axilles ehtimol shu sababli g'azabdan tushib, Gektorning tanasini o'z oldiga ming bir iltijoyu alamli ko'z yoshlar bilan kelgan Troya hukmdori, alamdiyda ota – Priamga qaytarib bergandir?! Qanday bo'lmasin, qasos, aniqrog'i, qismat qasosi hamda uning qarshisidagi qumursqa misol ojizlik bir ulug' insonning qahru g'azabi ko'rinishida yunon

qo'shiniga xayrixohiigi ochiq-oshkora sezilguvchi Homerning 15 700 satri zamiriga singib ketgan.

O'n yillik qamaldan keyin yunonlar ayyorlik yo'li bilan shahar ichiga kirib, uni yoqib, troya xalqini qilichdan o'tkazib, shaharni talab, barcha boyliklari bilan Yelenani ham olib qaytadilar. Bu urushda odamlar bilan birga ma'budlar ham qatnashadilar.

Homer nomi bilan bog'liq bo'lgan ikkinchi asar – "Odissey" dostonida Troya urushining bosh qahramonlaridan biri Itaka podshohi Odisseyning sarguzashtlari hikoya qilinadi. Troya jangi tugagach, Odissey o'z bahodir yigitlari bilan kemalarga o'tirib, Itaka shahriga yo'l oladi. Biroq Odisseyning dushmani bo'lgan dengiz ma'budi Poseydon uning yo'lida dahshatli to'lqinlar ko'tarib, pahlavonning boshiga ko'p musibatlar soladi. Shu tariqa Odissey yana o'n yil davomida o'z vataniga qayta olmasdan dengiz to'lqinlarida, begona yurtlarda sarson-sargardon daydib yuradi, uning boshidan qanchadan-qancha mojarolar o'tadi. Dostonning birinchi boblarida biz qahramonni Ogigiya orolida parizod Kalipso qo'lida tutqunlikda ko'ramiz. Odisseyga oshiq bo'lib qolgan parizod necha yillar mobaynida uning o'z yurtiga qaytish haqidagi istaklariga quloq solmay keladi. Bu orada Odisseyning Itaka orolida qolgan rafiqasi Penelopaning boshidan mihoyatda og'ir kunlar kechadi. Yillar o'tib podshoh safardan qaytmagach, hamma uni o'ldiga chiqarib qo'ygan. Shu sababli Itaka boyvachchalaridan bir nechasi Penelopaning payida Odisseyning saroyiga kirib olib, tunu kun bazm qiladilar, mallkaning hol-joniga qo'ymay, o'zlaridan birortasiga erga tegishni so'raydilar. Erining qaytib kelishiga ishongan vafodor rafiqat turlu-tuman vaj-bahonalar bilan jazmanlarni laqillatib vaqt o'tkazaveradi. Odisseyning yakkayu yagona o'g'li Telemax hali yosh bo'lgani tufayli onasini boyvachchalar zo'rvonligidan qutqara olmaydi. Jazmanlar Telemaxdan qutulish niyatida bir necha bor uni o'ldirmoqchi bo'ladilar. Afinaning maslahati bilan Telemax atasidan darak izlab jazmanlardan yashirincha safarga jo'naydi. U avval Pulos shahriga Troya urushining ulug' bahodirlaridan biri – keksa Nestorning yurtiga yo'l oladi. Pulos podshohi birodarining o'g'lini sevinch va mamnuniyat bilan kutib oladi-yu, hiroq Odissey haqida biron darak aytolmasdan aziz mehmonni Menelay yurtiga jo'natadi. Ertasi kuni yosh shahzoda Sparta shahriga yetib boradi. Menelay allaqachonlar go'zal rafiqasi Yelenani olib o'z yurtiga qaytib kelgan edi. Sparta podshohi ham Telemaxni samimiy kutib oladi, uning sharafiga quyuq ziyofatlar beradi. Telemax Menelay og'zidan atasining parizod Kalipso qo'lga asir tushib qolganligi va o'z yurti dardida alam chekib yotganligi to'g'risidagi xabarni eshitadi.

Asarning birinchi bobidan muallif bevosita Odisseyning sarguzashtlari tasviriga ko'chadi.

Dostonning bundan keyingi qismlarida voqealar afsonalar dunyosida, ajoyibot va g'aroyibotlar olamida kechadi. Ma'budlar Olimp tog'ida kengash qurib, Odisseyni o'z vataniga qaytarishni lozim topadilar. Ma'budlar jarchisi Germes Olimp hukmronlarning xohishini Kalipsoga yetkazadi, parizod ma'budlarga qarshi borolmasdan, noiloj Odisseyni o'z yurtiga jo'natadi. Odissey kemalari bir necha kun dengizda bexatar suzib borgandan so'ng dengiz ma'budi Poseydon raqibini payqab qoladi va dengizda shunday to'lqin paydo qiladiki, Odisseyning kemalari to'lqinlarga dosh berolmay g'arq bo'lib ketadi. Itaka podshohi uch kecha-yu kunduz dengiz

to'liqlarida suzib, Afinaning yordamida eson-omon qirg'oqqa chiqib oladi. Odissey panoh topgan bu yer Sxeriya oroli – Alkinoy degan dono podshoh qo'lida farovon hayot kechirayotgan feak xalqining yurti edi. To'liqlar bilan olishib darmoni qurigan Odissey g'aramlar ichiga kirib uxlab qoladi.

Ertasi kuni dugonalari bilan kir yuvish uchun daryo bo'yiga kelgan Alkinoyning qizi Navsikaya bu yerda Odisseyni uchratib uni saroyga boshlab keladi. Alkinoy qahramonni yaxshi kutib olib, unga quyuc ziyofatlar uyushtiradi. Shu bazmlarning birida so'qir rapsod Demodok zavqqa to'lib Troya urushi, uning ajoyib pahlavonlari va ayniqsa, Odisseyning mislsiz qahramonliklari to'g'risida jo'shqin qo'shiqlar aytadi. Bu qo'shiqlarni eshitgan Odissey jangovar do'stlarini, o'zining sarguzashtlarini eslab yuragi to'lib ketadi, ko'zlaridan yosh oqadi.

Alkinoy mehmonning ahvolini payqab uning kimligini, ko'z yoshlarining boisini so'raydi va boshidan kechirganlarini so'zlab berishni iltimos qiladi. Nihoyat, Odissey podshoh va mehmonlarning iltimosini bajo keltirib o'zini tanitadi. Troyadan yo'lga chiqqan kundan boshlab tortgan kulfatlarini majlis ahliga hikoya qilib beradi. Odisseyning hikoyasi dostonning to'rtta bobida (IX-XII) berilgan. Bu to'rtta bob ham boshidan oxirigacha mislsiz ajoyibotlar bilan to'ladir:

Odisseyning Siklop Polifem bilan bo'lib o'tgan voqealari, uning ko'zini ko'r qilishi va uning otasi Poseydonning Odisseydan o'g'li uchun qasd olishi, dengizlardagi azob-uqubatlari, undan keyingi voqealar tasvirlanadi. Odissey hamrohlari bilan Eolning ko'chma oroli Eoliyaga keladi. Eol sayyohlarni do'stona kutib oladi. Mehmonlarning bexatar o'z yurtlariga yetib olishi uchun yovuz shamollarni bir meshga solib Eol Odisseyga tortiq qiladi, manzilga yetmaguncha zinhor-bazinhor ochmaslikni, aks holda yo'lovchilar boshiga og'ir kulfatlar tushajagini qayta-qayta uqtiradi. Odissey qattiq uxlab qolganida uning hamrohlari meshda oltin-kumushlar bor deb o'ylab meshni ochishadi, yovuz shamollar meshdan chiqib ketadi. Itaka shahrining qorasi ko'inib qolganda shamollar ularning kemalarini Itaka shahridan uzoqlashtirib, quyosh ma'budi Heliosning qizi sehrgar parizod Kirkaning oroli sohiliga olib kelib tashlaydi.

Odissey ehtiyotkorlik yuzasidan avval bir nechta hamrohlari orol ichkarisiga yuboradi. Odisseyning hamrohlari o'rmon ichida bir qasrga ro'para kelishadi, ularning oldida qo'lga o'rgatilgan ayiq, sher, bo'rilar yurishibdi. Odamlarni ko'rishi bilanoq ular vafodor it kabi yugurib kelib erkalana boshlaydi, shu payt qasr bekasi Kirkaning o'zi mehmonlarning istiqboliga chiqib, ularni mamnuniyat bilan qasrga taklif qiladi va ularga bir qadahdan may tutadi, mayni ichishi bilan ular to'ng'izga aylanib qoladi, ularni molxonaga qamab, oldiga cho'chqa yong'oq to'kib qo'yishadi. Odissey bu ishiardan xabar topib Kirkaning izlab kelayotganida ma'bud Germes paydo bo'lib, jodugarning amalini qaytaradigan bir giyohi beradi. Kirka Odisseyni oltin kursiga o'tqazib qadah tutadi, ammo uning amali Odisseyga kor qilmaydi. Odissey qilichini yalang'ochlab Kirkaga tashlanadi. Kirka qahramonimizning oyoqlariga yiqilib yalinadi va o'rtoqlarini o'z holiga qaytarishga va'da berganidan so'ng Odissey qilichini qiniga soladi. Kirka bilan ishrat surib Odissey shu orolda bir yil qolib ketadi. Hamrohlarining qistovi bilan o'z yurtiga qaytmoqchi bo'ladi. Kirka uni avval Jahannam ziyoratiga yuboradi. U yerda Odissey mo'tabar avliyo Tiresiyning arvohi bilan uchrashadi. U Itaka podshohining bundan keyingi taqdirini aytib beradi.

Jahannamda onasining ruhi, jangovar do'stlari Agamemnon, Axillning arvohlari bilan uchrashib, ko'p yaxshi maslahatlar beradi. Jahannam ziyoratidan qaytib Kirkaning qamriga keladi va shu yerda kema yasab, o'z vataniga yo'l oladi.

Yo'lda sirenalari orolidagi sarguzashtlardan qutulib, yana bir qancha xavf-xatlardan holi bo'lib bir orolga kelib tushadilar. Bu orol quyosh ma'hudi Heliosning qarorgohi. Ko'm-ko'k o'tloqlarda ma'budning buqalari o'tlab yuradi. Tiresiy Heliosning buqalariga tegmaslikni jahannam ziyoratida Odisseyga aytgan edi, yo'qsa anchagina ziyon yetishini bildirgan, lekin afsuski, bir oylik muddatda odamlarning ozuqalari tugab qoladi. Odissey bir kun mudrab qolganida sheriklari Heliosning semiz buqalaridan zevkatasini so'yib yeyishadi. Odam bolasining bu qillmishidan ranjigan Helios Zevsga shikoyat qiladi va jazolashni so'raydi. Odissey kemalari dengizga tushib bir necha kun yurgach, Zevs momaqaldiriq bilan uning kemalarini bo'lib tashiyadi.

Kemadagi odamlarning hammasi suvda g'arq bo'lib, Odisseyning bir o'zi bir yog'ochga yopishib, allaqanday orolga chiqib qoladi. Bu orol esa Ogigiya oroli edi. Bu hikoyalarning hammasini Alkinoyga gapirib beradi. Podshoh Alkinoy jasur qahramonni sovg'a-salomlar bilan siyab, uni maxsus kemada o'z yurtiga jo'natadi. Itaka oroliga yetib kelgach, nima qitishini bilmay turganda Afina joniga oro kiradi va nimalar qilishi kerakligini unga aytadi, uni bir tilanchi qiyofasiga kiritib, sodiq quli Evmeyning chaylasi tomon yo'lga solib yuboradi. Cho'pon daydi qalandarni mamnuniyat bilan kutib oladi. U Odisseyni ko'rganini, uning muqarrar Itakaga qaytib kelajagini aytadi. Shu asnoda Afina Telemaxning tushiga kirib, tezlik bilan vataniga qaytib to'g'ri Evmey chaylasiga borishni buyuradi. Telemax tezda yurtiga qaytib otasini uchratadi. Ota-bola saroyga keladilar. Shu kuni Penelopa Odisseyning kamalagi bilan o'q-yoylarini jazmanlari huzuriga keltirib, kimda-kim shu kamalakdan o'q uzib o'n ikki xalqadan o'tkaza olsa, o'sha odamga tegajagini aytadi. Jazmanlari hatto kamalakning ipini ham torta olmaydilar. Shu topda Odissey o'zining kimligini sodiq quli Evmey va boshqa ishonchli odamlariga bildirib, jangga tayyor turishini aytib qo'yadi. Keyin u ham o'rta qo'q chiqib jazmanlardan kamalakni otib ko'rish uchun izn so'raydi. Ular Odisseyni kalaka qilib ustidan kuladilar. Telemax jazmanlarning noroziligiga qaramay otasiga kamalakni olib boradi. Odissey birinchi o'qni o'n ikkita xalqadan o'tkazib yuboradi va ikkinchi o'qni jazmanlarning eng ashaddiysi Antinoyga qarata uzadi, so'ngra Evrimaxni ag'daradi, shu tariqa jazmanlarni va xoinlarni tor-mor keltirib, Penelopa bilan tinch-totuv hayotini izga tushiradi. Doston shu tariqa yakuniga yetadi.

Yuqorida ko'rilgan har ikki doston og'zaki xalq adabiyoti asosida yaratilgan, bahodirlik haqida hikoya qiluvchi qahramonnonaning klassik namunasi.

Avvalo shuni aytishimiz kerakki, har ikkala doston o'rtasida mazmunan katta tafovut bor: "Iliada"da asosan urush, qonli voqealar, "Odissey"da esa ajoyib sarguzashtlar bilan oila hayoti haqida hikoya qilinadi.

Yunon xalqining botirlik, g'ayrat va jasorat kabi tushunchalarini adib Axill obrazida talqin etgan bo'lsa, shu xalqning hayot bobida orttirgan donishmandligi, aql va zakovatini Odissey obrazi orqali ko'rsatadi. Jafokash Odisseyning serfalokat safirida sarson-sargardonliklarda uning birdan-bir hamrohi ephillik, uddaburonlik,

ehtiyotkorlik, chapdastlik va hiylakorlik bo'lgan. Uning tabiatidagi bu xislatlar albatta turmushning og'ir sharoitlari bilan taqozo etilgan bir holdir.

"Iliada" va "Odiseya" dostonlari harbiy demokratiya va urug'chilik jamoasining inqirozga yuz tuta boshlagan davridagi yunon qabilalarining orzularini ifodalovchi asarlardir.

Homer har qanday sevimli shoirdek, avvalo har bir kitobxonning shaxsiy emotsional tuyg'ulariga murojaat qiladi. Uning qarashlarida abadiy va azaliy muammolargina emas, keyingi barcha zamonlarga tegishli da'vatlar ham seziladi. Bizningcha, har bir hozirgi kitobxon ham bu qadimiy eposlarda davrning eng dolzarb muammosi – urush va tinchlik haqida o'zini hayajonlantiruvchi mulohaza va his-tuyg'ularni topadi. Yevropa xalqlari adabiyotlarining eng yaxshi namunalari ezgulik va insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilar ekan, bunda qadim yunon eposlarining ta'siri yo'q deb bo'lmaydi. Jumladan, Homer hatto o'zining eng sevimli qahramoni Axillning ham intiqom iztirobida es-hushini yo'qotib vahshiyona qon to'kishini kechirmaydi. U mehmondo'st qo'shnisiga xiyonat qilib urush boshlanishiga sabab bo'lgan troyaliklarga ham insoniy bir shafqat tilaydi, o'z shaharlarini, bolalarini, hayotlarini himoya qilishga majbur bo'lgan, o'z shahzodasi Parisning kasriga qolgan troyaliklarga xayrixohlik bildiradi. Biroq oddiy kishilarga bo'lgan bu xayrixohlik hech bir joyda yovuzlikni oqlash, xiyonatni xaspo'shlash tusini olmaydi. Axloqiy pozitsiyaning bunday mustahkamligi, hayotbaxshligi, ezgulik va halollikka, jahoniy uyg'unlik va mangu go'zallikka intilish – bu dostonlarning umrboqiyiligini ta'min etgan.

Nazarimizda, dostonlarning barcha xalqlar, barcha zamonlar uchun barhayotligi sabablaridan yana biri she'riyat dahosining qalam va kalom qudratidir.

Atoqli qomusiy olim Al-Beruniy yoshligidanoq yunon fani va madaniyatini o'zlashtirib, qadimgi yunon shoir va olimlari asarlarini aslida o'qib, bahra oladi. Ayniqsa Homer asarlariga alohida hurmat va e'tiqod bilan qaragan. Beruniy butun yunon she'riyatini yaxshi bilgan, o'ziga xos xususiyatlarini chuqur tushungan, uning boshqa xalqlar she'riyati bilan o'xshashliklarini "Osorul-boqiya", "Hindiston", "Assin" ("Geodeziya") kitoblarida yoritgan.

Turkum dostonlar. Homerdan so'ng yaratilgan epik dostonlarning hammasi, uning qanday afsonalar haqida hikoya qilishlariga qarab ayrim sikllarga (turkumlarga) bo'linadilar. Masalan, Troya urushidan bahs etuvchi dostonlar "Troya sikli" (turkumi) dostonlari, Fiva shahri haqida to'qilganlari "Fiva sikli" (turkumi) dostonlari deb ataladi. Shunga asosan bu dostonlarga turkum dostonlar (sikl dostonlar) nomi berilgan.

Turkum dostonlarda ko'pincha xalq og'zida aytib yurilgan miflarning ma'lum bir qismi bayon etiladi. Shu bilan birga bir doston voqeaning boshlanishi haqida gapirsa, ikkinchisi uning keyingi qismini davom ettiradi. Chunonchi, Troya turkumiga kirgan "Kipriya" dostonida Troya urushining sabablari, ya'm "Iliada" dostoni voqeasiga qadar bo'lib o'tgan voqealar tasvir etilgan. Bunda yer odamzod naslidan Zevsga shikoyat qiladi va Zevs odam bolasiga qiron keltirish maqsadida urush olovini yoqishga qaror beradi. Shundan keyin ma'budlar hukmroni o'z qizi Yelenani bunyod etadi. Dengiz ma'budasi Fetidani Fessaliya podshohi Peleyga xotinlikka uzatadi. Tantanali to'yga adovat ma'budasi Eridadan boshqa Olimp

tog'ning hamma ma'bud va ma'budalari taklif etilgan. Bundan qattiq ranjigan Erida "Sohlbjamolga" so'zi yozilgan oltin olmani bildirmasdan bazmgoh ahli orasiga tashlaydi. Bu "adovat olmasi" edi. Bu olma Gera, Afrodita va Afinalar o'rtasida darhol ixtilof tug'diradi. Zevs bu janjalni Troya yaqinidagi Ida tog'I etagida mol boqib yurgan Paris ismi podachining izmiga havola qiladi. So'ngra Afroditaning olmani olishi, Parisning Yelenani olib qochishi voqealari bilan bu doston nihoyasiga yetadi. Dostonning keyingi voqealari Agamemnon boshchiligidagi Troya urushiga o'tlanish taraddudiga bag'ishlanadi.

Troya urushi tugagandan keyin qimmatbaho o'ljalardan o'z yurtlariga qaytayotgan yunon sarkardalarining sarguzashtlari "Qaytish" nomi ostida tarqalgan bir nechta dostonlarda tasvir etiladi.

Troya urushi afsonalarining xotima qismi "Telegomiya" dostonida tasvir etilgan. Bu doston asosan Odisseyning so'nggi kunlariga bag'ishlangandir. Homerning "Iliada" va "Odiseya" dostonlari mohir o'zbek tarjimoni Qodir Mirmuhamedov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilinib, kitob holida nashr etilgan.

Homer madhiyalari. Shoirning dostonlaridan tashqari Homergimnlari ostida bizga qadar kattakon qo'lyozma to'plam ham yetib kelgan. To'plamda hammasi bo'lib 34 ta doston bor. Shulardan ikkitasi "Iliada" va "Odiseya"dir, keyingi ikkita usarni hisobga olmaganida qolgan dostonlarning ko'pchiligi 15-20 she'rdan oshmaydi. To'plamga kirgan madhiyalarning eng yirigi ma'bud va ma'budalardan Germes, Apollon, Afrodita, Dionislarga bag'ishlangan.

Demetra madhiyasida hosilot ma'budasining qizi Persefonaning yo'qolishi, jahannam hukmroni Aidning qizini olib qochishi, shundan so'ng yerning hosil bermay qolishi, ma'budlarning iltimosi bilan Demetraning Olimp tog'iga qaytishi hikoya qilinadi.

Apollon sharafiga aytilgan ikki madhiyaning birida san'at ma'budining tug'ilishi, ikkinchisida uning Pifon degan ajdaho bilan olishib, uni yenganligi va Delfa ibodatxonasini bino qilganligi hikoya qilmadi.

Germes haqida aytilgan madhiya o'zining o'ynoqi uslubi va hajviy mazmuni bilan to'plamning boshqa madhiyalaridan farq qiladi. Asarning muallifi firibgar ma'budning kirdikorlarini uning tahiatiga monand iboralarda ta'rif etadi. Savdo va o'p'irlik ma'budi ertalab tug'iladi, tush paytiga kelib toshbaqa kosasida yetti torli kitara yasaydi, kechqurun o'z akasi Apollonning sigirlarini o'g'irlab ketadi.

Afroditaga aytilgan madhiyada go'zallik ma'budasining troyalik cho'pon yigit Anxissga bo'lgan muhabbati va muhabbatning samari o'laroq lotin xalqini yer yuziga tarqatgan Eneyning dunyoga kelishi bayon etiladi. Bu asar muhabbatnomaga o'xshaydi, o'zining badiiy qiymati bilan to'plamdagi hamma madhiyalardan ustun turadi.

Dionisga bag'ishlangan madhiyada uning qaroqchilar tomonidan o'g'irlab ketilishi, uzoq vaqt bandilikda ushlab turib, badaliga katta jarima talab qilishi, Dionisning kema havozalarida bosh-bosh uzum paydo qilishi, keyin sharob qilib so'qib yuborishi va bir aylanib sher tusiga kirishi, qaroqchilarning undan qo'rqib o'zlarini dengizga otishi va delfinlarga aylanib qolishlari voqealari tarflanadi.

Homer madhiyalari yunon mifologiyasi va dinini o'rganuvchi kishilar uchun juda qimmatbaho manbadir.

GERODOT. "MEHNAT VA KUNLAR" DOSTONI

O'z zamonasidan norozi bo'lgan dehqon ommasi ayniqsa, uning kambag'al va qashshoq tabaqalari, to'qlik va ma'murchilik kunlari qabilida tasavvur etilgan uzoq patriarxal davrlarni qo'msaydi. Mana shu kayfiyatlar tamomila yangi adabiy janr – didaktik (pand-nasihat) eposni tug'diradi.

Didaktik eposning yunon adabiyotidagi eng birinchi namunasi Hesiodning "Mehnat va kunlar" dostonidir. Homer singari Hesiod haqida ham hech narsa ayta olmaymiz. Herodot va boshqa olimlar bu ikki ijodkor bir zamonda yashagan deb aytadilar. Ikkala adibning ham asarlarini chuqur tahlil qilish natijasida "Mehnat va kunlar" dostoni muallifining Homerdan ancha keyin yashab o'tganini isbotlaydi. Endilikda Hesiodni eramizdan oldingi VIII-VII asr boshlarida yashagan deb taxmin qiladilar.

Dostonda muallif tilidan hikoya qilinishiga qaraganda uning otasi Kichik Osiyoning Kili degan yerida tug'ilgan. So'ngra Yunonistonga ko'chib kelgan. Gelikon tog'ining yaqinidagi Beotiya viloyatiga qarashli Askra degan yerda qaror topgan. Shoirning otasi o'lgandan keyin otasining merosi ikki o'g'ilga qoladi. Hesiodning ukasi Pers hokimlarni qo'lga olib Hesiodni merosdan mahrum etadi. Nihoyatda qiyinchilik bilan umr kechirgan shoir, arang o'z ro'zg'orini tiklab oladi. Pers esa ota merosini behuda sovrub tamomlaydi, oxir-oqibat Hesioddan yordam so'rab keladi.

Hesiodning dostoni inson mehnatining ulug'ligi, adolatning barqarorligi va mehnat ahlining tirikchiligi yo'lida uchraydigan boshqa turli-tuman masalalar haqida Persga qarata aytilgan nasihatlar shaklida yozilgan asardir.

Hesiodning bashariyat tarixi haqidagi ta'limoti ham xuddi Pandora va Prometey afsonasi singari nihoyatda mudhish va qayg'ulidir. Shoir yer yuzida yashagan odamlarni besh avlodga bo'ladi, bu avlodlarning yashash tarixi asta-sekin razolatga yuz tutishdan iboratdir.

Eng birinchi avlod yer tarixining oltin davrida yashaydi. Ular mehnat va azob-uqubatning nimaligini bilmaydilar, tunu kunlari o'yin-kulgu bilan rohat-farog'atda o'tadi, hayotning bu noz-ne'matlarini bu baxtiyor odamlarga tabiatning o'zi yetkazib beradi. Ular bir-biriga yomonlik qilmasdan, totuvlik bilan hayot kechiradilar, o'lganlarida ham bamisoli uyquga ketgandek ohistagina dunyodan o'tadilar.

Ikkinchi avlod – kumush davri. Bu avlod bebosh bo'ladi, ma'budlarga ixlos qo'ymaydi, shu sababli Olimp hukmroni ulardan qahrilanib, yer qa'riga kiritib yuboradi.

Uchinchi avlod – mis davri. Bu davrda yashagan aholi sira ham avvalgilariga o'xshamagan, mehr-shafqatdan bexabar, jonbozlikdan, qon to'kishdan boshqa narsani bilmagan kishilar edi.

To'rtinchi avlod – mard-u maydonlar, bahodirlar davri. Ular o'zlaridan oldin o'tganlarga qaraganda rahmdil, muruvvatli edilar-u, ammo bu azamatlarning ko'plari Troya ostonalaridagi qonli janglarda, dengiz to'lqinlarida qirilib ketadilar.

Beshinchi avlod – temir davrini, ya'ni o'z davrini Hesiod yaramas ehtiroslar, pastkashliklar, zulm hamda adolatsizliklar avj olgan davr deb baholaydi.

Hesiodning maqsadi mavjud ijtimoiy tuzumni o'zgartirish, bema'ni tartib joriy etish emas, balki hayotdagi jamiki zulm va nohaqliklarni adolat g'oyalari qarama-

qarshi qo'yib, zo'ravonlarni ma'budlar qabri bilan qo'rqitish, ularni vijdon hukmiga da'vat etish va shu yo'sin odamlarni tarbiyalash, axloqni yaxshilash, jamiyatni tuzatishdir. Adolatning barqarorligiga, vijdon va nomusning qudratiga Hesiodning talonchil juda zo'r. Shoir odam bolasini hayvondan ajratadigan birdan-bir farq faqat adolat deb tushungan.

Hesiodning axloq bobidagi ko'pchilik fikrlari anchagina konservativ ruhda bo'lib, ularning bu xususiyati ham dehqonning og'ir ahvoli bilan bog'liq holda yuzuga kelgan. Shoir dehqonga ishq-muhabbat masalalarida nihoyatda ehtiyot bo'lishni uqtirib, "xotin kishi odamning boshini aylantirib, tezda omborini quriltgay", deydi. Uning uylanish va oila masalalari haqidagi fikrlari ham xuddi shunga o'xshashdir. Shoir erkaklarga faqat o'ttiz yoshlarda uylanishni, shunda ham faqatgina yosh qizni olishni maslahat beradi. Uy ko'rgan xotinga qaraganda yosh qizni "qayirib olish", axloq-odobga o'rgatish o'ng'ay bo'ladi deb tushuntiradi. O'g'il farzandni bittadan orttirmaslik lozim, aks holda dehqonning yeri merosga bo'linib, maydalanib ketadi, deb kengash beradi.

Nihoyat, dostonning xotima qismida qadimgi e'tiqodlarga ko'ra har bir oy "xosiyatli" va "xosiyatsiz" kunlarga ajratilib, qaysi kunda qanday ishlar qilinsa unumli, barakali bo'lishi va qanday ishiarni qilishdan saqlanish zarurligi ta'kidlanadi. Dostonning "Mehnat va kunlar" degan nomi ham shu oxirgi qismning mazmuniga ko'ra qo'yilgandir.

"Mehnat va kunlar" dostonidan tashqari "Teogoniya" (ma'budlarning paydo bo'lishi), "Ayollar jadvali" nomi bilan ataluvchi asarlar ham bevosita Hesiodning nomi bilan bog'liq.

Birinchi asari yunon mifologiyasini muntazam ravishda tartib etish niyatida yozilgan asar. Qadimgi yunonlarning koinot haqidagi tushunchalari, ma'budlarning paydo bo'lishi to'g'risidagi mifologik e'tiqodlarning bizga qadar yetib kelishida bu asar alohida ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi asari "Ayollar jadvali"da biron-bir ma'bud bilan qo'shilish orqasida atoqli yunon qabilalarining tarqalishiga sababchi bo'lgan mashhur ayollar haqida hikoya qilinadi.

YUNON LIRIKASINING TURLARI

Yunon tilidagi "lirika" so'zi "lira" cholg'u asbobi nomidan kelib chiqqan bo'lib, ma'nosi "musiqa jo'rligida ijro etiluvchi she'r" demakdir.

Bu atama lirik she'riyatning rivojlangan davridan anchagina keyin, taxminan eramizdan avvalgi III–II asrlarda ellinizm zamonasi olimlari tomonidan iste'molga kiritilgan. Shu paytga qadar yunonlarning o'zlari mazkur turkumga aloqador bo'lgan asarlarning hammasini "melos", "melika", ya'ni "qo'shiq" deb ataganlar. Ma'lumki, asrlar davomida qadimgi yunonlar lirik she'riyatni boshqa turli vositalar, masalan, qo'shiq, musiqa asbobi hatto raqs bilan bog'lagan holda tasavvur etib kelganlar. Shu sababli har bir lirik shoir bir vaqtning o'zida ham muallif, ham bastakor, ham raqs ustasi bo'lgan. Davrlar o'tishi bilan lirikaning yamb hamda elegiya deb ataluvchi bu'zi oddiy turlari asta-sekin musiqadan uzoqlashib, faqatgina o'qish uchun moslangan adabiy janrga aylanib qoladi. "Melos" iborasi esa yolg'iz ko'ngil hislarini ifodalovchi she'rga nisbatan ishlatiladi, bu toifa asarlarning musiqa bilan bog'liqligi yunon uzoq vaqtlar davom etadi. Lirikaning turlarga ajratish alomatlaridan biri

vazndir. Epik dostonlarning gekzometr o'lchovidan boshqa shakllarda yozilgan asarlarning hammasi lirikaga qo'shilgan va shu mezon asosida ularni "elegiya", "yamb" hamda "melos" turlariga ajratganlar.

Yunon she'riyatidagi *gekzometr* vazni olti turoqdan iborat bo'lib, bu turoqlarning har qaysisi *daktil* deb atalgan bir uzun ikki qisqa (- UU) bo'g'indan tashkil topadi. She'rning ohangdor bo'lishi uchun oxirgi turoq *spondiy* deb ataluvchi ikki uzun hiyo (- -) bilan almashtirib talaffuz etiladi va natijada quyidagi she'riy misra hosil bo'ladi:

UUG' - UUG' - UUG' - UUG' - UUG' - -

Shuni eslatib o'tish joizki, qadimgi yunon she'riyatida qofiya bo'lgan emas. Poeziyaning ohangdorligini ta'min etuvchi birdan-bir vosita vazndir.

Elegiyaning vatani Kichik Osiyodagi Fregiya viloyati bo'lgan. Bu janrning nomi ham chamasi shu yerning xalqi tilidagi elegn (qamish) so'zidan olingan bo'lib, bu toifa asarlarning ushbu o'simlikdan yasalgan musiqa asbobi fleyta (nay) jo'rligida ijro etilishiga ishora qilinsa kerak. Hozirgi zamon adabiyotshunoslik ilmida hazin tuyg'ularni ifoda etuvchi she'riy asarlar shu nom bilan yuritiladi. Elegiyani bu ma'noda tushunish qadimgi yunonlar uchun tamomila begona. Elegik asarlarda ular aksincha rubiy tetiklik kayfiyatlarini, botirlik g'oyalarni, jangovar hislarni talqin etganlar. Biroq elegiyaning xususiyatlarini belgilaydigan asosiy o'lchov uning mazmuni emas, balki vaznidir. Shu qoidaga ko'ra "elegik bayt" deb ataluvchi maxsus vaznda yozilgan har qanday she'riy asarni mazmunidan qat'iy nazar, shu janrga kiritganlar. Elegik baytning birinchi misrasi gekzometr. Ikkinchi misrasi pentametr nomi bilan yuritiladigan besh turoqli vazndan tarkib topgandir.

Bizga ma'lum bo'lgan eng qadimgi elegiyanavis shoir **Kallindir**. Kallin elegiyalarida vatanni himoya qilishga da'vat etadi. Bu mavzu shoir **Tirtey** ijodida davom ettirilib, she'rlarida Sparta lashkarlarini vatanni muhofaza qilishga, dushmanga nisbatan shafqatsiz bo'lishga chaqiradi. Shoirning ta'biricha, jangchining oliy fazilati botirlik va jasoratdir. Shu bilan birga qo'rqqoqlik, nomardlikni qattiq qoralaydi. Tirteyning elegiyalari butun yunon olamida keng tarqalgan. Shoirning she'rlari jangga ketayotgan lashkarlarning jangovar qo'shig'iga, maktab talabalarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalovchi darslikka aylangan.

Arxilox ijodida insonning shaxsiy tuyg'ulari o'z ifodasini topgan. Uning poeziyasida boshidan kechirgan og'ir hayoti, alamli muhabbati tasvirlanadi. Arxilox elegiya va yamblar yaratgan.

Yamb – hazil-mutoibani, tanqidiy fikrlarni ifoda etuvchi she'riy asar.

Yamb atamasining kelib chiqish tarixi ham ancha qorong'u. Qadimgi rivoyatlarda bu so'zni ma'buda Demetra afsonasi bilan bog'laydilar. O'z qizi Persefonaning yo'qolganligidan qattiq iztirob chekkan Demetra, (qizini zulmat ma'budi Aid o'g'irlab yer ostiga olib ketadi) ma'budlarga g'azab yuzasidan Elivsin podshohi Keley xonadoniga enaga bo'lib yollanadi. Shu xonadonning Yamb degan sho'x va o'ynoqi qizi g'alati askiyalar, qiziq-qiziq gaplar aytib ma'budaning ko'nglini ochishga, uni hiroz kuldirishga muyassar bo'lgan ekan.

Monodik lirika – poeziyaning oddiy turlari hisoblangan yamb va elegiya bilan birga VII-VI asrlarda monodik, ya'ni yakkaxon lirika ham benihoya tez taraqqiy etadi. She'riyatning bu turi xalq adabiyoti va musiqaning bevosita ta'siri ostida

bunyod bo'ladi. Bu janrning vatani bo'lmish Kichik Osiyoning g'arbiy qirg'og'idagi kattagina Lesbos orolida tug'ilib o'sgan ikki ulug' shoir Alkey, Sapfolar ixtiro etgan turli-tuman vaznlar bilan monodik lirikani mislsiz yuksak san'atkorlik cho'qqisiga ko'taradilar. Uning mazmunini o'sha paytga qadar yunon poeziyasida ko'rilmagan chubur insoniy his va tuyg'ular bilan sug'oradilar.

Alkey ijodida siyosiy mavzular bilan birga ayollar latofatini tasvirlovchi she'rlari ham mavjud.

Shoira **Sapfo** poeziyasi faqatgina shaxsiy kechinmalar, yurak hislari bilan chegaralangan, deyarli yakka-yagona mavzu sevgi va go'zallikdir.

Monodik lirikaning yana bir vakili – shoir **Anakreont**. Bu shoir ijodidagi asosiy mavzu ishq va maydir. Anakreont ishqiy she'rlardan tasbqari madhiya, elegiya, epigrammalar ham yozgan.

Mavzu yuzasidan lug'at:

Lirika - torli cholg'u asbobi "lira" nomidan kelib chiqqan bo'lib, ma'nosi musiqa jo'rligida ijro etiluvchi "she'r" demakdir.

Monodik lirika – yakka xonanda tomonidan ijro etiluvchi qo'shiq.

Xor lirikasi – ko'pchilik tomonidan ijro etiluvchi qo'shiq.

Gekzometr vazni - olti turoqdan iborat bo'lgan vazn, bu turoqlarning har qaysisi daktil deb atalgan bir uzun (-) ikki qisqa (UU) bo'g'indan tarkib topgan she'riy vazndir.

Spondiy – ikki uzun hiyo (- -) deb yuritiladi.

Elegiya – janr nomi. Kichik Osiyodagi Fregiya viloyati xalqi tilidan olingan, lug'aviy ma'nosi "qamish" demakdir.

Fleyta – nay cholg'u asbobi.

Yamb atamasining kelib chiqish tarixi ancha qorong'u. Demetra afsonasi bilan bog'liq. Sho'x va o'ynoqi degan ma'noni bildiradi.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR:

1. Yunon adabiyotining dastlabki negizlari haqida so'zlang.
2. Antik adabiyotning asosiy omillari nimalardan tarkib topadi?
3. Homer va uning ijodiy faoliyatiga turtki bo'lgan narsalar nima?
4. Turkum dostonlar deganda nimalarni tushunasiz?
5. Homer nima uchun o'z madhiyalarini barcha ma'budalarga bag'ishlagan?
6. "Mehnat va kunlar" asarining didaktik asar deb tan olinishiga sabab nima?
7. "Mehnat va kunlar" asarining asosiy g'oyasini nima tashkil etadi?
8. Yunon lirikasining turlarini aytib bering.
9. Yamb va elegiya lirikasining o'zaro farqi nimada?
10. Monodik lirikaning asosiy vakillari kimlar?
11. "Iliada" dostonining mazmunini so'zlab bering.
12. "Odisseya" dostonida tasvir etilgan voqealar tafsilotini so'zlang.
13. Olimp tog'i ma'budlarining qanday o'ziga xos xususiyatlari bor?

14. Nima sababdan ma'budlar odamlar bilan birga jang maydonlarida qatnashadi?

ADABIYOTLAR:

1. Sulaymonova F. Sharq va G'arb.- T.: O'zbekiston, 1997.
2. Nikitina V.B. i dr. Literatura drevnego Vostoka. -M.: 1962.
3. Tronskiy I.M. Istoriya antichnoy literaturi. – M.:Visshaya shkola, 1988.
4. Gilenson.B.A. Istoriya antichnoy literaturi. – M.: “ Flinta”, 2012
5. Kun N.A. Qadimgi Yunoniston afsona va rivoyatlari.- T.: Davrpress, Q.Mirmuhamedov tarjimasini. 1-kitob, 2013; 2-kitob, 2014.
6. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. Ritorika. – T.: Yangi asr avlodi, 2004.
7. Boltaboyev H., Mahmudov M. Adabiy estetik tafakkur tarixi.- T.: Mumtoz so'z, 2013.
8. Mahmudov M. Homer olami. “Sharq yulduzi” jurnali, 6-son, 2007.
9. Komilov N. Tafakkur karvonlari. -T.: “Sharq” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2011.
10. Ibragimov.R. Homer. Iliada . Taqdir oldidagi o'zliklik. www.kh-davron.uz
11. Alimuhamedov N. Antik adabiyot tarixi.- T.: O'qituvchi, 1975.
12. www. goldlit.ru
13. www. livelib.ru
14. www.wikipedia.org
15. www. Widsoms.ru
16. www.kinopoisk.ru
17. www.englishstory.ru

BADIIY ADABIYOT:

1. Homer. Odissey.-T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-manbaa ijodiy uyi, 2012.
2. Homer. Iliada.- T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.
3. Ellada qahramonlari. – T.: Yosh gvardiya, 1976.
4. Ilyosov Ya. So'g'diyona. – T.: “Sharq” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 1994.
5. Konfutsiy. Muhokama va bayon. – T.: Yangi asr avlodi, 2010 – 110-b.
6. Ezop masallari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2010, 212-b.
7. Все шедевры мировой литературы в кратком изложении. Сюжеты и характеры. Зарубежная литература древних эпох, Средневековья и Возрождения. Энциклопедическое издание. – М.: «Олимп», АСТ, 1997, 848 с

ATTIKA VA ELLINIZM DAVRI YUNON ADABIYOTI

REJA:

1. Attika davri yunon adabiyoti.
2. Dramaning paydo bo'lishi.
3. Ilk dramaturglar: Esxil, Sofokl, Evripid.
4. Aristofan – komediyanaavis.
5. Antik davr yunon prozasi va uning yo'nalishlari.
6. Ellinizm davri yunon adabiyoti xususiyatlari.

Mavzuga oid tayanch so'z va iboralar:

Drama. Tragediya. Komediya. Attika davri. Satirlar dramasi. Dionis. “Zanjirband Prometei”, “Shoh Edip”, “Medeya” tragediyalari. Qadimgi Attika komediyasi. “Tinchlik” komediyasi. Tarixiy nasr. Notiqlik san'ati. Ritorika. Epidektik notiqlik. Falsafiy nasr. Katarsis. Ellinizm davri adabiyoti.

Eramizdan avvalgi V asr yunon jamiyatining ijtimoiy-siyosiy va madaniy jihatdan yuqori bosqichga chiqqan davri bo'lib, Perikl davlatni boshqargan. Bu davr yunon tarixi voqealarga boy bo'lib, turli jabhalar, jumladan, ilm-fan, san'at rivojlandi. Ana shu o'zgarishlar munosabati bilan muhim siyosiy va axloqiy muammolar adabiyotda o'z ifodasini topdi.

Homer dostonlari bilan bir qatorda dramatik adabiyot yunonlarning jahon madaniyatiga qo'shgan bebaho hissasidir.

Drama so'zining mazmuni “harakat” demakdir. Bu atama mazkur janrning harakatdan va odamlarning o'zaro suhbatlari – dialogdan tarkib topganligidan dalolat beradi. Dramaning kelib chiqish tarixini qadimgi zamon olimlari va hozirgi davr ilm ahli xalq diniy marosimlari bilan bog'laydilar. Yunon dramaturgiyasining barcha turlari tragediya, komediya, satirlar dramasi ana shu diniy rasm-rusumlar va ayniqsa, Dionis marosimlari asosida maydonga kelgan.

Afsonalarda hikoya qilinishicha, ma'bud Dionis Zevs bilan Semela degan qizdan tug'ilgan. Dionis o'zining odamtaxlit, ammo dumdor echki tuyuq hamrohlari – satirlar bilan birga dunyoni kezib yurgan paytlarida insonning og'ir va g'amgin hayotini ko'radi-da, odam bolasini baxtiyor, xushnud qilish maqsadida ma'budlar taomi amvroziyani Olimp tog'idan ularga keltirib bermoqchi bo'ladi. Biroq Olimp hukmdorlari yosh ma'budning niyatlarini payqab qolishadi. Dionis amvroziyani yerga ko'mib qochadi. Ko'p o'tmay shu joydan tok novdalari o'sib chiqadi, uning yoqutsimon sohir mevalari odamlarga baxt va shodlik keltiradi. Dionisning bu o'zboshimchaligidan qattiq g'azablangan otasi Zevs o'z o'g'limi Olimp tog'idan budarg'a qiladi. Dinnis yer yuzida og'ir mashaqqatlar bilan hayot kechirib olamdan o'tadi. Dionis falakka ko'tarilish oldidan odamlarga yilda ikki marta o'z sharafiga bayram o'tkazishni vasiyat qilgan.

Tragediyaning bevosita Dionis marosimlari bilan bog'liq bo'lganligiga va to'p'ridan-to'g'ri shodu xurramlik ma'budi sha'niga to'qilgan diframb qasidalaridan kelib chiqqanligiga Arastu ham sira shubha qilmaydi. U o'zining “Poetika” asarining

4-bobida bu borada qat'iy fikrlar aytadi. Ulug' faylasufning izohiga qaraganda, hatto tragediya atamasining o'zi ham Dionis shaxsi bilan mahkam bog'liqdir. Bu atama "trago" va "oide" degan ikki so'zdan tarkib topgan bo'lib, "taka qo'shig'i" degan ma'noni bildiradi. Juda qadim zamonlarda yunonlar Dionisni taka qiyofasida (totemizm) tasavvur etganlarini va satirlarning takasifat maxluq bo'lganlarini eslasak, Arastu fikrlarining to'g'riligiga iqror bo'lamiz. Arastuning "tragediya – diframb peshtalqinlaridan, komediya – fall (tanosil) qo'shiqlari peshtalqinlaridan hoshlangandir" degan qat'iy da'vosini ilm ahli hozirgi kunda to'la e'tirof etmoqda.

ESXIL

Esxil jahon adabiyotida san'atlar gultoji – tragediyaning otasi sifatida tanilgan. U miloddan avvalgi 525-456-yillarda, yunon madaniyatining oltin davri – Perikl davrida yashagan. Barcha yunon adiblari singari Esxilning ham hayotiga doir ma'lumotlar kam saqlanib qolgan. Shoir taxminan 525-524-yillarda Elivsin shahrida, aslzodalar oilasida dunyoga kelgan. Shoir umrining oxirgi yillarini vatanidan uzoqda Sitsiliyada o'tkazadi va 456-yilda Gela shahrida vafot etadi.

Shoir zamonasining eng muhim tarixiy voqealarida, ayniqsa Yunon-Eron urushlarida, Marafon, Salamim, Plateyadagi janglarda qatnashadi. Esxilning adabiy faoliyati juda erta boshlangan. Rivoyatlarda aytiladiki, shoir hati o'spirin ekan, Diomis tushiga kirib uni tragediya yozishga undaganmish. Qadimgi zamon olimlarining guvohlik berishicha, Esxil nihoyatda mahsuldor ijod qilgan yozuvchi ekan. Biroq uning 90 ga yaqin tragediyadan iborat boy merosidan bizga qadar faqat yettitasi yetib kelgan.

Bular "Eroniyalar", "Fivaning yetti dushmani", "Iltijogo'ylar", "Zanjirband Prometey", "Oresteya" trilogiyasini tashkil etgan "Agamemnon", "Xoeforlar" hamda "Evmenidalar" tragediyalari. "Eroniyalar" tragediyasidan boshqa barcha asarlari mifologik mavzularda yozilgan. Esxil o'z asarlarida ijtimoiy, falsafiy, siyosiy qarashlarini yashirmagan. E'tiqodlari uchun kurashda xolis yoki befarq turolmagan.

Esxil ijodining dastlabki mahsuli "Iltijogo'ylar" tragediyasidir. Asarning voqeasi podshoh Danayning ellikta qizi haqidagi "Danaidalar" afsonasidan olingan. Danaidalarning ellikta amakivachchasi podshoh Egiptning o'g'illari ularni zo'rlik bilan xotinlikka olishmoqchi bo'lishadi. Shahzodalarning surbetligidan ranjigan Danaidalar otasi Danay bilan Yunonistonning Argos shahriga podshoh Pelasg yurtiga keladi. Pelasg Danaidalarni himoya qilishga urinadi. Amakivachchalari elchi yuborib, agar qarshilik ko'rsatsa, shahar ustiga bostirib kirishlarini aytadilar. Bu trilogiyaning "Misrliklar" va "Danay qizlari" deb atalgan qismlari bizgacha yetib kelmagan. Ammo tragediyaning xotimasi ma'lum: zo'rlik bilan xotinlikka olingach, nikoh kechasi opa-singillar erlarini o'ldirishga, qasos olishga va dalashadilar. Nikoh kechasida Gipermestra degan Danaida bu og'ir jinoyatga qo'l urmaydi va erini omon qoldiradi. Nihoyat mifning oxirida lafzidan qaytib, opa-singillariga xiyonat qilgan Gipermestra ustidan sud bo'lib o'tadi, Afrodita sevgi va nikoh haqida jo'shqin so'zlar aytib uni oqlaydi.

Ana shu ilk asardayoq shoirning demokratik kayfiyati ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Erkinlik g'oyalari asosiga qurilgan Ellada demokratik tuzumi tragediya davomida necha bora Sharq istibdod tuzumiga, mustabidlikka qarama-

qarshi qo'yiladi. Bu asarda Argos podshohi esa o'z fuqarosi bilan bamaslahat ish ko'radigan odil podshoh sifatida gavdalanadi.

"Eroniyalar" tragediyasi zamonaviy mavzuda yozilgan yagona asardir. Yungingnada bo'lib o'tgan Eron-Yunon urushi haqida hikoya qiladi. Shoirning o'zi ham qatnashgan urush tragediyaning asosiy mavzusi. Asardan Esxilning zamonaviy mavzuni qanday ishiaganligi ma'lum bo'ladi. Shoir Kayxusravning zolimligini Yunonistonning erkin, demokratik tuzumiga qarama-qarshi qilib tasvirlaydi.

"Fivaning yetti dushmani" tragediyasi Edip haqidagi mifdan olib yozilgan trilogiyaning uchinchi qismi bo'lib, oldingi ikki qismi – "Lay", "Edip" tragediyalari bizga qadar yetib kelmagan. Fiva shahri afsonalarida hikoya qilinishicha, podshoh Lay kohinlarning karomatidan qo'rqib, o'zining endigina tug'ilgan o'g'li Edipni xizmatkoriga topshiradi va uni o'ldirib, o'ligini yirtqich hayvonlarga tashlashni buyuradi. Ammo xizmatkor chaqaloqqa achinib, uni yashirib boshqa yurt podshohiga eltib beradi. Trilogiyaning birinchi qismi "Lay" tragediyasining mazmuni ana shu voqeadan iboratdir. Edipning begona yurtda o'sib voyaga yetishi, keyin Fiva shahriga kelib bilmasdan o'z otasi Layni o'ldirib qo'yishi, Fiva xalqiga qilgan xizmatlari tufayli bu shaharga podshoh bo'lib ko'tarilib, o'z onasiga uylanishi, undan bola-chaqa ko'rishi va nihoyat mudhish qilmishlarini payqab qolib, o'z ko'zini o'yib olishi hamda nobakor o'g'illarini qarg'ab, la'natlab darbadar chiqib ketishi tasvirlanadi. Tragediyaning ikkinchi qismi "Edip" tragediyasiga mavzu bo'lgan. Trilogiyaning uchinchi qismi "Fivaning yetti dushmani" tragediyasida ana shu qarg'ishning mudhish oqibatlari ko'rsatiladi.

Edip o'lgandan keyin uning katta o'g'li Polinik bilan kichik o'g'il Eteokl o'rtasida taxt mojarosi boshlanadi. Bunda Eteokl g'olib chiqadi va akasini yurtdan badarg'a qiladi. Quvg'indi Polinik qo'shinlari podshohlarning panohida bo'lib, biroz vaqt o'tar-o'tmas olti podshoh bilan til biriktirib Fiva shahriga lashkar tortib keladi. "Fivaning yetti dushmani" tragediyasi afsonaning xuddi ana shu yeridan boshlanadi. Asarning kirish qismida Eteoklni shahar mudofaasi taraddudida ko'ramiz. Dushman vaziyatini bilib kelish uchun yuborilgan ayyoqchi muhim ma'lumotni olib keladi. Eteokl va ayyoqchi o'rtasidagi suhbat asarning eng muhim o'rnidir. Ayyoqchi shaharning yetti darvozasi yetti podshoh egallaganligini aytib, ularning har birini alohida-alohida ta'rif etadi. Yettinchi darvozani egallab turgan sardorning ta'rifiga kelganda g'azabining zo'ridan Eteoklni titroq bosadi. Bu o'z akasi Polinik edi. Axir tug'ilib o'sgan yurtiga qilich yalang'ochlab kelish o'taketgan xoinlik emasmi? Bunday badkirdor bilan Eteoklning o'zi yakkama-yakka jang qilishga ahd qiladi. Og'a-inilarning bir-biriga qilich ko'tarishi naqadar dahshatli fojia ekanligini bilsa-da, Eteokl o'z maqsadidan qaytmaydi. Jangda ikkala aka-uka ham o'ladi. Shunday qilib, taqdirning xohishi ijobat bo'ladi, qarg'ish urgan Lay xonadoni batamom qirilib bitadi. Asar ham mana shu joyda tugaydi.

Taqdir, jinoyat va jazo masalalari Esxilning bizga qadar to'liq yetib kelgan "Oresteya" trilogiyasida yanada chuqurroq talqin etilgan. Miloddan avvalgi 458-yilda sahnaga qo'yilgan bu asarning birinchi qismi "Agamemnon", ikkinchisi "Qabr toshidagi qurbonlik" (yoki "Xoeforlar"), uchinchisi "Evmenidalar" deb ataladi. Uchala tragediya Troya urushlari turkumiga kiradi. Asarga Atrey farzandlari (Atridlar) haqidagi rivoyatlar asos bo'lgan. Rivoyatlarga qaraganda, Miken shohi

Atrey o'z akasi Fiyestdan o'ch olish maqsadida uning bolalarini o'ldirib, go'shtlarini bildirmasdan otalariga yediradi. Shundan keyin bu mudhish jinoyatning kasri Atrey avlodlariga urib, o'shandan beri ular orasida uzluksiz urush bo'lib keladi, Atreyning o'g'li Agamemnon o'z qizi Ifigeniyani ma'budlarga qurbon qiladi. Agamemnonning xotini Klitemnestra Fiyestning tirik qolgan o'g'li Egisf yordami bilan erini o'ldiradi. Agamemnonning o'g'li Orest otasining xunini olib o'z onasi va Egisfni o'ldiradi.

Esxil "Oresteyada" mana shu rivoyatni qayta ishlar ekan, Klitemnestraning yorqin fojeyi xarakterini yaratadi. Tragediya voqealari Argosda, Agamemnon saroyi oldidagi maydonda bo'lib o'tadi. Yunoniston tog'larining cho'qqilarida birin-ketin yoqilgan gulxanlar o'n yillik urushning yunonlar uchun zafar bilan tugaganligi xabarini Argosga yetkazadi. Malika erini "Troya urushida o'lib ketadi" deb o'ylab, Egisf bilan yaqinlashgan edi. Endi esa u Agamemnonning kelishidan xursand qiyofada ko'rinadi. Klitemnestra murakkab, yorqin shaxs. U yunonlarning bosqinchiligini qoralaydi. Lashkarboshi Agamemnonning vataniga qaytib kelayotganligi haqidagi har bir xushxabar poytaxtda bayram kayfiyatini vujudga keltirsa-da, odamlar dahshatli falokat yaqinlashayotganligini his etib turishadi. G'alaba haqida xushxabar keltirgan elchi dengizda bo'ron turib, yunon flotining juda ko'p kemalari suvga g'arq bo'lganligini aytadi. Ko'p o'tmay g'olib shoh Agamemnon jang aravasida, "xuddi Sharq podshosi singari alvon poyandoz uzra qonli qismatiga" (I.M.Tronskiy) yaqinlashadi. Troyalik asira malika Kassandra saroydagi qonli fojiani (Agamemnonning hammomda chopib o'ldirilishini, Klitemnestra qo'lida o'zining ham halok bo'lishini) bashorat qiladi. Ko'p o'tmay, Agamemnonning o'limi oldidagi qichqirig'i eshitaladi. Endi Argosda Klitemnestra va uning xushtori hukmron bo'lib qoladi.

Trilogiyaning ikkinchi qismi "Qabr toshidagi qurbonlik" (yoki "Xoeforlar" – "Qurbonlik idishiga moy quyuvchilar")da shoir musofirchilikda, begona yurtlarda o'sgan Orestning Apollion kohini buyrug'iga ko'ra onasidan o'ch olish uchun Argosga kelishini ko'ramiz. Asarda axloqiy konflikt ko'rsatilgan. Orest otasi oldidagi farzandlik burchni bajarish uchun yanada og'ir jinoyatga qo'l urishi – onasini o'ldirishi kerak. Asar voqeasi Agamemnon qabri oldida yuz beradi. Bu yerda Orest g'am chekayotgan singlisi Elektrani uchratadi. Shu sahnada cho'rilar xori malika Klitemnestraning tushida ko'rgan falokatlardan xabar beradi. Elektra musofir odamning o'z akasi ekanini tanib qoladi. Shunday qilib, Orestning qarori yanada qat'iyilashadi. U Orestning o'limi haqida xabar berish uchun kelgan musofir qiyofasida saroyga kiradi va avval Egisfni, so'ng Klitemnestrani o'ldiradi. Tangri Apollon hukmi ado etiladi. Ammo onasining qotili bo'lganligi uchun Orest jinni bo'lib, eriniyalarning (xunxor farishtalarning) quvg'iniga uchraydi.

Asarning "Evmenidalar" deb ataluvchi uchinchi qismida tangri Apollon onasining qotili Orestni aysbiz deb, Delfadan Afinaga – Pallada ibodatxonasiga yuboradi. Eriniyalar – qasos farishtalari Orest izidan borishadi. Afina – Pallada jamoa fikrini bilish uchun Orest ishini areopag – xalq sudi hukmiga tashlaydi. Eriniyalar sudda ayblovchi sifatida qatnashadi. Ikki tomon teng ovozga ega bo'lib qolganida raislik qiluvchi Afina ota oldidagi burchini bajargan Orestni oqlaydi. Bu g'alabani asosiy sababi shundaki, Agamemnon qiyofasidagi otalik hokimiyati Vatan manfaatlarini ifodachisi edi.

Esxilning "Zanjirband Prometey" tragediyasi shoir ijodining cho'qqisi hisoblanadi. Haqiqatdan, asar g'oyaviy-badiiy teranligi, hur fikrlarga, falsafiy muhohadalarga boyligi, inson ruhiy olamining mo'jzaviyligini, uning hali ochilmagan sirli qatlamlarini dadil ko'rsatishi jihatidan jahon adabiyoti xazinasining mislsiz durdonasi bo'lib qoldi. Shoir Asqar Qosimov bu mangu obidani o'zbek tilida jaranglatishga jur'at qilar ekan, asarning xuddi shu ma'naviy jihatlari saqlashga intildi. U tarjimada Prometeyning isyonkor ruhini ifodalash uchun ona tilimiz xazinasidagi eng asl, qimmatbaho, javohir so'zlarni topib ishlatadi:

Ey, siz arshi a'loning bor-yo'q karami,
Uchqurqanot shabodayu lojuvard nahr
Ila dengiz dolg'asining qahqahalari,
Ona-Yeru chor atrofni yoritsin oftob!
Hammangiz ham shohid bo'ling: qarang, shu tarzda
Ma'budlardan zulm ko'rgum, ma'bud esam-da,
Yuksak zavqli ma'budlarning yangi tojdori
Sharmandali kishanlarga chirmadi meni.
Darig'oki, shu ofatu kelajakdagi
Falokatlar to'g'risida na'ra tortaman!

Ma'lumki, Firdavsiyning "Shohnoma"sida Qayumars, Hushang va boshqa podshohlar ilk marta olovni, kiyim-kechakni, mehnat asboblarini kashf etishadi. Yunon afsonalarida esa Prometey yorug'likni, aljabrni, nahv ilmini, ijodiy xotirotni, muzalarni – san'at ilohalarini kashf etadi. Bu bilan u Zevs hukmdorligini abadiy yashovchi adolatli davr-davranga aylantirishni o'ylaydi. Ammo Zevs undan shubhalanadi va jazoga hukm qiladi.

Odam bolasining og'ir qismatiga, yer yuzidagi zulm va adolatsizliklarga qarshi haqiqiy isyon "Zanjirband Prometey" tragediyasida ayniqsa kuehli jaranglaydi. Bu asar Esxilningina emas, balki butun jahon adabiyotining ozodlik va insonparvarlik shahoniga bitilgan buyuk yodgorligidir. Bu tragediya "Xalos etilgan Prometey" va "Otashbardor Prometey" bilan birga qo'shilib yaxlit uchlik asarni tashkil etadi. Har uchala tragediyaning voqealari qadimgi Yunonistonda keng tarqalgan Prometey afsonalaridan olingan. Prometey qadimgi ma'budlar nasliga mansub titanlardan bo'lgan. Zevs o'z otasi Kronosni Olimp taxtidan ag'darib, o'zini ma'budlarning va yer kurrasining hokimi etib tayinlaydi. Zevsqa qarshi barcha titanlar bosh ko'tarib chiqadi. Yolg'iz Prometey Zevs tomonida bo'lib, titanlar bilan urushadi. Zevs o'z dushmanlarini yer qa'riga gumdon qilib ko'ngli tinchigach, odamzodning zurriyodini qutqitib, o'rniga yangi nasl yaratmoqchi bo'ladi. Buni payqab qolgan Prometey Olimp mehrobidan muqaddas olovni o'g'irlab, odamlarga keltirib beradi va bu jasorati bilan odamzodni halokatdan qutqarib qoladi. Biroq Prometeyning odam bolasiga qilgan bu yaxshiliklaridan qattiq xafa bo'lgan Zevs va ma'budlar ulug' titanning boshiga bitmas-tuganmas kulfatlar yog'diradi.

"Zanjirband Prometey" tragediyasi odamparvar titanning jazolanishidan boshlanadi. Dunyoning eng chetidagi skiflar mamlakati tevarak-atrofi qaqragan cho'l, tog'n toshlar, biron yerda ko'kargan giyoh ko'rinmaydi, hammayoq jim-jit, g'amgin va mash'um tog' etaklariga urilgan dengiz to'lqinlarining guldurosi ahyon-ahyonda

sukunatni buzib turadi, dunyo yaratilgandan buyon shu mudhish yerlarga inson qadami tekkan emas.

Zevsning Hukm va Zulm degan ikki malayi Prometeyning oyoq-qo'llariga kishan urib, tog' cho'qqisiga zanjirband qilib tashlash uchun shu yerga haydab keladilar. Bu mudhish voqeani titanning do'sti otash ma'bud'i Gefest o'z qo'li bilan bajarishi kerak, bunchalik og'ir yuk ustida alam chekkan Gefest gurzisini yelkasiga tashlab, og'ir qadamlar bilan hammadan orqada kelmoqda. Bu hukmni bajarishdan bosh tortish aslo mumkin emas va otasining (Zevs) hukmiga qarshi chiqa olmaydi. Hukm va Zulm Prometeyni tog'ning eng yuqori cho'qqisiga chiqarib Gefestni qistovga oladi. Noilojlikdan Gefest do'stini zanjirband etib, ko'krigidan mix qoqib, qoyaga mixlab tashlaydi. Og'ir gurzining tovushi va Prometeyning falakka qilgan xitobidan dengiz to'lqinlari, shamol, quyoshga qarata bu azoblarining barchasi inson bolasiga qilgan yaxshiliklarining evaziga ekanini uqtirib, barchasini guvohlikka chaqiradi. Bularni eshitgan Okean va Okeanidalar yetib kelishadi. Okeanidalar bir tomonlama Prometeysga amakivachcha, ikkinchi tomondan qaynsingil ham, Okeanidalar iltimosiga ko'ra, Prometeys odamlarga qilgan yaxshiligini batafsil so'ylab beradi. Titan odam bolasiga uy-joy qurishni, kema yasashni, o'qish-yozishni, hisob bilimni, dehqonchilik ishlarini, eng muhimi Olimp tog'idan keltirilgan olovdan qanday foydalanish lozimligini va boshqa turli-tuman hunarlarni o'rgatadi. Prometeyning bu xizmatlari tufayli insonlarning hayoti yengillashadi, turmushi yaxshilanadi. Har bir narsaning chek-chegarasi bo'lgani singari Zevsning ham bir kun Olimp tog'idan uloqtirilib tashlanishini Prometeys yaxshi biladi. Prometeysgina bu sirdan ogoh, xolos. Zevs bu sirni oshkor etish uchun Germesni Prometeyning yoniga jo'natadi. Qancha azoblab, do'q-po'pisa qilmasin, titan bu sirni aytmaydi. Shu payt to'fan ko'tarilib, gulduros momaqaldiroq boshlanadi, chaqmoq chaqadi, yer qoq yorilib, tog' bilan birga Prometeys va Okeanidalar yer qa'riga kirib ketadilar. Shu yerda tragediya tugaydi. Tragediyaning qolgan ikki qismi bizgacha yetib kelmagan. Taxminiy mazmuni quyidagicha: oradan bir necha asrlar o'tgach, Zevs o'z dushmanini yana yer yuziga ko'tarib, ilgarigidan ham beshbattar qiynoqqa soladi. Saraton issig'i tanasini kuydiradi, kuz va qish sovuqlari, bahor yomg'irlari badanini qaqshatadi. Ammo bu azoblar ham Zevsni qoniqtirmay, har kuni ertalab ma'budning kattakon burguti uchib keladida, titanning ko'krigiga qo'nib, o'tkir tumshug'i bilan titanning qornini yorib, jigarini parcha-parcha qilib yeydi. Bu hol har kuni takrorlanadi, ertalabgacha titanning yana jigari o'sib chiqadi, burgut kelib yeb ketaveradi, bu hol bir qancha yil davom etadi. Nihoyat taqdirning taqozosi bilan titanni ozod etish uchun Gerakl ham dunyoga keladi. Jahonni aylanib yurgan Gerakl bu yerga ham keladi, kamaligidan o'q uzib burgutni o'ldiradi va Prometeyni ozod qiladi.

Esxil bu asarida insonparvarlik, ezgulik g'oyalarini iigari suradi. Xalqqa yaxshilik qilib, buning evaziga tunganmas qiynoq, azobga giriftor bo'lgan Prometeys qilgan ishidan pushaymon bo'lmaydi, barcha azoblarni bardosh bilan yengadi. Asarda Prometeys obrazi orqali Inson mag'rurligi, sabot va matonati ulug'lanadi. Prometeys insonlarga insonlik yo'lini ko'rsatganligi bilan faxrlanadi. Bu yo'l insonlarga yaxshilik qilishdan boshlanadi.

Esxil chindan ham "tragediyaning otasi"dir. Ibtidoiy bosqichda bo'lgan dramatik adabiyot qisqa muddat ichida uning ijodida badiiy barkamollik bosqichiga ko'turiladi. Tragediyaga ikkinchi aktyorning kiritilishi natijasida chinakam dramatik element bosli bo'ldi. Esxil tomonidan yaratilgan bu muhim yangilik, jahon dramaturgiyasi tarixida katta o'zgarish yasaydi.

Arastu o'zining "Poetika" asarining 4-bobida shoir xizmatini xuddi shu nuqtayi nazardan baholab, "Esxil birinchi marta aktyorning somini ikkitaga ko'paytirdi, xorning rolini qisqartirdi va shu bilan dialogning rivoj topishiga zamin hozirladi", deydi.

Xullas, Esxil o'zining butun badiiy mahoratini zamonasidagi eng muhim ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy va axloqiy masalalarni ko'tarishga, ularni adolat va demokratik tuzumning manfaatlari nuqtayi nazaridan hamda jaholatning muqarrar yengilishi, ilm-fanning kamol topishi, inson ongining buyuk imkoniyatlariga chuqur ishonch prinsiplarida hal qilishga uringan.

S O F O K L

Jahon adabiyoti tarixida tragediya san'atining taraqqiyot bosqichlarini ulug'vor bir qasrga o'xshatsak, uning poydevoridagi tamal toshlari deb, 3 ta buyuk shoirni ko'rsatish mumkin. Yoki bularni tragediya san'ati naqshinkor saroyining uch ustuni deyish mumkin. Bular Esxil, Sofokl va Evripiddir. Yunon tragediasining ikkinchi ulug' namoyandasi Sofokl 496-yilda Afina yaqinidagi Kolon degan joyda tug'iladi, yoshligidan bilimga tashna bo'lib, ilm-fanning turli sohalarini chuqur o'rganadi. Uning otasi qurol-yarog' aslaha korxonasining egasi, zamonasining ancha badavlat, obro'li kishisi bo'lgan. Adib yoshligidan yaxshi tahsil ko'radi. 28 yoshida dramatik adiblar musobaqasida g'olib chiqadi. Sofokl Afinaning ijtimoiy-siyosiy hayotida ham muhim rol o'ynaydi. Periklga yaqin bo'lganligi va Afinaning demokratik usul idorasiga xayrixohlik bilan qaraganligi vajidan bir necha yil davlat xazinachisi bo'lib ishlaydi. 441-yilda janglarda ko'rsatgan jasoratlari uchun Perikl uni Afinaning eng oliy lavozimlaridan strateg – bosh qo'mondon darajasiga ko'targan. Yurtdoshlari Sofokl ni sevib, ardoqlab, shon-shuhrat cho'qqilariga ko'tarishgan. Dunyodagi ko'pgina ulug' shoirlardan farqli o'laroq, Sofokl butun umrini shon-shavkatda, izzat-ikromda o'tkazadi. Xalqqa qilgan yaxshiliklari, ayniqsa yaratgan shohona asarlari tufayli, o'limidan so'ng xalq unga baland haykal tiklab, poyini qadamjoga, ziyoratgohga aylantirdi.

Qadimgilarning guvohlik berishicha, adib o'zining 60 yillik adabiy faoliyati davomida 120 dan ortiq tragediya yozgan. 24 marta dramatik shoirlar musobaqasida g'olib chiqqan. Biroq mazkur asarlardan bizgacha yettitasi yetib kelgan, xolos. Shohona asarlari bilan butun dunyoni lol qoldirgan Sofokl juda kamtar bo'lgan, shodlik va qayg'ularini xalq bilan birga tortgan. Shoir o'zining durdona asarlarini mardlik va rostgo'ylik bilan "Homerning noz-ne'matlarga boy to'kim-sochin dasturxonidan to'kilib qolgan ushoqlardir xolos" deb haq gapni aytgan.

Jahon adabiyoti tarixiga Sofokl Edip haqidagi rivoyatlar asosida yozilgan asarlari "Edip shoh", "Edip Kolonda" va "Antigona" tragediyalari bilan kiradi.

Qadimgi Yunonistonda juda keng tarqalgan Edip afsonalari Sofokldan ilgari ham bir qancha shoirlar ijodida asosiy mavzulardan bo'lgan. Bu afsonalar Fiva siklidagi afsonalar deb yuritiladi.

Fiva siklidagi Edip afsonasining mazmuni quyidagicha: Fiva podshohi Lay qo'shni podshoh Pelopning uyida bir necha kun mehmon bo'lib, uning o'g'li Xrisippni olib qochadi. Mehmonning bu tariqa razil ko'rnamakligidan qattiq iztirob chekkan Pelop ma'budlarga zor-zor yig'lab, dilozorini la'natlaydi. Oradan bir necha yil o'tadi. Lay bola ko'rmaydi, bu ahvoldan tashvishlangan podshoh Delfadagi Apollon ibodatxonasiga borib, boshiga tushgan baxtsizlik sirlarini so'rganida, ibodatxona kohini Pelopning nola va iltijolari ma'budlar qoshida ijobat bo'lganini aytadi: Lay albatta bola ko'radi, lekin bola o'z otasini o'ldirib, o'z onasiga uylanadi deydi.

Darhaqiqat, ko'p o'tmay Layning xotini Iokasta o'g'il tug'adi. Kohinlarning bashoratidan qo'rqqan Lay, chaqaloqning tovoniga nishtar uradi-da, quilaridan biriga topshirib, Kiferon tog'iga eltib tashlashni buyuradi. Podshoh amin ediki, u yerdagi yirtqich hayvonlar bolani omon qoldirmaydi. Biroq qul go'dakka achinib, bolani o'ldirmaydi, tog' etagida mol boqib yurgan Korinf podshohi Polibning cho'poniga beradi. Cho'pon esa bolani o'z podshohiga tortiq qiladi. Podshoh bolani o'g'il qilib oladi va unga Edip (bu so'zning ma'nosi oyog'i yailig'langan demakdir) degan nom beradi. Oradan yillar o'tadi. Edip bir kuni do'stlari bilan o'tirganida, uning asrandi o'g'il ekanini aytib qolishadi, bu esa Edipning ko'nglida shubha uyg'otadi. Edip Delfa kohini yoniga maslahatga jo'naydi. Kohin Edipning qismati nihoyatda og'ir ekanligini, o'z otasini o'ldirib, onasiga uylanishini va ikki o'g'il, ikki qiz farzand ko'rishini aytadi, lekin kohin uning haqiqiy ota-onasi kimligini aytmaydi. Shundan so'ng Edip Korinf tuprog'ini tark etadi. Zinhor bu yurtga qaytmasligini aytib, boshi oqqan tomonga yo'l oladi, ming afsuski, og'ir qismat ta'qibidan qochib qutulib bo'lmaydi. Qismat uni Fiva shahriga ravona qiladi. Yo'lda xayol surib ketayotgan Edipga orqadan do'q-po'pisa qilib, boshiga qamchi ko'tarib kelgan navkar yaqinlashadi. Bu nohaqlikdan g'azablangan Edip navkarni bir urib ag'darib o'tib ketayotganida, arava ichidagi mo'ysafid hassasi bilan Edipning boshiga tushirib qoladi. Edipning yanada jahli chiqib, qo'lidagi tayoq bilan cholning boshiga chunon tushiradiki, aravadagi chol til tortmay o'ladi. Boshqa navkarlarni ham birma-bir urib o'ldiradi. Faqat bir kishigina qochib qutuladi. Shunday qilib, taqdirning xohishi mustajob bo'ladi. Edip bilmasdan o'z otasi Layni o'ldiradi. Edip Fiva shahriga yetib keladi. Bu shaharda odam bosh, arslon tana va kattakon ikki qanotli bir maxluq – Sfinks paydo bo'lib, dengiz bo'yidagi yo'l ustida yotib, yo'lovchilarga topishmoq aytar, yecholmaganni temir panjalari bilan g'ijimlab, dengizga uloqtirayotganligini eshitadi. Edip Fiva xalqini bu ofatdan qutqarish uchun Sfinks oldiga boradi va topishmoqqa javob topmoqchiligini aytadi.

Topishmoq: Qanday jonivor ertalab to'rt oyoqlab, kunduzi ikki oyoqlab, kechqurun uch oyoqlab yuradi.

Javob: Odam. Ertalab – odam bolasining go'daklik vaqti, to'rt oyoqlab emaklaydi, kunduzi – kuchga to'lgan, navqiron payti ikki oyoqlab yuradi, kechqurun – qarib kuchdan qolgan payti, hassaga tayanib qoladi.

Nahuday qilib, Edip jumboqni yechadi va butun Fiva shahri odamlarini bu fikrdan qutqaradi. Lay ham vafot etgan, uning o'rniga Edipni shoh qilib ko'tariladi. Fiva taxtiga o'tirgan Edip sal o'tmay, Layning beva qolgan xotini, o'zining onasi Iokastaga uylanadi va undan ikki qiz (Antigona, Ismena), ikki o'g'il (Polinik va Polinik) ko'radi. Edip Fiva mamlakatini bir necha yil odilona boshqaradi, baxt-shadonda, rohatda, hurmat-ehtiromda umr kechiradi. Ittifoqo Fiva shahri boshiga hirtin-kotin kulfatlar yog'ila boshlaydi, ocharchilik, vabo odamlarning tinkasini qurtadi, ko'chadagi o'liklarni hatto yig'ishtirib olishga ulgurmay qolishadi. Ma'budlarga atab qancha-qancha qurbonliklar so'yilmasin, baribir befoyyda bo'taveradi.

"Edip shoh" tragediyasi xuddi shu yerdan boshlanadi. Shaharning barcha kishilari maslahat so'rab shoh saroyiga kelishadi. Edip ham bu kulfatlarning sababini bilmas edi. Kulfatlarning sababini bilib kelish uchun Delfaga Apollon kohiniga qaynag'usi Kreontni yuborganini va uning javobini kutayotganligini xalqqa aytadi. Kreontga kohinlarning aytishicha, shu kunga qadar Fiva shahri boshiga tushayotgan olatlarning sababi, shu vaqtgacha marhum podshoh Layning xuni olinmaganligini aytadi. Edip qotilni topib uni qattiq jazolashni, bu ishga tezda kirishishni, har qanday umidshunqutga duch kelmasin, qotilni baribir topishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Podsho shu ondayoq fuqarolarni to'plab, jimoyatchini qay tariqa izlash yuzasidan maslahat so'raydi. Xalq bir ovozdan masalani yechishda avliyo Tiresiy yordam berishi mumkinligini aytadi. Keksayib qolgan so'qir avliyoni yig'inga chaqiradilar. Tiresiy voqea nimadaligini, Layni kim o'ldirganini biladi-yu, lekin Edipga achinib, sirni ochishdan bosh tortadi. Avliyoning ikkilanishidan shubhalangan Edip, avliyoga achchiq-achchiq gaplar aytadi, hamiyatiga ozor yetganidan achchiqlangan avliyo, bor haqiqatni aytib tashlaydi. Edip o'z otasining qotili ekanligini bilmasa-da, lekin Layning qotili bo'lib chiqishi mumkinligidan Kreontni bosh aybdor deb gumon qilib, qattiq shubhaga tushadi. Go'yo Tiresiy bilan Kreont til birlashtirib, uning taxtini egallashga urinayotgandek tuyuladi. Shu orada Iokasta kelib Layning qay tarzda o'ldirilganini aytib beradi, Edipni tinchlantirmoqchi, unga atab aytilgan barcha bashoratlarning puch ekanligini isbotlamoqchi bo'ladi. Layni tog' oralig'idagi chorraha yo'lda qaroqchilar o'ldirib ketganini aytib, erini shubhalarga bormaslikka va tinchlantirishga urinadi. Bu voqealarni eshitgan Edipning ko'nglidagi tahlikali shubhalar kuchaya boradi. Keyingi so'roq va tekshirish natijasida Layning belgi-alamatlari aniqlanadi. Edip shu tariqa goh shubhalar iskanjasida yonib, goh hukumatning bartaraf bo'lishiga umid bog'laydi. Shu payt Korinfdan bir odam kelib Polibning vafot etganini, uning o'rniga xalq podshoh qilib Edipni saylaganini aytadi. Bu xabar unga tasalli beradi. Karomatlarning yolg'onligiga endi hech qanday shubha qolmaydi. Ammo shunga qaramay, karomatda zikr qilingan ikkinchi jimoyatning ijro etilishi, ya'ni beva qolgan onasi Meropaga uylanib qo'yish xavfi hamon Edipni qo'rqitar edi. Elchi shu mudhish shubhalarni Edipning dilidan chiqarib tashlash maqsadida o'zi bilgan ba'zi bir voqealarni aytib beradi: Edip haqiqatda Polib va Meropaning bolasi emas, elchining o'zi bundan bir necha yil muqaddam Kiferon tog'i etaklarida mol boqib yurganida podshoh Layning hitta cho'pomidan tovoniga nuhtar urilgan bolani olib, o'z podshohi Polibga eltib bergan ekan. Edip o'sha

bolaning o'zginasidir. Iokastaga hamma narsa ayon bo'ladi, indamasdan saroy ichiga kirib ketadi. Edipni esa endi yangi muammo qiynaydi: aslida u kimning bolasi?

Shu payt Lay o'ldirilgan paytda qochib qolgan qulni olib keladilar. Bu odam bir paytlar endigina tug'ilgan Edipni Korinf podshohi odamiga topshirgan cho'pon bo'lib chiqadi. Endi na Edipning o'zida, na odamlarda hech bir shubha qolmaydi: Edip Layning o'g'li, o'z otasining qotili, onasining eri! Naqadar dahshat, naqadar dahshat!

Xor Edipning g'am-g'ussalarga to'lib toshgan shum taqdiri, odam bolasining nochorligi va inson baxtining bepandligi haqida g'amgin-g'amgin qo'shiq aytadi. Xuddi shu payt ichkaridan xizmatkor chiqib, yana bir musibat yuz berganini aytadi. Iokasta yotog'iga kirib, bu og'ir hasratlar alamiga chidolmay o'zini osganligini xabar qiladi. Ko'rguliklardan aqlu hushini yo'qotayozgan Edip butun gunohiarning shohidi bo'lgan o'sha xonaga yuguradi va jon holatda Iokasta ko'ylagidagi to'g'nog'ichni yulib olib, ikkala ko'zini sitib tashlaydi. U ortiq quyosh yog'dusini, bolalarini, aziz yurtini, o'zining tubanlashganini ko'rishni istamas edi. Edip yana xaloyiq qarshisida paydo bo'ladi. Uning yuzida, so'qir ko'zlarida laxta-laxta qon qotib qolgan. Baxtiqaro, dili shikastaning so'nggi daqiqalari qizlari bilan vidolashuvi tragediya san'ati yaratgan eng dahshatli fojialardan biridir.

Edip afsonasining keyingi voqealari "Edip Kolonda" tragediyasida tasvirlanadi.

Yuqoridagi voqealarning guvohl bo'lgan Fiva xalqi la'natlangan Edipning shaharda turishidan xavfsirab, uning badarg'a qilinishini talab etadi. Edipning har ikkala o'g'li Eteokl, Polinik ham bu talabni ma'qulab, otasini mamlakatdan quvadilar.

Edipning katta qizi Antigona butun hayotini otasiga bag'ishlab, o'z ixtiyori bilan uzoq mashaqqatli safarga o'tlanadi. Ular necha zamonlar boshpana topolmay yer yuzini kezadilar. Nihoyat, Afina yaqinidagi Kolon degan joyda muruvvat ma'budalari Evmenidalar sharafiga o'stirilgan bog'-u bo'stonga yetib keladilar. Kolon aholisi dastlab Edip tufayli xalq boshiga og'ir musibatlar tushishi mumkin deb, uning bu yerdan chiqib ketishini talab qiladi. Bechora ota-bola oh-u zoridan ko'ngli yumshagan Kolon xalqi podshoh Tezey kelgunicha sabr qilishga rozi bo'ladilar. Xuddi shu paytda bu yerga Edipning kichik qizi Ismena ham keladi. Otasi quvg'in qilingandan so'ng Fiva shahrida yuz bergan voqealarni birma-bir otasiga aytib beradi. Ota taxtini talashib ikki aka-uka ancha vaqtgacha kelisha olmaydilar. Nihoyat Eteokl g'olib kelib Polinikni yurtidan haydab yuboradi. Polinik Fivaga qarshi qo'shin to'playotganligini aytadi. Edip o'g'illarining xudbinligini, u yurtidan haydalgan kun Edipga zarracha ham rahm qilmaganlarini o'ylab, ularni la'natlaydi. Ma'budlarning amriga ko'ra tez orada Afina bilan Fiva o'rtasida urush boshlanishi kerak edi. Edipning jasadini qayerga ko'milsa, o'sha yurt lashkarlari g'olib chiqishi karomat qilingan edi.

Eteokl Kreontni otasining oldiga jo'natadi, uni olib kelishni buyuradi. Kreontning so'zlarini eshitgan Edip Fivaga borishdan qat'iy bosh tortadi. Kreont Edipni va uning qizlarini zo'rlik bilan olib ketmoqchi bo'lib turganida podshoh Tezey kelib qoladi va ularni o'z panohiga oladi. Kreont noiloj orqaga qaytib ketadi. Oradan ko'p o'tmay katta o'g'il Polinik ham bu yerga keladi, otasiga Fiva shahriga qo'shin tortib borayotganini, u bilan birga borishini o'tinib so'raydi, lekin Edip o'g'lining ayyorliklarini oshkora aytib, uni quvib soladi. Axir ota boshiga shuncha musibatlar

qotilgan, begona yurtlarda och-nahor kezdirgan, faqatgina shuhrat va mansab qidirib olib qabul maqsad yo'lida bir-birining qonini to'kishdan, yurtning kulini ko'kka sovutib, fuqaroni qon qaqshatishdan toymagan beandisha, behayo, xudbin bulalarga otaning qanday rahmi kelsin. Edip ma'budlarga iltijo qilib, ikkala o'g'lini yakkama-yakka jangda halok qilishlarini so'raydi. Polinik ko'zdan g'oyib bo'lar-bu'linma charaqlab turgan osmonda birdan bulut va chaqmoq paydo bo'ladi, bu esa Edipning puymonasi to'lganligidan dalolat beradi. Edip qizlari bilan vidolashib, Tezeyga minnatdorchiilik bildirib, Afina shahri va Tezeyning madadkori bo'lishini ayttirib ko'zdan g'oyib bo'ladi.

Lay xonadonida ro'y bergan fojialarning xotima qismi "Antigona" tragediyasida tasvirlanadi. Tragediyaning mazmuni quyidagicha: Eteokl bilan Polinik yakkama-yakka jangda halok bo'lganidan so'ng hokimiyat Kreont qo'lga o'tadi. Yangi podshoh vatan mudofaasi yo'lida qurbon bo'lgan Eteokl katta tantana va izzat-ikrom bilan ko'madi. Lekin u Polinikning jasadini ko'mishni qat'iy man etadi. Kluda-kim bu farmonni buzsa, qattiq jazoga tortilishini aytadi. Lekin shunga qaramay Antigona bir kechasi akasining jasadini dafn qilayotganida shoh odamlari ko'rib qolib, bu haqda shohga xabar beradilar. Dafn rasm-rusumlarini ado etgan Antigona, endi hech ikkilanmay o'limga tik boradi. Kreontning o'g'li Gemon otasiga qunchalik yalinib-yolvormasin baribir Antigonani o'limga mahkum etadi. Uni yer ostidagi maqbaraga tiriklayin qamab o'ldirishni buyuradi. Bundan ogoh bo'lgan ma'budlar Tiresiyni Kreontning oldiga yuboradi. Tiresiy agar Antigona o'lsa, uni og'ir musibat kutib turganini aytadi. Shoh bu xabarni eshitishi bilan maqbaraga yuguradi, afsuski bu vaqtda Antigona o'z kiyimlaridan arqon yasab, o'zini osib o'ldiradi. Mahbusining jasadini quchoqlab yig'layotgan Gemon otasini ko'rishi bilan alami toshib o'zimi-o'zi o'ldiradi, bu falokatdan xabar topgan Gemonning onasi Evridika ham eriga la'nat o'zini o'ldiradi. Tragediya Kreontning befoyda pushaymonlari va xorning "Ma'budlar yomonlarni bejazo qoldirmaydi" degan hikmatli so'zlari bilan tugaydi.

Sofoklning "Shoh Edip" asari Asqad Muxtor tomonidan tarjima qilingan. Videofilmni rejissyor Hamid Qahramonov yaratgan. Tragediyaning g'oyasi – qahramon taqdirida ro'y bergan o'zgarishlar orqali yozuvchi insonning haqiqatga erishish yo'llarini ko'rsatadi. "Shoh Edip"da Sofokl juda katta axloqiy, falsafiy, ma'naviy muammolarni o'rta qo'yib tashlaydi. Asarda vijdonli kishining cheksiz qiynoqlarga duchor bo'lishi, shunga qaramay, inson o'z vijdonini oxirigacha saqlab qolishi tarannum etiladi.

Antik dunyoda o'tgan dramaturglardan birontasining asari jahon adabiyotida "Edip shoh" tragediyasichalik chuqur iz qoldirmagan. Sofoklning bu asari XVIII asrning oxiri XIX asr boshlarida Yevropa adabiyotida "taqdir tragediyasi" deb atalmish maxsus adabiy oqimning tug'ilishiga sabab bo'ladi.

Sofoklning bu asarlaridan tashqari bizga qadar yana to'rtta tragediyasi yetib kelgan. Shundan uchta – "Ayaks", "Elektra", "Filoktet" Troya afsonalari mavzuida va bittasi – "Traxinali ayollar" Gerakl haqidagi rivoyatlar asosida yozilgan. Insonning qadr-qimmatini, martabasining g'oyat ortishi, uyg'onib kelayotgan insonning qudrati, go'zalligi, uning ichki va tashqi dunyosini ta'riflash Sofokl tragediyalarining asl mohiyatidir.

Buyuk faylasuf Arastuning fikricha, Sofokl tragediyalari ijtimoiy hayot hodisalarining mohiyatini ochadi, insonni hislar tug‘yonida toblab, ruhiy olamini poklaydi.

EVRIPID

Qadimgi yunon tragediyasining uchinchi vakili Evripid rivoyatlarda aytilishicha, eramizdan avvalgi 480-yilda xuddi yunonlar Eron ustidan g‘alaba qozongan kuni Afina yaqinidagi Salamin orolida o‘rtahol oilada dunyoga kelgan, yaxshigina bilim olgan. Shu davrning atoqli faylasuflari Suqrot, Anaksagor, Arxelay, sofistlardan Protagor Evripidning eng yaqin do‘stlari bo‘lgan. Yunon tarixining keyingi asrlari ellinizm davrida Evripid o‘z xalqining eng sevimli tragik shoiriga aylanadi. Hatto Esxil, Sofokl ham uning do‘stlariga ham kuchli ta‘sir ko‘rsatib, 92 ta asaridan bizga qadar 17 ta tragediya hamda bitta satir dramasi to‘la holda yetib kelishini ta‘minlaydi. Bular: “Alkestida”, “Medeya”, “Geraklidlar”, “Ippolit”, “Gekuba”, “Gerakl”, “Iltijogo‘ylar”, “Troyalik ayollar”, “Elektra”, “Ion”, “Ifigeniya Tavridada”, “Yelena”, “Andromaxa”, “Finikiyalik qizlar”, “Orest”, “Vakx qizlar”, “Ifigeniya Avlidada” tragediyalari va “Kiklop” nomli bitta satir dramasi. Bu asarlarning hammasi yunon taomiliga ko‘ra, Esxil hamda Sofoklning tragediyalari singari mifologik afsonalar mavzuida yozilgan. Agar avvalgi ikki buyuk dramaturg ijodida ulug‘vorlik va qahramonlik g‘oyalari ko‘rsatilgan bo‘lsa, Evripid shu abadiy g‘oyalarning ustiga-ustak, san‘atdagi inson tasvirini hayotdagi inson tasviriga yaqinlashtirdi, taqdirning shafqatsiz zarbalariga bardosh beruvchi qahramon qalbida mardlik, olijanoblik, samoviy muhabbat tuyg‘ulari bilan birga har turli tuhanliklar va yovuzliklar ham yashiringanini haqqoniy ko‘rsatishga jur‘at etdi.

Evripidning yunon tragediyanavisligiga kiritgan yangiliklarini to‘laroq aks ettirgan asari “Medeya” tragediyasidir. Evripid asarning voqeasini “Argonavtlar” afsonasidan olgan.

Asar qahramoni Medeya go‘zallik va donolik, muhabbat va sadoqat timsoli, boshiga ketma-ket musibat, baxtsizliklar yog‘ilgan ayol sifatida ko‘rsatiladi. Medeyaning sevgan turmush o‘rtog‘i Yazonning unga nisbatan qilgan xoinligidan xo‘rlanishi, g‘azabi tasvirlanadi. Medeya baxtidan ayrilganiga hir qayg‘ursa, yurtda oriyat, lafz, insof, diyonat qolmaganiga ming qayg‘uradi.

Ammo dunyoda vijdon, insof qolmayapti, degancha taqdirga tan berib, yovuzlarning aytganiga itoat etish mard insonlarga yarashmaydi. Medeya esa murakkab insonlar toifasidan, uning dilidagi kurashni oxiriga yetkazish ahdi filiga ko‘chadi. Medeya ushbu so‘zlarni alam va g‘urur bilan aytadi:

Osmol tiyra... Lekin bu bilan hali o‘yin tugamadi...

Medeyaning qalbida yagona qasos o‘ti hukmron. Lekin u cheksiz g‘azab ustida ba‘zilarday aqlini yo‘qotib qo‘ymaydi. U hir o‘zi tojdorlarga qarshi kurashga tayyor. Ilgari u Yazon uchun, sevgisi uchun qanday dadil kurashgan bo‘lsa, endi Yazonga qarshi, qasos uchun shunday jasorat bilan kurashadi. *Mening azam hisobiga ushbu*

dunyoda hech bir banda ishrat to‘yin qura olmagay, - deganida Medeyaning o‘z kuch-qudratiga cheksiz ishonchi seziladi.

Yazon – murakkab obraz. U ko‘rsatgan qahramonliklari hilan tanilgan, lekin alohida yaqin bo‘lish uchun hamma narsadan kechishga qodir. Yazon yangi nikoh bilan taqdirga yaqinlashish niyatida Medeyani turli yolg‘on va dalar bilan, shirin gaplar bilan aldadi. Lekin asarda Medeyaning oqilligi ko‘rsatilib, Yazonning tili va dili boshqa ekanligi uqtiriladi. O‘z sevgisi uchun Medeyaning Yazondan olgan o‘chi tasvirlanadi.

“Medeya” xo‘rlangan muhabbat va rashk tragediyasidir. Shoir bu ehtiroslarning butun kuch va haroratini Medeyaning dardu alamlarida, nafrat va g‘azablarida ko‘rsatgan. Medeya, avvalo ona, uning yuragida farzand mehri beto‘xtov javlon urib turadi. Shuning uchun bu xotin o‘z bolalarining joniga qasd qilib xanjar ko‘targanida onalik tuyg‘ulari hilan qasos ehtiroslari o‘rtasida nihoyatda kuchli kurash boshlanadi:

Kerakmas, qo‘y dilim! Bunday qilmagin!

Bolalarga omon ber, o‘ldirma, achin!

Ulardan ayrilib hijronda butkul

Uzoqdan bo‘lsa ham sevmaklik shirin...

Shu so‘zlar og‘zidan chiqar-chiqmas Medeyaning qalbidagi qasos alami yana xurujga kelib, onaning ich-tashini yondirib borayotgan mehr haroratini bosib ketadi:

Yo‘q, aslo yo‘q!

Oxirat kuchlarin o‘rtaga qo‘yib,

Jahannam nomidan ont ichamanki,

Bolalarim tushmas dushman qo‘liga

Modomiki o‘lim ekan muqarrar,

O‘zim tug‘dim, o‘zim etaman qatl.

Bechora ona oxirgi damlarda bolalarini bag‘riga bosib erkalaydi, yuzlaridan o‘padi. Ularni o‘ldirishga qat‘iy qaror qilganu, ammo qo‘l ko‘tarishga aslo majoli yo‘q:

Evoq, og‘ushingiz naqadar shirin

Munchalar momiqsiz jon bolalarim

Jonim orom olar nafasingizdan,

Qoching, tezroq hech to‘xtamasdan,

Hayhot, yuragimda qolmadi kuchim.

Asar so‘ngida Medeya bobosi Helios yuborgan, ikki ajdaho qo‘shilgan shoh aravada falakka ko‘tariladi. Uning oyoqlari ostida o‘zi o‘ldirgan sevimli farzandlari. Yazon bolalarini so‘nggi bor ko‘rish, jasadini olib qolish uchun zor-zor tavallo qiladi. Medeyaning ko‘ngli endi toshga aylangan. Sobiq bahodir, baxtsiz ota, orzu-niyatiga yetmagan podshozoda, nikoh arafasida to‘yi buzilgan kuyov – ikki qo‘lini ko‘tarib, falakka iltijo qilganicha qoladi. Medeyani olib ketayotgan samo aravasiga ikki ajdaho qo‘shilgani tasodifiy emas. Bu, har qanday dono odamning aql-hushini qo‘rqitib mahv etgan jahl, g‘azab, nafrat timsoli.

Evripid insonning foni dunyodagi o‘tkinchi orzu-havaslarini deb, amal, martaba, molu davlatni deb jirkanch jinoyatlardan qaytmasligini fosh eta bildi. Agar “Elektra” tragediyasida qahramon ayol mutlaq yovuz sifatida tasvirlansa,

“Medeya”da go‘zallik va donolik, muhabbat va sadoqat timsoli, boshiga ketma-ket musibat, baxtsizliklar yog‘ilgan ayol sifatida ko‘rsatiladi.

Bir-biriga zid sevgi va tuyg‘ularning bu tariqa keskin kurashlarini tasvirlab, odam bolasining chinakam ruhiy dunyosini ochish Evripid tomonidan tragediya san‘atiga kiritilgan eng birinchi yangilik va ulug‘ kashfiyotdir.

YUNON KOMEDIYASI. ARISTOFAN IJODI

Komediya tragediyaga nisbatan keyinroq rivojlanadi, tragediya Dionisga bag‘ishlangan kuzgi bayramlardan, komediya esa ko‘klamdagi shodiyonalardan kelib chiqqan va adabiy janr holiga kelgan. Uning eramizdan avvalgi V asrning ikkinchi yarmiga kelib sahnaga qo‘yila boshlagani ma‘lum.

Yunon komediyasi qadimgi, o‘rta va yangi davr komediyalariga bo‘linib, qadimgi davr komediyasidan keyingilariga nisbatan ko‘proq asarlar bizgacha yetib kelgan. O‘rta davr komediyasidan hech narsa ma‘lum emas. Yangi davr komediyasidan Menand asarlaridan parchalargina bizgacha yetib kelgan.

Qadimgi Attika komediyasi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Undan Dionis ko‘klam bayramiga xos bo‘lgan satira elementi, masxarabozliklar saqlangan. Lekin bular jamiyat oldida turgan ijtimoiy masalalar bilan bog‘langan. Asar nomi xor kiyimiga qarab qo‘yilgan.

Agar tragediya mazmuni mifdan olinib, unda xudolar ishtirok etsa, komediyaning mazmuni xudolar, qahramonlar, mifologiyaga tanqidiy qarashdir. Qadimgi Attika komediyasining vakili Epixarm bo‘lib, u komediyaning dramatik janr holiga keltirgan, uning shakllanishida nihoyatda katta xizmat qilgan.

Komediya so‘zi yunoncha “komoslar qo‘shig‘i” degan ma‘noni bildiradi. Komos deb esa, to‘y-tomoshalardan keyin ko‘chalarda to‘da-to‘da bo‘lib xursandchilik qilib yuruvchi kishilarga aytiladi. Komediya musobaqalari faqat 488-486-yillardagina Dionis bayramlarida o‘tkazila boshlandi.

Komediyaning asosiy maqsadi turli-tuman qiziqchiliklar bilan tomoshahinni kuldirish yoki hayotda uchraydigan ba‘zi bir manfiy hodisalarni masxaralashdir. Dastlabki komediyanavis shoirlar o‘zlarining asarlarida ana shu nuqsonlarni fosh etishga, kulgi va satira yordami bilan ularni bartaraf etishga intilganlar. Shu sababli “Qadimgi Attika komediyasi” deb atalmish maxsus adabiy oqim maydonga kelgan. O‘tkir siyosiy jo‘shqimlik, demokratiya dushmanlariga qarshi murosasizlik qadimgi attika komediyasining asosiy xususiyatidir. Mazkur janrda ijod qilgan ko‘pdan-ko‘p shoirlar orasida faqat uch kishining nomi bizga ma‘lum. Bular Kratin, Evpolid hamda Aristofandir. Bulardan faqatgina Aristofanning asarlari saqlanib qolgan. Aristofanning shaxsiy hayoti haqida biz deyarli hech narsa bilmaymiz. Ba‘zi bir manbalarga qaraganda shoir taxminan eramizdan avvalgi 445-yilda Attika viloyati yaqinidagi Egina orolida tug‘ilgan va Afina davlatining fuqarosi bo‘lgan. U yigirma yoshidayoq komediyanavislar orasidagi musobaqalarda ikki marta birinchi o‘rinni egallaydi.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, Aristofanning 44 ta komediyasi bo‘lib, bizgacha 11 tasi yetib kelgan: “Axarnliklar”, “Chavandozlar”, “Qushlar”, “Lisistrata”, “Tinchlik”, “Bulutlar”, “Arilar”, “Xotinlar Fesmofoiy bayramida”, “Xotinlar xalq majlisida”, “Qurbaqalar”, “Boyluk” komediyalaridir.

Olimlarning taxminiga ko‘ra, shoir 385-yilda dunyodan o‘tgan. Shoirning dastlabki asarlaridan biri “Axarnliklar” komediyasidir. Bu asarda shoir urush taufidorlari bo‘lgan radikal demokratlarga va ularning boshlig‘i, zamonasining qudratli hukmroni Kleonga zahri sochadi va urush ofatlari faqatgina o‘zining muftuqlarini o‘ylagan shuhratparast, nobop rahbarlarning kasofati orqasida ro‘y beradigan bir musibat ekanligini aytib, Afinaliklarni tez orada ichki qirg‘inlarni to‘xtatishga, Sparta bilan sulh tuzishga da‘vat qiladi. Yozuvchi o‘zining butun tinchliksevar g‘oyalarini asarning bosh qahramoni, oddiy dehqon Dikeopol (adolatparvar fuqaro) obrazi orqali ko‘rsatgan.

Aristofanning bizga qadar yetib kelgan asarlari orasida, urushning kasofati, osoyishta hayotning go‘zalligi haqida hikoya qiluvchi yana ikki komediya bor. Bulardan biri – “Tinchlik”, ikkinchisi – “Lisistrata”.

“Tinchlik” komediyasi Peloponnes urushining o‘ninchi yilida (421-yil) yozilgan. Bu asarning mazmuni quyidagicha:

Trigey ismli attikalik oddiy bir dehqon, urushni bartaraf qilish maqsadida bir go‘ngqo‘ng‘izni boqadi-da, katta bo‘lgach uni minib, Olimp tog‘iga – ma‘budlar huzuriga arzga jo‘naydi. Biroq bu yerda Germesdan bo‘lak birontayam ma‘bud yoki ma‘budani topa olmaydi. Germesning aytishiga qaraganda hamma ma‘budlar odamlarning uzluksiz urushlaridan achchiqlanib, osmonga uchib ketishgan emish, Olimp tog‘ida esa yakka-yolg‘iz hukmron bo‘lib, faqatgina muhoraba ma‘budi Polemos qolibdi, u tinchlik ma‘budasi Irimani g‘orga qamab, g‘or og‘zini katta xarsang tosh bilan berkitib tashlabdi. Trigey vaqtini o‘tkazmasdan butun yunon elidan mehnat ahlini yordamga chaqirib, ularning ko‘magida tinchlik ma‘budasini tutqunlikdan qutqarishga muvassar bo‘ladi, yer yuzida baxtiyor va shodiyona hayot o‘rnatiladi.

Aristofan ijodining dastlabki davrlarida yozilib, bevosita Afina demokratik idora usulini tasvirlashga bag‘ishlangan eng o‘tkir siyosiy asar “Suvoriylar” (424) komediyasidir. Dramaturg bu asarni ham Kleonga qarshi yozadi, biroq “Axarnliklar” komediyasida Afina hukmroniga sal-pal tegib o‘tgan bo‘lsa, “Suvoriylar”da bu zotni asarning bosh qahramoni qilib oladi va uning kirdikorlarini shafqatsiz fosh etadi.

Bu asarlaridan tashqari “Arilar”, “Qurbaqalar”, “Davlat” deb nomlangan komediyalarni ham yaratganligi uning bu janr ustasi ekanligidan dalolat beradi.

“Bulutlar” komediyasida ijodkor sofistik oqim ustidan kuladi. Tarbiyaning yangi bir usuli, uning zararli oqibatlarini tanqidiy tasvirlash komediyaning g‘oyasini tashkil qiladi.

“Qurbaqalar” komediyasi Afinaning ikki buyuk tragik shoiri Evripid va Sofokl vafoti munosabati bilan yozilgan. Asar san‘at masalasiga bag‘ishlanib, adabiy-tanqidiy asardir.

Aristofanning “Lisistrata” komediyasida tinchlik uchun kurashuvchi Lisistrata va shahar ayollari ishtirok etadilar. Nihoyat, ular urushni to‘xtatib, ittifoq o‘rnatishga erishadilar.

“Chavandozlar”da Afinani boshqarayotgan kishilarni tanqid qiladi.

Aristofan o‘tkir tanqidi, tilining ta’sirchanligi va uslubining go‘zalligi bilan o‘zidan keyingi davr adiblariga o‘rnak bo‘ldi.

Jahon Tinchlik Kengashining tashabbusi bilan 1954-yilda Aristofan tavalludining 2400 yilligi o'tkazildi. Bu tantana yunon komediyana visimining jabon madaniyatiga qo'shgan hissasini taqdirlash va tinchlik kuychisi sifatida qilgan xizmatlarini ulug'lash alohidi edi.

V-IV ASRLARDA YUNON NASRIY ADABIYOTI

V asrning ikkinchi yarmida she'riy adabiyotning doirasi borgan sari torayib, nasriy asarlar soni beto'xtov orta bordi va keyinchalik attika davrining oxirlariga qadar nasriy shakl yunon adabiyotining yetakchi turi bo'lib qoldi.

Asari hizga qadar to'la holda yetib kelgan tarixiy prozaning eng birinchi namoyandasi Herodotdir. U taxminan 485-yilda Kichik Osiyodagi Galikarnas shahrida tug'iladi. Uning otasi o'z davrining anchagina badavlat odami bo'lgan. Herodot yoshlik paytlaridan o'z vatanining siyosiy faoliyatida faol qatnashadi, keyinchalik ma'lum sabablarga ko'ra ona yurtini butunlay tark etib, sayohatlarda yuradi. Misr, Eron, Bobil, Finikiyani, Qora dengizning shimoliy qirg'og'idagi Yunon mustamlakasi Skifiyani, Yunoniston tuprog'idagi qancha-qancha shaharlarni kezadi, ammo uning eng sevimli oshyoni va ma'naviy vatani Afina shahri bo'lgan. Yozuvchi bu yerda ko'pdan-ko'p do'stlar orttiradi, Perikl hamda Sofokl bilan yaqin munosabatda bo'ladi. 444-yili Italiyaning janubidagi yunon mustamlakasi Furiyaga ko'chib ketadi va 425-yilda shu yerda vafot etadi.

Herodot asarlari ichida eng mashhuri va qimmatli ma'lumotlar bilan jahon tarixini boyitib kelayotgani "Tarix", ya'ni "Tadqiqot" asaridir. Aleksandriya olimlari bu asarni to'qqiz bobga bo'lib, har birini yunon mifologiyasidagi to'qqizta muza nomi bilan ataganlar. Asar Eron-Yunon urushiga bag'ishiangandir.

Biroq yozuvchi eroniylar bilan yunonlar o'rtasidagi urush tarixini boshlashdan oldin, ana shu xalqlarning uzoq o'tmishi, ularning qaysi xalqlar bilan munosabatda bo'lganliklari va kimlar bilan urushganliklari haqida to'la ma'lumot berib o'tadi. Binobarin o'sha zamonlarda yunonlarga tanish bo'lgan xalqlarning tarixlari ham ma'lum darajada aks ettirilgan bo'lib, bu holat Herodot asarini jahon tarixi darajasiga ko'taradi. Yozuvchi eroniylar bilan yunonlarning dastlabki to'qnashuvlarini ko'rsatish maqsadida birinchi kitobni Kichik Osiyodagi Lidiya davlatining Eron podshohi Kir (Kayxisrav) tomonidan bosilib olinish voqealaridan boshlaydi. Yozuvchi Kayxisravning urushlari haqidagi bayonotini davom ettirib, Bobilning zabt etilishi va nihoyat Kaspiy dengizining sharqiy tomonida Sir va Amu daryolari o'rtasidagi bepoyon sahroda yashovchi ko'chmanchi massagetlar bilan bo'lgan urush haqida hikoya qiladi. Kayxisravning vafotidan so'ng Eron taxtiga o'tirgan shabzoda Kambiz otasining bosqinchilik siyosatini davom ettirib, Misr ustiga yurish boshlaydi. Herodot bu mamlakat tarixiga ham mufassal to'xtalib, yana Eron tarixiga qaytadi. Doroning podshoh bo'lib ko'tarilishi va skiflar mamlakatiga lashkar tortib borishi haqida gapiradi va bu yurtning ham to'liq tarixini yoritib beradi. Herodotning skiflar haqidagi ma'lumotlari biz uchun nihoyatda qimmatlidir, mamlakatimizning g'arbi-janubida Dnepr hamda Don daryolari sohillarida, Qora dengiz qirg'oqlarida yashagan eng qadimgi xalqlar to'g'risida gapirganimizda avvalo, ulug' yunon muarrixining shahodatlariga murojaat qilamiz. Doroning skiflarga qarshi boshlagan urushi munosabati bilan Kichik Osiyo xalqlari, ayniqsa yunon qabilalari o'rtasida Eron

hukmronligiga qarshi kuchli g'alayonlar boshlanadi. Yozuvchi voqealarni shu tariqa bayonlab kitobxonni asta-sekin o'z asarining asosiy mavzusi Eron-Yunon urushiga olib keladi. Asarini 478-yil voqealari bayoni bilan to'xtatadi. Bevaqt o'lim asarni yakunlashga imkon bermagan bo'lsa kerak.

O'rta Osiyo tarixini o'rganish borasida Herodotning asari ayniqsa muhim o'rin tutadi. Muarrix bu tomonlarga qadam bosmagan bo'lsa-da, yurtimizning uzoq o'tmishi haqida yaxshigina ma'lumotlar beradi. Uning aytishicha, Kaspiy dengizi sohilalaridan boshlab Sirdaryoning o'rtalariga qadar cho'zilib boradigan keng sahroda massaget deb atalgan ko'chmanchi qabilalar yashagan, ular hech qanday ekin ekmasdan, faqat chorvachilik bilan kun kechirganlar, ovqatlari mol go'shti va baliq bo'lgan, ular temirni bilmagan, hamma asboblari misdan yasalgan, ayollari erkaklar bilan birga janglarda qatnashgan, hatto qabila boshlig'i etib ham saylangan.

Herodotdan minnatdor bo'lishimizning yana bir sababi: adabiyotimizning eng qadimgi yodgorliklaridan biri bo'lgan "To'maris" qissasi faqat shu inson tufayli bizning zamonga qadar yetib kelgan.

Tarixiy prozaning ikkinchi vakili Fukididdir. Bu adib haqida ham yetarli ma'lumot yo'q. Olimlar uni 470-460-yillar orasida tug'ilgan bo'lsa kerak, deb taxmin qiladilar. Fukidid 424-yili Peloponnes urushida qatnashib, Frakiya qirg'oqlaridagi Afina flotiga qo'mondonlik qiladi va yirik bir harbiy xatosi uchun davlat jinoyatchisi sifatida ayblanib, Afinadan haydaladi. Taxminan 400-yillarda vafot etadi. U o'z asarini Peloponnes urushi voqealariga bag'ishlaydi.

Notiqlik san'ati. Muayyan mavzuda, mazmunli, ravon, ixcham, badiiy yetuk so'zlangan nutq tinglovchilarni o'ziga jalb etadi. Jamoat oldida so'zga chiqib, unga biron narsani tushuntirish yoki isbotlab berish zarurati qadim-qadim zamonlardan beri odamlarni dilkashlikka, so'zamollikka rag'batlantirib kelgan. Notiqlik san'ati inson faoliyatining eng qadimgi turlaridan biri bo'lib, u qadimgi Misr, Assuriya, Vavilon, Hindistonda ham ma'lum bo'lgan. Lekin notiqlik san'atining eng gullab, ravnaq topgan joyi Yunonistondir. Hatto Homer ham o'z dostonlarida Nestor, Menelay va Odisseyning gapga nihoyatda chechan bo'lganliklarini qayd etib o'tadi. Afina va Rimda notiqlik juda ham qadrlangan. Davlat arboblarning obro'-e'tibori va yuqori lavozimga ko'tarilishi ularning notiqligi bilan belgilangan. O'z davrining mashhur notig'i Mark Tuli Sitseron kishini jamiyatda eng oliy darajagacha nlug'lovchi ikki vosita bor, ularning biri - harbiy sarkardalik san'ati, ikkinchisi esa notiqlik san'ati, deb hisoblar edi.

Qadimgi Yunonistonda siyosiy notiqlik bilan bir qatorda sud notiqligi ham rivojlangan edi. Sud notiqligining rivojlanishiga Afina davlati sud tartiblari ham kuchli ta'sir etgan. Bu tartiblarga ko'ra, sudga ishi tushgan har bir kishi sud majlisiga kelib, da'volarini bayon etishi yoki o'zini himoya qilishi lozim edi. Shu sababli maslahatlari bilan sudlanuvchilarga yordamlashadigan yoki zarur bo'lganda ularning ishi yuzasidan sudda gapirish uchun maxsus nutqlar yozib bera oladigan bilimdon va tajribali qonunshunoslarga katta ehtiyoj tug'iladi. Natijada logograflar deb ataluvchi maxsus kasb egalari paydo bo'ladi. Qadimgi Yunonistonda birmuncha keyinroq maqtov (epidektik) notiqligi ham vujudga keladi va ancha keng tarqaladi. Tantanali yig'inlarda so'zlanadigan bunday nutqlarda ulug' zotlar va muhim voqealar madh etiladi.

Notiqlik san'atini birinchi marta adabiy janr darajasiga ko'targan va unga ilmiy tus bergan kishilar sofistlar bo'lganlar. Ular o'zlaridan oldin o'tgan va o'sha kezlarda ijod qilayotgan so'z ustalarining faoliyatlari namunasida notiqlik san'atining nazariy asoslarini, ya'ni "Ritorika" ilmini yaratganlar.

Ritorika (orator, notiqlarning asl vatani Sitsiliya bo'lgan. Qadimgi ritorikaning asoschilari deb sitsiliyalik Korak hamda Lisiy degan notiqlarni ko'rsatadilar. Biroq ular haqida bizgacha hech narsa yetib kelmagan. Bu notiqlarning vatandoshi bo'lgan 483-376-yillarda yashagan **Gorgiy** haqida qisman bo'lsa-da ma'lumotlar bor. 427-yilda u o'z shahri Leontina uchun harbiy yordam so'rab inxusus elchi sifatida Afinaga keladi. Xalq majlisida so'zlagan nutqi hilan Afina yoshlari orasida kuchli taassurot qoldiradi. Shundan so'ng ko'p o'tmay Gorgiy Afinaga ko'chib kelib, shu yerda ritorik maktab ochadi, o'z shogirdlariga so'z san'atini o'rgatadi va notiqlik san'ati bilan shug'ullanadi. Gorgiy asosan mifologik mavzularda tantanali nutqlar so'zlagan, uning nomi ostida bizga qadar "Yelena" va "Polimed" sarlavhali ikkita yozma nutq yetib kelgan. Gorgiyning aytishicha, notiqlarning eng muhim vazifasi tinglovchilarni ishontrish, uni maftun etish, rom qilishdir.

Ellinizm davrining olimlari Afinada yashab, shu yerda ijod qilgan bir talay mashhur so'z san'atkorlarining orasidan 10 tasini eng ulug'lari deb biladilar. Ular quyidagilar: Antifont, Andokid, Lisiy, Isokrat, Isey, Likurg, Demosfen, Esxil, Giperid va Dimarx. Bizgacha mana shu so'z san'ati ustalarining asarlari yetib kelgan, xolos.

Yuqorida nomlari zikr qilinganlar orasida eng mo'tabarlaridan biri **Lisiy** bo'lgan. U 459-380-yillarda yashagan. Vatani Sitsiliyadir. Notiqlarning otasi Perikl taklifi bilan Afinaga kelgan va shu yerda yashab qolgan. Lisiy hammasi bo'lib 300 ga yaqin nutq yozgan. Shulardan 34 tasi bizgacha yetib kelgan. Ularning barchasi asosan sud nutqlaridan iboratdir. Lisiyning ulug'ligi va san'atkorligining asosiy siri shundaki, u har qachon qo'lga qalam olib so'z yozishga kirishar ekan, o'z oldiga faqat bir maqsadni qo'yadi, u ham bo'lsa so'zlayotgan kishi haqida sud hay'ati dilida eng yaxshi taassurotlar qoldirish, uning har bir gapi yurakdan chiqayotgan chinakam, samimiy gaplar ekaniga ishontrishdir. Lisiyga buyurtma bergan odam kim bo'lishidan qat'iy nazar notiq har qaysisimning tabiatiga, bilimiga, jamiyatdagi o'rniga mos keladigan, o'zining monandligi bilan tinglovchilarni maftun etadigan uslubni topadi va shu yo'sinda so'zlovchining va uning nutqida nomlari zikr qilingan shaxslarning yorqin portretini chizishga muvassar bo'ladi.

Notiqlik san'atini yanada yuksak bosqichlarga ko'targan ikkinchi buyuk zot **Demosfendir**. U 384-yilda Afina shahrida anchagina badavlat oilada tug'iladi, Biroq yetti-sakkiz yoshlarida otasi o'lib, vorislari otasining mulkini talon-taroj qilib yuboradi. Voyaga yetgach Demosfen merosni qaytarib olish maqsadida notiqlik san'atini o'rganadi. Zamondoshlari bergan ma'lumotlarga ko'ra, Demosfenning birinchi nutqi afinaliklarni qanoatlantirmagan. Ovozining yoqimsizligi, tilining duduqligi, nutq jarayonidagi noo'rin harakatlari yoqmay, tinglovchilar uni minbardan tushirib yuborganlar. Lekin notiqlikka ishtiyoqi baland bo'lgan Demosfen umidsizlikka tushmay, chidam bilan bu kamchiliklarni yuqotishga kirishgan. U go'yo noaniq gapirishni og'ziga mayda toshlar solib, she'rlarni yoddan o'qish orqali yuqotgan, ovozi esa yugurish, aylanma tepaliklarda so'zlash orqali

notiqlikka ulgurib kelgan. Qat'iy urinish, tinimsiz mehnat natijasida Demosfen yetuk notiq bo'lib yetishgan.

Demosfen bir qancha vaqt Makedoniya istilosiga qarshi yunon xalqini o'z notiqligi bilan birlashtirib, ularning ruhini ko'tarib qo'zg'olonga chorlaydi. Aleksandr vaktinlab keyin yunonlar yana tutqunlikdan qutulish maqsadida urushga tayyorlana boshlaydilar. Bunda Demosfen ayniqsa juda kata tashabbus ko'rsatadi. Biroq boshlangan yunonlar bu safar ham yengiladilar. Dushman qo'zg'olon rahbarlarining orqanidan quvib borib, ularni qurshab oladi. Tiriklayin dushmanga taslim bo'lishni istagan Demosfen zahar ichib o'ladi. Shunday qilib, ulug' vatanparvar hayotini o'z xalqining milliy ozodligi yo'lida qurbon qiladi. Demosfendan bizga qadar 61 ta nutq, 56 nutqqa "kirish" va 6 ta xat yetib kelgan. Ba'zi nutqlari 100 betdan ortiq. Demak, notiq 3-4 soat davomida tinglovchilar diqqatini o'ziga torta bilgan. Demosfenning nutqlari asosan siyosiy nutqlar bo'lgan. Eng mashhur nutqlari Makedoniya shohi Filippga qarshi aytilgan nutqlari bo'lib, ular "Filippikalar" deb ataladi.

Demosfenning eng sevgan notiqlik usullaridan biri undov (xitob) usulidir. Chunonchi, "yaxshi", "a'lo", inkor etganda "yo'q, hech qachon!. Ikki marta inkor etish bollari ham uchrab turardi. Masalan, "O, u bunday emas", "Ha, bunday emas!. Demosfen nutqi qo'l va butun gavda harakati, imo-ishoralar bilan uzviy bog'lanib ketardi. Xulias, uning har bir nutqida chuqur mazmun, hayajon, badiiylik ufurib turardi. Shuning uchun ham Demosfen har bir tinglovchini o'ziga rom qilib olar edi.

Yunoniston notiqlik san'ati Rim notiqlik san'ati ham kuchli ta'sir etadi. Lekin Rim notiqligi Yunoniston notiqlik san'atining nusxasi emas, balki uning ijodiy davomi, yangi bosqichidir.

Falsafiy proza. Eramizdan oldingi V-IV asrlarda ilm-fan taraqqiyoti, san'at, adabiyot, tarix va notiqlik sohalaridagi yutuqlar bilan bir qatorda yunon falsafasi henhoya keng rivoj topadi. Falsafiy tafakkurning asosiy oqimlari bo'lgan materializm hamda idealizm ta'limotlari shu davrda takomillashadi.

Demokritning hamma asarlari nihoyatda yuksak badiiy mahorat va nozik uslub bilan yozilganligini qadimgi dunyoning qalam ahilari bir og'izdan tasdiqlaydilar. Demokrit iboralarining ravshanligini, nafisligini Sitseron alohida qayd etib, uni Afilotun bilan bir qatorga qo'yadi.

Qadimgi yunon falsafasining idealizm oqimiga asos solgan va o'zining ijtimoiy va siyosiy dunyoqarashlari bilan Afinaning tagli-taxtli zodagonlari tabaqasiga mansub bo'lgan kishi **Afilotundir**. U 427-347-yillarda yashagan. Afilotun yoshlik chog'larida Suqrotning sevimli shogirdlaridan biri bo'lgan, ustozni qatl qilingach, Afilotun Afinani tashlab ketib, bir necha yillar sayohatda yuradi. Yunonistonning turli shaharlarida, hatto uzoq Misrda, Sitsiliyadagi orollarda, Sirakuz shahrida bo'ladi. Nihoyat Afinaga qaytib, Akadem degan qahramonning ibodatxonasi bog'ida, o'zining shu qahramonning nomi bilan atalmish mashhur maktabi - Akademiyani ochadi.

Afilotun yaratgan mukammal idealistik falsafiy ta'limot to shu kunga qadar mazkur oqimning hamma reaksiyon tarmoqlari uchun asosiy zamin va namunali manba bo'lib kelmoqda. "Ideya" so'zining o'zi ham birinchi marta falsafiy

iste'molga Aflotun tomonidan kiritilgan. Aflotunning qarashicha, birdan-bir tuzum deb tushunilgan bu davlatda jamiyat a'zolari 3 toifaga bo'linadi:

Faylasuflar mamlakatni idora qilishlari kerak;

Soqchilar mamlakatni qo'riqlashlari kerak;

Mehnatkashlar (dehqon va kosiblar) hamma fuqaroni boqishlari, kiyintirishlari lozim. Aflotun ideal davlatida butun e'tiborni faylasuflarga qaratadi.

Aflotunning bizga qadar 41 ta asari yetib kelgan.

O'zining asarlari bilan yunon ilm-fanini, falsafiy bilimlarini barkamol etgan ulug' olim va donishmand mutafakkir **Arastudir**. U miloddan avvalgi 384-322-yillarda yashagan. Arastu Makedoniyaning Stagiriya shahrida tug'iladi. Shu sababli Arastuni ba'zan Stagirit deb ham atashadi. Uning otasi Makedoniya podshohining tabibi bo'lgan. Arastu ham yoshligidan otasining kasbini davom ettirib, boshqa sohalar bilan ham shug'ullanadi. Afnaga kelib taxminan 20 yil (17 yoshidan 37 yoshigacha) davomida Aflotunga shogird bo'ladi. 342-yili podshoh Filippning taklifi bilan Makedoniyaga qaytib, uch yilgacha Aleksandrning tarbiyachisi bo'lib xizmat qiladi. Aleksandr Makedonskiy hukmdor bo'lgach, ustoz va do'sti Arastuga atab haykal barpo etadi. Bu haykalning poyida shunday yozuvlar bor edi: "Iskandar ushbu yodgorlikni Nikomaxning o'g'li, buyuk donishmand va avliyo Arastu xotirasiga o'rnatdi". Miloddan avvalgi 336-yilda Arastu Afina shahrida o'zining "litsey" nomi bilan shuhrat qozongan xususiy maktabini ochdi. 323-yilda Aleksandr Makedonskiy o'lgach, Afidan ketadi va bir yil o'tgach, 322-yilda Evbey orolidagi Xalkida shahrida vafot etadi.

Qadimgilarning aytishicha, Arastu mingga yaqin asar yozgan. Ana shu buyuk merosdan bizga qadar 47 tasigina yetib kelgan. Bular orasida "Metafizika", "Politika", "Etika", "Ritorika", "Fizika", "Poetika", "Jon haqida", "Hayvonlar haqida", "Sevgi haqida", "Uyqu va bedorlik haqida" nomli yirik asarlar bor. Ammo ulug' dahoning asrlar to'fonidan omon qolib bizga qadar yetib kelgan asarlari ozginagina namunasi ham shu qadar chuqur, shu qadar murakkabki, olimlarning idroki to shu kunga qadar ularning tagiga yetib ulgurgan emas, desak yolg'on bo'lmaydi.

Arastu o'zining san'at va adabiyot haqidagi fikrlarini "Poetika" asarida bayon qiladi. Ikki qismdan iborat bu asarning bizga qadar faqat birinchisi yetib kelgan. Bu qismda san'at va adabiyotga umumiy ta'rif berilgandan keyin asosan tragediya haqida gapiriladi. Epos, lirika va komediya masalalariga doir ikkinchi qismi butunlay yetib kelmagan. Lekin shunga qaramay, bu asar badiiy so'z san'ati va uning qonunlari haqida tizimli ravishda hikoya qiladigan va shu sohaning noyob namunasi sifatida bizga qadar yetib kelgan yakka-yu yagona yodgorlikdir.

Arastuning tushunchasicha, san'at avvalo insonning faoliyati natijasida tug'iladigan va o'zining maxsus qonun-qoidalari asosida ish ko'radigan alohida "ijodiyot" sohasidir. Kitob davomida Arastu o'zining san'at haqidagi fikrlarini, garchi nomini aytmasa ham, asosan Aflotun nazariyalariga qarama-qarshi qo'yadi, ustozining poeziyaga qarshi aytgan gaplariga e'tiroz bildiradi. Arastu ham Aflotun singari poeziyaning asosiy vazifasi "taqdidchilik"dan, ya'ni hayotni aks ettirishdan iborat ekanligini tasdiqlaydi, ammo bu masalada ustozidan ancha ilgari ketadi. Aflotun mavjud borliqni ideallar olamining xira sharpasi tarzida tushunib,

taqdidchilikning imkoniyatlariga unchalik qiymat bermagan bo'lsa, Arastu asosiy ahamiyatni, akmuncha badiiy taqlid bilan bog'lab, faqat shu yo'l bilan hayotni anglash mumkinligini aytadi. Bas shunday ekan, san'at ham inson faoliyatining ijodiy tomonlardan biri bo'lib, u ham o'zining qonun va qoidalari vositasi bilan boshqa inson singari yagona bir maqsadga, ya'ni borliqni o'rganish va anglash talablariga e'tibor qilinadi. Biroq san'atning voqelikka bo'lgan munosabati faqatgina yuzaki taqlidchilik, hayotiy voqealar ko'zga qanday tashlansa, shunday aks ettirish bilan emas, balki badiiy asarning ichki mazmuni, voqealarni aktiv suratda mushohada qilish bilan belgilanadi. "Shoirning vazifasi, - deb yozadi Arastu haqiqatni bo'lib o'tgan narsalar haqida emas, balki chindan ham yoki zarurat yuzasidan ro'y berishi lozim bo'lgan narsalar to'g'risida gapirishdir".

Yozuvchi poeziya bilan tarixni taqqoslab fikrini isbotlashga harakat qiladi. "Tarixchi bilan shoirning farqi, ularning biri she'rda, biri prozada gapirganida emas: Herodotning asarini ham she'rga ko'chirish mumkin, baribir shunda ham asar taqdidchilik qoladi. Shoir bilan tarixchining farqi shundaki, ulardan biri haqiqatdan bo'lib o'tgan voqealar, narsalar haqida, ikkinchisi yuz berishi mumkin bo'lgan narsalar haqida gapiradi. Shu sababli tarixga qaraganda poeziyaning ko'proq falsafiy va jidduy ma'nosi bor, chunki poeziya umumiy narsalar haqida, tarix esa xususiy narsalar to'g'risida gapiradi".

Arastuning adabiy ijodga bergan bu ta'rifida shu qadar chuqur ma'no borki, u to'g'ri kunga qadar o'z qimmat va mohiyatini yo'qotmay keladi.

"Poetika" asarida Arastuning diqqatini ko'proq jalb etgan narsa tragediya masalasidir. Tragediyaning eng muhim xususiyati deb uning maqsadini tushunadi. Yozuvchining aytishicha, chinakam tragediya asari tomoshabinning dilida qo'rquv va achinish hislarini qo'zg'atib, shu yo'sim inson ruhining "musaffolashishiga" ta'sir etishi lozim. Bu xususiyatni Arastu "katarsis" deb ataydi.

Darvoqe, tomoshabin begunoh odamning boshiga tushgan og'ir kulfatlarni ko'rganida uning holiga achinmaydimi, xuddi shunday fojiaiy musibatlar o'zini ham benavo qilishi mumkinligini o'ylab, qo'rquv, iztirob chekmaydimi? Bas shunday ekan, odam bolasi badiiy asarda tasvir etilgan qahramonlarning dardu alamlarini ko'rganida ko'zi ochilib, ko'ngli ravshan tortadi va uning dilida shunday fikrlardan o'zini saqlash istagi uyg'onadi. Xullas, Arastu o'zining katarsis nazariyasida san'at va adabiyotning insonga o'tkazadigan chuqur ma'naviy ta'birning falsafiy tavsifini beradi.

Arastuning juda ko'p fikrlari to shu kunga qadar o'z qimmatini yo'qotgan emas. Vatanimizning san'at va adabiyot ahllari ularni diqqat bilan o'rganib kelmoqdalar.

Tarixdan ma'lumki, 336-yili makedoniyalik Iskandar Yunonistonni bosib olib, Sharqqa qarshi yurish boshlagan. Yunonlar bir necha bor o'z mustaqilliklarini tiklashga uringanlar, lekin har gal urinishlar bekor bo'lib, ular Makedoniyaga qaram bo'lib qolganlar. Shunday bo'lsa-da, ellin xalqining fani, adabiyot va san'ati boshqa mamlakatlarga ta'sirini o'tkaza boshladi. Shuning uchun ham yunon madaniyati ta'sirida bo'lgan davlatlar Iskandar istilosidan to Rim hukmronligigacha bo'lgan davr **ellinizm davri** deb yuritilgan. Ellinizm davri adabiyotida "yangi" komediya paydo bo'ldi. Bu komediyada ham ishq-muhabbat, oilaviy munosabat masalalari, umuminsoniy masalalar haqidagi muammolar ko'tarilar edi. **Menandr** (taxminan

343-292-yy.) yuzdan ortiq komediya yozgani ma'lum. U komediyaga faqat tomoshabinni kuldurib, vaqtini chog' qiladigan shunchaki bir masxarabozlik deb emas, balki insonni ma'naviy va axloqiy tomondan tarbiya qiladigan muhim bir vosita deb qaraydi. Komediylarida qahramonning ichki dunyosiga chuqurroq kirish, ularning dardu alamlarini, sevinch va shodliklarini to'laroq ochish – Menandrning asosiy vazifasi edi. Xuddi shu fazilat uni zamondosh komediyana vislardan ajratib turar edi. Menandr xarakterlar komediyasini yaratgan. Shoir ba'zi hollarda qahramonlarini shu qadar fojiali tasvirlaydiki, natijada bu tragediya tusini ham oladi. Buni biz "Hakam sudi", "Qirqilgan soch" asarlari bosh qahramonlari holatlarida ko'ramiz.

Ellinizm davrida lirik poeziya ham rivojlandi. Ma'lumotlarga ko'ra, **Kallimax** (taxminan 310-240-yy.) bu davrning juda sarmahsul shoiri bo'lgan. U o'zining "Jadvallar" bibliografik qo'llanmasida o'zidan oldin o'tgan olim va adiblar to'g'risida ma'lumot beradi. Uning bu asari adabiyotshunoslarga ilmiy-tadqiqot ishlarida amaliy va nazariy manba bo'ldi. Kallimaxning "Sabablar" to'plami kichik qissalaridan tashkil topib, turli bayramlar va udumlarning kelib chiqishi, shahar va ibodatxonalarning barpo etilishi haqidagi rivoyatlardan iborat. Shoir ijodida ma'budlar sha'niga yozilgan qo'shiqlar – gimnlar ham bor. Uning asarlari, boshqa shoirlardagi kabi olimona iboralarga boy. Bundan shoirning o'z ijodini bevosita yuqori saroy ahlari talablariga moslashtirgani ko'rinadi.

Ellinizm davrida katta epik doston yozishga moyillik **Apolloniy** (taxminan 295-215-yy.) ijodida ko'rinadi. Uning "Argonavtika" dostonida qadimgi jangnomalarga murojaat qilgani ko'rinadi. Asarning asosiy mavzusi inson bissiyoti masalasidir. Asar antik afsona asosiga qurilgan – Medeyaning Yazonga muhabhati tasvirlanadi. Bu mavzuni tasvirlashda Apolloniy muhabbat tuyg'ularini psixologik tomondan tahlil qiladi.

Ellinizm davrida kichik hajmdagi poetik asarlar **Feokrit** (300-250-yy.) ijodida ko'rinadi. Ijodida tabiat zavqi, sevgi ehtiroslarini kuylash, insonning shaxsiy hayotiga, ayniqsa, oddiy kishilarning turmushiga ko'proq qiziqish, she'rning nafis va go'zal bo'lishiga intilish o'z ifodasini topgan. Uning "Idilliyalar" to'plami (ko'rinish, manzara ma'nosini beradi)da "bukolikalar", ya'ni cho'ponlar haqidagi she'rlari bor. Bukolika – yunon folklorida uchraydigan janrlardan biri. Feokrit bukolikalarida cho'ponlar o'rtasidagi suhbatlar, dahanaki janglar, sevgi nolalari o'z ifodasini topgan.

Ellinizm davri yunon poeziyasining rivojlangan payti, asosan, eramizdan oldingi III asrning o'rtalariga to'g'ri keladi.

Eramizdan oldingi II asrdan boshlab Yunon davlati Rim imperiyasiga taslim bo'ldi. Turli ziddiyatlar kelib chiqdi, axloqiy tushkunlikning kelib chiqishidagi asosiy omillar yuzaga keldi. Ilm-fan jiddiy va chuqur tadqiqotchilik xususiyatini yo'qotdi. O'tmish adabiyotga tahsin ko'zi bilan qarash, shu adabiyotning an'analari qayta tiklashga intilish – davrning eng muhim vazifasi bo'lib qoldi.

Bu davrda yunon xalqining jahon adabiyotiga qo'shgan eng katta hissasi roman janridir. Shu vaqtgacha yunon badiii ijodida poeziya ustunlik qilgan bo'lsa, endilikda yaratilgan romanlarning barchasida ishqiy mavzu asosiy o'rinni egalladi. Yunon ishqiy romanlaridan biri Longning "Dafnis va Xloya" asari bo'lib, unda ikki yoshning otashin sevgilari haqida gapiriladi. Long asarni cho'ponlar hayotiga

haqda so'zlashib, qishloq hayotining afzalliklarini, dehqon va cho'ponlar ma'naviyatining ustunligini ko'rsatadi, o'z qahramonlaridan o'rnatilgan o'rnak olishga da'vat qiladi. Yunonlar yaratgan roman janri shundan keyingi dunyo romanchiligi taraqqiyotida juda katta ahamiyatga ega.

Jahon madaniyati tarixida **Plutarx** ijodining ahamiyati katta hisoblanadi. Plutarx buyuk yozuvchi, muarrix va faylasufdir. Uning hayotiga oid ma'lumotlar bizning davrimizgacha juda kam yetib kelgan. Plutarx miloddan avvalgi 46-yilda Beotliya viloyatining Xeroneya shaharchasida tug'ilgan va 120-130-yillar orasida vafot etgan. U o'z shuhrini yaxshi ko'rgan va bu haqda asarida shunday degan: "O'zim haqimda gapiradigan bo'lsam, kichkina shaharchada yashayman va bu shaharchaning yanayam kichikligi uchun shu yerda yashashni davom ettiraman".

Plutarx o'z davrining eng ma'rifatli odamlaridan biri bo'lib, adabiyot, falsafa va tarixni juda yaxshi bilgan, musiqa va tabiiy fanlardan xabardor bo'lgan. Dastlab u o'z uyida, otasi Avtobul hamda buvasi Lampriy rahbarligida o'qigan. Akalari Timon va Lampriyalar ham ma'rifatli kishilar bo'lgan. O'spirinlik paytida Afinada o'qishni davom ettirgan. Uning o'spirinlik chog'laridayoq yaxshi ma'lumotga ega bo'lganligiga bir tarixiy voqea guvohlik beradi: 66-yil imperator Neron Yunoniston bo'ylab sayohat qilganida 17-20 yoshlardagi Plutarx Afinada ekan. Ana shu sayohat davomida Neron Delfada o'tkazgan diniy-falsafiy suhbatlarda yosh Plutarx ham o'z ustoz faylasuf Ammoniy bilan birgalikda qatnashgan. Demak, uning iqtidori yosh yig'iligidayoq shu qadar yuksak bo'lgan.

Plutarx Yunonistonning boshqa shaharlarida, shuningdek, Iskandariya va Rimda bo'lganligi ma'lum. Hukmdor Troyan uni Rimda juda yaxshi kutib olgan va ustoz sifatida e'zozlagan ekan. Plutarx Rimda falsafiy suhbatlar o'tkazgan, do'stlar oltirgan. Impeator Troyan unga konsulyar unvonini bergan – bu uning Rimda rasmiy tan olinishi edi.

Plutarx uning ikkinchi qismini o'zi tug'ilgan Xeroneya shahrida o'tkazadi va bu shaharning ijtimoiy, ma'rifiy hayotida faol qatnashadi, bu yerda falsafiy-axloqiy maktab tashkil etadi.

Asarlaridan xulosa qilinganda Plutarx yuksak axloqli kishi bo'lgan. U oila ittifoqini muqaddas deb bilgan. Rafiqasining ismi Timoksena bo'lib, ularning besh tuzandi – to'rt o'g'il va bir qizi bo'lgan. Qizi va ikki o'g'il farzandi yoshligida vafot etgan. Plutarx oilasidan uzoqdaligida qizining vafot etganligi munosabati bilan xotini Timoksenaga yozgan va asarlarida "Rafiqaga taskin so'zi" nomi ostida saqlangan xatida muallifning qattiq qayg'usi va xotiniga muhabbati ifodalangan. Plutarxning mehribon va yumshoq tabiatli kishi bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni uning asarlari ham tasdiqlaydi. Masalan, o'zining yuksak axloqi bilan munshilur bo'lgan Katonning qari va hech bir ishga yaramay qolgan qullarni ham sotishini Plutarx qattiq qoralaydi. Shuningdek, respublikaga qarshi til birlashtirishda ayblab, o'z o'g'illarini qatl ettirgan Brut harakatlarini muhokama qilishga ko'ngli bo'shligi yo'l qo'ymayotganini aytib o'tadi.

Plutarxdan juda boy adabiy meros saqlanib qolgan. Taxmin qilinishicha, adibning o'g'li Lampriy tomonidan tuzilgan asarlar ro'yxatida uning 210 asari sanab o'tiladi. Plutarx yozgan asarlar asosan ikki qismga bo'linadi, bular: "Qiyosiy

hayotnomalar” va “Axloqiy asarlar”dir. Ushbu “Axloqiy asarlar” Moralia deb ataladi va u ham “Qiyosiy hayotnomalar” kabi muallifga katta shuhrat keltirgandır.

“Qiyosiy hayotnomalar” mashhur yunonlar va rimliklarning hayotlari bayonidan iborat bo‘lib, juftliklar yoki yunoncha “parallel”larga birlashtirilgan. Har bir juftlikka yunon va rimlik kiritilgan, faqat bir asarida Plutarx ikkita emas, to‘rtta shaxs hayotnomasini bayon qilgan, hular: yunon tomonidan – Agid va Kleomen; rim tomonidan – aka-uka Tiberiy va Gay Grakxlardir. Bizning davrimizgacha 46 ta juft hayotnomalar saqlanib qolgan, bundan tashqari 4 hayotnoma ham saqlanib qolgan ekan. Har bir juftlikka kiritilgan shaxslar hayotida Plutarx fikricha ma’lum bir o‘xshashliklar bor, bu o‘xshashliklar ularning taqdirilarida yoki fe‘l-atvorlarida mavjud. Masalan, Demosfen va Sitseron, Iskandar va Sezar hayotnomalari qiyosiy bayon etiladi.

“Hayotnomalar” har xil vaqtda va ma’lum bir rejasiz yozilgan. Asar qahramonlarini Plutarx turli davrlardan olgan. Jumladan, hayotnomalarni boshlagan Teseyni real shaxs sifatida tasavvur qilish mumkin emas, u Gerakl kabi yunon mifologiyasi qahramoni sanaladi. Plutarx Gerakl kabi afsonaviy qahramonlarning real hayotda yashab o‘tganligiga ishongan ko‘rinadi.

Plutarxning “Axloqiy asarlar”i turkumiga “Dasturxon atrofidagi suhbatlar”, “Rim masalalari”, “Yunon masalalari”, “Yetti donishmand ziyofati”, “Spartaliklarning hikmatli so‘zlari”, “Sparta ayollarining hikmatli so‘zlari”, “Podshohlar va sarkardalarning hikmatli so‘zlari”, “Kelin va kuyovlarga nasihatlar” kabi asarlari kiradi.

Plutarx asarlarini o‘tmishning Erasm Rotterdamskiy, Monten, Heyne singari mashhur vakillari yuqori baholashgan, Shekspir, Rasin, Kornel kabi buyuk dramaturglar uning asarlari sujetiga qayta-qayta murojaat qilishgan. XVI asrda Plutarx asarlarining fransuz tiliga qilingan tarjimasini uchun J.Amio Yevropada misli ko‘rilmagan mashhurlikka erishdi.

MAVZU YUZASIDAN LUG‘AT:

Talant – qadimgi Yunoniston pul oltin birligi.

Drama – harakat.

Teatr – ko‘rish, kuzatish degani.

Lisistrata – urushni to‘xtatuvchi degani. Aristofan komediyasi nomi.

Logograflar – dastlabki yunon tarixchilari, keyinroq esa sudda nutqlarni yozib beruvchi kishilar.

Didaskaliya – asarning sahnalashtirilishi haqidagi ma’lumot.

Atellana – niqoblar komediyasi.

Satura – (“smes”) qurama degani.

Tabaa – Rim tabaasi, erkin fuqaro.

Moralite – axloqiy xarakterdagi pyesa.

Liturgik drama – diniy marosim aks ettirilgan sahna asari.

Misteriya (lotincha “diniy drama”) ham deyilgan.

Tragediya – “trago” va “oide” degan so‘zlardan iborat bo‘lib, taka qo‘shig‘i ma’nosini anglatadi.

Komediyalar – “komos” va “oide” so‘zlaridan tashkil topgan. Masxarabozlar qo‘shig‘i ma’nosini beradi.

Mimlar – ellinizm davrida bo‘lgan adabiy janr bo‘lib, muqallid, ya’ni taqlid qilish degani.

Proza – nasriy adabiyot.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR:

- 1 Yunon adabiyotining rivojlanishida Periklning xizmatlarini so‘zlab bering.
- 2 Drama janri haqida yunon faylasuf va notiqklarining fikrlari.
- 3 Euxil ijodining yetakchi mavzulari nimalardan iborat?
- 4 Solokl ijodining o‘ziga xos xususiyatlari va uning bu janrga olib kirgan yungilliklari.
- 5 “Shoh Edip” asarini nima uchun XVIII–XIX asrlarda “Taqdir tragediyasi” deb atashdi.
- 6 Evripid ijodining yuqori cho‘qqilarini nimalar belgilaydi?
- 7 Komediya janrining asoschilari kimlar?
- 8 Tarixiy prozani o‘rganishning ahamiyati nimada?
- 9 Notqlik san’ati va uning namoyandalari. O‘zbek millatining bugungi kundagi notiqklaridan kimlarni bilasiz?
10. Falsafiy prozaning asoschilaridan kimlarni bilasiz?

ADABIYOTLAR:

1. Alimuhamedov A. Antik adabiyot tarixi. - T.: 1975 .
2. Boltaboyev H., Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. 1-jild. Qadimgi davr.- T.: Mumtoz so‘z, 2013.
3. Гронский И.М. История античной литературы. – М.: Высшая школа, 1988.
4. Kun N.A. Qadimgi Yunoniston afsona va rivoyatlari.- T.: Davr press, Q.Mirmuhamedov tarjimasini.1-kitob, 2013; 2-kitob, 2014.
5. Гиленсон.Б.А. История античной литературы. – М.: “Флинта”, 2012
6. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. - T.: Akademyashr, 2010.
7. Komilov N. Tafakkur karvonlari. – T.: Ma’naviyat, 2011.
8. Ярхо В.Н. Античная драма. Технология. Мастерство. – М.: Высшая школа, 1990.
9. Jalilov H. Notqlik san’ati. – T.: O‘zbekiston, 1976.
10. Mahmudov M. Hayrat va tafakkur. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1990.
11. Mahmudov M. Forobiy va Arastu. “Jahon adabiyoti” jurnali. 2011, 5-son ,170-181-bet.
12. “Suqrot”. “Jahon adabiyoti” jurnali, 2012, 6-son, 202-bet.
13. www. goldlit.ru
14. www. livelib.ru
15. www.wikipedia.org
16. www. Wisdoms.ru
17. www.kinopoisk.ru

18. www.englishstory.ru

19. www.lib.ru

BADIY ADABIYOT:

1. Sofokl. Shoh Edip.- T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.(Asqad Muxtor tarjimasi)
2. Esxil. Zanjirband Prometei. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1985. (Asqad Mahkam tarjimasi)
3. Evripid. Medeya. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978. (Asqad Mahkam tarjimasi).
4. “Haqiqat manzaralari. 96 mumtoz faylasuf. Taqdirilar, hikmatlar, aforizmlar”. -T.: Yangi asr avlodi, 2002, 371-b.
5. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. Ritorika. –T.: Yangi asr avlodi, 2004.
6. Все шедевры мировой литературы в кратком изложении. Сюжеты и характеры. Зарубежная литература древних эпох, Средневековья и Возрождения. Энциклопедическое издание. – М.: «Олимп», АСТ, 1997, 848 с

RIM ADABIYOTI

REJA:

- 1 *Rim adabiyotining taraqqiyot bosqichlari.*
- 2 *Dastlabki Rim shoirlari.*
- 3 *Plavt va Terensiy komediyalari.*
- 4 *Avgust imperiyasi davrida Rim.*
- 5 *Vergily ijodi. “Eneida” dostoni.*
- 6 *Horatsiy ijodi: “Epodlar”, “Satiralar” va “Nomalar”.*
- 7 *Ovdiy hayoti va ijodi.*
- 8 *Rim ritorik prozasi. Sitseron ijodi.*

Mavzuga oid tayanch so'z va iboralar:

Rim adabiyoti. Lirika. Nasr. Drama. Komediya. Avgust asri adabiyoti. Avgust prinsipiati. Rim adabiyotining “oltin davri”. Bukolikalar. Georgikalar. Qasidalar. Numa Doston. Metamorfozalar. Palliata. Togata. Kontaminatsiya usuli. Protekstata. “Eneida”. Elegiya.

Miloddan avvalgi III asrda yunon xalqi o'zining mustaqilligidan ayrilib ilmulan, san'at va adabiyot sohasida to'xtovsiz inqirozga ketayotgan bir davrda Italiya tuprog'ining g'arbiy qirg'og'ida antik dunyo adabiyotining ikkinchi tarmog'i – Rim adabiyoti paydo bo'la boshlaydi. Eramizdan avvalgi IV asrning oxiri III asrning boshlarida Rim davlati Italiya yerlarining asosiy qismini egallab, Yunonistonda bo'lgani kabi, qulcbilik asosiga qurilgan demokratik polis tuzumimi joriy etadi. Italiyaning janubiy qirg'oqlarini va Sitsiliya orolini egallash Rim jamiyati tarixida ayniqsa juda muhim voqea bo'lgan.

Yangi adabiyot Italiya yerlarini birlashtirish ishida muhim o'rin tutgan lotin qabilasi tilida yaratiladi. Rim adabiyotining tug'illishi, ravnaq topishi va nihoyat amuzulga ketish holatlari ham xuddi yunon adabiyoti singari quldorlik jamiyati sharoitlarida kechgan.

Rim Yunoniston boshidan kechirgan yo'lni bosib o'tar ekan, juda ko'p ma'kuraviy muammolariga yunonlardan javob topadi. Sababi Rim madaniyatining tuzi sohalari, jumladan din, falsafa, san'at va adabiyotda yunonlardan juda ko'p nusxalarni o'zlashtiradi. Rim adabiyotining beshigini tebratgan, uni nihoyat voyaga yetkazishga ko'maklashgan kishilar chindan ham Homer, Evripid, Sofokl, Demosfen, Plindar va yunon adabiyotining boshqa ulug' zotlari bo'lgan. Biroq har ikkala xalqning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivoji hamda halokati o'rtasida umumiy o'xshashlik bo'lishiga qaramay, Rim quldorlik jamiyatining o'sish va yemirilish jarayoni tamomila boshqa bir tarixiy sharoitda, bo'lak bir geografik muhitda sodir bo'lgan, butunlay o'zgacha sur'at bilan taraqqiy etgandir. Modomiki, shunday ekan, Rim jamiyati yunon jamiyati bosib o'tgan yo'ldan borgan bo'lsa ham, Rim jamiyatining yo'li ancha murakkab bo'lgan, jamiki proseslar o'zgacha bir tusta takrorlangan. Binobarin, rimliklar yunon jamiyati yaratgan qaysi bir ma'naviy merosni qabul qilmasinlar, avvalo bu merosni o'zlarining milliy ehtiyojlariga,

g'oyaviy talablariga, tarixiy sharoitlariga moslashtirib qabul qilganlar, uni lotin tuprog'i zaminiga monand taraqqiy ettirganlar.

Rim adabiyotini lotin tilining taraqqiyot bosqichlaridan kelib chiqqan holda davrlarga bo'lib o'rganish an'anasi uyg'onish davriga borib taqaladi. Bunday bosqichlarga bo'lishda lotin tilini "arxaik lotin tili", "klassik davr lotin tili" (oltin va kumush davrlardan iborat), "so'nggi davr lotin tili"ga ajratilgan. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda qadimgi Rim adabiyoti adabiyotshunoslar tomonidan quyidagi davrlarga bo'lib o'rganiladi:

1. Folklor davri (miloddan avvalgi VIII asr o'rtalaridan III asr o'rtalarigacha)

2. Respublika davri adabiyoti:

a) ilk Rim adabiyoti (mil.av. III asr o'rtalaridan II asr o'rtasigacha)

b) fuqarolar urushi va respublika halokati bosqichi (mil.av. II asr o'rtalaridan I asrning 40-yillarigacha)

3. Avgust imperiyasi va prinsipiati davri adabiyoti (mil.av. I asr 40-yillaridan milodiy 14-yilgacha).

4. Imperiya davri adabiyoti.

a) kumush asr (I asr va II asr boshlari).

b) so'nggi Rim adabiyoti (II asr o'rtalaridan V asrgacha).

Qadimgi Rim adabiyoti katta davrni o'z ichiga oladi va bu davrlar soha mutaxassislariga tomonidan atroflicha o'rganilgan. Biz esa asosan Rim adabiyotining respublika va ichki urushlar hamda Avgust imperiyasi va prinsipiati davrlari adabiyoti haqida so'z yuritamiz.

Yunon va Rim adabiyotining o'xshash jihatlari quyidagicha umumlashtirish mumkin. Ikkisi ham ibtidoiy urug'chilik, quldorlik, shahar-davlat, feodalizm, iqtisodiy-ijtimoiy formatsiyalar davrini bosib o'tgan. Ikkisiga ham mifologiyaning xosligi, ma'bud va ma'budalarning insonga xos nuqsonlarga egaligini aytib o'tish lozim.

Rim adabiyotining yunon adabiyotidan ancha keyin shakllangani va nisbatan yetukligi maxsus adabiyotlarda e'tirof etilgan. Rim adabiyotining eng dastlabki yozma yodgorliklari miloddan avvalgi III asrga borib taqaladi. Umuman olganda esa, Rim adabiyoti yunon adabiyotidan 400-500 yil keyin vujudga kelgan hisoblanadi.

Rim adabiyoti ellinizm adabiyotining davomi sifatida yuzaga kelgan. Unda yunon adabiyotiga taqlid kuchli bo'lsa-da, hayotni haqqoniy baholash, naturalizm, maishiy turmush va uning ziddiyatlarini ko'rsata olish Rim adabiyotigagina xos jihatlardir.

Rimliklarning yunonlarga nisbatan hushyorroq va ishchanroq bo'lganligi sabablimi Rim adabiyotining yunon adabiyotiga xos fantastika, falsafaga moyillikdan xalos etadi.

Yunonlarda mifologiya asosan qahramonlar haqidagi rivoyatlar shaklida yuzaga kelgan bo'lsa, Rimda esa bunday ilohiy qahramonlar kulti rivojlanmagan edi. Faqatgina Rimga asos solgan afsonaviy Romulnigina yunonlardagi afsonaviy qahramonlarga tenglashtirish mumkin. Rimliklar o'z ajdodlarini e'zozlaganlar, lekin ularni oddiy odamlar sifatida tasavvur qilganlar. Shu sababli rim afsonalari afsonaviy emas, balki tarixiy shaxslar haqida hikoya qilgan. Yunon va Rim folkloridagi asosiy farq shunda ko'rinadi, ya'ni yunon adabiyotida afsonaviy, rimliklarda afsonaviy-

tarixiy voqealar negiz vazifasini o'taydi. "Iliada" dostoni qahramoni troyalik Eney bo'lgan ham Rim adabiyotida muhim o'ringa ega. Rivoyatlarda aytilishicha, troyalik Anxey va ma'buda Afrodita (rimliklarda Venera)ning o'g'li bo'lgan Eneydan keyinchalik jumi lotin qabilalari, hatto Rim imperatorlari ham tarqalganligini imperator Avgust davrida rasmiy jihatdan tan olingan ham.

Qadimgi Rim mifologiyasida ma'bud va ma'budalar Yunon mifologiyasidan farqli ravishda quyidagicha nomlangan:

Jeva - Yupiter;

Ciera - Yunona;

- Poneydon - Neptun;

Atid - Pluton;

Atina - Minerva;

Atrodita - Venera

Prot - Kupidon yoki Amur;

Cifest - Vulkan;

Ares - Mars;

Artemida - Diana;

Ciermes - Merkuriy;

Dionis - Vakx yoki Liber;

Yunon mifologiyasi o'zining rang-barangligi, bo'yoqdorligi, badiiy to'qimaga boyligi bilan hayratga solsa, Rim mifologiyasi afsonalarga bu darajada boy emas. Rimliklarning diniy tasavvurlari yunonlarniki kabi turli tabiat hodisalaridan, o'ntalaridan qo'rqishdan kelib chiqqan. Rimliklar o'z xudolari haqida qiziq voqealar to'qishga ham urinmaganlar, holbuki har bir insonning o'z faoliyat ko'rsatish sohasi va unda o'z ilohlari bo'lgan, lekin ular yunonlardan farqli o'laroq, ilohlari bilan muloqotga kirishishni tasavvur ham qilmaganlar.

Rimliklarning mavhum va qat'iylikka asoslangan diniy qarashlariga yunon mifologiyasining ta'siri kuchaygunga qadar "indigament" deb ataluvchi rasmiy duolar formulalari ro'yxati tuzilgan edi. Rimliklar hayoti davomida ularga turli sharoitlarda murojaat etishlari ko'zda tutilgan bo'lib, ular sof italiya qabilalarining dunyoqarashlarini o'zida aks ettirgan edi. Rim yozuvchisi Mark Terensiy Varronning (mil. av. I asr) ma'lumot berishiga ko'ra, Rim 170 yil mobaynida ma'budlarning haykallarizisiz yashadi.

Rimliklarning yunon mifologiyasini qabul qilib, uni yunon-rim mifologiyasiga aylantirgan ularning insoniyatga ko'rsatgan buyuk xizmati bo'ldi. Sababi, ko'pgina yunon haykaltaroshlarining genial asarlari asosan rimliklar tomonidan yaratilgan nusxalarda bizgacha yetib keldi. Rim shoiri Publiy Ovidiy Nazon esa o'zining "Metamorfozalar" asarida yunon xalqining o'ziga xos miflarini badiiy shaklda taqdimlab, keyingi avlodlarga yetib kelishiga sababchi bo'ldi.

Zamonaviy astronomiyada quyosh sistemasidagi ko'pgina sayyoralar, yulduz tulkunlarining nomlari antik mifologiyadan olingan. Jumladan, Yupiter, Saturn, Uran, Neptun, Mars, Venera, Merkuriy, Pluton atamallari ostida aksariyat insonlar mifologik ma'budlarni emas, balki sayyoralarni tushunadilar. Kastor, Polluks yulduzlari, Persey, Pegas, Orion, Andromeda, Kassiopeya yulduzlar turkumi nomlari ham antik mifologiyaga aloqador nomlar sanaladi.

XVII-XX asrlarda Yevropa davlatlarining ko'pgina harbiy kemalari nomlari ham antik mifologiyadan olingan. Masalan, ruslarning "Avrora", "Pallada", "Diana" kreyslari, XIX asr ingliz kemalari "Bellerofont", "Nestor", "Melpomena" shular jumlasidandir.

Kundalik muloqotda ham qadimgi yunon-rim mifologiyasiga oid ism va nomlar, obrazli iboralar ununli qo'llanadi. "Titanlaracha kurash", "gigant o'lchov", "adovat olmasi", "panik qo'rquv", "olimpona xotirjamlik", "Axilles tovoni", "Tantal (Tartar) azoblari", "sizifona mashaqqat", "Amur o'qlari", "Edip kompleksi" kabi iboralar bunga misol bo'la oladi.

Ko'pgina fan sohalari ham mifologik atamalardan foydalanib kelinmoqda. Germenevtika atamasi yunon ma'budi Germes nomidan, seysmologiya atamasi Seysmos ma'budi nomidan, venerologiya sohasi ma'buda Venera nomidan kelib chiqqanligi barchaga ayon.

DASTLABKI RIM SHOIRLARI

Birinchi Rim shoiri yunonistonlik Liviy Andronik (mil. av. 284-204-yy.) bo'lgan. Rimliklar janubiy Italiyadagi Tarent shahrini ishg'ol etganlarida uni asir olib, Rimga keltiradilar. Keyinchalik qullikdan ozod qilingan Andronik shu yerda qolib Rim maktablarida yunon va lotin tillaridan saboq beradi. Ma'lumki, yunon maktablarida qo'llanilgan asosiy darslik Homer dostonlari bo'lgan. Lotin tilida bunday asarlarning yo'qligi vajidan Andronik qadimgi saturn vaznida "Odiseya" dostonini lotin tiliga erkin tarjima qiladi. Bu asar "Lotin Odiseyasi" nomi bilan ikki asr mobaynida Rim maktablarida darslik sifatida o'qitilgan.

Liviy Andronik Rim adabiyoti bahorini boshlab kelgan birinchi qaldirg'ochdir. Miloddan avvalgi 240-yilda birinchi Pun urushi tugagach, "Rim o'yinlari" bayrami katta dabdaba bilan o'tkaziladi. Bu bayramning sahna o'ymlaridan iborat ritualariga yunon dramasi birinchi bor kiritiladi. Lotin tilidagi bunday dramani ilk marta sahnalashtirish Liviy Andronikka topsiriladi. Miloddan avvalgi 240-yildan boshlab u rim sahnasi uchun yunon tragediya va komediyalarini qayta ishlagan. Liviy ko'pincha troya sikliga oid, mifologik jihatdan Rim bilan bog'lanuvchi mavzularga murojaat qilgan. Rim dramasi yunon dramasi kabi she'riy shaklda bo'lgan. Rim dramasi o'ziga xosligi shunda ediki, unda yunon dramasi xordan voz kechiladi, asosan dialog va ariyalardan iborat bo'ladi. Komediylarda esa yunon sujeti va qahramonlari saqlanib qolinadi.

Miloddan avvalgi 240-yildan keyin yana bir Rim shoiri Gney Neviy (mil.av. taxminan 270-200-yy.) ham dramatik faoliyatini boshlaydi. U asli Kampaniyalik bo'lib, birinchi Pun urushi qatnashchisi edi. Bu shoir ham xuddi Andronik singari o'z tragik asarlarining mazmunini yunon yozuvchilari asarlaridan olgan. Ammo shu bilan birga o'z vatani hayotidan olingan mavzularda tragediyalar yaratish kabi sharaflil ulug' vazifa Rim tarixida birinchi marta Neviy zimmasiga tushadi. Milliy mavzudagi bu xilda yozilgan tragediyalarning qahramonlari sahnaga Rim senatorlari kiyadigan alvon hoshiyali ustki libos, ya'ni proteksta kiyib chiqadilar. Shu sababli mazkur asarlarni protekstata deb ataganlar. Neviy yozgan protekstatalardan biz faqat ikkitasining nomini bilamiz. Ular mifologik mavzularga bag'ishlangan. Bular "Romul" va shoirning zamondoshi Klavdiy Marsefning Klastidiy shahri yaqinida gallar bilan bo'lgan jangi haqidagi "Klastidiy" tragediyasidir. Ammo Neviy so'zga

o'tkazilgan, asarlarida oliy tabaqa vakillarini o'tkir tanqid qilganligi uchun jamoat o'rtasida sharmanda etilib, Rimdan quviladi.

Yunon komediyalarini qayta ishlashda kontaminatsiya usulini Neviy birinchi bo'lib qo'llaydi.

Neviy talantining eng yuqori cho'qqisi "Pun urushi" dostonidir. Rim milliy dostonchiligiga asos solish jihatidan bu asar lotin adabiyoti tarixida muhim o'rin tutadi. Doston yaqinda bo'lib o'tgan birinchi Karfagen urushi voqealariga bag'ishlangan. Biroq asarda xuddi Homer dostonlarida bo'lgani kabi real tarixiy hodisalar mifologik afsonalar bilan chatishgan holda tasvir etiladi. Asarda Eneyning dengiz safari mashaqqatlarini yengib, Karfagenga malika Didona huzuriga yetib kelishi, so'ng Italiya qirg'oqlariga yo'l olishi, nihoyat, Eneyning avlodi Romul tomonidan Rimning barpo etilishi asar davomida mufassal bayon qilinadi. Rim xalqining troyaliklardan tarqalganligi haqidagi rivoyatga birinchi marta badiiy tus bergan shoir Gney Neviy sanaladi. Ammo Neviyning tragediya va komediyalari singari "Pun urushi" dostonidan ham juda ozgina parchalar saqlanib qolgan. Neviyning "Pun urushi" eposi keyinchalik yetti kitobga bo'lingan, "Lotin Odiseyasi" kabi u ham saturn she'riy shaklida yaratilgan.

Dastlabki Rim shoirlari orasida eng yirigi, albatta Kvint Enniy (mil. av. 239-169-yy.) bo'lgan. Uning ona yurti Italiyaning janubidagi Kalabriya viloyatida yunon madaniyati qadim zamonlardan beri keng yoyilgan bo'lib, shoir ilk bolaligidan ellin tilsafasi va adabiyoti ta'sirida tarbiyalanadi.

Yunon tragediyanavislari orasida Enniyni ko'proq qiziqtirgan shoir Evripid bo'lgan. Rim shoirining Italiya sharoitiga moslashtirib, qayta ishlagan variantlari orqali tomoshabin ulug' yunon adibining qator asarlari - "Gekuba", "Ifigeniya", "Aleksandr", "Medeya" va boshqa tragediyalari bilan tanishadi. Bizga qadar yetib kelgan ba'zi parchalardan tragediya sohasida Enniyning nihoyatda mohir san'atkor bo'lganligi qahramonlarning ichki dunyosini ochishda, ayniqsa, ularning ebtirosli, jo'shqin holatlarini ko'rsatishda oldingi shoirlardan ancha yuqorilangani yaqqol sezilib turadi.

Enniy o'zining o'tkir mahoratini "Annallar" (Solnomalar) dostonida yanada kengroq namoyish qilgan. 60 000 misradan iborat (bizga qadar 1200 misrasi yetib kelgan) 18 bobli salmoqdor bu asar Enniyning Troyani tashlab qochishidan boshlanib, to shoirning zamonasiga qadar davom etgan butun Rim tarixini o'z ichiga oladi. Enniy lotin she'riyati qurilishini tubdan o'zgartirib, eski saturn vaznini yunon pekzometri bilan almashtiradi. Enniydandan so'ng yangi "lotin gekzometri" epik asarlarining asosiy o'lchoviga aylanadi.

Kvint Enniy o'z adabiy maktabini yaratgan. Bu maktabga tragik shoir Pakuviy, komediyanavis Setsiliy Stasiy ijodi mansub.

PLAVT VA TERENSIY KOMEDIYALARI

Rimda teatr tez sur'atlar bilan rivojlandi. Eski "rim o'yinlari"ning yoniga endi miloddan avvalgi 220-yillardan boshiab "plebey o'yinlari" va miloddan avvalgi 212-yildan boshlab esa "Apollon o'yinlari"ni ham o'tkazish qo'shildi. Turli teatr tomoshalarining ko'plab qo'yilishi dramatik va aktyorlik talantiga ega kishilarga bo'lgan talabni oshirdi. Faoliyatini komediya bilan cheklagan, asarlari bizgacha to'liq shaklda yetib kelgan dastlabki Rim komediyanavisi Tit Makk Plavt hisoblanadi.

Rimning ulug' komediyanaivisi Tit Makk (keyinroq uni Maksiy deb ataganlar) Plavt (mil.av.taxminan 250-184-yy.) Italiyaning Umbriya viloyatida tug'iladi. Plavt uning laqabi bo'lib, "yassi oyoq" degan ma'noni anglatadi. Uning hayotiga oid ma'lumotlar kam. Olimlar yuzdan ortiq komediyani uning nomi bilan bog'laydilar. Ammo eramizdan oldingi I asrda mashhur Rim olimi va adabiyotshunosi Varron shulardan faqat 20 tasi Plavt qo'li bilan yozilganini aniqlaydi. Barcha komediyalar Plavt ijodining so'nggi davriga taxminan miloddan avvalgi 207-184-yillarga mansub.

Plavt ijodining eng avj pallasi Rimning eng xavfli va qonli urushi sanalgan ikkinchi Pun urushi davriga to'g'ri keladi. Ammo Plavt asarlarining faqat bittasida ushbu voqealarga ishora etib o'tiladi. Sababi Plavt siyosiy mavzularga qo'l urishdan qochgan. Uning ijodi hech bir yuqori tabaqa vakillari tomonidan qo'llab-quvvatlanmagani, Rimda esa harbiy vaziyat bo'lgani va siyosiy mavzularda aytilgan o'tkir tanqidiy asarlar senzurdan o'tkazilgani bunga sabab bo'lgan ko'rinadi. Rim adabiyotida siyosiy mavzularda ijod qilgan Gney Nevinyng lotin Aristofani bo'lish uchun qilgan harakatlari uning ta'qibga uchrashiga olib kelganligini Plavt yaxshi tushungan va dramaturg bu xatoni qilmaslikka harakat qilgan ko'rinadi.

Plavt ham yangi yunon komediyasi vakillari asarlarini Rim sahnasiga moslashtirish bilan shug'ullangan. Dramaturg asos qilib olgan yunon komediyalarining birortasi ham bizgacha saqlanib qolmagan, lekin ellinizm davrida yashagan yunon dramaturgi Menandring bizgacha saqlangan matnlariga asoslangan holda shuni aytish mumkinki, yangi attika komediyasi asosan kichik hajmdagi xor intermediyalari shaklidagi she'riy dialoglardan tashkil topgan. Plavt yunon komediyalarini tanlar ekan, ularning Rim hayoti talablariga monand kelishiga, zamona bilan hamohang bo'lishiga katta e'tibor qiladi va shular vositasida vatanining muhim muammolarini hal etadi. U ham **kontaminatsiya** – ikkita yunon komediyasidan bitta Rim komediyasi yaratish usulidan keng foydalanadi.

Plavt asosan past tabaqa vakillari – **plebeylarga** mo'ljallab oddiy avom tilida asarlar yozadi. Plavtning "Xumcha", "Maqtanchoq jangchi", "Psevdl" (Aldamchi qul) komediyalari ayniqsa mashhur. Uning asarlarida kekxa otalar, ularning o'g'illari, ma'shuqa qizlar, qo'shmachilar, sudxo'rlar, askarlar, baloxo'rlar (parasitlar), qullar obrazlari ko'p uchraydi. Komediylardagi qullar obrazlari o'zining epchil, uddaburonligi, ayyor va aqlliligi bilan o'quvchini qoyil qoldiradi. Qullar komediyalardagi kulgili holatlarning yagona ijodkoridir. Uning asarlaridagi qo'shmachi Ballion, xasis Evklion, maqtanchoq jangchi Pirogopolinik kabi obrazlari nodir iste'dod bilan chizilgan qahramonlardir. Komediylar sujeti ko'p hollarda bexosdan qilingan xatoga, masalan kishilarni tanimay adashtirishga asoslanadi. Shunday holni "Amfitrion", "Asirlar", "Menexma yoki egizaklar" asarlarida ko'rish mumkin. Lekin ko'pincha anglashilmovchilik va chalkashliklar xo'jayini uchun aqcha qo'lga kiritish ilinjida yurgan epchil va ayyor qullar tomonidan uyushtiriladi.

Plavtdan keyin yashagan mashhur Rim olimlaridan biri: "Mabodo muzalar lotin tilida so'zlashishni istasalar, ular shubhasiz Plavt tilini tanlashar edi", deb bejiz aytmagan. Plavt pyesalari she'riy shaklda yozilgan bo'lib, ko'pincha dialog shaklida, ba'zida esa musiqa jo'rligida ijro etilgan. Ayrim komediyalari esa pyesadan ko'ra myuziklni eslatgan. Komediylar antrakt va dekoratsiyalarsiz namoyish etilgan. Qahramonlarning o'z-o'ziga va tomoshabinlarga aytadigan monologlaridan ko'p

aytadigan. Plavtning komik effektlarni qo'llashi va topqirligini faqat Aristofan va Shekspirga qiyoslash mumkin.

Plavtning eng o'tkir va maroqli asarlaridan biri "Maqtanchoq jangchi" komediyavidir. Bu asar taxminan miloddan avvalgi 204-yilda yaratilgan. Asarning muvaffaqiyatli bo'lishi biz bosh qahramon Pirogopolinik bilan tanishamiz. Bu harbiy muvaffaqiyat uning eg-niga alvon kamzul, boshiga jig'ali dubulg'a kiyib, bahaybat shamshir, yaltiroq qalqon ko'tarib, jingalak sochlarini selkillatib navkarlar bilan ko'chada muvaffaqiyat to'kib yurar ekan, har doim o'zining jang maydonida ko'rsatgan mislsiz bahadurliklari, go'zal xonimlar bazmida surgan ishratlarini doston qiladi. Biroq bu muvaffaqiyatning turish-turmushi, hamma gaplari quruq maqtanchoqlik, xolos. Haqiqatda esa u hech qachon jang maydoniga kirmagan, o'zi ham o'lguday qo'rqq, ayollar bilan qurgan bazmlari esa g'irt yolg'on. Asarda ikkita oqilona o'ylab topilgan ayyorlik qo'llangan. Birinchisi, jangchi va uning qo'shnisining uylari o'rtasida yashirin yo'l ochilib, jangchining asirasi o'zini egizak opasi bordek tutadi. Bunday sujetni biz ko'pincha Yevropa xalqlari va arab ertaklarida uchramiz. Ikkinchidan, epchil va ayyor getera o'zini qo'shnining xotini deb tanishtirilishiga rozi bo'ladi va xuddi Pirogopolinikka oshiq bo'lgandek ko'rinadi. Oqibatda maqtanchoq jangchi uyushtirilgan tuzoqqa tushadi va sharmanda bo'ladi. Maqtanchoq jangchi obrazi yangi yevropacha komediyalarda ham o'z dolzarbligini yo'qotmaydi, bu qahramonni N.Yudoll yaratgan Ralf Royster Doyster obrazi va Shekspirning Falstafida ko'ramiz.

Plavtning "Xumcha" komediyasi ham o'zining badiiyligi va ijtimoiy mohiyati jihatidan "Maqtanchoq jangchi" asaridan qolishmaydi. Bu komediyaning asosiy mavzusi boylikning inson xulqini buzadigan yaramas ta'sirini ko'rsatishdan iborat. Ayni zamonda Rim jamiyati uchun bu masala juda muhim bo'lgan. Asar qahramoni kumbaq'al Evklion o'choq ichidan bir xumcha tilla topib oladi. Bu uni esankiratib qo'yadi, endi u xumchani poylab ko'chaga ham chiqmaydi, hammadan hadiksiraydi. Xumchadagi tilla yo'qolganda g'alati tushunmovchiliklar yuz beradi. Evklion qizining nomusiga tekkanligini tan olmoqchi bo'lgan Likonid o'g'rilikda ayblanadi. Komediyaning yakuniy qismi yo'qolgan. Asar so'ngida Evklion o'z boyligini topib olishi, Likonid esa uning qiziga uylanishi, *oltinni qiziga sep sifatida topshirishi* taxmin qilinadi, xolos. Asar voqealari O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov qalamiga mansub "Oltin devor" komediyasi sujetini ham eslatadi. Haqiqatan ham ko'p olimlar "Xumcha"ni xasislik haqidagi asar deb hisoblaydilar va Plavtni shu toladagi kishilar obrazini adabiyotga birinchi bo'lib olib kirgan, "xasislik mandati" bilan jahon adabiyotida kezib yurgan qahramonlarning birinchisini yaratganligini e'tirof etadilar. Jumladan, Molyerning "Xasis" komediyasi, Balzakning "Yevgeniya Grande" romani, "Gobsek" qissasi, Sadridin Ayniyning "Sudxo'rning o'limi" qissasida xasislik mandatiga ega bo'lgan qator qahramonlar tasvirlanadi.

Publiy Terensiy (mil. av. taxminan 195-159-yy.) Rimning mashhur komediyanaivislaridan bo'lib, Afrikaning Karfagen shahrida tug'ilgan. Bolaligida uni Rimga keltirib, qul sifatida sotadilar. Senator Terensiy Lukian uning xushyor va zehinli ekanligini sezib, unga yaxshi ta'lim beradi va keyinchalik o'z oilasining a'zosi sifatida Terensiy nomi bilan qullikdan ozod qiladi. Terensiy bo'lg'usi fotih Kichik Sampion va uning do'sti Gay Leliylar bilan do'st tutinadi. Yunon madaniyatini sevgan shoir Afina sayohatiga jo'na'di va u yerdan qaytayotib yo'lda halok bo'ladi.

Terensiy ham Plavt singari faqat komediya yozish bilan cheklangan. Adabiy faoliyati olti yil davom etgan. Bu muddatda u oltita komediya yozgan va bu asarlar bizgacha to'la yetib kelgan. Plavt plebeylarga moslab yozgan bo'lsa, Terensiy aristokrat – aslzoda tomoshabinga moslab asarlar yozgan. U ham yunonlarning yangi attika komediyasi vakillari asarlariga murojaat qiladi, ularni andoza qilib olib, Rim sahnasiga ko'chiradi. Ammo bu ikki komediyana vis ijodiy yondashuvda jiddiy tafovut bor. Plavt Menandr asarlaridan deyarli to'raligicha foydalangan emas. U yunon komediyasiga ergashgani bilan, o'zidan qo'shib, ko'p hollarda umuman asl nusxaga o'xshamagan yangi va mustaqil asar yaratadi. Terensiy esa imkon qadar asl nusxa g'oyasini, badiiy xususiyatlarini, kompozitsion tuzilishi, qahramonlar qiyofasini, ayniqsa, asarning ruhini o'zgartirmaslikka harakat qiladi. Terensiy "Qaynona", "Og'a-mlar", "Androslik qizlar", "Jafokash", "Axta kul", "Formion" komediyalarida asosan o'zining ulug' ustozini, yunon dramaturgi Menandrning izidan borib, gumanizm g'oyalari talqin etadi. Ota-bolalar, er-xotinlar o'rtasidagi munosabatlar masalasi, odamlarga shafqat, ayollarga himmat, gumrohlarga muruvvat ko'rsatish g'oyalari – shoir ijodining asosiy mavzulari. Terensiy asarlaridagi jiddiylik Rim tomoshabinining aksariyat qismiga murakkab tuyuladi. Shu sabablimi Terensiy o'z zamonasida Plavt darajasida e'tibor qozonmaydi. Shunga qaramay, Terensiy asarlarining kompozitsion qurilishi, xarakter ochish mahorati, voqealarni badiiy jihatdan ishonarli tasvirlashi, jami asarlariga xos bo'lgan ichki uyg'unlik va nihoyat, uslub bobidagi nodir san'atkorlik, tilining nafisligi, sofligi – Terensiy ijodining asosiy fazilatlarini bo'lib qoladi. Antik davr sharhlovchisi Evantiy (XV asr) fikricha, "Terensiy komediyalari tragediya darajasiga ko'tarilmasa-da, lekin mim darajasiga tushib ham ketmaydi".

Keyinchalik Yevropa adabiyotida Jan Batist Molyer "Skapening nayranglari" asarida Terensiyning "Formion"idan, "Erkaklar uchun saboq" asarida "Og'a-inilar" asaridan foydalanadi.

AVGUST IMPERIYASI DAVRIDA RIMDAGI HAYOT

Sezar o'ldirilgach, hir oydan so'ng uning jiyani Oktavian Rimda paydo bo'ladi. U o'rta bo'yli, ozg'in va kasalmand ko'rinishli 18 yosh yigitcha edi, lekin tog'asi Yuliy Sezar uni asrab olib, patrisiyga aylantiradi va pretor etib saylaydi.

Rimga kelgach, Oktavian e'tiborli davlat arbobi Sitseron tomonidan qo'llab-quvvatlanib, uning yordamida mahalliy aristokratiya bilan aloqa o'rnatadi. Oktavian otasining xunini olmoqchiligi haqidagi suhbatlari, unga nisbatan nohaqlik qilinganini, tez orada Sezar vasiyatiga ko'ra u qoldirgan pullarni plebeylarga tarqatishi haqidagi va'dalari tufayli xalqning hurmatini qozonadi. Tez orada Oktavian senatga a'zo bo'ladi, Lepid va Antoniy bilan birga 5 yilga mo'ljallangan, Antoniy unda asosiy rolni o'ynaydigan triumvirat tuzish haqidagi kelishuvga qo'l qo'yadi. Hech qancha vaqt o'tmay uchala triumvir ham o'zlarining siyosiy muxoliflarini ta'qib qilishni boshlaydilar. Ular bir-birlaridan shubhalanib, o'z yaqinlarini yo'qota boshlaydilar. Lepid – o'z akasini, Antoniy – amakisini, Oktavian esa Antoniyning iltimosiga ko'ra Sitseronni o'ldirtiradi. Holbuki, Oktavian Sitseron oldida qarzdor bo'lgan deyish mumkin.

Antoniy va Oktavian Sezarga suiqasd qilganlarning qo'shinlarini mag'lub qiladilar. Suiqasdning boshida turgan Brut va Kassiy o'z joniga qasd qiladi. Utlabadan so'ng Oktavian Rimga qaytadi. Qaytishi bilan yerlarni veteranlarga bo'lib beradi, xalq orasida yanada mashhur bo'lib ketadi. Antoniy esa qo'rqmas jangchi, uqlli strateg bo'lsa-da, fe'li qiziqqon, o'zgalar ta'siriga tez beriluvchi, teallikni sezish hissi yo'qligi bois Sharqda 10 yilcha qolib ketadi. U Kleopatra tuzog'iga ilinadi. Olti yil muqaddam Sezarni maftun etgan Misr malikasi avvalgidek go'zal va yosh emasdi. Lekin u yaxshi ta'lim olgan bo'lib, ko'pgina tillarni biladi, yunon adabiyoti va falsafasidan xabardor edi. Eng asosiysi, uning maqsadi Misrga hukmronlikni saqlab qolish va hatto Rim qo'shini yordamida uning hududini kengaytirish edi.

Antoniy Kleopatraga uylanadi, ular uch farzand ko'rishadi, Antoniy Rimdan ko'ra ko'proq Misr fuqarosiga aylanadi. Bu davr ichida Oktavian Rimda o'z mavqecini mustahkamlaydi, Agrippa yordamida ko'pgina ijtimoiy foydali ishlarni boshlaydi. Bu orada ikki triumvir o'rtasidagi munosabat yomonlashadi. Uchinchi triumvir Lepid esa allaqachon chetga chiqqan edi. 32-yilda esa Oktavian Antoniyga qarshi nutq so'zlaydi, Senat Kleopatraga qarshi urush e'lon qiladi.

Oktavian Misrga yaqinlashar ekan, Antoniy elchilarini yuborib, unga rahm qilishini so'raydi. Kleopatra Misrni o'g'illariga qoldirishni o'tinib so'raydi, Oktavian esa malikani Antoniyning o'ldirishiga undaydi.

Antoniyga Kleopatra o'zini o'ldirgani haqidagi yolg'on xabarni yetkazadilar. Antoniy quliga o'zini o'ldirishni va Kleopatrani o'ldirishni aytdi, qul bosh tortgach, o'zini o'ldiradi. Erini dafn etgach, Kleopatra toj va bayramona liboslarni kiygan holda ilon zaharini ichadi, ikki ilonni ko'ksiga qo'yib halok bo'ladi.

Miloddan avvalgi 23-yilga kelib Italiyada ochlik va epidemiya tarqaydi. Rimdagi plebs bug'doy olmas, katta g'alayonlar chiqqan boshlagandi. Och qolgan xalq Avgustning diktatorlik huquqlarini olishini, triumvirlar o'rtasidagi nizolar barham topib, plebs hayoti yaxshilanishini istardi. Ammo Avgust diktatorlikni qabul qilmay, faqat Rimni oziq-ovqat bilan ta'minlash majburiyatini oladi.

Oktavian miloddan avvalgi 27-yilda namoyishkorona diktatura yurgizishdan voz kechib, respublika tizimiga xos bo'lgan tashkilotlar, senat, konsullik va hokazolarni saqlab qoladi. Unga Avgust – "ma'budvash, muqaddas" nomi berilib ma'budlarga tenglashtirilsa-da, faqat prinsips, ya'ni birinchi grajdanin hisoblanardi. Avgust davri fuqarolik urushlariga chek qo'yib, Rimga tinchlik va farovonlik keltirganligi sababli bu davr "oltin asr" deb ham atalgan. Avgustning o'zi hayoti so'ngida loydan qurilgan Rimni qabul qilganligini, endi esa uni toshdan qayta qurib avlodlarga qoldirayotganligini ta'kidlagan.

Rim davlati O'rta Yer dengizi atrofidagi, Eron, Hindiston, Yunoniston, Misr, Karfaen, Kichik Osiyodagi juda ko'p mamlakatlarni harbiy qudratiga bo'ysundirib, bir necha asrlar davom etgan urushlarda juda ko'p shuhratli sarkardalarni va davlat arboblarni yetishtirdi. Lekin Rim madaniy va ma'naviy taraqqiyotida Yunoniston, Misr, Eron, Kichik Osiyo mamlakatlaridan orqada edi. Rim estetikasi esa yunonlar ta'sirida edi.

Shu yerda Rimdagi hayot haqida ozgina ma'lumot bersak. Miloddan avvalgi I asrlarda Rim, ayniqsa uning eski kvartallari juda ayanchli ahvolda edi. Tor, iflos,

qing'ir-qiyshiq ko'chalardan juda qo'lansa hid anqib turardi. Ko'chalarning kengligi to'rt qadamcha kelar, muyulishlar esa bazo'r olti qadamni tashkil qilardi. Shahardagi yog'och ustunli, 5-7 qavatli baland binolar "insul" deb atalardi. Shaharda o'nga yaqin akveduk bo'lib, lekin undagi ichimlik suvi insullarda yashovchi aholiga yetib kelmas edi. Plebeylar (past tabaqa vakillari) shahardagi iflos va chiqindilarni Tibr daryosiga oqizib ketuvchi yer osti kanallaridan ham foydalana olmasdilar. Qishda uylar ko'mir yoqib isitilar, bu esa tez-tez yong'in chiqishiga sabab bo'lardi.

Badavlat rimliklar esa xuddi shu kvartallarda katta, qulay, chiroyli uylarni qurardilar. Million kishilik aholi yashovchi Rimda insullar 40 mingtadan ortsa, badavlat uy-xonadonlar 1700 atrofida edi. Buning ustiga Rim ko'chalaridagi tiqilinchlik, ur-sur, harakatning tig'izligi va quloqni qomatga keltiruvchi shovqin-suron kishini hayratga solardi.

Sartaroshiar mijozlar sochini ko'cha o'rtasida qirishar; sarroflar kumush va oltin tangalarini balandroq jaranglatar; sayyor savdogarlar rangli shishadan yasalgan buyumlarni o'tgan-ketganga taklif qilishar; vino sotuvchilar esa asfora sotilgan aravasini sudrah yurib Vakx ichimliklari bilan kishilarni sarxush qilishar; gadolar g'amli ovozdada sadaqa so'rardilar...

Kunduzi ko'chalarda aravalar yurmas, faqat qullar o'z xo'jayinlarini zambillarda olib yurardilar. Kechasi esa yuzlab va minglab aravalar, aravakashlar qichqirig'i, otliqlar ovozidan shahar shovqinga to'lar edi. Bunday shovqinda shahar aholisi qanday uxlashini tushunish qiyin edi.

Shaharda bog'lar juda ko'p bo'lib, badavlat kishilar uylarining atroflari ham turli haykal, guldonlar bilan bezatilgan edi. Shaharning sharqiy qismida Metsenat bog'lari joylashgandi, lekin shaharning janubiy qismidagi Lukulla, Sallustiy va Pompey bog'lari, g'arbda esa Sezar bog'lari o'zining kattaligi va go'zalligi bilan kishilarni hayratga solardi.

Palatin tepaligi ostida qul bozori joylashgan edi. U yerda deyarli kiyimsiz holda ayol va erkak qullar sotilardi. Qullarning ayrimlarida oq qalpoq yoki yog'och taxtacha bo'lsa, ayrimlarining oyog'i bo'r bilan chizilgan, yana birlarining boshida lavr yaprog'idan gulchambari bo'lgan. Buning ma'nosi quyidagicha edi: qul sotuvchi sotayotgan quli uchun mas'uliyatni o'ziga olinasa, uning boshiga oq qalpoq kiydirar, lavr yaprog'idan gulchambar esa qulning urushda asir tushganligini anglatardi, oyog'iga bo'r bilan yozilsa, qul uzoq yurtlardan keltirilgan bo'lardi. Sog'lom, kuchli qul ikkita ho'kizning narxida sotilar edi.

Rimda yana toshdan qurilgan Pompey teatri, Flaminii sirki, Marsella teatri binolari joylashgandi. Rimdagi hayot o'zining hashamdorligi va dabdabasi bilan kishini hayratlantirardi. Kemalar O'rta Yer dengizidan shaharning uchta portiga kirib kelar, ular Afrika va Misrdan bug'doy, Galliyadan qush go'shti va jun, Ispaniyadan zaytun yog'i, yunon orollaridan meva va vino, Dalmasiya va Dakiyadan oltin, Iberiya yarim orolidan qo'rg'oshin, kumush va mis, Finikiyadan shisha idishlar, Mavritaniyadan fil suyagini, Hindistondan dur va korall (marjon) keltirishardi. Keyinchalik Petroniy shunday degan edi: "Butun dunyo g'olib rimliklar qo'li ostida edi. Ular dengizlar-u quruqlik, yulduz to'la osmonning egasi edilar. Lekin ularga bu ham kam edi. Ularning kemalari dengizlarda kezib yurar, qaysidir bo'g'ozda oltin borligini eshitishsa, ularga urush ochib, yangi xazinalarni qo'lga kiritishar edi."

Bu davrda plebeylar eng og'ir ishlarda ishlashar, lekin ularning mehnati qullarning mehnati oldida qadrlanmas edi. Quldorlikka asoslangan davlat kambag'allarni ish bilan ta'minlay olmas, shu sababli ular xohlagan damda qo'zg'olon ko'tarib, noroziliklarini bildirishlari mumkin edi. Qo'zg'olonning oldini olib uchun davlat juda katta mablag' sarflar, lekin plebeylar sudxo'rlardan olingan qazlarning kechilishini va uy-joy uchun to'lovlarning kamaytirilishini talab qilardi.

Avgust va uning atrofidagilar Rimning dabdaba, ko'ngilxushlik yo'lini emas, balki ajdodlarning qahramonona va boaxloq hayoti, respublika shonli o'tmishining qayta tiklanishini istashar edi. Aholining 5/1 qismi quillardan iboratligi uchun Rim vulqon ustida yashayotgandek tuyulardi.

Rimda endi ozod bo'lgan quldan to senatorgacha o'zini biron-bir "patron"ning "mijoz"i hisoblardi. Har tong "mijoz" o'z "patroni" oldiga tashrif buyurishi, ular shukoyat, iltimos yoki oddiy hurmat yuzasidan qabul qilinishi odatga aylangandi. Bu'zida "patron" "mijoz"ini tushlikka taklif qilishi, vaqti-vaqti bilan ularga yordam ko'rsatishi, sovg'alar qilishi, moddiy yordam berishi yoki ularga oziq-ovqat bilan to'la savat "sportulla" in'om etishi ham mumkin bo'lgan. Aks holda mijozlar ulardan norozi bo'lib, boshqa "patron" topishlari ham uchrab turgan. "Mijozlar"ni qabul qilgach, "patron" o'zi ham "mijoz" sifatida o'z "patroni" oldiga tashrif buyurardi.

Tibr daryosining chap qirg'og'ida otliqlar sayr qiladigan, turli o'yinlar o'tkaziladigan o'tloqlar bo'lib, u yerda oyda bir kun 200 mingga yaqin plebey yig'ilar, ular 45 ta do'kondan davlat tomonidan ajratilgan bepul oziq-ovqat mahsulotlarini olishar edi. Xuddi shu yerda Mars dalasida hashamatli binolar, Flaminii sirki, Pompey teatri, Agrippa termalari ham joylashgan edi. Odeonesa she'riy va musiqali tanlovlarga mo'ljallangan edi.

Rimda bayram kunlari yilning yarmidan ortig'ini tashkil qilardi. Bu kunlari aravalar musobaqasi, gladiatorlar jangi, yovvoyi hayvonlarning qonli olishuvi, stadionlarda atletik o'yinlar, dengiz janglarining mahobatli spektakllari o'tkazilardi. Tomoshalarga juda uzoq va maxsus tayyorgarlik ko'rilardi. Ular asosan pretor, konsul, hatto imperator sarmoyasi hisobiga tashkil qilinardi.

Bunday tomoshalar o'n minglab ishsiz aholining ehtiroslarini qo'zg'atishi, kundalik muammolardan chalg'itish kerak edi. Aks holda, ularning noroziliklari alanganib, yirik qo'zg'alishga aylanishi mumkin edi. Shaharning yo'qsil aholisi juda ko'p narsadan voz kechishi mumkin edi, lekin "non va tomoshadan"dan voz kechmas, amfiteatr va teatrdagina plebeylar o'zlarini erkin his qilishardi. Plebeylar Flaminii sirki yoki katta sirkda otlar qo'shilgan to'rt g'ildirakli aravalar poygasini tomosha qilsalar, amfiteatrdan esa doim qonli janglar namoyish qilinardi. Amfiteatrdan yuzlab kishilar va hayvonlar halok bo'lar, erta tongdan to kechgacha askar va plebey, sotuvchi va qul, nozik didli aslzoda-yu kurtizanka (yengiloyoq xonim)lar hayvoniy bir ehtiroslar bilan tomoshalarni kuzatardilar.

Dastlab arenaga arslon bilan fit, ayiq bilan yovvoyi buyvol, yo'lbars va qoplon, pantera bilan karkidon kabi ikki turdagi yovvoyi hayvon chiqarilar, so'ngra bir to'da it bilan qurollangan kishilar paydo bo'lishar, ular hayvonlar bilan olishardilar. Avgustning o'zi shaxsan uyushtirgan 23 ta tomoshada Afrikadan keltirilgan 3500 yovvoyi hayvon o'ldirilganini, bu degani har spektaklga 150 tadan to'g'ri kelishini aytib maqtangan.

Spektakllarning kulminatsion nuqtasi – 120 juft gladiatorning jangi bo‘lgan. Bu gladiatorlar quilar, qaroqchilar, qotillar yoki nochor ota-onasi sotib yuborgan o‘smirlardan yig‘ilgan edi. Avval boshda gladiatorlar jangi marhumlar kulti bilan bog‘liq bo‘lib, asirlar aslzoda zotlar qabri ustida jang qilganlar. Keyinchalik gladiatorlar amfiteatrga ko‘chib, birlari qilich va qalqon bilan urushsa, birlari panshaxa va sim to‘r bilan, uchinchilari esa otiq holda jang qilganlar. Hech bir bayram bunday janglarsiz o‘tmagan. Avgust uyushtirgan 8 spektaklda 10 mingta gladiator ishtirok etgan. Gladiatorialarni maxsus kazarmalar – “gladiatorlar maktabi”da saqlashgan. Bu maktablarda tez-tez norozilik qo‘zg‘olonlari chiqib turgan. Misol uchun, Kapuyadagi 200 ta gladiator qo‘zg‘olonini eslash mumkin. Ularni hayvon kabi hoqqanliklari uchun bosh ko‘targanlar.

Rimda sirk, amfiteatr tomoshalari gullab-yashnagan holda teatr rivojlanmay qo‘ygandi. Tragediyaning o‘rniga xoreografik tomoshalar, komediya o‘rniga improvizasiyalashgan farslar qo‘yilardi. Yunonistondagi she‘riy va musiqiy tanlovlar, hatto yunon olimpiada o‘yinlari, gimnastlar va atletlar musobaqalari ham Rimda hech urfga aylanmadi. Atletik o‘ymalar asosan termalarda o‘tkazilardi.

Rim hayotida termalar alohida o‘rin tutardi. Rimda termalar juda ko‘p bo‘lar, ularning hir qismi xususiy bo‘lsa, qolgani bepul edi. Agrippa termalari bepul termalardan sanalardi. Eng boy kishilarninggina uyida hammomi bo‘lib, qolganlar termalarga borishardi. Ayniqsa, urushdan so‘ng termalar gavjum bo‘lar, u yerga kishilar faqat yuvinish uchun emas, balki bekorchilikdan, do‘sti bilan uchrashish, gazeta o‘qish, yangiliklardan xabar topish uchun borardilar. “Diurnaliyalar” papirus qog‘ozlariga maxsus hattotlar tomonidan Forum devoridagi yangiliklarning ko‘chirilgan shakli bo‘lib, ularda ediktlar (senat qarorlari), bayram tomoshalari dasturi, senatdagi bahslar haqida xabarlar to‘g‘risida o‘qish mumkin bo‘lgan. “Diurnaliyalar”da tekshirilmagan go‘sbtini sotgan qassobning soliqqa tortilishi, taomxona xo‘jayinining o‘ldirilishi kabi kriminal ma‘lumotlar ham berilardi.

Miloddan avvalgi 40-yildan milodiy 15-yilgacha bo‘lgan davrdagi Rim she‘riyati “olti nasr” nomini oldi. Rimda mansab, hokimiyat, obro‘ keltiradigan notiqlik san‘ati yuqori darajada rivojlandi. Bu davrda Rimda Avgustning safdoshi Metsenat, lashkarboshi va notiq Messala, davlat arbobi, notiq va tarixchi Asiniy Pollionning adabiy to‘garaklari faoliyat yuritgan. Vergiliy va Horatsiy kabi shoirlar Metsenat to‘garagi a‘zolari sanalgan, Ovidiy Messala to‘garagi bilan yaqin aloqada bo‘lsa-da, Metsenat to‘garagi a‘zosi Propersiy bilan qizg‘in muloqotda bo‘lganligi ma‘lum.

She‘riyatda Valeriy Katull, Vergiliy, Horatsiy, Ovidiy, Seneka, Marsiall kabi shoirlar Yunoniston va Iskandariya shoirlariga ergashdilar. Rimda shoirlarning dehqonlar, cho‘ponlar, oddiy mehnat ahlining kamtarona mehnatini maqtashi nizo, janjal, vayronagarchilik urushlariga qarshi norozilikning she‘riyatdagi ko‘rinishi edi. Rim senatidagi siyosatchilar fuqarolarning o‘zaro qirg‘in urushlarini to‘xtatish, mamlakatda tinchlik o‘rnatish uchun respublika tuzumidagina erishiladigan so‘z erkinligi, shaxs erkinligi, orzu-ideallardan voz kechib, Sulla, Yuliy Sezar, Oktavian Avgust kabi diktatura tarafdorlarining hukmronligini qabul qilishga majbur bo‘ldilar. Yuliy Sezar diktaturasini qabul qilmay, unga qarshi chiqqanlar qatorida Gay Mariy, Mark Katon, Brut, Kassiy, Mark Tulliy Sitseron va boshqalar bor edi.

VERGILIY HAYOTI VA IJODI

Oktavian Avgust xalq boshqaruvi tarafdorlarining barchasining qatl etilishiga o‘tirlagach, yakka hukmdor sifatida o‘zini xalqqa yaxshi ko‘rsatish uchun ba‘zi omon qolgan respublikachilarga umumiy avf e‘lon qiladi. Kechirilganlar orasida Valeriy Katull, Kvint Horatsiy va boshqa shoirlar ham bor edi. Avgust bu shoirlardan Homer dostonlariga o‘xshash o‘lmas asarlar yozib, Rimni va o‘z hukmronligi shon-shuhratini olamga yoyishini umid qilgan edi. Lekin bu juda qiyin ijodiy vazifani bajarish Publiy Vergiliy Maron (mil.av.70-19-yy.) zimmasiga tushadi.

Rimning ulug‘ shoiri Publiy Vergiliy Maron eramizdan avvalgi 70-yil 15-oktabrda Italiyaning shimolidagi Mantuya shahri yaqinida badavlat oilada tug‘iladi. Vergiliy oldin Kremonda, so‘ngra Milan, Rim shaharlarida o‘rta va oliy ta‘lim oladi: zamonasining yoshlari singari ritorika, falsafa bilimlarini, ayniqsa adabiyotni har tomonlama mufassal o‘rganadi. Advokatlik karyerasiga tayyorlangan Vergiliyning bu sohuda omadi kelmaydi. Chunki zamondoshlarining ma‘lum qilishicha, u notiqqa xos fazilatlariga ega bo‘lmagan: juda sekin gapirgan, nutqi olim odamnikiga o‘xshamagan, juda uyatchan bo‘lgan, ko‘pchilikning oldida nutq so‘zlashga qiyin bo‘lgan. Antik davr tarixchisi Donat Vergiliy baland bo‘yli, qorachadan kelgan, salomatligi haminqadar kishi bo‘lgan deb tasvirlaydi.

Shoirning otasi Mantuya yaqinidagi yerlarga egalik qilgan. Ammo 41-yilda otasining yer-suv va imoratlari g‘olib Oktavian qo‘shinida xizmat qilgan veteranlar uchun tortib olingan edi. Keyinroq u shoir sifatida tanilgach, otasining mulklarini qaytarib oladi. Bu paytlarda she‘riyat olamida anchagina ko‘zga ko‘rinib qolgan Vergiliyning ba‘zi mansabdor muxlislari (Pollion, Metsenat) shoirga iltifot ko‘rsatib, turli in‘om va ehsonlar bilan uning ko‘nglimi oladilar. Shular vositasida shoir Oktavian Avgust bilan tanishadi va zamonasining badavlat va boobro‘ kishisiga aylanadi. Shoir ko‘proq Italiyaning janubiy qirg‘oqlarida – Sitsiliyada yashaydi. Vergiliy hammasi bo‘lib uchta asar yozgan:

“Bukolikalar” (Cho‘pon she‘rlari)

“Georgikalar” (Dehqon she‘rlari)

“Eneida” dostonidir.

“Eneida” dostoni voqealari bo‘lib o‘tgan yerlar bilan tanishish maqsadida Vergiliy eramizdan oldingi 19-yilda Yunoniston hamda Kichik Osiyo safariga jo‘naydi. Biroq salomatligi zaifligidan yo‘l mashaqqatlarini ko‘tara olmay, Afinada og‘rib qoladi va tezlik bilan o‘qasiga qaytib, arang yurtiga yetib keladi va 19-yilning 21-sentabrda olamdan o‘tadi.

Vergiliyning birinchi yirik asari “Bukolikalar” (43-37-yillarda yaratilgan) o‘nta she‘rdan iborat to‘plamdir. Bu to‘plamga kiritilgan she‘rlarni ko‘pincha eklogalar, ya‘ni she‘riy parchalar ham deb yuritishgan. Eklogalarda Vergiliy cho‘ponlarning osuda, betashvish hayotini tasvirlaydi. Bukolikalarni yaratishda yunon shoiri Feokrit she‘rlariga ergashadi.

“Georgikalar” dostoni mazmun jihatidan birinchi dostonga o‘xshash. Necha o‘n yillab davom etgan urush oqibatini tugatish, vayron bo‘lgan mayda va o‘rtahol dehqon xo‘jaliklarini tiklash, umuman dehqonchilikni rivojlantirish masalalari, yurtning osoyishtaligi, xalqning tinchligi yo‘lida qayg‘urgan chinakam vatanparvar

shoir shu asnoda asarini yozadi. Bu doston yer-mulk bilan taqdirlangan fuqarolar urushi qatnashchilari – veteranlarda dehqonchilikka ishtiyoq uyg'otish maqsadida yaratilganligi ham e'tirof etiladi. Didaktik mazmundagi bu doston g'allakorlik, bog'dorchilik, chorvachilik, va asalarichilikka oid yirik to'rt qismdan iborat kattagina asardir.

Vergiliy bu asarini nomlashda Kolofoniyalik Nikandrga ergashib yunoncha "Georgikalar" deb nom qo'ysa-da, uning o'zi asarini "Askra qo'shig'i" deb ataydi. Buning ma'nosi, asarning asli Askradan bo'lgan yunon shoiri Hesiod she'riyatiga ergashib yozilganligiga ishorani anglatadi.

Shoirning bu asarni yozishdan asosiy maqsadi qishloq hayotining go'zalliklarini ko'rsatish, boshqa kasblarga nisbatan dehqonchilikning ma'naviy afzalligini targ'ib etishdir.

Vergiliyning Rim poeziyasini cho'qqiga ko'targan, uning shuhratini yer yuziga taratgan ulug' asari "Eneida" dostonidir. Bu davrga kelib Eney haqidagi afsona miloddan avvalgi III asrlardayoq Rimda rasmiy tan olingan edi. Endilikda Rim yangilangan Troya sanalardi. Aristokrat xonadonlar Eney va uning avlodlaridan kelib chiqqanliklarini o'z genealogik daraxtlarini tuzib isbotlashga urinardilar. I asrlarda yashagan mashhur olim Varron hatto bu haqida o'zining "Troya oilalari xususida" nomli traktatini yozib qoldirgan ham. Jumladan, Yuliylar oilasi o'zini Eneyning o'g'li Askaniyga bog'lab, uning ikkinchi nomi bo'lgan II keyinchalik Iulga aylanganligini ta'kidlaydilar. Bundan shunday xulosa chiqadiki, Yuliylar oilasi o'zlarini ma'buda Venera (Eneyning onasi Afrodita)ning avlodlari deb tushunganlar, Yuliy Sezar ham o'zining ma'budlardan kelib chiqqanligini eslatishni yoqtirgan.

Qadimgi manbalarning shahodatiga ko'ra, shoir "Eneida" dostoni ustida o'n yil ishlab, asarni eramizdan avvalgi 19-yilda deyarli tugatadi. Homer "Iliada"si Troyaning Ellada, yunon qo'shinlari tomonidan qamal qilinib, Odisseyning ayyorligi bilan yunonlar Troyaga bostirib kirib, shaharga o't qo'yib yuborish voqeasi bilan tugallangan edi. Vergiliyning dostoni esa Priamning nabirasi Eneyning shaharni tashlab, kemalarga o'tirib qochishi bilan boshlanadi. Boshqacha aytganda, Vergiliy o'z dostonini buyuk Homer "Iliada"sining davomi deb bildi. Agar Homer dostoni "Axill g'azabini kuyla ey, Muza!" deb boshlansa, Vergiliy dostoni "Shoir, Troya janglari va taqdir hukmi-la, Lasiungma kelib, Alba shahrini qurgan mardning maqtovini aytgil!" deb boshlanadi.

Asar ikki qism-u o'n ikki kitobga ajratib yozilgan. Birinchi qismni tashkil etgan 6 bob qahramonning Troyadan chiqib Italiyaga yetib kelishi davrida kechirgan sarguzashtlariga, keyingisi Italiya tuprog'idagi janglariga bag'ishlanadi. Eney va do'stlarining 20 kemasidan 13 tasi cho'kib ketib, ular mashaqqat bilan Karfagenga kelib malika Didona bilan uchrashadi. Venera – Afrodita o'g'li Kupidonga (yunoncha – Erotga) akasi Eneyga dushman qabilasining zarari yetmasligi uchun Didona qalbiga Eney sevgisini jo qilishni buyuradi. Eney sevimli xotini Kreusani to'polonda yo'qotib qo'yadi, yarador otasi Anxisini yelkaga ortib, o'g'li Askaniy bilan toqqa qochadi. So'ngra Eney va uning hamrohlari kemalar yasab, yana dengizga chiqadilar. Vergiliy asarda lirik qahramon tilidan o'tkinchi mol-dunyoni, oltinni deb odamiylikdan voz kechganlarni, bosqinchi yunonlarni la'natlaydi.

Vergiliy dostonining qahramonlari ruhiyatidagi eng fojeiy va murakkab holatlar, shu jumladan psixologizm, dramatik kolliziyalarga boy qismi – to'rtinchi kitobdagi Troya qahramonlari Eney va Karfagen malikasi Didona muhabbati mojarolari tasvirlangan kitoblardir. Vergiliy bu dramatik, fojeiy voqealarda qahramonlarning xarakterlari, ruhiy olamini chuqur tasvirlash bilan birga bularni fojiaga uchratgan ma'bud va ma'budalarning tabiatini ham ishonarli, hayotiy qilib tasvirlashga erishadi. Eney ma'budlar bashoratiga ko'ra Italiyaga borishi, Rim davlatiga asos solish kerak edi. Ushu ma'budli Didonani tark etgach, malika Didona o'limni afzal ko'radi. U aqldan ozib, katta gulxan tayyorlab, xanjar urib o'zini unga tashlaydi. Vergiliy bu ayol obrazini Medeya kabi fojiali va ulug'vor qilib tasvirlashga intiladi.

Eney va Didona harbiy kuchlarini birlashtirib, Troya va Karfagen davlatlarining ittifoqini tuzgan edilar. Endi ikkalasi dushmanga aylangach, kelgusida ham karfagenliklar rimliklardan o'ch olish uchun uzoq vaqt qonli urush qilishi asarda boshoratchi tomonidan aytiladi. Troya urushidan so'ng ming yillar o'tgach, chindan ham Rim va Karfagen o'rtasida uch marta Pun urushi bo'lib o'tadi. Karfagen sarkardasi Gannibal (arabchada Hanbal), Rim sarkardalari Pabiy Maksim, Ssipion va boshqalar g'alabalari bilan shuhrat qozonadilar.

"Eneida"ning 9-kitobida Eney va shoh Latinning eng kuchli dushmani Italiya podshohi Turin lashkarlarining harbiy mahoratlari, dushman qo'shinlari o'rtasidagi qirg'in janglar tasvirlanadi. Shu faslda shoir Eneyning yosh o'g'li Iulning qahramonliklarini ko'rsatib, Iul avlodlaridan kelgusida Yuliy Sezar va Oktavian Avgust kabi buyuk qahramonlar chiqishiga ishora qiladi.

"Eneida" dostonida Vergiliy Rim imperiyasining jahongirlik siyosatini oqlab, Yunoniston va jahon xalqlariga Rimning hukmronlik qilish san'atini yuqori qo'yadiki, bu adolatli fikr emas edi:

O'zga xalqlar bronzadan yasalar edi jonli haykallar,
Buyuk zotlar siyratini marmar toshda tasvirlar edi.
Ular bahsda ustoz edilar, osmonga qarab,
Yulduzlardan tole ochar edilar, qoyill!
Lekin, rimlik! Sening ishing olam xalqiga
Sulh shartlarin aytib turib farmon qilmoqdir.
Senga tobe xalqlar uchun mehr-muruvvat
Izbor qilib, osiylarning ta'zirin bermoq!

Dostonning birinchi qismida shoir Homerning "Odissey" dostoniga, ikkinchi qismida esa "Iliada" dostoni mavzulariga ergashadi. Homerning faqat tarixiy voqealarni tasvirlashga bag'ishlangan dostonlaridan farqli o'laroq, Vergiliy dostonida afsona zamonaviy hayot bilan uzviylikda tasvirlanadi, Eneyning mashaqqatlari va sarguzashtlari esa Rim buyukligini kuylash uchun bir vosita vazifasini o'taydi.

Homer dostonida Odisseyning sargardonlikdagi hayotiga sabab dengiz ma'budi Poseydonning qahriga uchrashi bo'lsa, Eneyning darbadarligiga ma'buda Yunona (yunonlarda Gera)ning nafрати sabab bo'lganligi aytiladi.

Vergiliy yunon ilm-u fani, san'atiga hurmatini saqlagani holda, rim madaniyati, adabiyoti oldida katta maqsadlar borligini uqtiradi. Bu yurt tinchligi, xalqlarning osoyishtaligidir. Shu osoyishtalik Avgust tufayli ro'yobga chiqayotgandek tuyuladi. Vergiliy "Eneida" dostonini yozar ekan, uning oldidagi asosiy maqsad – uzoq

o'tmishdagi Rim kishisi jamiyati uchun go'yo aziz bo'lgan ijtimoiy va shaxsiy axloq tushunchalarini tiklashdan iborat edi.

Vergiliy bilan Homer dostonlarini taqqoslaydigan bo'lsak, ular o'rtasida ma'budlarni tasvirlashda, qahramonlarning obrazlarini chizishda, asar voqealarini ta'riflashda katta farq bor.

Vergiliy dostonining eng muhim xususiyatlaridan biri dramatik holatlar tasvirini berishidir. Vergiliy asarlari uning hayotligidayoq shuhrat qozondi, asarlarining keyingi davrlar uchun ham ahamiyati juda katta.

Homerdan o'zib ketish xayolidami Vergiliy "Eneida" dostonida Rimning yaqin kelgusida barcha xalqlarga murabbiy, ustoz bo'lishi haqida juda ko'p bashoratlar aytadi. Lekin afsuski, hayotda bu bashoratlarning teskarisi yuz beradi. Germanik, Trayan, Mark Avreliydan tashqari barcha bo'lg'usi Rim imperatorlari axloqiy va ma'naviy tanazzulga uchraydilar. Bu hayotiy haqiqatlar Rim mutafakkirlari, tragik shoir Lutsiy Seneka, hajvchi Petroniy Arbitr, lirik, afsungar va yumorist Apuley, hajvchi Lukian, epigrammanavislar Marsiall, Yuvenal, daho tarixnavislar Korneliy Tatsit va Plutarx asarlarida haqqoniy badiiy ifodasini, adolatli bahosini topadi.

Vergiliy ijodi keyingi asrlar adabiyotiga, ayniqsa, Yevropa uyg'onish davri adabiyoti vakili Dante Aligyeri ijodiga katta ta'sir qildi. XX asrga kelib esa avstriyalik yozuvchi, intellektual-analitik nasr ustasi German Brox (1886-1951) "Vergiliyning o'limi" nomli romanida Vergiliy yashagan davr va XX asrning 1933-45-yillarini qiyoslab, bu ikki davrga xos bo'lgan diktatorlik rejimlarining umumiy jihatlari tasvirlaydi. Ushbu romanda miloddan avvalgi 19-yilning 20-21-sentabri, ya'ni Vergiliy hayotining so'nggi 36 soatlik umri aks ettirilgan. Asar unda ko'tarilgan muammolar va yozuvchining badiiy mahorat darajasiga ko'ra Joysning "Uliss", Tomas Manning "Doktor Faustus", H.Hessening "Biser o'yini" romanlari bilan bir qatarga qo'yiladi.

HORATSIY HAYOTI VA IJODI

Vergiliyning zamondoshi hamda do'sti, Avgust davrining ikkinchi ulug' shoiri Kvint Horatsiy Flakk (mil.av. 65-8-yy.) eramizdan oldingi 65-yil 8-dekabrda Italiyaning janubidagi kichkinagina Venuziya shahrida tug'iladi. Uning otasi ozodlikka chiqqan qullardan bo'lib, kichikroq xususiy mulkka ega edi. Horatsiy Rimda o'rta va oliy darajadagi ta'limni oladi. Ammo 44-yilga kelib Sezar o'limidan keyin fuqarolar urushi boshlanadi. Afinaga kelgan Brut armiyasidan unga harbiy tribun, ya'ni Vergiliy komandiri lavozimi beriladi. Brut qo'sbini mag'lub bo'lgach, Horatsiy kurashni davom ettirmaydi. Ijodini endigina boshlagan shoirni Vergiliy va Variy tavsiyasiga ko'ra Metsenat adabiy to'garagiga qabul qiladilar. Metsenat to'garagi a'zosi bo'lganligi sababli Horatsiy Avgustga yaqinlashadi, lekin saroyda uning kotibi bo'lish taklifini rad qiladi. Ko'proq Sabin tog'lari yaqinidagi xususiy mulkida hayot kechiradi. Horatsiy do'sti va homiysi Metsenat vafotidan ikki oy o'tgach, miloddan avvalgi 8-yilning 27-noyabrida vafot etadi.

Horatsiyning asarlari bizga qadar to'la holda yetib kelgan. Ular quyidagilar:

"Epdolar" deb ataluvchi 17 ta she'rdan iborat to'plam;

"Satiralar" deb ataluvchi 18 ta she'rdan iborat 2 ta to'plam;

"Qasidalar" deb ataluvchi 103 ta she'rdan iborat 4 ta to'plam;

"Nomalar" deb ataluvchi 23 she'rdan iborat 2 ta to'plam;

"Buyram madhi" deb ataluvchi alohida 1 ta she'r.

Horatsiyning tamomilla yangi original va yuksak badiiy asarlar yaratgani "Epodlar" to'plamining hamma she'rlarida ravshan sezilib turadi.

To'plamdagi she'rlarning barchasi zamonasidagi siyosiy, ijtimoiy va hayotiy masalalarga bag'ishlangan. Shu mavzular orasida urush va tinchlik, Rim davlatining iqtisodiy masalalari shoirni ayniqsa ko'proq bezovta qiladi. Masalan, 7-epodda qahru g'azabga to'lib, uzluksiz ichki urushlarni qattiq qoralaydi, fig'on chekadi. Uning ta'hiricha, yer yuzini, dengizlarni qonga belagan odamlarning vahshiyiligini hatto qoplonlar va bo'rilarning yirtqichligi bilan ham tenglashtirish mumkin emas. Horatsiy satiralarining mavzulari ham xilma-xildir, shoir ularni "subbatlar" deb ataydi. Avval Epikur, so'ngra Stoya falsafalari muxlisi bo'lgan shoir shu falsafiy ta'limotlar pozitsiyasida turib hammadan burun odam bolasining eng yaramas ehtirosi – davlat orttirish hissiga qarshi kurashadi. Uning aytishicha, jamiki jirkanch istaklarning onasi bo'lgan davlatmandlik ishtiyoqi o'z navbatida ochko'zlik, ta'magirlik, shuhratparastlik, maishatbozlik, isrofgarchilik kayfiyatlarini tug'diradi, odamning tinchligiga, samimiyligiga putur yetkazadi. Shu nuqtayi nazardan ikkinchi to'plamning 5-satirasi nihoyatda xarakterlidir. Ba'zi asarlarda Horatsiy yosh-yalanglarga maslahat berib, sevgi ishlarida ehtiyot bo'lishlikni, ayniqsa erl xotirlarga nylanishmaslikni uqtiradi.

"Satiralar" nomi bilan yaratilgan ikkita to'plamda ham har xil hayotiy va axloqiy masalalar suhbat tarzida berilgan. Ijtimoiy kurashlardan horigan xalqni endilikda xususiy hayot, shaxsiy baxt muammolari qiziqтира boshlaydi. Xuddi shu masala endilikda adabiyotning bosh mavzusi bo'lib qoladi. Bu muammolarni Horatsiy boshqa adiblarga nisbatan o'z ijodida to'laroq ifodalagan. Uning satiralari tanqid emas, kundalik hayot tashvishlari – ochko'zlik, yaramas nuqsonlar xususidagi pand-nasihatlardir. Kishilarni to'g'ri yo'lga solib, chinakam hayotga chaqirish – Horatsiy she'rlarining asosini tashkil qiladi. Shoir satiralarining mavzusi xilma-xil bo'lib, axloq va falsafiy masalalarni ham uchratamiz.

Yunon poeziyasi erishgan yutuqlardan ijodiy foydalamb, Horatsiy lotin tilida mutlaqo yangi lirika yaratadi.

"Qasidalar" to'plami mazmun va janr jihatidan xilma-xil bo'lib, ichki urushlar masalalari, Avgustning axloq va odob sohasidagi siyosati masalalaridan iboratdir. To'plamda shoir asosan shod-xurramlilikni, yor-do'stlikni, may va ishq-muhabbatni targ'ib qilgan. Horatsiyning to'plamlaridagi satiralarning faqat uchtasi adabiyot mavzulariga bag'ishlangan. Uning qasidalarida ko'proq tarannum qilingan masala – Avgustning axloq va odob sohasidagi siyosati bo'lgan.

Qasidalaridagi fikriy teranlik, shakliy rang-baranglik, uslubning nafisligi, ixchamligi, sodda va ravonligi ulug' shoir tomonidan Rim she'riyatiga kiritilgan ana shu yangiliklarning yorqin namunasidir.

Horatsiy ijodining eng so'nggi mahsuli "Nomalar"dir. Rim adabiyotida Horatsiyga qadar noma yozganlar talaygina, ularning barchasi nomalarini nazmda, she'riy shaklda yozganlar. Biroq nomalarni birinchi bo'lib nazm shakliga ko'chirib, ularga yuksak badiiy tus bergan va maxsus adabiy janr sifatiga ko'targan shoir Horatsiydir.

“Nomalar” to‘plamida avvalgilari kabi axloqiy va maishiy masalalar bilan birga Horatsiyning shaxsiy hayoti, fikr va tuyg‘ulari, kayfiyati batafsil berilgan. Adabiyot tarixi, uning nazariy masalalari “Nomalar”ida asosiy o‘rinni egallaydi. Horatsiy ijodining keyingi davriar uchun ahamiyati benihoya kattadir.

OVIDIY HAYOTI VA IJODI

Avgust zamonasining oxirgi ulug‘ shoiri, elegiyanavis shoirlarning eng so‘nggi buyuk vakili Publiy Ovidiy Nazondir.

Miloddan avvalgi 43-yil 20-martda sulmonlik suvoriy Publiy Nazon oilasida ikkinchi o‘g‘il farzand dunyoga keladi. Unga Publiy Ovidiy Nazon deb ism qo‘yadilar. Ovidiyning otasi qadimgi suvoriylar avlodidan bo‘lib, “nazon” so‘zi uning uzoq ajdodlaridan biri hozirjavob bo‘lganligiga yoki kichik o‘g‘li kabi qirraburun sohibi bo‘lganligiga ishora edi. Rimliklarning fikricha, o‘tkir aqlga ega, hazilkash kishida aynan shunday burun bo‘lmog‘i lozim edi. Ovidiyning otasi o‘g‘illariga yaxshi tarbiya va bilim berishga intildi, ularning Rimda shuhrat qozonishini, notiq yoki davlat arbobi bo‘lishini juda xohlardi.

Ovidiy dastlab u 7 yoshga to‘lgach, ozod bo‘lgan qul o‘qitadigan maktabga berdilar. 12 yoshida u akasi bilan Rimdagi grammatika maktabiga o‘qishga ketib, notiqlik san‘atini o‘rganadi. Rimga ketish oldidan otasi unga rimliklar uchta mashg‘ulotni afzal bilishini: bulardan birinchisi – savdo va sudxo‘rlik yordamida boyluk orttirish; ikkinchisi – harbiy faoliyat; uchinchi – davlat xizmatida bo‘lmoq ekanligini, shu sababli o‘g‘lining qonunlarni va notiqlik san‘atini mukammal o‘rganib, davlat arbobiga aylanishini istashini bildiradi.

Grammatika maktabida o‘tgan 4 yil davomida Ovidiy yunon tilini yaxshi o‘rganadi, yunon she‘riyati bilan tanishadi, o‘zi ham she‘rlar mashq qila boshlaydi. Rimda Ovidiy ta‘limni ritorika maktabida davom ettiradi. Endi u erkaklar togasini kiyadi va Rim fuqarosiga aylanadi. 18 yoshida ritorika maktabini tamomlagan Ovidiy bolalikdagi do‘sti Gney Pompey Mark bilan birga Yunonistonga sayohat safariga otlanadi. Ular ikki yil mobaynida Yunoniston va Sitsliyani ziyorat qiladilar, qadimgi Troya xarobalarini, Afinani, Delfa, Rodos, Korinf, Olimpiyada bo‘ladilar.

Sayohatdan qaytgan Ovidiy akasining vafot etganini, o‘zi esa suvoriyning o‘g‘li sifatida harbiy xizmatni o‘tashi lozimligidan xabar topadi. Ammo harbiy hayotga befarq shoir e‘tiborli patrisiylar yordamida harbiy xizmatdan qutulib qoladi.

Endi u oila qurishi lozim edi. Lekin u ota-onasining qistovi bilan ikki marotaba oila quradi va bir qiz farzandi bilan ajrashadi.

Otasi uning she‘riyat bilan shug‘ullanishiga qarshi bo‘lib, Publiyning mashhur huquqshunos yoki siyosiy arbobi bo‘lishini, kamida Sitserondek badavlat va shon-shuhratga ega bo‘lishini istar edi. Ammo otasi o‘g‘lini tanlagan yo‘lidan qaytara olmaydi.

Bu davrda Rim haqiqiy “oltin asr”ni boshidan kechirayotgan edi, unda barcha narsani, shu jumladan, obro‘-e‘tibor, vijdon, muhabbatni ham sotib olish mumkin edi. Faqatgina iste‘dodni sotib olishning iloji yo‘q edi. Ovidiy besh yil mobaynida triumvir, desemvir, sentumvir lavozimlarida ma‘muriy va sud-huquq tizimida faoliyat yuritadi. 25 yoshida u hayotini she‘riyatga bag‘ishlashga qaror qiladi.

Avgustning “oltin asri”da Rimda shoirlar juda ko‘p edi. O‘z uyiga ega mashhur shoirlar “domus”- uylarida yoki she‘rxonlik uchun maxsus zal “auditorium”larda shoirlarni yig‘ib, she‘rxonlik qilardilar. Ovidiy ham dastlab shunday auditoriyalarda o‘z ishqiy she‘rlarini o‘qiy boshladi.

Rimda adabiy to‘garaklar ko‘p bo‘lib, ularning eng mashhurlari Metsenat, Messala va Pollion to‘garaklari edi. Assiniy Pollion sobiq harbiy sarkarda, notiq, siyosiy arbobi, Ispaniya va Sitsiliyaning rasmiy vakili bo‘lib, u Rimda birinchi bo‘lib ommaviy o‘qishlarni an‘anaga aylantiradi. Uning tragediyalari va “Fuqarolar urushi tarixi” asari mashhur bo‘lgan. Imperator Pollionga birinchi davlat kutubxonasini tashkil etish vazifasini topshiradi. Oktavian Pollionni qadrlar, lekin yoqtirmas, chunki u Antoniyning do‘sti, Brut va Kassiy tarafdori edi. Ovidiyga esa uning ko‘p nasihat qilishi, kesatq, kinoyali ohangda so‘zlashi yoqmasdi. U faqat Oktavianning dushmanlari yig‘iluvchi to‘garakka qatnash yaxshilikka olib kelmasligini tushunardi.

Metsenat esa Etrusk qirollari avlodidan bo‘lgan suvoriylar tabaqasiga mansub bo‘lib, shahar prefekti lavozimida faoliyat yuritardi. U senator aristokratiyasiga xos kishi bo‘lmay, rasmiy unvonlarga ham ega emasdi. Lekin bunga qaramay u imperatorning eng yaqin va e‘tiborli maslahatchisi sanalardi. Metsenat Oktavianning siyosiy qarashlarini to‘liq quvvatlar, hatto unga moliyaviy yordam ham ko‘rsatgan edi. Mark Agrippa Rimning harbiy-ma‘muriy ishlarini boshqarsa, Metsenat siyosiy ishlarini boshqarardi. U abjir, usta diplomat, juda ayyor kishi edi, u yaqinlariga xizmat qilib qolmay, ulardan o‘z maqsadlari yo‘lida qanday foydalanishni ham yaxshi bilardi. Metsenat doim nafis matolardan tiklangan keng liboslarni kiyar, ayollarga o‘xshab taqinchoqqa ko‘milgan edi. U shoirlarni imperiya va imperatorni maqtashga undar, ularga moliyaviy yordam ko‘rsatardi.

Metsenat to‘garagidagi shoirlar Avgust islohotlarini quvvatlashar, zamondoshlarining axloqsizligi, isrofgarchiligini, irodasizligini tanqid qilishar, qishloq hayotiga madhiyalar to‘qishardi.

Ovidiy Metsenat to‘garagiga ham ko‘p boravermas, unga Metsenatning fe‘li, to‘garakdagi muhit yoqmasdi. Ovidiy o‘z davriga oshiq bo‘lib, sivilizatsiya imkoniyatlaridan bahramand bo‘lishga intilardi.

Boshqa bir adabiy to‘garak rahbari Valeriy Korvin Messala esa ochiqko‘ngil, samimiy kishi bo‘lib, u Pollionga xos yirik aristokratik xususiyatlari va Metsenatga xos ikkiyuzlamachilik va riyokorlikdan xoli edi. Messala Brut kavaleriyasida qo‘mondon, Rim prefekti, mashhur notiq bo‘lgan, Sitseron uni juda qadrlar edi. Yoshligida u idilliya she‘riyati bilan shug‘uliangan, Rim adabiyotida Vergiliy bilan birga birinchi bo‘lib pastoral she‘riyatini boshlab bergandi. Lekin Ovidiyga bu to‘garakda asosan ishqiy elegiyalar urf ekanligi yoqardi. Bu yerda Aleksandriya she‘riyatini, ishqiy elegiyalarni juda qadrlashar edi.

Messala to‘garagida u Vergiliy va Horatsiy kabi davrining mashhur shoirlari bilan uchrashadi. Vergiliy Ovidiydan 27 yosh katta bo‘lib, kasalmand, uyatchan, indamas, hardamxayol kishi bo‘lgan, shoir sershovqin yig‘inlarni, ko‘pchilikning oldida she‘r o‘qishni yoqtirmagan.

Horatsiy esa uning aksi bo‘lib, baland bo‘yli, qizil yuzli, juda bilimdon, harakatchan kishi, o‘tkir aql egasi edi. U katta davralarni yoqtirardi. Horatsiy muhabbatni tan olmas, bo‘ydoq edi, Metsenat hadya qilgan qishloqdagi uyida

do'stlari va qullari davrasida osoyishta umr kechirardi. Ovidiy Vergiliy va Horatsiydek shoirlardan hayratlanar, ularning ortidan shon-shuhrat qozonish uchun izlanardi, lekin ular bilan ko'ngildan yaqinlik sezmasdi. Vergiliy "ichimdagini top" deyidigan kishi bo'lib, rasmiy tan olinishni barcha narsadan yuqori qo'yardi. Ovidiy Tibull, Propersiy, Ligdam kabi shoirlar bilan yaqinlashadi. Tibull undan 11 yosh, Propersiy esa 9 yosh katta edi. Tibull va Propersiy she'riyati Ovidiyi ishqiyy elegiyaga to'laligicha bog'ladi. Muxlislarining kayfiyatini va his-tuyg'ularini munosib tasvirlash uchun shoirning o'zi shaxsan kundalik hayotga sho'ng'ishi, rohat-farog'atga berilishi, ehtirolarga cho'mishi, lekin bachkanalik va vulgarlikka botmasligi lozim edi.

Ovidiy urushni va harbiy jasoratni kuylashni bema'ni hisoblar, uning nazdida qal'ani ishg'ol qilishdan ko'ra, ayol qalbini ishg'ol etish afzalroq edi. Ijodida o'tmishni kuylab, Rimning patriarxal hayotini qo'msovchilar ham Ovidiyga g'alati ko'rinar, u o'zining aynan shu davrda tug'ilib yashayotganidan behad minnatdor edi.

Ovidiy dastlab yunon shoirlari ijodida keng tarqalgan sujet – Olimp ma'budlarining titanlar bilan kurashi mavzusida "Titanomaxiya" asarini yozishni boshlaydi. Unda alegorik shaklda Oktavian Avgustni Yupiterga qiyoslab, uning siyosiy dushmanlarini titanlarga mengzashni istagandi. Ammo Avgust bunday asarning yaratilishini istamay, o'z noroziligini hildirdi, chunki u Ovidiy asarida o'zining Yupiterga tenglanishi kulgili aks etishidan qo'rqar edi. Shundan so'ng yana 10 yil mobaynida, to 30 yoshiga qadar Ovidiy ishqiyy elegiyalar yozishda davom etadi. Ishqiyy elegiyalardan 51 tasini "Ishqiyy elegiyalar" kitobiga jamlaydi. Bu elegiyalarda shoir o'z sevgisi haqida emas, balki umuman sevgi xususida so'z yuritadi. O'zining xayoliy ma'shuqasiga esa Korinna deb ism qo'yadi. Korinna rivoyatlarga ko'ra, shoir Pindarni shoirlar musobaqasida mag'lub etgan, birinchi metamorfoza – afsonalar to'plamining muallifi, fivalik shoira sanaladi.

Ovidiyning jo'shqin adabiy faoliyati 3 qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismi "Amores" (Ishqiyy elegiyalar) to'plami bilan boshlanadi va milodiy asr boshigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ijodining ikkinchi bosqichida esa ilmiy-mifologik mavzularda she'rlar yozadi. Uchinchi davri uning quvg'indagi davri bo'lib, bu payt shoir o'zining "G'amgin elegiyalar", "Pontdan maktublar" asarlarini yaratadi. Shoir o'zining dastlabki to'plamida ishqiyy elegiya janrining tamoyillariga ko'ra to'plamning bir qancha she'rlarini xayoliy Korinna degan ma'shuqasiga bag'ishlaydi. Ovidiyning elegiyalarida Tibull hamda Propersiy asarlaridagi chuqur muhabbat tuyg'ularini, og'ir iztirob alamlarini, sevgi yo'lida fidoyilik va samimiylikni axtarish ham befoyda. Shoirning o'z tili bilan aytganda, u faqat "xurram muhabbatning xushchaqchaq kuychisi" bo'lgan. Ovidiyning oldingi shoirlardan yana hir farqi shundaki, bu adib Vergiliy ijodida boshlangan usulni davom ettirib, o'zining ijodida notiqlik san'ati qoidalaridan benihoya keng foydalanadi va shu yo'sin Rim poeziyasining kelgusi taraqqiyoti yo'lida yangi davrni boshlaydi.

Ovidiy talantining barcha fazilatlarini, ruhiy mushohadalarining o'tkirligi, manzaralarning hayotiyiligi, tilining nafisligi, misralarning silliqiligi, butun to'plam bo'ylab sochilib ketgan ajoyib qochiriq gaplar, hazil-mutoyibalar shu birinchi to'plamdayoq ro'y-rost namoyon qilinadi, ular kitobxonni maftun etadi, muallifning nomini muhabbatning ulug' kuychisi darajasiga ko'taradi.

"Qahramon ayollar yoki maktublar" deb ataluvchi ikkinchi asari ham Ovidiy ijodining ilk mahsullaridan bo'lib, mashhur afsonaviy xotinalarning o'z oshiqklariga yozgan nomalar to'plamidan iboratdir. Asarda 21 ta maktub mavjud bo'lib, shulardan 18 tasi ayollar tilidan, uchtasi erkaklar tilidan yozilgan. Afsonaviy ayollar qatorida Odisseyning hajrida qiynalgan vafodor Penelopa, Ippolit ishqiida yongan Fedra, Yazondan o'ch olmoqchi bo'lgan Medeya, sevgan yori Axilldan ajralgan Briseida, Eneyga ko'ngil berib, keyin kuyib qolavergan malika Didonalarni uchratamiz. Ayriqliq ular har xil kechiradilar, ularning ahvoli, ruhiyati har bir maktubda turlicha yangraydi. Ayollar yuragidagi muhabbat ehtirolarini Ovidiy ajoyib ustalik bilan tasvirlaydi. Asarga keyinchalik yana uch juft maktub kiritilib, bularda Parisning Yelenaga, Geroning Leandrga, Akontiyning Kidippaga oshiq sifatida yozgan xati va ma'shuqaning oshig'iga qaytargan javob maktublari keltiriladi.

Turli-tuman mavzularga masalan, mehmon kutish, taom tayyorlash, har xil o'yinlar uyushtirish, pardozi qilish, yasanish, hatto ba'zi kasalliklardan davolanish va hoshqa masalalarga atab she'riy asarlar yozish ellinizm zamonasida keng yoyilgan edi. Odamlarga ta'lim berish maqsadlarini kuzatgan didaktik mazmundagi bu tariqa asarlarga taqlidan Ovidiy o'zining "Ars amatoria" (Sevgi san'ati) dostonini yaratadi.

Muallifning aytishicha, muhabbat ma'budasi Veneraning o'zi go'yo Ovidiyi sevgi ustozini saylab, shu sohada yoshlarga ishq saboqlari berishni uning zimmasiga yuklagan emish. "Sevgi san'ati" dostonini shoir didaktik doston qabilida yozgan bo'lsa ham, haqiqatda poeziyaning shu turdagi namunalari mazax qiladi, uning ijodiy mazmunidan kuladi. Doston uch qismdan iborat. Oldingi ikki qismida ma'shuqalarni qayerdan axtarish va qay tartibda ularning iltifotini qozonish to'g'risida erkaklarga maslahatlar beriladi, uchinchi qismida shu masalalar yuzasidan ayollarga yo'l-yo'riqlar ko'rsatiladi.

Ovidiyning boshlang'ich davri jodiga kiradigan yana ikkita asari: "Pardozi malhamlari", "Sevgi davosi"ning mavjud ekanligi ma'lum.

Birinchi asarida shoir pardozi masalalari, chunonchi yuzni ko'rkam qilish, har xil dog'larni ketkazish to'g'risida ayollarga bir qancha maslahatlar beradi. Bu dostonning bosh qismidan bizga qadar 100 misra yetib kelgan, xolos. Ikkinchi dostoni ham "Sevgi san'ati" asari kabi hazil-mutoyiba tarzida yozilgan, shakl va mazmun jihatidan ular o'rtasida o'xshashlik bor. Muhabbat mojarolaridan zerikib, ma'shuqalaridan qutulish payiga tushib qolgan oshiqning dardiga davo bo'lish niyatida "Sevgi davosi" dostoni yaratiladi.

Ishqiyy mazmundagi, didaktik dostonlar bilan Ovidiy ijodining birinchi davri tugab, yetuklikda, barkamollikda alohida o'rin tutgan ikkinchi davri boshlanadi. Shoirning dastlabki asarlariga xos bo'lgan sho'x va o'ynoqi ishqiyy mazmun rasmiy doiralarga, shubhasiz aslo yoqmas, Oktavianni inchenun, qattiq g'azablantirar, zardasini qaynatar edi. Oktavian Avgust Rimdagi axloqiy va ma'naviy buzulqilarga barham berish, oilani sog'lomlashtirish, nikohlarni mustahkamlash maqsadida turli qonunlar qabul qiladi, safolat marazi hatto Avgustning oilasiga ham yuqadi. Imperator qizi va nabirasini (ikkisi ham Yuliya) Rimdan badarg'a qiladi.

Ana shunday bir davrda Ovidiy Avgustning qonun va tadbirlarini mazax qiladi, eski udumlarni tiklash, oilani mustahkamlash, axloqni tuzatish mumkinligiga shoir ishonmaydi. Hazil bilan hoshlangan "Sevgi san'ati" asari, shoirning o'zi istamagan

holda, Rim jamiyati yuqori guruhlarining qanchalik bulg'anganini va beto'xtov ma'naviy inqirozga ketayotganini isbotlovchi dahshatli bir hukmnomaga aylanadi va ko'p o'tmay bu hukmga bo'lgan Ovidiyning boshiga og'ir kulfatlar keltiradi.

Avgustga manzur bo'lish uchun Ovidiy bir daraja ilmiy mazmundagi jiddiy mavzularga qo'l urib, "Metamorfozalar" (turlanish) hamda "Fasta" (Oynoma) degan katta-katta ikki dostonni birdan boshlaydi.

"Metamorfozalar" Ovidiy ijodining cho'qqisi, Rim adabiyotining ulug' yodgorliklaridan biridir. Yirik-yirik 15 bob – 12 000 misradan iborat gekzometr vaznidagi bu salmoqli doston Yunon va Rim mifologiyalarida nihoyatda ko'p uchraydigan afsonaviy turlanishlar, ma'bud va ma'budalarning, suv va o'rmon parilarining, ayniqsa, odamlarning jonivorlarga, o'simliklarga, tog' va toshlarga, hatto yulduzlarga aylanib qolishlari haqidagi rivoyatlar hikoya qilinadi. Dostonga ana shunday rivoyatlardan 250 tasi kiritilgan. Fikrimizning isboti sifatida asarga kirgan afsonalardan birini keltiramiz.

Frakiya podshohi Terey o'z xotini Proknaning singlisi go'zal Filomelani sevil qoladi-da, hiyla bilan uni tuzoqqa ilintirib, ohu zorlariga, qarshiliklariga qaramasdan qizlik iffatini buzadi. Keyin jinoyatining ochilib qolisbidan qo'rqib, qizning tilini kesib, uni o'rmondagi bir uyga yashirib qo'yadi. Filomela bo'lib o'tgan hamma voqealarning tasvirini solib, choyshab to'qiydi-da, maxfiy ravishda uni opasi Proknaga yuboradi. Erining qabih qilmishlaridan, singlisining og'ir musibatidan voqif bo'lgan Prokna yovuz jinoyatkorga qattiq alam o'tkazish maqsadida o'zining sevimli o'g'li Itisini so'yib, uning go'shtini bildirmasdan otasiga yediradi. Terey ovqatlanib bo'lgach, Filomela qonga belangan o'g'lining kallasini uning oldiga tashlaydi. Butun sir-sinoatni anglagan Terey azod o'rnidan turib, xanjarini yalang'ochlab opa-singillarga qarab yuguradi, biroq qasos olishga muvaffaq bo'lmaydi. Ma'budlar Proknani bulbulga, Filomelani qaldirg'ochga, Tereyni popishakka aylantirib qo'yadi. Go'yoki o'shandan beri bulbulning navosi, o'z bolasini o'ldirib qo'yib, armon dardida fig'on chekkan onaning yig'isini, qaldirg'ochning vijir-vijiri esa soqovning duduqligini eslatar emish.

Odamlarning fe'l-atvoriga, qilmishlariga loyiq to'g'ri jazo choralarini qo'llash ham ma'budlar faoliyatida siyrak uchraydigan hodisa emas. Asarda yana eng qadimgi turlanishlardan "Faeton afsonasi", "Narsiss afsonasi", "Pigmalion afsonasi" kabi afsonaviy voqealar hikoya qilinadi.

"Fasta" (Oynoma) dostonida Ovidiy ham xuddi Kallimax singari oylarning nomlariga mufassal izoh beradi, har qaysi oyda o'tkaziladigan bayramlarni va bu bayramlarning qanday afsona va rivoyatlar bilan bog'liq bo'lganligini bayon etadi. Yangi asarda shoirni asosan Rim tarixiga, inchnun Avgust xonadoniga aloqador afsonalar qiziqtirgan. Dostonning o'zi ham Oktavianga bag'ishlangan.

"Metamorfozalar" dostoni deyarli qo'ldan chiqib, "Fasta" dostoni yarmiga yetib qolgan edi. Eramizning 8-yilida Oktavian Avgustning buyrug'i bilan Ovidiy Rim imperiyasining uzoq viloyatiga, Qora dengiz qirg'og'iga Tomi (hozirgi Ruminiyaning Konstansa shahri) shahriga surgun qilinadi. Surgun sababari to shu kungacha ma'lum emas. Surgun yillarida shoir o'zining so'nggi asarlari – besh qismdan iborat "G'amgin elegiyalar" (Tristia), 4 qismdan iborat "Epistolae ex Ponto" (Pontdan maktublar), "Qora dengizdan maktublar" to'plamlarini va boshqa asarlarini yozadi.

Ovidiyning surgunda yozgan elegiyalarining mazmuni bir-biriga yaqin. Masalan, "G'amgin elegiyalar" to'plamining birinchi qismida surgun safarining mashaqqatlari, Rimni abadiy tashlab ketish, rafiqasidan, qarindoshlaridan, do'stlaridan ayrilish, dengiz to'loqlari, o'lim dahshatlari haqida hikoya qiladi.

Xullas surgundan qutulib, Rimga qaytish, aqalli boshqa joyga ko'chish baxtiga erishib, taqdirni salgina bo'lsa-da o'zgartirish "G'amgin elegiyalar"ning mazmunidir. "Pontdan maktublar" to'plami ham g'amgin elegiyalar to'plamining mazmunidan uncha farq qilmaydi.

Ovidiyning 10 yil davomida chekkan izzatlarini, nolalari Avgustning dilini yumshatolmadi. Avgustdan so'ng Rim taxtiga o'tirgan Tiberiy ham shoirning taqdirini yengillash-tirmadi, hatto quvg'indining vatan tuprog'ida orom topishi to'g'risidagi orzulari, hazin iltijolari ham oqibatsiz qoladi. Bashariyatning ulug' adibi nihoyat eramizning 18-yili g'urbatda dunyodan o'tadi.

SITSERON IJODI

O'zining otashnafasligi bilan Demosfen darajasida turadigan va antik dunyoning ikkinchi ulug' so'z ustasi sifatida tanilgan notiq Mark Tulliy Sitserondir. U jahon madaniyati tarixida mashhur notiq, ko'zga ko'ringan davlat arbobi, ajoyib siyosatchi, faylasuf va adabiyotchi sifatida o'rin olgan.

Sitseron eramizdan avvalgi 106-yilda Rimdan uncha uzoq bo'lmagan Arpina shahrida tug'iladi. Sitseron so'z san'ati nazariyasiga atab "Brut", "Notiq haqida", "Notiq", "Mashhur notiq haqida" va boshqa anchagina asarlar yozgan. Sitseronning yuqoridagi asarlaridan tashqari bizgacha 58 ta nutqi, 900 ta xati yetib kelgan.

Notiq o'z asarlarida nutqning uslub masalalariga nihoyatda katta e'tibor beradi. Ma'lumki, Sitseronning zamonasida notqlikning Osiyo uslubi tarafdorlari bilan Attika uslubi tarafdorlari o'rtasida kuchli tortishuv borar edi. Uslubda barqarorlikni, doimiylikni talab etgan attikachilar, har qanday nutqning oddiy, sodda va aniq bo'lishini talab qilganlar. Sitseron "Brut" va "Orator" risolalarida attikachilarning fikriga qarshi chiqib, tamomila qarama-qarshi da'volarni oldinga suradi. Uning aytishicha, har qanday notiqning ko'zda tutgan asosiy maqsadi tinglovchining zavqini uyg'otib, uni o'ziga moyil qilishdan iboratdir. Modomiki shunday ekan, chinakam so'z san'atkorlari sharoitga qarab mavjud uslublarning hammasidan bab-baravar foydalanishi zarur. Sitseron o'zining fikrlarini isbotlash maqsadida Demosfen ijodiga murojaat qilib, attika so'z san'atining ulug' namoyandasi faqat oddiy va sodda uslubnigina emas, shuningdek, jo'shqin va hayajonli nutqning beqiyos ustasi bo'lganligini misol keltiradi.

Sitseron qadimgi Yunoniston notiqalarining eng yirik namoyandasi deb Demosfenni e'tirof etar, uni hurmat bilan tilga olar, o'rganar va uning notqlik mahoratiga taqlid qilar edi. Sitseron zamondoshlarini notqlik san'atini Demosfendan o'rganishga chaqirardi. "Shunday qilib, kim Demosfenga o'xshashni istamas ekan, u notiq emas", - deydi Sitseron o'zining "Mashhur notiq haqida" nomli asarida.

Sitseron Demosfendan farqli o'laroq, amaliy notqlikka qaraganda uning nazariyasi bilan ko'proq shug'ullangan. Sitseron: "Kishi shoir bo'lib tug'iladi, notiq bo'lib yetishadi", - degan edi. Bu bilan u notiq bo'lish uchun tinimsiz mehnat qilish,

o'z ustida ishlash kerak degan g'oyani ilgari suradi. Sitseronning o'zi ham nutqlarga uzoq vaqt tayyorgarlik ko'rgan. Sitseron fikricha, notiqning o'zi juda dadil, nutqi to'la isbotlangan bo'lishi kerak. "Xullas... kimki jo'n narsalar haqida oddiygina, kundalik voqealar haqida o'rtamiyona, ulug' hodisalar haqida zavq-shavq bilan gapirsa, shu odam o'z san'atining chinakam ustasidir", - deydi Sitseron o'zining "Notiq" asarida.

Notiqlar oldiga Sitseron uchta asosiy vazifa qo'yadi:

hirinchi vazifa – o'z fikrini isbotlash, ya'ni keltirilgan fakt va dalillarning chin, rost ekanligini ko'rsatib berish;

ikkinchi vazifa – tinglovchilarga estetik zavq bag'ishlash;

uchinchi vazifa – tinglovchilarning qalbiga, kayfiyatiga ta'sir etish, kishilarni aktiv faoliyatga undash.

Umuman aytganda, Sitseron risolalarida notiqlarga beriladigan amaliy maslahatlar juda ko'p, rango-rang va juda mazmundor. Sitseron nutqlarining xotima qismlarida, ayniqsa ko'proq ishlatiladigan, tumtaroq, balandparvoz iboralar, a'zoyi badanni harakatga keltirib, ma'budlarga qarata aytiladigan xitob va nidolar, adolat va erkinlik sha'niga o'qiladigan tahsin va maqtovlar haqiqatdan ham tinglovchilarda kuchli taassurot qoldirib, ishning notiq foydasiga hal etilishini ta'min etadi. Bu esa Sitseronning buyuk so'z ustasi va notiq ekanligidan dalolat beradi. Yevropa madaniyatining rivoji va ravnaq topishi yo'lida ko'rsatgan xizmatlari jihatidan Rim yozuvchilarining birontasi Sitseron oldiga tusholmaydi. Yangi zamon kishilari Sitseronga proza janrining beqiyos dahosi, notiqlik san'atining ulug' timsoli deb qaraydilar.

Sitseronning notiqlik san'ati sohasidagi dovrug'i asrlar osha butun olamga tarqaldi. Fransiyaning yirik namoyandalari va notiqlari Mirabo hamda Robespyer so'zamollikda ko'proq Sitseron usullaridan foydalangan.

Xulosa o'rinda shuni aytish lozimki, Rim adabiyoti yunon adabiyoti erishgan barcha yutuqlardan va shu bilan birga, ellinizm davri adabiyotining bu xazinaga qo'shgan qator yangiliklaridan to'la-to'kis foydalanib, ham shakl, ham mazmun jihatidan yana bir daraja yuqori bosqichga ko'tariladi va keyinchalik, yangi dunyo Yevropa adabiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan qudratli bir adabiyotga aylanadi.

Yunon adabiyoti va san'ati durdonalaridan bahra olgan Rim adabiyotida, mutafakkirlar va shoirlarning adabiy-estetik qarashlarida mifologik rivoyatlardan, an'anaviy mavzular va sujetlardan uzoqlashuv, realistik hayot manzaralarini tasvirlashga, ijtimoiy-siyosiy mavzularga ko'proq murojaat qilish ijobiy samaralar keltirish bilan birga insoniy his-tuyg'ular, nafis ruhiy holatlarni tasvirlashda chekinish, orqaga qaytish yuz berdi.

Uyg'onish davrining qalam ahllari, XVII asr yozuvchilari o'z faoliyatlarida yolg'iz Rim adabiyoti namunalariga taqlid etadilar. Faqat XVIII asrga kelib burjua gumanistlari (G.E.Lessing, I.V.Gyote, F.Shiller) bevosita yunon adabiyotiga murojaat qila boshlaydilar. Binobarin, qariyb besb asr davomida Yevropa xalqlari badiiy ijodining shakllanishida asosiy rolni yunon adabiyoti emas, balki Rim adabiyoti o'ynaydi. Antik dunyo adabiyotlariga bo'lgan munosabatning bu tariqa keskin o'zgarib ketishi natijasi o'laroq, XIX asr olimlari orasida "Rim adabiyoti faqatgina

taqlidchilikdan, yunon adabiyoti bilan Yevropa adabiyoti o'rtasida vositachilik qilishdan boshqa narsa bo'lmagan" deganga o'xshash fikrlarni tug'diradi. Rim adabiyoti haqida aytilgan bu mulohazalar tamomila noo'rin edi, albatta. To'g'ri, yunon adabiyotidan allaqancha keyin paydo bo'lgan Rim adabiyotining rivoj topishida taqlidchilik katta o'rin tutganligini inkor etib bo'lmaydi, ammo shunga qaramay, Rim adabiyoti yunon adabiyotidan ko'chirilgan tussiz bir nusxa emas, balki o'zining bir talay muhim xususiyatlari bilan ulkan og'asidan ajralib turadigan mustaqil adabiyotdir.

MAVZU YUZASIDAN IZOHLI LUG'AT:

Prinsips – 1-grajdanin;

Avgust – Rim tabaasi – o'zini shunday atagan Rim fuqarosi;

Protekstata – milliy mavzuda yozilgan Rim tragediyasi;

Proteksta – Rim senatorlari kiyadigan alvon hoshiyali ustki libos nomi;

"Anallar" – Solnomalar. Kvint Enniy dostoni;

"Satiralar" – "Qurama" to'plami;

Parasitlar – baloxo'rlar;

Optimatlar – senat a'zolari va yirik yer egalari egalarining manfaatini himoya qiluvchi siyosiy partiya;

Popularlar – shahar va qishloqdagi demokratik guruhlar manfaatlarini himoya qiluvchi siyosiy partiya;

Triymvirat – uchlik ittifoqi (Pompey, Sezar, Krass uchligi);

Proskripsiyo ro'yxati – o'zlari o'limga, mollari davlat foydasiga hukm qilingan odamlar;

"Filippikalar" – Sitseronning Antoniyga qarshi yozgan 14 ta nutqi;

Neoteriklar – yangi shoirlar degani;

Avgust – ma'budvash, muqaddas;

Eklogalar – she'riy parchalar;

Georgikalar – dehqon she'rlari;

Epodlar – uzun va qisqa misralardan iborat she'rlar;

Metamozfozalar – turlanishlar;

Fasta – oynoma.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR:

1. Rim adabiyotining paydo bo'lishidagi tarixiy sharoit.
2. Rim adabiyotining yunon adabiyoti bilan aloqasi masalalari.
3. Rim adabiyotining "oltin davr"i haqida ma'lumot bering.
4. Verglly ijodining o'ziga xos xususiyatlari.
5. Horatsiy poeziyasining markaziy muammosi.
6. Rim va yunon adabiyotining umumiy va farqli jihatlari.
7. Ovidiy elegiyanavis shoirlarning so'ngisi ekanligi va shoir qalbida vatan tuyg'usi.
8. Ovidiy "Metamorfozalar" asarining ahamiyati.

9. Antik adabiyotning jahon adabiyoti rivojiga ko'rsatgan ta'siri va bugungi kundagi ahamiyati.
10. Antik adabiyot namunalarining tele, kinoekran va teatr sahnasidagi talqini.

ADABIYOTLAR:

1. Boltaboyev H., Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. 1-jild. Qadimgi davr. - T.: Mumtoz so'z, 2013.
2. Normatova Sh. Jahon adabiyoti. O'quv qo'llanma. - T.: 2008.
3. Komilov N. Tafakkur karvonlari. - T.:1997.
4. Благовещенский Н.М. Горатский и его время. – Варшава, 1978.
5. Бычков В.В. Эстетика поздней античности. -М.: Наука. 1991.
6. Гиленсон.Б.А. История античной литературы. – М.: “ Флинта”, 2012
7. Quronov D., Rahmonov B. G'arb adabiy-tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari. O'quv qo'llanma-xrestomatiya. -T.: Fan, 2008.
8. Alimuhamedov A. Antik adabiyot tarixi. - T.: “O'qituvchi” nashriyoti, 1976.
9. [www. goldlit.ru](http://www.goldlit.ru)
10. www. Live11b.ru
11. www.wikipedia.org
12. www. Wisdoms.ru
13. www.kinopoisk.ru
14. www.lib.ru

BADIIY ADABIYOT:

1. Plutarx. Saylanma. (U.Otajon va Z.A'lam tarjimasini). –T.: Yangi asr avlodi, 2006.
2. Sitseron. Notiqlik san'atidan ikki risola. –T.: Yangi asr avlodi. 2008.
3. Drimba O. Ovidiy.- Buxarest.: Meridian. 1967.
4. Rim adabiyoti bo'yicha xrestomaliya. Oybek tarjimasini. -T.:1940.
5. Jalilov S. Bobur va Yuliy Sezar. –T.: Yangi asr avlodi, 2001.
6. Horatsiy. Sochineniya. – M.: 1970.
7. Mahmudova S, Sayfullayeva A. Antik adabiyot. Majmua. – T.: 2015.
8. Все шедевры мировой литературы в кратком изложении. Сюжеты и характеры. Зарубежная литература древних эпох, Средневековья и Возрождения. Энциклопедическое издание. – М.: «Олимп», АСТ, 1997, 848 с

O'RTA ASRLAR G'ARBIY YEVROPA ADABIYOTI

REJA:

1. O'rta asrlar adabiyoti taraqqiyot bosqichlari.
2. O'rta asrlar adabiyoti rivojidadagi uch omil.
3. Xalq qahramonlik eposlari.
4. XII–XIII asrlar ritsar-kurtuaz adabiyoti.

Mavzuga oid tayanch so'z va iboralar:

Ritsar poeziyasi. Fransuz qahramonlik eposi. Epik dostonlar. Realizm va xalqchilik. Ijobiy obrazlar. Ritsar- kurtuaz adabiyoti. Trubadurlar va minnezanglar lirikasi. Shahar adabiyoti. Provans she'riyati. Ritsarlik romanlari. Breton turkumi. Yumaloq stol romanlari. Misteriya.

Qadimgi dunyo tarixining oxiri VI asrdan to yangi zamon kapitalizmining boshlanishi – XVP asrgacha bo'lgan davr O'rta asrlar nomi bilan yuritiladi. O'rta asrlar adabiyoti ikki davrga bo'linadi : ilk o'rta asrlar va Uyg'onish davri adabiyoti. Ilk o'rta asrlar adabiyoti 10 asrdan ortiq davrni o'z ichiga olib, o'z ichida ikki hosqichga bo'linadi:

1. Qabila tuzumining yemirilishi va feodalizmning barpo bo'lish davri adabiyoti (V-X asrlar);
2. Rivojlangan feodalizm davri adabiyoti (XI-XV asrlar).

Yevropa ilk o'rta asrlar adabiyoti rivojiga uch omil barakali ta'sir ko'rsatdi. Bular: xalq og'zaki ijodi, nasroniy (xristian) dini, antik san'at.

Ilk o'rta asrlar adabiyotining ikkinchi bosqichi g'oyaviy-badiiy jihatdan hirmuncha yuksak bo'lib, asosan u bilan bog'liq masalarga to'xtalamiz. Bu bosqich adabiyotida to'rta yo'nalish mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Xalq adabiyoti.
2. Diniy-cherkov adabiyoti.
3. Kurtuaz adabiyoti
4. Shahar adabiyoti (byurger adabiyoti)

Xalq adabiyoti namunalariga “Beovulf haqidagi poema”, “Sid haqida qo'shiq”, “Roland haqida qo'shiq”, “Nibelunglar haqida qo'shiq” kabi qahramonlik dostonlarini misol qilib keltirish mumkin.

Farbiy Rim imperiyasi quilar va kolonlar inqilobi hamda varvar qabilalari hujumi natijasida yemirilib uning hududida qator mustaqil davlatlar poydo bo'ladi. V asr boshlarida Britaniyada yashayotgan kelt qabilalari imperiyaning to'xtovsiz urushlari natijasida zaiflashib qolganidan foydalanib, Rim hukmronligiga qarshi qo'zg'aladilar va mustaqillikni qo'lga kiritadilar. V asr o'rtalari borib Shimoliy Germaniyada joylashgan ingliz-saks qabilalari Britaniyaga ko'chib o'ta boshlaydilar va mahalliy qabilalarning qarshiligiga duch keladilar. Uzoq davom etgan kurashdan so'ng kelt qabilalarining bir qismi orolning shimol va g'arbidagi yerlarga chekinadi, ikkinchi qismi istilochilarga qaram bo'lib qoladi, qolgan qismi esa ingliz-saks qabilalari bilan qo'shilib ketadi. Kelt qabilalarining hayoti va urf-odatlarini haqidagi

xalq poeziyasi asosida asta-sekin qahramonlik eposi yuzaga keladi. Bu ertaklar davr o'tishi bilan ayrim qo'shiqchilar tomonidan aytiladigan bo'ladi. Qo'shiqchilar ikki guruhga: bardlar va filidlarga bo'linganlar.

Bardlar– lirik poeziya bilan, filidlar esa asosan qonunlar, qabila urf-odatlarini aks ettirgan epik poeziya bilan shug'ullanib, ular qo'shiqchi-hikoyachi deb nomlanganlar.

Ingliz adabiyotining yuzaga kelish davri o'rta asrlardan boshlanadi. Dastlabki anglo-saks adabiyotining yirik yodgorliklari diniy mazmunga ega bo'lgan. Ingliz she'riyatining eng ajoyib va qadimiy namunasi "Beovulf haqidagi poema" sanaladi. Bu poema VIII-IX asrlarda yaratilib, X asr boshlarida yozib olingan. Unda VI asrdagi frank va got qabilalari o'rtasidagi voqealar aks ettirilgan. XX asrda amerikalik yozuvchi Jon Gardner o'zining eng mashhur romani "Grendel" da "Beovulf" dagi mudhish mahluqlarga ekzistensial nuqtai nazardan yondoshib, mavzuni qayta hikoya qilgan. Anglo-saks adabiyotining oltin davrida daniyaliklar ustidan g'alaba qozongan, yozuvchi va tarjimon ham bo'lgan Buyuk Alfred tomonidan "Cherkov tarixi" nomli Bedalar lotin tilidan anglo-sakson tiliga tarjima qilingan.

XI asrning 2-yarmida Angliyada normannlar bosqini boshlanib, ular keyingi bir necha asr mobaynida Angliya hududida fransuz tilining normann dialekti va fransuz hukmronligini o'rnatdilar. Bu davr adabiyoti ham anglo-normann adabiyoti deb ataladi. Birinchi 100 yillikda anglo-sakson tilidagi adabiyot umuman yo'qolib, faqat yana 100 yil o'tgachgina bu tilda diniy asarlar paydo bo'la boshladi. Fransuz hukmronligi davri ingliz adabiyotida normann davri fransuz adabiyotiga xos uslublarning keyingi ingliz adabiyotiga ta'siri ko'zga tashlanadi.

XIV asrda Uilyam Lenglend (1332-1400) ning "Qo'sbchi Pyotr haqidagi xayol" nomli allegorik xarakterdagi poemasi Angliya ijtimoiy hayotining o'ziga xos jihatlari, ayniqsa, dehqonlarning og'ir ahvoli yoritib berilgan. Bu davrga kelib anglo-sakson va fransuz tili unsurlarini jamlagan yangi ingliz tili shakllanadi. Normannlar kelt syujetlari asosida o'rta asrlarda yaratilgan Qirol Artur yoki dumaloq stol romanlarining ta'sirida shu mavzudagi she'riyatning Yevropada keng yoyilishiga sababchi bo'ldilar.

XIV asr yangi ingliz adabiyoti asoschilari "Kenterberi hikoyalari" muallifi Jeffri Choser (1340-1400), Jon Viklif (1320-1384) ijodi bilan xarakterlanadi. "Kenterberi hikoyalari" Bokkachchoning "Dekameron" ini eslatga-da, lekin voqealarning birmuncha keng va real tasvirlanganligi, turli toifa va yoshdagi kishilarning keng miqyosdagi harakat va turmushlarini haqqoniy aks ettirganligi bilan farq qiladi. Uning ijodi anglo-normann adabiyotiga yakun yasab, yangi ingliz adabiyotini boshlab berdi va Renessans realizmi uchun poydevor vazifasini o'tadi. Jon Viklif esa "Injil" ni ingliz tiliga tarjima qiladi va katolik cherkoviga qarshi kurash va reformatsiya harakatining darakchisi sifatida tarixda qoladi..

XV asrga kelib ingliz adabiyotida xalq she'riyati rivojlandi, ayniqsa, Robin Gud haqidagi xalq balladalari keng yoyildi. Bugungi kunda Robin Gud va uning jangovar harakatlariga bag'ishlangan 40 dan ortiq ballada ma'lum.

Skandinaviya mamlakatlari– Daniya, Shvetsiya, Norvegiya va Islandiya o'z taraqqiyot bosqichlari jihatidan Yevropadagi boshqa mamlakatlarga nisbatan ancha

orqada qolgan edilar. O'rta asr Skandinaviya adabiy yodgorliklarining ko'p namunalari Islandiya qo'shiqlari va qissalaridan iboratdir. Islandiyada patriarxal qabila tuzumining uzoq davom etishi va xristianlik ta'sirining zaifligi natijasida mitologiyalarga asoslangan o'sha davr adabiyotida XII–XIII asr skandinaviya xalqlarining yashash tartiblari majusiylik dini hamda urf-odatlarining qoldiqlari to'la saqlangan holda yetib kelgan. Qadimgi islandiya adabiyoti yodgorliklari "Edda" qo'shiqlari skaldlar poeziyasi va prozaik qissalaridan iboratdir. "Edda" qo'shiqlari mitologik qahramonlik va axloqiy tarbiyaviylik mazmunidagi qo'shiqlardan tarkib topgan. Edda asosan X–XII asrlar mobaynida yaratilgan bo'lsa ham lekin, unda aks etgan voqealar qo'shiqlarning janr sifatida ancha ilgari paydo bo'lganini ko'rsatadi. Eddadagi "Voluspa" (kelajak jarchisi) haqidagi qo'shiqda dunyoning yaratilishi va halokati haqida mif aks ettirilgan.

Qadimgi Fransuz poeziyasining ilk namunalari mehnat, jangavor yurish, maishiy hayot, diniy urf-odat va nikoh masalalariga bag'ishlangan qo'shiqlar shaklida bunyodga kelgan. Feodalizm davridagi fransuz xalq og'zaki ijodida epik asarlar keng tarqalgan edi. Fransuz qahramonlik eposi inson de Jest (voqealar haqida qo'shiqlar) deb ataluvchi poemalar shaklida rivojlangan. Xalq badiiy ijodining ajoyib namunasi sifatida ma'lum va mashhur bo'lgan "Roland haqida qo'shiq" 4002 misradan iboratdir. Qo'shiqda franklar qiroli Karlning mavr-saratsinlar bilan olib borgan jangi dushman tomonidan o'ldirilgan qahramon Roland uchun qasos olish hikoya qilinadi.

Ispaniyada yuz bergan ijtimoiy–siyosiy hodisalar, feodallar o'rtasidagi janjallar, arablarga qarshi rekonkista harakati ispan qahramonlik eposida o'z ifodasini topadi. Sid haqidagi romanlar va poema (Mening Sidim haqida qo'shiq) qadimgi ispan xalq poeziyasining ajoyib namunasi hisoblanadi. Sid tarixiy shaxs bo'lib, uning asl ismi Rodriga (Ruy) Dias Sid esa uning laqabidir. O'z qaramog'ida mavrlar bo'lga ispan senyorlariga shunday nom beriladi. Sid 1040 yilda Kastiliya zodaganlari oilasida tug'ilgan, Butun Ispaniyani dushmandan ozod etish janglarida ko'p qahramonliklar ko'rsatgan Sid 1099 yilda vafot etadi. Sid rekonkista barakatining yirik arbobi, Ispaniyaning mustaqilligi uchun kurashgan milliy qahramon sifatida mashhurdir.

Ispan qahramonlik eposining ajoyib namunasi «Sid haqida qo'shiq» 1140 yillarda bunyodga kelgan bo'lib uni XIX asr boshlarida yozib olingan. Qo'shiq tadqiqotchilar tomonidan uch qismga bo'linadi.

1. «Quvilish haqida qo'shiq». Unda qirol Alfons bilan janjallashib qolgan Sidning quvilishi tasvirlanadi.

2. «To'y haqida qo'shiq». Sidning Valensiya viloyatini qo'lga kiritishi va mustaqil hokim sifatida ish ko'rishini tasvirlanadi.

3. «Korpes haqida qo'shiq» qismida Karion vorislarining razilligi tasvirlanadi.

Poemada maishiy va oilaviy tafsilotlar realistik badiiy bo'yoqlarda aks ettiriladi. Qirol bilan kelisholmay o'z vatanini tashlab ketishga majbur bo'lgan Sidning oilasi bilan xayrlashuvi, yot o'lkalarda dushmanga zarba berib, o'z mavqegini mustahkamlab olishi bilanoq ularni olib kelishga harakat qilishi va nihoyat, qizlarining baxti uchun kurashib, ularni tahqir etgan de Karrion vorislaridan o'ch olish lavhalari bunga yorqin misol bo'la oladi. Ispan xalqining eposi, shu jumladan

«Sid haqida qo'shiq» o'rta asarlardagi G'arbiy Yevropa qahramonlik eposidan bir qator o'ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi. Chunonchi, fransuz yoki nemis eposida qahramonona fojiaaviylik kuchli, ispan eposida esa qahramonona xushchaqchaqlik ustun turadi. «Sid haqida qo'shiq» da ritsarlarga xos jangovorlik bahodirlik kulti vassallaracha sadoqat hissi, manmanlik va mag'rurlik kayfiyati sezilmaydi.

Ritsar adabiyoti o'rta asrlarda «feodalizmning markazi bo'lgan» Fransiyada vujudga keladi va G'arbiy Yevropaning boshqa mamlakatlarida shakllanayotgan ritsar adabiyoti uchun namuna xizmatini o'taydi. O'rta asrlarda shaharlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi, tashqi savdoning o'sishi. Sharqqa qilingan salb yurishlari jamiyat madaniy hayotida o'zgarish yasaydi. Sharq bilan bo'lgan aloqa ritsarlarining madaniy saviyasini kengaytirishga ta'sir etadi. Avvallari saxiylik ritsarning jangovar kurashidagi qo'shimcha bir holat edi. XII asrda esa u ritsar adabiyotidagi qahramonning asosiy xususiyatiga aylanadi. Ritsar faqat mard bo'lishi bilan kifoyalanmasdan shu bilan birga kurtuazcha nozik didli, ko'rkam, sezgir va xushmuomala bo'lishi kerak, degan talab ham qo'yiladi. Shuningdek, insoniy his-tuyg'ularni qadrlash, ayollarga nozik iltifot, romantik sevgi kechinmalari madh rasm bo'lib qoladi. Ritsar poeziyasida haqiqiy ma'nodagi emas, balki ko'proq tor doiradagi kishilarning o'yin-ermagi aks ettiriladi. Lekin shunday bo'lsa ham, nozik insoniy tuyg'u, turmush lazzi, go'zallikka intilishni kuylash hayotni realistlik anglashning dastlabki ko'rinishi sifatida ijobiy hodisa edi. Ritsar lirik poeziyasi xalq qo'shiqlari asosida yaratilganligi uchun u musiqa jo'rligida ijro etiladi. Ritsar roman va povestlari esa qahramonlik eposlari kabi qo'shiq tarzida aytilmasdan balki o'qiladi.

X asr boshlarida Janubiy Fransiyaning Provans viloyati alohida davlat bo'lib ajralib chiqadi. Provansda dehqonchilik va ipakchilik rivojlangan edi. G'arb va Sharq mamlakatlari bilan dengiz savdosining kuchayishi Provans iqtisodiy kuchining yana ham mustahkamlanishiga ta'sir etadi. Bu o'lka madaniy sohada ham namuna bo'lib qoladi. Dastlabki Provans feodal sinyorlari dunyoviy ritsar madaniyatining ifodasi bo'lgan kurtuaz poeziyasi yuzaga keladi. Bu adabiy saroyga xos kurtuazcha nafislik, odob-tavoze, xonimlarga nisbatan xushmuomalalikni talab qiladi. Ayollar kulti-ayollarni ulug'lash Provans shoirlari-trubadurlar ijodida asosiy o'rin egailaydi.

Trubadur so'zi provanscha-trobar (fransuzcha-truver)-topmoq, ijod etmoq degan ma'noni anglatadi. Badiiy uslub ustida izlanish ham shu ma'nodan kelib chiqqan. Bizgacha saqlanib kelgan trubadur lirik qo'shiqchilarining mualliflari 500 dan ortiq ho'lib, ularning 40 ga yaqini mashhur qo'shiqchilardir. Trubadur qo'shiqchillari yaratgan asosiy janrlar:

Kanson—sevgi qo'shig'i bo'lib, unda muhabbat va diniy mavzu yoritiladi. Bu janrdagi she'rlar nafisligi va bandlarining murakkabligi bilan ajralib turadi;

Sirventa—asosan siyosiy xarakterdagi, qisman shaxsiy masalalarga bag'ishlangan munozara yo'sindagi qo'shiqdir, shoir unda o'z dushmanlariga qarshi hujum qiladi;

Tenson—sevgi adabiy falsafiy mavzularda ikki shoir o'rtasida bo'lgan she'riy dialogdan iborat;

Alba yoki tong qo'shig'ida ritsar o'z do'stining kuzatuv ostida tunda sevgani (birovning xotini) bilan uchrashgani borishi kuylanadi. Tong yorisha boshlashi bilan do'sti «tong» qo'shig'ini aytadi va ritsarni ogohlantiradi;

Pastorela—mavzusi jihatidan alba kabi alohida voqeani aks ettirgan lirik qo'shiq bo'lib, ko'pincha u suhbat dialogdan tashkil topgan kichik pyesani eslatadi, unda ritsar bilan cho'pon qizning uchrashuvi va ular o'rtasidagi munozara tasvirlanadi. Qo'shiqning kirish qismida ritsar qizni tabiat quchog'ida uchratib unga mulozamat qila boshlaydi. Qiz ritsarning so'zlariga ishonib unga o'z ixtiyorini topshiradi, biroq ritsar uni tashlab ketadi yoki aksincha qiz ritsarga jiddiy zarba berib uni haydab yuboradi;

Motam qo'shig'i—bironta obro'li sinyor yoki yaqin kishining vafotiga shoirning quyug'usini bayon etgan she'rdir.

Trubadurlar lirikasining asosiy xususiyatlaridan hiri unda real hayot turmush quvonchlarini aks ettirish, erli ayolga sevgi munosabatlarini kuylashdir. Bundan maqsad aristokratik muhit va oldi-sotdi zamirida yuzaga kelgan eski nikoh tartibi va cherkov kirdikorlarini qoralash va ularga insoniy erkin his-tuyg'ularni qarama - qarshi qo'yishdir.

Trubadurlar lirikasi XII-XIII asrlar mobaynida rivoj topadi. Uning eng gullagan davri XP asrning oxirlariga to'g'ri keladi. Shu davrda ijod etgan yirik trubadurlardan biri Bernard de Ventadorndir (taxminan 1140-1195 yillarda yashagan.). U dastlabki she'rlarini o'z sin'orining xotiniga, so'ngra Angliya qirolichasi Eleonora bag'ishladi. Bernard bir she'rida xonimga «Men sizning mulkingizman. Siz meni sotishingiz yoki birovga berib yuborishingiz mumkin!» deb xitob qiladi. Bernard de Ventadorning butun poeziyasi samimiylik va sevgi hissi bilan sug'orilgan.

Minnezang XII -XIII asrlardagi nemis ritsar lirikasi minnezang, ya'mi «sevgi qo'shig'i» nomi bilan yuritiladi. Bu atama XIII asrda nemis olimlari tomonidan kiritilgan. Minnezang trubadur lirikasiga yaqin bo'lsa ham, lekin o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Masalan: nemis kurtuaz shoirlari o'z fikrlarini xayoliy axloqiy masalalarga bog'lashga, hayotiy masalalarni xayol doirasiga ko'chirishga intiladilar. Ularda gedomizm (kayfichog'lik, turmushdan lazzatlanish) ancha bosiq va mo'tadil xarakterdadir. Minnezangda abstraktlik, noaniqliklar bo'lishiga qaramasdan provans lirikasi kabi, u ham poeziya janrining yuksalishiga ma'lum hissa qo'shadi. Unda oddiy insonlar kechinmalari va tabiat tasviri o'zining ochiq ifodasini topadi.

Atoqli o'zbek adabiyotshunos olimi Najmiddin Komilov o'zining «Tafakkur karvonlari» kitobida Sharq G'arb o'rtasidagi adabiy aloqalar xususida fikr yuritar ekan, bu munosabatlarning nafaqat Sharq adabiyoti, balki G'arb adabiyoti uchun ham samarali bo'lganini ko'plab misollar bilan dalillaydi. Yevropa adabiyotining dastlabki dolg'ali oqimi hisoblanmish trubadurlar she'riyati (qurtzoziy adabiyot) ham aksariyat tadqiqotchilar e'tiroficha, Sharq adabiyoti ta'sirida bunyod topgandir. Bunda birinchi navbatda arab dunyosiga yondosh Andalusiya katta rol o'ynadi. Dastlab arab-ispan madaniyati shakllangan o'lka ana shu Andalusiya edi.

Yevropa shoirlari Sharqdan rasman ohang va shaklnigina olishga intilsalar-da, haribir tasviriy vositalar, ibora ham ifodalar, ba'zan ma'no va mavzuni ham qabul qilganlar. Gilom IX, shuningdek Markbryun she'rlarida «pardador» (hojib haram

og'asi), "raqib" so'zlarining ko'p uchrashi, ularning aynan bizning g'azallardagidek salbiy ma'nolarda qo'llanilishi trubadurlar she'riyatiga Sharq ruhi naqadar singib borganidan nishonadir. Eng muhimi, trubadurlar she'riyatining bosh mavzulari – sevgiga sadoqat, beg'araz, fidoyi ishq, vafo va olijanoblikni ulug'lash Sharq adabiyotining bevosita davomidek edi.

"Kurtoziy muhabbat" deb atalgan bu sertuyg'u, qaynoq ehtirosarga boy g'oyalar o'sha davrda butun Yevropani qamrab olgandi. Yor yo'lida qurbon bo'lmoqqa shay turish, ma'shuqani malika, farmonravo deb ulug'lagan holda, o'zini haqir qul, deya kamsitish kabi she'riyatimizda asrlar bo'yi kuylab kelingan xususiyatlar tarannumini trubadurlar ham xush ko'rganlar. Ishqni bu tarzda kuylash qadimgi yunon va rim adabiyotida uchramaydi.

Gyotening ustozlari, jahon madaniy taraqqiyoti tarixini yaxlit o'rganib, har bir xalqning bashariyat tafakkur taraqqiyotiga qo'shgan hissasini xolisona baholagan G.Gerder quyidagilarni yozadi: "O'sha paytda, jaholat changalidagi Yevropaning ko'pgina qismida arablar ilm chirog'ini yoqtdilar... Yevropalik birorta xalq yozuvni o'zi kashf qilgan emas: ispanlar yozuvi ham, shimoliy oromiy yozuvi ham Osiyodan olingan; Shimoliy, G'arbiy va Sharqiy Yevropa madaniyati yunon-rumo-arab urug'idan unib chiqqandir".

Co'nggi davrlarda yaratilayotgan ilmiy maqolalar va internet saytlarida esa ritsarlik dastlab g'arbda yuzaga kelganmi yoki sharqdami degan savolni o'rta qo'yilmoqda. Shunday bir maqolalarning birida hatto ritsarlikning dastlabki ko'rinishlari Sharqda yuzaga kelgani aytilib, shoh Xisrav II ning tasviri tushirilgan barelyefda uning boshdan oyoq ritsarlar kabi kiyinganligi aks ettirilganligini, bu davrda esa, ya'ni 620 yillarda g'arbda hali ritsarlikning bo'lmaganligini aytib o'tiladi. Maqola muallifi IX-X asrlarda yaratilgan Firdavsiyning "Shohnoma" dostonini diqqat bilan o'qilsa, undagi askarlarning metallardan yasalgan kiyimlari ritsarlar qiyofasini ko'z oldimizda gavdalantirishini, Yevropada esa bunday ritsarona qiyofat faqat 4 asrdan keyin vujudga kelgani e'tirof etiladi.

Ritsarlik lirikasida kuylangan sevgi turmush quvonchlarini ritsarlik romanining ham asosiy mavzusi edi. Ritsarlik romanida muhabbat feodal axloqi odatlariga bo'ysundirilgan tarzda ko'tarinki ruhda fantastik bo'yoqlarda tasvirlanadi. Ritsarlik romanlari dastlab Fransiyada paydo bo'ldi. Ritsar romanlari mavzu ko'lamiga ko'ra ikki xil shaklda bo'lib ular quyidagilardir:

1) Antik turkum: Bunda antik manbalardan foydalanib «Aleksandr haqida roman» nomli asar yaratiladi. Romanda Aleksandr o'rta asr ritsarlari qiyofasida tasvirlanadi. Lekin bu asar tub ma'nosi bilan ritsar romani bo'la olmaydi. Chunki unda muhabbat mavzusi va xonimga ritsarcha xizmat etish aks ettirilmagan edi. Troya urushi va Eney haqidagi ertaklarni qayta ishlash natijasida «Eney haqida roman», «Troya haqida roman» kabi asarlar paydo bo'ldi. Yuqoridagi ikki roman ritsar kurtuaz adabiyoti qoidalariga to'g'ri keladi.

2) Breton (britan) turkum: Fantastika va ishqiy voqealarga boy bo'lgan va qabila tuzumi hayotini aks ettirgan kelt ertaklari ham o'rta asrlik romanlari uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Kelt ertaklarining ko'pi buyuk qirol Artur shaxsiyati bilan bog'langan. Ertaklarda britan qabilasining knyazi Artur ingliz-sakslar hujumiga qarshi qahramonona kurashgan, ko'p yerlarni zabt etgan Britaniyaning qiroli deb

tasvirlanadi. U ritsarlar o'zlarini teng his qilgan holda gir aylanib o'tirsinar deb dumaloq stol yasatgan. «Artur yoki dumaloq stol» romanlari nomi shundan kelib chiqqan.

«Dumaloq stol» va Artur nomi bilan yuritiladigan sikldagi roman mualliflaridan biri Kretyen de Truadir (XII asrning ikkinchi yarmi). U uzoq vaqt davomida grafinya Mariya Shampanskaya saroyida yashaydi, iste'dodini kurtuaz ritsarlik romani janrida ko'rsatgan. U o'z asarlari uchun manbani kel't rivoyatlaridan oladi. Kretyen de Trua Yevropa kurtuaz eposining eng yaxshi namunalari bo'lgan «Breton va Enida», «Klijes», «Lanselot yoki arava ritsari», «Iven yoki yo'lbars ritsar», «Perseval yoki Gral haqida povest» asarlarini yozadi. Qirol Artur haqidagi afsonalardan erkin foydalangan Kretyen kichik Kelt knyazi Arturni yirik feodal davlatining hukmroni qilib ko'rsatadi. «Breton» yoki Artur nomi bilan ma'lum bo'lgan kelt ertaklari kitobxonni fantastik dunyoga olib kiradi. Kelt rivoyatlari asosida yaratilgan «Tristan va Izolda» haqidagi dostonlarni ikki gruppaga bo'lish mumkin, Ulardan biri fransuz «jonglyori» va nemis shoiri Eylkart fon Oberg ishlagan. Ikkinchisi esa ingliz-norman shoiri Gomas va nemis shoiri Gotfrid Strasburgskiylardir.

Gotfrid Strasburgskiyning she'riy romani (XIII asr boshi) qahramonlarning ruhiy kechinmalarini va ritsarlik hayotining ajoyib tasvirini yaratishi bilan boshqa variantlardan farq qiladi. Ikki yoshning muhabbati haqidagi bu syujet XIII asrda prozaik roman shaklida paydo bo'ladi va asta sekin «Dumaloq stol» romanlari turkumiga kiritiladi. XIII asr boshida yuzaga kelgan «Okassen va Nikolet» asarida feodal zodaganlarga qarshi motivlar yanada ochiqroq ifodalanaadi. Bu asar o'zining mazmunini va shakli bilan ritsar romani doirasidan chetga chiqib, unga qarshi parodiyaga aylanadi. Parodiya vositasida ritsarlik va uning g'oyasi ustidan kulinadi. Asar uslubining o'ziga xos tomonlari bor: nasriy bayon she'riy tasvirlar bilan almashinib turadi va ikki jonglyor tomonidan navbatma-navbat kuylanadi. Bu asar ritsarlik hayoti va ritsarlik romani inqirozga yuz tutayotgan davr ruhini ifodalaydi.

Antik adabiyot va san'atining realistlik yo'nalishi va uning xalq turmushi bilan bog'langanligi o'rta asrlarda hukmron bo'lgan diniy adabiyotga zid dunyoviy adabiyotning o'sishiga yordam berdi. Feodalizm davri qahramonlik eposi o'rta asrlar adabiyotida yangi bosqich bo'lib, unda o'zaro urushlar qoralandi, vatanni himoya qilish g'oyasi birinchi o'ringa qo'yildi. Ritsar lirikasi va ritsarlik romanlarida esa feodal munosabatlar, vassal-syuzern aloqalari, ritsarning o'z valine'matiga sodiq bo'lishi masalalari ko'rsatiladi, cherkov va din qoralanib, turmush quvonchi va chin sevgi tarannum etiladi. Feodal tartiblariga oppozitsiya sifatida yuzaga kelgan shahar adabiyoti o'rta asrlar madaniy hayotida alohida o'rin egallaydi, unda kambag'al shahar tabaqalari ijobiy qahramonlar qilib tasvirlanib, ular buzilib borayotgan feodal-aristokratiya vakillariga qarama-qarshi qo'yiladi. Shahar adabiyoti o'zining shu asosiy xususiyati bilan o'sha davrdagi hukmron sinf adabiyotlaridan tubdan farq qiladi va Uyg'onish davri adabiyoti uchun ma'lum darajada zamin tayyorladi.

MAVZU YUZASIDAN LUG'AT:

- Bardlar - qadimgi island lirik poeziyasi bilan shug'uilangan lirik qo'shiqlar ijrochisi.
- Filidlar – island qo'shiqchi – hikoyachilari deb yuritiladi. (VII-VIII asrlar.)

- Edda - qadimgi Skandinaviyada "edda qo'shiqlari" deb nomlangan. XIII asr boshlariga asoslanib edda deb nomlanganlar.

- Voluspa - kelajak jarchisi demakdir.
- Rekonkista - dushman bosib olgan mamlakat yerlarini ozod etish harakati.
- Sid - arabcha sayid so'zidan olingan bo'lib janob demakdir.
- gedonizm – kayfichog'lik, turmushdan lazzatlanish.
- Korpes - ispaniyada qonun chiqaruvchi majlis.
- Jonglyor - qo'shiqchi baxshi. (Fransuz tilidan olingan.)
- minnezang - sevgi qo'shig'i
- Qurtoziy adabiyot - trubadurlar she'riyati
- gedonizm – kayfichog'lik, lazzatlanish

MAVZU BO'YICHA SAVOLLAR:

1. Rim imperiyasi qulagandan keyingi G'arbiy Yevropada o'rta asrchilikning boshlanishi.
2. Ingliz xalq qahramonlik eposi qaysi asrlarda yaratilgan?
3. Fransuz xalq qahramonlik eposining xalqchilligi.
4. «Roland haqida qo'shiq» qo'shiqning yaratilish tarixi va badiiy qimmat.
5. «Sid haqida qo'shiq» eposining yaratilishi va uning mavzu ko'lemi.
6. XI–XII asr nemis qahramonlik eposi va undagi obrazlarga tavsifnoma.
7. Ritsar–kurtuaz adabiyotining yaratilishi.
8. Trubadurlar lirikasi va ularning turlari.
9. Kurtuaz–ritsarlik romanlari va ularni turkumlarga ajratishning ahamiyati.
10. O'rta asrlar Yevropa adabiyotiga Sharq adabiyotining ta'siri qanday bo'lgan?
11. Shahar adabiyoti haqida ma'lumot bering.

ADABIYOTLAR:

1. Borisova I.F., Ermatov B.S. O'rta asrlar G'arbiy Yevropa adabiyotlari ravnaqining zamonaviy konsepsiyalari. -T.: «Universitet», 1994y.
2. Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi. - T.:1979.
3. История зарубежной литературы: Средние века. Возрождение. (Алексеев М.П., Жирмунский В.М., Мокульский С.С., Смирнов А.А.) - М.: "Высшая школа", 1987г.
4. Все шедевры мировой литературы в кратком изложении. Сюжеты и характеры. Зарубежная литература древних эпох, Средневековья и Возрождения. Энциклопедическое издание. – М.: «Олимп», АСТ, 1997, 848 с
4. Komilov.N.Tafakkur karvonlari.-T.: 1997.
5. www. goldlit.ru
6. www. livelib.ru
7. www.wikipedia.org
8. www. Wisdoms.ru
9. www.kinopoisk.ru
10. www.englishstory.ru
11. www.lib.ru

YEVROPA UYG'ONISH DAVRI ADABIYOTI

REJA:

1. Uyg'onish davrida Yevropadagi ijtimoiy-siyosiy hayot.
2. Italiya Uyg'onish davri adabiyoti vakillari Dante Aligyeri va Jovanni Bokkachcho hayoti va ijodi.
3. Fransua Rable ijodi.
4. Angliya Uyg'onish davri adabiyoti. Shekspir ijodi.
5. Ispan adabiyoti.Servantes ijodi.

Mavzu yuzasidan tayanch so'z va iboralar:

Uyg'onish davri xalq og'zaki ijodiyoti. Hajviya. Realizm. Lirik Novella. Roman. Drama va teatr. Sonetlar. Komediya. Tragediya. "Dekameron". Rekonkista. Epepeya. Absolut hokimiyat. Gumanizm. Protestantizm.Kalvinizm. Gugenotlar.Restavrsiya.

Feodalizm sharoitida shakllana boshlagan kapitalistik munosabatlar G'arbiy Yevropada Rennessans (Uyg'onish) harakatiga asos bo'ldi. Madaniyat tarixida Rennessans nomi bilan yuritiladigan bu harakat dastlab Italiyada (XIV) va ko'p o'tmay Yevropaning qolgan mamlakatlarida ham yuzaga keladi.

Ishlab chiqarish shakllarining yangi kurtaklari–manufakturaga o'tish, buyuk geografik kashfiyotlar (Amerikaning topilishi, Hindistonga dengiz yo'lining ochilishi) va dunyo miqyosida savdo-sotiqning rivojlanishi absolyutizmning g'alabasi natijasida feodal tarqoqlikka chek qo'yilib, milliy davlatlarning paydo bo'lishi, buyuk dehqonlar urushl va xalq qo'zg'olonlari–bular ijtimoiy hayot va ijtimoiy tushunchada qator yangiliklar tug'diradi.

Uyg'onish davri madaniyatining ahamiyati uning feodal tuzumi va cherkovga qarshi g'oyaviy kurash olib borishi bilan belgilanadi. Shaxs erkinligi va uni din sirtmog'idan ozod etish hamda dunyoviy madaniyat yaratish uchun o'z bilim va kuchlarini sarf etgan bu titanlar (Yevropada fan va madaniyat sohasidagi allomalarni titanlar deb ataydilar) –o'zlarini gumanistlar deb atadilar. Bu so'z lotincha– "humanism", ya'ni insoniylik, insonparvarlik degan so'zdan kelib chiqqandir.

Uyg'onish davrining muhim xususiyatlari – inson shaxsini ulug'lash, kishi ongini din sarqitlaridan tozalash, tabiat va jamiyatni esa inson manfaatlariga xizmat ettirishda aks etadi.

Uyg'onish davrining muhim xususiyatlaridan yana biri antik madaniyatga munosabat masalasida namoyon bo'ladi. Gumanistlar antik davrga qaytish maqsadida emas, o'zlarining ilg'or fikrlarini asoslash va kelajakka ishonch bilan qadam tashlash uchun uzoq o'tmishning ulug' siymolari ijodiga murojaat qiladilar. Ular rim va yunon adabiyoti janrlarining turli uslub shakllarigagina emas, balki ularning tarixiy manbalari, g'oyaviy mazmuniga ham diqqat etadilar. Italiyan olimi va yozuvchilari, shu jumladan birinchi gumanist Bokkachcho unutib yuborilgan qadimgi qo'lyozmalarni qidirib topishga kirishadi.

Konstantinopol yemirilganidan (XV asr) so'ng u yerdan qochgan yunon olimlari Italiyaga juda ko'p noyob antik qo'lyozmalarni keltirganlar. XV asrning

ikkinchi yarmidan boshlab Yunon va Rim shoirlari Vergiliy va Gomerning poemalari, Aristotel va Platonning asarlari nashr etila boshladi.

Uygʻonish davrining yana bir xususiyati shundaki, gumanistik adabiyotning rivoj topishi va uning realistlik mazmunda ekanligidir. Gumanistlar antik manbalardan tenglik va adolat uchun kurash gʻoyalari oladilar. Antik adabiyotning bunday xususiyatlaridan taʼsirlanish Fransua Rable "Gargantua va Pantagruel", Servantesning "Don Kixot", V. Shekspir va K. Marloning tragediyalarida yaqqol gavdalanadi. Xalq turmushidan olingan tematik obraz va folklor motivlari J. Bokkachcho va M. Navvorskaya ijodida yaqqol koʻzga tashlanadi.

Italiyaning bir qancha shaharlarida savdo-sotiq tez surʼatlar bilan rivojlanadi. Venetsiya va Genuya shaharlari savdo bilan, Florensiya sanoat va bank ishlari bilan shuhrat qozonadi.

ITALIYA UYGʻONISH DAVRI ADABIYOTI DANTE ALIGYERI HAYOTI VA IJODI (1265-1321)

Insoniyat madaniyat taraqqiyotining mahsuli boʻlgan buyuk soʻz ustalarining biri Dante Aligyeri. Uning asli ismi Durante, familiyasi Aligyeridir. U 1265-yilning may oyida kambagʻallashib qolgan aslzoda oilasida dunyoga keladi. Yoshligida u diniy maktabda oʻqib, keyin Bolonya universitetida tahsil olgan deb hisoblaydilar. Umr boʻyi falsafa, axloq, ilohiyot, tarix, mantiq va turli xalqlar adabiyotini mustaqil ravishda oʻrgangan. U zamonasining eng bilimdon kishilaridan biri hisoblangan.

Florensiyaning siyosiy hayotida faol ishtirok etgan shoirmi 1302-yil gʻolib chiqqan "qoralar" ona shahridan surgun qiladilar va u hayotining soʻnggi 19 yilini sarson-sargardonlikda oʻtkazadi. Dante 1321-yil 14 sentabrda Ravennada vafot etadi.

Shimoliy Italiyada badiiy adabiyot XIII asrgacha lotin tilida yaratilgan. XII asr oxiri XIII asr boshlarida Sisiliyada rivojlangan milliy tildagi sheʼriyatda folklor elementlari kuchli edi. Bu sheʼriyatning eng koʻp tarqalgan janrlari lauda, serventiza, va kontrast deb atalib, ularning yaratuvchilari janubiy Fransiya, Sisiliya va Italiyada koʻchib yuruvchi sayyoh shoirlar edi.

Umuman sheʼrlarni bayt, bandga boʻlish qoʻfiya tizimi Yevropa adabiyotiga yot boʻlib Ispaniya orqali Sharqdan oʻtgan. Bu haqda N. Komilovning "Tafakkur karvonlari" asariga qarang.

Dantega shuhrat keltirgan birinchi asar 1291-1292 yillarda tuzilgan va Beatrichega bagʻishlangan "Yangi hayot" sheʼrlar toʻplami boʻlib, u Yevropa adabiyoti tarixida birinchi avtobiografik asardir. Toʻplam nasriy hikoyalar bilan bogʻlangan 30 ta sheʼrdan iborat. Sheʼrlar 1283-1291 yillarda yozilgan boʻlib, xronologik tartibda joylashtirilgan.

Dantening butun ijodi Beatriche ismli qiz bilan bogʻliq. Beatriche shoirning otasiga yaqin kishining qizi boʻlib, toʻqqiz yoshli boʻlajak shoir sakkiz yashar qizchani koʻrib, butun umr boʻyi uning maftuni boʻladi. Beatriche lolarang libosda edi. Shu kundan boshlab Dante ishq maʼbudi Amorning bandasiga aylandi. Dante Beatricheni hammasi boʻlib besh marta koʻrgan, xolos. Shoirning unga boʻlgan muhabbati inson haqidagi oliy ideal bilan bogʻliq boʻlib, unga uylanishni xayoliga ham keltirmagan, unga uylanishni shakkoklik deb bilgan. Beatriche boshqa odam bilan turmush qurib, 1290-yili 24 yoshida vafot etadi. Shoirning Beatrichega boʻlgan

muhabbati keyinchalik ilohiy mazmun kasb etib, Dante ijodining hamma bosqichlarida eng oliy insoniy ideallar timsoli sifatida talqin qilinadi.

Oradan toʻqqiz yil oʻtgach shoir mahbusini koʻchada qordek oppoq libosda uchratadi, qiz shoirga salom beradi. Beatrichening salomi, taʼzimi yosh shoirmi mutloq maftun etadi, ruhiga baxt-sodat baxsh etadi. Bundan keyingi bir necha yilni shu uchrashuv taʼsirida oʻtkazadi. Uchrashuv kechasi shoir tushida ishq maʼbudi Amor olov rangli bulut ichida Beatricheni olib ketayotgani va uxlab yotgan shoirning yuragini unga majburan yedirayotgani va uni osmoga uchririb olib ketayotgani koʻradi. Shoir uygʻonib "Oshiq qalblarga..." deb boshlanuvchi sonetini yozadi.

Beatriche vafotidan keyin Dantening ishqqa boʻlgan munosabatida oʻzgarish yuz beradi.

Toʻplamning birinchi qismida Dante Beatrichega oshiq, uning yagona orzusi mahbusini koʻrish, rohat bagʻishlovchi salomini eshitish boʻlgan, xolos. Shoir Beatricheni eng oliy fazilatlar egasi, iffatli inson sifatida tasvirlaydi. Quyosh borliqqa nur sochganidek, u ham muhabbat, marhamat, mehr-shafqat, fazilat, oliy axloq, odob, umuman insonga xos boʻlgan eng oliy xususiyatlar nurini sochadi. Eng muhimi, bu xususiyatlardan atrofda qiladi, ularni axloqiy va aqliy yetuklikka erishuvga chorlaydi:

Goʻzalligini namoyon etib kimning oldidan oʻtsa,

U odam poklanadi yoki hayotdan koʻz yumadi;

Kimni u arzigulik deb hisoblasa,

Unga yaqinlashsa, uni baxt sarosimaga soladi.

Kingaki xushmuomalalik bilan salom bersa, Uning qalbi poklanib, hamma alamlarni esdan chiqaradi,

Alloh unga hukmdorlik kuchini bergan:

Kimki biror marta uning soʻzini bajarsa yovuzlikda oʻlmaydi.

Beatriche Alloh yaratgan moʻjiza, unga yaqin boʻlishni orzu qilish shakkoklik, gʻayritabiiy orzudir.

Dantening "Yangi hayot" toʻplami Yevropa adabiyoti tarixidagi birinchi psixologik asardir. Dante Beatrichening vafotiga mistik maʼno beradi. Isaviya dini taʼlimotida borliq "3" raqami asosida yaratilgan (osmon, yer, oraliq), Alloh, Iso ham uchlik (Ota Xudo, Oʻgʻil Xudo va xudoning Onasi) asosida vujudga kelgan. Uch marotaba uch toʻqqiz, yaʼni toʻqqiz qavat osmon. Shoir mahbusining vafotini muqaddas "9" raqami bilan bogʻlaydi. Shoir bu raqamni chiqarish uchun Sharq xalqlari yilnomasiga murojaat etadi. Haqiqatdan Qurʼonda "9" raqamiga alohida eʼtibor beriladi. Ismoiliiy karomati kabi bidʼat oqimlar ham "9" ni muqaddas raqam deb hisoblaydilar. Bu oʻrinda koʻinot sayyora va yulduzlar harakati masalasida Dante Ahmad Fargʻoniyning "Kitob al-harakat as-samoviya va javomi ilm an-nujum" dan foydalanadi.

Dante 1304-1308 yillarda Beatriche xotirasiga bagʻishlangan ilmiy-falsafiy risolasi "Ziyofat", filologiyaga oid "Xalq nutqi", siyosiy qarashlar ifodasi boʻlmish "Monarxiya" asarlarini yaratdi.

"Ziyofat" tuzilishi jihatdan "Yangi hayot" ga oʻxshaydi. Asarda 14 ta kansonani (milliy kolorit saqlanib yozilgan sodd musiqa asari. Oʻrta asr Italian

poeziyasidagi lirik she'r), 15 ta nasriy risolani sharhiab berishi lozim edi. Lekin faqat 3 ta kansona va 4 ta ilmiy–nasriy sharh yozilgan xolos. Ularda o'rta asr dunyoqarashi, ba'zi o'rinlarda esa Sharq olimlari, lotin averroistchilari (Ibn Rushd ta'limoti tarafdorlarini averroistlar deb atashgan) va Isaviya dini ta'limotini Sharqdan kelgan yangi ilmiy ta'limot yutuqlari bilan boyitishga uringan. Buyuk Albert va Foma qarashiari doirasida din, axloq, falakiyot ilmi, odamiylik, ishq, baxt, ruh va ong haqida fikr yuritiladi.

Shoir oliy insoniy xususiyatlar, aymiqsa saxiylik, oliyanoblik haqida fikr yuritar ekan Ibn Sino va G'azzoliy fikrlariga suyanadi.

Dante inson umrini to'rt faslga bo'ladi:

A) Yoshlik: u issiqlik va namlikka monand;

B) Balog'at: unga issiqligi va quruqlik xos;

V) Keksalik: unda sovuqlik va quruqlik bor;

G) Qartayish: unda sovuqlik va namlik bor.

“Ziyofat” asarining ikkinchi bobida Dante Farg'oniya suyangan holda “Zuhra” sayyorasining yil hisobini to'g'ri chiqaradi, ya'ni 1168 yer sutkasiga tenglashtiradi. Yoki ikkinchi o'rinda Yer bilan “Zuhra” sayyorasi o'rtasidagi masofani Farg'oniya hisobiga suyangan holda “167 yer radiusi” ya'ni 542750 milga ya'ni 40272050 km ga barobardir deydi. “Yangi hayot” to'plamida esa Beatrice vafoti kunini ham Farg'oniya risolasida keltirilgan suryoniy yilnomasi asosida aniqlaydi. Saturnning episentrik harakati hisobini chiqarishda ham vatandoshimiz asariga suyanadi.

Dastlahki narigi dunyo haqidagi tasavvur zardushtiylik dinida ishlab chiqilgan bo'lib, u dunyo jannat, a'rof va do'zaxdan iborat, vafot etgan insonlar bu dunyodagi qilmishlariga binoan marhamat yoki jazo topadilar deyilib, unda uchchala qism tafsiloti berilgan edi. Narigi dunyo haqidagi zardushtiylik ta'limoti iudaizm, isaviya va islom dinlari tomonidan umumiy tarzda qabul qilingan edi. Ammo jannat, a'rof, do'zax qanday qurilgan, kimlar qaysi qismga borishga hukm qilinadi, qanday gunohlar uchun qanaqa jazo olinadi, a'rof, jannatga kimlar kiradi, jannat rohati qay yo'sin ekanligi haqida hech qanday ma'lumot yo'q edi. Dantening o'ta boy fantaziyasi narigi dunyoni shunchalik ustalik bilan tasvirlab beradiki, jahon adabiyotining biror namunasi, hatto Sharq afsonalari, antik dunyo miflari ham unga teng kelolmaydi.

Dante asarini «Komediya» deb atagan, chunki o'rta asrlarda milliy tilda yozilgan va yaxshilik bilan tugallangan har qanday asar, janridan qat'iy nazar komediya deb atalgan. Keyinchalik unga Bokkachcho asarning mohiyati jihatidan «ilohiy» sifatini qo'shgan. Shundan beri doston «ilohiy komediya» deb ataladi.

Doston narigi dunyoning uch qismini tasvirolovchi «Do'zax», «A'rof», va «Jannat» qismlariga bo'linib, har qismi kantika deb ataladi. Bu atamani dastavval Ibn Sinoning «Urjuza» sini kremonalik Xerardo lotin tiliga tarjima qilganda qo'llab, asarni «Cantica de Medicina» deb atagan. Dante Xerardo qo'llagan atamadan foydalanadi. Doston 100 ta she'rdan iborat. She'rlar uchliklar shaklida yozilgan. Dostonning har uchala qismi hajmi jihatidan bir xil, 33 she'rdan iborat.

Shoir o'z homiysi Della Sakalaga yozgan xatida doston to'rt ma'noga ega ekanini aytadi:

Aynan ma'nosi–insonlarning narigi dunyodagi taqdiri;
Majoziy ma'nosi–bu dunyoda qilgan ishiga yarasha jazo yoki rohat topishi;
Axloqiy ma'nosi–insonni yomon yo'ldan qaytarish va yaxshilikka boshlash;
Yashirin ma'nosi–Beatricega bo'lgan muhabbatning shunday asar yaratishga ilhomlantirgan farog'at kuchini kuylashdir.

«Ilohiy komediya» ning voqeasi murakkab emas: xayolida quyuq o'rmonda udasib qolgan Dantega uch yirtqich: arslon, bo'ri va qoplonga yo'liqadi. Ulardan qutulishni bilmay sarosimaga tushib turgan shoirning oldiga Vergiliy keladi. Antik shoir Danteni bu balolardan qutqarib, uni oxir dunyoning uch qismi bilan tanishtirish haqida oliy buyruq bo'lganini aytadi. Ustoz Danteni yetaklab do'zaxning to'qqiz qavatida, undagi jazolanuvchi gunohkorlar, ularning tarixi, jazolarning turlari bilan tanishtiradi. Jahannamning to'qqizinchi qavatida jannatdan quvilgan Iblis muzda abadiy to'ng'igan holatda. Uning yunglaridan shoirlar zinapoya sifatida foydalanib, yorug' dunyoga, okean o'rtasida joylashgan a'rof tog'i oldidan chiqadilar. Ikkala shoirni antik mifda ham shu vazifani bajaruvchi kentavr Xaron qayiqda tog' etaklariga ehtadi. Vergiliy a'rofdan ham Dantega yo'l boshchilik qiladi.

Yangi zamonning birinchi vakili bo'lgan Dante shoir, olim, faylasuflar hatto ba'zi lashkarboshilar uchun do'zaxning birinchi qavatida, darboza oldida ma'lum joy (Limb) yaratadi. Limb moviy bulut ichida yorug' nurda joylashgan ajoyib qasr bo'lib, unda isaviya dinidan avval yashagan va o'zining ajoyib merosi bilan insoniyat ma'naviy boyligini yaratishda ulkan hissa qo'shgan shoirlar Xomer, Xorasiy, Vergiliy, Ovidiy, Lukian jasur qahramonlar Gektor, Sezar, faylasuflar Sokrat, Platon, Demokritga o'xshaganlar, Misr sultoni Salohiddin va boshqa qator shoir, donishmandlar anjumani tasvirlangan. Unda:

Hisobdan Evklid, Batlimus, Galen,

Gippokrat va Sino, Ibn Rushd paydo-

Yangi g'oyalarni tartib etgan chin.

(Do'zax IV bob).

O'z davrining vakili bo'lgan Sharq falsafasi ta'siri ostida dunyoqarashi shakllangan shoir ustozlari Ibn Sino va Ibn Rushdni Limbga joylashtiradi.

Majuziy va musulmon donishmandlarini isaviya dini aqidalariga zid o'laroq, jazodan qutqaradi, bu esa Dantega xos bo'lgan yuksak gumanistik dunyoqarash bilan izohlanadi. Lekin Dante tushunchasidagi yuksak insonparvarlikka xilof harakatda bo'lgan antik qahramonlar Odisey (Troyani ishg'ol qilishdagi firibgarligi uchun), mifologik qahramonlar (o'liklar dunyosida xizmat qiluvchi Xaron, Minos, Serber, Minotavr, Yupiterga qarshi chiqqan gigantlar) va yana boshqalar Dante tomonidan do'zax azobiga duchor qilinadi.

Do'zaxning to'qqizinchi qavatida «Kosit» abadiy muz ko'ldan iborat, unda xoin va munofiq panoh topgan:

Biz u yerda bo'lganmiz, bu satrlar dahshatli,

U yerda muzli qavatda soyalar shishada shohcha ko'ringanidek

Chuqurda bo'lsa ham ko'rinadilar.

(Ad. XXXIV)

Ko'lning ostini Dante “Dit” deb ataydi, unda na shamol, na olov, na harakat bor. Hamma joy shayton Lyusiferning olti qanoti harakatidan muzlab qolgan, u joyda

osmondan qvilib, yerga yiqilishida “A’rof” tog’i konusini hosil qilgan Lyusif-Iblis turadi. Uning uch og’zida uch xoin: Iuda, Brut, Kassiy (Brut va Kassiy Rimda yashagan lashkarboshilar) jazo tortadilar. Dante yaratgan Iblis obrazi inson tushunchasidagi eng salbiy, jirkanch xususiyatlarning majoziy ramzi sifatida gvdalanadi. Ma’lum darajada ijobiy xususiyatlarga ega bo’lgan Miltonning (1608-1674) “Yo’qotilgan jannat” idagi isyonkor iblis, Gyotening (1749-1832) “Faust” idagi faylasuf Mefistofel, Lermontovning “Demon” i kabi jahon adabiyoti namunalari yaratilgan Shayton obrazlaridan Dantening Iblisi ajralib turadi. Dantening ta’biricha, Iblis osmondan yiqilish jarayonida yer qa’rini shunday yorib kirganki, undan hosil bo’lgan jahannamda to’qqiz qavat do’zax joylashgan, tanasi esa yer kurrasining narigi tomonidan to’qqiz qavat “A’rof” tog’ini bo’rttirib chiqargan. Dante “A’rof” da hali u davrda hech kimning xayoliga kelmagan Janubiy yarim sharning g’arbidagi yulduzli osmonni tasvirlaydi.

Do’zaxga zid o’laroq jannatda doimo harakat hukm suradi. Jannat osmonlarining hammasida yorug’lik, nur, ruhiy kamolot hukmronlik qiladi.

“Jannat” ning so’nggi uch bohi to’qqizinchi doira—Empireyning tasviriga bag’ishlangan. Empireydagi farishtalar koinotni harakatga keltiradilar. Endi Beatriche shoirni avliyo Bernardga topshirib, Bibi Maryam taxti oldida Momohavo yoniga o’tiradi. “Yangi hayot” da tasvirlangan ishq ma’hudi Amor – ishq, quyosh va o’zga nur manbalarini harakatga keltiradi. Dantening tasavvurida umuminsoniy axloq normalari real borliqni ma’lum doirada saqlab turadi.

XII-XVI asrlar oralig’ida G’arb olamida islom va uning payg’ambariga qarshi yozilgan asarlar musulmon olimlari tomonidan maxsus o’rganilgan. O’sha asarlardan ayrimlarida payg’ambar sehr yo’li bilan insonlarni o’ziga og’dirib olgan, nafs va shahvatga qulligi bois ko’p bora uylanib, izdoshlarini ham shunga undagan, dushmanlariga qarshi nihoyatda shafqatsiz, xristianlikni bus-butun yo’qotishga bel bog’lagan bir soxta rasul, Isoi Masihning dushmani qiyofasida ko’rsatilgan ekan.

Xullas, hunaqa mazmundagi kitobiarni ko’p sonli o’quvchilarga o’qitishdan ko’zlangan umumiy maqsad islom dinining ildiziga bolta urush uchun, avvalo, uning asosini yaroqsiz ko’rsatib, qo’rquv va nafrat uyg’otadigan obrazini yaratish edi. Bas shundoq bo’lgach, Dante kabi tafakkur pahlavoniga ham inonuvchanlik pand bergan bo’lishi ehtimoldan yiroq emas.

Masalaning boshqa bir jihati ham bor. Ilmda ifodalanihicha, “Injil” inson zaifligi, “Qur’on” esa inson kuch-quvvati asosida yaralgan. “Injil” da odam qarovsiz: yordamga, rahm-shafqatga muhtoj va har turli zulmga giriftor erur. “Qur’on” esa odamni saltanat uchun safarbar aylab, uni yana va yana kuchli bo’lishini talqin etadi”. Dante shu haqiqat va mohiyatni hazm qilolmagan bo’lishi ham mumkin. Bizning nazarimizda, tub-tubigacha xusumat va adovatdan iborat diniy-siyosiy targ’ibot va tashviqotlar Dantem sehrlamaganida, “Ilohiy komediya” ning yigirma sakkizinchi qo’shig’ida Ollohning suyukli payg’ambari Muhammad Mustafo (s.a.v.) va jasorati tillarda doston bo’lgan hazrati Ali to’g’risida eng og’ir tuhmat so’zlar bitib qoldirilmasdi. “Ushbu 28-qo’shiqda tasvirlangan zotlar insonlar orasida mizo va nifoq sochganlikda ayblanadi. Ularning jazosi o’ziga xosdir; mahkum bir doira bo’ylab tinmay aylanadi, bir nuqtaga yetganda iblis uni shamshir bilan yorib tashlaydi. Mahkum doirani yana aylanib kelgunga qadar jarohat bitadi, o’sha jazo esa yana

takrorlanadi. Bu yerda Dante Muhammad payg’ambar, Hazrati Ali, Medichi, Kurion, Muska, Born singari zotlarni uchratadi.

“Muhammad nechog’ bad, bir nazar solgin!

Qarshimda yurgan zot benavo Ali,

Bosbi qoq ikkiga bo’lingan, horg’in.

Bundagi mahkumlar hayot mahali

Jahonga solgandi nifoq va nizo.

Endi jazo tortar, kelmishdir gali.

Ortda poylab turar iblis serg’avg’o,

Bizni tilkalaydi tig’ urib tamom,

Har bir aylanganda tag’in shu jazo...” (186- 188- bet)

Olloh sevgan rasuli qiyomatgacha parvardigori olamning ardog’ va e’zozida bo’lishini imon e’tiqodi sog’lom har bir musulmon tushunadi.

Mavloni Jaloliddin Rumi va Dante asrdosh ijodkorlar. Dante Mavlononing o’limidan sakkiz yil oldin dunyoga kelgan edi. Lekin harcha payg’ambarlar singari Hazrati Isoni ham sevib, unga tobe din arboblarning hurmat-ehtiromini u joyiga qo’ygandi. Bu – islom dini, chinakam musulmonlik e’tiqodidagi kenglik, ma’naviy himmatmi yoki Mavloni shaxsiyatidagi jahoniy yuksaklikmi? Mavloni shoir va orif farzandi Sulton Valad yozadi: “Barcha payg’ambar, vali va vosillar birdurlar, ulardan birini tanimoq, hammasini ko’rmoq va tanimoqdir; ayni zamonda birini rad qilish, barchasini rad aylash demak. Bir payg’ambarga dushmanlik hammasiga dushmanlik hisoblanadi. Biror bir kimsa qaysi bir payg’ambarga kufr etsa, kofir bo’lg’ay va boshqa bir payg’ambari ulug’lashidan, hech qanday foyda chiqmaydi. Olloh Taoloni biror bir payg’ambariga g’anim nigohi bilan qarash telbalikdan boshqa bir nima emas”. Mana shu sababdan ham Sharq mumtoz adabiyotida hech qaysi payg’ambari kamsitib, qoralangan gapga, hatto bir jumla bo’lsin ta’nayu malomatga duch kelinmaydi.

Dinlar, madaniy inson ongi rivojlanishi bilan bu va u dunyoning tuzilishi, insonlar vafot etgandan keyingi taqdiri masalasiga qiziqish orta boradi. Bu masalada insoniyat tarixidagi har bir din o’z ta’limotini ishiab chiqaradi. Bu dunyo tasvirida dunyo uch qism—osmon, yer va yer osti ba’zi o’rinda “Yer ostidagi suvdan iborat deyilsa, narigi dunyo tasvirida o’xshashlik kam bo’lgan. Faqat gunohkorlar yer ostida, jahannamda jazolanadilar, taqvodorlar osmonda, jannatda bo’ladilar” deyiladi. Ammo tafsilotni hech qaysi din batafsil ishlab chiqqan emas.

JOVANNI BOKKACHCHO IJODI (1313-1375)

Italiya uyg’onish davrining ikkinchi yirik vakili Jovanni Bokkachecho olim va adib bo’lib, o’sha vaqtda “nazar ilg’amas” deb hisoblangan zamonaviy novella janrini yuqori bosqichga ko’taradi, uning realistik va demokratik yo’nalishini belgilab beradi.

Bokkachecho 1313 yil Parijda tug’iladi, onasi vafot etgach, u Italiyaga olib ketiladi. Otasining istagi hilaan kimmersantlik, shuningdek, huquqshunoslikni o’rgansa ham antik yozuvchilarning asarlariga unda qiziqish katta bo’ladi. Bokkachecho yigitlik davrini (1327-1340) Neapolda o’tkazadi. Bu yerda u gumanistlar

bilan yaqindan tanishib, yunon tili va antik adabiyotni o'rganishga kirishadi. Yangi orttirgan do'stlari tufayli qirol Robert Anjuyskiy saroyidagi adabiy muhitga jalb qilinadi.

Bokkachecho ijodining dastlabki bosqichida risar romanlarini qayta ishlash bilan shug'ullanadi. Shunday asarlardan biri "Filokolo" 1338 y yozuvchi ilk o'rta asrlar adabiyotida mavjud bo'lgan xristian bilan majusiy (Florio va Byanchifore) o'rtasidagi qayg'uli muhabbat mavzusini qayta ishladi. Lekin avtor bu masalaga yangicha yondosha olmadi. Uncha katta bo'lmagan "Filostrato" poemasida (1338) shoir italyan yallachilari aytib yuradigan sakkiz bandli xalq strofasi oktavani qo'lladi. Asarning syujetini o'rta asr fransuz truveri Benua da Sent-Morning "Troya haqida roman" idan oldi va Troya jangchisi Troil bilan yunon asirasi Grizeidaning sevgisini o'ziga xos uslubda talqin etadi. Unga psixologik momentlar kiritadi.

Bokkachecho she'r va nasr aralash usulda yozgan "Ameto" pastoral idilliyasi (1341) antik cho'ponlik poeziyasi merosidan foydalanadi. Adib asarda dunyoviy lazzat-tabiiy his-tuyg'u va chin sevgini kuylaydi. Asarning qahramoni Ameto qo'rs va qo'pol yigit, u ovni sevadi. Ameta parilar orasida Liya ismli ajoyib qizni uchratadi. Go'zal Liya ajoyib qo'shiqlari bilan yigitni o'ziga maftun etadi. Shu vaqtdan boshlab yigitning fikri-xayoli qizda bo'ladi. Liyaga nisbatan tug'ilgan samimiy sevgi ta'siri ostida qo'pol va qo'rs Ameto o'zgarib, ajoyib fazilatli, olijanob yigitga aylanadi.

"Fyezolan parilari" poemasi 1345-46 yillarda yozilgan. Asar antik miiflarga, ayniqsa, Ovidiyning "Metamorfozalar" iga taqlid qilib yozilgan. Asarda Fyezolan tepaligi yonida tutashgan ikki daryo-Afriko va Menzola qanday qilib ikki sevrishganning nomi bilan atalganligi tasvirlanadi: hali Fyezolan shahri qad ko'tarmagan qadim zamonlarda shu tepalikda ma'buda Diana panohida ko'p parilar yashagan. Ular doirasiga kirib borgan cho'pon Afriko yosh pari Menzolani sevib qolgan. Yigit xudo Veneraning maslahati bilan qizlar kiyimini kiyib, u bilan uchrashgan va uning qo'lini so'ragan. Parilarning erga tegmasligi (tufayli) qasam ichganligi tufayli Menzola Afrikoning muhabbatini rad etadi. Biroq qiz qalbida uyg'ongan muhabbat hissi undagi tortinish va uyatchanlikdan ustun chiqqan, shunday qilib u yigitga moyil bo'lgan. Menzola farzand ko'rib, ma'buda Dianadan yashirinib yuradi. Ko'p o'tmay o'z qilmishidan afsuslanib Afrikodan o'zini olib qochadi. Bunga chiday olmagan yigit o'zini o'ldiradi. Uning qoni shu yerda oqadigan kichik daryo suviga quyilgani uchun bu daryo Afriko nomi bilan atala boshladi. Diana Menzolani g'azab bilan kichik daryoga aylantirib yuborgan. Daryo Fyezalon tepaligi yonida Afriko daryosiga qo'shilib ketgan. Afrikoning ota-onasi o'g'lini tarbiyalab oladi. Italiyaga kelgan Titan Iapetning domishmand o'g'li Atlant Fyezlon shahrini qurgan, parilarni erga bergan. Shunday qilib, bu yerda yangi madaniy davr boshlangan. Ularning nomi bilan sevgi va abadiylik ramzi - Afriko va Menzola daryolari mangu yashaydi. Bunday xotima avtor gumanizmi va mahorati shakllanganining yorqin ifodasidir.

"Dekameron" Bokkachechoning katta e'tiborga molik asari hisoblanadi. U bu asarni 1352-54 yillarda yozgan. Gumanistik g'oyalar va voqelikni realistlik tasvirllovchi "Dekameron" o'rta asr diniy asketizmiga qattiq va ayovsiz zarba bergan Uyg'onish davrining birinchi yirik asaridir.

Italyancha "Novellino" (ya'ni novellalar kitobi) ning mazmuni turlicha bo'lib, unda o'rta asr risar romanlari, Injil, Sharq ertaklari, antik rivoyatlarda bayon qilingan turli hodisalar hikoya qilinadi. Birinchi navbatda Italiya hayotidan olingan maishiy temadagi realistlik hikoyalar kishining diqqatini o'ziga tortadi.

Bokkachecho esa novella janriga klassik tus berib, italyan hikoyachiligining turi, tipi, xarakteri, tili, uslubini yaratadi. Bokkachecho asarining demokratik ruhi uning xalq an'analari bilan yaqindan aloqada bo'lganligining natijasidir. Bokkachecho novella janriga yangi gumanistik mazmun, realistlik xarakter kiritishi bilan uni "tuban" janrdan "yuqori" janrlar qatoriga ko'tardi va to'la huquqli janrga aylantirdi. Yozuvchi hikoyaning maqsadi o'quvchini qiziqtirish va ovutish uchun emas, balki kishilarga yangi ong, yangi madaniyat va go'zallik idealini singdirishdan iborat bo'lmog'i ham kerak deb bildi. "Dekameron" da yuzta novella bor. Ular ma'lum tartibda joylashtirilgan, novellalarning biri ikkimchisiga maxsus ulanuvchi hikoyalar vositasi bilan bog'lanadi. Bunday adabiy usul qadimgi sharq ("Ming bir kecha") va antik ("Metamorfozalar") adabiyotda ham qo'llangan, lekin ularda bog'lovchi hikoyalar vaziyatni izohlash, jazoni keyinga cho'zish uchun kiritilar edi. Bokkachecho esa bog'lovchi, yangi novellalarda hayotiy voqealarni, xarakterlarni tasvirlashga katta e'tibor beradi. 1348-yil Florensiyada dahshatli o'lat kasali tarqalib, bu kasal juda ko'p kishining yostig'ini quritadi. Shunday og'ir vaziyatda Bokkachecho yangi fikrlarni targ'ib qiladigan asar yaratishni mo'ljallaydi va "Dekameron" nomli asarini yaratadi, bu asar o'lat kasalining tarqalishini tasvirlash bilan boshlanadi.

Gumanist Bokkachecho ijodida ishq-muhabbat katta o'rin tutadi. U sevgini tor, shaxsiy lazzatlanish ma'nosida emas, balki keng ma'noda, ijtimoiy hayotga bog'liq ravishda tasvirlaydi. Uning tasavvurida muhabbat kishini chinqtiradi, qiyinchiliklarni yengishga o'rgatadi va odamda yaxshi fazilatlar hosil qiladi.

«Dekameron»da targ'ib qilingan asosiy g'oyalar antiklerikal yo'nalishdadir. I'ski diniy urf-odatlardan erkin muhabbat ustun chiqadi.

"Dekameron" dagi ko'p novellalarda monaxlarning kirdikorlari ochib beriladi. Ular har qadamda razillik qiladilar, xalq ommasini aldaydilar, lekin oxirida sharmanda bo'ladilar. Buni monax Albert (to'rtinchi kunning ikkinchi novellasi) misolida yaqqol ko'rish mumkin.

Imola degan joyda jinoyatlari bilan obro'sizlanib, sharmanda bo'lgan Berto della Misso ismli bir kimsa Venesiyaga borib, o'zini o'ta taqvodor kishi og'a Albert deb tanitadi. Sekin-asta ruhoniy sifatida obro' orttira boradi, lekin yashirin ravishda yaramas ishlarini ham davom ettiradi, monastirda yengiltak yosh ayol Lizettani uchratib, uning chiroyini maqtagan va so'ngra "farishta" niqobida paydo bo'lgan Albert sezilib qolishdan qo'rqib, o'zini derazadan tashlab qochadi va bir kambag'alning uyiga kirib bekinadi. Ertalab "farishta" haqidagi gap butun shaharga tarqaladi. Bu xabarni eshitgan uy egasi qutqarib yuborish bahonasi bilan Albertni masxarabozlik bayramiga hayvon qiyofasida olib chiqishga ko'ndiradi. Uning badaniga asal surib, par yopishtirib shahar maydoniga yetaklab boradi, so'na va pashshalar undagi asalga yopishadi. Nihoyat Albertning hiylasi fosh etilib, qamoqqa tushadi.

"Dekameron" da oddiy monaxdan tortib, to Rim papasigacha qoralanadi. Ruhoniyarning qilmishlarini ko'zatib borgan Bokkachecho ustalik bilan ularning

kirdikorlarini ochib tashlaydi. Shunisi xarakterliki, ruhoniylarni mazax qilish uchun kerakli badiiy vositalar topa oladi, ularni komik personajlarga aylantiradi, nihoyat ko'pchilik oldida sharmandayu-sharmisor qiladi.

Bokkachcho ijodining o'ziga xos tomoni shundaki, u asardagi personajning xarakterini ochishda, uni to'laonli gavdalantirishda folklordagi komik elementlardan (unsurlardan) mohirona foydalanadi. Bokkachcho oddiy kishilardagi ijobiy xislatlar–epchillik, donolik, xushchaqchaqlikni aks ettirgan novellalar ham yaratadi.

Andreuchcho haqidagi novella (ikkinchi kunning beshinchi noveilasi) shunday xarakterdagi hikoyalardandir.

Perudjiyada ot savdosi bilan shug'ullangan Andreuchcho ismli yosh yigit ot olgani Neapolga boradi. Biroq shu kuni uning savdosi bitmagan, sodda bu odam bekorga yurmaganini bildirmoq uchun hamyonini goh qo'lga olib, goh uni joyiga solib qo'yadi. Bundan xabardor bo'lgan bir yosh ayol uning pullarini qo'lga tushirishni mo'ljallaydi, kechqurun Andreuchcho turgan mehmonxonaga cho'risini yuborib uni o'z uyiga chaqirtiradi va juda yaxshi kutib oladi. Hatto yigitni o'z akasi bo'lajagi (go'yo Andreuchchoning otasi Palormoga kelib turganida uning beva onasi bilan yaqin bo'lgani va o'zi tug'ilgani) ni aytib, uni ishontiradi. Kechki ovqatdan so'ng ayol begona yurtda bemahal yurish xavfli, deb mehmonning ketishiga yo'l bermaydi. Uni aldab bir xonaga kiritgach, Andreuchcho bexosdan iflos chuqurga yiqilib tushadi. Aldanganini bilgan Andreuchchoning faryodiga hech kim quloq solmaydi. U bundan so'ng qator ko'ngilsiz voqealarni boshidan kechiradi. Uning mehmonxonadagi sheriklari yaqinda o'lgan Neapol arxiyepiskopining o'zi bilan ko'milgan qimmatli narsalarini olish uchun Andreuchchoni qabrga tushradilar. U yerdan zo'rg'a qutilib chiqqan Andreuchcho tezda o'z tug'ilgan qishlog'iga ketishga majbur bo'ladi.

Sakkizinchi va to'qqizinchi kunlarda aytilgan novellalarning ko'pgina qahramonlari florensiyalik qiziqchi, epchil yigitlar Bruno, Nellolar go'l, kaltabin Simone va Kalandrinoni kalaka qiladilar. Bokkachcho oddiy kishilarni yaxshi xususiyatlarga ega bo'lgan odamlar sifatida tasvirlab, ularga xayrixohlik bildiradi.

Uchinchi kunning ikkinchi novellasida bir otboqar o'z xo'jayini qirol Agilulf bilan qirolichaning sevgisi haqida bahslashadi, ayyorlik, aql-idrokda qirol bilan bahslashishga majbur bo'lgan xizmatkor qirolni yengib chiqadi. Kitobda bu kabi misollar ko'p. Bular "Dekameron" asosida folklor materiallari, demokratik fikrlar yotganini ko'rsatadi. "Past" tabaqadan chiqqan kishilar aristokratiya vakillari ustidan doim g'alaba qozonadilar.

Bokkachcho kichik hajmdagi hikoyalari orqali o'sha davr hayotining turli tomonlarini realistik manzaralarda aks ettirishi bilan ulug'dir. Muailif novellalarining tiliga katta e'tibor berib, jonli tildagi qisqa, yorqin obrazli iboralarni ustalik bilan qo'llagan. O'rta asr diniy-asketik ta'limotiga shafqatsiz zarba bergan Bokkachcho bu o'lmas asari bilan mangu barhayotdir.

FRANSIYA UYG'ONISH DAVRI ADABIYOTI FRANSUA RABLE IJODI (1494-1553)

Fransuz Uyg'onish davri adabiyotining yirik vakili ulug' gumanist yozuvchi Fransua Rable Turen viloyatining Shinon nomli shaharchasida advokat oilasida 1494 yilda tug'iladi. Uning otasi Antuan Rable o'g'lining ruhoniy bo'lishini istaydi va uni Shinon shahri yaqinidagi mahalliy abbatlikka beradi. Ammo abbatlikdagi hayot unga yoqmaydi. U homiysi Joffrua de Etissak yordamida monastirni hech qanday salbiy oqibatlarisiz tark etishga muvaffaq bo'ladi.

Qadimgi davr yozuvchilari, jumladan Gomer asarlari hamda reformasiya davri vakillarining kitoblari uning diqqatini o'ziga tortadi. Xalq hayoti va uning badiiy ijodi bilan tanishadi. 1530 yilda Monpelyega kelib, medisina ilmi bilan shug'ullanadi. Yunon hakimi Gippokratning «Aforizmlar» ini izohlab beradi. 1532 yil Lion shahridagi kasalxonalaridan birida vrach bo'lib ishlaydi. Ulug' gumanist Erazm Rotterdamskiy bilan aloqada bo'ladi. Rable «eng insoniy ota» deb Erazmga yuqori ba'ho beradi. 1537 yilda Monpelyeda medisina doktori degan darajani oladi.

Rable gumanistik ijodining nodir namunasi xalq orzu-istaklarini chuqur aks ettirgan o'lmas asari «Gargantuya va Pantagryuel» romanidir. Asar besh kitobdan iborat satirik roman bo'lib, u oliyjanob, ulkan mechkay ota o'g'il qirollar haqida hikoya qiladi. Roman insonga xos salbiy jihatlar, Rable zamonasidagi davlat tizimi va cherkovni tanqid ostiga oladi.

Rable satirasining asosiy obyektivi cherkov, din peshvolari va monaxlik bo'lib, katolik cherkovining salbiy jihatlari reformasiya davrida ommaviy noroziliklarga sabab bo'lgan edi. Bu nuqsonlar Rim papalari, riyokor va munofiq dim arablarining hoylikka hirs qo'yganliklari, Yevropa mamlakatlarida yakka hukmronlikni davo qilishlarida ko'rinadi. Yozuvchi o'rta asr diniy ta'limoti sxolastikaning haqqoniylikdan yiroqligini ta'kidlaydi.

Asarda Injilda tasvirlangan ayrim voqealarga ishora qilinib, ularni kulgu ostiga olinadi. Masalan, Gargantuyaning onasining chap qulog'idan tug'ilganligini xudoning qudratiga deb turlib, bunga ishonmaydiganlarni dahriylar deydi, bu o'sha davr diniy fanatizmi yoki nasroniylarning muqaddas kitoblaridan bo'lgan Yevangeliy mo'jizalariga ko'r ko'rona ishonishga ishoradir. Bejizga bu asar Sorbonnaning diniy fakulteti tmonidan man etilib, dahriyona asar deb e'lon qilinmagan.

Fransua Rable asarida "eski turmush" hilan satira va yumor vositasida kurashibgina qolmay, balki o'zining tasavvuridagi "yangicha hayotni" tasvirlashga harakat qiladi. O'rta asr qoloqligi va adolatsizligiga u inson erki va farovonligini qarshi qo'yadi. Ayniqsa, Telem abbatligini tasvirlashda yozuvchi shu boradagi g'oyalarini to'liqroq bayon eta olgan. Monax og'a Jan bu abbatlikni qirol Gargantuya ruxsati bilan barpo etadi. Abbatlikda majburlash, eskilik sarqitlariga berilish yo'q bo'lib, barkamol inson rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlar muhayyo edi. Abbatlikning shiori bitta bo'lib, "Xohlaganingni qil" degan shiordan iborat edi. Buning mohiyatini og'a Jan abbatligi a'zolari shunday sharhlaydilar: "Oliyjanob, ma'rifatli, xushaxloq ota onalarning ozod farzandlarini tabiatning o'zi to'g'ri yo'lga boshlab, ularni yaxshi ishlar qilishiga, gunohlardan asrashga, vijdonli insonlar bo'lib qolishiga harakat qiladi. Ammo qachonki shu kishilarni majburlab, zulm ostida

ushlasalar, ulardagi oliyjanoblik yo'qolib, ularning barcha kuchi va iqtidori quilik kishanlarini uzib tashlashga qaratiladi. Zero, insonni azaldan man qilingan narsalar e'tiborini tortishl aniqlangan. " (1 kitob, LVII qism).

Telem abbatligi, Gargantyaning Ponokrat tomonidan tarbiyalanishi asarda gumanizm prinsiplarining aks etganligiga misol bo'la oladi. Shu jihatdan roman Uyg'onish davrining yorqin asari bo'lib, unda o'rta asrlar madaniy paradigmasining o'rni yangi uyg'onish davri paradigmasi egallashini ko'rish mumkin.

Bu epopeyaning dastlabki kitobi 1533-yilda Alkofribas Nazye taxallusi bilan «Ulkan pahlavon Gargantyaning o'g'li dipsodlar qiroli ajoyib Pantagryuelning dahshatli va g'oyat qo'rqinchli harakatlari va qahramonliklari» nomi ostida paydo bo'ladi. Alkofribas Nazye Fransua Rable ismining lotin tilidagi anagrammasi hisoblanadi.

Qattiq hazil, kuchli kulgu va nozik kinoyalar bilan pardalangan asarning chuqur ma'nosini anglash uchun yozuvchi uni diqqat bilan o'qish zarurligini uqtiradi. «Kitobimni ochingiz va unda bayon qilingan voqealar haqida yaxshilab o'ylab ko'ringiz. Shunday qilsangiz, tushunasiz, asarning sarlavhasini o'qish bilan unda bema'ni narsalar bayon etilgan ekan degan xayolga kelish mumkin, lekin aslo bunday emas siz mutlaq ishonaverishingiz mumkin, uni o'qish natijasida ham jasoratli, ham dono bo'lasiz, chunki mening kitobimda butunlay boshqacha yo'sindagi ruh va qandaydir faqat yuksak didli kishilarga tushunarli bo'ladigan ta'limotni ko'rasizki, bu esa sizga bizning din, xuddi shu kabi siyosatimiz va ro'zg'orshunoslikka doir o'ta maxfiy va dahshatli sirlarni ochib beradi». «Gargantya va Pantagryuel» besh kitobdan iborat bo'lib, uni yaratishga yozuvchi 20 yildan ortiqroq vaqt sarf etadi:

a) «Pantagryuelning otasi ulug' Gargantyaning g'oyat vahimali hayoti haqida» 1534 y nashr etilgan.

b) «Oliyjanob Pantagryuelning qahramonona harakatlari va qimmatli gaplari haqida uchinchi kitob» 1546-yil Parijda endi F.Rable nomi bilan bosilib chiqdi.

v) «Jasur Pantagryuelning qahramonona harakatlari va qimmatli gaplari haqida to'rtinchi kitob» 1552-yilda;

Rablening so'nggi kitobidan parcha («G'oz chiqaruvchi orol») yozuvchi vafotidan 9 yil o'tgach, 1562-yilda paydo bo'ldi. 1564 yildagina;

g) «Olijanob Pantagryuelning qahramonona harakatlari va qimmatli fikrlari haqida beshinchi kitob, ya'ni so'nggi kitob» nashr etildi.

Fransua Rable Gargantya haqidagi birinchi kitobida o'sha davr gumanistlarini qiziqtirgan ta'lim-tarbiya, urush va tinchlik, kelajak, baxtli jamiyat qanday bo'lishi kerakligi haqidagi muhim masalalar ustida fikr yuritadi. Tarbiya masalasida yozuvchi eski tuzumni «quruq yod oldirish fikrlash qobiliyatini o'stirish» degan tushuncha o'sha davr tarbiyachilarining aqliga sig'magan narsa ekanligini, hamda faqatgina bir yo'nalishda ish olib borishi, tashqi va ichki dunyo degan tushunchalardan ularning holi ekanligi qattiq tanqid qiladi. Bularga qarshi qilib o'z asarida gumanist Ponokrat obrazini yaratadi.

Feodal o'zboshimchaliklar, bosqinchilik urushlari qiroli Pikroxol obrazida yorqin ochilgan. U qiroli Granguzye bilan uzoq vaqt tinch-totuv yashaydi. Lekin Pikroxolda asta-sekin jahongirlik xususiyati uyg'ona boshlaydi. Granguzye cho'ponlari shaharga ketayotgan Pikroxol odamlaridan non sotib olmoqchi bo'ladi.

ular esa nonning narxini bir necha baravar oshirib aytadilar. Va nihoyat ular o'rtasida jang kelib chiqadi. Pikroxol shularni bahona qilib Granguzye mamlakatiga hujum qiladi. Granguzye o'g'li Gargantya xat yozadi. Granguzye bu xatni hukmronlikni saqlab qolish uchun emas, balki xalqning tinchiigini, osoyishtaligini va o'zgalarning kelib ularni oyoq osti qilmasligini bildirib, xalqini ozod qilish uchun o'g'lini yordam berishga kelishini uqtiradi.

Kitobda ikki tipdagi qiroli ko'rsatiladi, bular dunyo hukmronligiga da'vogar shaxsiy manfaatidan boshqani bilmaydigan Lerne qiroli Pikroxol va tinchlikni sevadigan, saxiy Granguzye bilan uning o'g'li Gargantya.

Oddiy kishilardagi mehnatsevarlikni, samimiylik, sadoqat kabi fazilatlarini ochish yozuvchining diqqat markazida turadi. Biz buni Og'a Jan obrazida ko'rishimiz mumkin. Dushman bog'larni, ekinlarni, odamlarni yanchib kelayotgan bir paytda monax Og'a Jan abbatlik bog'ini qahramonona himoya qiladi, 13 ming 622 ta bosqinchini yer tishlatadi.

Fransua Rable asarida o'zining yaxshi ko'rgan usullari: grotesk, giperbolani ko'p qo'llaydi. Bu asar qahramonlarining xususiyatlarida ko'zga tashlanadi. Bir qarashda bu ulkan qirollar oddiy odamlar bilan teng muomalada ekanligini ko'ramiz, ular bir dasturxon atrofida, bir kemada bo'ladi. Ammo asarda shunday voqealar hikoya qilinadiki, ularni "supergiperbola" uslubidan foydalanib yaratilgan deyin mumkin. Jumladan, Gargantyaning dam olish uchun Parijdagi Bibi Maryam ibodatxonasi ustiga o'tirishini, to'pning yadrolarini pashshalar deb o'ylashini, Pantagryuelni zanjir yordamidagina belanchakka belashlarini tasavvur etish qiyin. Bu uslubning cho'qqisi deb Pantagryuel armiyasini yomg'irdan saqlash uchun tilini chiqarishi va bir askarning adashib uning og'ziga tushib qolishi, u yerda yarim yil yashab shahar va qishloqlarga duch kelishi tasvirlangan epizodni keltirish mumkin.

Epopeyada inson tanasi a'zolari bilan bog'liq qo'pol yumor ko'p uchraydi. Ko'pgina qahramonlarning nomlari bunga misol bo'la oladi. Bundan tashqari liboslar, ichkilik, turli taomlar, yuqumli kasalliklar haqida ham ko'p boradi. Bu esa o'rta asr romanchiligiga xos bo'lmagan jihatlar bo'lib, bu kabi masalalar xususida hikoya qilish tuban va aytishga arziqli sanalmagan.

"Pantagryuel" asarining xarakterli jihati shundaki, unda o'rta asrlar turmushiga doir taomlar, kitoblar, fanlar, qonunlar, pul birliklari, hayvonlar, askarlarning kulgill nomlari juda aniq, komik shaklda tasvirlangan.

Asar fransuz xalqining o'rta asrlar va Uyg'onish davridagi xalq madaniyati bilan uzviy bog'liq. Yozuvchi xalq madaniyatidan bosh qahramonlar obrazlarini, ayrim adabiy shakllarni o'zlashtiradi. Masalan, fransuz adabiy shakllaridan biri "blazonlar" ma'nisiz so'zlardan asarida ijodiy foydalanadi. Ayniqsa, asar tilida o'sha davrning, xalq ruhining aks etganini ta'kidlash lozim. Bu til o'rta asr sxolastik traktatlari, lotinlashgan diniy risolalar tilidan tubdan farq qiladi.

ANGLIYA UYG'ONISH DAVRI ADABIYOTI

Ingliz gumanistik adabiyotining tarixiy rivojlanish bosqichlari bor. Uning dastlabki bosqichi XV asrning oxiri XVI asrning 60-70 yillarini o'z ichiga oladi. Bu bosqichning muhim xususiyati shundaki, bu vaqtda yashagan gumanistlar antik dunyo madaniyatini qiziqib o'rganadilar. Tragediya va komediya janrini yaratishga kirishadilar.

Uygʻonish adabiyotining ikkinchi gullagan bosqichi XVI asrning oxirlaridan XVII asrning boshlarigacha Shekspir vafotigacha boʻlgan davrlarga toʻgʻri keladi. Bu davrda yirik dramaturglar yetishib chiqdilar.

Gumanistik adabiyotning uchinchi bosqichi XVII asrning boshlaridan, yaʼni 1616-yildan to shu asrning 40-yillarigacha boʻlgan davr teatrlarning yopilishi, Uygʻonish gʻoyalarning tushkunligi bilan ifodalanadi.

XVI asrda klassik adabiyot va italyan sheʼriyati taʼsirida ingliz gumanizmi rivojlandi. Sonet janri taraqqiy etdi. Adabiyotda bu davr asosan Vilyam Shekspir (1564-1616) ijodi bilan xarakterlanadi. Aynan shu davrda Tomas Mor (1478-1535)ning "Utopiya" va Frensis Bekonning (1561-1626) "Yangi Atlantida" romanlari, Kristofer Marlo (1564-1593), Robert Grin (1558-1592) dramatik asarlari yaratildi, Djon Lili (1553-1606) esa oʻzining "Evfues yoki donolik anatomiyasi" romani bilan adabiyotda serhasham "evfuizm" uslubiga asos soldi.

Renessans davrida choʻpon romanlarini (pastoral) yozish urf boʻldi. Filipp Sidney qalamiga mansub "Arkadiya" romani eng mashhur pastoral romanlari sanaladi. Oʻnlab ijodkorlar Sidney asariga ergashib romanlar yaratdilar. Hatto Edmund Spenser ham undan ilhomlanib, oʻzining mashhur "Feyalar qirolichasi" poemasini yaratadi. Spenserning bu asari oʻzining chuqur mazmuni bilan emas, balki rang-barang boʻyoqlarga boyligi, chigal va murakkab intrigaga asoslanganligi, syujetining odatdan tashqari fantastikligi, obrazlari va tasvirning oʻziga xosligi bilan zamondoshlarining eʼtiborini tortdi.

Uygʻonish davri ingliz adabiyotida dramaturgiyaning taraqqiy etishiga teatrlarning yuzaga kelishi taʼsir koʻrsatdi. Natijada oʻrta asr misteriyasi oʻrnini moralite, interlyudiya, maskalar teatri kabi dramatik janrlar egalladi. Dramaturglar mumtoz komediya va tragediyaga, xususan, Plavt va Seneka asarlariga taqlid qilib asarlar yaratdilar.

Tomas Mor (1478-1535) Londonda sudyalar oilasida tugʻiladi. Oksford universitetini tugaliydi, lotin va yunon tillarini oʻrganadi. Morning gumanistik qarashlari uning "Utopiya" romanida oʻzining yorqin ifodasini topgan. Roman asar muallifi bilan dengizchi Rafael Gitlodey oʻrtasidagi suhbat shaklida yozilgan. Kitobning birinchi qismida Angliyadagi mavjud ijtimoiy tartiblar, ikkinchi qismida esa "Utopiya" orolidagi ideal ijtimoiy tuzum koʻrsatiladi. Voqea koʻp joylarni koʻrgan dengizchi-sayyoh-Rafael Gitlodiy tilidan bayon qilinadi. U Angliyada qattiq qonunlar natijasida azob chekayotgan xalq, yeridan ajralib, gadolar sonini koʻpaytirayotgan dehqonlar haqida soʻylaydi. Qishloqqa kirib borayotgan kapital va dahshatli eksploatatsiyani, tekinxoʻrlik bilan hayot kechirayotgan hukmron tabaqalarning kirdikorlarini ochib tashlaydi. "Qoʻylaringiz... shunday xoʻra va asov boʻlib qoldilarki, hatto odamlarni ham yamlab qoʻymoqdalar, dala uy va shaharlarni ham vayron, ham yakson etmoqdalar" degan muallifning obrazli soʻzlari haqiqat ekanligini hayot isbotlagan edi.

XVI asrning 60-70 yillariga qadar teatr truppalarning doimiy binosi yoʻq edi. Ular oʻz oʻyinlarini mehmonxonalar hovlisiga, koʻchma sahna oʻrnatib koʻrsatar edi. Graf Lester nomidagi truppa isteʼdodli aktyorlar toʻplangan boʻlib, ularning boshida qobiliyatli duradgor Jeyms Berbedj turardi. 1576-yilda Berbedj Londonning shimoliy qismida, Temza daryosi sohilida birinchi doimiy teatr binosini quradi.

1577-yilda Kurtina teatri qad koʻtaradi, shundan soʻng shaharning janubiy qismida yana uchta teatr qad koʻtaradi. Teatrlarning dekorasiya va jihozlari ham juda oddiy edi. Idishga oʻrnatilgan daraxt - oʻrmonzorni, stakan turgan stol-mayxonani, qora gilam-kechani, oq gilam-kunduzni bildirgan.

XVI asrning ikkinchi yarmida «universitet bilimdonlari» deb atalmish qator dramaturglar yetishib chiqib, ular uygʻonish davri teatrlarini yangi bosqichga koʻtarishga ulkan hissa qoʻshdilar. Bular Shekspirning zamondoshiari: Jon Lili, Kristofer Marlo, Robert Grin, Tomas Kid va boshqalardir.

Jon Lili (1553-1606) dramaturgiyada «tuban va yuqori» komediya janriga asos solgan yozuvchi boʻlib, uning dastlabki asari «Evfues yoki donolik anatomiyasi» (1579) romanidir. Asar qahramoni afinalik yengiltak yigit Evfues doʻsti Filavit bilan aristokratiya muhitida juda koʻp sevgi sarguzashtlarini boshlaridan kechiradilar. Dramaturg sifatida Jon Lili koʻproq mifologik mavzuda va nafis ishiangan pastorallar tipidagi «Oydagi ayol» (1584), «Endimion» (1588) komediyalarida allegorik obrazlarda saroy hayoti va sevgi intrigalarini aks ettiradi. Lili ijodining oʻziga xos tomoni shundaki, ingliz dramaturgiyasi uchun yangilik u tomoshabinda qattiq kulgu emas, balki yengil tabassum qoʻzgʻashni koʻzlaydi.

Kristofer Marlo-oʻz asarlarida romantik va realistik xususiyatlarni mujassamlashtirgan yangi tipdagi teatrning yaratilishiga salmoqli ulush qoʻshgan ingliz dramaturglaridan biridir. 1564-1593 yillarda yashab ijod etgan, oddiy tabaqaga mansub boʻlgan bu yozuvchi qudratli va kuchli ehtirosli shaxslar obrazini yaratib gumanistik tragediyaning rivojlanishiga zamin yaratadi. Uning qahramonlari maqsadga erishish uchun intiluvchi va jamiyat axloq normalarini tan olmaydigan qattiqqoʻl kishilardir. «Ulugʻ Temur» (1587-88), «Doktor Faustning fojiali taqdiri» (1588-89), «Malta yahudiysi» (1592) tragediyalarining qahramonlari shu tipdagi shaxslardir. XIV asr sharq jahongiri Temur oʻz hukmini oʻtkazish niyatida koʻp yerlarni bosib oladi, shaharlarni vayron qiladi. Marlo Temurni faqat oʻz kuchiga ishongan, har qanday toʻsiqlarni yengib oʻtadigan, zabardast qudratli, shubratparast shaxs va individualizmning inʼikosi sifatida tasvirlaydi. Tragediya qahramoni tarixiy Temurdan farq qiladi. Marloning ikkinchi asari «Doktor Faustning fojiali tarixi» tragediyasida nemis xalq kitobida mujassamlashgan jasur olim Faust haqida dramaturg «billmning oltin tuftalarini egallash uchun» jonini shayton Mefistofelga sotgan kuchli, shijoatli olimni tasvirlaydi. Faust hech kimning qurbi yetmagan ishni bajarishga intiluvchi yangi tipdagi olim, titan shaxs, Uygʻonish davrining haqiqiy kishisidir. Faustga-bilim, dunyoga hukmron boʻlishga intilgan Temurga - qurol, savdogar Varvaraga esa-oltin kerak. (Malta yahudiysi). Marlo 1593-yilda 30 yoshida qora guruh aʼzolari tomonidan vahshiylarcha oʻldiriladi.

Robert Grin-yozuvchi va dramaturg 1558-1592 yillarda yashab ijod etgan. Bilim doirasi keng kishi boʻlib, turli janrlarda: poema, roman, drama asarlari yaratdi, xalq dramasi janriga asos soldi. Hikoyalari esa pastoral (choʻponlik) adabiyotiga xos sevgi intrigalarini aks ettiradi. Uning bizgacha yetib kelgan 6 ta pyesasida romantik motiv, qahramonlik, jasorat va doʻstlik olqishlanib, saroy urf-odatlarini masxara qilinadi. Muallifning uslubiy sifatleri uning «Alfons», «Dargʻazab Roland», «London uchun koʻzgu», «Monax Bekon va monax Bengey tarixi», «Yakob IV» va nihoyat

afsonaviy qahramon «Robin Gud» haqida xalq balladalarida asosida yaratilgan «Jorj Grin-Vekfild dala qorovuli» (1592) tragediyalarida yorqin ifodalangan.

VILYAM SHEKSPIR HAYOTI VA IJODI (1564-1616)

Ulug' shoir va dramaturgning tarjimai holiga doir ma'lumotlar juda kam saqlangan bo'lib, uning hayoti va adabiy faoliyatiga oid materiallar zamondoshlarining bergan baholari hamda xotiralari asosida yig'ilgan va to'ldirilgan.

Vilyam Shekspir 1564-yilning 23-aprelida Markaziy Angliyaning Stretford shaharchasida tug'ildi. U oiladagi 8 farzandning uchinchisi edi. Otasi Jon Shekspir charm qo'lgop tayyorlovchi hunarmand bo'lib, savdo bilan ham shug'ullanadi, katta obro' orttirib, shahar kengashiga saylanadi va shahar boshlig'i vazifasida ishlaydi.

Stretford Evon daryosi sohilida joylashgan bo'lib, Birmingemdan Oksford va Londonga boruvchilar bu shaharchaga tushib o'tar edilar.

Stretfordga aktyorlar truppasi ham kelib, turli tomoshalar ko'rsatib turar edi, bu voqea shahar madaniy hayotiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Shekspirning teatrga qiziqishi ham shu yerda uyg'onadi.

Vilyam dastlab mahalliy «Grammatika maktabi» da o'qiydi. U yerda asosan lotin tili o'rgatilib, sxolastik logika va ritorikadan qisqacha tushuncha berilar edi. U ayniqsa, Rim shoiri Ovidiy asarlarini qiziqib mutola qiladi, lekin ko'p o'qiy olmaydi. Otasining ishi muvaffaqiyatsizlikka uchrab, kambag'allashib qolgach, hali 16 yoshga to'lmagan Vilyam o'qishni tashlab ishga kiradi. 18 yoshida u Anna Xetuey degan fermer qiziga uylanib, Syuzen ismli qiz, Judit va Xemnet ismli qiz- o'g'il egizaklar ko'radi. O'g'li Xemnet 11 yoshida vafot etadi.

Shekspir ijodi va hayotini o'rganuvchilar uning biografiyasida 1585-1592 yillar, ya'ni 7 yillik hayoti haqida hech qanday ma'lumotlar yo'qligini aytishadi. Tadqiqotchilar bu yillarni "yo'qotilgan yillar" deb ataydilar va bu yillarda Shekspirning hayoti qanday kechganligi haqida turli xil fikr va qarashlarni ilgari suradilar. Ammo bu qarashlarning birortasi ham faktlar bilan o'z tasdig'ini topgan emas.

Stretford Shekspirning katta talab va ehtiyojlarini qondira olmasdi. U 1587-yilda Londonga boradi va teatrga xizmatga kiradi. Avval sufliyor yordamchisi, so'nga aktyor, keyinroq rejissyor, hatto teatni boshqarishda direktor bilan hamkorlik qilgani ham ma'lum. Shekspirning teatr uchun badiiy asarlarni 1592-yillardan yoza boshlanganligini olimlar tasdiqlaydilar.

Shekspir haqida gap ketganda ingliz teatri haqida ham gapirmaslikning iloji yo'q. Angliya teatr san'ati bugungi kunda ham o'zining eng yaxshi an'analari bilan jahon teatrlarini boyitishga xizmat qilmoqda. Angliya teatri tarixi o'rta asrlarda (V-XI asrlar) Yevropa bo'ylab kezbir yurgan xalq qiziqchilari - gistrionlarlarning tomoshalari, cherkov ritualaridan boshlanadi. XI-XV asrlarga kelib fransuzlar ta'sirida o'rta asr teatr tomoshalari - mirakl, misteriya, XIV-XVI asrlarda esa moralite, fars kabilar yuzaga keldi

Ingliz teatri Uyg'onish davriga kelib dunyoviy xarakter kasb etdi. Angliyada teatr haqiqiy xalq san'ati bo'lib, u hamma uchun ochiq bo'lgan. Teatr gazeta va klub vazifasini ham bajargan. Professional aktyorlar truppalari ham shu davrda yuzaga

kelgan. XVI asr oxirlarida Londonda 20 ga yaqin teatr bo'lib, ulardan eng muhimlari Jeyms Berbedj va Filip Xenslo teatrlari edi.

Teatr taraqqiyotiga nisbatan asosiy qarshilik puritanlar tomonidan bo'lgan, ular teatni «shaytonning ishi», pyesa yozib uni sahnada ijro etishni esa gunoh deb bilganlar. Puritan mazhabidagi ruhoniylar ta'sirida teatni ta'qib etish kuchaygan. Truppalar shahar hokimliklari tomonidan uysiz daydilar singari ta'qib qilingan. Ularga mavjud tartiblarga rahna soluvchilar sifatida qaralgan.

Keyinchalk birinchilardan bo'lib 1574-yilda graf Leyster homiyligidagi teatr truppasi qirollik patentini qo'lga kiritdi. Londonda birinchi teatr binosi 1576-yilda, mashhur «Globus» teatri 1612-yilda quriladi. Qirolicha Yelizaveta davrida Jon Lili, Robert Grin, Kristofer Marlo, Ben Jonson, Vebster kabi iste'dodli dramaturglar original asarlar yaratdilar. Ammo bu ijodkorlarning nomlari Shekspir ijodining soyasida qolib ketadi. Uyg'onish davrining yirik dramaturgi Vilyam Shekspir inson shaxsiyati, uning his-tuyg'ulari va ehtiroslarining mahoratli tasvirchisi sifatida jahon adabiyoti va teatri tarixida muhim o'rin egalladi.

1642-yilda hokimiyatga puritanlar kelishi bilan Angliya parlamenti barcha tomoshalarni man qildi, aktyorlarni jinoyatchi sifatida hibsga olish buyurildi. Puritan ruhoniylari teatrlar to'la, lekin cherkovlar bo'm-bo'sh deya nolidilar. Ular XVII asr ingliz teatrlarini aristokratlar uchun xizmat qiluvchi, oddiy xalqni to'g'ri yo'ldan ozdiruvchi san'at deb bildilar.

Styuartlar dinastiyasi 1660-yilda hokimiyatga qaytishi bilan yana teatrlar ochildi. Fransuz klassisizm teatri Angliyada ommalashmadi. Bunga sabablardan biri Shekspir teatri nufuzi edi. Ma'lumki, Shekspir o'z asarlari bilan antik dramaturgiya namunalarini ortda qoldirdi.

Shekspir teatrdagi faoliyati davomida dastlab boshqa avtorlarning pyesalarini qayta ishlab, ularni yangi mazmun bilan boyitadi («Adashishlar komediyasi», «Qiyiq qizning quyilishi», «Har narsaning meyor bor»). Shu bilan hirga uning o'zi ham qalam tebrata boshlaydi va tez vaqt ichida u dramaturg sifatida nom chiqaradi. 1594-yildan boshlab uning pyesalari "Lord Chamberlen xizmatkorlari" teatr truppasidan qo'yilgan bo'lib, Shekspirning o'zi ham shu truppa ishlagan. 1603-yilda qirolicha Yelizavetta vafot etgach ushbu truppa yangi qirol Yakov I tomonidan patent olib "Qirol xizmatkorlari" nomi bilan ataladi.

Shekspirning bu davrdagi faoliyati juda muvaffaqiyatli kechib, uning moddiy ahvoli yaxshilangani, 1597-yilda Stretforddagi eng qimmat uylardan bo'lgan Nyu-Pleysdan uy sotib oladi. Temza daryosi bo'yida esa Globus teatri quriladi.

Aktyorlar orasidan chiqib katta obro' orttira boshlagan bu yangi dramaturgni ayrim yozuvchilar ko'rolmaydilar. Masalan, Shekspirning zamondoshi dramaturg Robert Grin uni past tabaqadan chiqib, bizning patlarimizga o'ralib olgan «qarg'a», o'zini «sahnani birdan-bir larzaga keltiruvchiman» deb tasavvur qiladigan «ustabilarmon» kishi deb kinoya qiladi. Shekspirning dramaturgiya sohasidagi ijodi ko'p qirrali va ta'sirchan edi. Shu sababli uning xasadgo'yilari ko'p bo'lishi tabiiy edi. 1598 yildan boshlab Shekspirning nomi asarlar nashrining tituli varag'ida yozila boshlaydi.

Shekspir 90-yillarning boshida teatr shinavandalari bo'lmish aristokratlar to'garagi va graf Sautgempton bilan yaqinlashadi va «san'at homiysi» yosh grafga o'zining ikki poemasi «Venera va Adonis» hamda «Lukresiya» ni bag'ishlaydi.

Shekspir 1599-yilda boshqa ko'p teatrdoshlari bilan birga yangi ochilgan «Globus» teatriga ishga o'tadi va u yerda paychi bo'lib xizmat qiladi. Bu davrda «Globus» teatriga Jeyms Berbej, Vilyam Kemp kabi talantli aktyorlar yig'ilgan bo'lib, teatrning obro'yi baland edi. Bu esa teatrning iqtisodiy jihatdan o'zini o'nglab olishiga imkon herdi. Natijada Shekspirning ham moddiy ahvoli yaxshilana boshladi. Shekspir ijodining eng gullagan davri uning o'sha teatrdagi ishlagan yillariga to'g'ri keladi.

Ulug' dramaturg 1612-yilda Londondan o'z tug'ilgan shahri Stretfordga ko'chib ketadi va bundan so'ng butunlay ijod bilan shug'ullanmaydi.

Yakob I hukmronligi davrida feodal reaksiyasining kuchayib, teatrlarning mufloq saroy ta'siriga tushib qolishi, aristokratik ruhdagi dramaturgiya ustunlik qilib, realistik xalqchil repertuarlarning siqib chiqarilishi Shekspirning yozmay qo'yishiga sabab bo'lgan, deb tushunish to'la asoslidir.

Shekspirning tarjimai holiga oid ma'lumotlarning yetarli emasligi natijasida uning avtorligiga shubha soladigan soxta farazlar kelib chiqadi. Ulug' yozuvchining ijodini o'z zamonasi va undan keyingi yillarda yashagan kishilar inkor qilmaydilar. Masalan, dramaturg va shoir Ben Jonson Shekspir xotirasiga bag'ishlangan she'rlarda uni «o'z asrining yuragi» deb baholaydi. Gamlet rolini ijro etgan, XVII asrning oxirlarida yozuvchining ijodiga doir materiallar to'plagan mashhur aktyor Tomas Betterton, shuningdek, Shekspirning birinchi biografi Nikolas Rou ham uning muallifligiga shubha qilmaydilar. Faqat XVIII asr oxiridagina g'arbda «Shekspirchilik masalasi» deb atalgan masala kelib chiqadi. 1772-yilda Gerbert Lorens Shekspir nomidagi pyesalarni filosof Frensis Bekon yozgan degan fikrni aytadi. 1857-yilda amerikalik Dejiya Bekon Shekspir haqida kitob yozib, unda Shekspir qalamiga mansub bo'lgan asarlarni filosof Frensis Bekon boshliq maxfiy to'garak a'zolari ijod qilgan, chunki Shekspir pyesalarida go'yo aniq individual uslub yo'q deb isbotlashga urinadi.

Karl Bleybtrey (1907) ulug' dramaturgning pyesalarini graf Retlendniki deb ataydi. Belgiyalik jurnalist Damblen (1918) «Retlend nazariyasi» ni quvvatlab chiqadi. Shekspir asarlarini feodal zodagonlarning turli vakillari (faylasuf Bekon, graf Retlend, graf Derbi) tomonidan yaratilgan, degan fikrlar mutloq asossizdir, deydi. Shekspirni quyi tabaqadan kelib chiqqan, universitet ta'limini olmagan, shuning uchun u shunday asarlar yozishi mumkin emas, deb qarash oddiy kishilar orasidan yetishgan ulug' kishilarning ijodiy kuchiga ishonmaslik va titanlar yaratgan Uyg'omish davrining haqiqiy mohiyatini tushunmaslik oqibatidir. Shekspir Londonda antik san'at va adabiyot bilan tanishadi, zamonasi adabiy muhitiga kirib, chuqur mutolaa qilish yo'll bilan o'z bilim doirasini kengaytiradi. Turmushning o'zi uning uchun bilim manbai bo'ladi.

Shekspirning adabiy faoliyati uch davrga bo'linadi. Hammasi bo'lib u ikki poema, 154 sonet va 37 pyesa yaratadi. Ijodining birinchi davrida (1590-1601) Shekspir poema va sonetlaridan tashqari, uyg'onish davrining xarakterini aks ettirgan xushchaqchaq komediyalar: «Adashishlar komediyasi», «Qiyiq qizning quyilishi»,

«Veronalik ikki yigit», «Sevgining behuda kuchayishi», «Yoz kechasidagi tush», «Vindzorlik masxaraboz ayollar», «Yo'q narsadan hir talay g'avg'o», «Bu sizga yo'qadimi?», «O'n ikkinchi kecha», «Angliyaning o'tmishidan olingan xronikalar» deb nomlangan tarixiy dramalar: «Genrix VI», «Richard III», «Genrix IV», «Qirol Ioann», «Richard II», «Genrix V»; nihoyat, «Romeo va Julyetta» hamda «Yuliy Sezar» nomli ikki mashhur tragediyasini yozdi.

Ijodining ikkinchi davri (1601-1608) Shekspir dramatik faoliyatining yanada rivojlanishi bilan ajralib turadi. O'rta asr feodal zulmiga va boshqa har qanday yovuzliklarga qarshi kurash ruhi bilan yongan yozuvchi rivojlanib borayotgan kapitalistik sharoit ham kishilarning ezgu orzu-umidlarini ro'yobga chiqarmayotganini ko'radi va tug'ilib kelayotgan burjua munosabatlarga tanqidiy qaray boshlaydi. Bu davrda yozuvchi buyuk gumanistik g'oyalar va davr fojialarini aks ettirgan «Gamlet», «Qirol Lir», «Otello», «Makbet», «Antoniy va Kleopatra», «Koriolan», «Afinalik Timon» tragediyalarini yaratdi.

Ijodining uchinchi davrida (1608-1612) dramaturg tragikomediyalar «Simbelin», «Qishki ertak», «Bo'ron» asarlarini ijod qiladi. Bu davrdagi ijodining muhim xususiyati shundaki, Shekspir turmush ziddiyatlarini optimistik ruhda yechishga intilib, ko'proq romantik ertak syujetlariga murojaat qiladi. Masalan, «Bo'ron» asari insonning kelajak taqdiriga ishonch bilan qaragan yozuvchining ajoyib hayollari mevasidir.

Shekspirning adabiy faoliyati «Venera va Adonis», «Lukresiya» poemalari va qator sonetlar yozishdan boshlangan. Har ikki poemaning syujeti antik davr tarixi va mifologiyasidan olingan bo'lsada, ularda uyg'onish davri ruhi aks etgan.

Bu ikki poemadan tashqari, Shekspir 1609-yilda 154 sonetdan iborat to'plamni nashr ettirdi. Uning ilk sonetlarida Itallya Uyg'onish davri poeziyasining dastlabki vakili Petrarkaning ta'siri ko'rinsa ham, lekin Shekspir ijodiy evolyusiyasi davomida bu janrni shartli belgilari doirasini yorib chiqib, sonetlarini yangi mazmun bilan hoyitdi. Shekspir sonetlari zamondosh Renessans shoirlari Sidney va Spenser sonetlaridan farq qiladi. Chunki ularning lirik ijodida umumlashtiruvchi holat yo'q edi. Shekspirning lirik qahramoni o'ziga xos xususiyatlari bilan namoyon bo'luvchi takrorlanmas hayotiy obrazlardir. Shoir Uyg'onish davri kishilarning asosiy xususiyatlari sevgi, do'stlik, ularning xushchaqchaq hayotga intilishi, fikr va his-tuyg'ularini aks ettiradi.

Shekspirning o'ziga xos ifoda usullari bor. Shoir o'z she'rlarida simvollar ham foydalanadi. U yoshlikni bahor yoki tongga o'xshatadi, go'zallik ajoyib gullarga taqqoslanadi, odamning qaytishi kuzga, qarishi qishga o'xshatiladi; yigitning chiroyida yoz lato'fatini mujassamlanadi.

Shekspirning haqiqiy insoniy his-tuyg'ulari ifodalangan sonetlari ingliz adabiyotida lirik poeziyaning yangi gumanistik rivojlanish yo'lini belgilab berdi.

XVI asr oxirlarida Angliyada absolyut hokimiyatning tushkunlikka uchrashi tasodifiy hol emas edi, chunki u jamiyat ishlab chiqarish munosabatlarining bundan so'nggi rivojlanishiga to'siq bo'lib qoladi, qirollik hukumati bilan parlament o'rtasida ziddiyatlar vujudga keladi. XVII asrning boshlarida yangi Yelizavetaning hukmronligi tugab, Yakob Styuart taxtga chiqqan (1603) va feodal reaksiyaga kuchaygan qirol bilan burjuaziya o'rtasidagi qarama-qarshilik jiddiy tus oladi. Bu

yillarda keng xalq ommasi dehqon va hunarmandlarning ahvoli yana ham og'irlashadi.

Shekspir ijodida yuz hergan katta o'zgarishiarni ifodalagan yirik asari «Gamlet» (1601) tragediyasidir.

Tragediyaning bosh qahramoni Daniya qirolining o'g'li shahzoda Gamletdir. Otasining munofiqlona o'ldirilishidan ko'p o'tmay, onasining motam kuni «oyoqqa kiygan boshmog'i» to'zimasidanoq otasi taxtini egallagan Klavdiyga tegib ketishi Gamletni cheksiz azob girdobiga tashlaydi. Uning ko'ziga butun dunyo «to'ng, bema'ni va to'mtoq» ko'rinadi.

Ijtimoiy turmushni dinamik ravishda tasvirlashga asos solib, tragediya janrini yangi bosqichga ko'targan Shekspirning estetik qarashlari ochiq oydindir. U Gamletning nutqi orqali hamma davrda dramatik san'atning asosiy vazifasi, «tabiatning ro'parasiga oyna tutish, sharofatga ham, qabohatga ham ularning chin basharalarini ko'rsatish, tarixdagi har bir zamonning yuzini bo'yoqsiz qillib namoyon qilishdan iborat» ekanini haqqoniy ifodalab beradi. Gamlet obrazida yozuvchi inson, uning idroki, yaratuvchilik kuchi haqidagi qarashlari mujassamlashgan. Gamlet inson aqlining eskilik ustidan tantanasini aks ettirgan Uyg'onish davrining haqiqiy timsolidir.

Shekspir ijodining uchinchi davrida (1608-1612 yillar) katta o'zgarishlar yuz beradi. Yakob I ning feodal reaksiyasi kuchaygan vaqtda Uyg'onish davri gumanistik g'oyalarini amalga oshirish haqidagi illyuziya zarbaga uchraydi. Teatr o'yinlari qirollikning nazorati ostiga olindi. Endi fojiviy, kishini hayajonga soluvchi, katta ijtimoiy-siyosiy voqealar aks ettirilgan tragediyalar emas, balki tomoshabinga yengil ta'sir etadigan tragikomik xarakterdagi pyesalar yaratila boshlaydi. Lekin shunday vaqtda ham, ulug' dramaturg o'zining gumanistik g'oyalariga sodiq qoladi. Garchi asarlarning oxiri yaxshilik bilan murosa qilmasada, u teskari kuchlarning fe'latvorlarini qoralovchi pyesalar yozishni davom ettiradi.

Shekspir ijodining shu davrdagi muhim xususiyatlari uning tragikomediyalar tipidagi «Qishki ertak», «Simbelin», «Bo'ron» pyesalarida yaxshi aks etgan. Shekspir bu janrni yuzaki qabul qilgan bo'lsa ham, lekin unga chuqur insonparvarlik g'oyalarini kiritdi. Uning bu turdagi asarlarida real voqealar xayoliy ertaklar bilan qo'shilib ketadi va ularda kishining yaxshi fazilatlarini yomon ehtirosalar ustidan g'alaba qozonadi.

Badiiy adabiyotning kino san'ati taraqqiyotiga ta'siri xususida so'z yuritilar ekan, Shekspir asarlari aynan kino ekrani uchun yaratilgandek tasavvur uyg'otadi. Buyuk dramaturgning «Butun dunyo – teatr» iborasida aks etgan ommani hayratga solish istagi uni kino san'ati bilan yanada yaqinlashtiradi.

Kinoning rasman san'at maqomini olishi manbalarda 1895-yilning dekabrda yuz berdi deb ko'rsatilsa, 1898-yildayoq Shekspir asarlari ekranlashtirila boshiadi. Lekin 1920-yilgacha yaratilgan bu filmlarning barchasi ovozsiz bo'lgan. Eng avangard yondashuv namunasi sifatida daniyalik aktrisa Asta Nilsenning «Gamlet» (1920) filmida Gamlet erkakcha kiyingan ayol sifatida talqin etilib, unda Gamlet va Ofeliyaning Gorasioga bo'lgan sevgisi uchun kurashi tasvirlangan. 1927-yilda ovozli kino yuzaga keladi, ingliz tilida birinchi ovozli filmlar «talkies» deb atalgan. XX asrning 30-yillarida esa Angliyada teatr aktyori Lourens Olivye tomonidan juda ko'p

Shekspir asarlari ekranlashtirilgan. Ingliz dramaturgi Charlz Bennet yosh aktyor Olivyaning Shekspir matnlarini o'z fikrlaridek o'qishini e'tirof etgan. «Gamlet», «Genrix V», «Richard III», «Otello» filmlari L.Olivye tomonidan ekranlashtirilgan, uning o'zi Sheylok, Qirol Lir, Otello obrazlarini yaratgan.

Bu davrga kelib Shekspir asarlarining munozaralarga sabab bo'lgan ekran variantlari ham yuzaga keladi. An'analarga qarshi chiquvchi shunday novator rejissyorlardan biri amerikalik Orson Uells edi. Uells Shekspirning «Makbet» va «Otello» targediyalarini ekranlashtiradi, «Yarim tun qo'ng'iroqlari» filmida esa «Richard II», «Genrix IV», «Vindzorlik masxaraboz ayollar», «Genrix V» asarlaridagi bir qancha epizodlarni omuxta qilishga erishadi. Natijada film ham dramatik, ham komik xarakter kasb etadi. Unda jahon kimosi yulduzlari Janna Moro, Margaret Rezerford, Jon Gilgud, Marina Vladi, Fernando Reyrol rol ijro etganlar.Orson Uells mumtoz adabiyotga ijodiy yondashish ayrim hollarda kutilmagan, lekin ijobiy natijalarga ham olib kelishini o'zining «Shekspir va an'ana» (1957) maqolasida Shekspir dahosini qanday anglashi misolida bayon qiladi. Uning fikricha «... barcha ta'kidlaydigan «shekspirona an'ana» aslida afsona emas, dogmadan iborat.... Aslida buyuk aktyor antik davr ma'budlari kabi o'zining yaratuvchisini o'ldirishi lozim»

Shekspirning eng ko'p ekranlashtirilgan filmi «Romeo va Julyetta»dir. Ayniqsa, Italiyada (asar voqealari shu yerda yuz bergani uchunmi?) bu asarga ko'p bora murojaat etilgan. Ammo «Romeo va Julyetta» filmining akademik versiyasini 1957-yilda Renato Kastellani yaratadi. Gollivudda esa bu pyesa asosida rejissyor Robert Uayz «Vestsayd voqeasi» filmini suratga oladi. Bu myuzikl XX asr 60-yillarida eng kassabop filmlardan biri bo'lgan.

XXI asrga kelib esa rejissyor Lyusiya Murat suratga olgan «Romeo va Julyetta»ning yangi talqindagi voqealari Meksikada yuz beradi. Lotin Amerikasida bestsellerga aylangan bu film undan tashqaridagi kinotomoshabinlar orasida mashhur emas. Shekspirning ushbu pyesasi asosida animasion filmlar ham yaratilgan bo'lib, 2007-yil Yaponiyada yaratilgan «Romio va Yuryetta» nomli serial, «Gnomeo bilan Julyetta» multfilmi bunga misol bo'la oladi.

Shekspirning «Qirol Lir» tragediyasining eng qiziqarli talqinini yapon rejissyori Akira Kurosava yaratgan. «Ran» (1985) nomli kartinasida Kurosava tragediyaning teatrda uslubda talqin qiladi. Shekspir asarlariga xos bo'lgan shartli konstruksiyalar turli kolliziyalarni samuraylar dunyosiga ko'chirish va «Busido» deb ataluvchi axloq kodiga asoslangan munosabatlarni aks ettirish uchun juda qulay edi. Kurosavaning «Makbet» asosida «Qonga botgan taxt» (1957) va «Qirol Lir» asosida «Ran» filmlari Shekspir asarlarini ekranlashtirish tarixida muhim o'rin tutib, hozir ham kino va televideniye ekranlarida namoyish etib kelinmoqda.

Yuqorida nomlari keltirilgan filmlar asosan adabiy asosga tayanilganligi bilan e'tiborimizni tortadi. Ainno paradoks shundaki, kino san'atida badiiy asarning asl nusxasini buzish, unga dolzarblik, bugungi kun ruhini baxsh etishga urinish tendensiyasi hanuz saqlamb qolmoqda. Bunday kinoasarlarga «Gamlet» fojiasi ikki qahramonining XX asrga kelib qolish voqealarini tasvirlagan «Rozenkrats va Gildestern o'ldi»(1990) nomli filmni misol qilib keltirish mumkin. XX asr oxiri XXI asr boshlarida yana Shekspir asarlariga murojaat qilish kuchayib, rejissor Kennet Bran o'zining «Genrix V» (1989), «Yo'q narsadan bir talay g'avg'o» (1993), «Qish

ertagi”, “Gamlet” (1996), “Sevgining behuda zo‘rayishi” (2000), “Bu sizga yoqadimi?” (2006) filmlari bilan Lourens Olivye an‘anasini davom ettirdi deyish mumkin.

Aynan ekranda Shekspir asarlari global ommaviy madaniyatning tarkibiy qismiga aylanib, jahon miqyosidagi auditoriyaga ega bo‘ldi. Yangi texnologiyalar tufayli esa ekran san‘atining turli shakl va usullari kashf qilinmoqda, hatto Shekspir sonetlari asosida ham qisqa metrajli filmlar yaratilmoqda. Internetdagi jahon kinosiga oid ma‘lumotlar bazasida Shekspir asarlarining 1288 varianti mavjudligi, ularning so‘nggi 27 tasi hali ekran yuzini ko‘rmaganligi haqida faktlar keltiriladi. Rejalashtirilgan loyihalar ichida eng kutilmagani bu Shekspirning eng mashhur asarlari asosidagi videoo‘ymalar turkumini yaratilishdir. Shekspir ijodiga hali ko‘p bora murojaat etilishi shubhasiz. O‘zbek kinoijodkorlari ham yaqin kelajakda buyuk dramaturg ijodiga murojaat etishlari, uning zamonaviy yoki o‘zbekona talqinini yaratishlari ehtimoldan xoli emas. Demak, Shekspirning nafaqat kimodagi o‘tmishi, balki kelajagi ham porloq bo‘lishi muqarrar.

ISPANIYA UYG‘ONISH DAVRI ADABIYOTI MIGEL DE SERVANTES IJODI (1547-1616)

Ispan Uyg‘onish davri adabiyotining yirik vakili Migel de Servantes Saavedra 1547-yilning 29-sentabrda Ispaniyaning Alkala de Enares shaharchasida tug‘iladi. Otasi Saavedra tabiblik bilan kun kechiradi. Oilani boqish maqsadida otasi qishloqqa-qishloq yurib tabiblik qiladi. Shoir 1557-1561 yillarda iyezuitlar maktabida o‘qiydi. 1561-yil oilasi Madridga ko‘chib ketgach o‘qishni o‘sha joyda davom ettiradi. Filipp I ning xotini malika Izabella vafotiga bag‘ishlangan sonetlari yosh Servantesning poeziya sohasidagi dastlabki she‘lari edi. 1569-yilda Servantes Rimga borib papaning vakili Akvavia huzurida ishlaydi. 1570-yilning ikkinchi yarmida Italiyada joylashgan ispan qo‘shiniga xizmatga kiradi, chunki muhtojlik uni o‘z vatanini tashlab ketishga majbur etadi. 1571-yil 7-oktabrda Lepanto ko‘rfazi yaqinida turklar bilan bo‘lgan shiddatli dengiz jangida qatnashadi va uch yeridan yaralanadi. 1572-yil aprel oyigacha Messina gospitalida davolanadi. 1574-yilning oxirigacha xizmatda bo‘lib, 1575-yil harbiy xizmatdan bo‘shab ukasi Rodrigo bilan o‘z vataniga jo‘naydi. 1575-yilning sentabr oyida yo‘lda qaroqchilar Servantesni va ukasini asir qilib Jazoirga olib ketadilar. Ota-onasi bor-yo‘g‘ini sotib, 1580-yilning 19 sentabridagina ozod etadilar.

1584-yilning dekabrda Servantes mayda dvoryan oilasidan chiqqan Katalina ismli qizga uylanadi. Otasi o‘lgach (1585) ro‘zg‘or terbatish maqsadida turli moliya-xo‘jalik ishlari bilan shug‘uilanishga majbur bo‘ladi. Servantesning «Don Kixot» romani ustida ish boshlashi hayotining shu og‘ir va mashaqqatli davriga to‘g‘ri keladi. 1605-yili romanning birinchi qismini nashr etiladi, so‘ngra 14 hikoyani o‘z ichiga olgan «Ibratli novellalar» to‘plami 1623-yil, adabiy satira «Parnasga sayohat» 1614-yil poemasi bosiladi. 1615 yilda «Don Kixot» ning ikkinchi qismi bosilib chiqadi. Shu yili uning «Sakkiz komediya va sakkiz intermediya» nomli pyesalari to‘plami ham yuzaga keldi. Servantesning so‘nggi asari «Persiles va Sigizmunda sayohati» romani yozuvchining o‘limidan so‘ng nashr qilinadi.

«Don Kixot» romanining yaratilishi ispan madaniy hayotida juda katta voqea bo‘ladi. Asarning muqaddimasida Servantes ritsar romanlarini sidirg‘asiga fosh etish va ularning qulay deb turgan istehkomini ag‘darishni asosiy g‘oyaviy maqsad qilib qo‘yadi. «Don Kixot» garchi o‘rta asr ritsar romanlariga parodiya sifatida yaratilsa ham, lekin uning mazmuni nihoyat keng bo‘lib, butun feodal jamiyati va uning urf-odatlariga qaqshatqich zarba bergan ochiq satiraga aylandi.

Asrning bosh qahramoni Lamansh qishlog‘ida istiqomat qiluvchi kam yerlik, yoshi elliklarga yaqinlashib qolgan baland bo‘yli, baqquvat, lekin ozg‘in, ovni yaxshi ko‘radigan bir kambag‘al dvoryan bo‘lib, familiyasi Kexona edi. Bu dvoryan ritsar romanlarini shunday berilib o‘qiy boshlaydiki, natijada ovchilikka ham o‘z xo‘jaliga ham qaramay qo‘yadi. Yerning ko‘p qismini sotib uning puliga roman sotib oladi va uxlusiz mutolaaga berilib ketadi. Erta-yu kech kitobdan bosh ko‘tarmagan va uxlamagan uchun miyasi aynib qoladi. Uning ko‘z oldidan ritsar romanlarida o‘qigan jodugarlar, devlar, jahongashta ritsarlar o‘ta boshlaydi. Uning uchun xayoliy narsalar haqiqatdek ko‘rinadi, haqiqat esa o‘z ma‘nosini yo‘qotadi.

Uning qalbida ham ritsar bo‘lish va ularga o‘xshab adolatsizliklarga qarshi kurashish orzusi tug‘iladi. U ritsar romanlaridagi qoidalariga amal qilib darhol ishga kirishadi: ota-bobosidan qolgan temir-tersaklar ichidan qurol-yarog‘larni ajratib tuzatadi. Temir qalpoq ham topadi, so‘ngra u oriq oqsoq otini ko‘zdan kechiradi. Otga ritsar romanlarida bo‘lgani kabi jarangdor, dabdabali Rosinant degan nom qo‘yadi. O‘ziga esa bir hafta o‘ylab nihoyat «Don Kixot» degan jarangdor ism qo‘yadi. O‘tmish ritsarlariga o‘xshash endi o‘zining qaysi joydan chiqqanini ko‘rsatadigan alomat ham bo‘lishi kerak edi. U o‘z qishlog‘ining nomini ham qo‘shib Lamanchlik Don Kixot deb atashga qaror qiladi. Jahongashta risarning albatta sevgisi va sevgilisi bo‘lishi kerak. U Tobosso qishlog‘ilik cho‘chqaboqar qiz Aldonso Loresoni o‘z orzulariga mos jonona deb tanlaydi va unga ham Dulsineya Tobosso deb malikalarga qo‘yiladigan dabdabali nom beradi. Shundan so‘ng Don Kixot sarguzashtlari boshlanadi.

Iyul oyining issiq kunlarining birida Don Kixot jangovar hozirlik ko‘rib yarog‘-aslahalarini taqib, Dulsineyani diliga jo‘qilib «Tulpor» Rosinantga minib birinchi marta safarga jo‘naydi. Biroq eshikdan chiqishi bilan mushkul bir hayol uning fikrini qurshab oladi: hali u ritsarlikka fatvo‘ olmagan, shuning uchun ritsar qoidalari bo‘yicha birorta ritsar bilan jang qilishga haqsiz. U esa yo‘lda birinchi uchragan kishining fatvosi bilan ritsar nomini olmoqchi bo‘ladi. Don Kixot shu kuni kechga tomon yetib borgan joyidan karvonsaroyini hashamatli qasr deb, u yerdagi xotinlarni esa go‘zal malikalalar deb biladi, cho‘chqaboqarning chiqqan hushtak ovozi go‘yo uni kutib olish uchun chalinayotgan kuydek tuyuladi. Don Kixotning dushman bilan dastlabki to‘qnashishi shu karvonsaroy molxonasi yonida ro‘y beradi. «Muqaddas joy» deb bilgan saroyni kechasi bilan uxlamay qo‘riqlab chiqadi. Shu vaqtda molmi sug‘ormoqchi bo‘lib kelgan kishini dushman deb unga qarshi hujum qiladi. Don Kixotdan zarar ko‘rgan molboqar o‘rtoqlarini chaqirib, bu ritsarni toshbo‘ron qiladi. Karvonsaroy egasi Don Kixotning ritsarligiga fatvo‘ berishiga oshiqqanining sababi undan tez qutilish edi. Endi haqiqiy ritsar sifatida yo‘lga chiqqan Don Kixot xo‘jayini kaltaklayotgan podachl bolani qutqarib yuboradi, lekin uning keyingi taqdiri uni qiziqitirmaydi.

Servantesning asar muqaddimasida ritsar romanlarining qulay deb turgan istehkomlarini ag'darishni ta'kidlagan asosiy fikri Don Kixotning birinchi safari tasvirlangan yuqoridagi epizodlardayoq ochiq ko'rinadi. Ritsarlikning halokatli ta'siriga qarshi dadil va uzluksiz kurash olib borish g'oyasi butun voqealar davomida diqqat markazida turadi. Don Kixot kutubxonasini ko'zdan kechirgan do'stlari, jiyani va xizmatchi ayol quruq til bilan yozilgan dag'al va be'mani, zarardan boshqa narsa keltirmaydigan kitoblarni topadilar, ular kitoblarni bir to'da qilib yig'ib kuydirib tashlash kerak, deb hisoblaydilar.

Bu yozuvchining ritsar romanlariga nisbatan kuchli nafratining ifodasi edi. «Don Kixot» keyingi safarga chiqishi oldidan Sancho Panso degan bir sodda dehqonni topib o'ziga yordamchi qilib oladi va bu xizmatlari evaziga uni qo'lga kiritadigan orolaridan biriga gubernator etib tayinlamoqchi bo'ladi.

Don Kixot va Sancho yo'lida ikki monax va ularning xizmatchilariga duch keladi. Ulardan orqaroqda kareta Biskaylik ayol ham ketayotgan edi. Bu yo'lovchilar Don Kixotga «Malika» ni olib qochib ketayotgan jodugar bo'lib ko'rinadi. U xonimni ozod etish uchun hujum qiladi. Sancho-Pansoni esa faqat bir narsa yerga cho'zilish yotgan «yengilgina» kishining narsalarini o'lja qilib olishgina qiziqtiradi. Biroq har ikkala qahramon-ritsar va uning yarog'bordori ham yo'lovchilarning qattiq zarbasiga uchraydi.

Ritsar romanlariga berilib Don Kixotni tentaksimon holatiga tushirsa ham, lekin uning qalbi pok va intilishlari beg'arazdir.

Bu fikrni romandagi bir epizod yaxshi tasdiqlaydi. «Haqoratlangan va mulkdorlar tomonidan tahqirlanganlarni qo'llash uchun qasam ichgan» Don Kixot yo'lida qo'llari kishanlangan mahbuslarga duch kelib, ularni qutqarishga urinadi. Tabiat tomonidan erkin yaratilgan kishilarni qul holiga keltirish adolatsizlik deb ularni bo'shatib yuborishni talab etadi. Biroq soqchilar uning talablarini bajarmaydilar. Bundan g'azablangan Don Kixot hujum qilib otryad boshlig'ini bolsizlantiradi, so'ngra yaxshi qurollangan soqchilarga zarba berib, mahbuslarni kishanlardan qutqaradi. Don Kixot mahbuslarni ozod etgandan keyin, ulardan Toboso qishlog'iga borib malika Dulsineyaga uchrab, bo'lib o'tgan voqeani aytib berib keyin xohlagan tomonlariga ketish mumkinligini aytadi. Afsuski, buning iloji yo'qligini mahbuslar aytadi va Don Kixot bilan ular o'rtasida janjal chiqib toshbo'ron bo'ladi.

Shunisi xarakterliki, Don Kixot ritsarlikdan boshqa har qanday masala haqida hayron qolarli darajada to'g'ri va oqilona fikr yuritadi. U harbiy kishi bilan o'sha zamonning bilimdoni deb ataladigan xizmatchisi o'rtasida katta farq mavjudligini masalan: askar bilan kambag'al talabani taqqoslaganda mashaqqatli turmush kechirishlari jihatidan ular bir-biriga yaqin bo'lib ko'rinsalar ham, lekin harbiy kishining zimmasiga yuklangan vazifa nihoyatda og'irligini biladi. Servantes harbiy san'atning haqiqiy maqsadi va intilish doirasi-tinchlik, tinchlik esa yer yuzidagi hamma eziguliklarning eng oliysidir deb uqtiradi. Don Kixot chin sevgi, xotin-qizlar, kambag'allar, shuningdek poeziya haqida chuqur mulohaza yuritadi.

Go'zal Kiteriya bilan podachi yigit Basilyo bir-birlarini sevadilar, biroq qizning otasi uni boy Kamachoga bermoqchi bo'ladi. Basilyo qanday yo'l bilan bo'lmasin o'z sevganiga yetishishga ahd qiladi. Bu masalada Don Kixot kambag'al yigit Basilyoni yoqlaydi. Nikoh masalasida u qat'iy ahloq prinsipiga rioya qilish

kenkligini uqtiradi. «Xotin tovar emaski, uni sotib olish va so'ngra qayta topshirish va boshqasi bilan ayriboshlash mumkin bo'lsin, xotin ayrilmas yo'ldoshdir». Xotin-qizlar masalasida Don Kixot haqqoniy fikrlar aytadi. Don Kixot Sancho Panso qalbi pok ekanligiga, shuning uchun u har qanday orolga gubernator bo'lsa ham uddasidan chiqqa olishga ishonadi. Don Kixot Sancho Pansoga davlatni davlatni boshqarishda nimalarga e'tibor berish kerakligi haqida maslahat berib xat yozadi. «Sen boshqarayotgan xalqning muhabbatini qozonmoq uchun-deydi u, sen jumladan ikki narsani eshlash darkor: hirinchi sen hamma bilan xushmuomalada bo'lmog'ing kerak, ikkinchidan oziq - ovqat mollarini ko'paytirmoq uchun, g'amxo'rlik qilmoq zarur, chunki kambag'allarning qalbini hech narsa ochlik va qahatchilikdek g'azablantirmaydi».

Servantes ko'rsatganidek «Don Kixot tentakday yashadi, donishmanday o'ldi».

Yozuvchining ko'rsatganiday, «Ularning har ikkovi (Don Kixot va Sancho Panso) go'yo bir qolipda quyilganday, xo'jayinning tentakligi, xizmatkorning laqmaligi bo'lmagan-da sariq chaqaga ham arzimas edi».

Ularning biridagi xislat ikkinchisida yo'q. Shuning uchun ham Sancho Panso Don Kixotdagi be'mani xarakterlarni payqaydi. Baratariya oroliga gubernator etib tayinlangan Sancho Panso «Gubernatorlik lavozimiga men sariq chaqasiz keldim, odatdagi gersoglarning ketishlariga qarama-qarshi o'laroq, undan yana sariq chaqasiz ketayotirman» degan so'zlarida chuqur ma'no bor. Feodal hukmronlariga xos bo'lgan, ta'magirlik, poraxo'rlik, adolatsizlik va boshqa ko'p yaramasliklar unga yot edi. Sancho Panso obrazida Servantes yarog'bardorning hamma eng yaxshi xislatlarini mujaassamlashtirdi. Mazmunsiz ritsar romanlarida yarog'bardorning belgilari juda tarqoq va sayoz tasvirlanar edi.

Don Kixot romanida esa og'ir sinovlarga bardosh bergan Sancho Panso ho'jayinining tentaksimon xarakterlaridan tegishli xulosa chiqarib, unga tanqidiy qaray boshlaydi, o'zi ham gubernatorlik sarobdan boshqa narsa emas ekanligini anglaydi. Sancho so'zamol xalq donoligini ifodalagan oddiy kishi obrazidir.

Bu romandagi ayniqsa Tereso Panso obrazi xarakterlidir. Teresa erining gubernatorlikka intilishi bilan qiziqmaganday, Sancho qizini zodagonga berish haqidagi maslahatiga ham qo'shilmaydi. Uning o'z tengi dehqon yigit bilan turmush qurishini istaydi.

Servantes O'rta asr sharoitida yashagan dehqon ayolning turmushi va orzu-istaklarini real manzaralarda tasvirlab beradi. Baxtli bo'lish boylikda emas, balki tenglik va o'zaro hurmatda deb ko'rsatadi u. Tereso Pansoning o'z qizi taqdiri va baxtli hayoti haqidagi orzulari hayotiy dalillarga asoslangan bo'lib Sancho Pansoning xom xayollariga ziddir.

XVIII asrda yashagan ingliz ma'rifatparvar yozuvchisi Filding Servantes ijodidan ilhomlanib adabiy faoliyatining dastlabki etapida «Don Kixot Angliyada» nomli satirik komediya asarini yozadi. So'ngra u ijodining gullagan darida «Jozef Endryus va uning do'sti Abraam Adamsning sarguzashtlari tarixi» romanini yaratadi. Unda jamiyatni gumanistik asosda qayta qurish haqida Servantes ilgari surgan fikrni himoya qiladi. O'rta asr poeziyasidan o'sib chiqqan va ritsar sarguzashtlari aks ettirilgan romanga pastki tabaqa vakili obrazini kiritish, unda demokratik elementlarni targ'ib qilish bilan Servantes yangi romanchilikka asos soldi.

Romanning xarakterli xususiyati shundaki, yozuvchi har ikki qahramonni avanturizm kasalidan tuzalishga majbur etadi. Shuning uchun asarning oxiri tushkun bo'yoqlardan holidir. Don Kixot Sanchoga xos hayotga real qarashni Sancho esa Don Kixotdagi gumanizmni o'zlashtiradi. Shunday qilib ular xalq istak-orzularini ifodalangan ijobiy qahramonlarga aylandilar. Bu shaxslar tasvirida qancha-qancha kulgu, qayg'u, hayajon, osoyishtalik va achchiq istehzo mavjud.

Buyuk adib Servantesning ijodi o'tgan uch yarim asrdan ortiq vaqt davomida Yevropa progressiv adabiyotida munosib baholandi. Uning realistik metodi, yaratgan obrazlari va ifodalash usuli jahon realistik adabiyotining bundan so'ngi rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi.

MAVZU BO'YICHA LUG'AT:

Renessans- uyg'onish.

Parodiya– biror asar shaklini saqlagan holda, uning mazmuniga iyeteh zoli yoki hazilomuz taqlid etib yozilgan asarlar.

Idalgo - кичик ер эгаси

Mahdudlik – insonni to'g'ri yo'ldan chalg'ituvchi dahshatli sarob. Bu sarob domiga tushganlar esa reallik va xayol dunyosi orasida sarson bo'lguvchi majruhlaridir.

MAVZU BO'YICHA SAVOLLAR:

1. Uyg'onish davrining o'ziga xos bo'lgan xususiyatini yoritib bering.
2. Qaysi asarlarni turkiy xalqlarning uyg'onish davri adabiy nanunasi deb bilasiz?
3. Yevropa Uyg'onish davriga antik dunyoning ta'siri.
4. Dante ijodining o'ziga xosligi nimada ko'rinadi?
5. "Beatriche" Dante ijodining mazmuni ekanligi haqida gapiring.
6. "Ilohiy komediya" Dante ijodining cho'qqisi .
7. "Ilohiy komediya" –o'zbek tilida.
8. "Dekameron" asarining g'oyaviy yo'nalishi haqida gapiring.
9. Jovanni Bokkachcho asarlarining ahamiyati.
10. Shekspir tragediyalari haqida fikr bildiring.
11. Shekspir masalasi nima?
12. Fransua Rable ijodining Uyg'onish davridagi ahamiyati.
13. Servantesning "Don Kixot" romani xususiyatlari.
14. «Gargantuya va Pantagryuel» asarining ahamiyati.
15. Angliyadagi dastlabki gumanistik g'oyalarning shakllanishi qaysi ijodkorlar bilan bog'liq?
16. Drama va teatrning paydo bo'lishiga turtki bo'lgan omillar.
17. Shekspirning Angliya va jahon adabiyotiga qo'shgan hissasi.
18. Uyg'onish davrining inqirozga yuz burish sabablari.
19. Servantesning romanchilik janridagi buyuk xizmatlari.

ADABIYOTLAR :

1. Normatova.SH. Jahon adabiyoti. - T.: 2008.
2. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. – T.: 1997.
3. Komilov N.Tafakkur karvonlari. – T.: "Ma'naviyat", 1999.

4. Qayumov.O. Chet el adabiyoti tarixi. -T.: "O'qituvchi", 1979.
5. Jahon adiblari adabiyot hakida. - T.: "Sharq", 2010.
6. Saidov.A.Shekspir va yurisprudensiY. T.: "O'zbekiston".2011.
7. Saidov.A. Dante-yurist.-T.: "Adolat". 2011.
- 8.Xolbekov.M."Ingliz Uyg'onish davri dramaturgiyasi: Uilyam Shekspir"."Jahon adabiyoti" jurnali, 2014 yil, 5-son, 166-174 bet.
9. M.Xolbekov Dante Aligeri va uning "Ilohiy komediya"si. JA. 2013,5-son 131-137 bet.
10. Fransua Rable. " Gargantuya va Pantagryuel" romani haqida. "Jahon adabiyoti" jurnali, 2013 yil 1- son.
11. Migel' de Servantes Saavedrava uning «Don Kixot» asari haqida.Jahon adabiyoti. 2013. 3-son
12. Ibragimov.R.Donkixotcha mahdudlik yoxud zamonga begonalik. www.kh-davron.uz

BADIIY ADABIYOT:

1. Shekspir.V. Tanlangan asarlar to'plami. –T: 1978.
2. Servantes M. Don Kixot romani, -T.: "Sharq" 2007.
3. Dante.A. Ilohiy komediya.- T.: 19
4. Rable.F. Gargantuya va Pantagryuel.
5. Все шедевры мировой литературы в кратком изложении. Сюжеты и характеры.Зарубежная литература древних эпох, Средневековья и Возрождения.Энциклопедическое издание. – М.: «Олимп», АСТ, 1997, 848 с

XVII ASR G'ARBIY YEVROPA ADABIYOTI

REJA:

1. Yevropada klassisizm adabiyotining yuzaga kelishi va uning xususiyatlari.
2. XVII asr ingliz adabiyotidada klassisizm.
3. XVII asr fransuz adabiyotida klassisizmning o'ri.
4. Jan Batist Molyer hayoti va ijodi.

Mavzuga oid tayanch so'z va iboralar:

Klassisizm. Barokko. Drama. Ingliz adabiyotida poema. Marinizm. Gangorizm. Pretsioz adabiyoti. Realizm. Milliy drama. Fransuz milliy teatri. Komediya. Masal. Satira. Drama. Uch birlik qonuni. Fransuz akademiyasi.

XVII asrning o'rtalarida G'arbiy Yevropa mamlakatlarida feodal jamiyati xiyla zaiflashgan, 1516-1609 yillardagi Niderlandiya va 1640-yil Angliyadagi inqiloblar o'rtida usuli va diniy–cherkov hukmronligiga qaqshatqich zarba bergan, binobarin, feodal tuzumining butunlay yemirilish davri ancha yaqinlashib qolgan edi. XV-XVI asrlardagi yirik ixtirolar, geografik kashfiyotlar, yangi savdo bozorlarining ochilishi inson faoliyati uchun keng imkoniyat yaratdi. Uyg'onish davri adabiy an'analari davom ettirgan XVII asr ilg'or yozuvchilari ijodida o'lib borayotgan dvoryan–aristokratiya sinfi va uning urf–odatlarini qattiq masxara qilinadi. Badiiy adabiyotda aristokratiya bilan murosa qilishga tayyor turgan burjua sinfi vakillarining egoistik intilishlari ham ayovsiz tanqidga uchraydi. XVII asr G'arbiy Yevropa adabiyoti realizm, klassisizm va barokko nomi bilan ataluvchi uch asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi. Realizm Uyg'onish davri gumanistik yozuvchilarining an'alarini davom ettiradi. Bu adabiy yo'nalishning vakillaridan biri bo'lgan Lope de Vega o'z komediyalarida barokko yozuvchilarining pessimistik kayfiyatlariga xushchaqchaq hayotni qarshi qo'yadi.

Barokko yozuvchilarining tilida oddiy iboralar yo'qolib, undagi tasvir nozik va bejirim tusga kiradi. Ular ijodida vazmin tabiatli qahramonlar gavdalanadi, uzoq ekzotik mamlakatlarga qiziqish kuchayadi. Adabiyotdagi bunday aristokratik uslub Italiyada «marinizm», Ispaniyada «gangorizm», Fransiyada «presioz» deb ataladigan oqimlarda ochiq ko'rinadi. Binobarin, barokko xasta his–tuyg'ularni ifodalovchi chirib borayotgan dvoryan–aristokratiya sinfining adabiy uslubidir.

Klassisizm XVII asr I yarmida Fransiyada kelib chiqqan adabiy oqimdir. Bu davr Lyudovik XIV zamonida (1643-1715) absolyutizm mustahkamlandi. Anarxiyaga chek qo'yish, juz'iy narsalarni umumiylikka bo'ysundirish absolyutizm himoyachilari ilgari surgan muhim masalalardandir. Adabiyotda ham barcha ijodiy jarayonlar ma'lum qoidaga itoat ettiriladi. Kardinal Rishelye yangi tashkil qilingan akademiya orqali adabiyotni o'z nazorati ostiga oladi. Klassisizm nazariyachilari va yozuvchilari mamlakat xalqi ruhini aks ettiruvchi adabiyot yaratishga intiladilar. Bu oqimning shakllanishida Dekartning rasionalistik falsafasi, ya'ni haqiqatni anglash

uchun yagona mezon aql-idrok degan qarashlari katta ta'sir ko'rsatdi. Shu sabab, ular san'atda ham idrokni afzal bilib, uni his-tuyg'uga qarshi qo'yadilar.

Klassisizmning asosiy prinsiplaridan yana biri tabiatga taqlid qilish, real turmushni gavdalandirish talabidir. Demak, realizm unga yot emas, faqat u chegaralangan. Uning yirik nazariyotchisi Bualo "Poeziya san'ati" degan asarida "yaramas" tabiatga, voqealarning "qo'pol" tomonlariga emas, balki faqat "go'zal" tabiatga taqlid qilishga chaqiradi.

Klassisist ijodkorlarning asosiy maqsadi inson uchun nima eng maqbul ekanligini aniqlash va unga olib boruvchi yo'llarni belgilab olish edi. Uyg'onish davri adabiyoti feodal jamiyatiga xos erkinlik tushunchasidan farqli o'laroq erkin insonni ham ruhiy ham jismonan tasvirlashni maqsad qilgan bo'lsa, XVII asrga kelib bunday erkinlikning halokatga olib kelishi mumkinligi, inson axloq qoidalaridan xabarsizligi ma'lum bo'lib qoldi.

Gassendi fikricha, o'zini yaxshi ko'rish insonning tabiiy, tug'ma va dastlabki instinkti sanaladi. Uning fikricha insonlarga sof, to'liq va sun'iy bo'lmagan xudbinlik xos bo'lib, uni umumning va boshqalarning shaxsiy qiziqishlariga qarshi qo'yiladi. Ammo insonlar jamiyatda yashaganlari uchun ko'pchilikning fikri bilan hisoblashishi va o'z harakatlarini chegaralay olishlari zarur. Hatto mukammal bo'lmagan inson tabiati, xudbinligi o'zini to'g'ri chegaralay olish va ijtimoiy vazifalarni to'g'ri tushunish orqali farovonlikka erishishi mumkin. Klassisizm adabiyoti vakillari jamiyatga foyda keltirishni, inson xulqidagi nuqsonlarni to'g'rilash, inson ruhiyatini mukammallashtirish yo'lida uni o'rganishni o'zlariga burch deb hilganlar. Klassisizm adabiyotining adabiy janrlarni tuban va yuksak janrlarga ajratishi ham bejiz emas. Bu insonning imkoniyatlaridan kelib chiqib, uning jamiyatga ta'sirini o'rganib amalga oshirilgan deyish mumkin. Klassisizm adabiyotida tragediya janri bu shaxsning fojiasini anglatib, bu fojia uning mukammal mavjudot emasligi yoki olidagi buyuk ma'naviy vazifalarni anglamasligidan yuz beradi deb tushunilgan. Komediya janrining tadqiqot obyektini kundalik hayot kamchiliklari ta'sirida inson tabiatida yuz beradigan salbiy o'zgarishlar, aqlga zid, sun'iy ehtiyojlarning yuzaga kelishi hisoblanadi.

Klassisistlar insonning ruhiy holati moddiy turmush bilan bog'liqligini bilmaydilar. Bular esa personajlarni bir yoqlama tasvirlashga olib boradi.

Klassisizm nazariyasi bo'yicha, butun adabiy janrlar "yuksak" (tragediya, epos, qasida) va "tuban" (komediya, satira, epigramma) turlarga bo'linadi. Yuksak janrlarda davlat ishlari, hukmron tabaqa vakillarining harakatlari tantanali uslubda tasvirlanadi. "Tuban" janrlarda uchinchi toifa vakillarining kundalik turmushi kulgili tasvirlanadi. Qahramonlarni oldindan belgilab qo'yilgan sxema va logik qonunlarga ko'ra "yaxshi" va "yomon" ga ajratib, xarakterlarning hayotiyiligini chegaralab qo'yadilar.

Janrlarning bu tariqa sun'iy tasnif etilishi klassisizm adabiyotining dvoryan xarakterdan kelib chiqqan. Klassisizm adabiyotida drama janri muhim o'rin egallaydi. Undagi asosiy omil uch birlik qonuniga rioya qiladi. Ulardan biri vaqt birligidir, ikkinchisi o'rin birligi, uchinchisi harakat birligi. Bunga ko'ra pyesadagi voqealar 24 soat mobaynida, bir uy yoki binoda bo'lib o'tishi, asarda intriga yoki syujet liniyasi yagona bo'lishi shart. Klassisizm antik adabiyotga taqlid qilish asosida

kelib chiqqan adabiy yo'nalishdir. Klassist yozuvchilar Rim va Yunoniston san'atining yuqori bosqichga ko'tarilgan davrda yaratilgan asarlariga ergashib, o'sha davr adabiyotining namunalari va qoidalarini o'zgarmas, hamma davr uchun bir xil xizmat qiluvchi va o'rnak bo'luvchi ijodan iborat deb ulug'lab, ularning nazariy qarashlari va amaliy yutuqlarini qabul qildilar. Biroq (mavhum) g'oyalarni ideallashtirish davrning real hayotidan uzoqlashib, xalq turmushidan ajralib qolish, janrlarni qattiq mantiqiy qonunlarga bo'ysundirish klassisizm adabiyotini cheklab qo'ygan edi.

Klassisizm antik adabiyotga taqlid qilish asosida kelib chiqqan adabiy yo'nalishdir. Klassisizm da bir qator nuqsonlar bo'lib, shu sababli u Fransiyadan boshqa yerda rivojlanmadi. Lekin klassisizm o'z davri madamiy hayotida katta voqea edi.

XVII asrning ilg'or yozuvchilari ijodi o'sha davrning yirik mutafakkirlari Fransis Bekon shuningdek, Gobbs, Kampanelli, Dekartlarning falsafiy qarashlari bilan bog'liq ravishda rivoj topdi. Ular ta'limotidagi materialistik tendensiya idealistik tendensiyaga qarshi qaratilgan edi. Bu narsa feodal olami va uning urf-odatlarini tanqid qilishga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

XVII asr G'arbiy Yevropa adabiyoti o'z davri hayotining turli-tuman manzarasini gavdalantirgan Jon Milton, Pyer Kornel, Jan Rasin, Lope de Vega va Kalderon kabi yirik yozuvchilarni yetishtiradi, ularning ko'p qirrali va eskilikni fosh etuvchi ijodi hozirgi kungacha g'oyaviy mazmun va badiiy qimmatini saqlab kelmoqda.

XVII asrning 20-30 yillarida Angliyada sinfiy kurash keskinlashgan, feodal mutlaq hokimiyat mamlakatning bundan so'nggi rivojiga g'ov bo'lib qolgan edi. Ingliz burjuaziyasi yangi dvoryanlik bilan ittifoq tuzib, absolyutizmga qarshi kurash olib boradi, bu inqilobiy kurashda jangovor armiya dexqonlar edi. Lekin ular bu inqilobdan manfaat ko'rmaydilar. Yerga feodal mulkchilik tugatilgach, yer dehqonlarga emas balki yangi dvoryanlikka o'tib ketdi. Ingliz burjua inqilobining o'ziga xos xususiyati 1688-yilda yuzaga kelgan burjuaziya bilan dvoryan o'rtasidagi kelishuvchilik bilan tugadi.

Qirolicha Yelizaveta davrida rivojlangan dramaturgiya 1648-yildagi burjua inqilobidan so'ng yana ta'qibga uchradi, endi adabiyotda she'riyat o'rnini nasr egalladi. Jamiyatda siyosiy kurashlarning kuchayishi yengil adabiyot o'rnini siyosiy adabiyot egallashga olib keldi. Kromvel va Restavrasiya davrining yozuvchi va faylasuflari Jon Milton(1608-1674) va Tomas Gobbs (1588-1679) , Jon Lokk (1632-1704)lar jamiyat hayotidagi jiddiy muammolarni asarlarida aks ettirdilar. Jumladan, Jon Milton matbuot erkinligini yoqlab, o'zining mashhur "Areopagitika" (1644) asarini, monarxiyaga qarshi inqilobiy harakatlarni quvvatlab "Ingliz xalqini himoya qilish" traktatini yaratdi. Yozuvchi va jurnalist X.Do'stmuhammadning "Areopagitika"dan "Diyori bakr" gacha" maqolasi ushbu asarning tahliliga bag'islanganligi bilan e'tiborga molik..

XVII asrning 60-yillarda yuz bergan Styuartlar restavrasiyasi progressiv adabiyotdagi kuchlarni feodal reaksiyasiga qarshi kurashga otlantiradi. Bu vaqtda Batler «Gudiras», Milton «Yo'qotilgan jannat» poemalari va «Samson-kurashchi» tragediyasini, Benyan «Ziyoratchining safari» nomli asarini yaratdilar. 1688-yildagi

kelishuvchilikdan so'ng burjuaziya yuzidagi niqobini olib tashlaydi. Feodal zulmi o'rnini kapitalistik ekspulatasiya egallaydi. Shuning uchun ham bu vaqtda yashagan har bir ilg'or yozuvchi o'rta asrchilik va restavrasiyaga nafratini ifodalash bilan cheklanmay, aqcha hukmronligini tug'dirgan davrmi ham qattiq fosh etdilar. Shu davrda yashagan yirik yozuvchilardan biri dramaturg Benjamin Jonson (1573-1637 y.) absolyut hokimiyat reaksiyasiga qarshi kurashuvchi sifatida maydonga chiqdi. «Seyan: uning yemirilishi» (1603), «Katilina: uning isyon» (1611) tragediyalarida Jonson Rim tarixidan manba olib monarxiyaga qarshi respublikachilik g'oyalarini ilgari suradi. U «Volpone» (1607 y.), «Episin yoki indamas xotin» (1609), «Alximik» (1610), «Avliyo Varfolomey kunidagi yarmarka» (1614) komediyalarida ingliz hukmron doiralari vakillarining satirik obrazlarini yaratadi. XVII asrning 40-50 yillarida siyosiy kurash davom etayotgan bir davrda demokratik ruhdagi kuchli publisistlar Jon Lilbern (1618-1657) va Jerarda Uinstenli (1609-1652) yetishib chiqdilar.

Bu davrda ingliz ma'rifatchilik adabiyotining yirik namoyandalari: Semyuel Richardson (1689-1761), Uilyam Goldsmit (1728-1774), Daniyel Defo (1660-1731) va Jonatan Svift (1667-1745), Genri Filding (1707-1754) lar yashab ijod qildilar. Angliya hukmron doiralarning bosqinchilik urushlari va mustamlakachilik siyosati adabiyotda J.Svift, G.Filding asarlarida keskin hajv ostiga olindi.

XVII asr ingliz adabiyotining vakili Milton 1608-yilda Londonda notarius oilasida tug'iladi. Kembridj universitetida o'qidi. Milton feodal reaksiyasi tarafdorlari va monarxiya tuzumiga qarshi kurashadi. U siyosiy masalada universitet o'qituvchilari bilan tortishib qoladi va o'qishdan chetlatiladi. Milton so'ngra o'qishni a'lo baholar bilan tugatib magistr diplomini oladi va 1638-yilda Yevropa bo'ylab sayohatga chiqadi. Fransiya va Italiyada yashab uning adabiyoti bilan tanishadi. Milton o'zining «Komus» (1637) nomli lirik pyesasi asosida his-tuyg'u bilan aql-idrok o'rtasida uyg'unlik bo'lishi kerakligi haqidagi fikr yotadi. O'rmon va chakalakzorlar hukmroni kuchli hirs va yengiltaklik timsoli Komus o'rmonzorda adashib qolgan sof va gunohsiz qizni yo'ldan ozdirmoqchi bo'ladi. Komus qasrida na uning o'zi va na yarim odam, yarim hayvon to'dalarining hiyla - nayranglari qizning irodasini buka olmaydi. Qizning akalari uni Komus qo'lidan qutqarib oladilar.

Bu lirik pyesada yosh Miltonning shoirlik istedodi ajoyib o'rmonzor tasvirida ham, qizning jasurona harakati tasvirida ham ochiq ko'rinadi. Milton ijodining yangi bosqichi XVII asrning 40-yillaridagi siyosiy voqealar bilan bog'llq ravishda rivojlanadi. U o'zining nikoh haqidagi maqolasida Uyg'onish davri gumanistlari yoqlagan tenglik g'oyalarini himoya qiladi.

Milton ijodining cho'qqisi bu uning «Yo'qotilgan jannat» asaridir (1658-1667). Asarni yaratishda «Tavrot» rivoyatlaridan foydalanadi. Poema 12 qo'shiq (kitob) dan iborat. Kitobning boshida xudoga qarshi isyon ko'targan farishtalarning yengilishi ko'rsatiladi. Qo'zg'olonehilar boshida erkinlikka intiluvchi shayton turadi. Poemada tasvirlangan ikkinchi voqea Adam bilan Yevaning gunohi haqidagi afsonaga oiddir. Miltonning ikkinchi poemasi «Topilgan jannat» (1666) to'rt kitobdan iborat bo'lib, poemada shayton bilan Iisus o'rtasidagi kurash aks ettirilgan xristian afsonasi hikoya qilinadi. »Yo'qotilgan jannat» poemasida gunoh qilish tasvirlansa, » Topilgan jannat« asarida esa gunohni yuvish tasvirlanadi.

«Samson-kurashchi» (1667) asarida Milton raqiblarga nisbatan nafrat ruhi, kurash va qasos olish ishtiyogi bilan yashagan aktiv kurashchi obrazini yaratadi. Asar voqeasi Filistimlyan shahrida yuz beradi. Dushmanlari uchun katta xavf hisoblangan Samson makr-hiyllarga uchib o'z sirlarini aytib qo'yadi. Bundan foydalanib dushmanlari uni zindonga tashlashadi. Otasi uni pul to'lab quillikdan qutqarmoqchi bo'ladi, lekin Samson bu yo'lni o'ziga or'ilib ko'nmaydi. Azob –uqubatlardan ko'zi ko'r bo'lib qolgan Samsonni dushmanlari kuchini sinash uchun uni teatrqa olib keladilar. Ko'r Samson og'ir narsalarni ko'tarib hammami qoyil qoldiradi. So'ngra ularga yanada qiziq tomosha ko'rsatish maqsadida katta binoning ikki ustunini bor kuchi bilan silkitib ularni sug'urib tashlaydi. Gumbaz o'sha yerda o'tirgan knyazlar, jreslar maslahatchilar, dohiylar ustiga ag'darilib tushadi. Samsonning o'zi ham halok bo'ladi, dushmani ham mahv etadi. Lekin u o'z o'limi bilan xalqiga g'alaba keltiradi.

XVII asr ispan adabiyotida uch adabiy yo'nalishni ko'rishimiz mumkin. Bular Uyg'onish realizmi, klassisizm va barokkodir. Antik san'at va xalq badiiy an'analarini uzviy ravishda bog'lay bilgan adabiyot – Uyg'onish realizmi Ispaniyada boshqa mamlakatlarga qaraganda ancha kech vujudga keladi. U targ'ib qilgan gumanizm katolik g'oyalari qarshiligiga uchraydi. Klassisizm Ispaniyada o'z rivoji uchun zamin topolmaydi faqat uni tor doiradagi olimlar-filologlarga yoqlaydilar va o'zlarini o'tmish madaniy merosini avaylab asrovchilar deb biladilar. Ispan adabiyotida barokko oqimi XVII asr G'arbiy Yevropa va Ispaniyaning ichki va tarixiy hayotiga mos ravishda keng rivoj topadi. Ispan faylasufi Franchesko Sanches Uyg'onish an'analarini davom ettirib, o'rta asr sxolastikasiga qarshi chiqsa ham, lekin oxirida u bo'shashib («Bilish mumkin bo'lgan narsaning yo'qligi haqida») umidsizlikka tushadi.

XVII asr fransuz adabiyoti va san'atida klassisizm uslubi o'z taraqqiyotining eng yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. Fransuz klassisizmining rivojlanishiga sabab bo'lgan ikkinchi omil o'sha davrning yirik mutafakkurlari Dekart bilan Gasendi filosofiyasining ta'siri edi.

XVII asrda Fransiyada Pyer Kornel (1606 -1684), Jan Rasin (1639-1699), Jan de Lafonten (1621-1695), Fransua de Laroshfuko (1613-1680), Jan de Labryuyer (1645-1696), Sirano de Berjerak (1619-1655), Nikolo Bualo (1636 -1711), Sharl Perro (1628-1703) kabi yozuvchi va shoirlar ijod qiladilar. Bulardan Rasin va Kornel tragediyalari bilan, Molyer komediyalari, Lafonten masallari, Laroshfuko maksimalari, Sharl Perro etak janridagi asarlari bilan adabiyot tarixida o'z o'rniga ega bo'ldilar.

XVII asr fransuz adabiyotining yirik vakili dramaturg Pyer Kornel 1606-yilda tug'iladi. Kornel ijodining dastlaki etapi (1629-1636) da aristokratiya sinfining ma'naviy yemirilishi, uning vakillarining axloqiy tubanligini aks ettirgan «Melita», «Beva», «Sud galeriyasi», «Qirollik maydoni» kabi komediyalarini yaratadi. Biroq Kornel bu pyesalaridan ko'ra bundan so'ng yozgan yirik tragediyalari bilan shuhrat qozondi. Kornelning birinchi tragediyasi «Medeya» (1635) ning syujetini antik yozuvchilar Yevripid va Senekaning Medeya haqidagi asarlaridan oladi. Yozuvchi bu asarida aristokratlar tabaqasining axloqiy buzuvchiligi qurboni bo'lgan ayolning og'ir taqdirini tasvirlaydi. Kornelning «Sid» (1636) tragediyasi Fransiyadagi ijtimoiy-

siyosiy voqealar bilan bog'liq ravishda paydo bo'ladi. Fransiyada feodal o'zboshimchaliklarni tugatish, yagona milliy davlat–absolyutizmni mustahkamlash uchun kurash avj olgan bir vaqtda Kornel o'z ijodida eski feodal tartiblarning yemirilishi muqarrarligini va markazlashgan kuchli davlat barpo etish zarurligini aks ettiradi. Jumladan, «Sid» tragediyasida qonga qon degan eski urf-odatlar o'rniga vatan oldidagi fukarolik burchini bajarishini asosiy vazifa qilib qo'yadi. Kornel «Gorasiy» (1639) tragediyasi syujeti uchun manbani Rim tarixchisi Tit Liviyning birinchi kitobda bayon etilgan qadimgi yunon davlatining tashkil topishi haqidagi afsonadan oladi. Bu asarda davlat va jamiyat ishi uchun kurash mavzusini birinchi o'ringa qo'yadi.

Klassisizm adabiyoti rivojlangan davrda Nikolo Bualo shaxsiyati va ijodi muhim o'rinni egallaydi. Bualoning do'stlari va maslakdoshi bo'lgan Molyer, Lafonten, Rasinlar komediya, masal, tragediya kabi janrlarda betakror badiiy asarlar yozib qoldirishgan. Bualo esa bu qadar uzoq umrga ega bo'lmagan adabiy janrlarda ijod qiladi. Uning qalamiga mansub bo'lgan satira va murojaatlari yillar davomida o'z ahamiyatini yo'qotib ulgurdi. Ammo iste'dodining eng muhim namunasi uning «Poeziya san'ati» she'riy traktati bo'lib, unda Bualo klassisizm adabiyotining asosiy tamoyillarini umumlashtirib badiiy shaklda bayon etganligi bugungi kunda ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Bu asarda Bualo avvalgi o'n yilliklarda adabiy taraqqiyot natijalarini umumlashtirdi, o'zining ijodkor sifatidagi estetik, ma'naviy va ijtimoiy qarashlarini bayon qildi.

Nikolo Bualo (1636 -1711) 1636-yilda Parijda parlament xizmatchisi bo'lgan advokat, badavlat burjua oilasida dunyoga kelgan. O'z zamonasining aksariyat yoshlari singari iyezuit kolejida, so'ng Sorbonna universitetida dinshunoslik va huquqni o'rganadi. Ammo uni bu sohalar qiziqitirmaydi, shu sababli otasi vafot etgach moddiy jihatdan ta'minlangan Bualo hayotini to'liq adabiyotga bag'ishlaydi. Bualo boshqa ayrim ijodkorlar singari o'ziga homiy qidirishi, moddiy manfaat uchun duch kelgan asarlarni yozishga majbur emas edi. U o'zining fikrini bemalol bayon eta olishi, xohlagan janr va mavzularda ijod qilish imkoniga ega edi.

Bualo ijodi mobaynida yettita she'riy satira, qator she'rlar va murojaatnomalar, «Naloy» poemasi, «Go'zallik haqida traktat» asarlarini yaratadi. 1660-yillardan boshlab Bualo Molyer va Lafonten bilan yaqin do'st tutinadi. Ularga nisbatan nohaq tanqid va tahdidga qarshi kurashadi. 1670-yillardan esa u saroyga yaqin kishiga aylanadi. 1677-yilda Bualo va Jan Rasin qirol tarixchisi faxrli lavozimga tayinlanadilar. Ammo aynan shu davrdan boshiab uning ijodiy faolligi pasayadi. Bunga albatta, Molyerning vafoti, Rasinning teatr uchun yozmay qo'yishi, Lafontenning tazyiqqa uchrashi ham ta'sir qildi. Ijodda iezuitlarning ta'siri kuchaydi, Bualo esa ularni umr bo'yi yomon ko'rgan. Faqat 15 yillik tanaffusdan keyigina Bualo 1692-yilda ijodga qaytadi va uchta satira va uchta murojaat yozadi. Bualoning so'nggi 12-satirasi «Ikki ma'nolilik haqida» deb nomlanib iezuitlarga qarshi yozilgan edi. Bu asar 1711-yilda Bualo vafotidan so'ng nashr etiladi. Hayotining so'nggi davrida Bualo og'ir dardga uchraydi va yolg'izlikda o'tkazadi. U o'z maslakdoshlari vafotidan keyin ancha umr ko'radi, lekin u yaratgan nazariya pedant va epigonlar qo'lida dogmaga aylanib borayotgandi.

Nikolo Bualo o'zining eng muhim asari sanalgan "Poeziya san'ati" ustida besh yil ter to'kdi. Buyuk rimlik shoir Gorasiyning "Poeziya ilmi" asariga ergashgan holda o'zining nazariy tamoyillarini yengil, ba'zan hazil shaklida, ba'zan so'zamollik bilan, ba'zan juda keskin va zaharxanda shaklda she'riy uslubda bayon etdi. Asarga xos bo'lgan xususiyatlar uning qisqa jumalalarda, hatto aforizmlar shaklida bayon etilishi bo'lib, bu xususiyat asarning qanotli so'zlarga aylanib keng tarqalishiga sabab bo'ldi. Asar 4 qo'shiqqa bo'lingan.

Birinchi qo'shiqda haqiqiy iste'dod egasi bo'lgan shoirga qo'yiladigan talablar sanab o'tiladi. Janrm to'g'ri tanlash, aqliy faoliyat qonunlariga rioya qilish, she'riy asarning mazmunan boy bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi. Gorasiyning she'riy san'at asaridan olgan ko'pgina fikrlarini o'zgacha badiiy bir shaklda o'z zamondoshlariga yetkazishga urinadi. Tanqidga quloq solish lozimligini va o'ziga talabchan bo'lishni ma'qullaydi.

Ikkinchi qo'shiq esa lirik janrlar: idilliya, ekloga, elegiya kabilarning tavsifiga bag'ishlangan. Namuna sifatida qadimgi yunon va rim shoirlari Feokrit, Vergiliy, Ovidiy, Tibull asarlaridan parchalar keltiradi. Pastoral she'riyati, qasida, epigrammaga to'xtaladi. Sonet janrini alohida tavsiflaydi. Satira haqida juda atroflicha ma'lumot beradi. Yuvenal satirasini namuna qilib ko'rsatadi. Uchinchi qo'shiq esa tragediya, komediya, epopeya janrlariga bag'ishlanadi. Bu qismda u ko'proq Aristotel qarashlariga ergashadi.

To'rtinchi qo'shiqda esa shoir yana badiiy ijodning umumiy masalalariga qaytib, shoir va tanqidchining ma'naviy qiyofasi, adabiyotshunosning jamiyat oldidagi burchi va mas'uliyati haqida fikr yuritadi. Boylik uchun o'z iste'dodini pullovchi ijodkorlarni tanqid qiladi. Haqiqiy ijodkor buyuk vazifalarnigina maqsad qilishi lozimligini, iste'dodini bozorga solmasligi kerakligini ta'kidlaydi. Asar so'ngida o'z monarxini maqtovlarga ko'madi.

Nikolo Bualoning "Poeziya san'ati" she'riy traktatidagi ko'pgina fikr va mulohazalar o'z zamonasi, kimlarningdir didi yoki o'sha davr bahs munozaralaridan kelib chiqib bayon etilgan. Shunga qaramay, Bualo tomonidan yoritilgan badiiy ijod taraqqiyotining umumiy muammolariga oid qarashlar keyingi asrlardagi adabiyot va adabiy tanqid rivodi uchun xizmat qila oldi. Aymiqsa, ijodkorning ijtimoiy va ma'naviy mas'uliyati, o'z ijodiga yuqori darajada talabchan bo'lmog'i lozimligi, haqqoniylik va tabiiylik, voqelikni umumlashtirib tipik tasvirlash muammolari o'zining dolzarbligini yo'qotmadi. Romantizm adabiyoti davrida esa Bualo adabiy tanqidning asosiy mavzusiga, adabiy dogmatizm va pedantizmning sinonimiga aylandi. Faqatgina shu kabi bahslar ortda qolgach, klassisizm adabiyoti va uning estetik tizimiga xolis baho berilgachgina Nikolo Bualoning nazariy qarashlari jahon estetik tafakkuri taraqqiyotida o'zining munosib o'rniga ega bo'ldi.

JAN BATIST MOLYER IJODI (1622-1673)

Fransuz milliy teatrning asoschisi, yirik dramaturg-komediograf Jan Batist Poklen Molyer 1622 -yilda Parijda savdogar oilasida tug'ildi. Uning asl familiyasi Poklen bo'lib, Molyer taxaliusidir. Molyer 1639-yilda Klermon kollejinii bitirib, Orleon universitetida advokatlikka o'qiydi. Lekin uni sud ishi ham, savdo ishi ham qiziqirmaydi. 1643-yilda Parijda do'stlari bilan "Yaltiroq teatr" tashkil qiladi. Lekin

u tezda yopiladi. So'ng u ko'chmanchi komediantlar truppasida ishlaydi, tajriba orttiradi, asosiy rollarni o'ynaydi. 1650-yilda truppa boshlig'i bo'ladi. Molyer ijodiy faoliyatining ilk bosqichi fransuz xalq farsini o'zlashtirgani holda italyan niqobli komediyalarini fransuz teatrga moslab qayta ishlab o'z truppasini repertuar bilan ta'minlab turadi. Lion shahrida uning birinchi komediyalaridan bo'lgan «Telba» pyesasi qo'yiladi. «Kulgili nozaninlar» (1659) komediyasi Molyerning nomini ko'pchillika ma'lum qilgan birinchi original asaridir. Xalq farsiga asoslanib yozgan bir pardali bu pyesasida Molyer 50-yillardagi dvoryan reaksiyasi natijasida keng tarqalib borayotgan presioz adabiyotiga, aristokratik xulq-atvor va tannozlikka qat'iy zarba beradi.

Molyer «Tartyuf» komediyasini 1664-yil may oyida sahnaga qo'yadi. Uch pardali bu pyesa o'sha vaqtda juda keng tomir yozgan diniy-klerikal «Muqaddas zakovat jamiyati» ning kirdikorlarini fosh etishga qaratilgan bo'lsa ham, lekin komediya feodal-katolik reaksiyasi hurujiga qarshi keskin kurash quroliga aylanib ketadi. Bu komediyada Molyer yuqori tabaqa vakiliari ichida avj olgan riyokorlik va munofiklikni Tartyuf obrazida ochib tashlaydi. Tartyuf feodal- aristokratiyaning qahix ishlarini aks ettirgan shaxsdir. O'zining qora niyatlarini amalga oshirish uchun yuziga niqob tutgan va taqvodor bo'lib ko'rinishga uringan bu odam haqiqatda o'ta iflos va razil bir shaxs bo'lib chiqadi. Tartyuf burjua Orgon va uning onasining soddaligidan foydalanib ularni laqillatadi. Siri fosh bo'lib Orgonni uydan haydab, uning mol – mulkini tortib olmoqchi bo'lganida ham, Tartyuf yuzsizlarcha bu ishlarining harchasini xudo yo'li uchun qilayotganini aytadi. Unga qarshi kurash asar boshida xizmatkor qiz Dorina bo'lib, unda xalq donoligi mujassamlashganidir.

Molyerning "Tartyuf" komediyasi dastlab yozuvchi Oybek tomonidan o'zbek tiliga o'g'irilgan va o'zbek teatri sahnalarida hir necha marta sahnaga qo'yilgan.

Molyerning ijodi gullagan davrda yaratgan «Don Juan» (1665) nomli satirik komediyasi alohida ahamiyatga ega. «Don Juan» ning syujeti turli davrlarda turli yozuvchilarining diqqatini o'ziga jalb etib kelgan. Masalan: Don Juan haqida ispan dramaturgi Tirso de Molina «Seviliyalik shum yigit» (1620), A.S.Pushkin esa «Tosh mehmon» asarida bu obrazni chuqur talqin qiladi. Molyer ispan ertaklaridagi bu obrazni o'z zamonasining atistokrat yigiti qiyofasida tasvirlab, uning butun nuqsonlarini fosh etib tashlaydi. Bu obraz ko'p qirrali bo'lib, umuman, buzilgan dvoryan sinfining vakili, dcb ko'rsatiladi.

Komediyaning boshidayoq Don Juan haqida uning xizmatkori Sganarel bilan tashlab ketgan xotini Elviraning xizmatkori Gusman o'tarasidagi suhbatda jiddiy fikr bayon qilinadi. Don Juan hamma jinoyatchilardan eng yovuzi, u - it, shayton, turk, yeretik (dahriy) deb ataydi uni Sganarel. Xizmatkorining o'z xo'jayinini bunday xaqorat qilishi uchun asosi bor edi, albatta. Har qanaqa ayolga uylanishga mohir Don Juan xotinmi va yoki qiz, shaharlikmi va qishloqlik, bundan qa'tiy nazar, ularning barchasiga muhabbat izhor qilaveradi.

Sganarel xo'jayinining bunday beqaror va bema'ni xayot kechirishiga, xar qadamda uylanib xotinini tashlab ketishiga e'tiroz bildiradi. Suvdan omon-eson chiqqan (to'lqin ularning qayig'ini ag'darib yuborgan edi.) Don Juan qishloq ko'chasida Sharlotta ismli qizga duch kelib, «Nahotki qishloq joylarda, daraxt va toshlar orasida, sizga o'xshagan jononlarni uchratish mumkin bo'lsa?» deb unga

sevgi izhor qiladi va qizni dehqon yigit Pyerdan aynitib, o'zi olmoqchi bo'ladi. Shu vaqda bundan biroz ilgari suhbatlashgan, Matyurina degan qiz ham kelib qolib, Sharlotta bilan janjaliashadi. Biroq ayyor Don Juan har ikkalasining qulog'iga ikki xil gapirib, ularni olishga ishontiradi.

Don Juanning ijobiy tomonlari ham bor. U himoyasizlarga yordam berishga tayyor jasur kishi. Elviraning akalari ta'qibidan bekinib, o'rmonzorda ketayotgan Don Juan uch qaroqchining bir kishiga hujum qilayotganini ko'rib qoladi va uni o'limdan qutqaradi. Bu odam Elviraning kichik akasi Don Karlos edi. Don Karlos haqoratlangan singlisi uchun Don Juandan o'ch olish maqsadida uni axtarib yurganini aytganida, Don Juan o'zining kimligini bildirmay, qidirib yurgan odamining qadrdon do'sti ekani va o'sha yaqin kishisi hurmati uchun har qanday odam bilan jang qilishga tayyor ekanini aytadi.

Don Juan Molyerning klassisizm qoidalari qobig'ini yorib chiqib yaratgan tom ma'nodagi yirik realistlik asaridir. Bu narsa turmushni keng ko'lamda tasvirlashda ham, uch birlik qonuniga rioya qilmaslikda ham (voqea o'rni almashib turadi: saroy, dengiz qirg'og'i, o'rmonzor va hokazo) qahramonlar xarakterining rivojlanib borishida, klassisizm an'anasiga binoan, komediyaning she'rdas emas, balki, prozada yozilishida, shuningdek, xalq vakillarini tasvirlashga alohida e'tibor berishda ham ochiq ko'rinadi.

«Mizantrop» (1666) Molyer ijodining yuqori cho'qqisi va shu bilan uning adabiy faoliyatida hoshlangan burilish nuqtasi ham bo'ldi. Asarning bosh qahramoni sof ko'ngilli Alsest yaramas saroy muhitida azob chekadi. Hamma vaqt yaxshilik va adolatli ish qilishga intilgan bu yigit har qadamda adolatsizlik va olchoqlikka yo'liqadi. U tabiatan insonparvar, undagi mizantropiya—odamovilik buzilgan dvoryan-aristokratiya hayoti ta'siri ostida yuzaga keladi. Chunki u olijanob g'oyalarni amalga oshirish uchun o'sha jamiyatdan o'ziga suyanchiq topolmaydi. Shuning uchun ham Alsest qalbida tug'ilgan g'azab o'ti cheksiz. U ba'zi kishilardan yovuzliklari uchun nafratlansa, boshqalarni o'sha yovuzliklarga qarshi kurashmaganliklari uchun qoralaydi. Dvoryan zodagonlarning hayoti va xulq-odati, takaburligi Alsestga yoqmaydi. U hashamdor formalistik san'atga ham qarshi kurashadi. Aristokrat shoir Orantning soneti munosabati bilan Alsestning izhor qilgan fikr va mulohazalari xarakterlidir. Alsest Orantning yuzaki sonetiga chuqur mazmunli xalq qo'shiqlirini qarshi qo'yadi.

Molyer teatrining tarbiyaviy roliga ahamiyat bergan, uni "jamiyat oynasi" degan. U komediyaning vazifasi kishilarni kuldirib turib, ulardagi nuqsonlarni tuzatishdan iborat deydi. Uning asarlari : (1662) "Ayollar uchun saboq", "Kulgili nozaninlar" (1659), "Sganarel" (1660), "Ezmalar" (1661), "Erlar uchun saboq" (1662), "Ayollar uchun saboq" ni tanqid", "Versal ekspromti" (1663), "Tartyur" (1664), "Don Juan" (1665), "Mizantrop" (1666), "AmFitrion" (1668), "Jorj Donden" (1668), "Xasis" (1668) kabi satirik komediyalar yozib, fransuz milliy komediyasini yaratadi.

Klassisist yozuvchilar Rim va Yunon san'atining yuqori bosqichiga ko'tarilgan davrda yaratilgan asarlariga ergashib, o'sha davr adabiyotining namunalari va qoidalarini o'zgarmas, hamma davr uchun bir xilda xizmat qiluvchi va o'rnatq bo'luvchi ijoddan iborat, deb ulug'lab, ularning nazariy qarashlari va amaliy yutuqlarini qabul qildilar. Biroq mavhum g'oyalarni ideallashtirish, davrning real

hayotidan uzoqlashib, xalq turmushidan ajralib qolish, janrlarni qattiq logik qonunlarga bo'ysundirish klassisizm adabiyotini cheklab qo'ygan edi. Shuning uchun ham uning qotib qolgan qonunlarini A.S. Pushkin va rus adabiyotshunoslari tanqid qilganlar. Lekin bunday salbiy tomonlari bo'lishiga qaramay, klassisizm o'z davri madaniy hayotida katta voqea edi.

MAVZU BO'YICHA LUG'AT:

Klassisizm—XVII asrning birinchi yarmida Fransiyada kelib chiqqan adabiy oqim.

Independent—yepiskoplarni rad etuvchi protestantlik cherkovi tarafdorlari.

Presviterianlik—XVI asrda Buyuk Britaniyada kelib chiqqan protestantlik diniy mazhab.

Levelvr—XVII asr ingliz inqilobi davrida radikal — demokratik partiya.

Yeretik — dahriy, ya'ni xudodan qaytgan ma'nosida.

Presioz adabiyoti — nafis, nozik adabiyot: aristokratik adabiyotdagi barokko oqimining bir turi.

Barokko — o'rta asr madaniyati tushkunligi natijasida kelib chiqqan, absolyutizm kuchayib borayotgan davrda feodal — katolik reaksiyasi ta'sirini aks ettirgan adabiy yo'nalish hisoblanadi. Uning yorqin vakili dramaturg Kalderondir.

Kulteranizm — tanlanganlar nozik didli madaniyatli kishilar uchun yozilgan asarlar, Bu adabiyotning asosiy vakili sifatida Ispan aristokrat shoiri Gangora (1561-1627 y.) dir.

MAVZUGA DOIR SAVOLLAR:

1. XVII asrda G'arbiy Yevropadagi adabiy oqimlar haqida ma'lumot bering.
2. "Barokko" va "klassisizm" atamalarining etimologiyasi va mohiyatl.
3. Klassisizm adabiy oqimining vujudga kelishi va rivojlanishi.
4. Klassisizm nazariyotchisi Nikolo Bualoning ijodi haqida ma'lumot hering.
5. Klassisizm nazariyasida uch hirlik qonunining mohiyatini izohlang.
6. Tuban va yuksak janrlar deganda nimani tushunasiz?
7. Jan Batist Molyer hayoti va ijodi haqida nimalarni bilasiz?
8. Molyer komediyalari va ularning mavzu doirasi.
9. Jon Milton ijodining ingliz adabiyotidagi o'rni.
10. Klassisizm adabiyotining bugungi kundagi ahamiyati qanday?

ADABIYOTLAR:

1. Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi. -T.: 1987 .
2. Melexov O.V. Istoriya zarubejnoy literaturi XVII- XVIII vekov. M. 1974 .
3. Bekmurodova.Z. Tavba qilmagan gunohkor." Jahon adabiyoti" jurnali. 2013, 1-son..
4. Do'stmuhammad.X. Jon Milton va A.Qodiriy: "Areopagitika"dan "Diyor bakr"ga qadar. "Jahon adabiyoti" jurnali. 2012 yil, 6- son. 147-155 b.
5. История зарубежной литературы XVII века.-М.: Высшая школа., 1999.
6. Все шедевры мировой литературы.В кратком изложении. Сюжеты и характеры. Зарубежная литература XX века в 2 книгах. "Олимп", АСТ.- М.: 1997, 832 с

XVIII ASR YEYROPA MA'RIFATCHILIK ADABIYOTI

REJA:

1. *G'arbiy Yevropa ma'rifatchilik adabiyotining o'ziga xosligi.*
2. *G'arb va Sharq ma'rifatchiligining mushtarak va farqli jihatlari.*
3. *Ingliz ma'rifatchilik adabiyoti vakillari ijodi.*
4. *Nemis ma'rifatparvar adiblari ijodi.*

Mavzuga oid tayanch so'z va iboralar:

Ma'rifatchilik, Ingliz adabiyoti. Pamflet. Roman. Satira. Epistolyar roman. Dramaturgiya. Publisistika. Ijobiy qahramon masalasi. Xalq obrazi. Tragediya. Ensiklopediya. Sentimentalizm. Falsafiy drama. Realizm. Isyonkorlik ruhi. Lirik.

XVII–XVIII asrlar jahon tarixida yangi davrni boshlab berdi. XVII–XVIII asr ingliz va fransuz burjua inqiloblari o'rta asrlardagi eski tartiblarni yemirib tashladi, ming yildan ortiq vaqtdan beri hukmronlik qilib kelayotgan feodal tuzumga zarba berdi jamiyat taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tardi. XVIII asr Yevropada taraqqiyparvar kuchlarning chirigan o'rta asrchilik tartihlariga qarshi kurash siyosiy tus ola boshlagani kabi, adabiyotda ham bu kurash jangovar ma'rifatchilik rubini ola boshladi. O'zining antifeodal mohiyati bilan ajralib turadigan ma'rifatchilik adabiyoti feodalizmga qarshi kurashayotgan, hali u vaqtda taraiyparvarlik ruhida bo'lgan va xalq harakatidan foydalanayotgan burjuaziyaning falsafiy va siyosiy ta'limoti bilan sug'orilgan edi.

Ma'rifat so'zi keng ma'noda xalqni bilimli, ma'rifatlil qilish ma'nosida, tor ma'noda burjuaziyaning feodalizmga qarshi kurashi avj olgan davrdagi aqliy harakatni ifoda etadi.

Ma'rifatparvarlar uchun aql – idrok bosh masaladir. Ular insonning aqliy faoliyatiga, odamiylik fazilatlariga yuqori baho berganlar, aqlu-insofga begona bo'lgan zulmni, jaholatni qoralaganlar. Shu bilan birga, ular ma'rifatchilik g'oyasiga, uning ta'sir etuvchi kuchiga ortiqcha baho berib, katta xatoga yo'l qo'yadilarki, natijada bunday qarash ularning davlat boshida o'qimishli, odil, ya'ni ma'rifatparvar mustabid hokim turishi kerak, degan xom xayollarga borishlariga sabab bo'ladi. Ma'rifatchilik adabiyotining estetik qarashlari shu bilan qadrli ediki, ular san'atning tarbiyaviy ahamiyatini jamiyatni qayta qurish manfaatlariga xizmat qildirdilar. XVIII asr yozuvchilari ma'rifatchilik ruhidagi siyosiy – falsafiy roman, falsafiy povest, siyosiy-axloqiy xarakterdagi dramatik asarlar yaratdilar. Ma'rifatparvar yozuvchilar adabiyotni tug'ilib kelayotgan yangi sinfnin g'oyaviy kurash quroli deb bildilar. Ularning ijobiy qahramonlari grajdanlik jasorati, mehnat va tashabbuskorlik ko'rsatish, shuningdek, sahovat g'oyasini bo'rttirib tasvirlashdan iborat edi. Bu adabiyotdagi masalaga muayyan maylga berilib qarash o'sha tarixiy davr talablariga, dunyoni qayta qurish uchun qilinayotgan qarashlarga mos bo'lib tushar edi.

Ma'rifatchilik harakati G'arbiy Yevropa mamlakatlarida hir tarzda, inqilobiy va izchil shaklda ko'rinmasa ham, lekin taraqqiyparvar adabiyot uchun mushtarak tomoni borki, bu uning antifeodal xarakterida namoyon bo'ladi.

XVIII asr G'arb ma'rifatchilik adabiyotining janr jihatdan boyligini e'tirof etgan holda, aytish joizki, bu davrda barcha janrlar ham bir xilda rivojlanmadi. "Zerikarisidan tashqari barcha janrlar yaxshidir" degan iboraga tayangan Volter hatto Vergiliy, Homerning ko'hna epos namunalariga taqlidan zamonaviy eposni yaratishga ham harakat qilgan edi ("Genriada" poemasi). Biroq XVIII asr adabiyotida, asosan, nasr va dramaturgiya janrlari ko'proq taraqqiy etdi. Albatta, bu avvalo davr ruhi va ma'rifatchilarning intilishlari bilan bog'liq edi. Zero, shakl va mazmun jihatdan benihoya rang-barang bo'lgan nasr har qanday tor qonun-qoidalar cheklovidan holi bo'lib, zamon hayotini, turli tabaqalar maishiy turmushini keng aks ettirish, axloqiy dasturni ilgari surish imkonini bergan bo'lsa, teatrda ma'rifatchilar o'z g'oyalarni targ'ib etish minbarini qurganlar. Ma'rifatchilik adabiyotinig Angliyadagi yirik namoyandalari romannavislar: Daniyel Defo, Jonatan Svift, Semuel Richardson, Genri Filding, xalqchil shoir Robert Berns va boshqalar hisoblanadi.

Fransiyada ma'rifatchilik harakati Fransua Volter, Deni Didro, Jan Jak Russo, Pyer Ogyusten Bomarshe kabi ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-adabiy faoliyati bilan mashhur bo'lgan san'atkorlarni yetishtirdi.

Nemis ma'rifatchiligi esa Gotxold Efraim Lessing, Fridrix Shilller, Ioganni Volfgang Gyote singari buyuk adabiyotshunos olimlarni, dramaturglarni va jamoat arboblarni maydonga chiqardi.

Angliya hukmron doiralarning bosqinchilik urushlari va mustamlakachilik siyosati o'sha davr adabiyotida, Svift va Sheridan ijodida keskin hajv ostiga olinadi. Hamma yerda bo'lgani kabi Angliyada ham ma'rifatchilik g'oyasiga xos bo'lgan keskin ziddiyatlar ko'zga tashlanib turar edi. Bu ziddiyat ma'rifatparvarlar olg'a surgan jamiyatning har tomonlama rivojlanishi haqidagi g'oyasi bilan burjua voqeligining amaldagi shart-sharoitlari o'rtasidagi nomutanosiblikda ko'rinadi. Ana shu tufayli Angliya ma'rifatchilik mafkurasining falsafiy asoslari ham ziddiyatli edi. Bu ziddiyat ingliz faylasuflari va olimlari Tomas Gobbs (1588-1679), Sheftsberi (1671-1713), Bernard Mandevil (1670-1733) kabilarning ijodida ham o'z aksini topadi.

Har bir mamlakatning ma'rifatchilik adabiyoti haqida gap borganda, o'sha mamlakatning milliy-tarixiy sharoitini, o'ziga xos taraqqiyot yo'lini nazardan qochirmaslik kerak. Chunki inqilobiy harakatlar tarixiy sharoitga qarab turlicha bo'lgan.

Angliyadagi ilk ma'rifatchilik adabiyotining vakili sifatida birinchilardan bo'lib Daniel Defo tilga olinadi. Defo jahon adabiyoti tarixiga o'lmas «Robinzon Kruzo» asarining muallifi sifatida kirgan. U ingliz va Yevropa adabiyotida roman janriga asos solgan mashhur yozuvchidir.

INGLIZ MA'RIFATCHILIK ADABIYOTI
DANIYEL DEFO HAYOTI VA IJODI
(1660-1773)

Daniyel Defo. Uning qachon dunyoga kelganligi haqidagi aniq ma'lumotlar yetib kelmagan, lekin uning o'zi maktublarida 1660-yilning 26-aprelida tug'ilganligini aytadi. Uning otasi Jeyms Fo puritanlik mazhabiga sodiq edi. Bo'lajak yozuvchini otasi puritan diniy akademiyasiga o'qishga beradi. Ammo Defo savdo ishiga qiziqib, umrining oxirigacha yirik kommersant bo'lib qoladi. Tijorat ishlari bilan Yevropaning juda ko'p mamlakatlariga – Portugaliya, Ispaniya, Italiya va Fransiyaga boradi. Bu sayohatda mamlakat hayotida yuz berayotgan voqealarga ham aralashadi. O'zining ijodiy faoliyatida maqola va pamphletlarida feodal – aristokratlar bilan cherkov reaksiyasini fosh qiladi. Bundan tashqari uni iqtisod, tarix, pedagogika, statistika, geografiya, falsafa, tibbiyotga old bir qancha asarlari bor. Defo buyuk kashfiyotlar davrida yashadi. U jahongashta sayyohlar, savdogarlar, oson yo'llar bilan boyluk orttirish va dovrug' qozonishni orzu qilgan turli xil kishilar, yangi yerlar ochish, yangi bozorlarni qidirib topish, odam qadami tegmagan manzillarni aniqlashga intilgan burjua vakillari hayotidan ko'plab asarlar yaratadi. Lekin yozuvchiga shuhrat keltirgan asari «Robinson Kruzo» (1719) romani bo'ldi.

Ammo Daniyel Defo nafaqat mashhur yozuvchi, balki avanyurist, intrigan, britan jurnalistikasining otasi, shpionaj ustasi, maxsus xizmatlar bo'yicha mutaxassis, birinchi polittexnolog ham bo'lgan. Uning asl ismi Fo bo'lib, lekin adabiyot tarixiga Defo nomi bilan kirgan shaxsdir.

Defo bolalar yozuvchisi bo'lmasada, ko'pchilik uning "Robinson Kruzo" asarini bolalar adabiyoti sifatida qabul qiladi. G'arb adabiyotiga doir manbalarda uni ingliz realistik adabiyoti va Yevropa klassik romanchiligining asoschisi, satirik, burjua mafkurachisi sifatida ta'rif beriladi. Ammo aksariyat kitobxonlar uni aynan "Robinson Kruzo" romani muallifi sifatidagina biladilar. XIX – XX asrlarda esa bu asar qisqagina daydjest, romanning qisqartirilgan shaklidan iborat edi. Bu asar Angliya tarixidagi birinchi belletristika romani bo'lib, ommaviy mutolia qilingan dastlabki asar sanaladi.

Defo vafotiga bag'ishlangan bir kitobda aytilishicha, bu asar dastlab o'rtacha bir ot narxida sotilgan ekan. Kitobga esa talab katta bo'lgan. Shu sababli uning noqonuniy nashr etilgan nusxalari ko'payadi, mo'may daromad qilishni istagan kishilar romanning qisqacha mazmunini hikoya qiluvchi variantlarini katta tirajlarda nashr qilib sota boshlaydilar. U davrlarda mualliflik huquqiga rioya qilinmaganligi, polisiya esa bunday holatlarga chek qo'ya olmaganligi sabab Defoning o'zi ham shunday kitobchalarni chiqarishga majbur bo'lgan ekan.

"Robinson Kruzo" romanining rus tiliga qilingan dastlabki tarjimai ham uning to'liq varianti bo'lmay, balki bolalar yozuvchisi Korney Chukovskiy hikoyasidagi varianti bo'lgan. Atoqli rus adabiyotshunosi va tarixchisi D.M. Urmovning fikricha XIX asrning oxirlariga kelib bu romanning 700 dan ortiq har xil qisqartirilgan variantlari mavjud bo'lgan. Bu variantlar har bir xalqning o'z dunyoqarashi, an'analariga moslangan holda tarjima qilingan edi.

Defo 500 dan ortiq asar yozgan. "Robinson Kruzo" romanini yozish uchun atigi 2 oy vaqt sarf qiladi. Uning boshqa asarlari ham hanuz bestseller deyish mumkin.

Defoning qolgan romanlarida u qaroqchilar hayoti, jinoyatlar tarixi va eng shov-shuv bo'lgan jinoyatlar haqida hikoya qiladi. Bu asarlari ham qayta-qayta nashr etilmoqda. Charlz Jonsonning "O'g'rilik va qotilliklarning butunjahon tarixi" asari 1724-yilda Londonda nashr etilgan bo'lib, bu asar ham bugungi kunda Defo qalamiga mansubligi aniqlandi.

Defoning qolgan ko'pgina asarlarini esa asosan tarixchilar o'qiydilar. Defo ko'p asar yozgan bo'lsada, 58 yoshigacha yozuvchi hisoblanmagan. Aynan 58 yoshida u "Robinson Kruzo" romanini yozadi. Hayotining so'nggi yillarida esa askar, gung yetimcha, qaroqchi, bandit, fohisha tilidan roman- iqrornomalar yozadi. "Ruhlarining to'liq tarixi" kabi original asarlar ham yozadi. Karl XII, Shimoliy urush, Angliya va Shotlandiyaning birlashishi mavzusida asarlar yaratadi. Hatto Pyotr I haqida "Pyotr Alekseyevich tarixi" nomli asar ham yozgan. Defo Rossiyada bo'lmagan bo'lsada, rus tilini bilgan. Pyotr I ingliz qiroli Vilgelm III tomonidan 1698-yilda taklif qilinganida va Angliyada 3 oy qolganida uni ko'rgan ham. 22 yildan keyin esa Defo Fransiyada o'qishga kelgan Abram Gannibal bilan ham uchrashganligi haqida ma'lumotlar mavjud.

Defo yoshligida yozuvchi bo'lishni umuman orzu qilmagan. U faqat 30 yoshida yozishni boshlagan. Onasi juda yoshligi vafot etgach, otasi uni diniy seminariyaga o'qishga beradi. U bu seminariyani tugatdi ham, pastor bo'lishi kerak edi. Uni bejiz burjuaziya mafkurachisi deyishmaydi, u erkin tadbirkorlik tarafdori edi. Shu sababli ham cherkov hayoti o'rniga savdogarlikni tanlaydi. Dastlab xalqaro savdo bilan shug'ullanadi, yurt kezib bir qancha tillarni o'rganadi, Jazoir qaroqchilari qo'lida tutqunda ham bo'ladi. Ammo savdogar sifatida omadi kelmadi.

Defo avanyurist bo'lgani sababli turli xil xavfli ishlarga qo'l uradi. Qarz olib, uy va kemalar sotib oladi, paypoq fabrikasi, g'isht zavodi quradi. Lekin qarzga botib, doim kreditorlardan qochib yashaydi Fe'li avanyuraga moylligi sababli Monmut gersogining Yakov II ga qarshi qo'zg'olonida, 1688-1689 yillardagi davlat to'ntarishida ishtirok etadi, Angliyadan qochadi, keyin avf etilgach qaytib keladi. 1692-yilda u bankrot bo'lib, qarzlari sabab turmaga tushadi. Umrining oxirigacha qarz to'laydi, kreditorlarning ta'qibidan qutulolmaydi. Vafotidan yarim yil o'tib esa uning kutubxonasi kimoshdi savdosiga qo'yib sotiladi, undan kelgan mablag' esa uning 40 yillik qarzlarini to'lashga urvoq ham bo'lmaydi.

Qamoqdan chiqqach, jinoyatchilik olami haqida ma'lumotlar yig'gan Defo yana savdo bilan shug'ullanadi. Portugaliyada vino savdo qiladi, 1695-yilda esa Angliyaga qaytib Defo nomi bilan jurnalistlik qila boshlaydi. Aynan shu sohada uning omadi keldi. Defo ingliz jurnalistikasining asoschisi sanalsa, ingliz jurnalistikasi jahon jurnalistikasiga asos solganligi ta'kidlanadi. Bu davrga kelib gazetalar o'n yillardan beri nashr qilinadi, lekin ular informasion varaqa shaklida bo'lib, qisqa xabarlardangina iborat edi. Defo unda intervyu janriga asos soldi, mashhur kishilardan, hatto jinoyatchilardan intervyular oladi. Uni haqli ravishda jinoiy, iqtisodiy, siyosiy jurnalistikaning asoschisi deyish mumkin. Defo birinchi sharhlovchi, ocherk va maqolalar muallifi hamdir.

Defo 1697-yilda burjua jamiyatining iqtisodiy sohasidagi islohotlar haqida fikr bildirib, o'zining "Proyektlar tajribasi" kitobida banklar tizimini yaratish haqida

takliflarini bayon qiladi. Bu davrda banklar vazifalarini asosan sarroflar va sudxo'rlar bajarib kelishardi.

Mafkuraviy va siyosiy mazmundagi matnlar yozishi bilan bir paytda qirolga qarshi yoki qirolni maqtab, vigoalarni ayblab torilarga yon bosuvchi, yoki buning aksi torilarni ayblab vigoalarni ko'kka ko'taruvchi maqoilar ham yozadi. Matbuotda uning goh anglikan cherkovini, goh katoliklarni quvvatlovchi chiqishlarini uchratish mumkin bo'lgan.

Unga haqiqiy mashhurlik keltirgan bu "Haqiqiy angliyalik" kitobi bo'lib, bunda u burjuaziyaning qarashlarini yoqlab kelayotgan qirol Vilgelmi quvvatlab, uni tanqid qilayotgan aristokratlarga qarshi chiqadi. Qirol asli Niderlandiyadan bo'lib ingliz tilida yaxshi so'zlay olmasdi. Defo oliy tabaqa vakillariga ularning o'zlari ham haqiqiy ingliz emasligini, eski aristokratlarning ajdodlari norman qaroqchilari bo'lgan bo'lsa, yangilarining ota-bobolari Styuartlar restavratsiyasi davrida Angliyaga kelgan fransuz qarol va sartaroshlarining avlodlari ekanligiga ishora qiladi. Aristokratlarning balandparvoz unvonlari esa ularning o'g'irlangan pullariga sotib olinganini aytadi. Uslubu kitob 3 kun ichida 80 ming nusxada sotiladi. Defo shu kitobidan so'ng qirolga yaqin kishiga va Angliyaning yirik siyosatchisiga aylanadi. Ammo qirol vafot etgach u o'z himoyachisidan ayriladi.

Cherkov va aristokratiya Defoni uning "Dissidentlardan qutilishning eng oson yo'li" nomli zaharxanda pamfleti uchun sudga beradi. Sud Defoni 7 yillik qamoq jazosi, shtraf to'lashga va 3 marta sharmandalik ustuniga bog'lab sazoyi qilinishga hukm qiladi. Ammo ularning kutgani bo'lmay, Defoning muxlislari uni qutlab, gullarga va maqtovlarga ko'madilar. Keyinroq Defo o'zining quvnoq "Sharmandalik ustuniga madhiya" asarini ham yozadi.

Hibsga olinishidan sal avval Defo britaniyaning birinchi ministri Robert Xarlga maktub jo'natadi, unda Angliyada maxsus razvedka va kontrrazvedka xizmatini tuzish haqidagi fikrlarini bayon etadi. Xarlga bu taklif ma'qul tushib, Defoni 1 yildan so'ng ozod bo'lishiga yordam berib unga maxsus xizmatlarni tuzishni topshiradi. U davrlarda ayg'oqchilik jentelmen uchun yarashmaydigan ish sanalgan. 1909 yilgacha bu kahi xizmatlar Angliyada davlat maqomiga ega bo'lmagan. Defo faqat Angliyadamas, balki Yevropada yagona bo'lgan keng tarmoqli razvedka xizmatini tuzishga erishadi. Defo bu xizmatni jami 16 yil boshqaradi va 1719-yilda uni tark etadi. Aynan shu yili Defo "Robinson Kruzo" romanini yaratib yozadi.

1709-yilning 1 fevralida Tinch okeanidagi Xuan Fernandes arxipelagi orollaridan birida shotland matrosi Aleksandr Selkirkni topadilar, u kimsasiz orolda 4 yil yolg'iz hayot kechiradi. Selkirkning hayoti ijodiy qayta ishlanib, to'ldirilib Defo tomonidan romanga aylantirildi va robinzonada janrining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Buyuk Britaniya har tamonlama dengiz va okeanlar bilan o'ralgan xilma-xil sarguzashtlarga boy mamlakat edi. Defoning bu romaniga asosiy turtki bo'lgan sabablardan biri ham shu bo'lsa kerak, 1713-yili ingliz yozuvchisi Richard Stil «Angliyalik» nomli jurnalida Aleksandr Selkirk to'g'risidagi ocherk bilan chiqadi. Bu matrosni kema kapitani kelisholmay qolganligi uchun uni Janubiy Amerikaning Chili qirg'oqlaridagi Xuan Fernandes orollaridan biriga tashlab ketadi. Richard 4 yilu

4 oy hayot kechiradi. Shu davrda u deyarli yovvoyilashib qoladi. Defoning Robinson Kruzosi esa 28 yil orolda yashab o'zining barcha insoniy xislatlarini yo'qotmaydi.

Bu romanning asosiy qismi yolg'iz insonning kimsasiz orolda yovuz tabiat kuchlari bilan yuzma-yuz olushuviga bag'ishlangan. Bu kurashda qahramon g'alaba qozonadi, kimsasiz orolni inson yashaydigan ajoyib makonga aylantiradi. U og'ir sharoitda faqat o'z kuchi, aql-irodasiga ishonib ish ko'radi. Yozuvchi buning bilan go'yo inson kishilar jamiyatidan ajralgan holda hamda yashay olishi mumkin, degan XVIII asr falsafasiga xos qarashni isbotlamochi bo'ladi. «Robinson Kruzo» romani holalar kitobi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Robinson bajarayotgan mehnat jarayonining batafsil hikoya qilinishi yosh kitobxonlarga alohida havas o'yg'otadi. Qahramon o'quvchi ko'z o'ngida goh toshyo'nar, goh dehqon, goh duradgor, goh kemasoz, goh yer haydovchi, goh ovchi sifatida gavdalanadiki, bu yosh kitobxoniga olam-olam huzur bag'ishlaydi. Robinson bu xildagi ishlarni bajarar ekan juda katta qiyinchiliklarga duch keladi. Ammo irodasi kuchli bo'lgan Robinson o'z maqsadiga erishish uchun har qanday qiyinchiliklarni yengadi. Yosh kitobxon borgan sari kimsasiz oroldagi Robinson hayoti mukammallashib, mazmun kasb etib borayotganiga guvoh bo'ladi. Ayniqsa, asarning sodda, jozibador tili va uslubi bolalarda qiziqish uyg'otib, ularda mehnatga hamda insonga bo'lgan hurmatni tarbiyalaydi.

XXI asrga kelib jahon adabiyotida sarguzasht adabiyotining bir ko'rinishi sifatida "robinzonada" janri yuzaga kelishi ham XVIII asrga borib taqaladi va aynan Daniyel Defoning "Robinson Kruzoning sarguzashtlari" romanidan boshlanadi. Bu janrdagi asarlarda bir yoki bir qancha kishining kimsasiz orolda hayot kechirish mashaqqatlari tasvirlanadi. Aslida bunday mavzudagi asarlar Defodan avvalroq ham yaratilgan bo'lib. Masalan, arab yozuvchisi Ibn Tufayl XII asrdayoq kimsasiz orolda tug'ilib hayot kechirgan kishi haqida yozgan edi. Shu kabi voqealar rimlik shoir Lukianing "Haqqoniy voqea" va Shekspirning "Bo'ron" asarida ham tasvirlangan.

Ammo aynan Daniyel Defo romanidan so'ng bu janrdagi asarlar ko'plab yaratila boshlandi. Bularga misol qilib, pastor Vissaning "Shveysar Robinsoni" (1812), R. Ballantaynning "Korall oroli", Jyul Vernning "Sirlil orol", Gerbert Uellsning "Doktor Moro oroli", Uilyam Goldingning "Pashshalar sultoni", Umberto Ekoning "Arafadagi orol" asarlarini keltirish mumkin.

Adabiyotshunoslikda, shu bilan birga kino san'atida ham bugungi kunda "robinzonada" atamasi ostida jamiyatdan ajralib qolgan kishilarning hayoti va sarguzashtlarini tasvirlagan asarlarni tushunilmoqda. Atamaga bunday yondoshilganda esa Redyard Kiplingning "Jungli bolalari" haqidagi hikoyalari, Maugli yoki Tarzan haqidagi asarlar yoki Aleksis Kivi qalamiga mansub "Yetti aka-uka" va Knut Gamsunning "Pan" romanlarini ham bular qatoriga qo'shish mumkin.

JONATAN SVIFT HAYOTI VA IJODI

(1667-1745)

Jonatan Svift 1667-yilda Dubiinda ingliz muhojiri oilasida tug'ilgan. Otasi u tug'ilmasdandan avvalroq vafot etgan edi. Ziyrak Jo huquqshunos tog'asi qo'lida tarbiya topdi. 14 yoshida Dublin universitetining dinshunoslik fakul'tetiga o'qishga kirdi. U universitetni tugatgan vaqtda Dublinda irland katoliklarning inglizlarga qarshi qo'zg'oloni yuz beradi. Irlandiyadan quvilgan ingliz oilalari qatori yosh

dinshunos olim Svift ham Angliyaga keladi. Angliyada u otasining yaqin do'sti Uilyam Templning Mur-Park degan so'lim qishlog'ida boshpana topadi. Uilyam Templ uzoq vaqt Angliyaning Gollandiyadagi elchisi bo'lib ishlagan, obro'li odam edi. U adabiyot ixlosmandi, o'zi ham ijodkor bo'lgan. U iste'dodli yosh shogirdi J. Sviftni o'ziga kotib qilib oladi va yaxshigina maosh to'laydi. Svift Templ kutubxonasidan unumli foydalanadi, gazetalarga pamflet, maqola, she'r va felyetonlar yozadi. Svift Templning asrandi qizi Ester Yulduzga ham ustozlik qildi.

XVII asr oxirlarida Fransiyada keyinroq Angliyada qadimgi adabiyot tarafdorlari bilan yangi adabiyot tarafdorlari o'rtasida qizg'in bahslar bo'lib o'tadi. Bu adabiy bahsga janob U. Templ va uning shogirdi Svift ham qatnashadi.

O'shanda buyuk faylasuf olim Nikolo Bualo qadimgi adabiyotni, folklorshunos, xalq ijodi muxlisi Sharl Perro yangi davr adabiyotini himoya qilib chiqdi. J. Svift 1697-yilda shu bahsga bag'ishlab, (ustoz Templning topshirig'i bilan) "Kitoblar jangi" nomli mashhur hajviya-pamfletini yozadi. Bu asarda qadimiy va yangi kitoblar ramziy ma'noda bir-biriga qarshi qo'shin tortishar, qadimgi yunon shoiri Pindar yangi ingliz shoiri Kauliga qarshi, ulug' "Iliada" ijodkori Gomer yangi qasidachi Draydenga qarshi jang qilishadi. Bu jangda Zevs, Afina, Appollon, Afroditalar qadimgi adabiyot qo'shinlarini himoya qilsa, yangi davr adabiyotiga esa "Adabiy tanqid" nomli mayib-majruh "Tangri" homiylik ko'rsatadi. Svift ijodiga xos kinoya, qochiriqlar mana shu ilk asaridayoq ko'rinib qoldi.

Qadimiy va yangi kitoblar o'rtasidagi jangda Sviftning o'zi ikkala tomonni himoya qiladi. U hajviyasini o'rgimchak va asalari haqidagi hikoyat bilan tugatdi. Sviftning fikricha, "Haqiqiy adib o'rgimchak singari o'z ichidan chiqqan to'qima iplari bilan tanob tortaverish yaxshi emas, asl ijodkor asalariyada hamma yerda hayot materiali sharbatini yig'ib uni san'at asliga aylantirishi kerak. (Grajdanskaya va boshqalar. Chet el adabiyoti tarixi XVIII asr. MGU. 1974 yil 37- bet)

1699-yilda Sviftning ustozlari Templ vafot etgach, o'ttiz ikki yoshli adib Mur-Parkdan chiqib ketadi. Adib shundan so'ng Irlandiyaga qaytib cherkov noziri vazifasida ishlay boshlashdi. O'sha vaqtlarda Irlandiya ruhoniyolari Angliya ruhoniyalaridan huquq jihatidan kamsitiladi. Irlandiya hukumati vakillari shoir va hajvchi Svift obro'sidan foydalanib o'z huquqlari uchun kurashda undan yordam so'rashadi. Svift bunga rozi bo'lib, ko'p yillar Irlandiyaga yordam ko'rsatib, Angliya martabali rahbarlari bilan uzoq vaqt muzokaralar olib bordi.

Adib o'zining o'tkir maqola va hajviyalari bilan Yevropadagi urushning xalq ommasiga juda katta zarar keltirayotganligini isbotlab, keng jamoatchilikni sulh tuzish uchun kurashga da'vat etdi. Svift urushni to'xtatish tarafdori bo'lgan torilar partiyasini qo'llab-quvatlaydi. 1711-yilda esa torilarning davlat tepasiga kelishiga, 1713-yilda Angliya va Fransiya o'rtasida tarixiy Utrekt sulhi tuzilishiga J. Svift hal etuvchi ta'sir ko'rsatadi.

Atoqli jamoat arbobi bo'llshiga qaramay, Svift kambag'al hayot kechiradi. Uning Londondagi faqirona uyiga ministrlar va boshqa arboblardan maslahat so'rab kelib turishardi. U torilarning "Ekzaminer" gazetasiga haq olmasdan muharrirlik qilar, qirolicha va ministrarning nutqlarini yozib, tahrir qilar edi.

Mamlakat ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotini inqirozga uchratayotgan ixtiloflarga qarshi J. Svift o'zining eng yaxshi asarlaridan biri "Bochka ertagi

hajviyasini yozdi. Adibning yozilishicha, bir ota o'zining 3 o'g'liga turli mol-mulk bilan birga 3 ta bir xil ko'ylak meros qoldiribdi. Ota o'g'illariga: "Hech qachon bu ko'ylaklarni buzib, tuzatib, o'zgartirmanglar, hamisha bir xil kiyiminglar", deb vasiyat qilindi. Farzandlar ota vasiyatiga 7 yil amal qilishdi. Ammo shundan so'ng ular o'rtasida janjal chiqib, har kim o'z ko'ylagini buzib, so'kib, tuzatadigan bo'libdi. To'ng'ich o'g'il Piter o'z ko'ylagini turli kashtalar, nishonlar bilan bezab tashlabdi. Kichik o'g'il ko'ylagi uvadasi chiqib, ilma-teslik bo'lib ketibdi. Faqat o'rtancha o'g'il Martin ko'ylagini o'zgartirmay, ota vasiyatiga amal qilishga urinibdi. Bu ertakda Svift xristian dinining turli mazhablari o'rtasidagi noaniqlikni fosh etadi. Fransuz mutafakkiri Volter bu asarga qoyil qolib; "Svift o'g'illariga qamchi urganida, otasiga ham tegib ketadi", - deya hajviyachining jur'atiga ishora qilgan edi.

Mavjud qonunlarga ko'ra, Svift ruhoniy bo'lgani uchun dunyoviy amaldorlikka saylanmasdi. Mansabdor do'stlar Sviftga oliy diniy lavozim-yepiskoplikni va'da qilishgan edi. Ammo adib bu niyatiga ham yetolmadi. Do'stlarining va'dalari yolg'on bo'lib chiqdi. Malika Anna aslzoda bo'lmagan Sviftni jur'atli fikrlari uchun yaxshi ko'rmasdi. Ministrlar esa uning qalami va xalq o'rtasidagi obro'sidan foydalanishiga ko'zlardilar, xolos. Buyuk ingliz adibi, mashhur "Manmanlik bozori" romani avtorlari U. Tekkereyning aytishicha, "Yepiskoplik nishoni kelayotgan kareta (soyabon arava) boshqa yo'ldan o'tib ketadi. Svift esa so'kinganicha, to'pponchasidan osmonga o'q otib qolaverdi". Aksincha Sviftni poytaxtdan chetlashtirish uchun, uni Dublindagi avliyo Partik ibodatxonasiga nozir qilib tayinlashdi.

Umid, orzulari amalga oshmagan, qizg'in kurashlarda holdan toygan adib yana Angliyaning chekka viloyati - Dublinga yo'l olar ekan: "Qolgan umrimni margimush yegan kalamushday, bir kavakda jon talvasasida o'tkazadigan bo'ldim", deb qayg'uga botadi.

Ammo Angliyaning mashhur publisisti bo'lgan adib o'zini dunyo ishiaridan chetga olmadi. Irland xalqining milliy ozodligi uchun kurashiga faol yordam berdi. Sviftning shoh asari, jahon adabiyotining durdonasi bo'lmish "Gulliverning sayohatlari" mana shu quvg'in yillari yaratildi.

J. Svift ingliz bo'lsa ham irlandlarga past nazar bilan qaramadi, ularning huquqlari toptalishiga qarshi chiqdi. U Dublinda yashagan vaqt Angliyaning olchoq lordlari irland dehqonlarini xonavayron qilayotganligini, irland hukumatining barcha huquqlari tortib o'lganligini, irland xalqining taqdiri Londonda hal etilayotganligini g'azab bilan fosh etuvchi asarlari yozdi.

Xuddi shu kabi muammolar "Gulliverning sayohatlari" da ayniqsa yorqin badiiy quvvat bilan aksini topdi. Aslida Svift bu asarini boshqa bir buyuk adib D. Defoning "Robinson Kruzo" romaniga hajv sifatida boshlagan edi. Afsuski, bir zamonda yashagan ikki buyuk adib bir-biriga dushman bo'lgan. Defo ham, Svift ham bir-birini amaldorlarga xushomadgo'ylik qilishda, sotqinlikda ayblar edilar. "Robinson Kruzo" ning bir necha qismdan iborat davomi bo'lib, ularda qahramon mavjud qiroqlik tuzumida, adolatli qonunlar asosida oddiy mehnatkash odam o'z bahtini topadi, degan g'oyani ilgari surgan edi. Svift esa, aksincha bir-biridan badtar olchoq, ochko'z, molparast, mansabparast, tekinxo'r, takabbur qirollar va ministrlar hukmronlik qilgan jamiyatda inson hech qachon baxtini topolmasligini Gulliver

sayohat qilgan o'lkalar timsolida ravshan ko'rsatadi. Ijodining gultoiji bo'lib qolgan asari «Lemyuel Gulliverning jahondagi bir necha olis mamlakatlarga avvalo jarroh, keyinchalik esa, bir necha kemalar kapitani sifatida qilgan sayohatlari» yoki qisqacha aytganda «Gulliverning sayohatlari» (1726) dir. Roman qahramoni afsonaviy Liliputiya, ulkan odamlar mamlakati Brobdingnegga, Laputa, Glabbdobdribga hamda aqlli otlar mamlakati bo'lgan Guingngaimiyaga sayohat qiladi. Qahramon o'z sayohati davomida uchratgan fantastik vaziyatlar, afsonaviy obrazlar, yozuvchi mubolag'asining kuchi bilan yaratilgan xilma-xil manzaralarni realistik tarzda tasvirlashga xizmat qiladi. Svift satirasining kuchi ham, u yaratgan ajoyib asarning asrlar davomida o'z qimmatini yo'qotmay kelayotganligining boisi ham shunda edi.

«Gulliverning sayohatlari» romani to'rt qismdan iborat. Birinchi qismda Liliputlar-mitti odamlar mamlakati haqida hikoya qilinadi. Bu mamlakat kishilari oddiy odamlardan o'n ikki barobar kichikdir. Liliputiya majoziy ma'noda, yozuvchi yashab turgan Angliya davlatidir. Undagi barcha hodisalar Angliyadagi ijtimoiy ahvolni eslatadi. Liliputiya yashovchilar haddan tashqari kichkina odam bo'lsada, ularning qiroli, ministrleri, harbiy qo'shini, dengiz floti va turli-tuman qonunlari mavjud. Bu mamlakat odamlari amaldorlari xalq manfaatidan ko'ra o'z foydasini ko'proq o'ylaydi. Liliputiya ham, Angliyada bo'lgani kabi, ikki xil partiya bor. Bular baland poshnalilar hamda past poshnalilar partiyasi deb ataladi. Mazkur partiyalar Angliyadagi "Torilar" bilan "vigilar" partiyasini eslatadi. Har ikkala partiya o'rtasida doimo nizo davom etadi. Ammo ularning siyosatlarini orasida uncha katta farq yo'q, tafovut faqat poshnasining baland yoki past ekanligidadir.

Lemyuel Gulliver mittivoylar o'lkasida tog' odamga aylanadi. Oyog'i ostida minglab liliputlar uymalashadi. Gulliverning ro'molchasida chavondoqlar ot o'ynatadi, qahramon 600 ta to'shakda uhladi. Dorbozlar o'lkasida esa Gulliverning o'zi mitti bo'lib qoladi. Kichkina quticha-sandiqchada yashaydi. So'ng sadiqchani burgut changalida osmonga olib chiqib ketadi. Gulliver otlar o'lkasida borib qoladi. Bu yerda otlar odamlarni minib yuradi.

Svift o'z hayoti davomida Angliya hukumati rahbarlariga juda ko'p yaxshiliklar qilgan bo'lsada, ular adibga bergan va'dalarni tez unutishdi... bundan insoniy g'ururi ozor topgan adib "Gulliverning sayohatlari" da bunday hazil qiladi; "Hamma odamlar amaldorlarning xotirasi pastligidan shikoyat qiladi... shu va vajdan har bir odam-ministr qabuliga kirib, arzini qisqa aytgandan so'ng, esida qolishi uchun uni burnidan chimchilashi yoki qorniga bir tepishi kerak bo'ladi..."

"Gulliverning sayohatlari" avtorini "Robinzon Kruzo" avtorini bilan bahslashgan ekan, hayotning cheksiz rang-barangligini, murakkabligini, kulgili va fojiali voqealarga boyligini idrok etishda Defoga nisbatan yuksaklikka ko'tariladi. Shu bilan birga u inson ruhiy xolatlarni, qahramonni o'rab turgan tabiiy va ijtimoiy muhitni keng, batafsil tasvirlashni Defodan o'rganadi ham.

Asar qahramoni Gulliver turli afsonaviy joylarga borib, fantastik voqealarni boshidan kechirsa-da, uning xarakteri fe'l-avtorini, ichki dunyosi nihoyalda haqqoniy bo'yoqlarda chiziladi.

Laputaga sayohatda ahmoq odamlar ko'payib keganligini tasvirlaydi. Laputa hukumati lapakka o'xshash uchar orolda yashaydi. Laputadagi "Lo'ttibozlar

akademiyasida" ahmoqona marmarni qumga aylantirish, yungsiz qo'ylarni urchitish, uylarni tomidan boshlab qurish haqida bosh kotirishadi..

Asarning falsafiy utopiya darajasiga ko'tarilgan oxirgi qismida otlar aqlli zotlarga, odamlar maymunsimon aqlsiz mahluqlarga – yexularga aylanadi. Yexularning eng xunugi va ahmog'i podsho bo'ladi.

J. Sviftning bu asari jahonning deyarli barcha tillariga tarjima qilingan. O'zbek tiliga Sotvoldi Yo'ldoshev rus tilidan tarjima qilgan.

NEMIS MA'RIFARCHILIK ADABIYOTI

XVIII asrda Germaniya iqtisodiy jihatdan qoloq, siyosiy jihatdan tarqoq mamlakat bo'lib qolmoqda edi. 30 yillik urushdan keyin (1618-1648) Germaniya juda og'ir ahvolga tushib qoldi. U "Muqaddas Rim imperiyasi" nomi bilan atalib, mamlakatni Avstriyaning gabsburglar dinastiyasidan chiqqan imperator boshqarar edi. Angliya va Fransiya markazlashgan davlat vujudga kelgan bo'lsa, Germaniya bu davrda 300dan ortiq mayda knyazlik, gersoglik, graflik hamda imperiya shaharlaridan iborat bo'lgan kichik davlatlarga parchalanib ketgan edi. Bu mitti davlatlar boshida turgan knyaz, graf, gersoglar mulklarini, yerlarini o'zboshimchalik bilan boshqarar, mustaqil siyosat o'tkazar edilar. Ular imperatorga bo'ysunmas, shuning uchun Germaniyaning bir butun davlat bo'lib hirlashuviga asosiy g'ov bo'lardilar. Cherkov bu tartiblarni himoya qilar, xalq ommasining ongini jaholatda saqlab, feodalizmga xizmat qilishga undar edi. Lekin bu davr ayni vaqtda nemis adabiyotining buyuk davri edi. Germaniyadagi hamma buyuk zotlar: Gyote va Shiller, Kant va Fichte dunyoga keldilar. Nemis adabiyoti va uning vakillari o'z asarlarida feodal tartiblarini, cherkov va diniy taassublikni keskin qoralab chiqdi. Nemis ma'rifatchiligining ma'lum darajada cheklanganligi bilan birga uning nemis xalqi oldidagi xizmatlarini ko'rmaslik noto'g'ri bo'lar edi. Nemis adabiyoti va madaniyati Lessing va Gotshed, Gellert va Vinkelman, Mendelson va Nikolay kabi shoir va yozuvchilarni, "Bo'ron va tazyiq" adabiy harakatining ajoyib pleyadasini, Gyote bilan Shillerni, nemis musiqasining o'lmas daholari Mosart va Betxovenni yetishtirdi.

"Bo'ron va tazyiq" adabiy harakati yosh shoirlarning isyonkorlik ruhida yozgan asarlari natijasida yuzaga keldi. Bu harakatning nomi F.M.Klingerning "Bo'ron va tazyiq" (1776) nomli dramasi nomidan olindi. "Bo'ron va tazyiq" harakatining asoschisi I.G.Gerder. "Bo'ron va tazyiq" harakatining vakillari "shtyumerlar" – "jo'shqin daholar" deb nom oldilar. Bu harakat vakillarining asarlari o'sha zamon Germaniyasida hukm surayotgan hayotdan norozilik, amaldorlarning zulmiga qarshi g'azab va nafrat, nemis mehnatkashlari ahvoliga achinish bislariga to'la edi. Gyote bilan Shillerning ilk ijodlari ana shu "Bo'ron va tazyiq" harakat bilan bog'langan (Gyotening "Gyos fon Berlixingen" dramasi, Shillerning "Qaroqchilar", "Makr va muhabbat" nomli tragediyalari).

FRIDRIX SHILLER HAYOTI VA IJODI (1759 -1805)

Buyuk nemis shoiri Fridrix Shiller 1759-yil 10-noyabrda Vyurtemberg gersogligida tug'iladi. Otasi – Yoxann Kaspar Shiller (1723-1796) Vyurtemberg gersog xizmatining harbiy shifokori bo'lgan. Onasi – Elizabet Doroteya Kodveys

(1732-1802) qishloq novvoyi oilasidan chiqqan. Fridrixning yoshlik va o'smirlik davri kambag'allikda o'tgan. 1764-yil Shillerlar oilasi Loxga ko'chib o'tadi. Lox diqqatga sazovor tarixiy obidalarga boy joy bo'lib, yosh Fridrix atrof-muhitni, tarixiy voqelikni bolaligidan shoirona idrok qila boshlaydi. Dastlabki ma'lumotini mahalliy ruhoni Mozerdan olgan. U yerda lotin va grek tillaridan boshlang'ich saboqni oladi. Samimiy va oqko'ngil bu ruhoni obrazini keyinchalik o'zining "Qaroqchilar" dramasi abadiylashtirdi.

1766-yilda oilasi Lyudvigsburgga ko'chib o'tgach Fridrix mahalliy lotin maktabiga beriladi. Mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqish Shillerda yuqori sinflarda – lotin klassiklari Ovidiy, Vergiliy, Horasiy ijodlari o'rganilayotganda uyg'ondi.

Shillerlar oilasi cherkovda o'tkaziladigan fortepyano konsertlari, musiqa nazariyasi bo'yicha ma'ruzalar, adabiyot haqidagi suhbatlarda doim qatnashib turardi. Bu bo'lajak shoirning ijodiy o'sishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Uning she'rlari ilk bor o'n yetti yoshida "Oqshom", "Shvabiya" jurnalida e'lon qilinadi.

1772-yili lotin maktabining imtihonlarini a'lo bahoga topshirib bitiradi. Shu yili gersog nazari lotin maktabi bitiruvchilarining ro'yxatidagi yosh Shillerga tushadi. 1773-yil Shillerlar oilasiga Fridrixni Karl Yevgeniy tomonidan Solyuted qasrida ta'sis etilgan "Karl olly maktabi"ga kelib o'qishi haqida xabar keladi. Fridrix u yerda huquqshunoslikka o'qiydi. Yoshligidan ruhoni bo'lishni orzu qilgan Shiller huquqshunoslik ilmiga unchalik qiziqmaydi. 1776-yil Shiller tibbiyot fakultetiga o'tadi. Bu yerda u mashhur va iqtidorli o'qituvchilar, jumladan, talabalarning sevimli professori Abelning falsafadan o'qigan ma'ruzalarini tinglaydi.

O'qishi davrida Shiller shoirlikka bo'lgan ishtiyoqi kuchayganligini sezadi va she'rlar hita boshlaydi. O'sha davrda faoliyat yuritayotgan "Bo'ron va tazyiq" adabiy harakati shoirlari ijodi bilan qiziqadi. Shiller Shekspir ijodidan dramaturgiyani o'rgangan bo'lsa, Volter, Didro, Russo, Lesing, Gyote asarlari uning dunyoqarashining shakllanishiga, hadiy tafakkurining boyishiga xizmat qilgan.

1781-yili Akademiyada o'qish davrida yoza boshlagan "Qaroqchilar" dramasi tugatadi va nashr qildiradi.

"Qaroqchilar" dramasi ilk marta Mangeymda 1782-yilda sahnaga qo'yiladi va tomoshabinlar orasida katta muvaffaqiyat qozonadi. Shu yil Shiller Fransiya Respublikasi fuqarosi unvoniga ega bo'ladi.

Shiller "Qaroqchilar" asariga dramaning isyonkor ruhini ifodalaydigan "Zolimlar dastidan dod" so'zlarini epigraf qilib oladi. Asar voqealari ikki yilcha vaqt ichida Germaniyada bo'lab o'tadi.

Graf Maksimilian fon Moorning ikki o'g'li bor. Kattasi Karl Moor Leypsig shahrida o'qiydi. Kichik o'g'li Frans Moor shug'ratparast, amalparast bo'lgani uchun otasining o'rnini egallash maqsadida qo'ldan kelgan barcha pastkashliklarni qiladi. Tartibsiz hayot oqibatida qarzga botgan Karl otasiga pul so'rab murojaat qilganda, Frans xatlarini otaga soxtalashtirib o'qib beradi, akasiga tuhmat qiladi. Ilojsiz Karl atrofiga o'ziga o'xshagan yoshlarni yig'ib, qaroqchilik qilib, amaldorlarni, ruhoniylarni, zolimlarni talab, yurtga dahshat soladi. Qaroqchilar kundan-kunga kuchayib, ko'payib boradi. Ularni hatto hukumat askarlari ham yenga olmaydi. Bu xabar grafga yetib keladi. Buning ustiga Frans saroydagi bir kishini pulga yollab, graf huzuriga kiritadi. Bu odam xasta grafga Karlni o'limi haqidagi uydurma xabarni

aytadi. Ota jon beradi. Buni kutib turgan Frans otasini ko'mishni buyurib, o'zi graflik lavozimini egallab, saroyda adolatsizlik o'rnatadi. Karl begona odam qiyofasida saroyga kelib, otasining vafot etganini, sevgan qizi Amallya undan yuz o'girganini ko'radi va tunda qaroqchilar tomonidan o'g'irlangan Amallya Karlning yoniga o'rmonga keltiriladi hamda o'ldiriladi. Qaroqchilarga qarab esa o'zini hukumat qo'liga topshirmoqchi ekanligini aytadi.

Shiller bir to'da qaroqchilar yordami bilan adolatsiz feodal tuzumini o'zgartirmoqchi bo'ladi. Shuning uchun Karl Moor tilidan: "Menga, mening o'zimga o'xshash bir necha bahodirni bering, men Germaniyani shunday respublikaga aylantiramanki, uning oldida Rim ham, Sparta ham ayollar monastiri bo'dib qoladi", deydi. Bu xitoblar Karlning oddiy qaroqchi bo'lmay, jamiyatni o'zgartirishga hel bog'lagan isyonkor ekanligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga 1782-yil Shiller "1782-yil antologiyasi" nomi ostida she'riy to'plam nashr ettiradi.

Polkdan "Qaroqchilar" tomoshasiga ruxsatsiz ketganligi uchun gaupvaxtaga 14 kunga qamaladi va tibbiyotga oid asarlardan boshqasini yozish ta'qiqlanadi. 1782-yil 22-sentabr kuni Shiller muzikachi o'rtog'i Shtreyxer bilan gersoglikdan qochishga majbur bo'ladi.

Shiller "Genuyada Fiyeskoning fitnasi" pyesasini Akademiyadagi falsafa o'qituvchisi Yakov Abelga bag'ishladi. Bu pyesani gersog tazyiqidan cho'chib Mangeym teatrida qo'yishmadi va Shillerga shahardan ketishni maslahat berishadi. Fridrix Shmidt ismi ostida do'sti Shtreyxer bilan Oggersgeym qishlog'ida yashaydi. Shu yerda u "Makr va muhabbat" dastlabki qismlarini yozadi.

1783-yil Shiller Mangeymga qaytadi va "Genuyada Fiyeskoning fitnasi" asarini sahnaga qo'yadi. Aktyorlarning mahoratli ijrosiga qaramasdan, pyesa u qadar muvaffaqiyat qozonmadi. Shundan so'ng Shiller "Luiza Miller" dramasi qayta ishlashga kirishadi. Repetisiyalardan birida aktyor Avgust Iffland dramaning nomini "Makr va muhabbat" deb nomlashni maslahat beradi.

1784-yil 15-aprelda pyesa sahnaga qo'yiladi va misli ko'rilmagan ulkan muvaffaqiyat qozonadi, Shillerning dong'ini taratadi va Germaniyaning birinchi dramaturgi sifatida tanitadi.

Mangeymda Fridrix Shiller Veymar gersogi Karl Avgust bilan tanishadi. Gersog Karl Avgust Shillerni Veymar maslahatchisi vazifasiga tayinlaydi, ammo bu ham daramaturgga moliyaviy ahvollni yaxshilashga yordam hermaydi.

Shu davrda mashhur nemis aktyori va teatr direktori Fridrix Shreder "Don Karlos" ni Gamburg milliy teatrida qo'yishni taklif qiladi, ammo Shiller Mangeym teatri bilan munosabatlarini eslab, rad etadi. Shundan so'ng 1787-yilda yirik yozuvchilar Martin Viland va Yoxann Gotfrid Gerder bilan yaqindan tanishadi. Viland Shiller ijodiga yuksak baho beradi va hurmat bilan qaraydi. Ular o'rtasidagi do'stlik uzoq yillar davom etadi.

1787-1788 yillarda Shiller "Taliya" jurnalida muharrirlik qiladi.

1788-yili Shiller Gyote bilan tanishadi. Gyote bilan do'stlashuvi uning ijodkorlik salohiyatiga katta ta'sir ko'rsatdi. Keyinchalik (1825 yil 12 may) Gyote kotibi Yohann Peter Ekkerman bilan bo'lgan gurunglarda Shillerni eslab shunday

deydi: “Shillerni olaylik, u ancha yosh edi, umrining ayni gullagan chog’ida, men esa hayotdan charchay boshlaganimda uni uchratdim.”

Yena va Veymardagi do’stlari, shu jumladan, Gyote Shillerga shu davrda gullab-yashnagan Yena universitetining tarix va falsafa fanlari professorligi vazifasini olib berishga kirishishadi.

1789-yil 11-mayda Shiller Yenaga ko’chadi va 800 kishilik universitetda ma’ruza o’qiydi. “Jahon tarixi nima va u nima uchun o’rganiladi?” nomli ma’ruzasi katta shov-shuvga sabab bo’ladi. Tinglovchilar tomonidan gulduros qarsaklar bilan olqishlandi.

Universitetda to’lanadigan maoshi ko’p bo’lmasa-da, Shiller uylanishga qaror qiladi. Bu haqda xabar topgan Karl Avgust unga 1789-yil dekabrda yiliga 200 taler miqdorida maosh belgilaydi. Shundan so’ng Shiller Charlotta fon Lengefeld bilan turmush quradi.

O’sha yillarda Shiller o’zining “30 yillik urush tarixi” kitobi ustida ishladi, Vergiliyning “Eneida” asari 3-4-kitoblari tarjimasini nashr ettirdi. Tarix va estetikaga oid maqolalar chop ettirdi.

1791-yil boshida Fridrix Shiller o’pka sili bilan og’riydi. Haftalab, oylab ijod qila olmaydi, ayniqsa, 1792-yil qish oylarida kasali qattiq xuruj qiladi. Shunda universitetda dars berishni to’xtatishga majbur bo’ladi. Bu majburiy dam olishni Shiller Immanuel Kant falsafasini o’rganishga bag’ishlaydi.

1793-yil yozida Shiller Lyudvigsburgdagi uyidan otasi kasalligi to’g’risidagi xat olgan edi. Shiller turmush o’rtog’i bilan (bundan 11 yil oldin ko’rishgan) ota-onasi va singillarini ko’rish uchun Lyudvigsburgga borganda 1793-yil 14-sentabrda o’sha yerda birinchi o’g’li tug’iladi. Gersog Karl Yevgeniy o’limidan so’ng Shiller akademiya boradi va u yerda uni talabalar qizg’in kutib olishadi. 1793-1794 yillarda o’zining eng mashhur va ahamiyatli asarlaridan biri “Kishini estetik jihatdan tarbiyalash to’g’risida xatlar” ini yozib tugatadi.

Yenaga qaytgach kuch-g’ayratini to’plab barcha mashhur, iste’dodli yozuvchilarni bitta jamiyatga birlashtirishni maqsad qiladi. 1795-yilda u qator falsafiy she’rlar yaratdi. 1794-yilda Yenada o’tgan yig’ilishdan chiqqan Gyote va Shiller yo’l-yo’lakay eshitilgan ma’ruzani muhokama qilib kelib, Shillerning uyigacha kelishadi va Gyote mehmonga taklif qilinadi. Gyote bilan bo’lgan uzoq suhbatdan keyin ular orasida yanada mustahkamlangan do’stlik Shillerning vafotigacha davom etadi. Ularning yozishmalari jahon adabiyotida epistolyar yodgorlik sifatida alohida o’rin egallaydi. Ularning maqsadlari mushtarak edi. Ikki buyuk mutafakkir 1785-yilning 8 oyi davomida epigramma (qisqacha hajviy she’r) yaratish bo’yicha musobaqalashishi natijasida 800 ga yaqin epigramma yaratishdi va ularning eng yaxshilari saralanib, 414 tasi ajratib olinib, 1797-yil “Muzalar almanaxi” da nashr etildi. Ular mavzu jihatdan har xil: falsafiy, tarixiy, diniy, adabiyot va san’atga old. Ularda 200dan ortiq yozuvchilar va badiiy asarlar tilga olingan.

Gyote va Shiller birgalikda Veymar teatriga asos solishdi. Keyinchalik u Germaniyaning yetakchi teatriga aylandi.

1799-1800 yillarda Shiller nihoyat syujetini 20 yillab o’ylab yurgan “Mariya Styuart” pyesasini yozadi. Pyesa katta muvaffaqiyat qozondi. Shiller uni yakunlar ekan, endi o’zini dramaturglik mahoratni egallagan kabi his qildi.

1802-yil imperator Frans II Shillerga dvoryanlik unvonini berdi. Shillerning o’zi bunga shubha, ishonchsizlik bilan qaraydi va Gumboldga yozgan xatida shunday deydi: “Balki bizni shunday yuqori martabaga chiqarishganiga kularsiz, lekin bu gersogning xohishi. Bu narsa ro’yobga chiqib bo’lgan ekan, men buni Lolo va farzandlarim uchun qabul qilishga rozi bo’ldim”.

Shiller hayotining so’nggi yillari qiyim kechdi, qattiq shamollash oqibatida surunkali kasali xuruj qildi. 1805-yilning 9-mayida (ayrim manbalarda 12 may) 45 yoshida o’pka sili kasalidan vafot etdi.

Shillerning asarlarini birinchilardan bo’lib, Shamsiddin Sharafiddinov – Xurshid o’zbek tiliga o’girdi. 70-yillarda B.Yo’ldoshev tomonidan sahnalashtirilgan “Qaroqchilar” dramasi Asqad Muxtor tarjimasida hozirgi Milliy Akademik drama teatri sahnasida uzoq vaqt o’ynaldi. 80-yillarga kelib Shiller adabiy merosini o’rganish keng tus oldi. E.Vohidov, O.Matjon, Muhammad Alilar tomonidan she’rlari o’zbek tiliga tarjima qilindi. Bugungi kunda Shillerning “Qaroqchilar”, “Makr va muhabbat”, “Mariya Styuart” singari asarlari sahnalashtirildi.

Nobel mukofoti sovrindori Herman Hesse Shiller ijodi masalasida to’xtalib, “...inson sifatida uning ruhi hamda hayoti men uchun g’oyatda ardoqli va ulug’ hodisadir”, degan edi.

Gyote eslaydi: “Mana, yigirma yildan beri muxlislar bahslashishadi: Shiller buyukroqmi yoki menmi; aslida ular bahs boylashga arzigulik ikki yigit borligidan quvonishsa yaxshi bo’lardi”. “Shiller nima qilsa, maromiga yetkazib qilardi, hozirgi yosh yozuvchilarning eng yaxshi asarlaridan ham yuz karra ortiqroq qilib yozmaydigan bo’lsa, qo’liga qalam olmasdi” (Yohann Peter Ekkerman “Gyote bilan gurunglar”).

Aytish joizki, Shiller ijodining talaygina qismi o’zbek tiliga o’girilmagan, ko’p qirralari hali ochilmagan. “Don Karlos” pyesasi, “Vilxelm Tell” dramasi, falsafiy va lirik ruh bilan yo’g’rilgan she’riyati, elegiyalari, xatlari, estetikaga oid ishlari o’z tadqiqini kutmoqda.

GYOTE HAYOTI VA IJODI

(1749-1832)

2017-yil 28 avgustda buyuk nemis adibi, shoir, dramaturg va adabiyotshunos, huquqshunos va sharqshunos, tarixchi va faylasuf, rassom va teatrshunos, biologiya va mineralogiya fanlari bo’yicha kashfiyotlar qilgan olim va davlat arbobi Yohann Volfgang Gyote tavalludiga 268 yil to’ldi. U 1749 yilning Olmoniyaning Frankfurt-Mayn shahrida imperiya huquq maslahatchisi oilasida dunyoga kelgan. Shoirning otasi aslzodalardan bo’lmay, bir temirchining nabirasi va tikuvchining o’g’li bo’lgan. Biroq qobiliyati va o’qimishli advokat sifatida tanllgani uchun shahar sudyasining qiziga uylangan va ko’p o’tmay yuqori darajali amaldor bo’lgan. Gyotening onasi Yekaterina – Yelizaveta esa o’g’li Yohannga qiziq-qiziq ertaklar aytib bergan va undagi xayol ham zavqni parvarish qildirishga e’tibor bergan. Gyote o’zi keyinchalik o’z xarakterining shakllanishida ota va onasining ta’sirini shunday e’tirof etdi:

“...Hayotda jiddiyatim

Otamdan menga meros.

Erkaklarga rag’batim,

Sho’xlikka muhabbatim

Onamdan o'tgan, bu – rost...”

Gyote kichik yoshidan katta qobiliyat ko'rsatib, har narsaga qiziqqan, hamma narsani bilgisi kelgan. Unda, ayniqsa, tillarga, tarixga va she'riyatga katta moyillik ko'zga tashlangan. Tez vaqtda u fransuz, ingliz, italyan, lotin va yunon tillarini o'zlashtirib olgan. Yohanning tabiatga, tabiiy manzaralarga maftunligi shu darajada ediki, u soatlab quyosh, bulut, osmon, irmoq va bog'larning tomoshasidan to'ynagan.

16 yoshga kirganda Gyote otasining orzusi va taklifiga binoan Leypsig universitetining yuridik fakultetiga o'qishga kirgan, lekin keyinchalik Starsburg universitetining yuridik fakultetida o'qishini davom ettirib, oliy ma'lumotli yurist diplomini olgan. 21 yoshida doktorlik dissertasiyasini yoqlab, yuridik fanlar doktori unvoniga muvaffaq bo'lgan. U ko'pincha medisina, tabiat va adabiyot bilan shug'ullangan. Uning birinchi she'rlari ancha puxta ishlangan bo'lsa-da, hali talantla nazirachilikdan iborat bo'lgan. Strasburg shahrida Gyote o'zining asl ijodiy yo'lini topib olgan. Xalq poeziyasi, buyuk klassiklar – Ossian, Xomer, Shekspir asarlari bilan maroqlangan, bir qancha original she'rlar, masalan, “Cho'l checbagi” ni yozgan.

Gyote ijodining birinchi davri (1770-1775) “Bo'ron va shiddat” adabiy harakatiga taalluqli bo'lgan. U bu davrda Strasburgda yashab, “Gyos fon Berlixingen”, “Klavigo”, “Stella”, “Yosh Verterning iztiroblari”, “Muhammad”, “Prometey” kabi dramatik va prozaik asarlar, lirik she'rlar hamda estetikaga oid bir necha maqolalar yozgan.

Bu davrning birinchi yirik mahsuli “Gyos fon Berlixingen” dramasi (1773) bo'lib, bunda Gyote dehqonlarning feodalarga qarshi norozilik harakatiga rahbarlik qilgan risar obrazini tasvirlagan. Gyos xarakteridagi qarama-qarshiliklarga qaramasdan, bu asar yangi nemis adabiyotidagi burilishning birinchi belgisi va boshlang'ich nuqtasi bo'lgan.

1773-1774 yillarda boshlanib tugallanmagan “Prometey” tragediyasida Gyote insonlarning erk va nur yo'lida taqdirga va xudolarga qarshi isyon zo'r mahorat bilan ifodalangan.

“Yosh Verterning iztiroblari” (1774) romanida tole'ga qarshi kurashdan o'jiz qolgan yigitning fojiasi kuylangan. Bu ikkala asar Gyotening “Bo'ron va shiddat” davri uchun, ya'ni eskilikning chirik va adolatsiz qoidalariga qarshi isyon ko'targan davr uchun xosdir.

Gyote o'zini nafaqat Germaniyada, balki butun kitobxon Yevropaga mashhur qilgan “Yosh Verterning iztiroblari” romanini yozgan. Gyote roman uchun epistolyar shaklni tanladi. Xatlar o'zida qahramonning tavba-tazarrularini aks ettirgan. Roman voqealari 1771-yil maydan 1772-yil dekabr gacha yuz bergan. Shunday qilib, harakatlar vaqt va romanning yozilish vaqti juda yaqin. Verterning Lottaga nisbatan hissiy ehtirosi va uning fojiaivi dilemmasi: boshqa birov bilan unashtirib qo'yilgan qizga nisbatan sevgi – Gyote shaxsiy hayot tajribasining bir qismi bo'lgan. Qarigan chog'ida Gyote, “Yosh Verterning iztiroblari” ni, uni ta'qib qilgan o'zini o'zi o'ldirish fikridan xalos bo'lish uchun yozganini so'zlab bergan. Biroq Verterning harakati shu darajada yuqumli ekanki, asar tarjima qilingach Yevropa bo'ylab, Fransiyada (1774), Angliyada (1776), Gollandiyada (1781), Shvesiyada (1783) va

Rossiyada (1788) ehtirolari haqqoniyligini isbotlash uchun hayotidan-da kechishga tayyor yoshlarning o'zini o'zi o'ldirish darajasi oshib ketgan.

Gyote ijodining ikkinchi davri, Veymar davri (1775-1832) shoir hayotining asosiy qismini o'z ichiga olgan. Shoir 1775-1788 yillarda “Bo'ron va shiddat” adabiy harakatining inqiroziga sabab bo'lgan shtyurmerlik (jo'shqin daholar) kayfiyatidan o'zini tortgan. Gyote qarashlaridagi bu o'zgarish uning hayotidagi muhim hodisa – shoirning Veymarga ketishi davriga to'g'ri kelgan. Uncha katta bo'lmagan Veymar-Sakson gersogligining poytaxtida u umrining oxirigacha davlat arbobi bo'lib faoliyat ko'rsatgan.

Ayni paytda Gyote adabiyot va san'at, tabiiy fanlar bilan muntazam shug'ullangan. Bu davrda u “Egmont”, “Torkvatto Tasso”, “Rim elegiyalari”, “Ifigeniya Tavridda”, “German va Doroteya”, “Vilgelm Meysterning o'quvchilik yillari” kabi drama, poema va romanlar yaratgan, lirik she'rlar va balladalar yozgan. Gyote ijordida markaziy o'rin egallagan shohona asarlari “Faust” va “G'arbu Sharq devoni” ham shu davrda dunyoga kelgan.

1775-yilda Gyote hayotida yangi bir davr boshlangan. O'z asarlari bilan, ayniqsa “Yosh Verterning iztiroblari” bilan butun Yevropada katta shuhrat qozongan Gyoteni Veymar shahzodasi, keyinchalik Veymar-Sakson qiroiligi gersogi Karl Avgust o'z saroyiga xizmatga chaqirgan. Bu davrda ko'nib Veymarga ko'chib borgan Gyote dastavval davlat maxfiy kengashining a'zosi qilib tayinlangan. Asta-sekin yo'liar, harbiy, binokorlik, tog'-konchilik va o'rmonchilik komissiyalarining rahbarligi ham unga topshirilgan. 1782-yilda Gyote sud raisi qilib tayinlangan va dvoryanlik unvonini olgan. 1790-yildan boshlab Gyote maorif vaziri hamda Veymar teatrining direktorligi lavozimlarini o'z zimmasiga olgan. Shunday qilib, yosh advokat katta g'ayrat bilan davlat va siyosat olamiga kirib ketib, kichik qirollikda gersogning o'zidan keyin birinchi o'rinni egallagan. Qirolning birinchi vaziri bo'lgan Gyotening haroratli xulqi uchun saroy hayoti torlik qilgan. Shuning uchun binokorlik, konchilik, teatrshunoslik ishlari bilan bir qatorda, alohida laboratoriyalar va ilmiy kabinetlar uyushtirib, bularda fizika, ximiya, botanika va zoologiya fanlari sohasida tekshirish ishlarini olib borgan.

Ammo saroy amaldorlarining dabdabasi Gyotega juda qimmatga tushgan. Veymar davrining birinchi o'n yilida u she'riyat sohasida bironta muhim asar yarata olmagan. Demak isyonkorlik kayfiyatlari o'rniga saroy muhitiga moslashuv zarurligi Gyotening ijodiy dahosiga salbiy ta'sir qilgan.

Saroy muhitining bo'sh va qalbaki dabdabasidan, har xil fisqu fasodlardan bezgan Gyote 1786-yilda Gersogdan ijozat olmasdan, qo'qqisidan Italiyaga ketgan. Italiya ko'pdan beri Gyotening hayotida “San'at va go'zallikning klassik diyori” bo'lib gavdalangan. Shoir ikki yil Italiyada sayohat qilib, bu yerda mashhur “Egmont”, Ifigeniya Tavridda” va “Torkvatto Tasso” dramalarini yozib tugatgan va yigitlik yillarida o'ylagan “Faust”ning rejasini ishlagan.

1788-yilda Veymarga qaytib kelgan Gyotening adabiy qarashlarida katta o'zgarishlar yuz bergan. U endi “yoshlik gunohlari” dan tavba qilib, antik san'at meyorlarini o'ziga ideal qilib olgan. Mumtoz san'atning tugal mukammallik xususiyatlariga Gyote tan bergan. Uning fikricha, san'atkorning vazifasi jamiyatdagi qarama-qarshiliklarga e'tibor qilmasdan, odamzod ruhining ichki fazilatlarini bilan

shug'ullanishdan iboratdir. Shunisi xarakterliki, Gyote o'zining "Bo'ron va shiddat" davrida boshlab, keyingi davrda yozib tugallagan "Egmont" tragediyasida ham asar boshida Ispaniya hukmronligiga qarshi kurashda Niderland milliy ozodlik harakatiga boshchilik qilmoqchi bo'lgan graf Lamoral Egmont (XV asr) dramaning oxiriga borib kurashdan voz kechgan va dunyo saodatini faqat sevgilisi Klerxenga bo'lgan muhabbatda ko'rgan.

"Torkvatto Tasso" tragediyasida (1790) esa Gyote Italyan Uyg'onish davrida shoir va saroy muhiti o'rtasidagi qarama-qarshilikni ko'rsatmoqchi bo'lgan. Bunda Gyotening o'z hayoti va taqdiriga doir motivlarni payqash qiyin emas.

1789-1793 yillarda yuz bergan Fransiyadagi inqilobiy jarayonlar butun Yevropani larzaga keltirgan. Gyote fransuz inqilobining dasturini qabul qilmasa-da, uning tarixiy ahamiyatini yaxshi tushungan. Ammo u Germaniyaning istiqbolini o'ylaganida inqilobiy usulni emas, "yuqoridan" bo'layotgan tashabbus bilan islohot yo'lini ma'kul deb bilgan. Bu qarashning mahsuli "Vilgelm Meyster" romanidir. Bu romanning qahramoni Meyster shahar tabaqalaridan chiqqan ziyoli yigit bo'lib, ko'p izlanishlardan keyin voqelik bilan kelishib va ma'rifatli dvoryanlar hilan ittifoq bo'lib, amaliy ishlar bilan shug'ullanish zarur, degan xulosaga kelgan.

1794-yilda buyuk nemis shoiri Fridrix Shiller ham Veymarga ko'chib kelgan. Bu yerda Germaniyaning ikki ulug' shoiri o'rtasida umrbod davom etgan do'stlik va hamkorlik davri boshlangan. Bularning adabiyot va san'atga qarashlarida bamda ijodiy uslublarida bir qancha ayirmalar bo'lsa-da, ularni birlashtiradigan mushtarak nuqtalar ustunlik qilgan.

XVIII asrning oxirlari va XIX asrning boshlarida Gyote ajoyib va ko'p asarlar yozgan. Bu asarlar Gyotening dohiyoni ijodiy tafakkur egasi bo'lganidan dalolat beradi. "Jodugarning shogirdi", "Korinf kelinchagi", "Tangri va raqqosa", "Xazina izlovchilar" kabi she'rlari, "Qarindoshlar" romani, "G'arbu Sharq devoni", "Vilgelm Meysterning darbadarlik yillari" romanlari, "Mariyenbad marsiyasi" va boshqa bir qancha asarlar shular jumlasidandir.

1809-1831 yillar mobaynida Gyote "Poeziya va haqiqat" nomli katta avtobiografik qissasini yozgan. Shu bilan bir qatorda o'zining asosiy asarlari hisoblangan "Vilgelm Meyster" va "Faust" ni qayta ishlashni davom ettirgan.

Gyotening zoologiya va botanika, meteorologiya va mineralogiya, geologiya va ximiya, fizika sohasidagi muvaffaqiyatlarini hisobga olib, mashhur rus olimi K.Timiryazev: "Gyote – kishilik tafakkuri tarixida bir kishi siyomosida ulug' shoirni, chuqur mutafakkirni va buyuk olimni mujassamlashtirgan yagona o'rmakdir", – deb yozgan edi. Gyotening hayot yo'li, ijodiy va ilmiy, davlat va ijtimoiy faoliyati jahon, ayniqsa, nemis gyoteshunoslari tomonidan har bir davrning ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma'naviy-mafkuraviy holati bilan bog'liq holda qadam-baqadam tadqiq etilgan, tasnif qilingan va keng sharhlangan.

O'z ijodining so'nggi davrida Gyote qadimiy hind, xitoy va, ayniqsa, musulmon Sharqining madaniyati, adabiyotiga qiziqqan. Gyote Sharq shoirlaridan, ayniqsa, Hofiz Sheroziyni yoqtirib, uni "yaqin birodarim" deb atagan. Hofizdagi erkin fikr, xayolchanlik, insoniy sha'n, xurofotga itoat qilmaslik kayfiyatlari Gyotening hayotsevarlik g'oyasiga juda mos tushgan. O'sha davrdagi Yevropa san'at arboblari Sharq xalqlarini nazar-pisand qilmaganlari holda, Gyote, aksincha, ularning

she'riyatini va insoniy fazilatlarini yuksak baholagan. Gyotening Sharq shoirlariga bergan ajoyib bahosini esga olish kifoya: "Aytishlariga qaraganda, eronliklar o'zlarining besh asr mobaynida o'tgan shoirlaridan faqat yettitasinigima buyuk shoir deb qabul qilganlar. Holbuki, ular yaroqsizga chiqqan shoirlar orasida ko'plari mendan yuqori tursa kerak."

Xo'sh, bu "yetti yulduz" kimlardan iborat? Na eroniylar o'zlari va na Gyote bunday "sab'ai shuaro" tuzganlari yo'q. Mashhur nemis sharqshunosi Hammerning ko'p tekshirishlar natijasida chiqqan xulosasiga ko'ra, bular: Firdavsiy, Anvari, Nizomiy, Jaloliddin Rumi, Sa'diy, Hofiz Sheroziy va Abdurahmon Jomiydir.

Gyote Hofiz "Devoni" bilan 1814-yil Yozef fon Hanmer tarjimasi orqali ilk bor tanishdi. Hammer tarjimasi butun Yevropada shuhrat qozondi. Gyote "Sharh" ida Hofizga quyidagicha baho bergan: "Hofiz ulkan va jo'shqin iste'dod egasi bo'lib, dunyoviy lazzatlardan to'la bahramand edi. U odamlarni to'g'ri yo'ldan ozdirguvchi ortiqcha dahmazalardan o'zini xalos etib, rindona xushvaqtlik ila umrini o'tkaza oldi. Shoirmi to'la tushunmoq uchun uning yashagan zamoni-yu, makoni va millati doirasida tadqiq qilmoq joizdir. Bugungi kunda ham cho'lu sahroda karvon yetaklagan sarbonlar ma'nosiga to'la tushunmasa-da, g'azal baytlarining abadiy toza va quvonchbaxsh ohanglari ularni sehrlaydi. Shu bois mangu isbqu pokizalik va haqiqat navosi bo'lmish bu baytlar mahubbdir".

Gyote "Devoni" ni yaratish mobaynida Qur'oni Karim, hadislar, Muhammad payg'ambar s.a.v. hayoti va faoliyatini, fors-tojik, arab va turkiy mumtoz adabiyotini mukamal o'rganganligini ko'rish mumkin.

Gyote "Devoni" ning bir bobini "Hofiznoma" dir. Ushbu bobdagi birinchi she'r – "Taxallus". U Shoir (ya'ni Gyote) bilan Hofizning suhbatini hisoblanadi. Lekin mazkur suhbat asnosida har ikkala allomaning hammaslak ekanligi ayon bo'ladi. Ma'lumki, Hofizning ismi Muhammad Shamsiddin. U Qur'oni Karimni yoshligidayoq to'la yodlagan, ya'ni hofizul Qur'ondir. Shu bois o'ziga Hofiz taxallusini tanlagan.

G'arb adiblari, jumladan, Gyoteni Sharq adiblariga ergashgani, ularning insonparvarlik g'oyalari o'zlashtirib, asarlar yaratgani adabiy aloqalar bir necha asr oldin ildiz otganini ko'rsatmoqda. Gyoteni Sharqqa talpinganiga bir necha sabablar bor. Birinchidan, Sharq she'riyatida shunday bir til va uslub shakllangan, unda har bir so'z, har bir bayt, qolaversa, har bir tovush (hatto harf) bir necha ma'juziy ma'no anglatadi, daf'atan qaraganda sodda, beozor bo'lgan birgina kalima ham chuqur ijtimoiy mazmunga ishora qiladi. Unda ramz, fikrni pardalab aytish, kosa tagida nimkosa qabilida so'zlash odat tusiga kirgan. Bu hol G'arb she'riyatida yo'q edi. Gyote o'z muxoliflariga zarba berish maqsadida, fikrini pardali bayon qilmoq uchun Sharq she'riy an'alariga murojaat etdi.

Ikkinchidan, G'arbdagi iflos muhit, buqalamun siyosatdan u bezgan edi. Gyote o'z asrdoshlaridan bir necha yuz yil ilgari lab boradi. Bunday hol vaqtda Hofiz, Sa'diy, Rumi, Navoiylarda ham bo'lgan. Gyote Sharqdan maslakdoshlarini, suhbatdoshlarini, ustoz-pirlarini topa olgan edi. Uchinchidan, Sharqdagi olimu shoirlar dunyoqarashi bilan Gyote dunyoqarashi orasida birlik seziladi. To'rtinchidan, Sharq she'riyatidagi shakl va mazmun Gyoteni o'ziga maftun etdi. Bunday she'riy shaklni u G'arb she'riyatidan topa olmagan edi. Natijada, Gyote xuddi shu shaklda ijod qildi. Lekin bu quruq taqlid emas, balki adabiy musobaqa edi.

Beshinchidan, o'sha davrda jahon adabiyoti tarixini yaratishga bel bog'lagan ba'zi mahalliy olimlar dunyoning faqat bir qit'asi, ya'ni Yevropa madaniyatini tan oldilar, xolos. Ular Sharq madaniyatini umuman tilga olmay qo'yg'an edilar. Bunday g'oya esa G'arb bilan Sharq orasida fitna va adovat urug'ini sepmoq, ularni bir-biriga dushman etmoq uchun asqotardi. Gyotening "Devoni", nemis allomalarining "G'azallar" kitoblari, g'arblik sharqshunos mutafakkirlar asarlaridan etgan ko'plab tarjimalari sharofatidan "yevroposentristik" adovat, fitna, g'oyalar barham topib, uning o'rnida G'arbu Sharq orasida do'stlik, mehr-oqibat rishtalari bog'landi. Zero, dono Gyote "Devoni" da to'g'ri ta'kidlaganidek:

Sharqni yaratgandir Xudo,
Mag'ribni etgandir bino.
Ofat yo'qdir o'ng-so'lida,
Shimol, Janub Haq qo'lida.

"Devon" bundan 30 yil oldin (1984) olmon tilidan Sadridin Salim Buxoriy tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan edi.

Tabiatning asovligini yemirib, tabiiy kuchlarni inson irodasiga bo'ysundirish va erkin xalqning ijodiy mehnatini uyushtirish g'oyasi Gyotening shoh asari "Faust" da o'z qudratli ifodasini topgan. Bu dramatik poemaning bosh qahramoni doktor Faust aslida xalq she'riyati obrazlaridan bo'lib, keyinchalik kitobiy adabiyotga kirib kelgan. Gyote "Faust" asari ustida salkam oltmish yil ishlagan. Doktor Faust butun koinot va tabiat sirlarini ilmu fanning kuchi bilan bilib tushunishni istaydi. Iblis (Mefistofel) xudo bilan garov o'ynab – men albatta Faustning nafsini qo'zg'ab, yomon yo'llarga boshlayman deydi va bahslashuvning shartiga ko'ra, agar Faust dunyodagi nafsoniy lazzatlardan qanoatlansa va ana shu dam – chiroyli dam, o'tib ketmasin, deb o'z xursandchiligidan tamomila qanoatlanganini bildirsa, iblis yutgan hisoblanadi.

Mefistofel Faustning pinjiga kirib, uni har xil yo'llarga boshlab yuradi. Keksa Faust Mefistofelning sehri bilan yosharib, navqiron yigitga aylanadi, Gretxen nomli sodda va go'zal qizni sevib qoladi, imperatorning koshonasida, bazmu ziyofatlarda bo'ladi, ammo uning ruhi faoliyat va ijodga moyil bo'lib, nafsoniy lazzatlar bilan kifoyalana olmaydi. Mefistofel Faustni qadimgi Yunonistonga olib borib, klassik husn diyorida Sparta malikasi go'zal Yelena bilan tanishtiradi. Ammo bu husn Faustni qanoatlantirmaydi. Sevgi va go'zallik Faust nazarida o'tkinchi narsa. Ammo bu ikki omil Faustning ma'naviy olamida katta o'zgarish yasaydi. U endi amaliy ish qilmoqni istaydi, xalqqa farovonlik va rohat keltiruvchi ijodkor bo'lishni xohlaydi.

Faust dengiz qirg'og'ida bekor yotgan yerni olib, katta, farovon, serqatnov bir shahar quradi. Dengiz ofatlariga qarshi Faust rahbarligida kurash olib borgan mehnatkashlar og'ir zahmatlar bilan bo'lsa-da, o'z maqsadlariga yetib, baxtli va erkin yurtini obod qiladilar. Keksaygan, ko'zlari ojiz bo'lib qolgan Faust inson hayotining ma'na va mazmunini endi tushunib, o'z dunyoviy faoliyatidan qanoatlanadi va shunday xulosaga keladi: hayotning mag'zi mehnat va kurashdir.

"Hayot va erkinlikka kim ekan loyiq?
- Bu yo'lda kurashgan jasur xaloyiq!
Ayamay kuchini yosh-yalang, chollar,
Mehnatda gullatsin turmushning ko'rkin,

Toki, ko'rib qolay nurga cho'lg'angan
O'lkamizni erkimu xalqimni erkin".

(M.Shayxzoda tarjiması)

Kelajakka qaratilgan bu bashoratli monologdan keyin Faust o'ladi. Mefistofel, endi Faust hayot ma'nosini anglab qanoatlanib ketdi deb, o'zini g'olib hisoblaydi va Faustning ruhini olib do'zaxga jo'natmoqchi bo'ladi, biroq u bunga muyassar bo'lolmaydi, chunki farishtalar uning jismi bilan ruhini osmonga olib ketadilar. Bu yerda Faustning ruhi bilan Margarita (Gretxen)ning ruhi uchrashib, azaliy saodatga qovushadilar. Poetik tragediyaning xotimasida shoir xristian afsonalaridan foydalanib, o'z oliyjanob g'oyasini gavdalandirmoqchi bo'lgan, u ham bo'lsa: yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurashni ramziylashtirib, bir qancha azobu uqubatlarga qaramasdan, yaxshilikning g'alabasi albatta muqarrardir, degan fikrdan iboratdir. Faust xalq va insoniyat baxti uchun ulug' mehnat qilgani tufayli uning makoni va mavqei eng yuqori manzilda bo'lmog'i lozim, degan xulosa bilan asar tugaydi.

Gyote o'zining bu o'lmas tragediyasida buyuk bunyodkorni, erkin mehnat asosida qurilgan jamiyatni orzu qiluvchi xayolparastni, ya'ni jahon adabiyotining eng yaqqol obrazlaridan biri bo'lgan doktor Faustni genial misralarda tarannum qilgan.

1831-yil avgustida Gyote "Faust" bo'yicha olib borgan ishiarini tugatgan. O'sha yili 28-avgustda Veymarda shoirning tug'ilganiga 82 yil to'lishi munosabati bilan katta rasmiy tantanalar o'tkazilgan. Bu – Gyotening o'zi tirikligida o'tkazilgan so'nggi yubileyi bo'lgan. 1832-yil 20-martda bog'chada aylanib yurganida u shamollab, zotiljam kasaliga duchor bo'lgan va 22-martda "Eng ulug' nemisning hayot torlari uzilgan". Gyotening o'lim oldidan aytgan so'zi shu bo'lgan: "Derazalarni ochinglar, ko'proq yorug' bo'lsin!"

O'zining butun ulug'vor umri davomida va daholarcha yaratilgan asarlarida xalqqa, insonlarga doimo baxt, nur, ravshanlik, "ko'proq yorug'" tilagan Gyotening shu so'nggi so'zida katta ramziy ma'no va hikmat bor. Gyote xalqlarning do'stligini, hamkorligini va bu xalqlar oilasida Germaniyaning mo'tabar o'rinlardan birini egallab turishini orzu qilgan. Bugungi kunda Germaniyada gumanizm va vatanparvarlik bilan nashr etilgan asarlarini hurmatlab, uning nomini "birlikning milliy qasami" day tilga olmoqdalar.

"Faust" asarini rus tilidan o'zbek tiliga O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov mohirona tarjima qilgan. Tarjima jarayonida nemis tilini, Gyote ijodini yaxshi o'rgangan, Pasternak, Xolodkovskiy va Sokolovskiy tarjimalariga tayanib ish ko'rgan. Erkin Vohidov tarjiması hamma tarjimalardan ko'ra originalga yaqinligini ko'pgina izlanishlardan keyin professor Akmal Saidov ham e'tirof etgan.

XVIII ASR YEVRONA MA'RIFATCHILIGI VA MILLIY UYG'ONISH

IX-XV asrlarda yuksak madaniy ko'tarilishni boshidan kechirgan Markaziy Osiyo keyingi davrlarda siyosiy tanazzul, parchalanish va iqtisodiy turg'unlik tomon yuz tutdi. XIX asrda G'arb bilan bevosita to'qnashuv Markaziy Osiyo hududiga davlatlarning inqiroz holatini yaqqol namoyon etdi va ularning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi bilan yakunlandi. "G'arb dunyoda yangi tartiblarni o'rnatdi va ko'pchilik davlatlarni sanoat mahsulotlarini yetishtiruvchilarga va xom ashyo yetkazuvchilarga bo'lib yuboradi." Kapitalistik ishlab chiqarishning, jahon

kommunikativ tizimining o'sishi oqibati o'laroq kundan-kunga kuchayib borayotgan raqobat, ko'pchilik Sharq mamlakatlari, xususan, O'rta Osiyodagi davlatlarning iqtisodiy-siyosiy qaram davlatlarga aylanishi jahon taraqqiyoti yo'llarini belgilay boshlagan G'arb ilm-fani, madaniyati yutuqlarini o'zlashtirishni, G'arb bilan Sharq o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishni talab etar edi. Tatar va Markaziy Osiyo jadidlari – Ismoilbek Gasprali, A.Fitrat, M.Behbudiy, Muzaffarzoda, Cho'lpon va boshqalar G'arb ilm-fani, madaniyatini o'rganish asnosida jamiyatni taraqqiy ettirish fikrini ilgari suradilar. Jumladan, Muzaffarzoda millatning iqtisodiy, madaniy, ilm-fani taraqqiyoti uchun o'zga xalqlarning yutuqlaridan foydalanishga tabiiy bir hol deb qaragan edi. Mahmudxo'ja Behbudiy bu borada yanada qat'iy fikr bildiradi va "Ehtiyoji millat" maqolasida: "...dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo'lur", - deya yozadi. Jadidlarning o'z oldiga qo'ygan maqsadlaridan biri Yevropa madaniyati bilan tanishish va dunyodagi boshqa davlat va xalqlar bilan muloqot o'rnatish bo'ldi.

O'zbek va tatar jadidlarining Rossiya va Yevropa shaharlariga qilgan sayohatlari davomida ular ma'lum darajada Yevropa ilm-fani, madaniyati, adabiyoti va san'ati bilan bevosita tanishganlar. Ammo Markaziy Osiyoning o'z jug'rofiy va siyosiy holatiga ko'ra G'arbiy Yevropa mamlakatlari bilan bevosita aloqa o'rnatish imkoniyati chegaralangan edi. Shuning uchun Yevropa ilm-fani, madaniyati, adabiyoti bilan tanishishda G'arb madaniyati bilan ancha ilgari muloqotga kirishgan Rossiya, Yaqin va O'rta Sharq mintaqalari vositachi vazifasini o'tashgan.

Ma'lumki, IX-XV asrlar mobaynida buyuk ko'tarilish davrimi o'z boshidan kechirgan Sharq (xususan Markaziy Osiyo) keyingi asrlarda taraqqiyot bayrog'ini G'arbiga topshirib, ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy vaziyat taqozosi bilan turg'unlik holatiga tushdi. Sharq ilm-fani, adabiyoti ta'sirida XIII-XIV asrlardan boshlab taraqqiyot yo'lga kirgan G'arb esa fan va texnika, iqtisodiyot va harb ishi, madaniyat, adabiyot va san'at sohaslarida izchil rivojlana bordi hamda XVIII-XX asrlarga kelib muayyan yuksalishga erishdi va jahon taraqqiyot yo'llarini belgilovchi kuchga aylandi.

Ma'lumki, Yevropa XVIII asr ma'rifatchilarining aksariyati "ma'rifatli hukmdor" g'oyasini ilgari surgan edilar. Fransuz ma'rifatchisi Golbax "Tabiat tizimi" va "Tabiiy siyosat" kahi asarlarida Fransiya erishishi mumkin bo'lgan siyosiy tizim sifatida konstitusiyaviy monarxiya haqida fikr yuritib, uning boshida ma'rifatli hukmdor turishi lozimligini ta'kidlaydi. "Taqdir taqozosi bilan taxtga ma'rifatli, adolatli, mard, xushaxloq hukmdorlar o'tirishlari mumkin va ular inson boshiga yog'ilgan balolarning asl sababini bilib, aql ko'rsatmalari bo'yicha bartaraf etishga harakat qiladilar", Volter esa Prussiya qiroli Fridrix II ga yozgan xatida bu boradagi fikrlarini quyidagicha bildiradi: "...Ishni, Siz kabi, o'zini komillik darajasiga yetkazish, odamlarni bilish, haqiqatga muhabbat, ta'qib va xurofotlarga nafratdan boshlaganlargina chin ma'noda yaxshi hukmdor bo'lganlar. Bunday fikrlab, o'z hududiga oltin asrni qaytara olmagan hukmdor bo'lishi mumkin emas", deydi.

Ayni "ma'rifatli hukmdor" g'oyasiga ishonch Gyoteni Veymarga, gersog Karl Avgust huzuriga yetaklagan edi.

"Ensiklopediya" uchun yozgan "Faylasuf" maqolasida Didro: "Biron bir hukmdorni faylasuf bilan qo'shsangiz, risoladagidek mukammal hukmdor yuzaga keladi", deb yozadi. Badiiy adabiyotda ham o'z ifodasini topgan bunday g'oyalarni Volter, Deni Didro, J.Svift ("Gulliverning sayohatlari"), I.V.Gyote ("Faust", "Oyos fon Berlixingen") va boshqa ma'rifatchi yozuvchilar asarlarida ko'plab uchratish mumkin.

Yevropada XVIII asr ma'rifatchilik adabiyotining vakili, san'at nazariyasi bilan shug'ullangan Deni Didroning fikricha, adabiyotni, teatrni isloh qilish, zamon talablariga moslashtirish, avvalambor, ma'rifatchilikning siyosiy maqsadlaridan kelib chiqadi. Ma'rifatchilar san'at oldiga odamlarning aqliga ta'sir o'tkazish va ularni jamiyatni o'zgartirish ishiga safarbar etishdan iborat amaliy maqsadni qo'yadilar.

Yevropa ma'rifatchiligi va Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotini qiyosiy o'rgangan olimlardan biri Ulug'bek Saidovdir. U.Saidovning "Yevropa ma'rifatchiligi va Milliy Uyg'omish" o'quv qo'llanmasida aytilishicha, XX asr boshlarida kechgan jadidchilik harakati va u bilan bog'liq adabiyot bilan XVIII asr ma'rifatchiligi va adabiyoti o'rtasida tipologik o'xshashliklar mavjud. Bu o'xshashliklar birinchi navbatda har ikkala hududda tarixiy taraqqiyotning turlicha bosqichlarida vujudga kelgan, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy vaziyatning hamda jamiyat oldida turgan vazifalarning o'xshashligi bilan izohlanadi.

Yevropadagi Renessans davridan boshlangan feodal tartiblar bilan yangi ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlar o'rtasidagi ziddiyat XVIII asrga kelib o'zining yuqori nuqtasiga chiqdi. Barcha ma'rifatchilar oldida turgan eng muhim masala eski tartiblarni bartaraf etish va yangi ijtimoiy-iqtisodiy tuzum o'rnatilishi uchun yo'l ochish edi. XX asr jadidchilik harakati ham garchi Rossiyaning mustamlakachilik siyosati ta'sirida vujudga kelgan bo'lsa-da, tub mohiyati Rossiya timsohida rivojlangan Yevropa bilan to'qnashuvda ayon bo'lgan qoloqlikni bartaraf etishdan iborat edi. Turkiston jadidlarining rahnamosi bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy "Ehtiyoji miliat" maqolasida (1913-yil, 12-iyul, "Samarqand") "50-sana muqaddamgi zamonda biz Turkistonliklar yakka va tanho yashab, boshqalar ila muomala va munosabatimiz yo'q edi. Endi zamon o'zgarib, boshqa millatlar ila maxlut bo'ldik, shariat va o'z urfumiz ustiga qonun va Ovrupo odatiga itoat qilmoqqa majburmiz. Ammo qonun Ovrupo odatlarini bilmagamimiz uchun boyimiz bo'lsun, qozi va millat hukamomiz va aholimiz bo'lsun ko'b tashvish va zarar ko'rar", - deb yozgan edi. Bunda "Ovrupo odatlari" deganda, yangi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlar nazarda tutilayotganini, "Qonunga itoat etmoq" deganda esa, tabaqa manfaatlarini himoya etuvchi eski jamiyat qonunlari va huquqlari o'rniga ishlab chiqarishning yangi usullarini rivojlanishiga, har bir kishiga o'z imkoniyatlarini namoyish etishga sharoit yaratuvchi yangi qonun va huquqlar nazarda tutilayotganini anglash qiyin emas.

Ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi inson haq-huquqlari, shaxs va jamiyat munosabatlari, shaxsning jamiyatga va jamiyatning shaxsga bo'lgan munosabatlari, shaxs maqomi kabi masalalarni yangi asosda hal etilishini taqozo etadi. Yevropa ma'rifatchilari orasida keng tarqalgan "tabiiy odam" g'oyasi, ularning inson aql-farosatiga shaxsning qadr-qimmati va jamiyatdagi o'rnini belgilovchi asosiy sifat deb e'tirof etishlari ayni shu itilishdan dalolat beradi.

Jamiyat hayotidagi jiddiy o'zgarishlar, tarixiy siljio'lar davrida (Yevropadagi XVIII asr va Turkistondagi XX asr boshlari esa ayni shunday davr edi) yangicha fikrlaydigan kishilarni tarbiyalash masalasi birinchi o'ringa chiqadi, zero, yangi mafkurani, yangi dunyoqarashni odamlar ongiga singdirmay turib, jamiyatdagi islohotlarni amalga oshirib bo'lmaydi.

Yevropa ma'rifatchilari ham ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor qaratdilar. Ma'rifatchilar butun adabiyotga tarbiyalash vazifasini yukladilar.

Ma'lumki, Turkiston (va umuman Sharq) jadidlari faoliyatining salmoqli qismini yangi usul maktablarini ochish, ta'lim-tarbiya ishlari tashkil etgan. Ilk "usullar jadid" maktablarini ochgan I.Gasprali, M.Behbudiy, A.Avloniy, Munavvarqori, A.Fitrat va A.Cho'lponlar shu bilan bir qatorda maqola va risolalar, darsliklar yozdilar, "...Na din, na imondin va na dunyo va oxiratdan bexabar qilib yotmoqqa taqviyatgina bo'ladur" gan eski usul maktablarini tanqid qilib, yoshlarga zamonaviy ilmlarni o'rgatishni targ'ib qildilar.

Barcha Yevropa ma'rifatchilari g'oyaviy adabiyot tarafdorlari edilar. Ma'rifatchilik g'oyalari hamfikrlarning tor doirasiga emas, balki keng xalq ommasi orasida yoyishga mo'ljallangan edi. Buning natijasi o'laroq, falsafiy, publisistik, badiiy janrlar o'rtasidagi avval mavjud bo'lgan qat'iy chegara yo'qoladi. Voqea-hodisalarga hozirjavoblik bilan javob qaytara oladigan, ham shaklan, g'am mazmunan ommabop bo'lgan janrlar taraqqiy etadi. Yengil, dilxushlik uchun yozilgandek bo'lib tuyulgan asarlarga chuqur falsafiy fikrlar singdirib yuboriladi va aksincha, falsafiy fikrlarga ommabop, "hazm bo'lishi oson" (belletristik – o'qilishi oson, yengil- yelpi asarlar) shakl beriladi.

Jadidlar ham adabiyotda millatni uyg'otishga, xalqni buyuk ishlarga safarbar etishga qodir bo'lgan kuchni ko'radilar. Cho'lponning: "to'p-to'g'ri aytganda, ul qadar ta'sir qilmas, adabiyot bilan aytganda, albatta, ta'sir qilar..." deb aytgan so'zlaridan ko'rinadiki, uning fikricha, adabiyotning estetik funksiyasi g'oyani uzatishga xizmat qiluvchi dastur vazifasini o'tamog'i lozim. "Adabiyot yashasa – millat yashar" deganda Cho'lpon ham shaklan, ham mazmunan yangi adabiyotni nazarda tutadi.

Yevropa adabiyotida XVIII asr, asosan, nasr asri bo'ldi. Mutaxassislar bu davrda birgina roman janrining "sarguzasht", "epistolyar", "tarbiya", "falsafiy", "tarixiy", "sayohat", "biografik" turlari shakllanganligini ta'kidlaydilar. Bu bejiz emas edi. Zero, roman janrining hayotning keng badiiy tahlilini berish va muallifning yaxlit konsepsiyasini ifoda etish imkoniyati ancha keng edi. Boshqa yo'nalish – publisistik janrlarning taraqqiyi esa ma'rifatchilik g'oyalarni ommalashtirish, oddiy o'quvchilar ongiga yetkazish, ijtimoiy fikr uyg'otish maqsadlari bilan bog'liq ravishda kechdi.

Jadid adabiyotida ham nasr alohida o'rin egalladi. Cho'lpon, Fitrat, Hamza kabi jadidlar nasrga, milliy roman yaratish masalasiga ayricha e'tibor qaratdilar. Roman janri hayotni keng ko'lamda ifoda etishga, uning pastu balandini yorqinroq ko'rsatishga va nihoyat, yangi g'oyalarni "to'p-to'g'ri aytmak" dan ko'ra, "adabiyot ila aytmak" ka Cho'lpon imkoniyat berishi bilan jadidlarning diqqat e'tiborini tortgan. Jadid adabiyotida ilgari mavjud bo'lmagan publisistik janrlar ham ravnaq topadi. Jadidlar gazeta, jurnallar chop etishga, noshirlik ishi bilan shug'ullangani

ma'lum va ularning adabiy merosining salmoqli qismini yo'l xotiralari, esse, turli mavzulardagi maqolalar tashkil etadi.

Yevropa ma'rifatchilari uchun teatr yangi g'oyalarni targ'ib etish minbariga aylangan edi. F.Shillerning "Makr va muhabbat" va "Qaroqchilar", Gyotening "Ges fon Berlixingen" kabi asarlar XVIII asrda kechgan ijtimoiy kurashning o'ziga xos ifodasi bo'lib, tanlangan odamlarga emas, keng xalq ommasiga mo'ljallab yozilgan edi.

XX asr boshlari yurtimizda siyosiy-ijtimoiy hayotdagi alg'ov-dalg'ov yillar bo'ldi va ayni shu davrda jadidlar teatrdan qudratli targ'ibot vositasini ko'rib, milliy teatrn shakllantirishda jonbozlik ko'rsatdilar.

Inson va "inson tabiati" masalasi, avval aytib o'tganimizdek, Yevropa ma'rifatchilarning diqqat markazida turgan. "Tabiiy odam" g'oyasiga tayangan ma'rifatchilar dinning inson hayotiga aralashuviga qarshi kurashar ekanlar, inson azaldan gunoh va illatlarga botganligi haqidagi cherkov aqidasi qarshi o'laroq, insonning tabiatan sofligi, ezgulikka moyilligi to'g'risidagi fikrni ilgari suradilar.

Jadidlar oldida anchayin murakkab vazifa turgan edi. Ya'ni, bir tomondan, islom asoslari va shariat ahkamlaridan o'zga bilimlarni bermay qo'ygan eski maktab va madrasa ta'limi tizimini tubdan isloh qilish va yangi zamonaviy bilimlardan saboq beruvchi o'qitishning yangi usullarini joriy etish. Ikkinchi tomondan, qoloq, taraqqiyotga g'ov bo'lgan urf-odat, bid'at-xurofotlardan qutulish va mutaasib guruhlarining qarshiligini yengish. Uchinchidan, tarixiy xotirani, muqaddas e'tiqodni saqlagan holda, G'arb ilm-fani yutuqlaridan foydalanish. Boshqacha aytganda, jadidlar nazdidagi komil inson – yangi zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan, taraqqiyparvar va shu bilan birga iymonim saqlagan, millatparvar inson. Jadid ziyolilari komil inson axloqini belgilashda milliy an'analarga (xususan, tasavvuf ta'limotiga) tayandilar. Sharq allomalari – Beruniy, Forohiy, Ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Alisher Navoiy, mutasavvuf olimlar – Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubrolarning nazariy fikrlaridan, Qur'on va hadislardan quvvat oldilar. Jadidlar tomonidan yaratilgan asarlar qahramonlarida ana shunday millat vakillarini tarbiyalab voyaga yetkazish nazarda tutilgan.

Yevropa ma'rifatchilik harakati, avvalo, eski tabaqaviylikka qarshi qaratilgan edi va ma'rifatchilar "uchinchi tabaq" vakillari manfaatlarini ko'zlagan holda o'z asarlarida "oddiy odam" lar obrazini chizib, ularning hayotiy tashvishiari, intilishlarini tasvirlashga alohida e'tiborlarini qaratadilar.

Jadidchilik harakati ham eskirgan munosabatlarga qarshi yo'naltirilgan bo'lsa-da, uning pirovard maqsadi yurti mustamlakachilik asoratlaridan xalos etish edi. Shuning uchun Milliy uyg'onish davri adabiyotida aksariyat hollarda asar qahramonlariga ularning u yoki bu tabaqaga mansubligi yoki "boy-kambag'alligi" asosida emas, balki yurti va xalqi taqdiriga qayg'urish, fidoiylk, vatanparvarlik kabi sifatlarning namoyon bo'lishiga qarab munosabat bildirilgan.

MAVZU YUZASIDAN LUG'AT:

Belletristika – o'qilishi oson, yengil- yelpi asarlar
Shtyurmerlik - jo'shqin daholar
Epistolyar roman - maktub shaklida yozilgan roman
Mizantrop - "odamovi"

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR:

1. Ma'rifatchilik adabiyotining asosiy xususiyatlari nimadan iborat?
2. Defoning asarlarida xalqqa munosabat qanday?
3. Defoning "Robirzon Kruzo" asarining hugungi kundagi ahamiyati.
4. Swiftning satirik yozuvchi sifatida tanillshiga nima sabab bo'lgan?
5. Swiftning ijodiy metodi.
6. Shiller asarlaridagi isyonkorlik ruhi.
7. Gyote asarlarining xalqchilligi nimada ko'rinadi?
8. «Faust» asarining falsafiy xususiyatlari nimada?
9. G'arb va Sharq ma'rifatchilik adabiyotining o'xshash va farqli jihatlari haqida fikr bildiring.
10. Jahon adabiyotida "robinzonada" janridagi yana qanday asarlarni bilasiz?
11. "Robinson Kruzo", "Gulliverning sayohatlari" romanlarining ekrandagi talqimi.
12. Yevropa ma'rifatchilik adabiyoti namunalari o'zbek tilida.

ADABIYOTLAR:

1. Normatova SH. Jahon adabiyoti. – T.: "Ma'naviyat", 2008.
2. Azizov Q., Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi. – T.: «O'qituvchi», 1987.
3. Artamonov S.D. Istoriya zarubejnoj literaturi XVII–XVIII vv. – M.: «Prosvesheniye», 1978.
4. Filippov M.M. Ocherki o zapadnoy literature (XVIII -XIX v.v.) – M., «Nauka», 1985.
5. Russo J.J. Ilm-fan va san'at ravnaqi axloqning poklanishiga yordam beradimi? "JA", 2010 / 6.
6. Vamberi X. Ma'rifat yo'lidagi uyg'onish. "Tafakkur", 2000/2.
7. Ekkerman Y.P. Gyote bilan gurunglar. "JA" jurnali. 2012, 1-son.
8. Saidov A. Gyote – yurist. – T.: "O'ZBEKISTON", 2010. – 144 b.
9. Saidov U. Yevropa ma'rifatchiligi va milliy uyg'onish. – T.: "Akademiya", 2004.
10. Xo'jayeva R.U. Yangi davr arab adabiyoti tarixi. (O'quv qo'llanma) I qism. – T.: 2004.
11. *Dumrosch, Leo (2013). Jonathan Swift: His Life and His World. New Haven: Yale University Press. ISBN 978-030016499-2. Includes almost 100 illustrations*
12. *Daniel Defoe: The Life and Strange, Surprising Adventures. New York: Carroll & Graf. ISBN 978-0-7867-0557-3.*

BADIIY ADABIYOT:

1. Gyote I.V. Faust. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974.
2. Gyote I.V. G'arbu Sharq devoni. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
3. Gyote I. V. «Yosh Verterning iztiroblari». – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1975.

4. Gyote I.V. Saylanma. - T.: 2014.
5. Shiller F. Makr va muhabbat. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985.
6. Lessing G. E. Donishmand Natan. "JA", 2004/4-5.
7. Volter. Zadig yoki taqdir. – T.: "O'zbekiston", 1995
8. Defo. D. Robinson Kruzoning sarguzashtlari. – T.: 2015.
9. Swift J. Gulliverning sayohatlari. - T.: 2015
10. Все шедевры мировой литературы. В кратком изложении. Сюжеты и характеры. Зарубежная литература XX века в 2 книгах. "Олимп", АСТ.- М.: 1997, 832 с

XIX ASR YEVROPA ROMANTIZM ADABIYOTI

REJA:

1. Yevropa adabiyotida romantizmning paydo bo'lishi va shakllanishi.
2. Ingliz yozuvchilari ijodida romantizm.
3. Fransuz adabiyotida romantizm.
4. Amerika adabiyotida romantizm.

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va iboralar:

Romantizm. Xarakter yaratish. Kontrast obraz. Grotesk. Nemis romantizmi. Ertak janri. Folklor. Ocherk. Xalq qo'shiqlari. Ballada. Ingliz romantizmi. Liro-epik doston. Lirika. Tarixiy roman. Fransuz romantizmi. Lirika. Dramaturgiya. Publisistika. Roman.

Yevropada romantizm adabiyoti XVIII asr oxiri – XIX asrning boshlarida shakllandi. "Romantizm" fransuzcha so'z bo'lib etimologik jihatdan termin ispancha "romance" so'zi bilan bog'liq. XVIII asrda kitoblardagina uchratish mumkin bo'lgan g'ayritabiiy, ajabtovur, fantastik narsalarning bari shu so'z bilan yuritilgan. Darhaqiqat, romantizm adabiyoti yaratgan badiiy olamni shunday so'z bilan nomlashga yetarli asos bor edi. Zero, romantizm mavjud voqelikdan qoniqmaslik tufayli, ma'rifatchilikka xos olam (odam va jamitya)ni aql va raso holga keltirish g'oyasiga ishonchning barbod bo'lishi natijasi o'laroq yuzaga kelgan bo'lib, "reallikdan qochbosh"ga, real olamdan ko'ra mukammalroq olam yaratishga intiladi. Romantizm klassisizmga xos "tabiatga taqlid" va undan kelib chiquvchi haqiqatga monandlik talablarini inkor qiladi, uning uchun badiiy reallik mavjud reallikdan haqqoniyroqdir. Mavjud voqelikdagi tussizlikdan bezgan romantizm vakillari ko'rincha, ko'hna o'tmishdan ma'ni izlashadi. (Masalan, V.Skott, V.Gyugo, A.Dyuma romanlari) ular tasvirlagan voqea-hodisalar aksar uzoq, ekzotikaga boy yurtlarda kechadi.

XIX asrning tanqidiy realist yozuvchilari voqelikni kengroq, chuqurroq aks ettirishda romantiklar to'plagan ijodiy tajribaga suyanadilar. Romantizm adabiyotining barkamol xarakterlar yaratish hayot ziddiyatlarini yirik kontrast obrazlar to'qnashuvida ko'rsatib berish kabi xususiyatlar yirik yozuvchilar realizmning shakllanishiga o'z hissasini qo'shdi. Romantizm adabiyotni tarixiy roman, fantastik qissa, liro-epik poema kabi janrlar bilan boyitdi; ifodada metaforiklik, yuksak darajadagi assosiativlik va shu asosda ko'p ma'nolilikka intilgani sabab badiiy tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytira bildi. Romantizm badiiy tafakkur rivojida sezilarli iz qoldirdi, uning an'analari simvolizm, ekspressionizm, syurrealizm singari oqimlar tomonidan ijodiy o'zlashtirildi, romantik pafos adabiyot va san'atga xos estetik belgilardan biri bo'lib qoldi.

Ingliz adabiyotida romantizm Yevropa inqilobiy harakati davrida shakllangan bo'lib, ingliz romantiklari mavzuni qaysi davrdan olishlariga qaramay, o'z zamonasiga murojaat qildilar. Bayron ijodida davrning barcha ziddiyatlari aks etgan. Sharq dostonlarida shoirning adolatsiz jamiyatga nisbatan munosabati ko'rsatilgan.

«Don Juan» asarida shoir zamonasidagi muhim ijtimoiy voqealarga, masalalarga o'zining tanqidiy munosabatini bildiradi. Ingliz romantiklaridan Shelli poemalar, bajviy va ishqiy mavzudagi lirik she'rlar muallifi. V. Skott esa tarixiy romanlar muallifi sifatida adabiyotda nom qoldirdi.

Fransuz adabiyotida romantizm yo'nallishining negizida inqilob tufayli yuzaga kelgan tartiblar yotadi. Ilg'or fransuz romantiklari J.Sand, V.Gyugolar ilg'or romantiklardir. Bular mavzuni o'z xalqi tarixidan, milliy tarixdan axtardilar. Bu yozuvchilar o'z asarlarida fransuz xalq tilining boyliklaridan unumli foydalanadi, fransuz she'r tuzllishini yangi vaznlar, xilma-xil qofiya, milliy kolorit keng xalq lug'ati bilan boyitdi.

XIX asr yaqinlasha borgan sayin Yevropa adabiyotida, jumladan, ingliz adabiyotida ham realistlik va ijtimoiy yo'nalish o'rnini individualizm va estetizm g'oyalari egallay boradi XIX asr boshlarida Angliyada ludditlar harakati avj oladi. Ludditlar–mashina buzuvchilar, XIX asr boshida Angliyada sanoat taraqqiyoti natijasida ishsizlikdan xonavayron bo'lgan ishchilar harakatidir. Angliya parlamenti ludditlarga qarshi adolatsiz qonun qabul qilgan. Parlament qonuniga qarshi Bayron ludditlarni himoya qilib nutq so'zlagan edi.

Mana shunday sharoitda shakllangan ingliz romantizmi uch xil oqimga bo'lingan. Birinchi oqim «Ko'l maktabi» yoki «Leykistlar» deb nom oladi. Bu oqim vakillari Vordsvort, Sauti hamda Kolrij edilar. Ikkinchisi taraqqiyparvar inqilobiy romantizm vakillari Bayron va Shelli edillar. Uchinchi oqim vakillari London romantiklari deb nom oladilarki, bunga Kits, Lem, Xezlitt kabi yozuvchilar birlashgan edilar.

Angliya romantiklarini keskin ravishda, mutlaqo reaksiyon yoki inqilobiy degan tamg'a ostiga olib bo'lmaydi. Masalan, «Ko'l maktabi» vakillari bo'lgan, «Leykistlar» deb nom olgan Vordsvort, Kolrij va Sauti kabi yozuvchilarni butunlay reaksiyon romantiklar deyish ham to'g'ri emas. Shuningdek Angliya romantiklari ham birmuncha taraqqiyparvarlik mavqeyida turib ijod qilganlar. Shu tariqa ingliz romantizmi o'ziga xos milliy xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Angliya adabiyotida romantizm alohida maktab sifatida shakllanmagan, ammo shu yo'nalishda bir qancha asarlar yaratilgan. Masalan, Robert Berns (1759-1796) she'riyatida romantizmga xos xususiyatlar ko'zga tashlanadi. "Ko'l maktabi" shoirlari "leykistlar" Uilyam Vordsvort, Kolrij va Sautilar asarlarida tabiatga muhabbat, patriarxal o'tmish obrazlari aks ettirilgan. Inqilobiy-aristokratik romantizm adabiyotining yirik vakili sifatida ijodini boshlagan Bayron (1788-1824) uni "Don Juan", "Bronza asri" kabi realistlik asarlari bilan yakunlaydi. Bayronning do'sti genial lirik shoir Persi Bishi Shelli (1792-1822) esa "Qirolicha Mab" poemasida burjua jamiyatini hamma narsa sotiladigan bozorga o'xshatadi. Uning rafiqasi Meri Shelli (Vilyam Godvinning qizi) esa o'zining "Frankenshteyn yoki zamonaviy Prometey" asarida olimlik mas'uliyati xususida birinchilardan bo'lib fikr yuritadi. Shotlandiyalik yozuvchi Valter Skott (1771-1831) tarixiy mavzudagi romanlar ustasi sifatida "Ayvengo", "Rob-Roy", "Kventin Dorvard" kabi asarlari bilan Shotlandiya va Angliya tarixidagi dramatik vaziyatlarni boy romantik fantastika va realizm uyg'unligida aks ettirdi

JORJ GORDON NOEL BAYRON IJODI (1788-1824)

Jorj Gordon Noel Bayron ingliz romantizm adabiyotining zabardast vakillaridan biri. U 1788-yili aristokrat oilasida tugʻiladi. Boʻlajak shoirning yoshlik yillari Shotlandiyada oʻtadi. Kembrij universitetini tugatadi. Oʻrta Yer dengizi boʻylab ikki yillik safarga chiqadi. Ispaniya, Malta, Albaniya, Turkiya, Portugaliya hamda Gresiyani aylanib chiqadi.

«Chayld Garoldning ziyorati» bu asar chuqur lirizm bilan sugʻorilgan, siyosiy mavzuda yozilgan. Bayron ijodida alohida oʻrin tutadi. Asar qahramoni zodagon yigit Chayld Garold Angliya yaramas muhitidan bugʻiladi. Dostonning birinchi va ikkinchi qismlarida asar qahramoni muallifning oʻzi safar qilgan mamlakatlar: Portugaliya, Ispaniya, Albaniya va Gresiyada boʻladi. Hamma yerda erksizlik, zulm hukm surmoqda. Albaniyada uning diqqatini oddiy kishilar tortadi. Goʻzal tabiat manzaralari qoʻynida xalqning qashshoq yashashi uni qaygʻuga soladi. Dostonda Ispan vatanparvarlarining Napolion bosqinchilariga qarshi olib borilayotgan qahramonona kurashlar hikoya qilinadi. Ikkinchi qismida bir zamonlar buyuk boʻlgan Gresiya endilikda Turkiya bosqinchilarining zulmi ostida ezilayotganligi haqidadir. Uchinchi va toʻrtinchi qismlari 1816-1823 yillar shoir vatanidan chiqib ketishga majbur boʻlgandan keyin, Shveysariya va Italiyada yozadi. Asarning uchinchi qismi birinchi Fransuz burjua inqilobi (1789-1794) voqealariga bagʻishlanadi. Dostonning toʻrtinchi qismi shoirning Italiya, uning oʻtmishi va buyukligi haqidagi adabiy mushohadalar bilan boshlanadi. Shoir dengiz toʻlqinlarini kuzatar ekan, gʻazabkor va oʻz ozodligi uchun kurashayotgan xalq harakatini ana shu dahshatli dengiz toʻlqinlariga qiyos qiladi.

Bayronning joʻshqin xalqona nutqlari 1813-1816 yillarda yaratgan «Sharq dostonlari» nomli toʻplamiga kirgan «Gyaur», «Abidoss kelinchagi», «Korsar», «Lara», «Korinf qamali» hamda «Parizina» nomli romantik poemalari uning dushmanlarini haddan tashqari gʻazablantirgan edi. Bayron 1815-yili Anabelia Milbenk ismli aristokrat qizga uylanadi lekin u Bayronning intilishlarini tushunmaydi. Natajada 1816-yili Bayron oʻz vatani Angliyani butunlay tashlab ketishga majbur boʻladi.

«Sharq dostonlari» da shoirning adolatsiz jamiyatga nisbatan nafrati yanada ortib boradi. Asar qahramonlari hukmron jamiyatning murosasiz dushmanlaridir.

«Gyaur» dostonining qahramoni Leyla ismli ayolni sevadi. Ammo Leylaning rashkchi eri Hasan oʻz xotini Gyaur bilan sevishganidan xabar topib, uni oʻldiradi. Bunga chiday olmagan Gyaur Leyla uchun Hasandan oʻch oladi. Asar oxirida uning Leyla ishqida azob chekib vafot etishi tasvirlanadi.

«Korsar» dostonining qahramoni Konrad dengiz qaroqchilarining boshligʻi. Konrad jamiyatdan bezib, dengizdagi orollardan birida yashaydi. Uning maqsadi madaniy jamiyatdan oʻch olish, unga qarshi kurashishdir. Bayron qahramonlari ehtirosli. Isyonkor shaxslardir. Ammo ular yolgʻiz kurashchilar.

Bayron bir qancha lirik sheʼrlar silsilasini yaratdi. «Yaxudiy melodiyalari» deb nomlangan toʻplamda ham shoirning sharq dostonlarida boʻlganidek tushkunlik, hayotdan nolish kayfiyatlarini aks etadi. Bayron 1816-yil Jeneva vatanparvari Bonivar jasoratini tarannum qilgan «Shilyon tutquni» asarini yozadi. 1817-1821 yillar orasida

shoir yangi adabiy romantik dramalar turkumini yaratdi. Bunga «Manfred», «Osmon va Yer», «Kain» nomli ajoyib falsafiy mulohazalarga boy dramatik asarlarini yaratdi.

Bayronning «Don Juan» romani 1824-yilda yoziladi. Shoir bu asarining voqealarini XVIII asrga koʻchiradi. Bunda Bayron oʻzi yashab turgan davrning eng dolzarb voqealarini yoritib beradi. Roman qahramoni Don Juan Ispaniyalik dvoryan. U ayollarga nisbatan suyuqoyoq, yengiltak zodagon yigit sifatida tasvirlanadi. Don Juan ayni paytda zamonasida hukm surayotgan urushlarni, adolatsizliklarni, xalq boshiga tushgan ogʻir kulfatlarni fosh qiluvchi odil hakamlik rolini oʻynaydi. Shuning uchun ham Don Juan obrazi doimo oʻsishda, oʻzgarishda koʻrsatiladi.

Don Juanning ota-onasi uni diniy maktabga beradi. Maktabdan quvilgan Don Juanni otasi safarga joʻnatadi. Kema halokatga uchrab, Gresiya qirgʻoqlaridagi orollardan biriga chiqib qoladi. U yerlik Gyaur ismli qiz Don Juanni topib oladi, qizning otasi Don Juanni Turkiya bozorida qul qilib sotib yuboradi. Turk sultonining kichik xotini bozorda chiroyli yigit sotilayotganini eshitib, uni sotib oladi va ayol kiyimini kiydirib sulton haramiga olib kiradi. Turkiya sultoni saroyiga tushib qolgan Don Juan bu yerda hukm surayotgan shafqatsizlik bilan buzuvchiliklarning guvohi boʻladi. Koʻrinadiki, Don Juan obrazi shoirning romantik qahramonlaridan farq qiladi. Don Juan mutlaqo real voqealar, real odamlar bilan toʻqnashadi. Uning hayoti ham, tarjimai holi ham, oddiy odamlarnikidek. Shu sababdan Don Juan obrazi realizmga yaqin turadi. Bayron barcha asarlarida zulmga qarshi murosasiz kurashchi boʻlib qoldi. Shuning uchun ham uni «Jahon qaygʻusini kuylagan shoir» deb atashadi.

VALTER SKOTT.(1771-1832) Angliyaning yirik yozuvchilaridan biri Valter Skott ajoyib sanʼatkor, tarixiy romanlar muallifi sifatida jahon adabiyoti xazinasiga barakali hissa qoʻshdi. Valter Skott tarixiy jarayonlarning rivojlanishini sinchkovlik bilan kuzatdi. Xalq ommasi harakatining tarixda oʻynagan obyektiv rolini odilona aks ettirdi. Ana shular yozuvchi yaratgan tarixiy romanlarning haqqoniyligini taʼminlagan omillar edi. Yozuvchi 1771-yilda Shotlandiyada dvoryan oilasida tugʻiladi. Valter Skott ijodini xarakteriga qarab, uch davrga ajratish mumkin.

Birinchi davr: 1796-1813 yillar dastlabki poemalar yaratilgan davr.

Ikkinchi davr: 1814-1818 yillar boʻlib, bu yillarda Skott Shotlandiya tarixidan olib yozgan ajoyib romanlari «Ueverli», «Gay Mannering», «Antikvari», «Puritanlar», «Rob Roy», «Edinburg zindoni» asarlarini yaratadi.

Uchinchi davr: 1819-1832 yillarni qamraydi. Bu davrda yozuvchi Angliya, Fransiya hamda Shotlandiya tarixiga, boshqa davlatlarning uzoq oʻtmishiga murojaat qilib, «Ayvengo», «Kenilvord», «Kventin Dorvard», «Gudstok», «Pert goʻzali» kabi romanlarini yozadi.

«Ueverli» XVIII asr tarixidan olingan. Shotlandiyaning klanlari XVII asrdagi ingliz burjua inqilobi tufayli yuz bergan tartiblariga qarshi qoʻzgʻolon koʻtaradilar. «Puritanlar» (1816) romanida Skott shotlandiyalik togʻli dehqonlarning styuartlar dinastiyasiga qarshi qoʻzgʻoloni koʻrsatiladi. Bu asarda xalq ommasining qirolik zulmiga qarshi norozilik harakatini aks ettiradi. V. Skott Shotlandiya tarixiga oid barcha asarlarida oʻsha xalq hayotini, urf-odatlarini, kiyim-kechaklarini hayron qolarli darajada ustalik bilan tasvirlab beradi.

V. Skott ijodining uchinchi davrida yozgan asarlarining tarixiy doirasini yanada kengaytiradi. Bu davrda yozuvchi XII asr Angliya hayotiga oid «Ayvengo», XV asr

Fransiya tarixiga oid «Kventin Dorvard», salb yurishlar tarixiga oid «Tilsimot» kabi xilma-xil romanlarini yozadi. V.Skott 20-yillarda bir qancha tarixiy, tarixiy adabiy mavzuda asarlar yaratdi. «Napoleon Bonapart hayoti» (1827), «Shotlandiya tarixi» (1830), «Romannavislar hayotining tasviri» (1824), Drayden va Svift (1826) haqidagi kitoblarini yozadi.

Valter Skott umrining so'nggi yillarida juda ko'p ishladi. Bu esa uning sog'lig'ini izdan chiqardi. Vrachlarning maslahati bilan Skott janubga davolanishga boradi. Ammo sog'lig'i yaxshilanmasdan, 1832-yili Shotlandiyaga qaytib kelgach, vafot etadi.

Uning asarlari o'z mohiyati e'tibori bilan romantizm doirasidan chiqib, tanqidiy realizmga yo'l ochib berdi. Uning bu xususiyatini Onore de Balzak, Prosper Merime, A.S.Pushkin, Viktor Gyugo singari san'atkorlar o'z vaqtida payqadillar. V.G.Belinskiy Valter Skottni «san'at dargohidagi Kolomb» deb atadi.

Valter Skottning tarixiy romanlari Yevropa va Amerika adabiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Uning ayrim hikoyalari o'zbek tiliga tarjima qilingan.

VIKTOR GYUGO IJODI (1802-1885)

Fransiyada romantizmning qaror topishiga asosiy sabab XVIII asr oxirida sodir bo'lgan birinchi fransuz burjua inqilobidir. Bu inqilob Yevropaning bir qancha mamlakatlarida juda murakkab g'oyaviy kurashni yuzaga keltirdi.

Fransiyaning zo'r iste'dodli shoiri, dramaturgi, romannavisi. U ijodining takomili davomida fransuz taraqqiyparvar romantizmning yuksak cho'qqisiga ko'tarilgan yirik san'atkoridir. Viktor Gyugo 1802-yili Bezanson shahrida ofiser oilasida tug'ildi. V. Gyugo yoshligidan boshlab Fransuz ma'rifatparvar yozuvchilari va faylasuflari Volter, Russo asarlari ta'sirida bo'ladi. Yigirma yoshida Gyugo «Qasidalar» nomli birinchi she'riy to'plamini nashr qildiradi. U o'z asarlarida fransuz tilining boyliklaridan unumli foydalandi, fransuz she'r tuzilishini yangi vaznlar, xilma-xil qo'fiya, milliy kolorit, keng xalq lug'ati bilan boyitdi. Gyugo 1829-1830 yillarda «Marion Delorm» va «Ernani» dramalarini yaratdi.

«Parij Bibi Maryam ibodatxonasi» romani, «O'limga hukm qilingan kishining oxirgi kuni», «Klod Gyo» qissalarida ijtimoiy mavzuga murojaat qilib, qayta tiklash davrining qonxo'rligini fosh etdi.

«Parij Bibi Maryam ibodatxonasi» romani mavzuini Gyugo XV asr Fransiya tarixidan oldi. Inson tarixida dinning mash'um rolini bo'rtirib ko'rsatish maqsadida diniy bo'yoqlarni quyuqlashtirib chizish uchun XV asr Parij hayoti yozuvchilga juda keng ijodiy imkon beradi. Gyugo romanni yozishdan avval Parijning mashhur ibodatxonasini bir necha bor aylanib chiqqan, uning arxitekturasini, gotik naqshlar bilan tanishgan. Yozuvchi ibodatxonani aylanib yurib, ustunlardan biriga, o'yib yozilgan yunoncha «ananke» so'zini o'qiydi. Yozuvchi bu so'zning ma'nosini kengaytirib, unga uch xil mazmun beradi. Ya'ni: din anankesi, jamiyat qonunlari anankesi hamda tabiat ofatlari anankesi. V.Gyugoning fikricha, inson o'z hayoti davomida o'sha uch xil ananke, uch xil yovuzlik bilan kurash olib boradi.

«Parij Bibi Maryam ibodatxonasi» romanida butxona atrofida ro'y bergan voqealar aks etadi: ibodatxonaning ruhoniyi Klod Frollo o'z umrini din yo'lga tikkan, bu dunyo quvonchlaridan voz kechgan, mutaasib odam. Butun umrini

ibodatxonada o'tkazgan bu odamning o'zi ham din kabi juda sovuq kishiga aylanib ketgan. Ammo yoshi bir joyga borib qolgan bo'lishiga qaramay, Klod Frollo Parij ko'chalarida o'yinga tushib, shu orqali tirikchilik o'tkazib yuruvchi go'zal Esmeraldani sevib qoladi. Esmeralda yosh, go'zal va xushchaqchaq qiz. U tabiiyki, Klod Frolloning sevgisini rad qiladi. Ammo Klod Frollo qizni ta'qib etish fikridan qaytmaydi. Kunlardan birida, qorong'ida qolgan qiz Esmeraldani Klod Frollo bilan ibodatxonaning qo'ng'iroqchisi Kvazimodo o'g'irlamoqchi bo'ladi. Esmeraldaning najot so'rab qichqirgan tovushini eshitib, qirol armiyasining ko'cha patrullari yetib keladilar. Klod Frollo bilan Kvazimodo ko'zdan g'oyib bo'lshadi. Ko'cha tartibini saqlovchi ofitser Febni Esmeralda yoqtirib qoladi. Klod Frollo endi kapitan Feb bilan Esmeraldani kuzatib yuradi. U bir kuni tunda Febni yaralab, yashirinadi. Feb jarohatidan, qiz esa qo'rqqanidan hushsiz yiqiladi. Ofitserni kasalxonaga, Esmeraldani qamoqxonaga olib ketadilar. Qizni qirol armiyasining ofitseriga suiqasd qilishda ayblab, o'limga hukm qiladilar. Ammo, uni jazolash maydoniga olib ketayotganlarida, Kvazimodo qizni ibodatxonaga olib kirib ketadi. Shu tufayl qiz bir necha vaqt ibodatxonada jon saqlab qoladi. Esmeralda o'zi singari qashshoq odamlar, lo'lilar, masxarabozlar, xullas jamiyatning eng tubanligida yashashga majbur bo'lgan odamlar orasida – tashlandiq «mo'jizalar saroyida» yashar edi. Bu yerdagi odamlar Esmeraldani qutqarish uchun ibodatxonaga yopirilib hujum qiladilar. Tunda g'azabnok olomonga qarshi Kvazimodo yolg'iz o'zi kurashadi. Shaharning markazida yuz berayotgan bu to'polonni qurolli askarlar kelib bartaraf etadilar. Shu kuni tunda Esmeralda ham ibodatxonadan g'oyib bo'ladi. Klod Frollo yana bir bor qizga o'z sevgisini majburan o'tkazishga urinadi. Ammo befoya. Natija chiqmagach, ruhomiy qizni jallodlar qo'lga topshiradi. Esmeraldani Grez maydonida dorga osib jazolaydilar. Kvazimodo bunga sababchi bo'lgan Klod Frolloni o'ldiradi. O'zi ham ibodatxonani tark qilib, Esmeraldaning jasadi yonida jon beradi.

Yozuvchi asarda romantik bo'yoqlardan keng foydalanadi. Asardagi har bir voqea, har bir personaj, o'rta asr ibodatxonasi, «mo'jizalar saroyi» tasviri romantik kayfiyat bilan hikoya qilinadi. O'rta asr me'morchiligining, xalq dahosining ajoyib obdasi bo'lmish ibodatxona roman voqealari markazida turadi. Asar qahramonlarining deyarli ko'pchiligi taqdiri ibodatxona bilan bog'langan. Ibodatxona har bir personaj hayotida muhim rol o'ynaydi. O'rta asrchi, feodalizm, dinning qo'rg'oni, zulm, adolatsizlik maskani sifatida tasvirlangan.

Ibodatxona vakili bo'lgan Klod Frollo o'zida oddiy kishilarga yot bo'lgan diniy aqidam mujassamlashtirgan. Uning sevgisi ham hech kimga yaxshilik, quvonch bag'ishlamaydi, aksincha atrofda qilarga o'lim urug'ini sochadi. Klodning sevgisi undagi mutaassiblikning, tarkidunyochilik aqidasi inqirozga yuz tutganidan darak beradi. Klod Frollo go'zal qiz Esmeraldaga zidlashtirib berilgan. Qiz sodda, xalq vakili. U diniy mutaassiblikdan uzoq, hayot quvonchlariga, chinakam go'zallik, samimiylik barq urib turadi. Xalq farzandi Esmeralda barchaga xursandlik, zavq, quvonch bag'ishlaydi. U o'zi singari jamiyatning eng kambag'al, qashshoq vakillari orasida yashaydi. Qiz o'z atrofda qilarga sidqidildan, samimiy munosabatda bo'ladi. Kvazimodoga qilgan mehribonchiligi ham qizning olijanobligini ko'rsatuvchi fazilatlaridan biridir. Shuning uchun ham Kvazimodo Esmeraldani dildan sevadi. Uni o'limdan qutqarib, ibodatxonadan boshpana beradi. Esmeralda chinakam go'zal qiz,

Feb ham xushro'y, ammo ichki dunyosi quruq, berahm, sevgilda beqaror. Esmeralda bu olifta yigitni chin dildan sevadi. U o'z muhabbatiga oxirigacha sodiq bo'lib qoladi. Ammo kapitan Feb kuchil ehtiros egasi emas. U Esmeraldaning cho'ng sevgisiga arzimaydigan, ichki dunyosi qashshoq bir dvoryan.

Qo'ng'iroqchi Kvazimodo ham, Esmeralda ham Feb obraziga zidlab chizilgan. Shu bilan birga, bu badbashara, xunuk, o'taketgan baxtsiz odamning qo'rqinchli tashqi qiyofasi uning boy, benihoya go'zal ichki dunyosiga nisbatan ham qarama-qarshi qilib tasvirlangan. Kvazimodo yuqori tabaqa vakillari tomonidai tahqirlangan kishi. U buyuk insoniy tuyg'u bilan Esmeraldani sevadi. Kvazimodo o'z sevgisida Klod Froillo va Febdan ustun. Chinakam xalqchil yozuvchi Gyugo Kvazimodo, Esmeralda obrazlari bilan xalqning asl farzandlarining boy ma'naviy qiyofasini tasvirlagan.

«Mo'jizalar saroyida» yashovchi qashshoq aholi, tashlandiq saroyda istiqomat qiluvchi odamlar ibodatxonaga qarama-qarshi qo'yilgan. Aslida bular feodal jamiyatning adolatsizligidan azob chekadilar. Ular ibodatxonani zulm va adolatsizlik maskani deb tushunadilar. Shuning uchun Esmeraldani qutqarish maqsadida ibodatxonaga hujum qilgan olomon obrazi Bastiliyani ag'darib tashiagan xalqni eslatadi. Esmeraldani ibodatxona quchog'idan qutqarib olishga uringan olomon o'z ozodligi uchun zulmga qarshi kupashga otlangan isyonkor xalq harakatini gavdalantiradi. Romanning ana shu sahifalari Gyugo ijodining xalqchilligini, romantik san'atkor qalamining qudratini namoyish qiladi

Yozuvchi insonning dinga qarshi olib borgan kurashini tasvirlash uchun «Parij Bibi Maryam ibodatxonasi» romanini, shaxsning jamiyatning adolatsiz qonunlariga qarshi kurashini tasvirlash uchun «Xo'rlanganlar» romanini, nihoyat, insonning tabiat ofatlariga qarshi kurashini ko'rsatish uchun «Dengiz zahmatkashlari» nomli romanini yozadi.

Gyugo 83 yoshida vafot etdi. U vafoti oldidan o'zi haqida shunday degan edi: «Men o'z asarlarimda baxtsizlarni himoya qildim, kuchli va shafqatsizlarga yolvordim va masxaraboz, qul, katorjnik va fohishaning xuquqlarini tikladim». Bir fransuz tanqidchisi esa Gyugo haqida shunday deydi: «Gyugo tug'ilgan vaqtida XIX asr 2 yoshda edi, shoir o'lganda esa asrning hali yana 15 yillik umri bor edi, lekin asr Gyugodan oldin qaridi».

Gyugo 60 yildan ortiq vaqt ijod qildi. Uning ijodiy merosi 26 jild she'r, 20 jild roman, 12 jild drama, 21 jild falsafiy va nazariy asarlarni tashkil etadi. Gyugo san'atda hayotni haqqoniy aks ettirish kerak deydi. Lekin u haqqoniylikni qanday tushunadi? U San'atda o'ziga xos haqiqat bo'ladi deydi. Yana «drama hayot oynasi, lekin u olovni gulxan qilib ko'rsatishi lozim», deydi. Shu sababli ham kontrast va grotesk Gyugoning asosiy estetik talablaridan bo'lib qoladi. Yozuvchi «noodatiy narsalarni aks ettirish lozim» deydi va o'z asarlarida ham qahramonlarni gigant, o'ziga xos qilib tasvirlaydi. Gyugoning o'ziga xosligi yana shundaki, u asarini hikoya qilibgina qolmay, kitobxonga o'z ta'sirini ham o'tkazishga harakat qiladi.

Viktor Gyugoning hayoti va ijodi kishilar uchun qimmatli va tushunarlidir. Gyugo demokratiya va ozodlikning, hayot quvonchlarining, insonga, uning mehnatiga bo'lgan muhabbatning kuychisi edi. U xalqlarning erkinligi, mustaqilligi

va milliy madaniyatining qizg'in tarafdori edi. Bosqinchilik urushlari, xoinlik, kishining kishi tomonidan ezishining murosasiz dushmani edi.

Viktor Gyugo ijodiga qiziqish milliy respublikalarda, jumladan O'zbekistonda juda erta boshlangan. 1928-yili To'lkov tomonidan Viktor Gyugoning «Xo'rlanganlar» nomli romanidan «Gavrosh» parchasi o'zbek tiliga tarjima qilingan edi. Tarjimachilik 30-yillarga kelib avj ola boshlaganda, Nabi Alimuhamedov tomonidan V. Gyugoning «Dengiz zahmatkashlari» (1938 yil) romani o'zbek tiliga ag'darildi va alohida kitob bo'lib bosilib chiqdi.

Urush yillarida (1941 yil) Viktor Gyugoning «Xo'rlanganlar» romanidan «Kozetta» nomli parcha o'zbek tiliga tarjima qilinib, alohida kitobcha holida bosilib chiqdi.

JORJ SAND IJODI (1804-1876)

XIX asrning 30-40 yillari Fransiyada keskin kurashlar davri bo'ldi. Bu davrga kelib juda ham og'irlashib ketgan mehnatkash xalq ahvoli birqancha yozuvchilarning diqqatini o'ziga tortdi. Bular orasida Jorj Sand (1804-1876) o'zining ijtimoiy mavzudagi asarlari «Sayyoh shogirdlar», «Oras», «Janob Antuanning gunohi» bu romanlarida xalq hayotini, ijtimoiy masalalarni talqin qiladi. Jorj Sand ko'p sonli romanlarida demokratik mavqeyini saqlab qoladi. Asl ismi Avrora Dyudevan, ammo adabiyotda Jorj Sand taxallusi bilan mashhur bo'lgan bu ayol 1804-yilda Parijda tug'ilgan.

Jorj Sand ijodini xarakteriga ko'ra uch davrga bo'lib o'rganamiz.

Birinchi davri: «Indiana» (1831), «Valentina» (1832), «Leliya» (1833), «Jak» (1834) sigari asarlarida yakka-yolg'iz romantik qahramonlar hayotini hikoya qilib beradi. Yozuvchi bu davrdagi romanlarida ayollar ozodligi masalasini ko'tarib chiqdi, oilada davom etib kelayotgan, ayollarning insoniy yetukligini oyoq osti qiladigan tartiblarga, erkaklarning zulmiga qarshi kurash ochadi.

Ikkinchi davri 40- yillarda boshlanadi. Bu davr 1848-yil buyuk fransuz burjua inqilobi arafasi bo'lib, Yevropa manilakatlarida, jumladan, Fransiyada siyosiy kurash ko'tarinkiligi hukm surar edi. Jorj Sandning ijtimoiy mavzudagi «Sayyoh shogird» (1840), «Oras» (1841), «Konsuelo» (1842-1843), «Anjibolik tegirmonchi» (1845) hamda «Janob Antuanning kufr ishlari» (1847) kabi asarlari ana shu inqilob davri ta'sirida yaratilgan.

Uchinchi davri: Siyosat maydonidan uzoqlashgan Jorj Sandning asarlarida ijtimoiy-siyosiy mavzu ko'rinmay qoldi. Adibaning bundan keyingi ijodi mavzulari qishloq hayotiga oid dehqonlar hayotidan olingan. «Kichkina Fadetta» (1848), «Topildiq-Fransua» (1848) qissalari, «Qo'ng'iroqchilar» (1853) romani xarakterlidir. Yozuvchi umrining so'nggi yillarida xalq og'zaki ijodidan foydalanib, «Momo ertaklari» (1873) nomli to'plamini nashr qildiradi.

Yozuvchi o'z ziminig birinchi romani Indianada o'z huquqi, erki, sevgisi uchun bosh ko'targan isyonkor ayol hayotini hikoya qiladi. Asar qahramoni Indiana romantik siymo. «Valentina» romani ham ayollar taqdiri haqida bahs yuritadi.

FENIMOR KUPER IJODI (1789-1851)

Amerika adabiyotidagi romantizm 1775-1783 yillarda Qo'shma Shtatlarda yuz bergan inqilob tufayli maydonga keladi. Yevropa mamlakatlari adabiyotiga ta'sir ko'rsatgani kabi fransuz burjua inqilobi (1789-1794) AQSH adabiyotida romantizm yo'nalishining kelib chiqishiga turtki bo'ladi. XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan yirik romantik yozuvchi Jeyms Fenimor Kuper AQSH adabiyotida ko'zga ko'ringan romannavistlardan biridir. Sarguzasht romanlar ustasi, romantizm namoyandasi F.Kuper 1789-yili Nyu-York shtatida yirik yer egasi bo'lgan sudya oilasida tug'iladi.

«Amerikaning Valter Skotti» deb nom olgan Kuper Qo'shma Shtatlar adabiyotida tarixiy roman janriga asos soladi. F.Kuper ijodi o'ziga xos xususiyatlari, xususan demokratizm, insonparvarlik, oddiy kishilar hayotini aks ettirishi bilan diqqatga sazovor. Kuper ijodini xarakteriga ko'ra uch davrga bo'lish mumkin.

Birinchi davri-1821-1826 yillar. Bu davrda adib Amerika inqilobi ideallariga ishonadi, mamlakat burjua demokratiyasiga umid bog'lab, vatanning o'tmishiga yangi tartiblarni qarama-qarshi qo'yadi. «Josus» (1821), «Losman» (1823), «Pionerlar» (1823), «Boston qamali» (1825), «So'nggi Mogikan» (1826) kabi romanlarida adib Amerika hayotidagi adolatsizliklarni indeyes qabilalarining vahshiyarlarcha qirib tashlanayotganini qoralaydi. Bu romanlarning qahramonlari vatanparvarlik, ozodlik ideallarini o'zlarida mujassamlashtiradilar. Ular yozuvchiga shon-shuhrat keltiradilar.

Ikkinchi davri-1826-1833 yillar. Bu davr Kuper ijodining Yevropaga sayohat qilgan pallasiga to'g'ri keladi. Bu vaqtda yozuvchi «Mard» (1831), «Geydenmauer» (1832), «Jalldod» (1833) kabi romanlarini yaratadi. Mazkur asarlar Yevropa mamlakatlari tarixiga bag'ishlangan. Yuqoridagi romanlarida muallif Yevropadagi monarxiya tuzumiga AQSH dagi respublikachilik tartiblarini qarama-qarshi qilib qo'yadi.

Uchinchi davr-1833-1851 yillar. Bu yillarda Kuper ijodida siljish yuz beradi. Yozuvchining AQSH hayotiga, maqtalgan Amerika demokratiyasiga munosabatlari salbiy tus oladi. Boylik ketidan quvish avj olib, demokratik tushunchalar oyoq osti qillnayotganini ko'rgan adibning bu davrda yaratgan asarlari orasida eng e'tiborlisi «Monikenlar» (1835) da AQSH burjua tuzumi keskin hajv ostiga olinadi.

Yozuvchining «Izquvar» (1840), «Ovchi» (1841) kabi romanlari uning indeyes qabilalari hayotini aks ettiruvchi, mashhur Charm Paypoq haqidagi romanlari sirasiga kiradi. Bu silsilaga kiruvchi romanlar yozuvchi ijodining ilk pallalarida ham yaratilgan edi. Masalan: Pionerlar, So'nggi Mogikan, Preriya. Charm Paypoq to'g'risidagi beshta romanning unumiy qahramoni ovchi Natti Bumpodir. Kuper laqabi Charm Paypoq bo'lgan qahramonning mardligi, jasurligi, do'stlikda mustahkam sadoqat egasi ekanligini madh qiladi. Kuper ijodi, ayniqsa hindu qabilalari hayotiga oid asarlari Rossiyada ham, Yevropada ham keng shuhrat qozonadi. Kuper asarlaridagi insonparvarlik, oddiy kishilarning oliyjanob ishlari, vatanni sevish, ona tabiat jamoli bilan faxirlanish hislari bizlarga juda yaqin. Kuper ijodida burjua tuzumi, uning vakillari oyog'i yetgan joyda inson qadri yerga urilishi, erk, ozodlik, demokratik tushunchalar oyoq osti qilinayotganligi qoralanadi.

MAVZU BO'YICHA LUG'AT

- Ananke- yunoncha taqdir, qismat degan ma'noni bildiradi.
- Dogma-qotib qolgan ma'nosida.
- Ludditlar – mashina buzuvchilar

MAVZU BO'YICHA SAVOLLAR:

1. Yevropa mamlakatlarida romantizm adabiy oqimining shakllanishi va rivojlanishidagi shart-sharoitlar.
2. Bayron ijodida romantizm.
3. Ingliz adabiyotida romantizmning paydo bo'lishi va takomili.
4. Gyugo va J. Sand ijodi va ularning asarlarida romantik g'oyalarning ilgari surilishi.
5. Kuper ijodida hindu qabilalarining hayoti tasviri.
6. Viktor Gyugo asarlarining sahna va ekrandagi talqini.

ADABIYOTLAR:

1. Normatova.SH.Jahon adabiyoti. -T.: 2008.
2. Ismoilov.H. Jahon adabiyoti.O'zDSMI nashri.-T.:2008.
3. Jahon adiblari adabiyot haqida.- T.: 2010.
4. Quronov.D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati.- T.: 2010.
5. Gyugo.V. Dengiz zahmatkashlari. Roman. -T.:1965.
6. Bayron J. Ushalmagan orzular. -T.: O'zbekiston, 2011.
7. Ozod vatan orzusi edi.Maqola. "Jahon adabiyoti" jurnali.2013-yil.
8. Все шедевры мировой литературы.В кратком изложении. Сюжеты и характеры. Зарубежная литература XX века в 2 книгах. "Олимп", АСТ.- М.: 1997, 832 с
9. Gyugo.V. Parij Bibi Maryam ibodatxonasi. Roman. Jahon adabiyoti jurnali 2017 yil, № 6,7.
10. . Gyugo.V. Klod Gyo. Qissasi.

XIX ASR YEVROPA TANQIDIY REALIZM ADABIYOTI

REJA:

1. *Tanqidiy realizm haqida tushuncha.*
2. *Fransuz tanqidiy realizm adabiyoti vakillari: F.Stendal, O.de Balzak, G.Flober hayoti va ijodi*
3. *Charlz Dikens ingliz tanqidiy realizm adabiyoti vakili.*

Mavzuga doir soʻz va iboralar:

Realizm. Tanqidiy realizm. Fransuz burjua inqilobi. Burjua jamiyati. Burbonlar hokimiyati. Ijtimoiy roman. Epopeya. Etyud. Provinsiya.

Realizm (lotincha realis- mavjud, haqiqiy) termini keng va tor maʼnoda qoʻllanadi. Keng maʼnoda hayotni badiiy aks ettirish tamoyillari, badiiy tafakkur tipini anglatadi. Masalan, antik realizm, uygʻonish davri realizmi kabi terminlar qoʻllanadi. Tor maʼnoda ijodiy metod va shu metodga tayangan adabiy yoʻnalishni bildiradi. Tankidiy realizm esa XIX asr oʻrtalarida maydonga kelgan adabiy yoʻnalish, ijodiy metod. Termin ilk bor rus yozuvchisi Maksim Gorkiy tomonidan qoʻllangan. Bu adabiyotda realist ijodkorlar voqelikka tanqidiy munosabatda boʻladilar, uni gʻoyaviy-hissiy inkor qiladilar. Lekin voqelikni tasdiq etuvchi asarlar ham boʻlgan, demak, butun boshli adabiy hodisa mohiyatini inkor ruhi bilan belgilash uncha toʻgʻri boʻlmaydi. Hozir bu termin anʼanaviy ravishda qoʻllanayotgan boʻlsa-da, uning faolligi sezilarli darajada pasaygan.

Realistik metodda bilish funksiyasi ustuvor. Ijodkor olam va odamni (oʻzini xam) idrok etishda adabiyotni muhim vosita deb biladi. Hayotni butun murakkabligi bilan aks ettiradi. Insonni ijtimoiy muhit bilan bogʻlaydi, muhitning inson takdiri va feʼliga taʼsirini tadqiq qiladi. Sanʼat va adabiyotdagi ijodiy metodlar aslida inson dunyosini, uning ilgari anglanmagan jihatlarini koʻrsatish borasidagi izlanish yoʻllaridir.

Tadqiqotlarda soʻz sanʼatida inson dunyosini badiiy gavdalandirishning ikki yoʻli: romantizm va realizm yoʻli bor deyiladi. Bu ham aslida inson tabiati bilan bogʻliq hodisa sanaladi. Chunki odam ham real hayot qoʻynida, ham orzu-havaslar qoʻynida yashaydi. Inson tabiatida mavjud hayot tarziga qanoat kilishdan koʻra, turmushni oʻzgartirish istagi, uni yanada yaxshilash istagi baland turadi. Bu havas, ayniqsa, kishining bolalik, yoshlik kezlari kuchli boʻladi. Ehtimol, shu sababdandir, qadim dunyo adabiyotining asarlari koʻpi romantizmga asoslangan. Yunon dramaturgi Sofokl Evripid asarlari haqida fikr bildirib, mazkur hodisani bunday sharhlagan: «Men odamlarni ular qanday boʻlishi lozim boʻlsa, shunday tasvir etaman, Evripid esa odamlarni, ular aslida qanday boʻlsalar, shunday tasvir etadi». Alpomish, Barchin, Qaidirgʻoch, Farhod kabi ijobiy obrazlar ham inson qanday boʻlishi lozimligi haqidagi orzulardan yaralgan qahramonlardir.

Dunyo adabiyotida qadimdan haqiqiy inson qanday boʻlishi kerakligi muammosi bosh masala sanalgan. Shuning uchun kishilarning haqiqiy inson haqidagi orzu-havaslarini aks ettiruvchi asarlar koʻp yaratilgan. Xomerning "Iliada" si va

«Odisseya»si ham, «Kalila va Dimna», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun»lar ham haqiqiy inson haqidagi orzular aksidir. Hayot hodisalari va inson dunyosi gʻoyat serqirra. Har qanday ijodiy metod ularning maʼlum bir jihatlarini qamrab oladi, xolos. Shu mezonidan kelib chiqsak, realizm ijodiy metodi ham klassisizm, romantizm, modernizm singari hayotni va inson dunyosini badiiy gavdalandirishning bir yoʻlidir. Bundan ayon buladiki, metodlar - mishi tushuncha. Chunonchi, hitta asar bir necha metodga xos xususiyatni oʻzida aks ettirishi mumkin. Realizm romantizmni inkor etmaydi. Ularning har ikkisi bir maqsad – hayot hodisalari va inson dunyosini koʻrsatishning oʻziga xos yoʻllaridir.

Aslida asar yozayotgan yozuvchi yoki shoir metod, uslub, oqim degan nazariy gaplarni koʻp oʻylab oʻtirmaydi. Haqiqiy ilhom samarasi boʻlgan asar har qanday nazariy yoʻl-yoʻriqlardan yuksak turadi. Siyosiy qarashlar, mafkuraviy gʻoyalar eskirishi, notoʻgʻri boʻlib qolishi mumkinligi haqiqat. Lekin haqiqiy ilhom mevasi sifatida dunyoga kelgan asarlar oʻz taʼsirchanligini saqlab koladi. Metod va uning koʻrinishi haqidagi nazariy muohazalar esa aslida asarlarni bir-biridan farqlash, adabiy davrlar oʻrtasidagi tafovutlarni koʻrsatish, aniqlash va belgilashning oʻziga xos mezoni sanaladi.

FREDERIK STENDAL

(1783-1842)

Frederik Stendal (asl ismi Anri Beyl) 1783-yil 23-yanvarida Fransiyaning Grenobl shahrida advokat Sheryuben Beyl va Genriyetta Beyl oilasida tugʻildi. Psixologik roman asoschisi, turli adabiy taxalluslarda ijod qilgan, muhim asarlariga Stendal nomini qoʻyib nashr kilgan. Onasi 7 yoshida vafot etgach, uni otasi va xolasi Serafi tarbiyalaydi. Lekin u faqat buvasi Anri Ganyonni yaxshi koʻradi. Bu haqda u oʻzining avtobiografik romani «Anri Bryular hayoti» da yozadi. U yoshligida Didro, Golbax falsafiy asarlari bilan tanishadi.

1799-yilda Stendal armiyaga xizmatga kiradi. Dragun polkida subleytenant boʻlib xizmat qiladi. Italiyada xizmat davrida bir muncha vaqt massonlik ordeni aʼzosi ham boʻlgan.

1802-yilda armiyadan ketib, 3 yil Parijda yashab, falsafa, adabiyot, ingliz tilini oʻrganadi. 1805-yilda esa yana armiya safiga qaytadi. Italiya, Germaniya, Avstriyada boʻladi. 1812-yilda Napoleonning Rossiyadagi janglarida qatnashadi. Grsk, Smolensk, Vyazmada boʻladi, Borodino jangiga guvoh boʻlgan. Napoleon yengilgach, Burbonlar va Restavrasiyaga salbiy munosabatda boʻlgan yozuvchi 7 yilga Italiyaga ketadi. Bu yerda u «Gaydn, Motsart va Metastazio hayoti», «Italiya tasviriy sanʼati tarixi», «1817-yilda Rim, Neapol va Florensiya» asarlarini yaratdi.

Yangi davrning «Vinkelmani» (Mashhur nemis shoiri) boʻlish maqsadida u bu avtorning ona shahri nomini taxallus qilib oladi. Italiyada karbonariylar bilan yaqinlashadi. Polyak generali Dembovskiyning xotini Matilda Viskontini sevib qoladi. Bu ayol juda yosh vafot etadi. 1821-yilda Stendalni karbonariylarga yon bosishda ayblab, uni Italiyadan chiqarib yuborishadi.

1820-yilda Stendal Fransiyaga qaytadi. U ingliz jurnallarida maqolalarini ismini yozmasdan nashr etadi. Faqat 100 yildan keyin bu maqolalar Stendalnik ekanligi aniqlandi. 1822-yilda «Sevgi haqida» kitobini nashr kiladi. Bu asarda 4 xil sevgini farqlaydi: sevgi –ehtiros, sevgi-qiziqish, jismoniy sevgi va platonik sevgi. Aql

tuyg'ularni boshqarishi kerak, deydi. 1823-yilda fransuz realizmining manifesti hisoblangan «Rasin va Shekspir» traktati chiqadi.

1827-yilda Stendal birinchi romani «Armans» va 1829-yilda «Vanina Vanini» povestini yozadi. Bu novellani keyin «Italyan xronikalariga» kiritadi. «Armans» romanida rossiyalik kizning dekabristdan meros olish voqeasi tasvirlanadi, asar muvaffaqiyatga erishmaydi. «Rim bo'ylab sayohat» kitobi chiqadi. 1830-yilda esa «Qizil va qora» romani nashr etiladi. Romanga Dantonning «Haqiqat, achchiq haqiqat!» so'zlarini epigraf qilib oladi. Bu roman Yevropada yozilgan 1-karyera romani deb qaraladi Lekin asar faqat 80 yildan keyingina juda mashhur bo'ladi. Bu yillar adibning hayoti og'ir kechadi, moliyaviy yetishmovchilik qiynaydi. Qo'lyozmalarining hoshiyasiga ko'pincha to'pponcha suratining chizilganligi va ko'pdan-ko'p vasiyatnomalar yozganligi shu sabablidir.

1830-yil 28-iyulida lyul monarxiyasidan so'ng u davlat xizmatiga kiradi. Triyestada fransuz konsuli etib tayinlanadi. So'ng o'limigacha Chivetta Vekkiyadagi papa yerlarida konsul bo'ladi. 1832-yildan «Egoistning kundaliklari» ni, so'ng «Lyusyev Leven» romanini yoza boshlaydi. 1835-36 yillarda «Anri Bryular hayotini» yozadi.

1836-1839 yillarda Parijda dam oladi. Bu davrda «Turistning xatlari» va «Parma ibodatxonasi» romanini yozadi. Stendal birinchi bo'lib turist so'zini keng iste'molga kiritadi. 1840-yilda Stendal haqida Balzakning «Beyl haqida etyud» maqolasi yozildi. Stendal yoshligida yuqumli kasal bilan kasallanadi, yaxshi davolanmaydi. Simob va kaliy yodid bilan davolangach, sog'ligi yomonlashadi. Lekin o'limigacha ijod kiladi. 1842-yil 23-martida 59 yoshida Parij ko'chalarida hushsizlanib, yiqiladi va vafot etadi. U Monmartrga dafn etiladi. Vasiyatiga ko'ra qabr toshiga italyan tilida «Arrigo, Milanlik. Ijod qildi. Sevd. Yashadi. Beyl» deb yozilgan.

Stendal ijodining dastlabki davrlarida pul topish uchun badiiy asardan ko'ra ko'proq biografiya, xotira, memuar, yo'l ocherklari, maqola va yo'lko'rsatkichlar yozishga majbur bo'ladi. Stendalning «Oq va qora» yoki «Lyusyev Leven» romani tugallanmagan. «Lamyel» romani, «Anri Bryular hayoti», «Egoist kundaliklari» asarlari vafotidan keyin chiqadi.

Stendal estetik qarashlari shakllanayotgan davrda Yevropa nasriy adabiyoti Valter Skott ijodi ta'sirida edi. Stendal nasriy asarlari o'z davrini ortda qoldirdi. Stendalning o'zi, uni 1880-yillardan keyin o'qishlarini aytgan. M.Gorkiy va Anre Jid kabi yozuvchilar uning romanlarini «kelajakka maktublar» deb ataganlar.

«Qizil va Qora» romani syujeti 1827-yili gazetada bosilgan sud voqealaridan olingan. Antuan Berte nomli yigit o'zi o'qituvchilik qilgan xonadon bekasi Mishu xonimga suiqasd qilgan va buning uchun u o'lim jazosiga hukm etilgan. Stendal ana shu sud xronikasini olib, uni badiiy jihatdan qayta ishlab yirik, salmoqdor asar yaratadi.

«Qizil va Qora» romanining qahramoni kambag'al duradgorning o'g'li Jyulen Sorel. U maktabda yaxshigina bilim olgan, qobiliyatli, shuhratparast yigit. Jyulen Sorelning harakat doirasi Verer, Bezanson, Parij shaharlari bilan belgilangan.

Verer shahriining meri zodagon janob de Renal Jyulen Sorelni bolalariga tarbiyachi qilib oladi. Sorel bu xonadonda yuqori tabaqa vakillari bilan yaqindan

tunishadi. Uy bekasi Renal xonimning sevgisini qozonadi. Renal xonim bilan Jyulen Sorelning xatti-harakatlarini qoralagan xatlar ko'payib ketganidan so'ng janob de Renal bu gap-so'zlarga chek qo'yish uchun tarbiyachi yigitni Bezanson shahariga diniy seminariyaga o'qishga jo'natadi.

Sxolastik bilim berish usuli, har qadamda studentlarni ta'qib ostiga olish, ular ketidan josuslik qilish singari seminariya tartiblari qobiliyatli qahramonni qanoatlantirmaydi. Endi Jyulen Sorel diniy seminariyani tashlab, o'z baxtini sinab ko'rish maqsadida Parijga qarab yo'l oladi. Jyulen Sorel Parijda yirik zodagon markiz de lya Mol saroyiga kotib va kutubxona mutasaddisi bo'lib ishga kiradi. Qobiliyatli yigit tez orada markiz de lya Mol saroyida ko'zga tashlanib qoladi. Yosh Sorel markiz de lya Molning qizi Matildaning diqqatini o'ziga tortadi. Bundan xabar topgan markiz qizini kambag'al fuqaro yigit – plebeyga berishga rozi bo'lmaydi. Oxirida ota qizining istagiga moyillik bildiradi. Lekin, baribir, markiz bo'lajak kuyovining avval ishlagan joyidan, ya'ni Verer shahridan va haqda xarakteristika so'raydi. Renal xonim katolik ruhoniysining tazyiqi ostida Jyulen Sorelga salbiy xarakteristika yozadi. Tabiiyki, markiz de lya Mol endi Jyulen Sorelni kuyov qilishdan bosh tortadi. Bundan g'azablangan yigit Renal xonimdan o'ch olish uchun Verer shahriga oshiqadi. Uni ibodatxonada uchratib, to'pponcha bilan otadi. Yuqori tabaqa vakili bo'lgan ayolga suiqasd qilganligi uchun yigit qamoqqa tashlanadi. Sud unga o'lim jazosi hukmini chiqaradi.

«Janobi maslahatchilar! – deydi Jyulen Sorel sudda,– ...Siz oldingizda o'zining ayanchli qismatiga qarshi isyon ko'targan oddiy hir fuqaroni ko'rib turibsiz. Men sizlardan rahm-shafqat so'ramoqchi emasman... meni o'lim kutmoqda, meni qattiq jazoda hukm qiladigan odamlarni ko'rib turibman. Ular yo'qsillikka ezilgan, lekin yaxshi ma'lumot olishga muvaffaq bo'lgan va shu boisdan takabbur boyonlar, yaxshi jamiyat, deb ataydigan muhitga suqulib kirishga jur'at etgan past tabaqa yigitlariga ibrat bo'lsin uchun ham shunday qiladilar».

Qahramon o'zining tamomila dushman doiralari orasida bo'lib, kuch uning dushmanlari tomonida ekanini yaxshi biladi, ammo ulardan marhamat kutmaydi. Mag'rur turib o'lishni afzal ko'radi.

Roman qahramoni Jyulen Sorel oddiy kambag'al oiladan chiqqan yigit. U chaqqon, aqlli, ishbilarmonligi bilan yuqori tabaqa kishilaridan ustun turadi. Shuning uchun ham Renal xonim va Matildalarning muhabbatini qozonadi. O'zidan bir necha pog'ona ustun turgan bu xonimlarning sevgisiga sazovor bo'lish Jyulen Sorelda o'z qobiliyatiga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamlaydi. Chunki har ikkala ayolning diqqatini o'ziga torta olgan yosh qahramon bu holni yuqori sinf vakillari ustidan qozongan g'alabasi deb qaraydi. Shuning uchun Jyulen Sorel atrofidagi hukmron sinf vakillaridan, o'sha tuzumdan uni tan olishlarini, o'z qobiliyatiga yarasha joy berishlarini talab qiladi. Bu esa erksevar plebey Sorelning o'sha zamon qora kuchlariga qarshi kurash ochganini bildirar edi.

Hukmron sinf kambag'al tabaqadan chiqqan kishini, uning aql-idroki, qobiliyatini ko'rolmaydi. Shuning uchun Jyulen Sorel talablari qora gurufichi kuchiar tomonidan keskin qarshilikka uchraydi. Natijada kuchlar teng bo'lmagan jangda roman qahramoni halok bo'ladi. Jyulen Sorel faqat zodagon ayolga nisbatan qilgan suiqasdi uchun emas, balki adolatsiz tuzumga qarshi o'zining insoniy haq-huquqlarini

talab qilib chiqqanligi uchun ham raqiblar undan o'ch oladilar. Garchi qahramon halok bo'lib, qora kuchlar g'alaba qozongan bo'lsa-da, asar kitobxonda tushkunlik kayfiyatini tug'dirmaydi. Chunki qahramonning qora kuchlarga bo'yin egmasligi, o'zini ulardan past tutmasligi, mustaqil va mag'rur holda ularga qarshi sudda keskin so'zlar aytishi yigitning obrusini oshiradi.

Agar respublika davrida qahramonlik, jasorat, aql kishini ulug'lagan bo'lsa, burbonlar restavratsiyasi davrida munofiqlik, murosachilik, laganbardorlik avjga chiqadi. Jyulen Sorel orzu qilgan zamon o'tib ketgan. Hozir hayotda janoh de Renal, markiz de lya Mol singari zotlar hukmron. Shu sababdan roman qahramonining yengilishi va halok bo'lishi restavratsiya davrining oqibati edi. Yozuvchi hayot realizmiga sodiq qolib, respublikachilik, ozodlik kuchlari bilan restavratsiya davri qora guruhlari o'rtasidagi kurashni ko'rsatadi. Realist san'atkor Stendal «Qizil va qora» romani bilan zamonasidagi ijtimoiy tuzumning sinfiy mohiyatini va unda davom etayotgan kurashni haqqoniy ochib beradi. Stendal bu kurashning o'sha jamiyat mohiyatidan kelib chiqishini anglab yetadi. U qahramonlarining taqdirini ana shu jamiyatning tabiatidan kelib chiqadigan bir hol deb ko'rsatadi. Jyulen Sorel taqdiri ham, halokatga uchrab borayotgan eski aristokratiya tartiblari ham, tantana qilib kelayotgan burjua munosabatlari ham yozuvchining e'tiboridan chetda qolmagan.

Ijtimoiy romanning ajoyib ustasi, Frantsiya hayotining restavratsiya davri «yilnomasi»ni aks ettirgan Stendal ayni vaqtda o'z qahramonlari qalbini chuqur ifodalay olgan mohir psixolog hamdir. U yaratgan Jyulen Sorel, Renal xonim, Matilda kabi personajlar boy ichki dunyosi, his-tuyg'ulari, sevgisi bilan kitobxon qalbini o'ziga rom qiladi. Stendalning romani hosilib chiqqan paytda ko'p zamondoshlari uni to'g'ri tushunmadilar. Balzak, Gyote singari yirik yozuvchilar asarning buyukligini qayd etdilar. «Qizil va qora» XIX asrning oxirlariga kelib ko'pchilik diqqatini o'ziga tortadi. Fransuz yozuvchisining bu asarini jahon klassik adabiyotining yaxshi namunasi deb hisoblangan. «Qizil va qora»ni o'zbek kitobxonlari ham H. To'rabekov tarjimasida sevib o'qimoqdalar.

Stendal ma'rifatchilik adabiyotining davomchisi bo'lgan. U san'at ijtimoiy bo'lishi, jamiyat maqsadlariga xizmat kilishi kerak, deydi. Yozuvchi jamiyatni o'z orqasidan yetaklashi lozim. Yozuvchining qimmatini, uning qancha asar o'qiganida emas, qancha tarixiy voqealarda qatnashganida deydi u. San'atning tarixiyli haqida fikr yuritib, «go'zallikni turli davrda har xil tushunadilar» -deydi. U o'zini romantik hisoblaydi, lekin u romantizmni juda keng tushunadi. Stendal «san'at haqqoniy bo'lishi kerak», deydi. Balzak u haqda «Beyl buyuk tamoyilga, ya'ni san'atda hammasini bayon qilganing holiga voy degan aqidaga rioya kilgan» deydi.

Stendal shaxsiyatini o'rganish uchun A. Martinoning «Stendal yilnomasi» kitobini o'qish mumkin. Bu kitob Stendalning butun hayotini qamrab olgan, uni kunma-kun aks ettirgan chinakam yilnomadir. Undagi ma'lumotlar bibliografiya yordamida tasdiqlangan.

GYUSTAV FLOBER HAYOTI VA IJODI (1821-1880)

Flober 1821-yil 12-dekabrda Ruanda Ashel Kleofa Flober ismli jarroh oilasida tug'ilgan. U oilada ikkinchi farzand bo'lgan, 11 yoshida Royal kollejiga, so'ng Ruan

liseyiga o'qishga kiradi. Parijda huquqshunoslik bo'yicha tahsil oladi. O'sha yerda «dubiyot va san'at ahli bilan tanishadi. Hayotiy kechinmalar va ruhiy iztiroblarga boy ilk asari «Sentimental tarbiya» ning 1-variantini yozishga kirishadi. Bu asarning yana bir nomi «Bir yosh yigit tarixi» deb ham nomlangan. Asar qahramoni Frederik Moro kitob yozmoqchi bo'ladi. U oddiy burjua bo'lib, Arnu xonimni sevadi. U harakatsiz, qobiliyatsiz, beburd, loqaydligi bilan ko'zga tashlanadi. Qahramon ko'p narsaga intiladi, lekin hech narsaga erishmaydi. Delorye esa uning do'sti, u gazeta chiqarmoqchi bo'ladi. Romanda yana bir qancha yoshlarning maqsadsiz hayot yo'li ko'rsatilgan; Pelleren, Senekal, Dyussardye, Delorye. Barcha qahramonlar o'sha yaramas burjua muhiti kishilaridirlar. 30-40-yillarda «Aqldan ozgan kishining xotiralari», «Noyabr» asarlarini yozadi.

1844-yilda Flober «Yepiskoplar ko'prigiga» sayohatga boradi va o'sha yerda tutqanoq kasaliga chalinadi. Bu kasallik unga ko'p azob beradi, u huquqshunoslikdan voz kechib, bir umr Ruan daryosi bo'yidagi Kruasse shaharchasida yashab qoladi.

1845-yilda Italiyaga sayohat qiladi. U yerda «Sen Antuaning hissiyotlari» nomli kartinani ko'rib, eponimik teatr uchun asar yozishiga turtki bo'ldi. 1849-yilda Flober «Avliyo Antoniyning aldanishi» dramatik poemasi yozadi. Poema qahramoni Antoniy materiyaga aylanishni, insonga xos aqldan voz kechishni istaydi. Chunki u aql insonni baxtsiz qiladi va hamma narsaga bo'lgan ishonchidan mahrum qiladi deb tushunadi.

1846-yilda Floberning otasi, so'ng singlisi vafot etadi. Jiyani uning qo'lida qolib, tarbiyalanadi. 1849-52 yillarda Flober do'sti Maksim dyu Kamp bilan Sharq bo'ylab sayohatga chiqadi. Misr, Falastin, Livan, Konstantinopol, Italiyada bo'ladi. Endi u ancha mukammal asarlar yoza boshlaydi. Haqiqiy romannavis sifatida nom qozonadi. Shu yillarda Flober yozuvchi ayol -Jorj Sand bilan tanishadi. Kruasse va Parij o'rtasida muntazam qatnaydi, adabiyot ahlilari bilan aloqa o'rnatadi. Masalan, aka-uka Gonkurlar, Sent-Bev, Sharl Bodler, Gi de Mopassan, Ivan Turgenev va malika Matildalar bilan doimiy muloqotda bo'ladi. O'sha yillarda yozuvchi «Salambo» romanini yozishga kirishadi. Bu asarning yaratishiga miloddan avvalgi III asrda bo'lib o'tgan Kartaj inqilobi sabab bo'ldi. Flober Kartajni ko'rish va tarixiy vositalar fasilotini joyida o'rganish uchun Tunisga jo'naydi. Asar 1862-yilda tayyor bo'ladi. Lekin asar cherkov tomonidan ta'qiqlab qo'yiladi. Oradan 2 yil o'tib «Sentimental tarbiya» ning oxirgi variantini yozadi. Shu romanda u 1848-yilgi inqilobning avj olishi, kurashchilarning ruhiy kechinmalari va yana mag'lubiyat alami ifodalangan tarjimai hol chizgilaridan foydalangan. Roman nashrdan chiqqach, tanqidchilar unga o'ta salbiy munosabat bildiradilar.

El orasida tanilib qolgan Flober kiborona hayot kechiradi, mamlakat imperatori bilan yaqindan tanishadi, «Faxriy legion» ordeni bilan taqdirlanadi. 1870-yillarda hayot tashvishdari va iztiroblari ostida adibning qaddi ancha bukiladi. Fransiya-Prussiya urushi natijasida Flober boshpanasiz qoladi, onasi vafot etadi. Bu davr Flober uchun inqirozlar davri bo'ladi. Bu davrda u «Uch ertak» novellalar to'plami va «Buvar va Pekyushe» romanlarini yozadi. Flober asarlaridan daromad olgan emas, ba'zan nashr qilish uchun yomidan to'lagan. Unga shuhrat keltirgan asarlarning birortasi unga daromad keltirmagan. U qarigan chog'ida u yer bu yerdan ish qidirishga majbur bo'ldi. U faqat ijod bilan shug'ullangan, boshqa ishlarga vaqt

sarflashni esa arziyas, nomunosib sanagan. Flober har qanday fuqarolik majburiyatlaridan xoli bo'lishga, ijtimoiy hayotda o'zini chetga olishga, hech qanday lavozimni olmaslikka va oila qurmaslikka harakat qilgan. Hatto Flober uylanmay o'tgani uchun rohiblarga hasadsiz qaray olmayman, deb necha martalab e'tirof etgan. Flober shu sabab ham Jorj Sandni juda yoqtirsa-da unga uylanmagan.

Adib umrining oxirini qayg'uda o'tkazdi. Do'stlarining vafoti, iqtisodiy qiyinchilik, salomatligidagi muammolar uning tushkunlikka tushishiga sabab bo'ldi. Adib miyaga qon quyilishi natijasida 1880-yilning 8 mayida 58 yoshida Kruasseda vafot etadi. Mashhur yozuvchilar uni ustoz deb bilishgan. Uning o'ziga xos badiiy tasvir uslubini yuksak qadrlaganlar. Marsel Prust shunday yozadi: «Dunyoga faylasufona qaragan I. Kant kategoriyalari bilish nazariyasida qanday muhim bo'lgan bo'lsa, Floberning uslub borasidagi novatorligi atrofidagi narsalarni ko'ra bilishimizni deyarli shunday yangiladi».

Flober 1851-yilda dyu Kamp maslahatiga ko'ra «Bovari xonim» romaniga qo'l uradi. Unga haqiqiy shuhrat keltirgan bu psixologik va realistik romanni 5 yil deganda yozib tugatadi. Asarda tarixda munosib o'rin egallagan 2-imperiyaning oliynasab vakillari, Parij zodagonlari hayotidan lavhalar keltirildi. Asardagi qahramonlar; Emma Bovari, Sharl Bovari, Ruhoniy Kyure. Aptekar Ome, Rudolf va Leon – Emmaning ma'shuqlari, sudxo'r Lere.

«Bovari xonim» romanining chop etilishi katta shov-shuvga sabab bo'lgan. Asar dastlab 1856-yil 1-oktabridan 15-dekabrigacha jurnalda bosib chiqarildi. Roman nashr etilgach, muallif va noshirlar axloqiy qadriyatlarini haqoratlashda ayblanib, «Revyu de Pari» jurnali muharriri va G. Flober 1857-yil yanvarda sudga chaqirilganlar. Mana shu shov-shuv sababli «Bovari xonim» juda mashhur asarga aylandi. 1857-yil 7-fevralida esa asar oqlandi va shu yili alohida kitob shaklida nashr etildi.

Roman adabiy materializm manifesti bo'lib chiqdi, unda yozuvchining nafaqat jamiyatga bo'lgan salbiy munosabati, balki umuman insonga bo'lgan qarashlari aks etgan. Asarning kirishi qismi cho'zilganligi, an'anaviy ijobiy qahramonning yo'q'ligi, voqealar provinsiya-checkka viloyatda bo'lishi yozuvchi ijodida antiprovincial mavzuning asosiy o'rindaligini ko'rsatadi.

Flober to'ng'ich asari «Bovari xonim»da hayotni romantik xayolparastlikka qarama-qarshi qilib qo'yadi. Yozuvchi bu romanida ikki xil vazifani oldinga suradi. Biri reaksion-romantik asarlarning hayotga yaroqsiz, g'oyasiz ekanligini fosh qilsa, ikkinchisi hamma narsa pul bilan o'lchanadigan burjua sharoitida qahramon Emmaning chinakam sevgi, do'stlik, go'zallikka intilishlarining zaminsizligini ko'rsatadi. Roman qahramoni Emma meshchan oilasidan chiqqan. U ayollar monastirida tarbiyalanadi. Emmaning bu yerda o'qigan asarlari orasida hayotni buzib ko'rsatadigan romantik romanlar ham ko'p edi. Bu romanlarda olijanob xushtorlar bilan sohibjamol ayollar, ularning ehtirosli sevgisi, bir-birlariga intilishiari kuylanar edi. Emma xuddi ana shu kitoblardagiga o'xshash turmush qurishni orzu qiladi. Mana, u qishloq vrachi Sharl Bovari ismli yigitga turmushga chiqadi. Lekin Emma umr yo'ldoshi bilan bo'layotgan munosabatlarida o'zi xayol qilgan shirin onlarni uchratmaydi. Natijada u o'zini eridan aldangan hisoblab, hayotidan norozi bo'ladi. Zerikarli turmush kechiradi. Orzu qilgan olijanob oshiq sifatida Rodolf ismli dvoryan

yigitga ko'ngil qo'yadi. Emma endi baxtiyor bo'laman, qidirganimni topdim, deb quvonadi. Ammo Rodolf Emma o'ylaganicha sevgini qadrlovchi olijanob odam emas, aksincha, beburd, axloqsiz, har qadamda uchrab turadigan yengiltak bir odam edi. Emma yana o'zini aldangan deb hisoblaydi, taqdiri bilan kelishmay, xayoliy orzular og'ushida kezishda davom etaveradi. O'z taqdirini sinab ko'rishga urinishi uni Leon ismli yigit bilan yaqinlashtiradi. Ammo Leon bilan ham munosabatlari uzoqqa cho'zilmaydi. Emma sevishtanlari bilan uchrashgan damlarni xushchaqchaq o'tkazish, yaxshi kiyinish maqsadida sudxo'r Leredan qarz olishga majbur bo'ladi. Leon ham tashlab ketgach, Emma uchun hayotning qizig'i qolmaydi. Sudxo'r Lere qarzlarni to'lashni talab qiladi. Endi ma'naviy inqirozlar ustiga moddiy qiyinchiliklar qo'shiladi. Ilojsiz qolgan qahramon zaharli modda – margimush ichib o'ladi.

Bu asar jamiyatning xayolparastlar haqidagi tasavvurlarida evolyutsiya yuz berishiga sababchi bo'ldi. «Bovarizm» atamasi vujudga keldi. Bu atama 1921-yilda dastlab Jyul de Gotye tomonidan ishlatilgan.

Jyul de Gotye «bovarizm» tushunchasini «aslida kimligini anglamay, o'zini boshqacha tasavvur etishga moyil kishilar kayfiyati» deya baholaydi. Zamonaviy rus psixologi S.Y. Golovin «bovarizm» atamasini «real hayot va fantaziya o'rtasidagi aniq chegarani belgilay olmaslik holati, haqqoniylikni tasavvurdagi orzu-xayol bilan almashtirib qo'yish» deb tasvirlaydi. Shu bilan birga tasavvurdagi niyatlar olami yo ijobiy bo'lishi (orzu-niyatlar) yoki salbiy xarakterda (qo'rquv fantaziyasi) bo'lishi ham mumkin, deydi.

«Bovarizm» orzu-xayollarga o'ta berilib, xayol va mavjud voqelik chegarasini yo'qotib qo'yuvchi kishilarga xos xususiyat. Orzu qanchalik illyuziya – amalga oshmas bo'lmasin xayolparast hayotida asosiy o'rinni tutadi. Flober qahramoni Emma Bovari tarixi bunga yaqqol misoldir.

Fransuz adabiyotshunos olimi Andre Moruaming ta'biricha: «Emma hayot unga nima berishini emas, roman mualliflari, shoirlar, sayohatchilar hikoya qilgan narsalarni kutadi. U muhabbatga, o'xshashi yo'q ehtiroslargacha, sevgidan mast bo'lishga ishonadi, chunki bu kitoblardan o'qigan so'zlari unga juda go'zal tuyuladi. Shu tariqa mavjud ijtimoiy voqelik Emma xayolida chizgan orzu-xayollardan juda yiroq bo'lib chiqadi. Badavlat oliynasab ayol bo'lish, jamiyatda yuqori mavqega ega bo'lish o'rniga Emma oddiy bir shifokorning rafiqasi bo'ladi, turli maishiy muammolar bilan shug'ullanishga majbur bo'ladi. Bu esa uning orzusidagi ideal hayotga tamoman zid edi.

Nima bo'lganda ham Emma shifokor Sharl Bovariga o'z xohishiga ko'ra turmushga chiqadi. Turmush tarziga ko'nika olmagan Emma amalga oshmagan istaklari sababli qiynaladi. A. Morua shu o'rinda: «Emma o'zining atrofida gillarni ko'rishni xohlamaydi. U tamomila boshqacha hayotni orzu qiladi va unga nasib etgan hayot bilan yashashni istamaydi. O'z orzu-xayollarini amalga oshirmoqchi bo'lgan ayol eng oddiy turmush muammolariga duch kelib «uning orzulari yaralangan qaldirg'ochiar misoli balchiqqa qulaydi» deb yozadi muallif. Hayotiy muammolarga bardosh berolmagan Emma o'z joniga qasd qiladi.

Andre Morua o'zining «Adabiy portretlar» asarida «Bovari xonim» romanining asl syujeti – haqqoniy voqelik bilan orzu-xayoliar o'rtasidagi ortib borayotgan

qarama-qarshilik, farq, masofa, uzilishni ko'rsatish. Aslida Emma ritsarlik romanlaridagi kabi Tristan yoki Lancelot kabi ritsarni sevib qolishni xayol qiladi, lekin hayotda Rodolf kabi hamingqadar kishini, keyin esa undan ham salbiy qahramon bo'lgan Leoni uchratadi, oxir-oqibatda esa olib sotar, makkor va ayyor Lere iskanjasiga tushib qoladi, bo'g'zigacha qarzga botadi. Flober o'z qahramonini nafaqat orzu-xayollarga berilgani uchun, balki ularni amalga oshirmoqchi bo'lgani uchun jazolaydi. Shu jihatdan Flober "Bovari – bu mening o'zim" deydi, chunki Flober ham "fil suyagidan yasalgan qal'aga chiqib, voqelikdan qochishni orzu qiladi, qaysidir ma'noda Emma Bovarining mavjud voqelikka nisbatan qarshiligini tushunib, uni oqlashga harakat ham qiladi ham.

Floberning estetik qarashlari ham o'ziga xos, qarama-qarshiliklarga to'la. Flober o'z davrini tushunmadi, zamonasidagi meshchanlikni, soxtalik va xudbinlikni, umuman burjua turmush tarzini yoqtirmadi. U zamonasining bema'ni tashvishlaridan qochishga, «sof san'at» dan boshpana axtarishga urindi, o'zi xayol qilgan »fil suyagidan yasalgan minora» tepasiga chiqib berkinishni mo'ljalladi. Ammo uning oyoqlaridagi etiklari uni yerga tortib turgani uchun bu bir xayoliy narsa ekanligini tan oldi. Uning asarlari balandparvoz iboralar, behad mubolag'alardan yiroq turadi. Yozuvchi o'z asaridagi voqealarga aralashmasligini targ'ib qiladi. Burjua dunyosida go'zallikning bo'lishi ham mumkin emasligini aytadi.

ONORE DE BALZAK HAYOTI VA IJODI (1799 – 1850)

Onore de Balzak 1799-yil 20-mayida Tur shahrida tug'iladi. Otasi Bernar Fransua Bals ismli dehqon bo'ladi. Otasi keyinroq boyib ketadi va Tur shahri meri yordamchisi bo'ladi. Otasi ismini o'zgartiradi va «de» qo'shimchasini sotib oladi. Onasi esa Parij savdogarining qizi bo'lgan. Otasi o'g'lining advokat bo'lishini istaydi, lekin u buni xohlamaydi. Balzak 1807-1813 yillarda Vandom kollejida o'qish vaqtida ota-onasini yilda bir marta ko'radi. Didro, Russo asarlarini o'rganadi. 14 yoshida kasalga chalingach, uni uyga olib ketishadi. U 5 yil betob bo'ladi. 1816-yil Parijga ko'hib kelishgach, tuzalib ketadi. So'ng Balzak notarial idorada kotib bo'lib ishlaydi va otasidan 2 yil muddat berishini, bu davr ichida yozuvchilik iste'dodini ko'rsatmoqchi bo'ladi.

Balzak dastlab «Kromvel» she'riy tragediyasini yozadi, bu asar oila a'zolariga yoqmaydi. Yozuvchi adabiyot unga boylik, shuhrat va mustaqillik keltirishiga ishonadi. 20-yillarda saviyasi bo'sh romanlar yozadi. Tezroq boyish uchun bosmaxona sotib oladi va sinadi. Balzak hayotining oxirigacha qarzdan qutilmay yashadi, shuning uchun kuniga 15-16 soat ishlab, yiliga 3-6 tadan kitob chiqaradi.

1829-yilda uning birinchi tarixiy romani «Shuanlar» yaratiladi. Unga Valter Skott tarixiy romanlari ta'sir ko'rsatadi. 1830-yilda «Shaxsiy hayotdan lavhalar» to'plami chiqadi. 1834-yil Balzak yozgan asarlarini bir katta asarga jamlashga qaror qiladi va uni 30-40 yillarda amalga oshiradi. 1841-yilda «Insoniyat komediyasi» rejasini tuzadi va unga kirish yozadi. U xulqlar tarixini yozmoqchi bo'ladi. «Insoniyat komediyasi» asari ijtimoiy hayotning barcha tomonini ko'rsata oldi va asosan inson yuragi tarixi, insoniy munosabatlar tarixidir. U o'z asarlarida zamonaviy fransuz burjua jamiyatini o'zgartirmoqchi bo'ladi. Balzak o'z asarini 3 qismga bo'ladi:

1. Xulqlar haqida etudlar.
2. Falsafiy etudlar.
3. Analitik etudlar.

Balzak reja bo'yicha 143 ta roman va novella yozilishi kerak edi, shundan 96 tasi yozib tugallangan. Asar yozilgan tarixiy davr chegarasi 1830-1848 yillarni, ya'ni iyul monarxiyasi – Lui Filipp Orleanskiy davrini qamrab oladi. Lekin asarlarida restavrsiya davri (1815-1830) ham aks ettirilgan.

«Xulqlar haqida etudlar» da u Fransiyadagi barcha tabaqa vakiliari hayoti, ularning ijtimoiy ahvoli, barcha ijtimoiy institutlarni aks ettiradi. Bu asar 6 qismga bo'linadi:

1. Shaxsiy hayotdan lavhalar.
2. Parij hayotidan lavhalar.
3. Siyosiy hayotdan lavhalar.
4. Harbiy hayotdan lavhalar,
5. Qishloq hayotidan lavhalar
6. Provsinsiya hayotidan lavhalar.

Yan Parandovskiy «So'z kimyosi» asarida shunday yozadi: «Balzak ham o'z davlatini barpo etgan emasmi? Kimning ixtiyorida Balzaknikidek xodimi ko'p – uning ixtiyorida vazirlar, turli xil amaldorlar, generallar, bankirlar, kommersantu baqqollargacha, cherkov xodimlari, oiltalar, rassom va haykaltaroshlar, shoiru jurnalistlar, dvoryanlar, yangi chiqqan zodagonlar, meshchan va dehqonlar, halol kishilar va qalioblar, betavfiq ayollar va satanglar bor. Balzak ana shu davlatni boshqargan, kimlarnidir yuksak mansablarga tayinlagan, kimlarnidir iste'foga jo'natgan, jamiyatlar ta'sis etgan, sarmoyalar to'plagan, jamiyatda tug'ilish va o'lish darajasini hisobga olgan, nikohlar va qo'ydi-chiqdilar bilan shug'ullangan, hatto uylar qurib, yangi yo'llar o'tkazib, bog'lar barpo etib, ko'priklar qurib, zamin qiyofasini o'zgartirgan va o'zi barpo etgan davlatda yaxshiroq va mazmunliroq hayot kechirgan». Darhaqiqat, o'zini «ijtimoiy fanlar doktori» deb hisoblagan Balzakning ulkan epopeyasida 2 mingdan ortiq personaj qatnashgan. Asar qahramonlarini esa 3 xil tipga ajratish mumkin:

1. Yangi davr qahramonlari: bankir Nyusinjen kabi obrazlar.
2. Sudxo'r Gobsek va Grande ota kabi ziqna va xasis kishilar obrazi.
3. Votren, Jak Kolen, Abbat Karlos Errera kabi jinoyatchi, katorjnik obrazi.

Rastinyak, Sharl Grande, Lyusyeny Shardon, Rafael Vallanten kabi qahramonlar orqali esa sodda yigitdan qanday qilib epehll ishbiarmon chiqishini ko'rsatadi. Burjua oilasi hayotini esa Grande, Gorio, Nyusinjen oilalari misolida tasvirlaydi. Ayniqsa, 1834 yilda yozilgan «Gorio ota» romanida otalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlar haqqoniy tasvirlanadi. Burjua jamiyatida hamma narsa pulga bog'liq ekanligini, boylik oilaviy munosabatlarni ichidan buzib borayotganini mahorat bilan aks ettiradi.

«Gorio ota» romani qahramoni Votrenning falsafasiga ko'ra, "o'z e'tiqod va so'zlaringizga tupuring, agar kerak bo'lsa ularni soting ham. Bir biringizni tuvakdagi o'rgimchaklar kabi yeb tugating." deydi u. Votren politsiyaga xizmatga kiradi. U qonundan tashqarida turib qonunni o'rganadi. Balzak burjua qonuni va qonunsizligi o'rtasida katta farq yo'q deydi. Yana boshqa bir qahramon tilidan Balzak shunday

deydi: "Vijdonni bir kaltakka qiyoslasak, undan har kim yonidagini kaltaklash uchun foydalanadi va o'zi uchun umuman foydalanmaydi".

Yana o'sha asarida Yan Parandovskiy Balzak haqida shunday deydi: «Balzak pul jinnisi edi. Bu jihatdan u o'zining hamma vatandoshiariga o'xshab ketardi, negaki har bir fransuzda bir chimdim bo'lsa-da, Garpagondan bor. Balzak mansub bo'lgan avlod nima qilib bo'lsa-da boyib ketishga harakat qilardi. Uning o'zi esa katta mol-mulkka ega bo'lishni istagan edi, lekin umrining oxirigacha boshi qarzdan chiqmay o'tdi. Yozib topganining hammasi qarzga ketgan. Balzak ancha baquvvat odam edi, u uzoq umr ko'rishi mumkin edi, ammo 50 yoshga yetmasdan u butunlay o'zini yeb bitiradi. Mualliflik huquqini himoya qilgan kishilardan biri xam Balzak bo'lgan. «XIX asr fransuz yozuvchilariga» degan 1834-yil noyabrida «Revyu de Parij» da bosilib chikkan ochiq maktubida adabiyotchilar jamiyatini tuzish kerakligi fikrini o'rta tashlaydi. Keyin tuzilgan bu jamiyatning 1-raisi ham Balzak bo'lgan edi». «Insoniyat komediyasi» ning ko'pgina asarlarida ko'tarilgan mavzu – pul, boylik, oltin bo'lib, bu boylik asar qahramonlari hayotida mash'um rol o'ynaydi. Asarlarda pulni kishi psixologiyasini, xarakterini o'zgartiruvchi, yemiruvchi salbiy kuch sifatida ko'rsatadi. Balzak voqea-hodisalarni tipiklashtirib ko'rsatdi. U qarashlariga ko'ra legitimist, ya'ni eski burbonlar tarafdori edi, respublikachilarni dushman sanardi. U aristokrat, dvoryanlarga xayrixoh edi.

Balzakning shaxsiy hayoti ham baxtli emas. U polyak grafnyasi Evelina Ganskayaga 1850-yil martida uylanadi va Parijga kelib yashaydi. O'sha yilning 18-avgustida u 51 yoshida vafot etadi.

«Inson komediyasi»ning muhim asarlaridan biri bo'lgan «Gorio ota» romani (1834) otalar va bolalar o'rtasidagi munosabat masalalariga bag'ishlanadi. Yozuvchining bu asarida uning epopeyasida uchraydigan asosiy obrazlardan bir nechasi qatnashadi.

Gorio ota mayda burjua muhitidan chiqqan. U uzoq yillar makaron fabrikasini boshqargan, katta boylik orttirgan. Uning xotini o'lib, ikki qizi qolgan. Bular Anastazi va Delfina. Ota qizlarini nihoyatda sevadi va ulardan sira ham pulni ayamaydi. Qizlar zodagonlar doirasida o'sadilar, katta qizi graf de Restoga, kichik qizi baron Nusingenga turmushga chiqadilar. Qizlar erga tekkanlaridan keyin ham otadan pul olib turadilar. Nihoyat, Gorio otaning pullari tugab, kuyovlari uyidan quviladi. Shundan keyin u Parij chekkasidagi Voke xonimning xarob mehmonxonasida istiqomat qila boshlaydi. Gorio ota hali ham qizlarini qaynoq otalik mehri bilan sevadi. Bu mehmonxonada kambag'al student Rastinyak, surgun bandasi Votren ham yashaydilar. Rastinyak Frantsiyaning uzoq viloyatidan Parijga o'qish uchun kelgan. Ular kambag'allashib qolgan dvoryanlardir. Tez orada Rastinyak o'qishdan soviydi. Atrofdagi zodagonvachchalar singari kiyinishni, tuzukroq mavqega erishishni mo'ljallaydi. Uyiga xat yozib pul so'raydi. Uydagilar Rastinyakka pul bilan birga xat ham yo'llab, Parijdan vikontessa de Boseanni nomli ayol qarindoshlarini qidirib topishni so'raydilar. Rastinyak vikontessa de Boseanni axtarib topadi. U ayol bu yigitga yordam berishni va'da qiladi. Bu jamiyatda durustroq joy egallab olish uchun juda ham berahm bo'lishni, odamlarni pochta aravasining otlari singari savalashni maslahat beradi. Votren esa Rastinyakning maqsadlarini sezib, unga millon Tayferning merosxo'r o'g'lini o'ldirishni, so'ngra

boy otaning barcha millionlari yolg'iz qizi Viktorinaga qolishini, Rastinyak bu qizga uylanib, millionlarning egasi bo'lib olishini aytadi. Shu ma'noda ham vikontessa de Bosean, ham Votren Rastinyakka burjuaziya tuzumining yovuzlik, bosqinchilik qonunlarini o'rgatuvchilardir. Agar vikontessa de Bosean burjuaziya jamiyatida muvaffaqiyatga erishish yo'llarini silliqroq, pardaliroq qilib o'rgatsa, Votren oshkora ravishda razolatga undaydi. Yozuvchi Votren obrazi orqali burjuaziya tuzumining bosqinchilikka asoslangan qonunlarini oshkora fosh etadi. Rastinyak vikontessa de Boseanning yordamida aristokratlar doirasiga aralashadi. Ularning hayoti va makr-nayranglarini ko'radi. U Gorio otaning kichik qizi Delfina bilan tanishadi. O'rtadagi yaqinlik muhabbatga aylanadi. Gorio kasal bo'lib yotadi. Qizlarini sog'inadi. Lekin shunda ham ular otani ko'rgani kelmaydilar. Vafot etgan Gorioni Rastinyak, uning o'rtog'i Byanshon va yana bir necha kishi dafn qiladilar. Ota bilan vidolashish uchun qizlari ham, kuyovlari ham kelmaydilar.

«Gorio ota» romani qahramonlarining hayoti favqulodda keskin voqealarga boy. Balzak qahramoni Gorio ota Shekspirning Qirol Lirini eslatadi. Qirol Lir ham butun davlatini qizlari Regana va Gonerilya o'rtasida taqsimlagan edi. Gorio ota ham bor pullarini ikkala qizlariga sarfladi. Ota qizlariga katta sep qilganidan, zodagon avlodidan kuyovlar topganidan xursand bo'lsa, kuyovlar makaronchining qizlariga uylanib, juda katta sepga ega bo'lganidan xursandlar. Gorio otaning qizlariga bo'lgan mehri, muhabbati cheksiz. Qizlar otaning ana shu behad mehr-muhabbatini suiste'mol qiladilar. Gorio ota o'limi oldidan qizlaridan yuz o'giradi. Agar qizlar otani oyoq osti qilsalar, vatan halokatga uchraydi, deb xitob qiladi u.

Burjuaziya jamiyatida hamma narsa pulga bog'liq ekanini, boylik oilaviy munosabatlarni ich-ichidan buzib yuborayotganini Balzak katta mahorat bilan ko'rsatib berdi. Asarda Gorio ota fojiasidan tashqari yana bir necha oilaning xonavayron bo'lishi ko'rsatiladi.

Mana, millioner Tayfer o'z qizi Viktorinani uyidan haydagan, chunki merosni u yolg'iz o'g'liga qoldirmoqchi. Gorio otaning katta qizi Anastazining eri graf de Resto o'z xotining Maksim de Tray ismli kishi bilan uzoq yillardan buyon aloqada ekanligini sezib, bolalarining qaysi biri o'ziniki ekanligini aniqlaydi, natijada Maksim de Traydakdan bo'lgan bolalar hech qanday merosga ega bo'lmaydilar.

Rastinyak romandagi barcha voqealarning jonli guvohi. Ayollar yordamida Rastinyak asta-sekin burjua hayoti pog'onasidan ko'tarila boradi. Albatta, uning yuqoriga qarab o'sishi undagi insomiy fazilatlarining yo'qolib borishi, buzuqlik, riyokorlik, ikkiyuzlamachilik burjua sharoitiga moslashish evaziga bo'ladi. Rastinyakning Gorio ota qabri ustida turib, kim kimni, degan xitobi, uning burjua Pariji qonunlarini o'ziga singdirib olayotganidan, bu qonunlarni o'sha jamiyatning o'ziga nisbatan ishga solib, uning hayot pog'onalaridan ko'tarilib borayotganligidan darak berar edi.

Bu dunyoning egalari mol-dunyo to'plash vasvasasiga uchragan jinoyatkor shaxslar. Bu yerda ming xil jinoiy nayranglar bilan o'z millionlarini jam'argan Tayfer, «birja dunyosining Napoleoni» bo'lmish Nusingen, o'z pullarining gadosiga aylanib qolgan Gobsek va Grandelarni uchratamiz. Shon-shuhrat yo'lida hech narsadan qaytmaydigan Sharl, Rastinyak, «jinoyat olamining Napoleoni» Votren,

yana qancha-qancha personajlar galereyasi san'atkor qalami naqadar sehrli ekanligini ko'rsatadi.

Balzak qahramonlaridan biri, advokat Dervil o'z suhbatida cherdakda jon berayotgan qashshoq otani, o'z bolalarini xonavayron qilgan onalarni, asta-sekin erlarini o'limga mahkum qilgan buzuq ayollarni ko'rganligini hikoya qiladi. Bu haqiqat oldida,– deydi advokat Dervil, – yozuvchilarning xayolot olami hech narsaga arzimay qoladi.

CHARLZ DIKKENS (1812-1870)

XIX asrning mashhur yozuvchilaridan biri Charlz Dikens ingliz adabiyotida birinchi bo'lib oddiy xalqning burjua jamiyatidagi mashaqqatlarga to'la hayotini haqqoniy aks ettirdi, romanlarida kapitalistlar obrazlari galereyasini yaratdi. Yozuvchi "Oliver Tvist", "Domhi va o'g'li" romanlarida xudbin jamiyatning jirkanch manzaralarini ayovsiz tanqid qildi. Uilyam Tekkerey (1811-1863) esa "Shuhratparastlik bozori", "Snoblar kitobi" romanlarida, Tomas Gud va Ebinezer Elliot kabi shoirlar o'z asarlarida ijtimoiy-siyosiy muammolarga murojaat qiladilar, davr illatlarini tanqid qilib, savollarga javob izlaydilar. U. Tekkerey "snobizm" tushunchasini ilk marta muomalaga kiritdi. Yozuvchi "snobizm" deganda burjua jamiyatidagi illatlar – laganbardorlik, baxillik, yirtqichlik, toshbag'irlik, munofiqlikni ko'zda tutdi.

Charlz Dikens ingliz realist yozuvchilari avlodining ulkan namoyandisidir. Dikens Angliyaning janubida dengiz xizmatchisi oilasida dunyoga keldi. Bo'lajak yozuvchining yoshlik yillari katta qiyinchilikda kechadi. U durustroq maktab ko'rmasdan, hayot sabog'ini puxta o'rganadi. O'zining mashaqqatlarga to'la yoshligini Dikens keyinchalik yaratgan avtobiografik romani «David Kopperfild»da hikoya qilib bergan. Dikens uchun maktab vazifasini o'tagan kitoblar Servantesning «Don Kixot», Defoning «Robinson Kruzo», Fildingning «Tom Jons» romanlari, Smollet, Goldsmit hamda Lesajning asarlari bo'ldi.

Dikens jahon adabiyoti tarixida o'zining chinakam xalqchil asarlari bilan o'chmas iz qoldirdi. Uning ijodi ingliz adabiyotida butun bir davrni tashkil qiladi. U haqli ravishda Angliyaning xalq yozuvchisi, uning milliy iftixori sifatida tan olingan.

Dikens ingliz adabiyotida birinchi bo'lib oddiy xalq hayotini realistlik kuch bilan tasvirlab ko'rsatdi. Kishilar orasidagi keskin qarama-qarshiliklarni ifodalagan yozuvchi hamma vaqt quyi tabaqa kishilarining manfaatlarini himoya qildi.

Dikens romanlari ijtimoiy adolatsizliklarni fosh qildi, oddiy insonning haqu-huquqlari tarafdori bo'ldi, mehnat ahlining qadr-qimmatini ulug'ladi, uning go'zalligini, ezgu maqsadlarini kuylab, xudbin jamiyatning jirkanch manzarasini ayovsiz tanqid ostiga oldi.

Dikens qizg'in kurashlar davrida yashab ijod qilsa-da, jamiyatni islohot yo'li bilan tuzatish kerak, degan tushunchada bo'ldi. Ammo yozuvchining demokratik qarashlari, undagi insonparvarlik va optimizm kelajakka sobit ishonch bilan qarashga, yomonlik ustidan ezgulikning tantanasiga ishonishga olib keldi.

Dikens ijodini to'rt davrga bo'lishi mumkin.

Birinchi davri 1833-1841 yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda Dikens asosan, yumoristik asarlari bilan nom chiqaradi. «Boz ocherklari», «Pikvik klubining

maktublari», «Oliver Tvist», «Nikolas Niklbi» nomli asarlari yozuvchining shuhratini shoyon qilib yubordi.

Ikkinchi davri 1842-1848 yillarni o'z ichiga oladi. «Amerika xatlari», «Martin Chezlvit», «Dombi va o'g'li» singari asarlarini yaratadi. Bu pallada Yevropada sinfiy kurash kuchaygan davr edi. Dikens asarlarining siyosiy o'tkirligi ana shu omillar bilan belgilanadi.

Uchinchi davri 1849-1859 yillar. Dikens, asosan, hajviyanavis yozuvchi sifatida taniladi. Bu yillarda «David Kopperfild», «Sovuq uy», «Mudhish zamonlar», «Mitti Dorrit» kabi o'tkir ijtimoiy masalalarga bag'ishlangan asarlarini yaratadi.

To'rtinchi davri 1859-1870 yillar. Dikens qarashlarida umidsizlik kayfiyatlarini ustunlik qiladi. Chunki bu davrda yozuvchi burjuaziya tuzumining mavjud qarama-qarshiliklarini bartaraf qila olishiga ko'zi yetmay qoladi. Bu yillarga kelib adib «Ikki shahar haqida qissa», «Katta umidlar», «Bizning umumiy do'stimiz» kabi asarlarini yaratadi.

Dikensning birinchi asari «Boz ocherklari» ni, ayniqsa, «Pikvik klubining maktublari» ni o'quvchilar qizg'in kutib oldilar. Dikensning adabiyotga qo'ygan qadami ana shu asarlarining muaffaqiyati bilan boshlanib, bu muaffaqiyat umrining oxirigacha yozuvchiga yo'ldosh bo'lib qoldi. Dikensning birinchi yumoristik asari bo'lgan «Pikvik klubining maktublari» (1837) uning shuhratini butunlay mustahkamladi. Bu asar tez orada dunyoning barcha mamlakatlariga tarqaldi. Dikens nomi ommalashib ketishiga sabab bo'ldi. Asar qahramoni Pikvik janoblari fan yo'lida ilmiy izlanishlar qilib, uning natijalarini o'zi rahbarlik qilayotgan klub a'zolariga tanishtirish niyatida bo'ladi. Asarning komizmi yana shu bilan kuchaytiriladiki, o'taketgan sodda, har narsaga ishonuvchan, hayotni mutlaqo tushunmaydigan Pikvik London ko'chalarida chamadoni bilan, paltosining cho'ntagiga solib olgan durbini bilan hammaning diqqatini o'ziga tortadi. Uning do'stlari ham o'ziga o'xshash g'alati odamlar. Hissiyotga beriluvchan janob Tapmen, shoirtabiati Snodgress, qo'rqqoq, ammo o'zini mohir ovchi deb maqtanuvchi Uinkl janoblari birgalikda Pikvik obrazini to'ldiradilar. Bu sodda, oddiy kishilar obrazlari burjua vakillariga qarama-qarshi chizilgan. Charlz Dikensning 1848-yilda yozilgan «Dombi va o'g'li» romani yozuvchi ijodida alohida o'rin egallaydi. Ingliz tanqidiy realizmning ajoyib namunasi bo'lgan bu asar markazida yirik kapitalist, savdogar Dombi obrazi turadi. Dombi o'z korxonasining boyishi, gullab-yashnashidan bo'lak hech narsani tan olmaydi. U ayollarni odam deb hisoblamaydi. Uning fikricha ayollar korxonaning boyishi uchun xizmat qila olmaydilar. Uning o'g'li tug'ilganda farzand ko'rgani uchun emas, balki korxonani ishlarini davom ettiruvchi o'rinbosar, merosxo'r tug'ilgani uchun quvonadi. O'g'li Polni savdo maktabiga olti yoshida berib uning erta vafot etib ketishiga sababchi bo'ladi.

XIX asr tanqidiy realizm adabiyoti shu davrning buyuk ijodkorlari Frederik Stendal, Onore de Balzak, Charlz Dikens, Gustav Flober, Genrix Geyne, Garriyet Bicher-Stou, J. Beranje, Prosper Merime, Uilyam Tekkerey kabi san'atkorlar ijodida o'z ifodasini topgan. Bu yozuvchilar burjua sharoitida harakat qilayotgan, o'sha sharoit, o'sha muhitda qaror topgan hamda o'sha muhit va sharoit uchun xarakterli bo'lgan tipik xarakterlarni, tipik obrazlarni yaratishga muaffaq bo'lganlar.

Stendalning Jyulyen Sorel, Baizakning Votren, Rastinyak, Dikkensning Nikolas Nikklbi kabi qahramonlari tipik sharoitning tipik obrazlari hisoblanadi.

Tanqidiy realizm romantizmdan farqli o'laroq, tasvirlayotgan voqea va hodisalarning asl mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. U har bir voqea va hodisaga tarixiy jihatdan aniq yondashadi. Shuning uchun tanqidiy realizm adabiyotida tarixiylik muhim rol o'ynaydi. Tanqidiy realizm adabiyoti vakillari zulumga asoslangan tuzumni, uning vakillarini ayovsiz fosh qilib tashlaydi. Agar yozuvchi tasvirlayotgan voqea-hodisalarga tanqidiy yondoshmasa, tanqidiy realizm adabiyotining vakili bo'la olmaydi. Chunki burjua tuzumi haqida haqiqatni gapirish o'sha tuzum illatlarini ko'rsatishni taqozo qiladi. Ajoyib ingliz romanistlar avlodini tashkil qiluvchi Dikkens bilan Uilyam Tekkerey, Sharlotta Bronte va Elizabet Gaskell hamda Balzak, Stendal, Flober kabi fransuz ijodkorlari asarlarida o'zlari yashagan beshafqat jamiyatga nisbatan ana shunday murosasiz munosabatda bo'lganlar. Bu yozuvchilar o'z qahramonlarining ichki dunyosini butun murakkabligi va rubiyati bilan yoritib bera olganlar. Bu asarlar hozirgi kunda ham o'z qiymatini yo'qotmagan, ular hanuzgacha kitobxonlarning sevimli kitoblari hisoblanadi.

MAVZU BO'YICHA LUG'AT:

Snob- bu o'zidan yuqorida lavozimda turuvchilarga iltijogo'ylarcha sajd qiladigan, quyi lavozim kishilariga esa nafrat bilan boqadigan kishidir.

Bovarizm - "real hayot va fantaziya o'rtasidagi aniq chegarani belgilay olmaslik holati, haqqoniylikni tasavvurdagi orzu-xayol bilan almashtirib qo'yish.

Realizm -(lot. realis - mavjud, haqiqiy) - adabiyotshunoslikda R. termini tor va keng ma'nolarda qo'llanadi. Keng ma'noda R. terminining ma'nosi badiiy asar (unda tasvirlangan badiiy voqelik) bilan real voqelik munosabatidan kelib chiqadi.

MAVZU BO'YICHA SAVOLLAR:

1. Tanqidiy realizmning realistik asardan farqini tushuntiring.
2. Fransuz tanqidiy realizm adabiyoti vakillarini sanab bering?
3. Balzak va Stendal ijodidagi o'ziga xoslik.
4. Balzakning obraz yaratishdagi mahorati nimada?
5. Stendal ijtimoiy roman ustasi ekanligini yoritib bering?
6. Flober ijodiga sizning qarashingiz?
7. Dikkensning satirik asarlarida xalq obrazi.

ADABIYOTLAR:

1. Karimov.I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -T.: 2008.
2. Ismoilov.X. Jahon adabiyoti, o'quv qo'llanma, -T.: 2008.
3. Jahon adibiari adabiyot haqida. -T.: Ma'naviyat, 2010.
4. Quronov.D va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati.T., 2010.
5. Sulaymonova F. «Sharq va G'arb» - T.: 1997 .
6. Stendal.F. Qizil va qora. Parma ibodatxonasi. -T.: 1988.
7. Balzak O. Gobsek. Sag'ri teri tilsimi. -T.: 1981.
8. Merime P. Karl IX saltanatining yilnomasi, -T.: 1978.
9. Flober G. Bovari xonim. - T.: 1976. H.Ziyoxonova tarjimasi.

10. Dikkens CH. Oliver Tvist boshidan kechirganlari. -T.: 1984.

11. Flober.G Soddadil. Qissa. JA. Journ.2011.1-son.

12. Onore de Balzak va «Inson komediyasi». Maqola. JA.2008. 1-son.

13.Floberning buyukligi nimada? JA,jurn.2012.12-son.178-180 b.

14. Все пьесы мировой литературы.В кратком изложении. Сюжеты и характеры. Зарубежная литература XX века в 2 книгах. "Олимп", АСТ.- М.: 1997, 832 с

XIX ASR OXIRI - XX ASR BOSHLARI YEVROPA VA AMERIKA ADABIYOTI

REJA:

1. XIX asrning oxiri XX asr boshlaridagi fransuz adabiyoti va adabiy oqimlar.
2. XIX asrning oxiri XX asr o'rtalarigacha bo'lgan ingliz adabiyoti.
3. XX asr I yarmi Amerika adabiyoti.

Mavzuga oid tayanch so'z va iboralar:

Dekadent adabiyoti. Parij Kommunasi adabiyoti. Nasr.Naturalizm. Hikoyanavislik.Roman. Drama. Realistik san'at.Futurizm. Ekspressionizm. Ekzistensializm. Impresionizm.Surrealizm. Prerafaelitar.

XIX asrning oxirlari va XX asrning boshlarida kapitalizm o'zining so'nggi va yuqori bosqichi imperializm davriga o'tdi. Yirik monopoliyalalar paydo bo'ldi. Finans oligarxiyasi hukmronligi boshlandi. Imperialistik davlatlar: Angliya, Fransiya, Germaniya va AQSH o'rtasidagi ziddiyatlar ortdi. Ular yer kurrasining turli tomonlarida mustamlakalar bosib olish siyosatini kuchaytirdilar. Kapitalistik davlatlar o'rtasidagi bu qarama-qarshiliklar oqibatida, jahon imperialistik urushi kelib chiqdi.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida yashagan realistlar ijodida ijtimoiy tengsizlik, zulm, dahshatni fosh etish bosh masala bo'lib qoladi. Ma'lumki, har bir yozuvchining o'ziga xos tasvirlash usuli bor. Masalan: Tomas Mann ijodida hajv-grotesk kuchli bo'lsa, Gi de Mopassanda chuqur psixologik tasvir, Bernard Shou va Anatol Fransda esa kinoya, piching bo'rtib turadi.

Tanqidiy realistlar turli janrlarga, jumladan Gi de Mopassan, Romen Rollan ijtimoiy-psixologik roman, Genrik Ibsen, Bernard Shou sotsial-psixologik drama, Gerbert Uells ilmiy-fantastik roman, Jek London, Anatol Frans, Gerbert Uells sotsial-utopik roman, Frans, Rollan, Mark Tven tarixiy roman, tarixiy drama, Teodor Drayzer, Jek London sosial roman janrlariga murojaat etadilar.

XX asr jahon adabiyotida modernistlarning shakl bohidagi izlanishlarini aks ettiruvchi ko'plab oqimlarni ko'rsatish mumkin.

Futurizm - lotincha (futurum) so'z bo'lib "**kelajak**" ma'nosini anglatadi. Bu oqimning maqsadi kelajak san'atini yaratishdan iborat edi. Futuristlar san'at tamomila erkin bo'lishi kerak, deb hisoblardilar, o'tmish san'atini inkor qilardilar. Futuristlar yozish texnikasiga alohida e'tibor beradilar, poetik qonuniyatlarni buzadilar. O'zining bir qancha ziddiyatli jihatlariga qaramasdan futurizm V.Xlebnikov, B.Pasternak kabi shoirlar ijodiy prinsiplarining shakllanishida katta rol o'ynadi, shakl bobidagi dadil tajribalariga asos bo'ldi.

Ekzistensializm "(existence" - **mavjudlik**) - XX asrdagi ana shu nomdagi falsafa asosida vujudga kelgan modernistik oqim. Ushbu falsafa markazida inson hayotining ma'nosi, shaxs erki va mas'uliyati muammolari turadi. Adabiy oqim sifatida ekzistensializm borliq va insonning g'aroyib sirli-sehrli jihatlarini xususida bahs yuritadi. Ushbu adabiyot namunalarida insonning jamiyatga begonaligi, yolgizligi,

mahkumligi muammosi ko'tariladi. Ko'pincha qahramonlar kutilmagan vaziyatga tushib qoladilar, ushbu vaziyatning ular qalbi va ruhiyatiga ta'siri muallif diqqat markazida turadi. Jan Pol Sartr, Alber Kamyu kabi ijodkorlar ushbu adabiyotning ajoyib namunalarini yaratdilar.

Ekspressionizm (fransuzcha – "expression" **ifoda** so'zidan) - Birinchi jahon urushi va inqilobiy to'ntarishlar davrida san'at va adabiyotda vujudga kelgan okim. Ushbu oqim vakillari hissiyotga, tuyg'uga alohida e'tibor beradilar, qahramonning tasavvurlari, taassurotlari ifodasi yetakchilik qiladi, bissiyotga, kechinmaga urg'u beriladi. Ekspressionizm ko'proq poeziya (Pol Elyuar) va dramada namoyon bo'lgan.

Impressionizm (fransuzcha "impression" - **taassurot**) - XIX asr oxiri XX asr boshlarida Fransiyada vujudga kelib, tasviriy san'at, adabiyot, musiqada o'zini namoyish qilgan oqim. Impressionistlar insonning biron hodisa ta'sirida tug'ilgan taassuroti, hissiyot, hayajoni, ruhiy holati san'atning diqqat markazida turishi kerak, deb hisoblaganlar. Ular insonning asl hayotini g'ayrihaqiqiy hissiyotlar, o'zgalardan yashirin tuyg'ularda ko'rganlar, ushbu olamni bor bo'yicha ko'rsatishga harakat qilganlar. Impressionizm atmasi Monening «Taassurot. Quyosh chiqishi» nomli kartinasi ko'rgazmada namoyish etilgandan so'ng paydo bo'lgan. Rassomlar o'zlarining sevimli janrlari bo'lgan peyzaj, portret, ko'p shaxslar tasvirlangan kompozitsiyalarda ularni qurshagan dunyodan olgan lahzalik taassurotlarni nifodalaganlar.

"Impressionizm – bir lahzada kechgan muayyan narsa-hodisani tasdiqlash, ro'yobga chiqarish, aks ettirish. Masalan, rassom ma'lum bir tasvirning qaysi jilvasi ko'rinsa, ana shuni aks ettiradi. Reallikda esa tipiklashtiriladi va, natijada, nimadir yo'qotiladi. Impressionizm o'sha nimanidir oladi" degan edi adabiyotshunos olim Tal'at Solihov o'zining ma'ruzalarida.

Adabiyotda impressionizm prinsiplari naturalizmdan simvolizmga o'tish jarayonida shakllandi. Jyul va Edmon Gonkurlar, J.Gyunsmans, Gi de Mopassan ushbu yo'nallishga moyillik bildiradilar, asarlarida oniy lahzada insonning rang-barang tuyg'ularini so'z yordamida iloji boricha to'liqroq tasvirlashtirib nutilganlar. Impressionizm alohida maktab tusini olmagan bo'lsa-da, bu yo'nalish vakillarining ko'plab kashfiyotlari zamonaviy san'at va adabiyotda iz qoldirdi.

Surrealizm - (fransuzcha "surrealisme") – Fransiyada XX asrning 20-yillarida vujudga kelgan oqim. Surrealizm intuitivizm falsafasi, sharq diniy falsafasi, freydizm ta'limotiga tayanadn. Syurrealizm estetikasi A.Bretonning «*Surrealizm manifesti*» asarida uzining ifodasini topgan. Ular insonning «men» iga erkinlik berishga, uni moddiyunchilik, insonning ijodiy imkoniyatlarini cheklovchi an'anaviy estetika zanjirlaridan xalos qilishga chaqiradilar. Hayotning asl mohiyati insonning ongdan tashqari, g'ayrihaqiqiy olamida berkingan, deb hisoblaydilar va adabiyet tartibotlarga, ko'nikma, axloqiy tushunchalar va mantiqqa bo'ysunuvchi hayotni emas, uning botindagi pinhon tuyg'ularini tasvirlashi lozim. Shu sababli inson ruhining g'ayrihaqiqiy holatini namoyish etuvchi usul sifatida - tush holati, go'daklik xotiralar, gallutsinatsiya kabilardan foydalanganlar. Syurrealistik asarlar sujeti majoziylikka, paradoksga, kutilmaganlikka asoslanadi. Adabiyotda Appoliner, tasviriy san'atda S.Dali, X.Miro, I.Tangi, G.Arp, A.Masson, R.Magritt,

kinematografiyada L.Bunyuel, absurd teatrida E.Inoyekso, S.Bekket ushbu oqim namoyandalaridir.

XIX asr so'nggiga kelib ingliz adabiyotida nozik his-tuyg'ular, oniy kayfiyatlar, taassurotlarni tasvirlash kuchayadi. Individualizm, sof san'at, kayfiyat kulti – bu davr adabiyotining asosiy jihatlariga aylandi. Prerafaelitlar deb nomlanuvchi ijodkorlar maktabi yuzaga keladi. Ular o'z go'zallik ideallarini o'tgan asrlardan izladilar. Prerafaelit yozuvchilar Jon Ryoskin, Rosetti va Vilyam Morrislar bilan bir davrda Tennison, Robert Brouning, Yelizaveta Barret-Brouning, Svinbern kabi shoirlar adabiy go'zallik ideallari, ijtimoiylikdan xoll motivlarda she'r yozish bilan birga ezilgan xalq dardiga ham mahlam izlaydilar.

Bu davr ingliz ijodkorlaridan eng mashhuri "estetlar qirolli" Oskar Uayld (1856-1900) bo'lib, u o'zining "Dorian Grey portreti" asarida "go'zallik aqidasi va ozod g'oya kulti" xususida so'z yuritadi. Uning fikricha, san'at hayotni aks ettirmaydi, balki hayot san'atning izidan ergashadi. Oskar Uayld o'zining ziddiyatlarga to'la asarlari bilan ingliz adabiyoti tarixida fojaviy va yorqin ijodkorlarning biri sifatida qoldi.

Sanoatning tobora taraqqiy etishi adabiyotga urbanizm, mashinizm degan mavzularning kirib kelishiga sabab bo'ldi. Endilikda ingliz adabiyotida dinamizm kuchaydi, satira janri rivojlandi. Bernard Shou (1856-1950) aynan shu davrning eng yorqin va paradokslarga boy satirik yozuvchisidir. Grotesk komediyasi ustasi, muhir satirik, viktorian davrining o'tkir tanqidchisi bo'lgan B.Shou jahon adabiyotiga Shekspir bilan bahslashishga to'la asosga ega haqiqiy ingliz dramaturgi, takrorlanmas inglizcha yumor sohibi sifatida kirib keldi. U ingliz dramaturgiyasini g'oyaviy-badiiy jihatdan yangi pog'onaga ko'tardi, o'tkir ijtimoiy mavzularda hajviy pyesalar yaratdi. Yozuvchi "Muqaddas Janna" tragediyasi uchun 1923-yilda Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi.

Gerbert Uells (1866-1946) esa sanoat mo'jizalarini tasvirlagan, hayotni sehgaron o'zgartirgan, sayyoralarni o'zaro bog'lay olgan, insonni o'tmish va kelajakka sayohat qildirgan texnik pafosga boy sosial-psixologik, ilmiy-fantastik romanlar muallifi sifatida namoyon bo'ldi. Uning "Vaqt mashinasi", "Ko'rinmas odam", "Dunyolar kurashi", "Doktor Moro oroli" ilmiy-fantastik romanlari bugungi kunda ham sevib o'qiladigan asarlardan.

Ingliz shoiri, nosiri, novellalar ustasi Redyard Kipling (1865-1936) ijodida esa imperializm va shovinizm mustamlakalar hayotidan yozilgan hikoyalar va poemalarda aks ettirildi. U Angliyaning mustamlakachilik siyosatini yoqlab, uning qoloq mamlakatlardagi harbiy-siyosiy faoliyatini buyuk davlat-buyuk sivilizatsiyaning buyuk missiyasi sifatida baholadi. Yozuvchiga "Kim" romani uchun 1907-yilning Nobel mukofoti topshirildi. R.Kiplingning "Changalzorlar kitobi", "Rikki tikki tavi" kabi asarlari jahon bolalar adabiyoti durdonalaridan sanaladi.

Adabiyotdagi yana bir hodisa – bu mashinizmga qarshi reaksiyaming turli diniy oqimlarni, narigi dunyoga, teosofiya, spiritizm, okkultizmga qiziqishni yuzaga keltirishida kuzatildi. "Kelt Uyg'onishi"ning markaziy figurasi sifatida irlandiyaliklar Uilyam Batler Yits (1865-1939) va Sing ijodida romantik simvolika xususiyatlarini uchratamiz. 1923-yilda esa Yits "Milliy ruhni yuksak badiiy shakllarda aks ettirgani, ilhomi baland poetik ijodi uchun" Nobel mukofoti bilan

tasdiqlanadi. Mashinizmga qarshi norozilikning yana bir shakli sifatida adabiyotdagi nissheona qarashlarni keltirish mumkin. Nisshe nazariyasiga oid kuch kulti va shakli buzilgan estetizmni, modernistik g'oyalarni faqat Oskar Uayld ijodida emas, balki neoromantik Stivenson (1850-1894) va Jorj Mur asarlarida ham ko'rish mumkin. Sababi o'zining namunali avantyura romanlarida nozikta'b Stivenson ham, "Yosh yigitning tavbasi" asarida Zaratustra tilidan hikoya qiluvchi J.Mur ham nasroniy dini falsafasi va hamdardligiga, shafqatsizlikka, jinoyatning kuchi va go'zalligiga nisbatan o'z nafratini namoyish etdi.

Sanoat asriga bo'lgan nafrat ingliz adabiyotida mashinizmni ruhiy muvozanat bilan uyg'unlikda ko'ra olmagan ijodkorlar ijodida tushkunlik kayfiyatini yuzaga keltirdi. Masalan, shoir Jems Tomson (1834-1882) she'riyatining asosini hayot mashaqqati, umidsizlikning qora ko'lankasi yagona leytmotivni tashkil etadi. Pessimist shoirlarning eng ulug'i Tomas Gardi (1848-1928) qishloq va provinsiya hayotiga bag'ishlangan "Sulolalar" dramatik epopeyasi va romanlarini yaratdi. Uning ta'kidlashicha, inson hayotini qora va shum taqdir, anglanishi qiyin tasodiflar, shafqatsiz voqelik hal qiladi. Yozuvchi o'zini qiynagan savollarga javob topa olmaydi. Xuddi shu kabi tushkunlik Charlz Dikkensning shogirdi, quyi tabaqa vakillari hayotidan hikoya qiluvchi Jorj Robert Gissing (1857-1903) ijodiga ham xos.

Ingliz neoromantizmi vakili Jozef Konrad (1856-1913) ijodining asosini ham tushkunlik tashkil etadi. Konrad o'zining murakkab va ta'sirchan ijodi bilan e'tiborni tortadi, asarlarining tili boyligi va turfa xilligi bilan o'quvchini hayron qoldiradi. U inson tabiatining eng tubiga murojaat qilib, uning boshiga tushuvchi barcha mashaqqatlarni tasvirlaydi. Konrad insonni ideal deb bilmaydi, chunki tuzalmas egoizm illati kishilarni bir-biriga dushman qiladi. Ingliz romannavisi, dramaturgi va shoiri Jon Golsuorsi (1867-1933) "Forsaytlar haqida saga" trilogiyasi uchun 1932-yilda Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. Adib o'z asarlarida xususiy mulk egalari dunyosini, burjuaziyaning g'ayriinsoniy mafkurasini tasvirlaydi. U adabiyot tarixida viktorian davri ingliz adabiyotining eng yirik prozaigi bo'lib qoladi. Arnold Bennet (1867-1931) ham provinsial burjuaziyaning quyi qatlamlarini tasvirlay turib, ijtimoiy nizolarning sababini xususiy mulkchilikka ko'rdi.

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida ingliz yozuvchilaridan Artur Konan Doyl, Agata Kristi, Jeyms Barri, Izrael Zangvin, Klarens Ruk yashab ijod qilganlar. O'zbek kitobxonlari A.Konan Doylning Sherlok Xolms haqida hikoya qiluvchi qissa va hikoyalari (1859-1930) va Agata Kristining Erkyul Puaro va Miss Marpl kabi izquvarlar haqidagi romanlari bilan yaxshi tanish.

XX asr oxiri XXI asr boshlariga kelib esa yana Vilyam Somerset Moem (1874-1965), Djon Boynton Pristli (1894-1984), Ivlin Vo (1903-1966), Jek Lindsey, Archibald Jozef Kronin (1896-1981), Jeyms Joys (1882-1941), Devid Gerbert Lourens, Uilyam Golding (1911-1993) kabi ingliz-irland yozuvchilari ijodi bilan yaqindan tanishish imkoni tug'ildi. Jumladan, modernizm adabiyoti tafakkur oqimining yirik vakili J.Joysning "Uliss" romanini muhim tarjimon Ibrohim G'afurov o'zbek tiliga tarjima qildi. Bu roman Angliya va Amerikada 1937-yilgacha ma'naviyatga zarar keltiruvchi asar sifatida ta'qiqlangan edi. Tanqidchilar muallifni naturalizm va behayollikda, shakkoklik va so'zni isrof qilishda ayblaganlar.

Joysning fikricha, insonni uning hayoti va amallariga qarab anglash noto'g'ri, aksincha, uning kimligini bilish uchun uning ichki, emotsional hayotiga, mantiq va ratsional qonunlarga bo'ysunmaydigan shuuriy oqimiga murojaat qilish kerak. Joysning yana bir asari "Finnegan ma'rakasi" deb atalib, bu asarga keltirlarning afsonaviy lashkarboshisi Finnegan va uning o'g'li Ossan haqidagi rivoyat asos qilib olingan. Bu romanning tili ham juda murakkab bo'lib, asarni haligacha biror tilga tarjima qilish imkoni bo'lmagan. Bu roman-fantasmagoriya, musiqa bilan uyg'unlashtirilgan janr qaysidir ma'noda yechilishi qiyim kodga o'xshaydi. Asarning matni jumlaning o'rtasidan boshlanadi, ushbu jumlaning boshlanishini esa kitobxon asarning so'nggi sahifasidan topishi mumkin.

XIX asrning oxiri va XX boshida qaror topgan tanqidiy realizm adabiyoti o'z mohiyati bilan demokratik xarakterdadir. Tanqidiy realizm burjua jamiyati va uning zulm dahshatlariga qarshi noroziliklarni aks ettiradi. Har bir yozuvchining qobiliyati va dunyoqarashiga qarab bu norozilik turli meyorda, ba'zilarida kuchli, ba'zilarida mo'tadil namoyon bo'ladi. Shu bilan birga realstlar o'z ijodlarida tinchlik, ozodlik g'oyalarini ham ifoda etadilar. Lekin hali bu tipdagi yozuvchilarning ko'plari xalq ommasidan uzoq edilar, shuning uchun ular ozodlikka erishish yo'llarini ham to'g'ri tasavvur qila olmasdilar. Bunga ularning turlicha muhitda yashaganliklari va ba'zan idealistik-reaksiyon qarashlar ta'siriga tushib qolishlari sababchidir. Masalan, insonparvar Anatol Frans hayotning ma'lum davrida tarixning takrorlanish g'oyasini yoqlagan. R.Rollan esa ancha vaqtgacha yomonlikka yaxshilik qil, zo'ravonlikka qarshi turma degan falsafani targ'ib qilgan. Mopassanga esa, ijodining pirovardida, Shopengauer falsafasi ta'sir ko'rsatgan. J. London esa ha'zi vaqtlarda Spenser va Nitsche qarashlariga yaqin turgan. Bundan tashqari tanqidiy realizm o'z rivoji davomida turli adabiy oqimlarga duch kelgan va qisman ular ta'siri ostida ham bo'lgan. Masalan, naturalizm Mopassan, Genri Mann, T.Drayzer, simvolizm Genkik Ibsen, Gaupman, Rollan ijodiga ta'sir etgan. Romantizm esa M.Tven, J.London, Ibsen ijodlarida realizm bilan qorishiq holda davom etgan. Bu taraqqiyparvar yozuvchilar turli adabiy an'analardan foydalanadilar, lekin ular ijodiga xos narsa demokratiya, ozodlik va tinchlik, tenglik bo'lib, burjua hayosizligiga qarshi kurash asosiy masala tarzida qolaveradi.

G'arbiy Yevropaning ko'p yerlari, shu jumladan Skandinaviya hamda slavyan mamlakatlari milliy adabiyotlarida realizm qaror topadi va adabiy oqimlar orasida u asosiy yo'nalish sifatida qoladi. G'arbdagi realistik adabiyotning rivojiga rus yozuvchilaridan L.Tolstoy, A.P.Chexov, I.S.Turgenevlarning ijobiy ta'siri nihoyatda katta bo'lganligi shubhasiz.

XIX asrning ikkinchi yarmida yuzaga kelgan naturalizm ham o'sha davr adabiyotida ma'lum rol o'ynadi. Naturalizm negizida Ogyust Kont va boshqalarning pozitivizmni falsafasi va estetikasi yotadi. Pozitivistlar tahi qonunlari bilan jamiyat qonunlari o'rtasida prinsiplar farq borligini ko'rolmaydilar. Garchi naturalistlar hayotni qanday bo'lsa, shunday tasvirlashga urinsalar ham, aslida ular turmushning chuqur mohiyatini ochmay, balki mayda-chuydalarigacha qoldirmay ko'rsatadilar.

Umuman olganda bugungi kunda jahon xalqlari adabiyotini o'rganish va uning boy xazinasidan bahramand bo'lish, ayniqsa xorijiy tillarni o'rganayotgan talabalar

uchun ahamiyati kattadir Badiiy adabiyot orqali biz xalqlarning milliy an'analarni urf-odatlarini hamda har bir xalqning o'ziga xos bo'lgan tomonlarini ham o'rganamiz

EMIL ZOLYA (1840-1902)

E.Zolya 1840-yilning 2-aprelida Parijda tug'iladi. Uning yoshligi Frantsiyaning janubidagi Eks shaharida o'tdi. Otasi injener-quruvchi bo'lib, o'sha yerda xizmat qilar edi. U vafot etgach (1847), Zolyalar oilasi Parijga qaytadi va juda og'ir turmush kechiradi.

XIX asrning 60-yillari o'rtalarida Zolya o'zining dastlabki hikoyalari:

«Ninon ertaklari» ilk romanlari: «Klodning tavbasi», «Marsel sirlari» va boshqalarni yaratadi. Bular romantiklarga taqlidan yozilgan asarlar edi. Yosh yozuvchida sekin-asta realistlar Balzak, Floberga va naturalistlarga qiziqishi orta bordi.

«Tereza Raken» (1867) romanining muqaddimasida Zolya o'zining «Ilmiy» romanlarida xarakterlarga emas, balki temperamentlarni o'rganish haqida so'z yuritadi. Lekin mazkur romanlarida faqat «Mijoz» gina emas, shu bilan birga, oz bo'lsada ijtimoiy hayot aks etgan. «Tereza Raken». «Madlen Fera» (1868) romanlari Zolyaning naturalistik ta'limotini aks ettirgan asarlaridir.

Naturalizm adabiyoti nazariyasi Zolyaning «Eksperimental roman» 1880-yil, «Romanist naturalistlar», «Naturalizm teatri» 1881-yil maqolalarida to'la hayon qilingan.

«Naturalizm XIX asr 60-yillarida Yevropa va AQSH adabiyoti va san'atida yuzaga kelgan va realizmga qarama-qarshi o'laroq voqeilikni faqat tashqi tomonidan aniq aks ettirishga ahamiyat bergan oqim»

Shoir va yozuvchi Emil Zolya bir nechta hikoyalar to'plami, adabiy-tanqidiy kitoblar, publisistik xarakterdagi maqolalar, dramtik asarlar yaratgan bo'lsa-da, romanlari bilan mashhurdir. Bu asarlarning ko'pi «Rugon Makkarlar» nomi bilan ataladigan turkumga kiradi. Mazkur turkumi Balzakning «Inson komediyasi» kabi ko'p (to'plamli) tomli epopeyadir. Bu epopeyasi ustida qariyb 25 yil ishlaydi va 20 ta roman yozadi. Bu asrlar turkumida muallif «Ikkinchi imperiya davridagi bir oilaning tabiiy va ijtimoiy tarixi» ni bermoqchi bo'ladi. Lekin haqiqatdan ham u hayotning turli tomonlarini qamrab olgan voqealarni aks ettiradi. Zolya bu asarini 1871-1893 yillarda yozadi. Zolya marksizmni qabul qilgan emas, biroq sotsializmni – boshqacha sotsializmni qabul qilgan. Uning eng katta asari «Rugon – Makkarlar» dir. Asar yigirma jildidan iborat va undagi voqealar yigirma yilda kechadi. Qizig'i shundaki, yozuvchi bu asarni yigirma yilda yozib tugatgan.

Zolya hayotining so'ngi yillarida yangi seriyadagi romanlari «Uch shahar» 1894-1902 yillar, trilogiyasi va «To'rt injil» 1899-1902 yillar turkumidagi asrlarni yaratadi.

«Rugon-Makkarlar» (1871– 1893)– 20 romandan iborat epopeyadir. Zolya bu asarlar turkumining maqsadini quyidagicha izohlagan: 1.«Bir oila misolida qon va muhit masalalarini tekshirish». 2 «Davlat to'ntarishdan boshlab hozirgi kungacha bo'lgan butun Ikkinchi imperiya hayotini tasvirlash... Hozirgi zamon jamiyati jinoyatchilari va qahramonlarini tiplarda gavdalandirish». Zolya epopeya asarida

Fransiya o'tmishida eng og'ir zamon bo'lgan XIX asrning 50-60 yillariga murojaat etadi. Mamlakat hayotida ro'y bergan bu jiddiy voqealar Zolya ijodida ham ijtimoiy siljishlar tomon o'zgarish yasaydi.

Epopeyaning birinchi romani «Rugonlar mansabi»(1871)da Rugon-Makkarlar xonadonining nasl-nasabi haqida hikoya qilinadi. Asarda faqat bu oilaning kelib chiqishi tarixigina emas, shu bilan birga, burjuaziyanning boyishiga katta imkoniyatlar tug'dirgan 1851-yil dekabrda davlat to'ntarishi natijasida yuzaga kelgan ikkinchi imperiya tarixi ham beriladi. Bu roman mohiyati jihatidan respublikani yemirib, uning o'rniga kelgan monarxiya tuzumini ham, Lui Napoleon hokimiyatini ham fosh etadi.

Rugon-Makkarlar avlodining tarixi Plassan sabzavotchisining qizi Adelaida Fuk haqidagi hikoya bilan boshlanadi. Adelaida asabiy kasal ayol. U ota-onasi vafotidan keyin o'z xizmatkori batrak Rugonga tekkan. Undan Pyer ismli o'g'il ko'rgan. Eri vafot etgach, Adelaida sayoq va aroqxo'r Makkar bilan topishadi. Bu eridan Ursula va Antuan ismli farzandlar tug'iladi. Romanda Adelaidaning bolalari va nabiralarning hayoti ko'rsatilar ekan, ularga ota-onalaridan o'tgan fiziologik holat- asabiylik va alkogolizmning ta'siri kuzatiladi. Masalan, Rugon bolalariga dehqonlarga xos abjirlik, ayyorlik, xasislik belgilari o'tsa, Makkarlar qonida esa ichkilikka va maishatga moyillik ko'rinadi.

Rugonlar avlodining sog'lomligi va abjirligi ularning ijtimoiy pog'onadan yuqoriga ko'tarilishlariga yordam bersa, ichkilikbozlik va maishatga moyillik Makkarlarning ijtimoiy pog'onadan pastga tushib ketishlariga sababchi bo'ladi. Asarda odamlarning sog'lom va xasta bo'lishlariga faqat fiziologik holat emas, shu bilan birga, ijtimoiy muhit ham sababchi ekanligi ko'rsatiladi.

Zolya «Rugonlar mansabi» romanida bir kichik shahardagi hayot misolida ikkinchi imperiya tartiblariga qarshi kurashlarni aks ettiradi. Respublika tartiblariga qarshi turuvchilar orasida sobiq do'kondor Pyer Rugon va uning ochko'z oilasi ko'zga tashlanib turadi. Provintsiya hayotidan qoniqmagan Pyer Rugonning bolalari markazga yo'l oladilar. Markazda Bonapart to'ntarishidan xabar topgan katta Rugonlar epchillik bilan shahar hukmronligini qo'lga kiritadilar. Shunday qilib, Rugonlar xonadoni respublika tartiblarini yemirishda ishtirok etib, uning boyligini talashda qatnashadilar.

Romanda «aqlsizlik va sharmandalik davri»ga qarshi qaratilgan ommaning isyoni ko'tarinki romantik tasvirga ega. Lekin romantik bo'yoqlar o'sha davr tarixiy voqealari bilan bog'liq ravishda ko'rsatilgan va realistik mazmun olgan Adelaida Fuk avlodining taqdiri irsiy holat, qon ta'siri- fiziologik hodisalar natijasi sifatida emas, balki ijtimoiy-siyosiy voqealar natijasi tarzida berilgan.

Romanda Rugon-Makkarlar oilasidagi kishilarning barchasi bir xil xarakterda emas. Masalan, Adelaidaning o'g'li Pyer Rugon aqchaga sajda qiluvchi, boylik oldida vijdonni sotishdan ham qaytmaydigan shaxs. U kasal va bechora hol kekxa onasiga nisbatan ham beshafqatdir. Adelaidaning nahirasi Silver esa, uning aksi. Silver saxovatli, jasur, beg'araz, sof ko'ngilli yigit.

XIX asrning 90-yillarida jamiyatga cherkovning salbiy ta'siri kuchaygan vaqtda Zolya antiklerikal ruhda «Uch shahar» romanlari seriyasidan (ya'ni Lurd,

Rim, Parij) yaratadi. Xristian dini, Rim papasining yovuz ishiarini fosh etgan bu uch «mur kutolik cherkovi» man etgan kitoblar ro'yxatiga kiritilgan.

«To'rt injil» turkumidagi romanlari fransuz ishchilari barakatidagi ko'tarilish davriga bog'liq ravishda yuzaga kelgandir. Bu seriyadagi asarlar: «Serpustlik» 1899 yil. «Mehnat» 1901 yil. «Haqiqat» 1902-yil «Adolat» (tugallanmagan) dan iborat. Ulardan eng xarakterlisi «Mehnat» da jamiyatdagi zo'ravon siyosat fosh etilgan, mintiy ziddiyatlar yanada rivojlangan.

«Impressionizm buyuk san'at. U ulkan san'atlarni keltirib chiqaradi. Zolyada ham shu narsa bor. Zolyaning ba'zi asarlari hiboyatda zerikarli bo'lishi mumkin, lekin u bor narsani yozadi. Muhimi ham shu – bor narsani yozish. Zero, Xeminguey: “yozuvchi nimani yaxshi bilsa, shuni yozishi kerak”, deydi.

Emil Zolya – realist. U: “ilm bilan badiiy asar bir xil. Faqat ularning tanlagan ohyektlari, metodlari boshqacha, maqsadlari esa bitta”, - deydi. Zolya o'z xayolotini cheklaydi. Bu – hammaning qo'lidan keladigan ish emas. Masalan, u adabiyotni ilm deydi. Zolya individi Balzaknikidan kengroq. Zigmund Freyd kashfiyotlari Zolya kashfiyotlari ustiga qurilgan. Bu – tabiiy hol. Ularda favqulodda hodisalar, individl tekshiriladi.” – degan edi o'z ma'ruzalarida jahon adabiyoti bilimdoni, adabiyotshunos olim, ustozimiz Tal'at Solihov.

GI DE MOPASSAN

(1856-1893)

XIX asrning ikkinchi yarimida yashab, o'z ijodida o'sha davr fransuz voqeligini aks ettirgan yirik realist yozuvchidir.

Mopassan Normandiyada kambag'allashib qolgan eski dvoryan urug'iga mansub oilada tug'ilgan (otasi Parijda hirja dalloli bo'lgan). Dastlab u litseyda, so'ngra Ruanda kollejda ta'lim olgan. Mopassan Frantsiya-Prussiya urushi vaqtida (1870) armiyaga olingan. Fransuzlarning mag'lubiyati bilan tugagan bu urushning butun mashaqqatlarini ham o'z boshidan kechirgan.

Uning dastlabki hikoyalari 1875-yilda e'lon qilingan. Yozuvchining nomini hamma yoqqa ma'lum qilgan «Do'ndiq» asari 1880-yil chop etilgan.

Mopassan qisqa umri davomida 16 ta roman va ko'plab maqolalar yozgan. Uning ijodi 3 davrga bo'linadi. Birinchi davri 1863-1878 yillar asosan she'r va hikoyalar yozadi. Bu yillar mashaqqatli mashq qilish davri bo'ladi. Bu yillarda u og'ir, zerikarli idora ishi tugaganidan so'nggina ijod bilan shug'ullanar edi.

«Yetti yil mobaynida men she'rlar yozdim, ertaklar yozdim, novellalar yozdim, hatto juda yomon drama ham yozdim», deydi keyinroq shu haqda Mopassan. Uning bu asarlari nashr etilmagan.

«Do'ndiq» (1880) hikoyasi bilan ijodining 2 (ikkinchi) davri boshlanadi. Agar Flober uning ilk hikoyalari qattiq tanqid qilgan bo'lsa, «Do'ndiq»ni maqtagan va yosh yozuvchini o'sha zamonning Turgenev, Zolya kabi yetakchi adiblari bilan tanishtirgan. XIX asrning 70–80-yillari Frantsiya tarixida jiddiy voqealar Mopassan dunyoqarashining demokratik yo'sinda shakllanishiga ta'sir etadi. Mopassan ijodiyotida noveila janri alohida o'rinda turadi. U novellalarida tinchlik, gumanizm g'oyalari targ'ib qiladi, insomiylikka zid bosqinchilik urushlarini qattiq qoralaydi.

Mopassanning ko'pchilik novellalari bosqinchilik urushlarni fosh etishga bag'ishlangan. Ularda nemis ofitserlarining vahshiyliklari ko'rsatilgan, oddiy fransuzlarning vatanparvarlik his-tuyg'ulari va kurashlari yorqin obrazlarda ochilgan. «Do'ndiq», «Fifi xonim», «Aqldan ozgan qiz», «Duel», «Ikki oshno», «Milon amaki», «Asirlar» va hokazo.

Yozuvchining «Hayot» 1883-yil yozilgan romanida sof qalbli go'zal aqlli Janna ismli qizning tarixi berilgan. Janna kamtar XVIII asr ma'rifatchilik g'oyalari ruhida tarbiyalangan baron de Vonning qizi tabiatdan zavqlanadi. Shuning uchun Janna Russoning «Tabiiy inson» ideali mujassamidek ko'rinadi. U shirin sevgi xayoli, baxtli oila qurish ishtiyoqi bilan yashaydi.

Janna o'zi bilmagan, hatto nomini ham eshitmagan Jyulen de Lamarga turmushga chiqadi. Tez vaqt ichida Janna erining qo'pol yuzsiz beodob kishi ekanini biladi va baxtli hayot haqidagi xayollari zarbaga uchraydi. Asarda Janna obrazi harakatda berilgan. Dastlab u voyaga yetgan jozibador qiz asar oxirida esa be'mani va dahshatli hayot natijasida erta qarib dardman va keksa kampir qiyofasiga kirib qolgan baxtsiz bir xotin sifatida tasvirlanadi.

«Azizim» 1885-yil Mopassanning uchinchi respublika davridagi fransuz burjua jamiyati illatlari avj olgan sotqinlikni fosh etgan ikkinchi muhim romandir.

Asarning bosh qahramoni qishloq qaxvaxonachisining o'g'li Jorj Dyuruadir. U Afrikada soldat bo'lib xizmat qilgan va mustamlaka xalqlarni kamsitish va qo'lga o'lja kiritishga qaratilgan harakatlarda qatnashadi bular uning karakterining qo'pol shaxsiyatparast bo'lib shakllanishiga ta'sir etadi. Martaba ortirolmay Frantsiyaga qaytgan Jorj Dyuruaning ahvoli og'ir. Bu vaqtda otasining boyligidan hech narsa qolmagan edi. U temir yo'l idorasiga xizmatga kiradi. Yuqoriga ko'tarilishiga tanishlari ham, iste'dodi ham yo'q edi. Jorjning boshqalardan ajralib turadigan tomoni baland bo'yli va tashqi tuzilishining ko'rkamligidir.

Bu unter ofitser boy janoblarni kuzatar ekan, ularni «ablahlar» deb haqorat qiladi. Mansabi ko'tarilgach, endi u ministr va boshqa boylarni ham nafratlaydigan odat chiqardi. Undagi bunday munosabat mazlumlarning zolimlarga qarshi g'azabli nafratlari ifodasi emas, balki ko'rolmaslik, hasad bilan qarashi natijasi edi.

Jorj Dyurua «Fransuz hayoti» gazetasida muxbir sifatida ishga kirar ekan, oddiy maqola ham yozolmaydi, chunki u savodsiz edi. Bu ishda Madlena Forste yordamga keladi. Bu ayolga uylanganidan so'ng uning ishi yurishib ketadi. Boyish yo'lida Jorj har qanday razillikdan ham qaytmaydi. Ayniqsa u yuqori mansablarga erishishning yaxshi usuli sifatida o'ziga moyil boy ayollarga yaqinlashadi. Jorj endi davlat apparatining yuqori pog'onasiga ko'tarilishni mo'ljalga oladi. U boy redaktor Valterning yosh qizi Syuzannaga uylanmoqchi bo'ladi. Shuning uchun ham u janjal chiqarib xotini Madlena Forstedan ajrashadi.

Dyurua va Syuzannaning tantanali to'yi kinoyal ma'no kasb etadi. Yepiskop uylanayotgan yigitni o'z qobiliyati bilan olamning «Sara odamlari jumlasidansiz», deb uni boshqalardan yuqori qo'yadi, o'z ishi bilan Jorjni boshqalarga o'rnak bo'ladi, deydi, bu aslida qahvaxonachi o'g'lining butun Parijni o'ziga qaratayotganligi, yuzsizlik va ta'magirlikdan iborat yaramasliklarning avj olib borayotganini ko'rsatar edi.

Yozuvchi o'z asarlarida mustamlakachilik siyosatini qoralaydi. «Fransuz hayoti»ning xo'jayini inilloner Valter gazetaga mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yorituvchi bir ko'zgu deb emas, balki o'zining shaxsiy boyishi uchun foyda keltiradigan, birjada moliya operatsiyasini o'tkazishiga qulay bir qurol, deb qaraydigan kimsa. Valter sotqin ministr Larosh-Mate bilan til birlashtirib, gazeta orqali soxta xabarlar tarqatib, Marokko bilan bog'liq aktsiyalarning qimmatini tushirib yuborib, so'ngra ularni arzonga sotib oladi. Bosqinchilik urushi boshlanganida ularning bahosi yana ko'tarilib ketadi. Shunday qilib, yuqoridagi nayranglar natijasida bu ikki shaxs yigirma milliondan ko'p foyda orttiradi. Valter esa, bir necha kun ichida qirolidan ham qudratli moliyachiga aylanadi. Frantsiya esa, Afrikada o'z hukmini o'tkazuvchi eng kuchli mustamlakachi davlatlardan biri bo'lib qoladi.

Mopassan «Fransuz hayoti» gazetasida xizmat qiluvchilarning siyosiy qiyofasini, unda umumiy sotqinlik, bir-birini ko'rolmaslik, ta'magirlik avjga chiqqanini ochiq ko'rsatdi. Gazeta bironta siyosiy partiyaning organi bo'lmay, balki u foydani ko'zlovchi «Bir to'da o'tkinchi betayin siyosatdonlar» manfaatiga bo'ysundirilgai gazetaga aylanadi. U hamma partiyalar bilan til birlashtira oladi, lekin ularning birontasiga ham sodiq emas. Redaksiya xodimlaridan biri uni «maydachuyda bilan savdo qiladigan baqqollik do'koni», deb ataydi.

Gazeta redaksiyasida hukm surayotgan yaramas muhit Jorj Dyuruaga juda qo'l keladi. Aql-idrokdan mahrum, lekin ayyor bu shaxs gazetadan ustalik bilan foydalanadi. U boyish va mansabga ko'tarilish yo'lida vijdonini ham, sha'nini ham sotadi. Shular evaziga «aziz» kishiga aylanadi. Jorj «Fransuz hayoti»da hal qiluvchi o'ringa ko'tariladi va ministr lavozimini egallash xayoli bilan ham yashaydi. Bu «muttaham»ning o'ziga yarasha davlati bor va u bo'lg'usi saylovda o'z nomzodini qo'yimoqchi bo'ladi.

«Azizim» romanida Mopassan kichik qahvaxonachining o'g'li Jorj Dyuruaning shubhali xronikaning kichik xabarchisidan, turli nayranglar ishlatib, hukumat organining redaktori mansabini egallab olishgacha bo'lgan yo'lini realistik manzaralarda tasvirlab berdi. Xullas, yozuvchi bu romanida «firibgarlar dunyosi» bo'lgan jamiyatni ayamay fosh etdi.

Yozuvchining bu asarini o'zbek tiliga Ibrohim G'afurov 1975-yil tarjima qilgan.

XIX asrning 80-yillari ikkinchi yarmidan boshlab Mopassan romanlarida ham, novellalarida ham o'zgarish ro'y beradi. Bunday hodisa ijtimoiy-siyosiy voqealarni psixologik yo'sinda tasvirlashda, sevgi tarixini ko'rsatashga ko'p o'rin berishda namoyon bo'ladi. Asarlarida ijtimoiy problematika torayadi. Endi uning qahramonlari ijtimoiy muhitdan uzoqlashtiriladi. Bu hol «Pyer va Jan» (1887), «Qazoday kuchli» (1889), «Bizning qalbmiz» romanlarida ochiq ko'rinadi.

Mopassan ijodining so'nggi davrida yuz bergan o'zgarish va kamchiliklarga qaramay, u o'z zamonasi jamiyati illatlarini fosh etgan yirik tanqidiy realist va insonparvar yozuvchidir. Mopassan ijodiga Flober, I. S. Turgenev, L. N. Tolstoy, A. P. Chexov va boshqalar yuksak baho bergan.

JON GOLSUORSI
(1867 -1933)

Jon Golsuorsi nomini tilga olishimiz bilan uning "Forsaytlar liaqida saga" asari yodimizga tushadi. Mashhur ingliz prozaigi, dramaturgi va shoiri, "Forsaytlar haqida saga" trilogiyasi muallifi 1867-yilning 14-avgustida Buyuk Britaniyaning Surrey grafliğiga qarashli Kingston-Xilie shahrida dunyoga kelgan. Otasi Jon Golsuorsining o'z huquqiy maslahatxonasi bo'lgan. U ellik yoshida badavlat oilaning qizi bo'lgan 25 yoshli Blansli Beyli bilan turmush quradi. Golsuorsilarning o'g'li kichik Jon Golsuorsi dastlab Xarroudagi maktabda, so'ng 1886-yildan Oksford univesitetining huquqshunoslik bo'limida tahsil oladi. 1889-yilda universitetni tugatgach, otasining huquqiy maslahatxonasida ishlay boshlaydi.

Bir qarashda uning hayoti endi bir oqimda davom etadigandek, u ham otasi kabi huquqshunos sifatida tanilishi, oilaviy biznesning rivojiga o'z hissasini qo'shishi muqarrardek edi. Ammo otasi o'g'lini xorijda dengizchilik huquqini o'rganib, o'z kasbini yanada mukammal egallashini istaydi. Sayohatga chiqqan Jon shu davrda adabiyotga qiziqadi, ko'p mutolaa qiladi, o'zi ham qalam tebratishni boshlaydi. Bu davrda u Sidneyda, Yangi Kaledoniyadagi Fidji orollarida bo'ladi. Keyin Numea orolidagi tutqunlarning poseseleniyesi bilan tanishadi. Bu yerda u birinchi marta tutqunlikdagi kishilarning hayotini ko'radi, keyinroq Dartmurdagi turmaga borib u yerdagi sharoit bilan ham tanishadi. Ko'rganlari uning "Adolat" asarining yaratilishiga turtki bo'ladi. Golsuorsi ozodlikdan mahrum etilganlarning yashash sharoitini yaxshilash, ularga tazyiq o'tkazishni qoralash kompaniyasini olib boradi. 1894-yilda Rossiyada ham bo'ladi.

Avstraliyada bo'lgan davrida esa Jozef Konrad bilan tanishadi va do'stlashib qoladi. Bu davrda Jozef Konrad hali yozuvchi sifatida tanilmagan, kema kapitanining yordamchisi bo'lib xizmat qilardi. Golsuorsi uning qiziqarli dengiz sayohatlari tasvirlangan hikoyalarini o'qib chiqib, Jozefni asarlarini nashr qildirishga undaydi. Oqibatda Golsuorsi Jozef Konradni ingliz neoromantizm adabiyotining atoqli namoyandasi sifatida tanilishiga sababchi bo'ladi. Golsuorsining o'zi esa huquqshunoslikni tashlab o'zini butunlay adabiyotga, badiiy ijodga bag'ishlashga ancha paytgacha ikkllanadi. Uning fikricha, unga iste'dodli bo'lish, ijod qilish yoqadi, lekin badiiy ijod bilan shug'ullanib shuning orqasidan kun kechirishni ma'qul deb bilmaydi. Golsuorsi faqat yurak amriga bo'ysunib ijod qilishni xohlaydi, pul topish maqsadidagina asar yozishni istamaydi. Shu sababli ancha muddatgacha oilaviy maslahatxonadagi ishini davom ettirib, badiiy ijodga esa ikkinchi darajali faoliyat sifatida qaraydi. Keyingi hayotini adabiyot bilan jiddiy bog'lashiga esa uning bir umrlik muhabbatiga aylangan ayol - Ada Pirson sababchi bo'ladi.

Ada Pirson 1864-yilda dunyoga kelgan. Asli to'liq ismi Ada Nemezida Pirson edi. U ikki yoshidan o'gay otasi qo'lida o'sgani, onasi bilan sarsonlikda 74 ta shaharni kezib qiynalgani sababli Artur Golsuorsini uchratishi bilan unga turmushga chiqishga rozilik bergan edi. Jon Golsuorsi Ada Pirsonni uchratganida esa u amakivachchasi Arturning rafiqasi bo'lib Ada Golsuorsi xonimga aylangan edi. Golsuorsi uchun ularning Parijning shimoliy vokzalidagi uchrashuvi hayotida burilish yasaydi.

Ada uning ijod bilan jiddiy shug'ullanishi lozimligini, u ijod uchun yaratilganini aytadi. O'sha uchrashuvdan so'ng Jon ota uyidan ketib, kichik bir uyni ijaraga oladi. Otasi unga qarshilik qilmaydi, unga kun kechirish uchun yetarli darajadagi oylik mablag' ajratadi. Shu sababli u moddiy qiyinchiliksiz yashaydi, o'z shaxsiy karetasida yuradi, yaxshi kiyinadi, faqat ijod bilan shug'ullana boshlaydi. Viktorian davriga xos fikrlovchi ota Jonning ajrashgan ayol bilan turmush qurishiga qarshi bo'lishini bilganligi sababli ular oila qurishga urinmaydilar. Faqat 1904-yilda Jonning otasi vafot etgach, 1905-yilning 23-sentabrida ular turmush qurishga muvaffaq bo'ladilar.

1897-yilda Golsuorsining birinchi to'plami nashrdan chiqadi. So'ng romanlari "Jasmin" (1898), "Villa Rubeyn" (1900) chop etiladi. Shu davrda unda katta bir burjua oilasining taqdiri hikoya qilinadigan realistik romanlar turkumini yaratish maqsadi tug'iladi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun esa 30 yillik umrini bag'ishlaydi. Golsuorsi ijodining cho'qqisi bo'lgan "Forsaytlar haqida saga" asari (1901-1933) uch qismdan iborat bo'lib, birinchi qismiga "Mulkdor" romani, "Forsaytning qutqarilishi", "Forsaytning so'nggi yozi", "Uyg'onish" novellalari kiritilgan. Trilogiyaning ikkinchi qismi "Dorda" (1920), uchinchi qismi esa "Ijaraga beriladi" deb nomlanadi.

Ada Jon Golsuorsiga va uning ijodiga juda sadoqat bilan xizmat qiladi. Ular birga sayohat qilishar, birga ishlashar edi. Hatto umrining oxirigacha ham Golsuorsi Ada chalgan musiqa ohanglari ostida ijod qilish odatini tashlamaydi. Ada Jonni bir daqiqa ham yonidan jildirmas, u haqda onasidek qayg'urardi. Jon yozgan asarlarni u oqqa ko'chirar, u Golsuorsi uchun kotiba, ilhom parisi, do'st va maslakdosh vazifasini bajarardi. Bu orada Golsuorsi "Mulkdor", "Qo'rg'on", "Og'a-inichilik" kabi romanlar, drama va novellalar yozdi. 1917-yilda esa unga berilgan ritsarlik unvonidan voz kechdi, chunki uning fikricha yozuvchilar unvon olmasliklari kerak edi. Sermahsul ijod qilgan Golsuorsining adabiy merosi 20 roman, 27 pesa, 173 novella, 3ta she'rlar va 5ta esselar to'plamidan iborat.

Angliya va Yevropaning boshqa mamlakatlarida Golsuorsining "Kumush quti" (1906), "Kurash" (1909), "Adolat" (1910), "Vafodorlik" kabi pesalari sahnaga qo'yiladi.

Golsuorsining adabiy-estetik qarashlarining shakllanishiga CH.Dikpens, U.Tekker, Gi de Mopassan, I.Turgenev, L.Tolstoy kabi yozuvchilarning ta'siri katta bo'lgan. Jon Golsuorsi adabiyotshunos sifatida ham qalam tebratdi. Jumladan, uning "Olti adib qiyofasiga chizgilar" asarida Charlz Dikpens, Ivan Turgenev, Mopassan, Lev Tolstoy, Jozef Konrad, Anatol Frans ijodi haqida yozadi. "Yana to'rt adib qiyofasiga chizgilar" maqolasida esa A.Dyuma, A.Chexov, Stivenson, U.T.Xadson ijodi haqida mulohaza yuritadi (1928). Bu maqolalar taniqli adabiyotshunos olim, O'zbekiston Qahramoni O.Sharafiddinov tomonidan o'zbek tiliga o'g'irilgan. Yozuvchining yana "Adabiyot va hayot", "Adabiyotda xarakter yaratish" nomli maqolalari ham bor.

1932-yilda Jon Golsuorsiga "Yuksak hikoyachilik san'ati va uning cho'qqisi bo'lgan" Forsaytlar haqida saga" asari uchun Nobel mukofoti berildi. Mukofotni berish marosimida Shveysiya akademiyasi a'zosi Golsuorsi ijodi haqida bunday dedi: "Muallif o'z davri tarixini kuzatib boradi hamda hajmi juda murakkab va chuqur

bo'lgan ma'lumotlarni muvaffaqiyat bilan o'zlashtirgani unga sharaf keltiradi. "Forsaytlar haqida saga" – ingliz adabiyotida katta voqea". Darhaqiqat, Jon Golsuorsi bu asarida alohida personajlar taqdiri orqali "tarixiy manzara" ni, viktorian davrining o'zgarishi va yemirilishidan to o'z zamonasigacha bo'lgan jamiyat hayotini mohirona aks ettirgan. Uning adabiy mahoratini esa hatto Turgenev novellachiligiga bilan taqqosladilar.

Golsuorsi og'ir betobligi sabab mukofotni topshirish marosimida ishtirok eta olmadi, 1933-yilning 31-yanvarida esa vafot etdi. Xoki Beverli-Xill bilanligidan sochildi. Xotini Ada esa 1956-yil 29-mayida 91 yoshida vafot etdi. Uning shuhrati vafotidan keyin so'na boshiadi. Golsuorsi asarlarining murosasiz tanqidchilari D.G.Lourens va yozuvchi Virjiniya Vulflar bo'ldi. Ingliz prozaig Entonn Byordjes o'z maqolasida Golsuorsi o'quvchi e'tiborini qozona oldi, biroq yuragi bilan emas, aqli bilan yozdi, deydi. Yana : "U Tomas Mann kabi gigantlarga ta'sir o'tkazdi, uni Fransiyada o'qishdi, Rossiyada ulug'lashdi, biroq o'z yurti Angliyada o'rtamiyona kitobxonlar yuragini zabt etdi, xolos. Intellekti yuksak kishilar uning ijodini rad etdilar", -deb ta'kidladi. Amerikalik tanqidchi Erl Stivens : "U adabiyot tarixida viktorian davrining eng yirik prozaig bo'lib qoladi", - degan fikrni bildirdi.

TEODOR DRAYZER (1871-1945)

Teodor Drayzer ijodi XX asrning birinchi yarmi Amerika adabiyotida tanqidiy realizmning cho'qqisidir. Drayzer AQSH hayotidagi fojiaiylikni ko'rsata olgan yirik san'atkor.

Teodor Drayzer Indiana shtatidagi kichik bir joyda kambag'al oilasida tug'ildi.

Teodor Drayzerning ijodi 1900 yildan boshlandi. Birinchi romani «Baxtiqaro Kerri» chiqqach, burjua matbuotlari uning keng tarqalishiga yo'l qo'yamaydi. 1911-yildagina uning ikkinchi romani «Jenni Gerxardt» yuzaga keladi. Undan so'ng ketma-ket «Moliyachi», «Titan», «Daho» romanlarini yozadi. Birinchi jahon urushidan so'ng 20-yillar o'rtasida ikki tomli «Amerika fojeasi» chiqqach adib yirik tanqidiy realist sifatida butun dunyoga taniladi.

«Baxtiqaro Kerri» romanining qiymati kapitalistik jamiyatdagi xalq ommasining og'ir turmushi, ayniqsa korxonalarda ishlovchi ayollarning qattiq ekspulatasiya qilinishlari, mushkul ahvolga tushib qolgan Kerrining yuz tuban ketishi evaziga ko'tarilishi, burjua Gerstvod oilasidagi munofiqlik, boy kvartal Brodveydagi dabdaball hayot, tramvay ishchilarining ish tashlashiari tasviri, izchillik natijasida ko'chaga chiqarib tashlangan son-sanoqsiz kambag'allarning och tentirab yurishlarining haqqoniy aks ettirilishida ochiq ko'rinadi.

"Jenni Gerxardt" (1911) romanida ham kambag'al oiladan chiqqan qizning burjua jamiyatidagi fojiasi ko'rsatilgan. Asarning g'oyaviy yunalishi oddiy qizning xulqiy pokizaligi, uning buzilgan burjua axloqiga qarshi qo'yilishida namoyon buladi.

Romanning asosiy sujet yo'li, ishchi qizi Jennining fojiasi, u bilan millionerning o'g'li Lester Keyn o'rtasidagi sevgi tarixida ochiq ko'rinadi. Kambag'al Jenni boy yigit Keyn bilan turmush qurolmaydi. Usha jamiyat urf-odatlari, ijtimoiy adolatsizliklar bu yoshlarning tabiiy sezgilariga to'sqinlik qiladi. Drayzer

oddiy qizning odobliligi, vafodorligi, qalbining musaffoligini ko'rsatish orqali xalq kuch-qudratiga ishonchini ifodalaydi.

Jenni o'zining eng yaqin kishilari ota-onasi, qizi Vesta nihoyat sevgani Lasterdan ajraladi. Lekin bunday og'ir yo'qotishlar uni umidsizlikka tushirmaydi. U yetim bolalarni asrab oladi va bundan so'nggi hayotining ular tarbiyasiga bag'ishlanadi.

Yozuvchining «Istak trilogiyasi» ni tashkil etgan romanlari: «Moliyachi» 1912-yil, «Titan» 1914-yil, «Matonatli» 1947-yil kapitalistik monopoliyalarning kelib va ularning hukmronligi mamlakat iqtisodiy va ma'naviy hayotiga qanday ta'sir etgani real ko'rsatilgan.

Drayzerning «Amerika fojiasi» (1925) asari birinchi jahon urushidan so'ng yozilgan monumental ikki tomli romandir.

Asarning bosh personaji burjua-meshchan oilasidan chiqqan bola Klayd Griffitsdir. U o'sha muhit ta'sirida o'sadi. Klayd burjua jamiyatiga xos yuzsizlik, boyish yo'lida dastlabki qadam deb mahalliy mehmonxonani hisoblaydi va u yerda o'z mijozlaridan xayr-sadaqaga ko'z tutuvchi, manfaat yuzasidan ish yurituvchi egoistga aylanadi. Tartibsiz kun kechirish maishat va ichkilikka olib boradi. U tushgan mashina bir qizni bosib ketadi. Qamalish xavfi tug'ilgach Klayd bu yerni tashlab, boy amakisi yashaydigan shaharga boradi va uning fabrikasiga ishga joylashadi. U yerda qishloqdan kelib xizmat qilayotgan kambag'al qiz Roberta Olden bilan tanishadi va unga uylanmoqchi bo'ladi. Lekin ahvolini tuzatish maqsadida u boy qiz Sondra Finchlini olishga intiladi. Lekin homiladorligi aniqlangach Roberta Klayddan o'zini nikohlab olishni talab etadi. Bu narsa uning uchun ko'ngilsiz voqea, ya'ni maqsadiga erishish uchun katta to'siq edi. Shuning uchun Klayd Robertani ko'lda sayr qildirib yurib, suvga cho'ktirib o'ldiradi. Bu fojiali voqeaming siri ochilib Klayd sud qilinib, elektr kursida jazolanadi.

«Amerika fojiasi» asari voqelikni keng qamrab olishi, ko'tarilgan g'oya va tanqidiy fikrning chuqurligi, badiiy mahoratning yuksakligi bilan jahon adabiyotining eng yaxshi realistlik asarlari qatoridan joy oladi.

JEK LONDON (1876-1916)

Jek London XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshida yashab ijod etgan Amerika demokratik adabiyotining yirik vakili, keng xalq ommasining o'z huquqlari uchun kurashini aks ettirgan mashhur realist yozuvchi.

Jek London Kaliforniya shtatining San-Fransisko shahrida kambag'al fermer oilasida tug'iladi. Bu shahar omadli ishbiarmonlar. Avantiyuristlar, dengizchilar, ruda qazuvchilar, temiryo'l ishchilari shahri edi. J.London yoshligidan kitob o'qiy boshlaydi. Gazeta tishiydi, konserva zavodida ishlaydi. Yoshligida dengizchi bo'lib Chukotkada bo'ladi. juda ko'p voqealarni boshidan kechiradi.

Keyin Klondayk davri boshlanadi. U 1897-yilda Klondaykka keladi. Yarim yil o'sha yerda yashaydi. Rassom. Ijodkor sifatida u o'zini Klondaykda kashf qiladi. U o'z kitoblarida eng og'ir holatda ham yo'l topish mumkinligini ko'rsatadi. Bunda uning ma'naviyati va pozitsiyasi hal qiluvchi o'rin tutadi deb hisoblaydi.

Londonni buyuk, o'ziga xos personajlar qiziqtiradi. Shimoldagi hayot J. Londonning hayotning biologik tomoniga e'tiborini kuchaytiradi. Bu umuman davr ruhi edi. Odamlar, avlodlar, xalqlar o'rtasidagi munosabatlar hayot qonuniga bo'ysunadi deb hisoblaydi u, ya'ni yosh, kuchli, hayotga moslashganlar yutadilar.

Yozuvchining ko'pgina hikoyalari Shimol hayotidan olib yozilgan. «Yo'ldagilar sharafi uchun», «Oq sukunat», «Bo'rivachcha», «Qirq mil narida» va boshqa hikoyalari paydo bo'ladi. «O'talar xudosi» 1901-yil, «Sovuq bolalar» 1902-yil hikoyalari to'plami yozuvchiga katta shuhrat keltiradi.

Jek Londonning hayoti qisqa, lekin ijodi sermahsuldir. U juda ko'p hikoya, qissa, ocherk, pyesa va romanlar yaratdi. Hikoyalarning aksariyati Uzoq Shimoldagi mashaqqatli turmushga bag'ishlangan. Mangu sovuq va ok sukunat o'lkalaridagi og'ir hayot romantik qahramonlardan tasvirlashga manba bo'lib xizmat qiladi. Uzoqdagi bu yerlarda haqiqiy insoniylik sinovidan o'tadi. Egoistik intilishlar shaxsni qanday fojiali ahvolga olib borishi mumkinligi o'zining real ifodasini topadi.

Jek Londonning bu to'plamiga ya'ni «Shimol hikoyalari»ga quyidagi asarlari kiradi. «Smok Bellyu», «Oq sukunat», «Hayotga muhabbat», «Ayol jasorati» hikoyasida negr ayolning matonati, latofati va g'amxo'r inson ekani chuqur samimiylik bilan tilga olinadi.

Shimol romantikasi hilan bir qatorda hayvonlar hayoti ta'sviri ham Jek London ijodida alohida o'rin egallaydi. «Oq tish» 1906-yil qissasida yozuvchi hayvonlarning harakati va psixologiyasini mohirona ko'rsatgan. Unda ovchi hindu Seriy Bobr o'rmondan kichik bo'ri bolasini topib uyiga olib keladi va unga «Oq tish» deb nom beradi. U ota qoniga tortib o'rmonga qochib ketadi, biroq sovuq va ochlik uni yana ovchi kulbasiga qaytishga majbur etadi.

J. London ijodiga Nitsche asarlarining ta'siri katta bo'lgan. Buni Londonning «Dengiz bo'risi» (1904) romanida ham ko'rish mumkin. Bu romanda u hayot nima degan savolga qahramon tilidan shunday javob beradi: «Hayot hu bir burda non uchun kurash, ishsizlik, xaroba kulba, nohaqlik, politsiya tayog'i, epidemiyalar... Shundan keyin ham uni muqaddas deyish mumkinmi? Uni hamma arzon narsalardan arzonroq deyish to'g'ri emasmi?».

«Martin Iden» (1909) romanida Jek London xalq ichidan chiqqan qobillyatli yozuvchilarning burjua jamiyatidagi og'ir ahvoli va fojiali hayotini ko'rsatadi. Bu avtobiografik roman bo'lib, unda ijodiy urinishlarini, omad izlashlarini, ichki konfliktlari, ruhiy kechinmalarini ochiqchasiga tasvirlaydi.

London juda ko'p ijod qila boshlaydi. Lekin doim ham obrazlari hayotiy chiqmas, badiiy g'oyalari mayda ko'rinar. London realizmi falsafiy fikrdan ajrab qolgan edi. Uning ayrim asarlarida ilgari surgan fikrlari shimoliy hikoyalari, romanlariga hech o'xshamasdi. Muallif ularda odamlarni dunyoning bema'ni hayotidan faqat tabiat qo'ynidagi femerona hayot, oilaviy baxt qutqaradi, deydi. Ijtimoiy masalalar esa ularni yechishga uringaningiz sari ko'payaveradi deydi. Jek Londonning «Vaqt kutib turmaydi» (1910), «To'lin oy vodiysi» (1913) romanlari, «Meksikalik» (1911), «Hayotga muhabbat», «Hayot qonuni» kabi hikoyalari ham mashhur.

Jek London hayotining so'nggi yillarigacha ijod qildi. Lekin u juda charchagan edi. Kasallikdan qiynalgan London morfilyisiz turolmasdi. U 1916-yil 22-noyabrida kusali xuruj qilgan chog' ortiqcha morfiiy ichib vafot etadi.

ERNEST XEMINGUEY (1899-1961)

Yirik Amerika yozuvchisi Ernest Xeminguey Ouk-Park shahrida shifokor oilasida tug'iladi. Uning bolaligi Michigan shtatining o'rmonlarida kechgan. Maktabni tugatgach u gazetada ishlaydi. 19 yoshga to'lgach esa Yevropaga I jahon urushida qatnashgani yo'l oladi. Sanitar qismlarda bo'lib, Italiyadagi janglarda qattiq yaralanadi. Urush tugagandan keyin Parijga o'rtnashadi va Amerika gazetalarining muxbiri bo'lib faoliyat yuritadi. Shu yerda u ijodini boshlaydi. Gertruda Stayn to'garagiga qatnashadi.

1922-yil esa muxbir sifatida yunon-turk urushida qatnashadi. 20 yillar oxirida esa AQShga qaytadi va Florida qirg'oqlarida yashaydi, lekin Yevropa va Afrikaga borib turadi.

Yozuvchi Ispaniyadagi fashist diktaturasiga qarshi ham kurashadi. Ikkinchi jahon urushi yillarida esa AQShni nemis suvosti kemalaridan qo'riqlaydi, so'ng aviatsiya qismlarida muxbirlilik qiladi. Umrining oxirgi yillari esa Kubada o'tadi.

U baland bo'lyli, keng yelklali, soqolli kishi edi. Uni yaqinlari va do'stlari «Ota» deb atashsa, tanqidchilar esa «buyuk Xem» deyishardi. Ernest Xeminguey hayotligidayoq Amerika adabiyotining klassigiga aylandi.

Xeminguey ijodining boshlanishi birinchi jahon urushidan keyingi yillar to'g'ri keladi. «Bizning zamonda» 1925-yil kitobiga kirgan hikoyalari yozuvchi birinchidan asarning lirik qahramoni Nik Adamsning yoshligi, o'smirlik yillari, sevgi va oilasi haqida hikoya qilsa, ikkinchidan tinch hayot haqidagi xayollarga, qonli urushga qarama-qarshi qo'yadi. Individualistik xarakterda bo'lsa ham, asarda qahramonning razil urushga qarshi noroziligi bayon etiladi. «Vrach va uning xotini», «Uch kunlik noqulay ob-havo», «Big Riverda» hikoyalari Nik Adamsning oilasi, uning baliq ovini yoqtirishi, hindular bilan uchrashuvini, birinchi muhabbati va do'stini bilib olamiz. Tinch sahnalar, Michigan o'rmonlaridagi osoyishtalik janglar, shovqin bilan o'rin almashadi. O'zining birinchi kitobidayoq Xeminguey urushga qarshi bo'ladi., urushning insoniyatga qarshiligini ta'kidlaydi. Yosh Nik Adams urushni ko'rgach, uni butun vujudi hilan rad qiladi.

Urushga qarshilik mavzusi Xeminguey ijodida «yo'qolgan avlod» mavzusi bilan ilgari suriladi. «Uyda» hikoyasida X. Krebs tarixini ko'rsatadi. Krebs metodistik kolejidan urushga ketadi va urush tugagach qaytib keladi. Shaharda esa deyarli hech narsa o'zgarmagan. Lekin Krebs o'zgargan. U endi shahar hayotida qatnashishni istamaydi. Yozuvchi hikoyada urushda bo'lgan kishi hayotining bemaqsad, bema'niligini juda aniq ochib beraolgan. Krebsning yashagisi yo'q. U endi bu dunyoda ortiqcha, begona.

Yozuvchining «Alvido, qurol!» 1929-yil romani ijodining muhim bosqichini tashkil etadi. Asarda birinchi jahon urushi yillarida Avstriya-Italiya frontida ro'y bergan voqealar hikoya qilinadi. Yozuvchi unda janglarni, qisqa dam kunlari, urush payti restoranlardagi mastliklar, gospitallardagi achinarli holatlarni tasvirlaydi.

Frontda yomg'ir yog'ayapti. Qo'shin orasida vabo tarqagan. Urushishini istamagan askarlar o'zlarini jarohatlayaptilar. Bosh qahramon Genri orqali yozuvchi o'z shaxsiy kechinmalarini bayon qiladi. Roman qisqa hikoya qilish uslubida yozilgan. Xeminguey oddiy yozadi, ammo bu oddiylik ortida murakkab mazmun yotadi, fikr va tuyg'ularning katta olami mavjud. Yozuvchi fikricha, ijodkor yozayotgan narsasini yaxshi bilishi kerak. Oddiy voqea, odiiy suhbatda his boyligini, fojiali, ijtimoiy va psixologik mazmuni bera olish uning "Yomg'irdagi mushuk", "Oq fillar", "Sovg'aga kanareyka" hikoyalarida seziladi

"Alvido, qurol!" romani kompozitsiyasi o'zining uzilganligi bilan farqlanadi. Avtor o'z qahramonlari hayotini to'liq hikoya qilmaydi. Ular ko'z o'ngimizda harakatda, hozirgi zamonda ko'rinadilar. Ularning o'tmishi deyarli eslatilmaydi. Ularning kelajagi ham noaniq. Personajlar qayoqdandir birdan paydo bo'lib, biz ularning qanday tugashini ham bilmaymiz.

Xeminguey asarlarida bosh qahramonlarning dialoglari, ayniqsa, katta mazmuni beradi. Yozuvchi ichki monolog usulidan ham foydalanadi. Bu usul qahramonning voqealarga bo'lgan asl munosabatini ko'rsatadi. Masalan, Genri birinchi uchrashuvlarda Ketrinni sevishiga ishonitirmoqchi bo'ladi. Ichida esa o'zining uni sevmasligini, bu xuddi bridj kabi o'yinligini, faqat kartalar o'rniga so'zlar qo'yilganligini aytadi.

Xeminguey 30-yillarning o'rtalarigacha bo'lgan asarlarida, u tashqi dunyoga munosabatida ziddiyatli va individualistik ijodkorligicha qoladi. O'sha yillar ocherk shaklida yozgan «Choshgohdan keyingi o'lim» 1932yil kitobida o'lim mavzusi yanada ochiq ko'rinadi. Asarda adabiyot, ijodkor, mahorat haqida qiziq fikrlar bilan birga o'lim mavzusida fikr yuritiladi. Unda buqalar jangi va unga bog'liq qoidalar batafsil beriladi. Buqalarni o'ldiruvchi matadorlar yoki matadorlarni o'ldiruvchi buqalar, otlarning yorilib ketgan qorinlaridan otilib chiqqan qonlar, fojia ustiga fojia va ayniqsa jarohatlangan odamning o'limi oldidan kechirgan azoblari umidsizlik ruhida tasvirlanadi. O'lim kitobning bosh qahramoni.

"Afrikaning yashil tepaliklarida» (1935) asarida Amerika yozuvchilari haqida gapiradi. Mark Tven ijodini yuqori baholaydi. Amerika haqida gapirib, u yerda yashashni istamayman, deydi. Tabiatni sivilizatsiyaning hozirgi holatiga qarshi qo'yadi.

Fojiaviy qissasi "Kilimandjaro qorlari" da yozuvchining ijodiy va jismoniy o'limi haqida hikoya qiladi.

Ijtimoiy masalalarga bag'ishlab yozgan «Hayot yoki mamot» (1937) romani yozuvchi ijodida burilish yasadi. Unda katta ijtimoiy masala ko'tarilgan va u muallifning yolg'izlik, yakkalik yo'lidan uzoqlashishini bildiradi. Bunday qarash u Ispaniya fuqarolar urushida qatnashganidan so'ng yuz berdi. U o'z hisobidan sanitar avtomobillari kolonnasini sotib olib ularni respublikachilarga yubordi.

Ispan voqealari uning ko'p asarlariga mavzu bo'ldi. Ulardan biri "Beshinchi kolonna" pyesasi. Unda amerikalik Filipp Roulings faol shaxs bo'lib, murakkab ish agentlarni tutish (beshinchi kolonnadagi) bilan shug'ullanadi. Lekin yosh, boy, chiroyli ayol Doroti Bridjesni sevib qoladi. Ammo o'zining hislaridan kechib, u bilan ajralishadi. U ijtimoiy jamiyat ideallari uchun o'zining shaxsiy qiziqishlaridan voz kechadi. Bu asar yozuvchi dunyoqarashidagi murakkab burilish edi. Bu pyesa

ishizimni qoralaydi." "Qo'ng'iroq kim uchun bong uradi" (1940) romani ham Ispaniyadagi fuqarolar urushi haqida.

Xemingueyning so'nggi «Chol va dengiz» qissasi bo'lib, 1952-yil bu qissasi uchun Nobel mukofotini olgan. Qissaga hamma turhcha fikr bildirgan. Ayrımlar uni Ispaniyadagi qahramonlikning boshlanishi haqida deyishsa, qolganlar uni yolg'izlik va iztiroh motivlari deb tushungan. Asarning qarama-qarshiligi uning allegorikligi, ya'ni majoziylikdagi. Yozuvchi o'z fikrlarini umumlashtirib, mavhumlashtirib, o'quvchining o'ziga xulosa chiqarish huquqini beradi.

Asar qahramoni chol Santyago baliq oviga chiqqaniga ancha kunlar bo'lsa ham, lekin ishi yurishmaydi. Uningcha yelkaniga ko'p yamoq tushgan qayiqqa qanday qilib ham balliq ilmsin, Santyago keksa bo'lsa ham lekin o'zi tetik. Shuning uchun yozuvchi bu odam «taslim bo'lmaydi» deb uqtiradi. Chol to'riga katta baliq tushganda cheksiz sevinadi. Baliq deb chaqirdi u sekingini o'lsam o'lamanki sendan ajralmayman. Chol butun kuch-g'ayratini ishga solib, haliq bilan olishadi va uni yengadi. Uning «Odamzodni yanchib tashlash mumkin, lekin uni bo'ysundirish mumkin emas» degan so'zlari inson qudratiga yozuvchining cheksiz ishonchini ko'rsatadi.

Santyago omadsiz edi. Omadsizlik ramzi sifatida uning yelkanli qayig'i keltiriladi. Santyagoning katta baliq bilan kurashi ham ramziy. Baliqni yengadi va inson yengilish uchun tug'ilmagan deydi. Insonni yo'q qilish mumkin, lekin yengish mumkin emas.

Qissaning yakuni o'quvchi uchun ochiq qoldirilgan. U insonning ijodiy kuchlariga ishonch bilan yakunlanadi. Bu insonning hayotdan ketishi emas.

Xeminguey vafotidan so'ng uning yana ikkita kitobi nashr etildi. Bu "Bayram doim sen bilan" bo'lib, unda yozuvchi o'zining yoshligini, Parijdagi hayotini eslaydi. Ikkinchi kitobi esa "Okeandagi orollar" romani (1970) qisman avtobiografik asar. Unda rassom Tom Xadson oroilardan birida yashab, fashist suvosti qayiqqlari bilan kurashadi.

MAVZU BO'YICHA LUG'AT:

Naturalizm - XIX asrning 60-70 yillarida-burjua reaksiyasi kuchaygan paytda Fransiyada kelib chiqqan va rivojlangan adabiy oqimlardan biridir. Natura-lotinch «t a b i a t» demakdir.

Dekadent - XIX asrning 80- yillarida Fransiyada burjua jamiyatining ziddiyatlari kuchayib borayotgan bir sharoitda dekadentlik adabiyoti kelib chiqadi. Individualizm, umidsizlik, sirli voqealar, oxirat dunyosiga murojaat etish bu adabiyotning asosiy belgisidir. Romantik sho'r Teofil Gote dekadans (fransuzcha-tushkunlik) iborasini birinchi bo'lib qo'llagan.

Impressionizm-(fransuzcha-tassurot) oqimi XIX asrning 60-70 yillarida dastlab tasviriy san'atda, so'ngra she'riyada kelib chiqqan.

MAVZU BO'YICHA SAVOLLAR:

1. Jahon madaniyatining yuksalishidagi XX asr Yevropa xalqlari adabiyotining o'rni haqida ma'lumot bering.

2. XIX asr oxirlarida yaratilgan nemis adabiyotidagi realizm haqida gapiring.
3. XX asr boshlaridan to XXI asrgacha bo'lgan nemis adabiyoti haqida ma'lumot bering.
4. Ingliz adabiyotining ravnaq topishida XIX-XX asr adiblarining xizmatlari nimadan iborat?
5. XX asr Amerika adabiyotida T. Drayzerning o'rni.
6. XX asr oxirlari XXI asr boshlaridagi Amerika adiblari asarlaridan namunalar keltiring.
7. XX asr Yevropa adabiyotida romantizm metodi asosida yaratilgan asarlar haqida ma'lumot bering.
8. Detektiv janrida yaratilgan asarlarning yoshlar ongiga ta'siri haqida nimalar deya olasiz.?

ADABIYOTLAR:

1. Azizov Q, Qayumov O. «Chet el adabiyoti tarixi». -T.: 1987.
2. Mahmudov M «Hayrat va tafakkur» -T.: 1990.
3. Po'latov U «O'zbekistonda chet el adabiyotini o'rganishga doir» -T.: 1975.
4. Po'latov U «Asrlarga tutash hamkorlik» -T. 1974.
5. Sulaymonova F «Sharq va G'arb» -T.: 1997.
6. Drayzer T. Amerika fojiasi. G'afur G'ulom nashriyoti, -T.: 1976.
7. London J. Martin Iden. - T.: 1987.
8. Xemiguy E. Alvido, quroll. -T.: 1988.
9. Все шедевры мировой литературы. В кратком изложении. Сюжеты и характеры. Зарубежная литература XX века в 2 книгах. "Олимп", АСТ.- М.: 1997, 832 с

XX ASR JAHON MODERNIZM ADABIYOTI

REJA:

1. Modernistik adabiyot va uning paydo bo'lish omillari.
2. Modernizm yo'nalishlari: ekspressionizm, dadaizm, kubizm, abstraksionizm, syurrealizm...
3. Modernizm va adabiy turlar.
4. Modernizm va Kafka ijodi.
5. J. J. Joy's modernizm asoschisi sifatida
6. Alber Kamyu va absurd falsafasi
7. Uilyam Golding hayoti va ijodi
8. Amerika modernizm adabiyoti. Uilyam Folkner ijodi.

Mavzuga oid tayanch so'z va iboralar:

Modernizm. Tafakkur (ong) oqimi. Ekspressionizm. Dadaizm. Kubizm. Abstraksionizm. Syurrealizm. Fusunkor (magik) realizm. Ekzistensializm. Absurd adabiyoti.

Modernizm fransuzcha "moderne" (zamonaviy, eng yangi) so'zidan olingan bo'lib, XX asrning 20-yillarida vujudga kelgan badiiy estetik tizimni anglatadi. Shu davrdan boshlab XIX asr san'atidan farq qiluvchi yangi san'at shakflana boshlaydi.

Modernizmning vujudga kelishiga Shopengauer va Nitsshe irrashional falsafasi, Bergson intuitivizmi, E. Gusselning fenomenologiyasi, Freyd va Yung psixoanalizi, Xaydegger, keyinroq J.P. Sartr va A. Kamyu ekzistensializmi, Franfurkt maktabi ijtimoiy falsafasi g'oyalari asos bo'lib xizmat qildi. Modernizm ma'lum ijtimoiy davr mahsuli edi, XIX asr oxiri XX asr boshlarida jamiyat hayotida yuz bergan ijtimoiy va ma'naviy tushkunlik (bu dekadentlik atamasi bilan nomlanadi) adabiyot va san'atga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Modernizmning paydo bo'lishi bir tomondan jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarga norozilik ifodasi edi, zero ular ijtimoiy o'zgarishlar, inqilobu to'ntarishlar bilan insonni baxtli qilib bo'lmasligini anglab yetdilar, modernizm oqimining g'oyaviy asosini tashkil qiluvchi falsafa insonning ijtimoiy tomoniga emas, ruhi, qalbiga asosiy e'tiborni qaratdi. Ular o'zlaridan oldingi falsafani narsalar falsafasi bo'lgani uchun tanqid qiladilar, falsafa diqqat markazida inson turishi lozim degan fikrni ilgari suradilar, insonning asl hayoti real voqelikdagi emas, ko'ngildagi, ongdan tashqari, aql-idrokka bo'ysunmaydigan hayoti deb biladilar. Ayni paytda modernistlar an'anaviy shakldan ham qoniqmaydilar, XIX asr realizmi va romantizmi uchun xos bo'lgan qolip tusini olgan shakl va usuliarni takrorlash, naturalizmning voqelikdan passiv nusxa ko'chirishi, badiiy ijodda akademizmga qarshi isyon ko'tardilar. Ular an'anaviy shakl hozirgi zamon voqeligini ko'rsatishga ojizlik qilib qolgan deb hisoblaydilar. Ruh-qalb hayotini alohida qadrllovchi modernistlar, endi realistlik usul va vositalar inson qalbining yashirin tublariga kirish, umi bor bo'yicha, ro'y-rost tasvirlash uchun ojizlik qilib qolgan, deb hisoblaydilar.

XX asr amerika adabiyotini ham modernizm atamasisiz tasavvur qilish qiyim. Modernizmni XX asr adabiyoti va madaniyatiga xos voqea sifatida bir qator

jihatlarini ko'rib chiqish mumkin. Birinchidan, modernizm adabiyoti ortida XX asrda yuz bergan muhim ijtimoiy-siyosiy, tarixiy voqealar turadi. Bunday voqealar sirasiga siyosiy va ilmiy inqiloblar, totalitar diktaturalar, qonli jahon urushlari, informasion portlashlar, insonning kosmosga chiqishi kabilarni kiritish mumkin.

XX asr insonparvarlik, aql-idrok, kollektivizm, shaxsning cheksiz erkinligi, texnik taraqqiyotga tayangan holda ochlik va yo'qsillikni yengishga intildi. Ammo bu natijada insonlarning yolg'izlikka mahkum bo'lishiga, siyosiy safsatabozlik, hayot haqiqatlaridan uzoqlashishga olib keldi ham.

XX asr fojiasini ko'plab ijodkorlarning urushlarda halok bo'lishida, gunohsiz qatl qilinishi, aqldan ozishi, o'z joniga qasd qilishiyu, ijoddan yuz o'girishida ko'rishimiz mumkin. Nemis faylasufi T.Adorno o'zining "Zaharlangan hayot haqidagi mulohazalar" (1951) asarida shunday yozadi: "Osvensim fojialaridan keyin she'r yozish varvarlik, bu kishiga nega yozish mumkin emasligini anglatadi..."

Modernizmga tushkunlik mafkurasini ifodalovchi hodisa sifatida salbiy baho berib kelindi. Biroq uning buyuk namoyandalari bu fikrning biryoqlamaligi, adolatsizligini isbotladi. Frans Kafka, Jeyms Joys, Alber Kamyu asarlarida chirigan jamiyatning inson shaxsiga ta'siri, uni mahv etishi o'zining yorqin ifodasini topsa-da, insonga, uning kelajagiga ishonch tuyg'usi ham ufurib turadi. Modernistik ijod mahsullarida fojiaiy taqdirga mahkum inson fojiaiylik zahirida ham baxtga intiladi, najot axtaradi. Modernchi adiblarning qahramonlari ko'p hollarda kutilmagan vaziyatga tushib qoladilar, ana shunday hollarda ularning qalbida ro'y berayotgan jarayonlar muallif diqqat markazida turadi. Ularning qahramonlari odatda halol, sofdil, beozor odamlar. Ruh hayoti bilan yashash, ko'ngil buyurganini qilish, soxtalik, sun'iylikni inkor qilish, qalbidagini yashirmaslik - F.Kafka, A.Kamyu kabi ijodkorlar asarlarining qahramonlarida ana shu jihatlar yetakchilik qiladi.

Modernistlar shaklga alohida e'tibor beradilar, shartli-ramziy usullarni qo'llaydilar, inson shaxsiga kutilmagan tomondan yondashadilar. Bu jihatdan, ayniqsa, avstriyalik yozuvchi F.Kafka, Jeyms Joys, fransuz adibi A.Kamyu va amerikalik U.Folkner ijodi diqqatga sazovor.

FRANS KAFKA HAYOTI VA IJODI (1883-1924)

Frans Kafka XX asr modern adabiyotining eng ajoyib va o'ziga xos namoyandasidir. Uning ijodi g'oyatda xilma-xil qarashlar va baholarga sabab bo'lgan. Albatta, Kafka tiriklik chog'ldagiga qaraganda, o'limdan keyin unga qiziqish kuchli bo'lganligini ham e'tirof etish kerak. Ba'zan buyuk iste'dod egalari o'z davrida tan olinmasligi, tushunilmasligiga ko'plab misolilar keltirish mumkin. Kafka ham shunday ijodkorlar sirasiga kiradi. U Markaziy Yevropada o'tgan asrning 20-30-yillarida juda keng bo'lmasa ham ma'lum ma'noda tanilgan edi. O'z paytida Herman Hesse, Tomas Mann, Bertold Brext kabi taniqli yozuvchilar uning iste'dodini tan olgan edilar. Biroq, Kafka nomining chinakam shuhrati ikkinchi jahon urushidan keyingi davrga to'g'ri keldi. Chunki Kafka tirikligida kitoblarning nashr qilinish-qilinmasligiga bee'tibor qarar edi. Shu sababli o'limidan keyin nashr etilgan, ba'zilar tugallanmagan "Jarayon", "Qo'rg'on", "Amerika" romanlari adabiyot olamida chinakam voqea bo'ldi.

Bugungi kunda o'zbek kitobxonlari modernizm yo'nalishlarida yozilgan jahon adabiyotining bir qancha durdona asarlari bilan tanishish imkoniga ega bo'ldi. Modernizm yo'nalishi ekzistensializm, abstraksionizm, simvolizm, syurrealizm, futurizm, kubizm kabi oqimlarga bo'linadi" deyiladi. Shu oqimlardan ekzistensializm o'nalishining Jan Pol Sartr, Marsel Prust, Jeyms Joys, Alber Kamyu, Frans Kafka abi namoyandalari asarlarida inson hayotining muayyan jihatlarini xavotir, tahlila, midsizlik, iztirob, ayniqsa batafsil tasvirlanadi.

Frans Kafka 1883-yil 3-iyulda Praga shahrida tug'ilgan. Ota-onasi yahudiy oilasiga mansub edi. "Kafka" so'zi chech tilida galka, zog'cha degan ma'noni bildiradi. Onasi ruhoniylar avlodidan, otasi German Kafka esa qishloq unarmandining o'g'li bo'lgan. Kafka shaxsining shakllanishida otasining o'rni katta. Ushbu o'g'li qashshoqlikda o'tgan bu odam keksayganda sarmoya to'plab kichik fabrika chadi. Ruhan o'g'lining tainomila aksi bo'lgan bu odamda endilikda o'ziga ishonch aydo bo'ladi va uch qizi hamda yolg'iz o'g'li Fransni o'z hukmiga bo'ysundiradi. G'oyatda ta'sirchan tabiatli Frans unga qalban itoat etolmaydi. Biroq nafratga o'g'rilgan muhabbat, uning oldida qarzdorlik, burch hissi noroziligini tashqariga hiqarishiga to'sqinlik qiladi. Keyinchalik "Otamga xat" (1919) asarida u qalbidagi iddiyatlarni to'kib soladi, biroq uni otasiga jo'natmaydi. Ushbu xat Kafka iste'dodining shakllanishidagi ko'plab ruhiy omillarni ochib beradi. Kafka lunoqarashida ko'zga tashlanuvchi o'ziga nisbatan ishonchsizlik, yolg'izlikka noyillik sababi shundadir, balki.

Frans avval nemis gimnaziyasini tamomlaydi, so'ngra huquqshunoslik bo'yicha oliy ma'lumot oladi. Universitetda germanistika, huquq, san'at tarixidan ma'ruzalar tinglaydi. 1906-1907 yillarda avval advokatlar idorasida, so'ngra xususiy sug'urta amiyatida xizmat qila boshlaydi. 1907-1922 yillarda sug'urta tashkilotida ishlaydi. 1917-yilda sil kasaliga chalilib ishdan ketadi va 1922-yil nafaqaga chiqqach, erkin ijodkor sifatida faoliyat yuritadi. 1923-yilda Vena yaqinidagi Kirling sil kasalliklari sanatoriyasida vafot etadi.

Yozuvchi Praga va Chexoslovakiyaning siyosiy, ijtimoiy, madaniy hayotiga qiziqqan. Chech tilini o'rgangan. U "nemis tili - ona tilim, lekin chech tili - yuragimga yaqinroq", deydi.

Kafkani atrofda ilgari nisbatan begonalik hissi doimo qiynagan. Yozuvchi Gyunter Anders o'zining "Kafka - za i protiv" (1952) asarida shunday deb yozadi: "U yahudiy sifatida xristian dunyosiga begona edi. Yahudiy sifatida esa yahudiylikka begona edi. Nemis tilida so'zlovchi sifatida u chechlarga begona edi. Nemis tilida gapiruvchi yahudiy sifatida yahudiylikka begona edi. Bogemiyalik sifatida to'liq avstriyalik emasdi. Ishchilarni sug'urtalash xodimi sifatida burjua einasdi, meshchanin sifatida ishchi emasdi. Xizmat ham unga hamma narsani bermasdi, chunki u o'zini yozuvchi deb his qilardi. Lekin yozuvchi emasdi, chunki uning bor kuchi oilasiga berilgandi. U o'z oilasida unga eng begona kishilardan ham begonaroqman derdi". Kafkaning yolg'izlikda o'tgan qiyin hayotining guvohi sifatida uning 1910-1923 yillarda yozgan kundaligi qolgan.

Kafkaning asarlari juda mashhurdir. U o'z asarlarida insonning dunyoda begonalashishini aks ettirdi.

Ruhiy va tana qiynoqlarini, insonning xo'rlanishlari, qo'rquvning barcha turlarini, azoblar, ma'naviy yetishmovchilik, yolg'izlik va qo'lidan hech narsa kelmaslik, inson hayotiga tahdid soluvchi va anglash qiyin bo'lgan xavflarni Kafkagacha hech kim bunday xushyorlik va bamaylixotirlik bilan tasvirlamagan. Yozuvchi va uning qahramonlari o'zlarini dunyoning asiridek his qilganlar. Kafkaning tasvirlashicha, inson doimo ta'qib qilinayotgan, o'limga mahkum qilingan hayvondir. Bu esa uning asarlariga chuqur fojiaiylik bag'ishlaydi.

Kundalik va xatlar, chex musiqachisi va adabiyotshunosi Gustav Yanouxning (1903-1968) "Kafka bilan suhbatlar" qayd va xotiralar kitobi (1951) Kafkaning estetik qarashlarini bilishga yordam beradi. U Gyote, O.de Balzak, Kleyst, F.Dostoyevskiy, G.Flober, Gogol ijodini sevgan. U "Agar bu o'qiyotgan kitob ongimizga ta'sir qilib bizni uyg'otmasa, uni o'qish nechun?" degan savolni beradi.

Yozuvchi adabiyotning ahamiyati va vazifalarini shunday tushunadi: "Milliy adabiyot - aqllarning uyg'onishi, milliy ong saqlab qolinishi, faxr va tirgovuch, adabiy hodisalarning siyosiy kun tartibiga qo'yilishidir",-deydi Kafka.

Kafka hayotligida uning "Go'lah" (1911), "Evrilish" (1915), "Hukm" (1916), "Jazo koloniyasida" (1919), "Qishloq vrachi" (1919), "Golodar" (1924) kitoblari bosilib chiqqan. 4 ta hikoyasi nashr etilgan. O'limidan so'ng esa 30 dan ortiq hikoyasi va 3 roman-fragmenti nashr etilgan.

Kafkaning dastlabki yozgan asarlaridan "Evrilish" hikoyasida (1912) kommivoyajer Gregor Zamza ertalab turib, o'zining dahshatli hashoratga aylanganini sezadi. U ishdan haydaladi va oilasida "parazit"ga aylanadi. Chunki hashoratga aylangan o'g'il oila uchun keraksiz. U ochlikdan, otasining yomon munosabatidan vafot etadi. Singlisi esa uning o'lishini, undan qutulishni istaydi

Kafkaning 1914-15 yillarda yozilib, 1925-yilda nashr etilgan "Jarayon" romanida voqealar bank prokuristi K. Yozeffning 30 yoshga to'lgan kuni hokimiyat tomonidan qamoqqa olinishi, lekin uning aybi ko'rsatilmaligi bilan boshlanadi. Romanning mazmunida K.Yozeffning anonim kema yasash korxonasiga qarshiligi turadi. Bu katta tashkilot orqasida esa nohaqlik, bema'nilikka asoslangan, bir jallod o'rnini bosa oladigan tashkilot turadi. Bu yerda asoslangan ayb, birorta oqlov, tergov va himoya yo'q. Romanda atrofdagi butun dunyo insonni sud qiladi. Sud jarayoni qandaydir iflos uy qaznog'ida bo'lib o'tadi.

Bu sud asosida korrupsiya, xo'rlanish, odamni buyum sifatida ko'rish yotadi. K. o'zining aybini tan olmaydi. Uning hayoti oddiy inson hayoti edi, u hamma qatori umr kechirardi. Balki uning aybi ham shundadir? K. hayotda o'z o'rnini topishga urinadi. Katta mansabga erishdi, u karera uchun o'z his-tuyg'ulari va munosabatlarni qurbon qildi (onasini esdan chiqardi). K ni qatl qiladilar.

Birinchi jahon urushi davrida Kafkaning hayoti og'ir kechdi. U urushning o'zini oqlovchi birorta tomonini topolmasdi.

Kafka san'atni shifr, mif tarzida tushunadi. Lekin Kafka ekspressionist emas, aksincha u ularni tanqid ham qilgan. 1910-1920 yillarning boshlaridagi adabiyotda yuzaga kelgan syurrealizm oqimi Kafkani voqelikni tush kabi tasvirlashga olib keldi. Bertold Brext "Kafkada hamma narsa dahshatga o'xshaydi", deb yozadi. Shu jihatdan Kafkaning 1914-yilda yozilgan "Jazo koloniyasida" hikoyasini kishini juda dahshatga

soluvchi hikoya deyishadi. Kafka ham o'z davrini "qiynoqqa soluvchi davr" deb ataydi.

Tropiklarda joylashgan jazo koloniyasida sayyoh olimga marhum kommandant kashf qilgan apparatni ko'rsatadilar. Bu apparat yordamida aybdorga hukm chiqariladi. Sudya va jallod vazifasini bajaruvchi ofiser "Aybdorlikka hech ham shubha yo'q", degan qoidaga rioya qiladi. Hukm e'lon qilinmaydi, aybdor uni o'z tanasi bilan angelaydi. Bu mashina yordamida tizimning qandayligi ko'rsatiladi. Sayohatchi oroldan ketayotib, komendant qabri ustidagi yozuvni o'qiydi: "Ta'bir qilinishicha, yillar o'tgach, komendant qaytadi va o'z tarafdorlarini koloniyani zabt etish uchun boshlaydi. Unga ishonning va kuting!"

Urush davrida Kafkaning "Qishloq vrachi" (1919) to'plami bosildi. Kafka endi yangi "xabar" janrini ishlaydi, vaziyat yoki voqea haqida qisqa xabarni beradi. Ularda yozuvchi yolg'izlik, unutilganiik, begonalikni ko'rsatadi.

Bu hikoyalar ham yana o'sha insonning kundalik hayotiga xavotir soluvchi xavf haqidadir. "Yangi advokat", "Qadimgi yozuv", "Qishloq vrachi", "Qo'shni qishloq" hikoyalari esa bunday bema'ni mavjudlikka faqat o'z-o'zini o'ldirish chek qo'yadi. Yozuvchi o'ngida va tushida bo'layotgan voqealarning chegarasini yo'qotadi.

Ijodkor masalasi, san'at taqdirining dunyodagi o'rniga bag'ishlangan 4 ta hikoyasi 1922-1924 yillarda yozilgan. Ular oxirgi "Golodar" to'plamiga kiritilgan.

Yozuvchining oxirgi hikoyasi "Qo'shiqchi Jozefina, yoki sichqon xalqi" deb nomlanadi. Unda yozuvchi san'atning ijtimoiy ahamiyati haqida fikr yuritir ekan, san'atning xalk tomonidan qanday qabul qilinishiga to'xtaladi. Uning fikricha, san'atkorlarga bo'lgan salbiy munosabatlar ularni qahrli bo'lishga, san'atidan yuz o'girishiga olib keladi. Bizning dunyomizda ijodkorning taqdiri faqat g'amgin, achinarli bo'ladi, xalq esa san'atkorini osongina yo'qotib, o'z yo'lida davom etaveradi, deb hisoblaydi Kafka.

XX asr jahon adabiyotida Kafka birinchilardan bo'lib noinsoniy, burokratik, totalitar davlat mavzusini ishlaydi. Bertold Brext shunday yozadi: "Kafka kelajakdagi konslagerlar, nohaqliklar, davlat apparatining absolyutlashtirishini tasvirlagan. Unda hamma narsa dahshatga o'xshaydi, yechimi yo'q, anglash mumkin bo'lmagan dahshatdan iborat".

Kafka o'z ijodida insonning yemirilishi va o'limiga katta e'tibor bersa-da, Tomas Mannning fikricha: "u yaxshilik va haqiqatga ishonadi".

Yozuvchining eng so'nggi "Qal'a" romani 1921-22 yillarda yozilib, 1926-yilda bosilib chiqqan. Unda tasvirlangan 30 yoshli K. juda yupun kiyingan, o'tmishi ayanchli kechgan, xo'rlangan kishi. U uzoq yo'l yurib, xarob bir qishloqqa keladi. Qishloq xarob hir qal'a yaqinida joylashgan bo'lib, bu qal'a qishloqni boshqaradi. K. bu yerda doimiy yashab qolishni istaydi. Yer o'lchovchi sifatida bor kuchi bilan ishlab, qal'aning ishonchini qozonmoqchi bo'ladi, lekin qal'a uning borligini sezmaydi ham.

Roman oldingilari kabi fragmentligicha qolgan. Uning yakuni haqida Maks Brod shunday deydi: "Yer o'lchovchi kurashadi, yengilmaydi, lekin kuchdan qoladi va vafot etadi. O'limidan so'ng jamoat yig'iladi. Qal'adan esa K. ning qishloqda yashash istagi qonunga xilof bo'lsa-da, unga bu yerda yashash va ishlashga ruhsat

beriladi degan qaror keladi". K aytadi : "Men qal'adan rahm-shafqat emas, balki o'z huquqimni, haqqimni talab qilayapman".

K – autsayder. Qal'a esa yuqori hokimiyatning ramziy ifodasi. Qishloqda yashovchilar qal'aga bo'sunaverib, o'zlari mustaqil fikr yurita olmaydigan, ko'r-ko'rona ergashuvchi kishilarga aylanishgan.. Qishloq ahli ham K. ning harakatlariga absurd deb qaraydi. Qal'ada esa byurokatiya hukmron. Ular qabul qilayotgan qarorlarning, qog'ozbozliklarning hech kimga keragi yo'q. Unda nazorat bo'limlariga faoliyat olib boradi , biri bir buyruqni bersa, ikkinchisi boshqasini beradi.

Qal'a- amaldor tasvirida insonni ezish va ajratish funksiyasi aks ettirilgandir. Kafka davlat apparatidagi yangi byurokratik sistemaning insonga salbiy ta'siriga ishora qiladi. Byurokatiyani tashqaridan hech kim tekshirmaydi. Shu sababli tashqaridan kelgan birgina odam ham ular uchun katta muammoni yuzaga keltiradi. Burokatiyani Kafka "Be'manilik dunyosi - o'z insoniyligini yo'qotgan salobat dunyosi" deb ataydi.

K. hokimiyatning shu darajada suiste'mol qilinishidan dahshatga tushadi. Gdamlar uning harakatlariga umid qiladilar. Lekin jamiyat va ular o'rtasidagi kuchlar har xil. Yengishga esa ko'p kuch zarur. Romanda insoniylik dunyosi mavjudligiga ishonch sezilib turadi.

Roman boshida esa qal'a bu risarlik qal'asi ham, yangi saroy ham emas, balki devorlari ko'chgan, past uchalardan iborat eski shaharcha ekanligi aytiladi. K. qal'ani yenga olmay halok bo'lsa-da, lekin o'z nomini abadiy qoldirib ketadi.

Kafka 1920-22 yillarda yozganlarini va hali bosilmagan asarlarini yoqib yuborishni do'sti yozuvchi Maks Broddan iltimos qiladi. Maks Brod marhum yozuvchi timsolida ijodkorni emas, ko'proq "g'oya kishisini" ko'rar edi. Kafka ijodini noto'g'ri talqin qilganiga qaramay, Maks Brodning adabiyotga qo'shgan hissasi katta bo'ldi. U do'stining qo'lyozmalarini yoqib yubormay, dunyo kitobxonini Kafkaning adabiy merosi bilan tanishishiga imkon yaratdi.

Kafka asarlarida noma'lum sirli hodisalar kundalik-real voqealar bilan yonmayondir. Bu hikoya qilish atmosferasiga bog'liq, chunki u alohida hayotiy holatlar - ta'qib qilish, yolg'izlik, kutish, umid va boshqalardan iborat. Dunyo modeli va undagi inson hatti-harakatlarini aks ettirishda Kafka paradoks, bo'rttirish, grotesk, komizm priyomlaridan foydalanadi.

Kafka badiiy tafakkurining xarakterli xususiyati fragmentarlik. Lekin u Kafkada tugallangan shakldadir. Shu sababli Kafka kichik nasriy janrlar "mulohazalar", "xabarlar", aforizm kabilarda ijod qildi. Romanlari ham fragmentligicha tugallangan bo'lib, to'liq tugallanmagan, bosishga tayyorlanmagan. Frans Kafka ijodiy merosi quyidagilardan iborat:

Novellalari:

- "Bir kurash ta'rifi" (1904-1905);
- "Qishloqda to'yga tayyorgarlik" (1906-1907);
- "Ibodot qiluvchi bilan suhbat" (1909);
- "Mast bilan suhbat" (1909);
- "Katta shovqin" (1912);
- "Qonun oldida" (1914);

- "Maktab o'qituvchisi" (1914-1915);
- "Ovchi Grakx" (1917);
- "Xitoy devori qanday qurilgan" (1917);
- "Uyga yo'l" (1908);
- "Yo'lovchi" (1908);
- "Sog'inish" (1913) va h.k.
- 1919 yil "Qishloq vrachi" to'plami chiqdi.

Kichik nasriy asarlari:

- "Ko'prik" (1916-1917);
- "Qo'shni" (1917);
- "Lampalar";
- "Sancho Panso haqida haqiqat";
- "Temiryo'l yo'lovchilari";
- "Prometeyning uyga qaytishi" (1918);
- "Oddiy tarix";
- "Sirenalar sukuti";
- "Yigirmanchi yil Prometeyi";

Romanlari:

- "Amerika" (1911-1916);
- "Jarayon" (1914-1918);
- "Qala" (1921-1922);

Xatlari:

- "Felisiyaga xatlar";
- "Milenaga xatlar";
- "Maks Brodga xatlar";
- "Otanga xat".

Kundaliklar (1910-1923), Aforizmlar (1931).

Ekranlashtirilgan asarlari:

- "Qishloq vrachi" (2007);
- "Metamorfozalar";
- "Inson tanasi" (2004);
- "Qal'a" (1997);
- "Golodar" (2002);
- "Jarayon" (1992).

Uzoq davr mobaynida Kafka merosi uinng do'sti yozuvchi Maks Brod qo'lida saqlandi. Brod marhum yozuvchi timsolida ko'proq san'atkorni emas, "g'oya odamini" ko'rar edi. Shu sababli uni xristian ta'limoti targ'ibotchisiga aylantirib qo'ygan edi. Kafka ijodini o'zicha noto'g'ri talqin qilganiga qaramay, Brodning adabiyot oldidagi xizmati ulkan bo'ldi, u do'stining barcha nashr qilinmagan qo'lyozmalarini yoqib yuborishni so'rab qoldirgan vasiyatini bajarmadi va dunyo kitobxonini Kafka merosi bilan to'liq tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Kafka nomi shuhrat cho'qqisiga chiqqach, barcha uni o'zicha talqin qilish va ulug'lashga o'tdi. Dastlab Amerikada boshlangan Kafkani yangidan tanish asta-sekin butun dunyoga yoyildi. Insoniyat ishongan g'oyalarning urushdan keyin puch bo'lib

chiqishi, sivilizatsiyaning oxir-oqibatda insonni mahv qiluvchi jihatlarini o'z asarlarida ochib berdi.

Kafka g'ayriinsoniy tartibotlar hukmron bo'lgan dunyodan nafratlanar edi, insonning imkoniyatlariga ishonmas edi. Ayni paytda u inson uchun iztirob chekar, uning uchun o'zini javobgar deb his qilar edi. Kafka dunyoqarashidagi qarama-qarshilik uning asarlari turlicha baholanishiga sabab bo'ldi. Uning ijodini diniy va modern adabiyotning turli oqimlari, aqidalari bilan izohlashga urindilar.

“Uliss” ni uzluksiz o'qish kerak. Chunki hayotning o'zi shunaqa – uzluksiz. Hayot substansiya emas, balki hodisa. Tanholik ham shunday. “Yuz yil tanholikda” gi yuz yilning o'zi cheksiz. Kafka, Xeminguey, Markes, Dikkens kabi adiblar: “asar boshqa, men boshqa”, degan gapni aytishgan. Meningcha, bu noto'g'ri. Chunki yozuvchi kim bo'lsa, asar ham o'shanday bo'ladi. Odam o'zidan nur taratadi. Xuddi shunday, asar ham yozuvchining bir ko'rinishidir. Kafkadek dahshatli yozuvchi dunyoda yo'q. Kafka ma'naviy jihatdan ezilib, maydalanib ketgan. Yahudiylarda odam qatoriga kirish uchun har narsadan voz kechish odati bo'lgan. Ular hatto dindand-da kechishgan. Lekin, aslida, qalbd, shuurda hech qachon kechmaydilar. Dahshat shu yerdan vujudga keladi. Chunki arosat boshlanadi. Kafka yahudiylikdan chiqib ketgan va nemis tili uning uchun ona tiliga aylanadi. Shuning o'zi tanholanishdir. U jamiyatga kirishga harakat qildi, lekin jamiyat uni o'zidan itardi. Kafkani birov realist desa, boshqa birov modernist deydi. Kafkani o'qiganda, shu zamindan kelib chiqib qarash kerak emas, shuurda zamindan bir oz ko'tarilish lozim. Xayol ham reallik ekanini tushunish kerak”, degan edi o'z ma'ruzalarida adabiyotshunos olim Tal'at Solihov.

XXI asrga kelib ham Kafka ijodiga bo'lgan qiziqish so'ngani yo'q. Zero, bu yozuvchining kashfiyotlari zamonaviy kitobxon qalbiga ham yo'l topa bilmogda. Hozirgi kunda Frans Kafka mukofoti Chexiya Respublikasining mashhur xalqaro adabiyot mukofoti bo'lib, u 2001-yilda ta'sis etilgan.

JEYMS JOYS HAYOTI VA IJODI (1882-1941)

Jeyms Joys Irlandiyaning buyuk adibi, modernistik roman janrining asoschilaridan biri. Joys ijodiga xos bo'lgan psixologizm va novatorlik XX asr realistik romanchiligiga ta'sir ko'rsatgan. Joys asli irlandiyalik bo'lib, mamlakat poytaxti Dublinda 1882-yil 2 fevralida san'atkorlar oilasida dunyoga kelgan. Uning otasi yuksaq musiqiy iqtidorga ega bo'lib, ovozi butun Irlandiyaga mashhur, Dublinda esa uni tanimagan kishi yo'q edi. Jeyms Joys bolalik chog'laridanoq otasidan hayratlanar, doim undan hayiqib, tortinib turar, ota ulug'vorlgi oldida o'zini bag'oyat kichkina “odamcha” kabi sezardi. Shu hayrat va hayiqish uning ijodkor yozuvchi bo'lib yetishishida muhim rol o'ynadi.

Joys dastlab izuit kollejida o'qidi, universitetda zamonaviy fiziologiya va tibbiyotni o'rgandi, musiqa va teatr san'ati sirlarini egalladi. Bunday ko'pyoqlama bilim yozuvchining, ayniqsa, adabiy faoliyatida yorqm namoyon bo'ldi. Adabiyotdagi ijodini shoir sifatida boshladi. U o'zining ilk ijod namunalari – she'rleri, kichik hikoyalari, maqolalari bilan taniladi. 1907-yilda uning “Kamer musiqasi” nomli she'rilar kitobi chiqdi. Bu kitob o'ziga xosligi bilan ajralib turmasa

ham unda kinoya va, hatto taqlid (ermak, hajv) mana men deb turar edi va mana shu narsa Joysning keyingi ijodiga xos asosiy yo'nalishni belgilab berdi.

Joys ijtimoiy va milliy tengsizlikka, to'pori boyonlarcha to'qlikka qarshi chiqqan bo'lsa-da, hayotda inqilobiy o'zgarishlar bo'lishiga ishonmagandi, o'z xalqining siyosiy va madaniy ozodligi uchun kurash olib boruvchi irland ziyolilari bilan hamnafas bo'lib ketolmagandi. U o'zining imsyonkor qarashlari bilan Irlandiya muhitiga sig'madi. Joysning barcha asarlaridagi voqealar tasviriga Irlandiyadagi xotiralar asos bo'lsa-da, u 22 yoshida, ya'ni 1904-yilda vatanini umrbodga tark etadi va Yevropaga ketadi. Yevropa mamlakatlarini tinimsiz kezadi, ingliz tilidan dars beradi, boshlanib kelayotgan birinchi jahon urushining alangalari, inson hayoti, ruhi-ichki dunyosining tanazzuli uning yozayotgan asarlariga ta'sir o'tkazmay qolmadi. Umringing ko'proq qismini Fransiya va Shveysariyada o'tkazdi. Jous 1941-yilda Syurixda dafn etilgan.

1914 yilda uning birinchi to'plami “Dublinliklar” bosildi. Joys ijodining o'ziga xosligi uning ilk hikoyalari dayoq ko'rinadi. “Tushunarsizlik” uning dastlabki asarlariga ham xos edi.

“Dublinliklar” da yozuvchi ijodining bosh mavzusi – ruh va tana halokati mavzusi ko'rsatiladi. Bu to'plamda o'ziga xos uyg'unlik bo'lib, buni undagi hikoyalarning ichki tematik, g'oyaviy, intonasion – uslubiy jihatdan mutanosibligida ko'rish mumkin. Joys to'plamini tartiblashda uyg'unlik tamoyiliga asoslangan. Shunga ko'ra to'plamdagi “Opa-singillar”, “Uchrashuv”, “Araviya” hikoyalari bolalik haqida; “Evelin”, “Poygadan so'ng”, “Pansion” hikoyalari yoshlik haqida; “Niqoblar”, “Yer”, “Achinarli voqea” hikoyalari yetuklik xususida bahs etadi. “Dublinliklar”dagi oxirgi hikoya “Tangri shafobati”da Joys yaramas hayot qissasiga yakun yasaydi. Bu hikoyada u avvalgi hikoyalardagi qahramonlarga “qaytadi”. Bunday eski qahramonlarga “qaytish” Joysga hikoyalar silsilasi davomida dunyoning yagona ekanini isbotlash imkonini beradi. Shunisi muhimki, Joys dunyosi qotib qolgan jasadlar olami emas, balki doimiy harakatdagi dunyodir.

O'quvchi kimningdir o'tirayotganini, yana allakimning shlyapasini to'g'rilayotganini, shivirlashayotganini yaqqol ko'rib turadi. So'zda jonli hayot effektini yarata bilish imkoniyatiga Joys montaj vositasida erishadi va ilk bor bu uslubni shu hikoyada qo'llaydiki, keyingi asarlarida bu mezonga aylanadi. Kimo tili bilan aytganda, Joys montajning ko'p qirralaridan – umumiy plandan, kattalashtirish, maydalashtirish kabi usullardan keng foydalanadi.

Bu bejiz emas, zero, Joys kino san'atiga o'ta ixlosmand edi. U Dublinda kinematografiya tashkil etishda tashabbus ko'rsatgan ham. S.Eyzenshteyn asarlari bilan qiziqadi, hatto Eyzenshteyn uning “Uliss” asarini ekranlashtirmogchi ham bo'lgan. Vafotidan sal avval Eyzenshteynning “Potyomkin bronenosesi” filmini tomosha qilgan Joysdan film nimasi bilan yoqdi deb so'rashganda, u “montaji bilan”, deb javob bergan ekan.

Joys ijodi yaxlit bir butundir, uni qismlarga ajaratib o'rganish qiyin. “Dublinliklar” to'plamidagi hikoyalar tartibi uning barcha asarlariga ham xos bo'lib, yaxlit bir tizimni tashkil qiladi. Joys adabiy merosi quyidagi asarlardan iborat

“Epifaniyalar” (1901-1909);

“Kamer musiqasi” (1902-1906);

“Musavvir portreti” (1904);
 “Dublinklar” (1904-1914);
 “Jakomo Joys” (1911-1914);
 “Qahramon Stiven”;
 “Ilohiy mahkama”;
 “San’atkorning yoshlikdagi surati” (1907-1914);
 “Finnegan ma’rakasi”

1916-yil “San’atkorning yoshlikdagi surati” romani chop etilgan. Bu avtobiografik xarakterdagi asar bo’lib, u dastlab “Stiven - qahramon” deb nomlangan, keyin qayta ishlangan. Yozuvchi dastlab irland jurnali uchun “Musavvirning portreti” hikoyasini yozgan. Lekin noshir “Tushunmagan narsamni bosolmayman”, deb qaytarib bergan.

Bu asar qahramoni Stiven Dedalus-iste’dodli, asabiy, ta’sirchan, hayotdagi omadsizlik va turli qarshiliklarga chidamsiz shaxs. Dedalus ismi tarixdagi labirint qurib, o’zi undan chiqolmagan Dedal arxitektor ismi bilan bog’lanadi. Stiven Dedal onasining o’limi tufayli Irlandiyaga qaytadi.

Joysni dunyoga mashhur qilgan asari “Uliss” (1922)dir. Bu asarda u o’ziga xos Dublin odisseyasini tasvirlagan va “Tafakkur (ong) oqimi” metodini qo’llagan. Real kundalik hayotni antik mifologiyasi bilan bog’laydi.

Jeyms Joys 1914-1922 yillarda “Uliss” romani ustida ishladi. Bu roman 1918-yilning mart oyidan boshlab Amerikada “Littl revyu” jurnalida bosildi. 1922-yilda Parijda Silviya Bich nashriyotida kitob holida nashr etildi. Shundan so’ng Yevropada roman ustida bahslar boshlanib ketdi. Bu roman Angliya va Amerikada 1937-yilgacha ma’naviyatga zarar keltiruvchi asar sifatida ta’qiqlangan. Romanning qismlari asar Parijda nashr qilinguna qadar Amerikaning kichik hajmdagi jurnallarida bosilgan edi. Tanqidchilar muallifni naturalizm va behayollikda, shakkoklik va so’zni isrof qilishda ayblaganlar.

“Ong oqimi” – (inglizcha stream of consciousness) yozuv texnikasining mantiqqa zid bo’lgan ichki monolog shaklida tafakkurning eng kichik harakatini ham aks ettiruvchi, tartibsiz fikrlar va xayollarni qanday bo’lsa shundayligicha ko’rsatuvchi adahiy oqimdir. “Ong oqimi” atamasi birinchi marta amerikalik faylasuf va psixolog Uilyam Jeymsning “Psixologiyaning ilmiy asoslari” kitobida (1890) qo’llanadi. Unda U.Jeyms “ong – bu qismlari ketma-ketlikda ulangan zanjir emas, balki daryoga o’xshaydi” degan g’oyani ilgari suradi. Shunga ko’ra ongning ana shunday noodatiy uzviyligidan insonning aslida kimligini anglash mumkin bo’ladi, deb hisoblaydi U.Jeyms. Insonni uning hayoti va amallariga qarab anglash noto’g’ri, aksincha, uning kimligini bilish uchun uning ichki, hissiy hayotiga, mantiq va rasional qonunlarga bo’ysunmaydigan shuuriy dunyosiga murojaat qilish kerak. U.Jeyms birinchilardan bo’lib “niqob” g’oyasini o’rtaga tashlaydi. Bu g’oyaga ko’ra har bir insonda u fikrlarini qadrllovchi kishilar guruhlariga xos bo’lgan barcha qiyofa mujassam.

“Ong oqimi” yordamida tafakkur sirlarini ochishga juda ko’p ijodkorlar urinishgan. Jumladan, Lev Tolstoy, A.Beliy, Marsel Prust, Virjiniya Vulf, Gertruda Stayn kabi yozuvchilar bu oqimga xos jihatlarni o’z asarlarida u yoki bu darajada

qo’llaganlar. Uilyam Folkner va Lotin Amerikasi ijodkorlari ijodiga ham uning ta’siri sezilarli bo’lgan.

Romanda XX asr boshlaridagi Irlandiya va uning poytaxti Dublin hayotining keng qamrovli manzaralari, inson ichki olami va u bilan bog’liq ijtimoiy hodisalarning benihoya teran qatlamlari aks etgan. Joysning rejasiga ko’ra roman qismlari va boblarida (o’zbekcha tarjlmada “voqea” deb berilgan) qadimgi yunon shoiri Xomerning “Odissey” dostonining qo’shiqlariga uyqash voqealar yoritilgan o’ziga xos parodiyadir. Adibning ilk qo’lyozmasida boblar (epizodlar) sarlavhasi Xomer dostoni qahramonlari hamda voqealar bo’lib o’tgan joylarning nomlari bilan atalgan edi. Epizodlar yana insonning biror a’zosini ramziy tarzda ifodalaydi, roman butunligicha inson vujudini in’ikos etadi. Joys har bir epizod voqealarini vaqt oqimi bilan chambarchas bog’laydi va har bir epizodda yangi rivoyat, yangi tahlil usullarini ochadi.

“Uliss” zamonaviy “odissey” sifatida o’ylangan bo’lib, uning bosh mavzusini jahongashtalik, darbadarlik tashkil etadi. Rimliklar Odisseyini Uliss deb ataganlar. Uliss - makkor, aqlli, baxtiyor, olijanob degan ma’nomlarni anglatadi. Uliss- Odissey haqidagi qadimgi afsonani Joys dublinlik turg’un burjuv Leopold Blumning Dublin bo’ylab bir kun darbadar kezishi tarixiga aylantiradi. Bu nisbat shartli, albatta. Holbuki, Xomer qahramoni uchun jahongashtalik maydoni – keng dunyo, ixtiyoridagi vaqt hisyor, qahramonlik ko’rsatish uchun shart-sharoit mavjud edi. Joys qahramoni Blum bo’lib, yozuvchining tadqiq obyekti esa – uning tafakkuri. Blum – Odissey Joysga romanni tashkil etuvchi epizodlarda makonda – Dublin ko’chalarida, zamonda esa ertadan kechga tomon harakatlanish imkonini beradi.

Biroq harakatning bu tashqi shakli Joys uchun asosiy mezon emas, asosiy harakat qahramon ongi, tafakkurida kechadi. Joys qahramoninig zamon va makondagi emas, “Tafakkur oqimi”ni kuzatadi, qog’ozga tushiradi. Joys qahramon onginu bemaol o’qiydi va uni aslidagidek stixiyali tarzda qog’ozga tushira biladi.

Romanda juda ko’p kiritma materiallar mavjud: gazeta xabarlaru, avtobiografik ma’lumotlar, ilmiy traktatlardan sitatalar, tarixiy asarlar va siyosiy manifestlardan parchalar keltiriladi. Ularda Irlandiya va uning mustaqilligi, murakkab taraqqiyot yo’li mavzusi yetakchilik qiladi. Asarda ingliz va jahon adabiyotidan, ilmiy va tarixiy traktatlardan keltirilgan sitatalar Joys erudisiyasining qanchalar kuchli ekanligini ko’rsatadi. Xomer, Dante, Shekspir asarlari va Injilga nisbatan parallellar ko’zga tashlanadi.

Voqealar Dublin yaqinidagi Martello qo’rg’on-qal’ada bo’lib o’tadi. Martello qo’rg’oni roman qahramonlari uchun Yunonistondagi Delfa ibodatxonasi bilan barobar qimmatga ega.

Asosiy qahramonlar shu yerdan inson olamlariga sarguzashtlarini boshlaydilar. Stiven Dedal, Leopold Blum, Buqa Malligan obrazlari bu ilk epizodlarda xuddi aql va ruhning stixiyasi kabi ko’zga tashlanadilar. Ularning o’ylari, kechinmalari, parodiyalar, taqlidlar, fikrlaridan poyonsiz tahlillar bir-biriga zanjirdek ulanib boradi. Asarni varaqlar ekanmiz, ko’z o’ngimizda tushunarsiz sahnalar, g’alati ma’noli uzuq-yuluq so’zlar, matnga aloqasiz nomlar, tarixiy shaxs va voqealar, antik dunyo qahramonlari, Joys vatani va dunyo voqealari ayqash-uyqash namoyon bo’laveradi. Ko’p hollarda yangicha birikmalar, so’zqurmalar, yarim-yorti, poyma-poy so’zlar,

ingliz tiliga deyarli begona qoliqlar, fikrning to'satdan uzilish hollari uchraydiki, bu boshqotirmadan o'zga narsa emas.

Asarning bosh qahramonlari:

Leopold Blum – haqir burjuy. "Ivning telegraf" gazetasi reklama bo'limi xodimi, asarning bosh qahramoni, jahongashta Odisseyga o'xshatiladi. O'z qobig'iga o'rangan" g'illof bandasi", birovga zarari ham nafi ham yo'q, ba'zan harakatlarida mehr-muruvvat milt etib qoladigan kimsa obrazidir. U bevafo xotinidan ko'ngil uzolmaydi, xiyonatini sezmaslikka oladi, sokin hayoti buzllishini istamaydi. Birgina qizi bor, o'g'li Rudi esa bolaligida o'lgan. Shuning uchunmi Stivenga otalik mehri bilan intiladi. Blumning ajdodlari asli Vengriyadan, otasi cho'qingan yahudiy, biroq Blum o'zini irland deb biladi. Onasi Xiggins esa irlandiyalik. Lekin uning yahudiy ekanligi sezilib turadi, unga va otasiga nafrat bilan qarashadi, jamoa ichida jig'iga tegib masxaralashadi. va o'zi cho'qinganligi uchun u o'z ajdodlari, millatdoshlari orasida ham begona. Romanning 4-6-epizodlari Blumga bag'ishlangan;

Merion – (Molli) Blumning xotini, qovoqxona qo'shiqchisi, Penelopaga o'xshatiladi;

Stiven Dedalus – tarix muallimi, Telemaxga o'xshatiladi. U bilimdon, dunyoqarashi keng, biroq o'z ideallari tufayli hayot, atrof muhit, hatto vatani, oilasi bilan kelisholmay, ko'ziga dunyo tor ko'ringan yosh yigit obrazi. Dinidan (katolik), vatanidan voz kechgan Stiven bir yil davomida Parijda sang'iydi. (Joys ham onasi o'lim to'shagidaligini bilib, Parijdan Irlandiyaga qaytgan. Lekin unasining so'nggi illijosini-cho'qinishni bajo keltirmaydi. Chunki u katolik dinidan voz kechgan edi, bu voqea hayotida chuqur iz qoldiradi va u keyin ko'p aziyat chekadi) Dublin maktabiaridan birida tarixdan dars beradi. Tibhiyot tolibi Bak Malligan bilan Martello minorasida ijarada turadi. Ijara haqini Stiven to'laydi. U qaysar, barcha narsani o'ziga oladi, darsda ko'ziga g'azabnok ruhlar ko'rinaveradi

Bak Malligan – ikkinchi darajali qahramon bo'lib, beandisha, surbet yigit, Antinoyga o'xshatiladi. Odissey uyiga ega chiqqan sur oshiq, uning dastldan Stivenga Irlandiya tor; *Geynes* - ingliz, u Angliya timsoli, ya'ni bosqinchi.

Asarda ikkinchi darajali qahramonlar: maktab direktori Dizi, Stivenning otasi Saymon, Merionning jazmani Boylen singari obrazlar ko'p bo'lishiga qaramay, asar markazida uch asosiy qahramonning bir kunlik hayoti, aniqrog'i, ertalab soat 8 dan tungi 3 gacha kechgan ikki qobiqdagi - tashqi va ichki hayoti tasvirlanadi. Ularning ma'lum paytdagi holati, mashg'uloti, uchrashuvlari tafsilotlari unchalik ahamiyat kasb etmay, yozuvchi diqqat markazida har birining "tafakkur oqimi", ichki monolog va dialoglari, ongdagi impulslari turadi. Romanda ko'zda tutilgan maqsad konkret shaxs hayoti hikoyasi emas, umuman inson va hayot madhiyasidir. Asar voqealari aniq bir kun -1904 yilning 16-iyunida bo'lib o'tadi.

Asar voqealari Stiven Dedalusning Martello minorasidagi ijarada uyida, Blumlar kvartirasida, mister Dizingning maktabida, Sendimaunt qirg'og'ida, pochtda, "Frimens" gazetasi redaksiyasida, kutubxonada va tug'ruqxona va qabristonda bo'lib o'tadi. Hammom - lotofaglar mamlakatiga, Devi Birn qovoqxonasida – odamxo'r listrigonlar makoniga, Blumning uyi –Itaka oroliga qiyoslanadi.

Roman voqealari Irlandiya poytaxti Dublinda yuz berishi ham bejiz emas. Joys emigrasiyada yurtini qo'msagan va ona shahrining sxemasi, rayonlar, ko'chalar va

uyarlarni juda aniqlik bilan aks ettiradi. Virjiniya Vulf Londonni, Emil Zolya Parijni, Dostoyevskiy Peterburgni o'z asarlarida tasvirlaganidek, Joys ham "Uliss"da Dublinni badiiy obraz sifatida shunday iste'dod bilan abadiyatga muhladi.

Joysning biografi Richard Ellmanning ta'kidlashicha, 1904-yilning 16-iyuni Joys hayotidagi unutilmas kunlardan biri bo'lib, shu kuni u bo'lajak qallog'i Nora Barnaklga ko'ngil qo'ygan. Onasining o'limi bilan bog'liq xotiralarga shu muhabbat malham bo'lgan edi.

"Uliss" ni o'qish oson emas. Uni hatto roman-labirint deb ham ataydilar. Lekin uning ichiga kirgan, asar mag'zini chaqqan o'quvchiga u tuganmas go'zal onlarni baxsh etadi. Inson mayllari, ehtiroslar, kayfiyatlari, qarashlari, kechinmalarining cheksiz rang-barangliklariga, ong va hissiyot oqimlari ichida o'quvchi har qadamda insonni uning millati, mamlakati, diniy e'tiqodidan qa'tiy nazar, ilgari hech qachon ko'rilmagani, anglanmagani, o'ylanmagani behad original bir nuqtadan kashf etganday bo'ladi.

Jeys Joys asarining birinchi epizodini dastlab "Telemax" deb atashni lozim topgan. Bunda asarning bosh qahramoni Stiven Dedal harakat qiladi. U onasi vafot etgach Parijdan Dubiinga qaytadi. U "Odissey" dagi Telemax kabi o'z vatani, uyi, otasi, yaqinlarini tinimsiz izlaydi. Leopold Blumning darbadar kezishi Stiveni uchratishi bilan xotimalanadi. Stiven timsolida Blum o'g'lini topadi. Bu romanning 14-epizodida yuz beradi va asarning bosh yechimi hisoblanadi. Xuddi shu epizodda Joys o'z ijodiy prinsiplari: to'liqlik, uyg'unlik, anglovga to'la erishadi. Stiven bilan Blumning topishishi yepifaniya – har biri uchun ruhiy anglov, oldin noma'lum hayotiy haqiqatdir.

"Uliss" romani 18 epizoddan iborat:

1-qism "Telemaxnoma" deb ataladi va quyidagi epizodlarga bo'linadi. 1) Telemax, 2) Nestor, 3) Protey;

2-qism "Odissey" deb nomlanadi va quyidagi epizodlardan iborat:

4) Kalipso, 5) Lotofaglar, 6) Gades (Aid), 7) Eol (Zola g'ori), 8) Listrigonlar, 9) Ssilla va Xaribda, 10) Tentiragan qoyalar, 11) Sirenalar, 12) Siklop, 13) Navzikaya, 14) Gelios ho'kizlari, 15) Sirseya;

3-qism "Uyga qaytish" deb nomlangan:

16) Evmey kulbasi, 17) Itaka, 18) Penelopa.

Romanning til va uslubiy jihatlari ham talaygina alohida tadqiqotlarga material bera oladi. Asar matnidagi so'z ustidagi eksperimentlar o'yimlarga aylanadi: so'zlardan o'ziga xos so'z-kentavrlar yasaladi, uzundan uzoq so'z-jumlalar tuziladi, neologizmlar va abreviaturalar yaratiladi. Romanda biograflarning guvohlik berishicha, muallif bilgan turli tillar: lotin, qadimgi rus, fransuz, nemis, italyan tillaridagi matnlar keltiriladi. Bunday so'z ijodkorligi ayrim hollarda romanning o'qilishini yanada murakkablashtiradi.

Joys bunday so'z ijodkorligini o'zining keyingi romani "Finnegan ma'rakasi"da ham davom ettiradi. (1939). Bu asarga keltirilmagan afsonaviy lashkarboshisi Finnegan va uning o'g'li Ossan haqidagi rivoyat asos qilib olingan. Rivoyatlarga ko'ra ular o'lmagan emish, balki uyquga ketganmishlar va kun kelib Irlandiyani ozod qilish uchun uyg'onar ekanlar Asar shunchalik murakkab tilda yozilganki, haligacha uni biror tilga tarjima qilish mumkin bo'lmagan. Bu roman-

fantasmagoriya, musiqa bilan uyg'unlashtirilgan janr qaysidir ma'noda yechilishi qiyin kodga o'xshaydi. Asarning matni jumlaning o'rtasidan boshlanadi, ushbu jumlaning boshlanishini esa kitobxon asarning so'nggi sahifasidan topadi.

"Uliss"-falsafiy-psixologik asar. Uni olimlar "modernizm qonusi", syurrealizm, ekzistensializm namunasi, freydona psixoanaliz uslubi, "tafakkur oqimi" yo'nalishi, XX asr subyektiv idealistik dunyoqarashi deb ataganlar. Amerikaning yirik adibi, romannavis Tornton Uaylder esa "Uliss"-adabiyotga yangi uslub - ichki monolog berdi", deb aytadi. "Uliss"ning dunyo adabiyotiga bergan yangiliklari shu bilan cheklanmaydi. Joys tasvir va parodiyada ham beqiyos yangiliklar yaratganki, dunyo xalqlari adabiyoti uning ulug'vor ta'siridan xoli emas...zero, dunyo adabiyotida Joysdan so'ng, Joys bilan birga Joys davri boshlangan...

Ilya Orenburg fikricha "Agar jahonda uch romanchilik oqim bo'lsa, ular – Kafka, Kamyu, Joysdir". Chunki voqelikni aks ettirishda o'zini qurbon qilish ularni birlashtiradi.

Modernizm adabiyoti birinchi navbatda romanchilik bilan bog'liq. XX asr adabiyoti modernizmi bilan Joysni badiiy metod birlashtiradi. Chunki u ham Kafka, A.Kamyu kabi hayotda uchramaydigan rivoyat, mif, metoforik shakllarda ijod qilgan, voqelikni qahramonlar shuuridan keltirib chiqargan. Shu jihatdan "Uliss" romani "shuur" (tafakkur) oqimida yaratilgan birinchi romandir.

"Tafakkur oqimi" yuqorida aytganimizdek voqelikni inson o'y-hayollari, xotiralari, hissiyotlarida keltirib chiqaruvchi, absurd darajasiga yetkazilgan ichki monologdir.

Inson tafakkuridagi tartibsizliklar, hayollarning aniq, yaxlit aks ettirilishi. Insonning miyasida doimo bir-biriga bog'liq bo'lmagan turli fikrlar bo'ladi, lekin sog'lom fikrli odam asosiy fikrga tez qaytadi. Joys "Uliss" romanida shu uslubni qo'llaydi. "Jeyms uslubining sira aql bovar qilmas ko'p qiyofaliligi odamga gipnozday ta'sir ko'rsatadi. Kitobxon og'zini ochganicha qoladi". Bu buyuk psixolog, psixiatr Karl Yungning so'zlari. Bu so'zlar qanchalik haq ekanligiga Joysning asarini o'qigan har bir kishi amin bo'ladi va uni o'z so'zlariday qabul qiladi.

Stefan Sveyg "Uliss"ni "davrimizning eng buyuk asari", Eliotning fikricha "Joys uslubi hikoya qilish emas, balki mifologik uslubdir", B.Brext uni "burjua jamiyatiga satira"deb atagan. S.Sveyg Joysni "zamonamiz Gomeri" deb atagan.

O'zbek kitobxonlari Joys ijodi bilan yaqin-yaqinlardan beri tanisha bordi. Dastlab XX asrning 30-yillarida Joysni Rossiyada tarjima qila boshladilar. O'zbekistonda esa Joysning bir qancha hikoyalari hamda "San'atkorning yoshlikdagi siyrati" romani Ahmad Otoboyev tarjimasida bosilib chiqdi. "Uliss" romanini esa yozuvchi Ibrohim G'afurov rus tilidan o'zbekchaga o'giradi. Hozircha rus tili va rus badiiy tafakkuri orqali qilingan bu tarjimalar Joysning badiiy olami, uning daho nuri bilan yorishgan fikr hamda rivoyat uslublari haqida yetarlicha tasavvur beradi.

ALBER KAMYU HAYOTI VA IJODI (1913-1960)

Fransuz yozuvchisi, dramaturgi, fransuz ekzistensializmi asoschilaridan biri Alber Kamyu faqat o'z davri emas, keyingi asr jahon adabiyotining buyuk

namoyandalardan bo'lib qolaveradi. Ijodkorning buyukligi u yaratgan asarlarining soni va mashhurligi bilangina emas, hayot hamda inson to'g'risida qanday yangi gap ayta olgani, uning ilgari ko'rilmagan qanday yangi jihatini kashf eta bilganligi bilan ham o'lchanadi. Alber Kamyu borliq va inson haqida o'z so'zini aytib ketgan buyuk ijodkorlar sirasiga kiradi.

Alber Kamyu 1913-yil 7-noyabrda Jazoirning fransuzlar yashaydigan kanorasida dunyoga kelgan. Bolalik, o'smirlik yillari Jazoirda o'tgan. Litsey ta'limini tamomlagach, mahalliy universitetning falsafa-tarix fakultetiga o'qishga kirgan. Studentlik yillarida A. Jid, F. Dostoyevskiy, F. Nitsshe kabi mutafakkirlar ijodi bilan yaqindan tanishadi. Bu tanishuv Kamyu dunyoqarashining shakllanishida katta rol o'ynadi. U, ayniqsa, Dostoyevskiy ijodiga alohida muhabbat bilan qarar edi. O'zi boshchilik qilgan "Mehnat teatri" sahnalashtirgan «Aka-uka Karamazovlar» pesasida Ivan Karamazov rolini ijro etgan.

Keyinchalik ekzistensializm oqimining yirik namoyandalari Kerkegor, Shestov, Xaydeggerlarning ijodini chuqur o'rganadi. Universitet ta'limini «Xristian metafizikasi va neoplatonizm» mavzusida diplom ishi himoyasi bilan yakunlaydi. U Platon falsafasini o'rganishni davom ettirishni niyat qilib qo'ygan edi, biroq, sog'ligi yomonligi (unda sil kasali boshlangani aniqlangan edi) tufayli falsafa fanlari bo'yicha ilmiy daraja olish imtihonlarida qatnashish uchun ruxsat bermaydilar. Shundan so'ng ilmiy ishdan voz kechadi va poytaxt Madaniyat uyining bosbligi vazifasida ishlaydi.

30-yillar oxirida uning ilk nasrny asarlar to'plami e'lon qilmadi, birinchi romani «Baxtli o'lim» ni yozadi, «Sizif haqida asotir» falsafiy essesi ustida ish boshlaydi.

1938-yilda «Respublikachi Aljir» gazetasiga jurnalist sifatida qabul qilinadi, biroq, ikkinchi jahon urushi boshlanishi munosabati bilan undan ketadi. Tanishlari Kamyuga poytaxt gazetasi «Pari-Suar» da ishlashni taklif qiladilar va u birinchi marta Parijga keladn. Ko'p o'tmay gazeta yopiladi va Kamyu Jazoirga qaytadi. U yerda «Sizif haqidagi asotir» asari ustidagi ishga yakun yasaydi.

1942-yilda Kamyu ikkinchi marotaba Fransiyaga keladn. Yozuvchining bu palladagi hayoti juda qizg'in va ijodi sermahsul kechgan. Tabiatan hayotga faol aralashishga moyil bo'lgan Kamyu fashizmga qarshi milliy ozodlik harakatida ishtirok etadi, «Komba» yashirin tashkilotiga a'zo bo'lib kiradi, tashkilot gazetasiga muharrirlik qiladi, "Nemis do'stga maktublar" ni chop ettiradi. 1942-yil yozida qamal holatidagn Parijda «Begona» qissasi dunyo yuzini ko'radi, «Komba» gazetasida «Sizif haqida asotir» essesi bosiladi. 1947-yilda urushga qarshi dahshatli aybnoma bo'lgan «Vabo» romani nashr etiladi. Shu yillari qator pesa, esse va qissalar ham yozadp.

1957-yilda Alber Kamyu «insoniyat otdiga bugungi kun muammolarini butun keskinligi bilan qo'yuvchi adabiy asarlarining ahamiyati uchun» Xalqaro Nobel mukofoti bilan taqdirlanadi. Alber Kamyuning hayoti kutilmaganda fojil yakun topadn. 1960-yilning 4-yanvarida rojdestvo kunlaridan keyin Parijga kelayotib yo'lda avtomobil halokatida dunyodan ko'z yumadi. Yozuvchining o'limi butun G'arb san'at olamini larzaga soladi, u tiriklik chog'idayoq «G'arbning isyonkor vijdoni» degan nom olgan edi. Kamyuning buyuk zamondoshi, amerikalik yozuvchi Folkner bu o'lim munosabati bilan shunday yozadi: «Bu tinmasdan o'zini nzlavyotgan va

tahlil qilayotgan qalb edi. Mashinasi daraxtga urilgan o'sha daqiqalarda ham u hamon o'zidan javob axtarar va talab qilar edi. O'sha so'nggi daqiqalarda u izlagan javobini topganmikin?»

Alber Kamyuning muxtasargna umri davomida yaratgan asarlari hayotlik chog'ida ham, vafotidan keyin ham jahon kitobxonlarini hayajonga solib kelmoqda, hanuzgacha turli-tuman qarashlar, o'y-mushohadalar, bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda.

Kamyu asarlari «tilsimini» ochish, uning ijodi mohiyatini anglab yetish uchun G'arb adabiyotidagi ijodiy metod va oqimlardan xabardor bo'lish lozim. Shu sababli Kamyu mansub bo'lgan ekzistensializm, absurdizm falsafasi haqida qisqa va sodda ma'lumot berish maqsadga muvofiqdir.

Gapni avvalo G'arb adabiyoti va san'atida vujudga kelgan modernizm oqimi haqida tasavvur hosil qilishdan boshlash lozim.

Alber Kamyu ekzistensializm falsafasini rivojlantirib, absurd falsafasiga (uni fransuz ateistik ekzistensializm ham deb ataydilar) asos soldi. Uning asosiy falsafiy-estetik qarashlari "*Sizif haqida asotir*" asarida o'z ifodasini topgan. Sizif qadim yunon rivoyatlariga ko'ra xudolar tomonidan hayotga bo'lgan cheksiz muhabbati uchun jazolanadi, abadiy qiynoqqa mahkum etiladn. U to'g'risidagi asotirlardan birida naql qilinishicha, Sizif o'limidan oldin o'z xotnining muhabbatini sinab ko'rmoqchi bo'ladi. Shu maqsadda xotiniga jasadini hech qanday ma'rakalarsiz shahar maydoni o'rtasiga uloqtirishni buyuradi. Uning buyrug'i bajariladi. Tez orada soyalar saltanatida qayta tirilgan Sizif xotinining g'ayriinsoniy itoatidan g'azabga minadi, u bunday shafqatsizlikni kutmagandi, bu shunchaki sinov edi. Plutondan ruxsat olib, yerga xotinini jazolash uchun keladi. Biroq shirin hayot lazzatini yana bir totib ko'rgach, zulmat dunyosiga qaytgisi kelmay qoladi. Qancha yalinish va do'q-po'pisalar ham uni ortiga qaytara olmaydi. Shunda xudolar uni og'ir jazoga hukm qiladilar - Sizif ulkan xarsang toshni tog' cho'qqisiga dumalatib olib chiqishi, manzilga yetgach esa xarsang yana ortga yumalashi, mahkum esa toshni qaytadan cho'qqiga eltishi va avvalgi holat cheksiz takrorlanaverishi lozim.

Kamyu talqinicha Sizif - absurd qahramon. U foni dunyoga bo'lgan bemis muhabbati va o'limga nafati uchun shunday jazoga mustahiq. Bir turdagi bema'no va bemaqsad mehnatga majbur qilingan Sizif taqdirida Kamyu inson qismatini ko'radi. Uning mashaqqatln intilishlari, orzu-havaslarining oqibati puch, bema'ni - oxir-oqibat oldinda uni yo'qlik dunyosi, o'lim kutadi. Biroq absurd falsafasi tushkunlik, tarkidunyochilikni targ'ib qilmaydi. Naqadar bema'no, absurdligiga qaramasdan, inson uchun hayotga teng darajada qadrlil narsaning o'zi yo'q. U faqat bu hayot o'tknnchi ekanligini, inson har bir daqiqani sezib qadrlab yashashi, foni dunyo ne'matlariga mehr qo'yish noto'g'ri ekanligini uqtiradi.

"*Begona*" qissasi 1940-yilda yozib tugatilgan, 1942-yilda dunyo yuzini ko'rgan. Qissa XX asr fransuz adabiyotining, amiqrog'i, "Kamyu avlodining eng yaxshi asari", "asr san'atidagi eng yirik falsafiy asotirlardan biri" deya baholangan. Yaratilganiga 60 yildan ko'p bo'lganiga qaramay "Begona" hanuz Fransiyada eng sevib o'qiladigan asarlardan hisoblanadi. Qissa vatanidagina emas, jahonning ko'plab mamlakatlarida ham shuhrat qozongan.

Bir qarashda asar qahramoni jazoirlik oddiy xizmatchi Mersoning hayoti boshqalarnikidan uncha farq qilmaydi - el qatori ishlaydi, dam oladp, kundalik ikir-chikirlar bilan band kun kechiradi. Birok ayni paytda qissaning ilk satrlaridanoq Mersoni boshqalardan ajratnb turuvchi jihati ham namoyon bo'la boshlaydi. U o'ta rostgo'y, munofqlikni bilmaydigan va o'zgalar u haqida nima o'ylashlari bilan qiziqmaydigan shaxs. Asar voqeasi Mersoning onasi o'limi haqidagi telegrammani olishidan boshlanadi. Merso xatning rasmiy mazmunini uncha anglamaydi, chunki onasi uning uchun ilgariroq, qariyalar uyiga joylashganida o'lgan edi. Shu sababli bu sovuq xabarni bir qadar loqayd qabul qiladi.

Onasini ko'mish uchun qariyalar uyiga kelganda ham Merso odatda azada bo'ladigandek o'zini iztirob chekayotgan kishi qilnb ko'rsatishga urinmaydi. Faqat uni onasini qariyalar uyiga joylagani uchun ayblashlari mumkinligini elas-elas payqab, o'zini oqlamoqchi bo'ladi, biroq qariyalar uyi direktori: "Siz uni boqolmas edingiz. U qarovga, hamshiraga muhtoj bo'lgan. Sizpng maoshingiz ham o'zingizga yarasha", ko'proq jismoniy noqulayliklarni his qiladi - u tuni bilan uxlamagan, huning ustiga kun issiq... Ayni damda uning tuyg'ulari azaga kelganlarnng rasmiyatchiligiga qaraganda haqiqiyroq. Merso burchini ado etmoqda, biroq o'zining befarq holatini yashirishga harakat qilmaydi.

Onasini ko'mgan kunning ertasiga uyiga qaytgan Merso dengizga cho'milishga boradi, u yerda oldin birga ishlagan va o'zi yoqtirgan qiz Marini uchratadi. Ikkovi birga suzishadi, kimoga borishadi, xursandchilik qilishadi...

Qahramonning hayoti shy tarzda davom etadi. Uni mansab, obro', boylnk ham uncha qiziqitirmaydi. Boshlig'i Parijda yaxshi lavozimni taklif qiladi, Merso esa unga baribir ekanligini aytadi.

Barcha intiladigan, qabul qilgan va bo'ysunadigan tushunchalarga befarq bo'lgan Merso jismoniy hissiyotlarga nisbatan ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Jumladan, turmush hodisalarini sovuqqon sharhlaydigan qahramon tabiat tasvirida shoirona tilda so'zlay boshlaydi, go'yo borliqning ajralmas bir qismiga aylanadn.

Mersoning bir maromdagi sokin hayotida kutilmagan hodisa ro'y beradi, u jinoyatchi - qotilga aylanadi. Jinoyat chindan ham tasodifan ro'y beradi. Do'stn Raymon va Mari bilan Kaymonnpng dengiz yeohnlida yashovchi oshnasinikiga cho'milishga borgan Merso kichkina dilsnyohlikka duch keladi. Raymonning raqibi arab bilan to'qnashuv ro'y beradi. Bu uncha ahamiyatli bo'lmagan janjal tinchigach, uning kayfiyati buziladi. Qumloqda yolg'iz kezib yurgan Merso quyoshning ayovspz issig'iga dosh berolmaydn va muhbam kayfiyatga bo'sunib, qarshisidan chiqib qolgan arabni sababsiz otib tashlaydi. Bu o'rinda ham qahramonga xos bo'lgan ruhiy hissiyotlarga befarq bo'lsa-da, jismoniy hissiyotlarga nisbatan o'ta sezuvchanlik xususiyatini ta'kidlash lozim. Ramziy ma'noda quyosh Mersoning jallodiga aylanadi, uni qotillikka undaydi.

Qissaning ikkinchi qismi Mersoning erkimlikdan mahrum qilingan holati va sud jarayoni tasviridan iborat. Qamoqxona muhiti ham biz kitoblarda o'qigan, filmlarda ko'rgan hayotdan farq qiladp. Bu yerda mahbusga nisbatan hirorta g'ayriqonuniy harakat kuzatilmaydi, uni qiynash, dag'al muomalada bo'lish, hamxona mahbuslar tomonidan kahtaklanishi kabllarni ko'rmaymiz. Ayni payta Merso qamoq azobini o'zicha his qiladi, eng og'ir qiynoq - bu erksizlnk ekanligini anglab yetadi, ya'ni

qumloq sohilda cho'zilib yotish, cho'milish, ayol visoli, chekish kabi oddiy ehtiyojlardan mahrum qilinishi uni azoblaydi. Chunki bular Merso uchun juda qadrli. Mersoning Mari bilan qamoqxonadagi uchrashuvi, Marining qiynoqli suratdek tabassumi, ularning atrofida gilarining holati, ona va jinoyatchi o'g'ilning bir-biriga unsiz termulishi, turfa tabiatli odamlar tasviri qissaning eng ta'sirli epizodlaridan. Ushbu bir qarashda kissiz, qahramon tabiatiga mos xolis, befarq tasvir insoniy fojialar, yashirin hissiyotlarni o'ziga singdirib olgan.

Sud jarayoni lavhasi Merso tabiati, shaxsining o'ziga xosligini, uning fojiasi va g'alabasini yorqin namoyon qiluvchi epizodlardandir.

Sud qilinayotgan Merso atrofida gilar uchun begonaligicha qolaveradi. Sud hakamlari uning xatti-harakatlarini o'zlari istagancha tushunadi va talqin qiladi. Tergovchi va advokatning jinoyatchi haqidagi fikr va hukmlari bir qarashda bir-biridan keskin farq qiladi. Merso esa ular o'rtasida deyarli farq yo'q, deb biladi. Zero, Mersoni haqiqiy jinoyati - odam o'ldirgani uchun emas, barcha ko'nikkan, kishilar o'ylab chiqargan axloq-odob tushunchalariga loqaydligi, munofiqlik qilishni istamagani uchun sud qilladilar. Tergovchi uning jinoyatini ta'kidlash uchun onasini ko'mish marosimida yig'lamagani, ertasi kuni Mari bilan ko'ngil ochgani, film tomosha qilgani kabilarni dalil sifatida keltiradi, uni ma'naviy majruhga chiqarib qo'yadi. Advokat esa halol inson ekanligi, yaxshi xizmatchiligini ta'kidlab, uni himoya qiladi, dafn marosimi haqida esa ishni buzib qo'yuvchi fakt sifatida ataylab so'z ochmaydi. Mohiyatan ularning har ikkisinin dalillari bema'no, absurd xarakter kasb etadi. Aslida insonning qalb dunyosi dahlsizdir, uni o'y-fikri, xayollari, tuyg'ulari uchun ayblashga boshqa insonning haqqi yo'q. Onasini sevish-sevmasligi, azada rasmiyatchilik uchun dod solib yig'lamasligi Mersoning o'zigagina havola. Uni sudda xudoga ishonmaganligi uchun ham ayblaydilar. Qahramon bu masalada ham o'zligiga sodiq, u faqat mavjud, ko'rish, his qilish mumkin bo'lgan narsalargagina ishonadi, boshqa narsalar uning uchun o'z ma'nosini yo'qotgan. Inson qismatiga oxir-oqibat o'lim yozilgan ekan, u ehtiros va z'tiqod qo'ygan barcha narsalar bema'ni yupanch, aldovga aylanadi. Merso avvalroq ana shu xulosaga kelgan. Tevarak-atrofiga ro'y berayotgan hodisalar, uning jamiyatga begonaligi, uni tushunmasliklari faqat shu xulosasini tasdiqlash uchun xizmat qiladi. Albatta, qotillik qilgan odam jazolanishi kerak. Lekin Mersoning eshafotga jo'natilishi, olomon oldida kallasi tanidan judo qilinishga hukm etilishida qandaydir adolatsizlik borligini his etasiz. Yozuvchi ham kitobxonda shu taassurotni uyg'otishga intilgan. Odamlar tomonidan o'ylab chiqilgan omonat axloqiy tushunchalar, rasmiyatchilikning qudratli mexanizm Mersoni jismonan mahv etadi, jamiyat Mersoni qotilligi uchun emas, barchaga o'xshamagani uchun kechirmaydi va o'limga mahkum etadi. Merso munofiqlik qilishi, tavba-tazarru qilib avf so'rashi mumkin edi. Birok, u o'zi tanlagan yo'lga sodiq qoladi, bu foni dunyoning odamlar o'ylab chiqargan shaxs erki, mayliga zid, sun'iy, omonat tartib-qoidalari absurd, bema'nilikdan iborat deb biladi. O'zligiga, ko'ngil haqiqatiga sodiq qolib bu dunyodan ketayotganidan taskin topadi.

Alber Kamyu yaratgan bu g'aroyib qahramon va ajoyib qissa ustidagi bahslar hali uzoq davom etaveradi, kitobxonni hayot va inson haqida o'ylashga, mushohada yuritishga chorlayveradi.

UILYAM GOLDING HAYOTI VA IJODI (1911-1993)

Ingliz yozuvchisi Uilyam Golding "Pashshalar sultoni", "Qog'oz odamlar" kabi bestseller romanlar muallifi. U "Pashshalar hukmdori" romani uchun 1983-yilda Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan. Ushbu asarda yozuvchi jamiyatning mavjudlik shakli qanchalik mantiqiy va aqlga monand bo'lmasin u siyosiy tuzumdan emas, balki shaxsning etik-ahloqiy mavjudligiga asoslanishi kerak degan xulosaga keladi. Muallif unda bolalar haqida hikoya qila turib, aslida kishilik jamiyati, uning asosiy va dahshatli muammolari haqida o'quvchini mulohazaga chorlaydi.

Uilyam Jerald Golding (1911 - 1993) 1983-yilgi Nobel mukofoti laureati. 40 yillik adabiy faoliyati mobaynida 12 ta roman yaratgan. Unga muvaffaqiyat keltirgan asarlaridan birinchisi "Pashshalar hukmdori" romani XX asr jahon adabiyotining eng sara namunalaridan sanaladi.

Uilyam Golding 1911-yilning 19-sentabrida Angliyaning Kornuoll grafligiga qarashli Sent-Kolamb Maynor qishlog'ida tug'ilgan. Otasi Alek Golding maktab o'qituvchisi, onasi Enn Brukfiid kimyogar bo'lgan. Golding ham maktabda ingliz tilidan dars bergan. Xotini bilan ikki farzand Devid va Juditni tarbiyalab voyaga yetkazgan.

Golding 1941-45 yillarda Ikkinchi Jahon urushida harbiy dengiz flotida xizmat qiladi. Urush yillari unga qattiq ta'sir ko'rsatadi, tafakkurida burilish yasadi. Bu haqda yozuvchi: "Men kishilar nimalarga qodirligini tushuna boshladim. Urushda bo'lganu, lekin kishilarning undagi razilliklarini arining asal berishidek qabul qiluvchilar yo'z'lari ojiz yoki aqlan zai'fdirlar" deydi.

Golding 1952-yilda o'zining "Pashshalar hukmdori" romanini yozadi. Asar robinzonada janrida yaratilgan asarlar Defoning "Robinzon Kruzo" si, J.Sviftning "Gulliverning sayohatlari", R.Stivensonning "Xazinalar oroli", va 1857-yilda ingliz yozuvchisi Robert Mayk Ballantaynning "Korall oroli" romaniga parodiya shaklida yaratilgan. Asarni yaratishdan maqsad esa insoniyatning XX asrdagi fojiali tarixidan, ya'ni ikkinchi jahon urushi davrida insonning yaratuvchi roldan ijtimoiy tuzumning bir vintchasi darajasiga tushib qolishi, butun boshli xalqlarning yo'q qilinishi, totalitar tuzumlarning salbiy oqibatlari haqida fikr yuritiladi. Yozuvchi qayerdagi millatning manmanligi kuchaysa, o'zimi boshqa xalqlardan yuqori qo'ya boshlasa, o'sha yerda falokat yuz berishi muqarrar deydi. Bu asar bir zumda bestsellerga aylanadi. Lekin Goldingning o'zi bu asarini "zerikarli va xom" deb hisoblagan. Asar mashhur bo'lib, zamonaviy klassikaga aylanganiga qadar unga jiddiy munosabatda bo'lmay, bu kitob keltirgan mablag'ni esa lotereya yutug'iga o'xshatgan.

Bu romanidan so'ng u yana "Merosxo'rlar", "Shpil", "O'g'rivachcha Martin", "Erkin qulash", "Ko'rinayotgan qorong'ulik", "Suzish rituellari", romanlarini yaratdi. "Qog'oz odamchalar", "Yaqin qo'shnichilik", "Pastdagi yong'in" asarlarini esa odatda dengiz trilogiyasi deb ataluvchi "Dunyoning chekkasiga: dengiz trilogiyasi" degan bir nom ostida birlashtirdi. Bulardan tashqari yozuvchining yana "Favqulodda elchi", "Chayon-xudo", "Klonk-klonk" nomli novellalari, "Piramida" novellalar to'plami mavjud. Tugallanmay qolgan "Ikkiyoqlama til" romani esa 1995-yili nashr etilgan. Uilyam Golding 1993-yil 19-iyunida 82 yoshida yurak xurujidan vafot etadi.

U.Goldingga 1983-yilda Nobel mukofoti topshirilganda u o'z ma'ruzasida "o'zining tuzalmaydigan pessimist ekanligini aytib, lekin kosmik optimistman" deydi.

Adabiyotshunoslar U.Golding asarlarining yorqin ranglarga boyligi, taranglikning kuchliligini, urushdan keyingi ingliz adabiyotining yorqin namunalardan ekanligini ta'kidlaganlar. Golding ta'biricha, u o'z asarlarida insonning eng qorong'u tomonlarini aks ettirishni maqsad qilgan. "Inson o'z tabiatini bilmasligi, anglamasligidan iztirob chekadi. Bunga men shubha qilmayman. Men o'z ijodimni inson deb atalgan mavjudotning mohiyatini o'rganish muammosiga bag'ishladim", - deydi yozuvchi 1957-yilda.

Tadqiqotchilar Golding asarlarining janrini rivoyat, parabola, falsafiy-allegorik roman deb ham ataydilar. Yozuvchi ham asarlarining rivoyatomuz ekanligini inkor qilmaydi, bu mavzuda hatto 1962-yilda AQSH da talabalarga ma'ruza ham o'qiydi. U miflarga qiziqishini ta'kidlab, "Miflar mavjudlikning mohiyatini anglashga yordam beruvchi kalitligini, ular borliqning mazmuni bo'lib, hayotiy tajribalarni o'zida tamomila to'liq aks ettiradi", deb hisoblaydi.

Golding ijodi qarama-qarshi fikrlarga sabab bo'lgan. Masalan, AQShlik tanqidchi Stenli.E.Xaymen uni eng mashhur zamonaviy ingliz yozuvchisi hisoblasa, Dj.Raban esa uni romannavis emas, balki adabiyotdagi nasihatgo'y deb atab, uni faqat borliqning global muammolarini hal qilishda ayblagan.Nima bo'lganda ham Uilyam Golding ingliz adabiyoti tarixidagi eng ziddiyatlarga boy yozuvchi bo'lib qolmoqda.

Uilyam Goldingning eng mashhur romani "Pashshalar hukmdori"ning voqealari kimsasiz orolda yuz beradi.Bu orolga talofat ko'rgan, halokati muqarrar bo'lgan samolyot qo'nib, yadro quroli bilan bombardirovka etilgan mamlakatdan evakuasiya qilinayotgan bolalarni tushiradi. Asarning bosh qahramonlari: Jek va Ralf. Ularning ikkisi ham yetakchilik qilish qobiliyatiga ega bolalar bo'lsa-da, ikkisi hir-biriga sira o'xshamaydi. Jek – sovuqqon, qahrli, o'ziga foydasi tegmaydigan ishni qilmaydigan bola. Ralf esa unga nisbatan ko'ngilchan va yumshoqko'ngil. Kattalarsiz oroda hayot kechirayotgan bolalar, o'zlarining qonun-qoidalari asosidagi jamiyatni yaratmoqchi bo'ladilar. Oroidan katta, chiroyli chig'anoq topib olgan Ralf uni hokimiyat ramzi deb e'lon qiladi. Jek esa Ralfning "dohiy" yoki yetakchi bo'lib olganidan norozi bo'ladi, chunki uning o'zi yetakchilik qilish istagida. Buning ustiga uning o'z tarafdorlari – bolalar xori bor. Aynan shu xor jamoasi a'zolaridan u ovchilar komandasini tashkil qiladi. Faqat ho'l mevalar bilan oziqlanish joniga tekkan bolalar alanga yoqib signal berishga, alanganing o'chib qolmasligiga harakat qiladilar.

Jek epchil va qahri qattiq ovchiga aylanadi, u va komandasi yovvoyi cho'chqalarni o'ldiradi. Bolalar hatto bolasi bor hayvonlarga ham shafqat qilmaydilar. Endi ularni ov qilishga faqat ochlik emas, balki qon to'kish istagi, shafqatsizlikning ortishi undaydi.

Bir kun Jek ovga ketadi va unga ishonib topshirilgan alanga o'chib qoladi. Yaqindan suzib o'tgan kema esa bolalarning oroldaligidan xabar topmaydi. Ralf bundan voqif bo'lgach, Jek bilan urushadi, lekin Jek uning yetakchiligini inkor etib, tan olmaydi. Jekning beshafqatligi shu darajaga yetadiki, u ovchilar guruhiga

qo'shilmagan bolalarni o'ldira boshlaydi. Quturgan, qon to'kish istagidagi bolalar o'zlarini qurshagan atrof-muhitni ag'dar-to'ntar qila boshlaydilar.Ralf yolg'iz o'zi qoladi, uning barcha do'stlari o'ldiriladi, lekin u umidsizlanmaydi. U Jekning avvalgi boliga qaytishiga umid qilmaydi, lekin o'zi tirik qolishiga ishonadi. Jek va uning safdoshlari Ralfni topish maqsadida orolga o't qo'yadilar. Undan qutulishni istaydilar. Ralfning baxtiga yonayotgan orolni harbiy dengizchilar ko'rib qolib, bolalarni qutqaradilar.

Romanning asosiy mavzusi jamiyatning iliqlarini, to insondagi noqislik - "defekt" largacha tahlil qilishga urinishdir. Asarning g'oyasi shuki, jamiyatning mavjudlik shakli u qanchalik mantiqiy va aqlga monand bo'lmasin siyosiy tuzumdan emas, balki shaxsning ahioqiy mavjudligiga asoslanishi kerak. Uilyam Golding sivilizasiya cheklanisharining ortishi yanada mutanosib va sog'lom bo'lgan yangi jamiyatni yuzaga keltirmay, aksincha jamiyat o'zini yakson qilib, inqirozga yuz tutadi, degan xulosaga keladi.

Bir qarashda asarning yakuni ijobiy, bolalar qutqariladi, ular yana ota-onalari qaramog'ida avvalgidek hayot kechira boshlaydilar. Ammo ziyarak kitobxon yozuvchi nima demoqchiligini angelaydi, chunki bu xalos etishda ikkiyoqlama mazmun va achchiq kinoya mavjud.Bolalarni qutqargan dengizchilarning o'zi ham jamiyatga o'lim va vayronagarchilik keltiradilar, ularning kemasi harbiy kemaligiga ishora bor. Yozuvchi kreyserdagi dengizchilarni kim qutqaradi, deb savol beradi.

Roman boshidan oxirigacha chuqur mazmun va tagma'noga boy bo'lib, ularni anglash qiyin emas. Bolalar haqida hikoya qila turib, roman umuman kishilik jamiyati, uning asosiy va dahshatli muammolari haqida kitobxonni mulohazaga chorlaydi. Ralf va Jekning o'zaro kurashi hokimiyat uchun kurashayotgan bolalarning kurashigina bo'lib qolmay, bu yaxshilik va yomonlik, anarxiya va tartib o'rtasidagi kurashdir. U.Golding kundalik hayofda yaxshilik hamma vaqt ham g'olib bo'lmasligini va ko'pincha u katta qiyinchilik bilan, hatto urush va talofatlar bilan amalga oshishini ta'kidlaydi.

Asarni diqqat bilan o'qisak, asarning markaziy qahramoni kimligini va yozuvchini bunday g'alati va juda iste'dodli asarni yozishga kim ilhomlantirganini bilib olamiz. Buning javobini topish oson. Javob nafaqat romannning umumiy konsepsiyasidan, balki uning nomidan ham anglashiladi."Pashshalar hukmdori" nimani anglatadi? Qadimgi yahudiy tilidan Vaalzebul so'zi "pashshalar hukmdori" deb tarjima qilinadi. Bu filistimliklar xudosining ismi bo'lib, nasroniy diniy adabiyotida bu xudo Velzevula – jahannam hukmdorini anglatadi. Aynan mana shu mavjudot dunyodagi jami yomonliklarga sababchi bo'lib, romanning bosh qahramoni sifatida gavdalanadi. Uning faqat yovuzlik keltirishi asarga sigdirilgan. Bolalarning qilmishlarini ham tabiat azaldan insonga ato etgan agressiv instinktlar boshqaradi.Hayvoniy instinktlarga bo'ysungan bolalar hali yovvoyi, ongsiz bo'lgan, faqat o'ldirishga qodir – tafakkur qilishdan uzoq bo'lgan ibtidoiy inson darajasiga tushib qoladilar.

Uilyam Golding bunday yovuzlikning urug'i har birimizning yuragimizda mavjudligini, uning unib chiqishi yoki chiqmasligi insonning yolg'iz o'ziga bog'liqligini ta'kidlaydi.

“Pashshalar hukmdori” romani bizga rivoyatni eslatadi. Unda yozuvchi hayotimizning, inson borlig‘ining asosini tashkil etuvchi etzgulik va yovuzlik haqida hikoya qiladi. U inson har qanday vaziyatda ham inson bo‘lib qolishi muhimligini ta’kidlaydi. Haqiqatan ham, bu har birimiz o‘zlashtirishimiz lozim bo‘lgan yagona saboq bo‘lib, bu insoniylik sabog‘idir. Uni o‘rganish o‘zining aqli yoki to‘g‘riligi bilan maqtanish, mag‘rurlanish uchun emas, balki insondek umr kechirishi uchun lozimdir. Ushbu roman mavzusi sivilizasiya ta’sirida kishilik jamiyatining inqirozga yuz tutishi mumkinligi haqidadir.

UILYAM FOLKNER HAYOTI VA IJODI (1897- 1962)

Buyuk Amerika yozuvchisi Uilyam Folkner XX asr jahon adabiyotining zabardast vakillaridandir. U qator romanlar, hikoyalar muallifi. Xalqaro Nobel mukofotining laureati.

Folkner mashhur fransuz yozuvchisi Kamyu, buyuk Xeminguey bilan zamondosh bo‘lgan. Uning hayoti va ijodi qadrdon Missisipi shtati bilan chambarchas bog‘liq. Folkner, bir necha sayohatlarini hisobga olmaganda, sevikli go‘shasida muqim yashagan, qadrdon ildizlar uni Vatanidan uzoqlashishiga yo‘l qo‘ymagan.

Uilyam Katbert Folkner 1897-yil 25-sentabrda Missisipi shtatining Nyu-Olbani degan joyida, G‘arb jamiyatining aslzodalariga kiruvchi oilada tug‘ilgan. Oradan besh yil o‘tgach uning ota-onasi qo‘shni Oksford shahriga ko‘chib o‘tadi. Uilyam bolalikdan bobosi singarn yozuvchi bo‘lishni orzu qilgan. Folknerning katta bobosi - Klark Folknerni oilada «keksa polkovnik» deb ataganlar. U keksa soldat bo‘lib, g‘oyat ajoyib, serqirra, murakkab shaxs bo‘lgan: avantyurist va duelga ishqiboz, ayni paytda romantik hamda jiddiy siyosatchi, g‘arb konfederatlari harbiy qo‘shinlarining yo‘lboshchilarndan biri va nihoyat yozuvchi... Uning «Memfisning oq atirguli» romann o‘z vaqtida juda katta shuhrat qozongan va keyinchalik Margaret Mitchellning mashhur «Shamol bilan olib ketilgan» romaniga adabiy manba bo‘lib xizmat qilgan.

Uilyam Folknerning yozuvchilik iste’dodi juda erta namoyon bo‘lgan. Zamondoshlarining eslashlaricha 10 yoshli bola biror voqeani hikoya qila boshlasa, to‘xtay olmagan, boy xayol dunyosi unga tinchlik bermagan va hikoya oxiriga kelib reallik bilan xayolot o‘rtasidagi chegara yo‘qolgan.

Biroq uning yozuvchi sifatida tan olinishi, o‘z yo‘lini tanlab olishi oson kechmagan. Uilyam turli nashriyotlarga she’rlari va nasriy mashqlarini jo‘natib, o‘z kuchini sinab ko‘rmoqchi bo‘ladi. Biroq hamma joydan bir xilda muloyim rad javobini oladi. Shundan so‘ng Folkner Nyu-Yorkda o‘z kuchini sinab ko‘rmoqchi bo‘ladi. Yosh yigitcha bu ulkan shaharni zabt etishga qaror qiladi. Folknerning bu yirik shahardagi hayoti kitob magazinida sotuvchilikdan boshlanadi. Yigitcha uncha yaxshi sotuvchi bo‘lmasa-da, ashaddiy «kitobxon» bo‘lib chiqadi. Nyu-York Folkner uchun ajoyib hayot va ijod maktabi vazifasini o‘tadi, u bu yerda Servantes, Dostoyevskiy, Tolstoy, Balzak, Dikens, Flober kabi daholar ijodi bilan tanishadi. Nyu-Yorkda Folkner isyonkor ruh egalari, yozuvchilar va izlanuvchilar makoni Grinvich Villachga joylashadi. Biroq ko‘p o‘tmay yana qadrdon, kichkina

Missisipisiga qaytadn. Folkner qadrdon go‘shasiga omadsiz nomini olib qaytgach, turli kasblarda o‘zinn sinab ko‘radn. Bank xizmatchisi, bo‘yoqchi, xat tashuvchi bo‘lib ko‘radi. Biroq bu sohalarning hech birida uzoq ishlolmaydi, chunki u yaxshi ishchi emas edn. Folknerning peshonasiga yozuvchi bo‘lish yozilgan edi va u taqdiran qochpb qutulolmadi. Adabiyot olamida o‘z yo‘lini topib olish mashaqqatli edi. Mana shunday bir davrni boshdan kechirayotgan adib, kutilmaganda 1924-yilda mashhur yozuvchi Shervurd Anderson bilan tanishadi. Keyinchalik «yangi adabiy avlodning otasi» deb nom olgan bu yozuvchi bilan tanishuvi yangi Orleaning fransuz kvartali chorrahasida ro‘y beradi va bu voqea yosh, havasmand ijodkor hayotida o‘chmas iz qoldiradi. Anderson yo‘l izlayotgan, hali hech kimga tanilmagan Folknerda o‘ziga ishonch tuyg‘usini uyg‘otadi. «Siz hali uzoqqa ketasiz, - deydi mashhur yozuvchi uning qoralamalarini o‘qib ko‘rib, - har qanday minilmagan otga zarur bo‘lganidek, siz ham o‘zingizni bir oz bo‘sh qo‘yishingiz kerak, xolos».

Folkner o‘zining dunyosi uncha katta emasligini yaxshi tushunar edi. Uning bilgani shu kichkina Missisipi bo‘lib, u shu bilan qanoatlanardi. Folkner o‘z xulosasidan ilhomlanib ishga kirishadi. 1925-yilda adib keyinchalik unga ilk shuhratni keltirgan «Soldat sharafi» nomli romanini yozishga kirishadi. Yozuvchi bu asarida urushning tub mohiyatini ko‘rsatadn, uning «vatanparvarlik», «qahramonlik», «muqaddas qurbonlar», «harbiy shon-shuhrat» kabi chiroyli nqoblarini olib tashlaydn. Urush mohiyat e‘tibori bilan «Chikago mushtlashuvlaridan farq qilmaydi, birgina farqi go‘shetni bu yerda yerga ko‘madilar». Mana shu fikr urushdan keyingi butun bir avlodning hayotiy xulosasiga aylanadi. 1930-yilda «Forum» jurnalining savollariga javob berar ekan, Folkner o‘zining adabiyotdagi yo‘lini shunday tasvirlab beradi: «Shervud Anderson ismi kishini uchratdim. O‘zimcha dedim: «Balki roman yozib ko‘rman? O‘shanda ishlashim kerak bo‘lmas? Bajaraman dedimmi - bajaraman. «Soldat sharafi». Bajarildi. «Shovqin va g‘azab». Bajarildi. Ro‘yxatni davom zttiraverish mumkin. «Men o‘layotganimda» bajarildi (1930), «Avessalom, Avessalom!» bajarildi (1936.), «Muso, pastga tush» - bajarildi (1942), «Rohibaga marsiya» - bajarildi (1951), «Hikoyat» - bajarildi (1954), «Koshona» - bajarildi (1959). «Bajaraman, deyildimi - bajarildi». Bu gaplar, albatta, hazil. Ushbu asarlar sahardan tungacha mehnatning mevalari». Folknerning shunday gapi bor edi: «Yaxshi yozuvchini 99% iste’dod, 99% intizom va 99% mehnat shakllantiradi».

Yozuvchi asarlarining syujeti g‘oyatda rang-barang va xilma-xil, biroq o‘zining ta’kidlashicha: «mohiyat-e‘tibori bilan umrim davomida faqat bir voqeani yozdim - dunyo va o‘zim haqidagi voqea» va shu orqali: «hayotning o‘zida ma’no bormi?» - degan savolga javob axtardi.

Folkner adabiyot olamiga o‘zi yaratgan xayoliy dunyoni olib kirdi va uni «Yoknapatofa» deb atadi. Hatto bu mamlakatning xaritasini chizib berdi, bu xarita «Avessalom, Avessalom!» romanining muqovasida aks etdi, o‘sha kezlarda millionlab nusxalarda tarqaldi. Folkner asarlarining qahramonlari shu mamlakatda hayot kechirganlar. Xaritaning ostida shunday so‘zlar yozilgan: «Yoknapatofa okrugi, Missisipi shtati. Maydoni 2400 kv. mil. Aholisi: oq tanlilar - 6298, negrlar - 9313, Uilyam Folkner - yagona xo‘jayin va hukmdor».

Folkner millatni ulug‘lash yo‘lini emas, shafqatsizlarcha o‘z-o‘zini tanqid qilish yo‘lini tanladi. Zero, sevgi va nafrat biri ikkinchisini nkor qiluvchi tushunchalar

emas. Folknerning tanqidi millatga nisbatan chuqur va ulkan muhabbat bilan yo'g'rilgan. Folkner o'sha xalqlarda adabiyotda urf bo'lgan oson yo'ldan, ya'ni badavlat kiborlarga oddiy xalqni, mavhum odob normalariga - yer odamlarining sinovdan o'tgan, qat'iy axloqiy tushunchalarini qarama-karshi qo'yish yo'lidan bormadi. Yozuvchining aybnomasi barcha ijtimoiy va iqtisodiy qatlamlarga, badavlat sinfga, boylarga ham va johil omi oq tanli kambag'allar uchun xos bo'lgan insoniy zaifliklarga ham qarshi yo'naltirilgan edi. U irqiy kamsitishning fojeasini ochib beradi, irqiy o'z-o'zini yuqori qo'yish nazariyasini ehtiros bilan fosh qiladi, huquqiy va davlat idoralarning munofiqliklarini ko'rsatadi, diniy mutaassiblikning besamarligini aks ettiradi. Folkner asarlaridagi eng asosiy mavzu alam va iztnrob tasviridan iborat. U inson qalbining eng tuban tuygularini ochib tashlaydi. Uning asarlarida jimoyat, shafqatsiz qonxo'rlik tasvirini ko'p uchratish mumkin. Yozuvchi ehtiroslarini o'zgalardan pinhon tutib, qat'iy nazorat ostidan o'tkazib yuzaga chiqarmaydi, ularni oxiriga qadar, to'laligicha otilib chiqishlariga yo'l qo'yib beradi. Ko'p hollarda qahramon o'limi oldidan, so'nggi daqiqalarda achchiq hayot tajribasidan umrimi besamar yashab o'tganligini anglab yetadi.

Folkner o'ylab chiqargan xayoliy mamlakat Yoknapatofani shimoliy Missisipining eski xaritasidan topib oldi, Yoknapatofa yerli hindularning Chikeso qabilasi tilida "voha bo'ylab tinch oqayotgan suv" ma'nosini anglatadi. Bu boshi va oxiri bo'lmagan hayot daryosi timsolidir.

Zamondoshlari tomonidan Folkner ijodi turlncha baholangan, qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'lgan. Qator adabiyotshunos-tanqidchilar Folkner amerikaliklarga oljanob, sog'lom fikrli va nihoyat darajada jo'n, zerikarli provinsializmning biqiq muhitini yorib chiqishlarida ko'maklashadi, deb hisoblaydilar.

Yana boshqa tanqidchilar, ular ko'pchilikni tashkil qiladi, uni hayotni qora rangda tasvirlashda aybladilar, o'zlarini yozuvchi asarlari ko'zqusnda ko'rishni istamadilar. Ko'plarga uning ijodiy uslubi va falsafiy xulosalari yoqmas edi. Folkner asarlariga munosabat bildiruvchi maqolalarning nomi ham shundan dalolat berib turadi: - «Adabiyotdagi kasallik», «Shafqatsizlik maktabi», «Shafqatsizlikka sig'inish», «Dahshatlar adabiyoti», «Uzoq Janubda Dostoyevskiy soyasi». Kafedra minbarlari va matbuot orqali yillar davomida uning ijodini qoralaganlar. Qadrdon shtatida uzoq davrlar uning san'ati va siyosiy qarashlarini anglab yetmaganlar.

Folknerning siyosiy qarashlariga turli munosabatlar bildirilgan. Folkner o'zini siyosatdan uzoq kishi deb hisoblardi. Ayni paytda inson sha'ni va erkiga nisbatan har qanday ko'rinishdagi zulmga keskin qarshi edi.

Folkner kommunistik g'oyani tushunmagan va uni qabul qilmagan. Hatto uni sobiq Sho'rolar Ittifoqiga amerikalik yozuvchilar delegasiyasi tarkibida yubormoqchi bo'lganlarida, taklifni rad etgan. Ayni paytda Tolstoy, Dostoyevskiy, Chexov kabi daholar ijodini yuksak qadrlagan. U har qanday ko'rinishdagi totalitarizmdan nafratlanagan.

Folkner ijodi atrofndagi bahs-munozaralar barchaning diqqat markazida turgan, uning har bir yangi asari tanqidchilik nazaridan chetda qolmagan. Uning nomi Yevropa va Amerpkada keng shuhrat qozona boshlagan. Biroq Folkner hamon moddiy muhtojlikda yashar edi. Asarlari uchun olgan qalam haqi oidingi qarzlarini

uzish uchun bazo'r yetardi. Shunday vaziyatda unga go'yo omad kulib boqqandek bo'ldi. Folknerga Gollivudning nazari tushdi. Folkner uchun Gollivud cheksiz imkoniyatlar, shon-shuhrat kaliti edi. Biroq, yozuvchi Gollivudga kelgach, unga shunday shart qo'yadilar: «Biz sizni hech kimga o'xshamagan uslub egasi bo'lganingiz uchun ham o'zimizga taklif qildik. Biroq bu yerda shu narsani unutishingizni iltimos qilamiz». Bu Folkner juda qadrlagan erkinlikni kishanlash demak edi.

Yozuvchi oldida darhol to'siqlar paydo bo'la boshladi. Folkner o'z asarining ssenariysi ustida ish boshiaganda, undan o'z davrining mashhur aktrisasi Djoan Krouford uchun rol talab qildilar. Yozuvchi taajjublanib dedn: «Mening hikoyamda ayollap yo'q». «Yo'q bo'lsa, endi bo'ladn» deyishdi unga gollivuddagilar. Ayol obrazi kiritilgach, mashhur aktrisa yozuvchidan «ingliz dengizchilari jargonidagi matn» ni yozib berishni talab qildn. Shundan so'ng sevgi uchburchagini yaratish majburiyati paydo bo'ldi. Folknerda shartnomani yirtib tashlab, Gollivuddan bosh olib ketish istagi bosh ko'tara boshladi, biroq pul juda zarur edi: yaqinda otasi o'lgan, to'ng'ich o'g'il Folkner oilani boqishi kerak edi. Endi yozuvchining o'z oilasi, xotini Estell va qizchasi bor edi. Bu orada ukasi Din fojiali halok bo'ladi. Uning xotini va bo'lajak farzandi uchun qayg'urish ham Folkner zimmasiga tushdi. Folkner ma'lum muddat o'z ijodiy erkini jilovlashga majbur bo'ldi. Barcha orzu-umidlari puchga chiqdi. Yozuvchining moddiy ahvoli birmuncha yaxshilangan bo'lsa-da, ijodiy qoniqish tuyg'usi uni tark etgan edi. Folkner bunday vaziyatga uzoq chidab tura olmadi va oilasi bilan yana qadrdon Missisipiga qaytadi. U shunday achchiq xulosaga keladi: «Amerikaga ijodkor kerak emas. Faqat inson ruhi masalasi bilan shug'ullanuvchi va o'z shuhratini sovun va sigareta savdosiga yoki yangi markadagi avtomobillar, dengiz krnzilari va kurort mehmonxonalarini reklama qilishga sovrurishni istamaydigan Folknerga Amerikada joy yo'q».

Folknerning shuhrati kun sayin ortib borar edi. Fransiya uni Hurmat leginni ordeni bilan taqdirladi, vatanida ham uni qadrlay boshiadilar. San'at va adabiyot instituti va Adabiyot akademiyasi uni a'zolikka qabul qildi. Keyinroq esa eng yaxshi adabiy asar uchun Milliy Mukofot bilan taqdirlandi. 1947-yilda Stokgolmda Folknerni laureatlik diplomi va o'ttiz ming dollar mukofot kutayotganini ma'lum qildilar. Nobel qo'mitasi shunday qaror chiqardi: «zamonaviy amerika romanini rivojlantirish yo'lidagi buyuk va o'ziga xos ijodiy hissasi uchun» 1950-yilda Qirol Gustav Adolf Folknerga medal topshiradi. So'ngra Folknerning mashhur nutqi tinglanadi. Aytishlaricha, yozuvchining ovozshni zo'rg'a zshitganlar. Lekin ertasiga ro'znomalarda z'lon qilingai bu nutq barchada juda kuchli taassurot qoldirgan.

Folkner hayotining oxirgi yillarida deyarli hech narsa yozmagan. 60 yoshida u juda sog'lom va baquvvat edi. Lekin shunga qaramay Folkner hayotning so'nggi pallasida qandaydir mahzunlik, dilgirlik kaytiyati sezilib turardp. Adib asta-sekin yaqinlarini yo'qota boshladi. 1960-yil 11-fevralda mashhur fransuz yozuvchisi va faylasufl Alber Kamyu avtomobil halokatida fojiali halok bo'ldi. Folkner uchun bu katta yo'qotish edi. U ta'ziya xatida shunday yozadi: «Bu tinmasdan o'zini izlayotgan va tahlil qlayotgan qalb edi. Mashinasi daraxtga urilgan o'sha daqiqalarda ham u hamon o'zidan javob axtarar va talab qilar edi. O'sha so'nggi daqiqalarda u izlagan javobini topganmikan?» 1961-yilda birin-ketin og'ir judolikni

boshidan kechiradi. Folknerning doimiy hamrohi Ernest Xeminguey vafot etadi. Ko'plar Folkner va Xemingueyni raqiblar deb hisoblardilar. Biroq bu raqiblik hech qachon dushmanlikka aylanmagan edi. Har ikki yozuvchi oqilona xulosa chiqargan edilar: dunyoda o'zlarini izlash va adashmasliklari uchun joy yetarli.

Bu orada Folknerning onasi qazo qlladi. U yozuvchini kurash va umidga ruhlantirar edi. Onasini ko'mayotganlarida u ukasiga shunday deydi: «Mening ham kunim bitgan ko'rinadi». Yozuvchi so'nggi yillarda yozmaganligini quyidagicha izohlaydi: «Ishtiyoq yo'q. Agar yozish ishtiyoqi bilan yonsam, darhol yana mashinka yoniga o'tiraman». Folkner yana asar yaratishga umid qilgan. Lekin u dilida borini to'kib solgan, zimmasidagi vazifasini sharaf bilan ado etgan va dunyoni tark etgan.

1962-yilning 7-iyulida yozuvchini ko'mish marosimi bo'ldi. Butun dunyodan jurnalistlar ishtirok etadi. Yirik teleradiokompaniyalar bu marosimni to'g'ridan-to'g'ri namoyish qiladilar.

Folkner o'limidan keyingi shon-shuhratiga beparvo qarar edi. U hatto bu haqda uncha o'ylamas edi. Biroq Folkner o'zidan keyin chuqur va o'chmas iz qoldirib ketdi.

MAVZU BO'YICHA LUG'AT:

Modernizm - (fr. modeme - eng yangi, zamonaviy) - XIX asr oxiri - XX asr boshlarida san'at va adabiyotda dekadansdan keyin maydonga chiqqan norealistik oqimlarning umumiy nomi.

Surrealizm - (fr. surrealisme - oliy reallizm, realizmdan yuqori) - adabiyot va san'atdagi avangardistik yo'nalish.

"ong oqimi" - XX asr modernistik adabiyotida maydonga kelgan hayotni tasvirlash usuli; inson ruhiyatida kechuvchi jarayon-larni bevosita, ular haqiqatda qanday kechsa, o'shanday tasvirlashga intilgan adiblar va ularning asarlariga nisbatan qo'llanuvchi shartli atama.

Uliss - makkor, aqlli, baxtiyor, olijanob.

MAVZU BO'YICHA SAVOLLAR:

1. Modernizm adabiyoti tushunchasini izohlang.
2. Dekadent adabiyoti deganda nimani tushunasiz?
3. Impressionizm, ekspressionizm, ekzistensializm atamalarini tushuntirib bering.
4. Albert Kamyuning "Begona" romanini o'qib chiqing. Asar syujetining "Yuzaki ma'naviyatga, ishonchsizlikga" munosabati qanday?
5. Qahramonning jamiyat bilan to'qnashishiga sabab nima? Jamiyat Mersoni nima uchun sud qiladi? Vaqt o'tishi bilan qahramon o'zgaradimi? Romanning bunday nomlanishiga sabab nima? Kamyu fikricha "absurd inson" kim?
6. "Pashshalar sultoni" romanning mavzusi, undagi sotsial-falsafiy ma'no nimalarda ko'rinadi? Asar nega bunday nomlangan?
7. Golding yovuzlikning asosini nimada ko'radi? Uning ijodini qanday tushunasiz?
8. Jeyms Joys hayoti va ijodi haqida so'zlab bering.
9. Joysning "Uliss" romanini nima uchun "tafakkur oqimi" uslubida yaratilgan deyiladi?

10. Joysning "Uliss" romanini o'zbek tiliga kim tarjima qilgan?

11. Uilyam Folkner ijodining o'ziga xosligi nimalarda ko'rinadi?

12. Modernistik adabiyot namunalari o'zbek tilida.

13. Jahon modernizm adabiyoti namunalari sahnada va ekranda.

ADABIYOTLAR:

1. Normatova SH. Jahon adabiyoti. - T.: "Ma'naviyat", 2008.
2. Зарубежная литература XX века. - М.: «Высшая школа», 2000.
3. Do'stmuhamedov Q. «Nobel mukofotini olgan adiblar», - T.: «Ma'naviyat», 2002.
4. Adiblarning Nobel ma'ruzalari. - T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi, 2008..
5. Jo'rayev T. Ong oqimi. Modern. "Farg'ona" nashriyoti, 2009.
6. Espen Xovardsxolm. Modernizm//Jahon adiblari adabiyot haqida. - T.: "Ma'naviyat", 2010.
7. Затонский Д.В. Франс Кафка и проблемы модернизма. -М.: «Высшая школа», 1992.
8. Quronov. D va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati.-T.: Akademnashr, 2010.
9. Jo'rayev.T.Joys fenomeni. Jahon adabiyoti jurnali, 2013 yil, 7-son.
10. Все шедевры мировой литературы в кратком изложении. Сюжеты и характеры. Зарубежная литература XX века в 2 книгах. "Олимп", АСТ.- М.: 1997, 832 с

BADIIY ADABIYOT:

1. Joys J. Navqiron san'atkorning siyrati. JA jurnali, 2007-yil, 3-4-son.
2. Joys. J. Uliss sarguzashtlari. I.G'afurov tarjimasini. -T.: O'zbekiston, 2013.
3. Kamyu A. Begona. - T.: "Yozuvchi", 1995.
4. Kafka F. Jarayon. - T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006.

GLOSSARIY

AVANGARDIZM (fr. avant-garde - oldingi otryad, ilg'or) - 1) shartli ravishda modernistik adabiyotning bir qator oqimlariga xos bo'lgan xususiyatning umumiy nomi sifatida qo'llanuvchi termin.

AVTOBIOGRAFIK ASAR (yun. autos - o'zim, bios - hayot, grapho - yozaman) - muallifning o'z hayoti haqida izchil hikoya qilishiga asoslangan adabiy janr.

AVTOINTERPRETASIYA (yun. autos - o'zim, lot. interpretation - tushuntirish) - muallifning o'z qovchiga o'z asarini tushuntirish, unga o'zi nazarda tutgan ma'nomi anglatishga qaratilgan harakati. A. turli shakllarda (so'z boshi, sarlavha, epigraf, bag'ishlov, so'ngso'z, satr osti izohlari va sh.k.) amalga oshishi mumkin

AVTOPSIXOLOGIK LIRIKA - lirikaning subektiv tashkil-lamishiga ko'ra ko'rinishi, *ijroviy lirikaga* (q.) zidlagan holda farqlanuvchi lirik kechinma bevosita shoir tilidan ifoda etil-gan she'r.

ADABIY YO'NALISH (ruschadan kalka: "literaturnoye napravleniye", "literaturnoye techeniye") - adabiy jarayon bilan bog'liq kategoriya. A.y. tushunchasi *hayotni badiiy aks ettirish prinsiplari, metod va uslub* tushunchalari bilan bevosita bog'liq, u badiiy tafakkur tarzi, metod va uslub kesishgan nuqtada yuzaga keladi.

ADABIY MAKTAB (ruschadan kalka: "literaturnaya shkola") -adabiy yo'nalish ichidagi hodisa, muayyan g'oyaviy-estetik qarashlar, ijodiy prinsiplarni dasturiy tarzda qabul qilgan ijodkorlar guruhi.

ADABIY OQIM (ruschadan kalka: "literaturnoye techeniye") -adabiy jarayon bilan bog'liq kategoriya, muayyan davr adabiyotidagi adabiy yo'nalishning bir ko'rinishi, o'ziga xos bir varianti.

ADABIY TA'SIR (ruschadan kalka: "literaturnoye vliyaniye") -adabiy jarayonda tabiiy ravishda va qonuniyat maqomida mavjud bo'lgan, badiiy tafakkur rivojida muhim ahamiyatga molik hodisa.

ALLEGORIYA – yunonchada “boshqa” va “gapiraman” so'zlaridan iborat. Majoz-ko'chim turlaridan biri.

VOQEALAR TUGUNI – qahramonlar o'rtasida ziddiyatlarning paydo bo'lishi.

GERMENEVIKA (yun. hermeneuo - tushuntirish, talqin qilmoq) - tushunish nazariyasi, matnni talqin qilish tamoyillari haqidagi ta'limot, gumanitar fanlarning metodologik asosi. Yunoncha so'z bo'lib “izohlayman” “tushuntiraman” degani Afsonaviy yunon Xudosi Germes nomidan olingan. kohinlar oddiy odamlar tushunmaydigan yozuvlarni ma'nosini izohlang, ya'ni, “germen yevist” hisoblangan.

GONGORIZM - ispan shoiri L.de Gongora-i-Argote (1561 -1627) nomi bilan bog'liq holda ispan va portugal tillaridagi adabiyotlarda yuzaga kelgan barokko doirasidagi oqim (q. *barokko*).

GOTIK ROMAN - XVIII asrning ikkinchi yarmi - XIX asrning birinchi yarmida Yevropa va Amerika adabiyotlarida ommalashgan tematik jihatdan farqlanuvchi roman turi. G.r.lar g'ayrioddiy, dahshat va sirlarga to'liq voqealarni qalamga olishi bilan xarak-terlanadi.

GRAFOMANIYA (yun. grapho - yozmoq, mania - kasallik, dard) - iktidori bo'lmagan holda yozishga ruju qo'ymoq. G. yozuvchilikni jo'n tushunish, unga shuhrat va boylikka erishishning oson yo'llaridan biri deb qarash, o'zining ijodiy imkoniyatlarini real baholay olmaslik oqibatida yuzaga keladi.

GROTESK (ital. grotta - yer ostidagi uy) - badiiy adabiyot va san'atdagi obrazlilikning fantastika, kulgi va mubolag'aga asoslangan bir turi, uslub, badiiy usul.

DADAIZM (fr. dada - yog'ochdan ishlangan o'yinchoq ot, ko'chma ma'noda bolalarga xos betartib nutq) - Birinchi jahon urushi davri Yevropa adabiyoti va san'atidagi avangardistik oqim.

DEKADENTLIK (lot. decadentia - tanazzul, tushkunlik) - XIX asr oxiri - XX asr boshlari Yevropa xalqlari badiii va ijtimoiy tafakkurida kuzatilgan tushkunlik (tanazzul) holatlarini umumlashtirib ifodalovchi termin.

IDILLIYA (yun. eidyllion - kichik manzara, uncha katta bo'lmagan asar) - shakliy tuzilishga ko'ra turlicha, mazmun xususiyatlariga ko'ra tasniflanuvchi poetik janr.

IDILLIYAVIYLIK (ruschadan kalka "idillicheskoye") - badiiylik modusi. I. modus sifatida elegiya, dramatism bilan birgalikda qahramonlik, satira va tragizmdan farqlanadigan guruhni tashkil etadi.

IMPRESSIONIZM (fr. impression - taassurot) - XIX ayerning so'nggi choragida dastlab rangtasvir san'atida paydo bo'lib, keyinchalik boshqa san'atlarga ham sezilarli ta'sir o'tkazgan yo'nalish.

IMPROVIZASIYA (lot. improvisus - kutilmagan, birdan) - badiiy ijodning alohida bir ko'rinishi bo'lib, bunda asar bevosita ijro jarayonida yaratiladi. (q. *badiha, eksprompt*).

KLASSITSIZM (lot. classicus - namunali, mumtoz) - XVII as-rdan XIX asr boshlariga qadar Yevropa san'atida kuzatilgan estetik hodisa, shu davr adabiy jarayonida yetakchi mavqe tutgan adabiy yo'nalish. N.Bualoning "She'riy san'at" asarida K.ning adabiy-estetik qarashlari mufassal ifodasini topgan.

KONFLIKT – to'qnashish lotincha.

KOMPOZITSIYA – lotinchada “tuzilish, kurilish, tarkib syujet ham kompozitsiya tarkibiga kiradi.

KUL'MINASIYA – nuqta. asar voqealarning eng keskin joyi.

MA'RIFATCHILIK, MA'RIFATCHILIK ADABIYOTI - feodal asoslarga qarshi o'laroq maydonga chiqib, XVII - XVIII ayarlarda G'arbiy Yevropa mamlakatlari va Shimoliy Amerikada keng yoyilgan g'oyaviy-mafkuraviy harakat; shu harakat g'oyalari o'ziga sim-gdirgan va targ'ib etgan adabiyot.

MA'RIFATCHILIK REALIZMI - ma'rifatchilik davri (q. *ma'rifatchilik*) Yevropa adabiyotidagi yo'nalishlardan biri, shu davrda hayotni badiiy aks ettirishning realistik prinsipi (q. *realizm*) asosida yaratilgan qator asarlarga xos umumiy xususi-yatlardan kelib chiqib qo'llanuvchi atama.

MIF (yun. *mythos* - rivoyat, hikoya, masal) - xalq og'zaki ijodi-ning eng qadim davrlarida paydo bo'lgan, voqelik (olam) haqidagi tasavvurlarni konkret obrazlar vositasida aks ettiruvchi rivoya-viy asarlar

MIFOLOGIK MAKTAB - XIX asr Yevropa adabiyotshunosligida vujudga kelgan ilmiy yo'nalish. M.m.ning falsafiy negizini F.Shelling, A.Shlegel va F.Shlegel kabi mutafakkirlar ta'limoti tashkil etadi.

MODERNIZM (fr. *moderne* - eng yangi, zamonaviy) - XIX asr oxiri - XX asr boshlarida ommalashgan termin, san'at va adabiyotda dekadansdan keyin maydonga chiqqan norealistik oqimlarning umumiy nomi sifatida tushuniladi.

NATURALIZM (lot. *natura* - tabiat) - 1) tabiiy fanlar sohasida erishilgan ulkan muvaffaqiyatlar ta'sirida XIX asr-ning 60-yillaridan boshlab Yevropa adabiyotlarida shakllangan adabiy yo'nalish.

OKTAVA (lot. *octo, octava* - sakkiz, sakkizlik) - sakkiz misradan tarkib topuvchi, besh yoki olti stopali yamb (q. *stopa*) o'Ichovidagi misralari abababcc tartibida qo'fiyalanuvchi band shakli.

"ONG OQIMI" - XX asr modernistik adabiyotida maydonga kelgan hayotni tasvirlash usuli; inson ruhiyatida kechuvchi jarayon-larni bevosita, ular haqiqatda qanday kechsa, o'shanday tasvir-lashga intilgan adiblar va ularning asarlariga nishatan qo'llanuvchi shartli atama.

POSTMODERNIZM (fr. *postmodernisme* - modernizmdan key-ingi) - o'tgan ayerning ikkinchi yarmidan boshlab adabiyot va san'at-da, umuman, ijtimoiy-gumanitar sohalarida kuzatila boshiagan oqim, ijodiy metod.

POSTSTRUKTURALIZM (fr. *poststructuralisme* - strukturalizmdan keyingi) - ijtimoiy-gumanitar bilim sohalarida o'tgan asr-ning 70-yillaridan boshlab shakllangan ilmiy yondashuvlarning umumiy nomi.

PROZA (lot. *prosa* - to'g'ri, odatiy) - 1) hozirda keng qo'llanuvchi ma'noda badiiy nutqning ikki asosiy tipidan biri, ritmik jihatdan o'Ichovli tartibga solinmagan nutq, nasr.

PROLOG – muqaddima

PEYZAJ – fransuzcha “mamlakat; “joy” degani.

REALIZM (lot. *realis* - mavjud, haqiqiy) - adabiyotshunoslikda R. termini tor va keng ma'nolarda qo'llanadi. Keng ma'noda R. termining ma'nosi badiiy asar (unda tasvirlangan badiiy voqelik) bilan real voqelik munosabatidan kelib chiqadi.

REALIYA (lot. *realis* - ashyoviy) - muayyan xalqning turmush tarzi, madaniyati, tarixi bilan bog'liq betakror, o'zga xalqlarda uchramaydigan narsa-hodisa, tushuncha; shunday narsa va tushunchalarni anglatuvchi so'z.

RITSARLIK ROMANI (fr. *roman chevaleresque* - kavalerlik romani, nem. Ritterroman - ritsarlik romani) - o'rta asrlar *kurtuaz adabiyotining* asosiy janrlaridan biri.

ROMAN (fr. *roman* - "lotin tilida emas, roman tillaridan birida yozilgan" ma'nosida) - zamonaviy adabiyotda epik turning yirik bajmli janri.

ROMANTIZM (fr. *romantique*, ingl. *romantic*) - Yevropa adabiyotida XVIII asr oxiri - XIX asrning birinchi yarmida yetakchilik qilgan adabiy yo'nallish.

SENTIMENTALIZM (fr. *sentiment -bis*) - XVIII ayerning ikkinchi yarmida Yevropa milliy adabiyotlarida vujudga kelgan oqim, nomlanishi ingliz adibi L.Sternning "Sentimental sayohat"(1768) asari bilan bog'lanadi.

SIMVOLIZM (yun. *simbolon*, fr. *simbolisme* - belgi, nishon) -Yevropada XIX asr oxiri - XX asr boshlarida kuzatilgan madaniy-ma'naviy inqiroz sharoitida, pozitivistik yondashuv (q. *naturalizm*) va tobora urchib borayotgan omma adabiyoti (*belletristika*) namunalari obro'sizlantirgan realistik tasvir prinsiplariga qarshi o'laroq, vujudga kelgan adabiy oqim.

STRUKTURALIZM (lot. *structure* - qurilish, joylashish) - XX asrdagi ikkita jahon urushi oralig'ida shakllangan va 60-yillarga kelib keng (ayniqsa, Fransiyada) ommalashgan yo'nalish, ijtimoiy va gumanitar ilm sohalaridagi tadqiqot metodi.

SURREALIZM (fr. *surrealisme* - oliy realizm, realizmdan yuqori) - adabiyot va san'atdagi XX asrning 20-yillarida maydonga kelgan avangardistik yo'nalish.

SUJET – fransuzcha so'z bo'lib, “narsa, mazmun, mavzu” degan ma'noni beradi. Asar qahramonlari o'rtasidagi aloqa, munosabatlar tizimi syujetdir. Syujet ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji va kul'minasiya, yechimdan tashkil etadi.

SINERGETIKA – yunoncha hamkorlik, hamdo'stilk degani. O'zini o'zi boshqarish, o'zini o'zi tashkil qilish.Tizimning nohiziq, tartibsiz tabiati. Xaos holatida o'zini qayta tiklash.

SENTIMENTALIZM – fransuzcha “his” his qilish degani.

TANQIDIY REALIZM - XIX ayerning o'rtalarida maydonga kelgan adabiy yo'nalish, ijodiy metod (q. *realizm*).

FABULA – lotinchada “masal, hikoya qilish” degani. Asar uchun asos bo'lgan hayotiy material. Syujet so'zining sinonimi.

FORMALIZM (lot. forma - tashqi ko'rinish) - badiiy shakl va mazmunning uyg'un birligi talabidan chekinib, shaklning nisbiy mustaqilligini mutlaqlashtirgan holda, unga badiiyatning bosh mezoni sifatida qarashda namoyon bo'luvchi estetik tendensiya.

FORMAL METOD - adabiyotshunoslikdagi badiiy shaklni ada-biyotning mohiyatini belgilovchi kategoriya sifatida tushungan nazariy yo'nalish.

FUTURIZM (lot. futurum - kelajak) - XX asr boshlarida maydonga kelgan avangardistik oqim.

FILOLOGIYA – yunoncha sevaman va so'z, bilim so'zlaridan tashkil topgan.

EKSPRESSIONIZM (fr. expression - ifodalash) - XX asr boshlarida nemis adabiyotida shakllanib, boshqa milliy adabiyot-larga ham yoyilgan adabiy yo'nalish.

ELEGIYA (ot frigiya tilidagi "elegn" - qamishdan yasalgan nay) - hozirgi ma'nosida ko'proq falsafiy mazmundagi, qayg'uli o'ylarni ifodalovchi she'r; mazmun jihatidan tasniflanuvchi lirik janr.

ELEGIYAVIYLIK (ruschadan kalka "elegicheskoye", "elegichnost") - badiiylik modusi. E. *idilliyaviylik* va *dramatizm* bilan birgalikda *qahramonlik*, *satira* va *tragizm*, an farqlanuvchi moduslar guruhini tashkil etadi.

EPISTOLYAR ADABIYOT (yun. epistole - maktub, noma) - bировga maktub shaklida yozilgan adabiy yoki publitsistik asarlar

EPITAFIYA (yun. epitaphos - qabrtoshdagi yozuv) - qabrtoshga yozilgan bitik; haqiqatda qabrtoshga bitilgan yoki qabrtoshga bitilmasa-da, to'plamdan joy olgan mo'jaz she'r.

EPOPEYA (yun. epopoia, ya'ni: epos - rivoya, hikoya va poico -yaratmoq, ijod qilmoq) - hajman yirik, asosiga umumxalq ahamiyatiga molik problematika qo'yilgan epik asar.

EPOS (yun. epos - rivoya, hikoya) - 1) badiiy adabiyotning uchta asosiy turidan biri.

EPILOG – xotima

EKSPOZITSIYA – lotinchada “tushuntirish” degani. Voqealar kechgan joy, davrning ijtimoiy manzarasi, muhit, tasvirini anglatadi.

"YANGI ROMAN" - XX asrning 50-yillarida maydonga chiqqan bir qator fransuz yozuvchilari (N.Sarrot, A.Rob Griye va b.)ning roman bobidagi eksperimental izlanishlariga xos xususiyatlarni anglatuvchi shartli

MUNDARIJA

So'zboshi	3
Kirish. Jahon adabiyoti fani obyekti, maqsad va vazifalar	5
Antik davr yunon adabiyoti	8
Attika va ellinizm davri yunon adabiyoti	27
Rim adabiyoti	53
O'рта asrlar Yevropa adabiyoti	79
Uyg'onish davri Yevropa adabiyoti	87
XVII asr G'arbiy Yevropa klassisizm adabiyoti	114
XVIII asr Yevropa ma'rifatchilik adabiyoti	124
XIX asr Yevropa romantizm adabiyoti	150
XIX asr Yevropa tanqidiy realizm adabiyoti	160
XIX asr oxiri – XX asr boshlari Yevropa va Amerika adabiyoti-	176
XX asr Yevropa modernizm adabiyoti	195
Glossariy	222
Mundarija	227

Bosishga ruhsat etildi: 5.05.2018 Ofset qog'oz.
Qog'oz hichimi 84x108 1/16
Times New Roman garniturası. Shartli bosma tabog'i 14 25
Nashr.hisob tabog'i 14. Adadi 10.

«ZAMON POLIGRAF» OK bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri. Yunusobod tumani, Bobodebqon mahallasi 45 uy.

